




R.D. DUSMURATOV

MOLIYA



TOSHKENT-2013

336(07)

D-99

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

R.D. DUSMURATOV

MOLIYA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etgan*

TOSHKENT – 2013

UO'K: 51.007 (075)
KBK 32.973.202ya73
D-20

D-20 R.D. Dusmuratov. Moliya. –T.: «Fan va texnologiya», 2013,
472 bet.

ISBN 978–9943–4261–3–9

Mazkur darslik uchta bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda moliyaning: vujudga kelishi va tovar-pul munosabatlari rivojlanishi sharoitidagi evolutsiyasi; mohiyati va funksiyalari hamda yalpi ichki mahsulotni takror ishlab chiqarishdagi roli; moliyaviy resurslar va ularning shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, moliya tizimi va uning bo'g'inlari; moliyaviy munosabatlar; budjet, budjet tuzumi va budjet tizimi; ijtimoiy ta'minot moliyasi kabilar bayon qilingan.

Ikkinchi bo'lim asosan xo'jalik sub'yektlari moliyasi, xususan, korxonalar moliyasini o'z ichiga oladi. Jumladan, unda agrar korxonalar moliyasining umumiy tavsifi va tashkiliy masalalari; daromadlarni shakllantirish va taqsimlash; pul mablag'lari va hisob-kitoblarni tashkil etish; aylanma kapitalni tashkil etish hamda moliyalashtirish; qisqa muddatli kreditlash; moliyaviy rejalashtirish kabi korxonalar moliyasining muhim masalalari yoritilgan. Shuningdek, fermer xo'jaliklari faoliyatini moliyalashtirish va kreditlashning xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Uchinchi bo'limda moliya tizimining muhim elementi – *uy xo'jaliklari moliyasi*, xususan uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari, daromadlari va xarajatlari hamda boshqa masalalari yoritilgan.

Darslikni tayyorlashda QXA-2-024 «Agrar sohada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida boshqaruv tizimining axborot ta'minoti, auditi, tahlili va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish» mavzusidagi amaliy loyiha hisobotlaridan foydalanildi.

UO'K: 51.007 (075)
KBK 32.973.202ya73

Mas'ul muharrir:

S.SH.Xolmirzayeva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

O.O.Olimjonov – iqtisod fanlari doktori, professor;

T.S.Malikov – iqtisod fanlari doktori, professor;

N.H.Haydarov – iqtisod fanlari doktori, professor.

Nashr mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Kitobdan to'liq'icha yoki qisman ko'chirib yoki tarjima qilib foydalanish mumkin emas.

ISBN 978–9943–4261–3–9

HC 3019

© R.D.Dusmuratov, 2013.

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

KIRISH

«Moliya – bu o‘zbek tilida «xazina» degani».

I.A Karimov

Moliya – maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar¹.

«Moliya» – مالىه so‘zining etimologiyasi arab tiliga mansub bo‘lib, aynan tarjimasi «pul mablag‘lari» degan ma‘noni bildiradi.² Shuningdek, so‘zning o‘zagi «mol» – arabcha مال «boylik», «mul»; «pul jamg‘armasi»³ ma‘nolarini anglatadi.

«Moliya» nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy kategoriya hamdir. U bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lib, tovar-pul munosabatlari, davlatchilikning vujudga kelishi va tadbirkorlik hamda hokimiyat organlarining moliyaviy resurslarga ehtiyojini qondirish zarurati tufayli paydo bo‘lgan.

Moliya fani «Iqtisodiyot nazariyasi», «Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi», «Pul, kredit va banklar» kabi umumiy iqtisodiy fanlarni bilishga asoslanadi. Talabalarning moliya sohasida olgan bilimlari «Soliqlar va soliqa tortish», «Sug‘urta ishi», «Moliyaviy hisob», «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanlarini o‘rganish jarayonida chuqurlashadi hamda mustahkamlanadi.

5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» yo‘nalishining DTSda bakalavrlar tayyorlashga quyidagi talablar qo‘yilgan:

- moliyaning mohiyati, zarurati va funksiyalarini bilish;
- moliya tizimi va uning bo‘g‘inlari faoliyatini o‘rganish;
- O‘zbekiston Respublikasi budjet tuzumi va budjet tizimi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish;
- korxonalar moliyasini tashkil etish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish.

¹ «Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2003.- Б. 61.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. П. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. -Б.611.

³ Shu manba, -B.610.

«Moliya» fanini o'rganish natijasida bakalavrlar quyidagilarni bilishlari va qo'llay olishlari lozim:

- moliyaning iqtisodiy tizimdagi o'rni, moliya kategoriyalarining mazmuni, ularni amaliyotda qo'llash, hozirgi moliya-budjet tizimi va uning muammolarini;

- moliya sohasidagi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, moliyaviy munosabatlar rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, moliya mexanizmini qo'llashdagi muammoli vaziyatlarni;

- moliyani barqarorlashtirish, pul muomalasini mustahkamlash, budjet tizimining defitsitini bartaraf qilish va budjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish bilan bog'liq aniq masalalarni;

- o'quv rejasiga muvofiq, o'rganiladigan boshqa umumiy iqtisodiy va mutaxassislik fanlari bilan o'zaro bog'liqligi, moliyaning evolutsiyasi, uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini;

- korxonalar moliyasini tashkil etish, rejalashtirish, moliyaviy prognozlash, moliyaviy nazorat usullarini;

- uy xo'jaliklari moliyasi to'g'risida tassavurga ega bo'lish.

Moliya fanini o'rganishning pirovard maqsadi—bo'lg'usi bakalavrlarda nazariy bilimlarni va moliya sohasida amaliy ish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu o'z navbatida insoniyat faoliyatining ushbu sohasida professionallikning o'sishiga, davlat moliyasi va korporativ moliyaning mustahkamlanishi hamda ularning yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Oliy ta'limning 230000 – «Iqtisod» bilim sohasi 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavr yo'nalishining DTS va namunaviy o'quv rejasida «Moliya» fani ko'zda tutilgan. Darslik mazkur fanning namunaviy dasturiga muvofiq yozilganligi bois, unda moliya-budjet siyosati va budjet jarayoni; budjetni prognozlash, budjet loyihalarini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash; budjet ijrosi, uni nazorat va tahlil qilish kabi davlat moliyasining ayrim masalalariga batafsil to'xtalmadik.

Undan bakalavriyatning boshqa yondash yo'nalishlari, jumladan, 5230100 – «Iqtisodiyot» (qishloq xo'jaligi), 5230400 – «Marketing», (qishloq xo'jaligi) 5420100 – «Fermer xo'jaliklarini boshqarish» va boshqa yo'nalishlar talabalari, tegishli mutaxassisliklar magistrantlari va ilmiy xodimlar ham foydalanishlari mumkin. Shuningdek, agrar korxonalar iqtisodchilari va moliya -- hisob markazi mutaxassislariga amaliy ish jarayonida yordam beradi.

* * *

Har qanday kitobni hech kim, hech qachon yolg'iz bitta o'zi yozmaydi. Mazkur darslik ham istisno emas. Uning yozilishi jarayonida ko'plab ilmiy, o'quv-uslubiy, me'yoriy-huquqiy manbalar, statistik to'plamlar va bevosita amaliyot materiallaridan foydalanildi. Juda ko'p iqtisodchi olimlar, tajribali hamkasblarimiz va amaliyotchilar o'zlarining qimmatli fikr-mulohazalari hamda xayrixohliklarini bildirganliklari bois, ularning har biriga alohida yozma ravishda minnatdorchilik bildirishimiz qiyin, albatta.

Lekin, moliya sohasining yetakchi olimlari: i.f.d., professor O.O.Olimjonov; i.f.d., professor T.S.Malikov; i.f.d., professor N.H.Haydarov hamda i.f.d., professor O.K.Iminovlarning kitob qo'lyozmasini bir necha marta o'qib, mazmun va shaklini yaxshilash borasida bergan maslahatlarini e'tirof etish zarur.

Shuningdek, agrar soha korxonalari moliyasining o'ziga xos jihatlarini yoritish bo'yicha bergan yordamlari uchun i.f.d., professor N.S.Xushmatov, ustozimiz, moliya sohasi bo'yicha tajribali o'qituvchi J.M.Yo'ldoshevga va tahririy kamchiliklarni tugatishda bergan yordamlari uchun filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Sh.Xolmirzayevalarga alohida minnatdorchilik izhor etamiz.

Darslikning V va IX boblari katta ilmiy xodim izlanuvchi U.H.O'rmonova hamda VI va VII boblari mustaqil tadqiqotchi M. E.Bekayevalar bilan hamkorlikda yozildi.

Darslik kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin, uni keyingi nashrlarda mazmunan va shaklan takomillashtirish bo'yicha bildiriladigan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Muallif

I BO'LIM. MOLIYANING NAZARIY ASOSLARI

I bob. MOLIYANING VUJUDGA KELISHI, MOHIYATI VA IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI

1.1. Moliyaning vujudga kelishi va tovar-pul munosabatlari rivojlanishi jarayonidagi evolutsiyasi

Bozor munosabatlari sharoitida «moliya» tushunchasi juda ko'p ishlatiladi. Jumladan, davlat moliyasi, korxonalar moliyasi, moliya bozorlari, moliyaviy resurslar, moliyaviy faoliyat, moliyaviy aktivlar, moliyaviy menejment, moliya siyosati va h.

Xo'sh, iqtisodiy kategoriya sifatida «moliya» o'zi nima? Hozirgi vaqtgacha jahon iqtisodiyot ilmidagi ushbu atamaning umumiy turof etilgan ta'rif shakllanmagan. Ayrimlar uni o'rta asrlarda «finatio, financia, financia pecuncaria» atamalar bilan bog'laydi. XIII–XIV asrlarda ushbu atamalar «majburiy pul to'lovi», «pul-qarz majburiyati» ma'nolarida ishlatilgan.

Faqat XVI asrga kelib, Fransiyada bu atama «davlat daromadlari», «pul summalari» ma'nolarida ishlatila boshlangan. Bu atama ko'plikda (les finances) butun davlat mulki va hukumat xo'jaligining mablag'i ma'nolarini bildiradi. Balki, aynan shu sababdan, Fransiyada XVIII asrda moliya mustaqil fan sifatida shakllangan.

Boshqa barcha Yevropa mamlakatlarida moliyaga oid dastlabki bilimlar negizida xazinani lozim darajada boshqarishni tadqiq qiladigan – *kameral fanlar*⁴ tarkibiga kirgan. Frank qirollari davrida davlat boshlig'ining xususiy mulklari saqlanadigan xona kameral deb atalgan. Aynan shuning uchun keyinchalik davlat (kameral) mulklarini tasarruf etadigan idora (muassasa) Kammerguter deb nomlangan boshlagan⁵.

«Moliya» tushunchasi rivojlanishining tarixiy jihatlari o'rganishda ko'pchilik nazariyachilar yagona fikrda bo'lib, u davlatchilikning vujudga kelishi bilan bog'liq va tovar-pul munosabatlarining ko'p asrlik taraqqiyoti jarayonida paydo bo'lgan, deb ta'kidlaydilar.

⁴ Kameral fanlar (kameralistika) ma'muriy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqa ayrim bilimlar majmuyi. Sловарь иностранных слов. Под ред. И. В. Лехина и проф. Ф. Н. Петрова Москва - 1955, - С. 296.

⁵ Финансы. Под ред. академика Г. Б. Поляка, Москва, «ЮНИТИ», 2004, - С. 8.

Darhaqiqat, moliya kategoriya sifatida davlatchilikning vujudga kelishi, uning funksiyalarini ta'minlash bilan bog'liq. Davlatning paydo bo'lishi iqtisodiyotda uzoq tarixga ega bo'lib, bunda amaliyot deyarli har doim nazariyadan ilgarilab ketgan. Yevropada o'rta asrlar oxiri yoki kapitalizmning ilk davrlarida tovar va xizmatlar baholari, sifati, foiz stavkalari va tashqi savdo ustidan markazlashgan nazoratning ibtidoiy shakllari mavjud bo'lgan.

Merkantilistlar⁶ Vilyam Stafford va Tomas Men – me'yoriy iqtisodiyotning asoschilari XVII asrda faqat hukumat tomonidan sinchkov rahbarlikka xo'jalik tartiboti va ijtimoiy adolatni ta'minlay oladi, deb yozganlar. Merkantilistlar ta'kidlashicha, o'z tovarlarini chetga chiqarish va o'z boylklari pul shaklida ko'payganida inportni taqirlash yoki qisqartirish zarur.

G'arbiy Yevropada kapitalizmning taraqqiyoti merkantelistlarning ko'plab ta'limotlari inkor qilinishiga olib keldi. XIII asrga kelib klassik siyosiy iqtisodning rivojlanishi natijasida davlatning xo'jalik faoliyatiga aralashuvi cheklanib, albatta, o'zining tarixiy isbotini topgan. Chunki bu vaqtga kelib bozor va tanlash erkinligi iqtisodiyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti va tanlash erkinligi iqtisodiy ma'noda ikkita asosiy masalani nazarda tutadi: qonun bilan himoyalangan xususiy mulkchilik va qaror qabul qilish erkinligi. XVII–XIX asrlarda davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli asosan ushbu huquqlarni himoyalash bilan cheklangan. «Davlat xususiy mulkning tungi soqchisiga aylangan»⁷.

Boshqacha aytganda, davlatning iqtisodiy hayotdagi ahamiyati doimo o'zgarib turgani bilan, lekin uning aralashuvi zarurat bo'lgan. Aynan shuning uchun davlatchilikning butun shakllanishi va rivojlanishi jarayonida jamiyat (aholi) davlat daromadlarini shakllantirish orqali uning ehtiyojini qondirgan. Buning zamonaviy shakli – soliqlar, avval natural, keyinchalik esapul shaklida yuzaga kelgan.

Quldorlik va feodal tuzumida davlat daromadlari urush xarajatlari, hukmdorlar ehtiyoji, davlat apparatini saqlash, jamoat inshootlarini qurish kabilar uchun ishlatilgan.

⁶[Фр. Mercantilisme< итал. mercante-савдогар]15-18-асрларда иқтисодий тафаккур тарихида, иқтимоий бойлик асоси, даромад ишлаб чиқаришни ривожлантиришда эмас, балки пулда, пул жамғариш ва четта кўпроқ мол чиқариб сотишда, пул жамғармаларига давлат ҳокимияти ёрдамида эришилади, деган иқтисодий таълимот ва сиёсат. Ўзбек тилининг изохли лугати. Иккинчи жилд. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти-2006 й. -Б. 580.

⁷Финансы. Под ред. академика Г.Б.Поляка, Москва, «ЮНИТИ», 2004, -С. 8.

Shu o'rinda moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida o'zbek davlatchiligi o'tmishidagi ayrim tarixiy tafsilotlariga ham to'xtalib o'tsak.

Birinchidan, moliya yoxud davlat foydasiga natural to'lovlar yoki yig'imlar ko'rinishida, yoxud davlatni ijtimoiy institut sifatida saqlash uchun soliq to'lovlari sifatida shakllangan. Professor Z.Muqimov ma'lumotlariga ko'ra Amir Temur davlatida: «Ko'p ming sonli armiya va boshqaruv apparatini moliyaviy ta'minlashning asosiy yo'li turli soliqlar yig'ishdan iborat edi. Temur saltanatida davlatni boshqarish uchun ketadigan asosiy xarajatlar aholidan olinadigan mol-jihot, naqd pul va mahsulot bilan to'planadigan soliq – xiroj, sovarin (peshkash) – oliy martabali shaxslarga qilinadigan tortiq, qo'nalg'a – chopar va elchilarga, mir va mingboshilarga safar vaqtida tunash uchun borib qo'ngan, tushgan joy aholisidan olinadigan soliq, savdogarlardan undiriladigan bojshilon puli, podsho va oliy mansabdorlarning ovqati uchun yig'iladigan soliq kabi turlari mavjud edi»⁸. Bevosita *«Temur tuzuklari»*da esa moliyaning muhim elementi sifatida soliqlarni tartibga keltirish to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud. Jumladan, *«Raiyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi xavfsizligini amalga oshiruvchi kishilar tuziki»*da shunday deyilgan: *«Yana har o'lkaga uch vazir tayinlashlarini buyurdim. Bularidan biri raiyat uchun (bo'lib), undan yig'iladigan oliq-soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq-soliq miqdori, soliq to'lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig'ilgan mablag'ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqarsin. Sipohga berilgan va berilishi lozim bo'lgan mablag' hisobini olib borsin. Uchinchi vazir esa daraksiz yo'qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo'l bilan yig'ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulkni, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin»*⁹. Demak, moliya yordamida jamiyatda davlatning daromadlari



⁸ Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Олий ўқу юртлири талабалари учун дарслик. –Т.: «Адолат», 2003. –Б.160-161.

⁹ Темур тузуклари. Тахрир хайъати: Б. Абдухалимов ва бошқ. Форсча матндан А. Соғуний ва Х.Кароматов тарж. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2011. –Б.146.

va xarajatlari amalga oshirilgan. Davlatning ijtimoiy hayotda ishtirok etish sohasi o'zgargan (xarajatlar tabaqalashtirilgan), davlat tomonidan o'zlashtiriladigan daromadlar ulushi ko'payib yoki kamayib turgan. Ammo, xo'jalik hayotidagi hodisa sifatida davlat, shu bilan birga, ushbu institutni saqlash usuli sifatida moliya ham saqlanib qolgan.

Ikkinchidan, jamiyat daromadlarini davlat foydasiga qayta taqsimlash, qoidaga ko'ra, ma'muriy, aniqrog'i majburiy tartibda amalga oshirilgan. Davlatni ta'minlashning bunday usuli faqat uning jamiyat uchun zarurligi bilan bog'liq. Shunday qilib, jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi va o'z funksiyalarini bajarishiga imkon yaratadigan mexanizmlar shakllangan.

Darhaqiqat, har qanday jamiyatning, milliy xo'jalikning normal rivojlanishi uchun uning barcha a'zolari tomonidan ma'lum umume'tirof etilgan qoidalarga rioya qilinishi zarur. Bu har xil xatti-harakatlar iqtisodiy tanazzulga olib kelmasligi, aksincha, butun iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi farovonligining yuksalishini ta'minlaydigan iqtisodiy jarayonlarning mantiqiy majmuini tashkil etadi. Ushbu qoidalar tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan va rivojlangan, iqtisodiy tizimning bosh maqsadiga muvofiq, umumqabul qilingan amaliyot natijasida yoki ma'muriy tartibda qaror topadi. Aynan davlatning o'zi, avval boshidan bunday o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmini qo'llab-quvvatlab kelgan. Iqtisodiy rag'batlantirish va jazolash yordamida esa barcha fuqarolar talab qilingan tartib-qoidalarga rioya qilishga majburlangan.

Fikrimizni dalillash uchun yana «*Temur tuzuklari*»ga murojaat qilish joizdir. Bu haqda nomi yuqorida zikr etilgan tuzukda quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: «*Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihat olinmasin. Hosil yetilishiga qarab, soliqni uchga bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'plovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda soliqchini yuborishga majbur bo'lsalar, soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar; kaltak ishlatib, ishni urish-so'kishga olib bormasinlar. Ularni bog'lab, zanjir bilan kishanlamasinlar.*

Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z

roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili [esa oliq-soliq] qonun qoidasiga muvofiq xiroj yig'sinlar»¹⁰.

Tovar-pul munosabatlari rivojlangani sari, davlatning pul daromadlari va xarajatlari katta ahamiyat kasb eta borib, natural yig'imlar va to'lovlar ulushi keskin qisqargan. Aynan, jamiyat (aholi) daromadlari hisobidan davlat daromadlari va xarajatlarining shakllantirilishi moliyaning vujudga kelishi bilan tarixan bog'liq. Davlatchilik rivojlanishining dastlabki bosqichlarida davlat resurslari va davlat rahbarlarining resurslari o'rtasida tafovut bo'lmasdan, hukmdorlar mamlakat mablag'larini xuddi o'z mablag'laridek tasarruf etganlar. Hukmdor xazinasini va mulkidan davlat xazinasining ajralib chiqishi bilan «davlat moliyasi», «davlat budjeti», «davlat krediti» tushunchalari vujudga kelgan (XVI – XVII asrlar).

Transaksiyon xarajatlar¹¹ nazariyasining zamonaviy vakillari ushbu fikrni quyidagicha aniqlashtirgan: jamiyat u yoki bu ijtimoiy institutsiz ham faoliyat ko'rsatishi mumkin, ammo bunday faoliyat ko'rsatish xarajatlari, ushbu institut uchun qilingan xarajatlarga qaraganda ancha ko'p bo'lar edi. Davlat jamiyat uchun ajralmas funksiyalarni o'zining tarixiy taraqqiyoti yo'lida bajarib kelgan. Chunki u bu vazifalarni ancha samarali va boshqa institutlarga qaraganda kamxarj bajaradi. Boshqacha aytganda, agar davlat o'rniga jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan boshqa xususiy institut vujudga kelganida, uni saqlash uchun milliy daromadning ko'proq qismi sarflangan bo'lar edi.

Masalan, pul belgilarini chiqarish bilan faqatgina mamlakatning Markaziy banki shug'ullana oladimi? Xususiy tijorat banki ham bu ishni bajarishi mumkin. Ammo, bu vaziyatda kimlarning manfaati ustuvor bo'ladi: butun jamiyatning yoki mazkur bank mulkdorlari va menejerlarining xususiy manfaatlarimi? Qarz beruvchilarning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlarini bajarishi ustidan markazlashgan nazorat o'rnatish zarurmi? Albatta zarur. Buni kimga topshirish kerak? Davlat organlari yoki xususiy strukturalargami? Kim jamiyat manfaatlarini samaraliroq himoya qiladi: davlat yoki xususiy agentlik? Albatta davlat!

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: «Moliya – bu o'zbek tilida «xazina» degani. Xazinaning o'zi nima? Davlatning

¹⁰ Temur yuzuklari, /Taxir xayfati: B. Abdullayev va boshq. Forscha matnidan A. Soqunij va X. Karomatov tarj. – Toshkent: «Uzbekiston», 2011. – B.144-145.

¹¹ Transaksiyon xarajatlari ishlab chiqarish va muomala sohasidagi asosiy xarajatlardan oshiqcha operation sarflar; bilvosita xarajatlari. Финансовый словарь / Благодатин А. А., Лазовский Л. Ш., Райзберг Б. А. – М.: ИНФРА-М, 1999. – С. 252.

xazinasini, uning daromad va buromadini, bugungi va ertangi kunini belgilaydigan boylik...»¹².

Moliya yordamida nafaqat jamiyat daromadlarini davlat foydasiga qayta taqsimlash, balki ularni samaraliroq ishlatish ham amalga oshiriladi. Davlat esa xo'jalik faoliyatining samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi. Demak, uy xo'jaliklari va korxonalar o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishsa, mos ravishda davlat ham o'z funksiyalarini amalga oshiradi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlar quyidagi xulosalarga olib keladi:

- moliya jamiyat uchun zarur bo'lgan institut – *davlatning* faoliyatini ta'minlash mexanizmi sifatida tarixan vujudga kelgan. Chunki u butun jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga yordam beradi;
- xo'jalik faoliyatida moliya ilk bora, bir tomondan uy xo'jaliklari va ishlab chiqaruvchilar va ikkinchi tomondan, davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar shaklida yuzaga kelgan. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar pul daromadlarining bir qismi davlat foydasiga qayta taqsimlangan va shu tarzda shakllangan pul fondlari tasarruf etilgan.

Demak, aynan davlatning o'zi moliyaning ham pozitiv, ham normativ nazariyasi ustiga qurilgan.

Moliya XVIII asrda vujudga kelib, unga pulning tez transformatsiyalanishi jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, pul ular funksiyalarining, milliy xo'jalikdagi kabi, xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ham muomalada bo'lish shakllari va mexanizmlarining o'zgarishi moliyaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Keyinchalik pul, mamlakat milliy daromadini davlat foydasiga qayta taqsimlashni amalga oshiradigan vosita bo'la turib, zamonaviy moliya nazariyasining asosini tashkil etgan. Bugungi kunda pulning eng umumiy va to'liq ta'rifi sifatida g'arbda «pul – bu jamiyat pul deb tan oladigan narsa» degan nazariya e'tirof etiladi. Endi pul bilan bevosita bog'liq bo'lgan moliya kategoriyasiga barcha uchun ma'qul bo'ladigan ta'rif berish nima sababdan murakkab ekanligi oydinlashmoqda.

Dastavval pul moddiy boyliklar oldisotdisini amalga oshiradigan vosita bo'lib, passiv rol o'ynagan (tovarpultovar). Tovarlar va xizmatlar xususiy biznes yoki davlat tomonidan ishlab chiqarilganligi va taklif qilinganligidan qat'i nazar, pul ularning harakatini tegishli tarzda kuzatib borgan.

¹² Карпов И.А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва мoliyaviy барқарорлик тўғрисида. –Т.: «Ўзбекистон» нашриёти. 2005 йил, -Б. 516.

Tovar ayirboshlash ekvivalentlik bilan bog'liq bo'lib, bu vazifani pul bajargan. Moliyaga keladigan bo'lsak, u davlat bilan ayirboshlash chog'ida vositachi sifatida pulning hosilasi sifatida vujudga kelgan. Lekin, bu holda ayirboshlash oddiy hamkor bilan emas, balki davlat bilan vujudga keladi, demak, ekvivalent oddiy puldan nima bilandir farq qilishi lozim.

Pullik iqtisodiyotda (tovarlar bevosita tovarlarga almashtiriladigan, barter operatsiyasiga teskari) pul vositachi sifatida ayirboshlashda tovar shaklida yuzaga kelgan. Ayirboshlashda ekvivalentlar sifatida – tovar pullarhar xil predmetlar: chorva moli, metall, qimmatbaho toshlar va h. iqtisodiy agentlar o'rtasidagi ayirboshlashda kumush va oltin an'anaviy ekvivalentga aylangan.

Tovar pullar kumush va oltinga o'xshab ichki qiymatini yo'qotgani sayin ular o'rnini ayirboshlash uchun eng qulay vosita – qog'oz pullar egallay boshlagan. Bunday shaklda ular pul uchun emas, balki ularga buyumlar va xizmatlar sotib olish uchun kerak. Boshqacha aytganda, hozircha odamlar qog'oz pul bilan o'z majburiyatlarini to'lar ekan, qog'oz pullar to'lov vositasi sifatida qabul qilinar ekan, ular pul funksiyalarini bajaradilar.

Pulning funksiyalaridan biri – *to'lov vositasi* bo'lishi moliyaning vujudga kelishi bilan bog'liq. Agar *muomala vositasida* pul – bu pul va tovarlarning qarama-qarshi harakatlanishida bir zumdagi vosita bo'lsa, to'lov vositasi funksiyasi tovar va pul makonda ham, zamonda ham harakatlanishi mos kelmaganida ham ro'yobga chiqishi mumkin. Boshqacha aytganda, iqtisodiy agentlar o'rtasidagi oldi-sotdilar doirasi kengayib, ulardan tovarlarni sotish yoki pul summasini taqdim etish mos ravishda pul yoki tovar bilan qarama-qarshi harakat sodir bo'lmaydi.

Bunday ahdlashuvlar, qoidaga ko'ra, davlat bilan tuziladi. Davlat majburiyatlari jamiyatda ma'lum funksiyalarni bajaradi – masalan, mamlakat hududida tartibni saqlash, temiryo'l, mehribonlik uylari yoki nogironlar uchun reabilitatsiya markazlari qurishni ta'minlash. Bu ishlar davlat foydasiga soliqlar va to'lovlar shaklida qayta taqsimlanadigan, jamiyat pul daromadlarining bir qismi hisoblanadi. Bu holda jamoa bo'lib ayirboshlash predmeti – davlatning jamiyat oldidagi ma'lum funksiyalarni bajarish majburiyati - har bir soliq to'lovchi uchun foydaliligini ma'lum bir ko'rsatkichlarda baholash qiyin. Jamiyat a'zolarining bir qismi avtomobilga ega bo'lmaganligi sababli qurilgan yo'llardan umuman foydalanmasligi mumkin. Bunda pullar va moddiy boyliklar harakatida uzilish vujudga keladi. Bunday ayirboshlash

shartnomasi natijasida davlatning aholi pul ekvivalenti (soliq)ga majburiyati bir korxonada daromadlarini boshqasining foydasiga qayta taqsimlash samarasi vujudga keladi. Chunki davlat nafaqat o'z daromadlarini shakllantiradi, balki ularni sarflaydi ham. Moddiy boyliklarni pulga ekvivalent ayirboshlanmaydigan, shartnomadagi bunday pul vositachiligining o'zi moliyaga taalluqlidir. Bu holda moliya pul instrumenti sifatida namoyon bo'lib, uning yordamida davlat majburiyatlarining fuqarolar pul daromadlariga ayirboshlanishi (soliq) amalga oshiriladi. Bunda moliyaning puldan farqi makonda va zamonda ekvivalentlikning ishtirok etmasligidan iborat.

Bunday vaziyat eng yaqqol ko'rinishda fuqarolar va davlatning o'zaro munosabatlarida vujudga kelgan. Shuning uchun ham moliya azaldan davlat faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq, lekin hozirgi moliya bozorlari va xususan, ularning moliyaviy instrumentlar hosilalari segmenti ayirboshlash ahdlashuvlari natijasida hamkorlarning daromadlarini qayta taqsimlashga o'xshash bo'lib, uning predmeti spekulatsiya maqsadini ko'zlagan ishtirokchilarning nomoddiy majburiyatlari hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hozirgi iqtisodiyotda hamkorlar o'rta-sidagi noekvivalent ayirboshlashlar soni ko'payib bormoqda, demak, bir iqtisodiy agentlarning daromadlarini boshqalarining foydasiga qayta taqsimlaydigan moliyaviy mexanizmlar keng qo'llanilmoqda.

Konstitutsion iqtisodiyot asoschisi J. Bukenen davlat xarajatlarini davlatning biron-bir xizmatlari uchun pulga – fuqarolar va kompaniyalarning soliq to'lovlariga ayirboshlashi sifatida o'rganishni taklif qilishi tasodif emas. Unda soliq to'lovlarining davlat tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy ne'matlar bilan ekvivalentligi (noekvivalentligi)ni aniq baholashning imkoni yo'q. Aynan shu holda, moliyaning jamiyat daromadlarini nafaqat davlat foydasiga, balki istalgan iqtisodiy agent foydasiga, davlatniki kabi shartlar asosida, qayta taqsimlash mexanizmi sifatida faoliyat ko'rsatishini taqozo etadigan, fenomen vujudga keladi.

XX–XXI asr bo'sag'asida tovar bozorlari va ishlab chiqarish omillari bozorlari o'rmini pul fondlari – (muomalada bo'lishi noaniqliklar va risklar sharoitida qarz majburiyatlarida mujassamlashadigan moliyaviy aktivlar) bozori egallay boshladi. Bu moliya nazariyasining uchinchi «kit»i – zamonaviy moliyaning qarz mohiyati to'g'risida so'z yuritishga imkon beradi. Uning faoliyat ko'rsatishi vaqt va risk omili bilan bog'liq bo'lib, moliyaviy munosabatlarning subyektivlashuviga olib keldi. Natijada, moliyaviy munosabatlarda

davlatdan tashqari, oddiy xo'jalik subyektlari – uy xo'jaliklari, korxonalar va tashkilotlar ham ishtirok eta boshlaydi.

Bayon qilinganlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

- moliyaning barpo bo'lishi davlatning xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida shakllanishi va rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Davlatning faoliyat ko'rsatishi milliy daromadning bir qismini o'z foydasiga qayta taqsimlash yo'li bilan jamiyat boshqaruvini ta'minlaydi;

- moliya pulning va pul vositasida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida amalga oshiriladigan munosabatlarning rivojlanishiga bevosita bog'liq;

- moliyaning milliy iqtisodiyotdagi rolini tushunish uchun pul bozorlarining rivojlanish qonuniyatlari alohida ahamiyatga ega. Mazkur bozorda inson tafakkuri pul oqimlarini real dunyodan internetga olib chiqadigan maxsus instrumentlar va innovatsiyalarni ishlab chiqadi hamda joriy etadi.

Shunday qilib, moliya makroiqtisodiy nazariyaning maxsus bo'limi sifatida rivojlana borib, avval *davlat moliyasi*, keyinchalik esa *korxonalar moliyasi* va *uy xo'jaligi moliyasi*, pirovard natijada makroiqtisodiy nazariyadan moliya nazariyasi sifatida ajralib chiqish uchun farq qiluvchi belgilarni o'zida mujassamlashtirgan.

1.2. Moliyaning mohiyati va funksiyalari

Moliya – bu asosiy xo'jalik yurituvchi subyektlar – korxonalar, uy xo'jaliklari va davlat o'rtasida aksariyat pul shaklida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar.

Ushbu munosabatlar quyidagi hollarda vujudga kelishi mumkin:

- jamiyat daromadlarini xo'jalik yurituvchi subyektlardan birortasining foydasiga qayta taqsimlashda;

- davlatning jamiyat uchun zarur bo'lgan funksiyalarini mos ravishda bajarishini ta'minlash uchun;

- mavhumlik va tavakkalchilik sharoitida qarz majburiyatlari asosida noekvivalent ayirboshlash jarayonida.

Yuqorida xulosa qilganimizdek, davlatning faoliyat ko'rsatishini ta'minlov-chi moliya *davlat moliyasi* deb ataladi. Jamiyat daromadlarini uy xo'jaliklari va korxonalar foydasiga qayta taqsimlashda mos ravishda *uy xo'jaliklari moliyasi* va *tijorat korxonalar moliyasi* vujudga keladi.

Yaqqol bo'lishi uchun milliy iqtisodiyotni – markaz–davlat va o'zaro aloqadorlikda shakllangan struktura, xo'jalik subyektlari (ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, moliyaviy vositachilar) elementlar tizimi ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Ushbu aloqalar ekvivalent oldi-sotdilar moddiy aktivlarning harakati pul orqali amalga oshiriladi. Bunday oldi-sotdilar natijasida jamiyat daromadlarini subyektlarning birortasi foydasiga boshqasi hisobidan qayta taqsimlash sodir bo'lmaydi, demak, bunday qayta taqsimlash mexanizmi sifatida moliya ham vujudga kelmaydi. Xo'jalik subyektlari o'rtasida o'zaro moliyaviy aloqalar pulning moddiy yoki pul aktivlari ko'rinishidagi ekvivalentsiz harakatida faqat tomonlardan birortasining majburiyatlari asosida vujudga keladi. Masalan, aholi va korxonada davlatga soliqlarni pul shaklida davlatning o'z funksiyalarini bajarish majburiyatlari evaziga to'laydi. Bunday ahdlashuvlar natijasida jamiyat daromadini ahdlashuv ishtirokchilaridan bittasining foydasiga qayta taqsimlash sodir bo'ladi.

Moliya – bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlat bilan birgalikdagi pul munosabatlari bo'lib, ular natijasida jamiyat daromadi, o'z bitta subyekt qo'lida ko'paygan holda, ushbu qismini boshqasidan (noekvivalent) undirish hisobiga, o'z strukturasi o'zgartiradi.

Agar aktivlarning shakli xo'jalik subyektlari o'rtasidagi ekvivalentli ayirboshlashda pul shaklidan tovar shakliga o'zgarsa, bu munosabatlar pul bilan bog'liq bo'lganligi bois, ularni moliyaviy munosabatlar qatoriga kiritish ehtimoldan xolidir.

Hozirgi moliya bozorlarining to'rtidan uch qismi spekulativ operatsiyalarni amalga oshirib, ularda bittasining pul yutug'i boshqasining yutqazishi hisobiga vujudga keladi va ularni moliya bozori deb atash to'liq o'zini oqlagan. Jamiyatning bir qismini boshqasi hisobiga saqlashni ta'minlaydigan moliya mexanizmi shunday ishga tushadi. Farq shundaki, davlat bilan soliq to'lovlari borasidagi munosabatlar majburiy bo'lib, qimmatli qog'ozlar hosilalari bozorida spekulatsiya qilinganida esa bu munosabatlar ixtiyoriy ravishda vujudga keladi.

Boshqacha aytganda, moliya jamiyat daromadlarini uning bitta a'zosi foydasiga boshqasi hisobidan noekvivalent qayta taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Bu qayta taqsimlangan daromadning tegishli qismini oluvchi agent tomonidan jamiyat uchun zarur bo'lgan funksiyalarni bajarishi uchun zarur. Bunday ijtimoiy institutni moliyaviy qo'llabquvvatlash mexanizmi bo'lmasa, jamiyat faoliyatining samarasi kamroq bo'lar edi.

Agar moliyaning mohiyatini ko'plab jihatlari bo'yicha ifodalash mumkin bo'lsa, u moliyaning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

Bu qanday sodir bo'ladi degan savolga javob beruvchi, *pozitiv moliya nazariyasi*; qanday bo'lishi lozim degan savolga javob beruvchi, *normativ moliya nazariyasi* mavjud. Pozitiv moliya nazariyasi doirasida:

- jamiyat daromadi xo'jalik yurituvchi subyektlardan birining foydasiga boshqasi hisobidan qayta taqsimlanadi;

- davlatning yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul fondlari shakllanishiga yordam beradi;

- tegishli xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan jamiyat uchun zarur bo'lgan funksiyalarni bajarish ta'minlanadi.

Aytish mumkinki, xo'jalik faoliyati yordamida moliya faqat jamiyatning bir maromda rivojlanishini ta'minlaydigan, ijtimoiy institutlarni saqlashga yordam beradi.

Normativ nazariya moliya funksiyalari pozitsiyasidan, uning yordamida davlatning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan mexanizm hisoblanadi. Bu holda moliyaning mohiyati quyidagi funksiyalarda namoyon bo'ladi:

- *qayta taqsimlash funksiyasi* – jamiyat milliy daromadining strukturasi o'zgartiradi;

- *tartibga solish funksiyasi* – jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichida qo'yilgan maqsadga erishish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarni rag'batlantiradi;

- *nazorat funksiyasi* – pul mablag'larini qayta taqsimlash parametrlarini o'zgartirish maqsadida qayta taqsimlangan pul mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash va taqqoslashni amalga oshiradi.

Moliyaning normativ nazariyasiga muvofiq, agar davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimga aralashuvi zarur bo'lib, bundan butun jamiyat manfaatdor bo'lsa, u holda davlat zimmasiga yuklatilgan funksiyalarni ta'minlash uchun yetarli pul mablag'larini uning foydasiga qayta taqsimlash mexanizmini shakllantirish obyektiv zarurat hisoblanadi. Shu munosabat bilan, quyidagi savollar yuzaga keladi: iqtisodiyot samarali bo'lishi uchun davlatga qancha mablag' ajratish lozim; bu xo'jalik yurituvchi subyektlar manfaatlariga qanday ta'sir ko'rsatadi; davlat xarajatlari samaradorligini baholashning qanday ko'rsatkichlari tanlanadi va ular kim tomonidan muvofiqlashtiriladi; milliy xo'jalik tizimida aylanadigan pul mablag'larini boshqarishda davlatning

byurokratik tuzilmalari va korporativ menejment (umuman olganda esa bozor va davlat) o'rtasida maqbullikka qanday erishiladi va h.

Jamiyatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning yarmidan ko'pi joriy baholarda har yili moliya yordamida davlat foydasiga qayta taqsimlanadi. Ulardan samarali foydalanish esa mos ravishda jamiyatning rivojlanishi, aholi va korxonalar daromadlarining o'zgarishini ta'minlaydi. Mamlakatda real daromadlarning qisqarishi davlatning samarasizligi, moliyaning jamiyat daromadlarini davlat institutlari foydasiga qayta taqsimlash mexanizmi sifatida layoqatsizligidan dalolat beradi. Bu holda moliyadan jamiyat daromadlarini xususiy biznes yoki uy xo'jaliklariga qayta taqsimlash uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Davlat yoki bozorning «barbod bo'lish» nazariyasining o'zi davlat va nodavlat sektori o'rtasida taqsimlanadigan jamiyat daromadining maqbul miqdorini har bir mazkur vaziyat uchun haqiqiy qayd qiladigan moliya tufayli muhimdir. Ulardan har biriga o'z samaradorligining raqobatli isboti moliyaning qayta taqsimlash mexanizmi sifatidagi layoqati to'g'risida guvohlik beradi.

1.3. Yalpi ichki mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayonida moliyaning roli

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon hamjamiyatida e'tirof etilgan «O'zbek modeli» tufayli MDHning ko'pchilik mamlakatlaridan farqli, O'zbekistonda ishlab chiqarishning ommaviy ravishda pasayib ketishi, aholi turmush darajasining pasayishi, tashqi va ichki davlat qarzlarning haddan tashqari oshib ketishining oldi olindi. 1991–1995- yillarda O'zbekistonda YAIM pasayishi MDH davlatlari orasida eng kam darajada bo'lgan va 18,8 % ni tashkil etgan. Shu davrda ushbu ko'rsatkich Rossiyada 53 %, Ukrainada 52 %, Belorussiyada 54 %, Qozog'istonda 74,5 % bo'lgan.

1997–2003-yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti bir tekis sur'atlarda 3,8-5,2% darajada rivojlangan. 2004-yildan boshlab, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida Respublika iqtisodiyotida yilda 7-9% darajada yuqori va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishildi. 2010-yilda 1990-yilga nisbatan xarid qobiliyati pariteti bo'yicha YAIM hajmi 27,1 mlrd. dollardan 92,3 mlrd. dollargacha, ya'ni 3,4 marta ko'paygan.

Gr 3019

17
MOLIYA TIZIMI

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarining, balki iqtisodiyot tuzulmasida muhim sifat o'zgarishlari o'sishini ham ta'minladi. Xususan, 2000–2010-yillarda amalga oshirilgan tuzulmaviy o'zgarishlar natijasida mamlakat YAIMda qishloq xo'jaligining ulushi 30,1% dan 17,5% ga pasaygan, sanoat ulushi 14,2% dan 24,0% ga, xizmatlar ulushi esa 37 % dan 49% ga o'sgan (1.1-jadval).

O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari¹³

1.1-jadval

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	1990 yil	2000 yil	2010 yil	1990 y. ga n-n % larda	
					2000 yil	2010 yil
Yalpi ichki mahsulot (xarid qobiliyati bo'yicha)	mln. doll.	27106	35277	92326	1,3m.	3,4m.
Sanoatning YAIMdagi ulushi	%	17,6 ¹	14,2	24,0	X	x
Qishloq xo'jalik mahsuloti	mlrd. so'm	11,1 ²	1387	15811	100,6	182,9
Qishloq xo'jaligining YAIMdagi ulushi	%	33,4	30,1	17,5	X	x
Qurilish ishlari	mlrd. so'm	4,2 ²	388,4	8245,8	86,9	2,3m.
Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd. so'm	19,8 ²	1788	21873	99,2	2,8m.
Xizmatlarning YAIMdagi ulushi	%	33,8	37,0	49,0	X	x
Kichik biznesning YAIMdagi ulushi	%	0	31,0	52,5	X	x
Asosiy kapitalga qilingan qo'yilmalar	ekv.mln. doll.	833,8	3142,5	9712,7	3,8m.	11,6m.
YAIMga nisbatan foizlarda	%	18,0	22,9	25,0	X	x
Mahsulot va xizmatlar eksporti	mln. doll.	442,7	3265	13045	7,4m.	29,5m.
YAIMga nisbatan foizlarda	%	3,3	24,0	33,5	X	x
Mahsulot va xizmatlar importi	mln. doll.	362,9	2947	8800	8,1m.	24,2m.
YAIMga nisbatan foizlarda	%	2,7	21,4	22,6	X	x
Tashqi savdo qoldig'i	mln. doll.	79,8	317	4245	X	x

¹³ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiylarning mustaqillik yillaridagi (1990–2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015 yillarga muvohajallangan prognozlarini: Stat. yig'indisi. –T.: «O'zbekiston», 2011. –B. 14.

Milliy xo'jalik tizimidagi o'zaro formal moliyaviy aloqalarni ko'rib chiqamiz. Buning uchun bir qancha shart-sharoitlarni belgilaymiz:

- xo'jalik faoliyati samaradorligining o'sish qonuni universal bo'lib, barcha ijtimoiy institutlar, jumladan davlatning ham yuzaga kelishini taqozo etadi;

- iqtisodiy tizimdagi asosiy ishtirokchilarning funksiyalari ijtimoiy ahamiyatga ega;

- jamiyat daromadining qayta taqsimlangan ulushidan foydalanish, ishtirokchilar nuqtayi nazaridan, moliyaning samaradorligini baholash uchun zarur.

Moliya yordamida daromadlari qayta taqsimlanadigan asosiy iqtisodiy agentlar quyidagilardan iborat:

- xususiy biznes – moddiy va nomoddiy mablag'larni ishlab chiqaradi;

- aholi – ushbu qiymatliklarni iste'mol qiladi;

- davlat – aholi farovonligi va xususiy biznesning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

- inflatsiya (iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar bahosi o'rtacha darajasining barqaror o'sishi, %);

- davlatning barcha darajadagi budjetlari saldosi (milliy iqtisodiyotdagi jami debitorlik va kreditorlik qarzlarning nisbati);

- aholining iste'mol va jamg'arma talablari (mos ravishda milliy daromadning iste'molga yo'naltiriladigan qismi va jamg'ariladigan qismi);

- savdo va to'lov balanslari saldolari (milliy xo'jalik subyektlarining tashqi dunyo bilan amalga oshirgan operatsiyalarining natijalari) va h.

Ular o'rtasidagi asosiy o'zaro aloqadorliklar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida bayon qilinishi mumkin:

- Yalpi ichki mahsulot (YAIM–mamlakat hududida ma'lum davr (asosan yil) davomida ishlab chiqarilgan barcha yakuniy mahsulot (tovar va xizmat)larning joriy qiymati);

- milliy daromad (MD–bir yilda yangidan yaratilgan qiymat bo'lib, daromadlar bo'yicha YAIMning amortizatsiya va egri soliqlar chegirib tashlangan qismi sifatida hisoblanadi);

U yoki bu makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni maksimallashtirish (YAIM, MD) yoki minimallashtirish (inflatsiya, taqchillik) iqtisodiy

tizimni rivojlantirishning maqsadi hisoblanib, moliya yordamida amalga oshiriladi (yoki amalga oshirilishi lozim).

Mamlakatdagi xo'jalik subyektlari o'rtasida YAIMni qayta taqsimlashga doir asosiy o'zaro bog'liqliklar makroiqtisodiy mutanosiblik, ya'ni milliy hisoblar mutanosibligi orqali ifodalanishi mumkin.

$$Y = C + I + G, \quad (1.1)$$

Bunda: Y – xarajatlar bo'yicha YAIM (Gross Domestic Product);
 C – uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (Consumption);
 I – xususiy biznesning investitsiya xarajatlari (Investment);
 G – davlat xarajatlari (Government Spending).

Yopiq iqtisodiyotda (YAIMning 80%dan ko'prog'i mamlakatda ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi) ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati milliy xo'jalik subyektlari xarajatlarining summasiga teng: uy xo'jaliklari (iste'mol xarajatlari), xususiy firmalar (investitsiya xarajatlari) va davlat (davlat xarajatlari).

Ochiq iqtisodiyotda C , I va G barcha tovarlar va xizmatlarga, shu jumladan boshqa mamlakatlardagi xarajatlarni ham ifodalaydi. Bu holda asosiy makroiqtisodiy tenglikda eksport-import operatsiyalari hisobga olinadi.

$$Y = C + I + G + (E_x - I_m); \quad (1.2)$$

Bunda: Y – xarajatlar bo'yicha YAIM (Gross Domestic Product);
 C – uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (Consumption);
 I – xususiy biznesning investitsiya xarajatlari (Investment);
 G – davlat xarajatlari (Government Spending).

$E_x - I_m$ – savdo balansi saldosi: agar eksport importdan ko'p bo'lsa, farq ijobiy, agar import eksportdan ko'p bo'lsa, u salbiy bo'ladi (Export - Import).

Ushbu formulaga muvofiq mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning yillik qiymati ($Y \equiv$ YAIM formulaning chap qismida) milliy iqtisodiy agentlarning mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlarga qilingan xarajatlar ($C + I + G$) va sof eksport ($E_x - I_m$) yig'indisiga teng. Bunda sof eksport bo'yicha salbiy tashqi savdo saldosi ayiriladi va ijobiy tashqi savdo saldosi qo'shiladi.

Boshqacha aytganda, agar boshqa teng sharoitlarda davlat moliya yordamida Yalpi ichki mahsulotning ulushini o'z foydasiga qayta taqsimlasa va samarasiz sarflasa, u holda bu uy xo'jaliklari va xususiy biz-

nesni YAIMning ushbu bo'lagidan katta samara bilan foydalanish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti asosan sobiq ittifoqdosh respublikalarni xomashyo resurslari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Iste'mol mol-larining asosiy qismi, ularni ishlab chiqarish uchun mamlakatda qulay muhit mavjud bo'lishiga qaramasdan, importga olinar edi.

1990-yil O'zbekistonning tashqi savdo oboroti 805, 6 mln. dollar, shu jumladan eksport – 442,7 mln. dollar va import – 3629 mln. dollarni tashkil etib, ijobiy saldo 80 mln. dollar bo'lgan.

O'tgan 20 yil ichida tashqi savdo oboroti 27,1 marta, shu jumladan eksport 29,5 marta, import 24,2 marta ko'paygan. Bunda tashqi savdo ijobiy saldosi 53 martadan oshiqroq ko'payib, oltin valuta rezerv-larining oshishi va milliy valutaning barqarorligi ta'minlandi. Eksport va import tuzulmasining tarkibi ham sezilarli darajada o'zgardi.

Eksportning tovar tuzulmasini diversifikatsiya qilish mamlakatning monokultura – paxta tolasi eksportiga qaramlilikini bartaraf etdi. Uning ulushi 1990-yilda 59,7%dan 2010-yilga kelib, 11,3%ga pasaydi. Eksport tuzulmasida xomashyo bo'lmagan mahsulotlar ulushi eksportning umumiy hajmida 1990-yil 30%ni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda 70%dan ko'proqni tashkil etdi (1.2-jadval).

O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo tuzulmasi va uning tarkibiy o'zgarishi¹⁴

1.2-jadval

Ko'rsatkichlar	1990 y.	2000y.	2010y.
Tashqi savdo aylanishi, mln.doll.	805,6	6212,1	21843,2
Eksport, mln.doll.	442,7	3264,7	13044,5
Import, mln.doll.	362,9	2947,4	8799,7
Qoldiq(+,-),mln.doll.	79,8	317,3	4244,8
Eksport(%)	100	100	100
paxta tolasi	59,7	27,5	11,3
oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	9,7
kimyoviy mahsulotlar	2,3	2,9	5,1
energiya tashuvchi va neft mahsulotlari	17,1	10,3	24,8
qora va rangli metallar	4,6	6,6	6,8
mashina va uskunalar	1,7	3,4	5,5

¹⁴. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraққийетининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва курсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогноллари: Стат. гўплам. –Т., «Ўзбекистон», 2011. –Б. 60.

Xizmatlar	1,3	13,7	9,1
va h.	9,4	30,2	27,7
Import(%)	100	100	100
mashina va uskunalar	12,1	35,4	44,1
kimyoviy mahsulotlar	9,7	13,6	14,3
energiya tashuvchi va neft mahsulotlari	3,1	3,8	6,0
qora va rangli metallar	10,2	8,6	8,4
oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	10,9
Xizmatlar	1,5	8,5	4,7
va h.	14,5	17,8	11,6

Davlat xarajatlarining ta'siri makroiqtisodiy tenglikning barcha tarkibiy qismlarida: iste'mol uchun qilingan xarajatlarda ham, iqtisodiyotga qilingan investitsiyalarda ham o'z aksini topadi. Ushbu o'zaro bog'liqliklarni yanada chuqurroq tushunish uchun makroiqtisodiy tenglikning o'ng qismini batafsil ko'rib chiqamiz. Iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$C = a + b(1 - t)D, \quad (1.3)$$

Bunda **a** – daromadlarga bog'liq bo'lmagan, iste'mol hajmini bildiradigan, qandaydir o'zgarmas miqdor (konstanta);

b – iste'molning eng yuqori chegarasi;

t – daromad solig'ining stavkasi;

D – uy xo'jaliklari daromadi.

Iste'mol funksiyasining grafigi 1.1-rasmda tasvirlangan. Ijobiy iste'mol funksiyasi uy xo'jaliklari ega bo'lgan daromad darajasi va ularning iste'mol darajasi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlikni ifodalaydi. Iste'mol funksiyasi grafigining burilish burchagi iste'molning eng yuqori chegarasiga mos keladi va iste'molning, uy xo'jaligi egalik qilayotgan daromad o'zgarishiga qay darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Uy xo'jaligi daromadining o'zgarishiga moliya bevosita ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I = e - dR, \quad (1.4)$$


Bunda **e** – foiz stavkasiga (amortizatsiya ajratmalariga) bog'liq bo'lmagan investitsiya xarajatlarini bildiradigan, qandaydir o'zgarmas miqdor (konstanta);

d – investitsiyalashning eng yuqori chegarasi;


R – foiz stavkasi.

Investitsiyalash funksiyasining grafigi 1.2-rasmda keltirilgan. Foiz stavkasining o'sishi bilan investitsiyaga bo'lgan talab pasayadi. Foiz stavkasining o'sishi, investitsiyalash uchun zarur bo'lgan fondlar

qiymatining o'sayotganligini, faqat foyda keltirishi aniq bo'lgan investitsion loyihalar safarbar qilinishini bildiradi. shu munosabat bilan, faqat ishlab chiqarishni kengaytirishga olib keladigan moliyaviy munosabatlar samarali deb hisoblanishi mumkin.



1.1-rasm. Uy xo'jaliklari iste'mol funksiyasi o'zgaruvchan miqdorlarining o'zaro bog'liqligi.



1.2-rasm. Investitsiya funksiyasi o'zgaruvchan miqdorlarining o'zaro bog'liqligi.

Sof eksport (eksport va import farqi) quyidagicha aniqlanadi:

$$X = g - mY, \tag{1.5}$$

Bunda: g – konstanta;

m – YAIM old koefitsiyenti, importga moyillik chegarasini bildiradi va YAIMning bir so'mlik o'sishiga m so'mlik import to'g'ri kelishini bildiradi.

Ushbu formuladan ko'rinadiki, eksport o'zgarmaganida sof eksport m so'mga kamayadi. Sof eksport va iste'mol funksiyasini taqqoslaganda quyidagi holatlar vujudga keladi: sof eksport ham, iste'mol ham daromadga bog'liq bo'lib, lekin daromadning bir so'mga o'sishiga sof eksport m so'mga kamayadi, iste'mol esa b so'mga o'sadi (iste'molga chegaraviy moyillik).

Shunda davlat xarajatlari (yoki moliyasi)ni makroiqtisodiy tenglik tarkibiy qismlaridan quyidagi tarzda bog'liqlikda qo'yish mumkin:

$$G = Y - [C + I + (Ex - Im)] = Y - [(a + b(1 - t)Y) + (e - dR)] = NE = \\ = Y - a - b(1 - t)Y - e + dR - NE = Y[1 - b(1 - t) + m] - a - e + dR - g,$$

Bu yerda NE – eksport va import o'rtasidagi farqlar.

Olingan ifodadan kelib chiqqan holda

$$G + Y[1 - b(1 - t)Qm] - a - e = dR - g, \quad (1.6)$$

Davlat xarajatlarining quyidagilariga bevosita bog'liqligi to'g'risida xulosa qilish mumkin:

- YAIM hajmi;
- daromad solig'i tushumi;
- iste'molga chegaraviy moyillik va foiz stavkasi;
- importga chegaraviy moyillik va quyidagilarga teskari bog'liqlik to'g'risida:
 - iste'molchilarning jamg'arishga chegaraviy moyilligi;
 - avtonom investitsiyalar (amortizatsiyalar).

Xo'jalik subyektlari iqtisodiy tizimda daromadlar cheklangan sharoitda doimo u yoki bu xarajatlarni qilishda doimo tanlaydilar. Boshqacha aytganda, u yoki bu xaridni rejalashtirish chog'ida, istalgan xo'jalik subyekti, masalan aholi, o'z daromadlarini tegishli tarzda taqsimlaydi: qandaydir buyumni sotib olish boshqa bir kerakli buyumni sotib olishdan voz kechishni bildiradi.

Davlat daromadlari xo'jalik subyektlarining soliq to'lovlari nuqtayi nazaridan va ularning ma'lum tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qilinadigan budjet xarajatlari ayrim xo'jalik subyektlarining tanlashiga jiddiy tuzatish kiritish mumkin. Mamlakatda resurslar (daromadlar, ishlab chiqarish quvvatlari, tabiiy omillar va h.)ning cheklanganligi bois ma'lum qiymatga ega biror narsani, boshqa bir narsani yo'qotmasdan sotib olish mumkin emasligi to'g'risida so'z yuritilmoqda. Demak, o'z daromadining ma'lum qismini soliq to'lashga sarflaganida, aholi va korxonalar o'z daromadlarining bir qismini yo'qotadi. Daromadlarning ushbu qismi ularga zarur bo'lgan biror bir narsani - qandaydir tovarlar yoki xizmatlarning xarid qilishga sarflanishi mum-

kin bo'lar edi. Shu munosabat bilan adolatli savol yuzaga keladi: soliq to'lovchining fikriga ko'ra ularga soliq solish bilan bog'liq yo'qotishlar va tegishli xarid qobiliyatini yo'qotish tengmi?

Makroiqtisodiy tenglik asosida aniq xulosa qilish mumkinki, faqat YAIM va MDni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish amalga oshiriladigan moliyaviy o'zaro aloqalargina samarali bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning fizik hajmi joriy yilda o't-gan yilga nisbatan inflatsiyani hisobga olgan holda o'sadi.

1.4. Moliyaviy resurslarning shakllanishi

Moliyaviy resurslar – bu murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, ularni pul mablag'lari bilan to'liq tenglashtirish mumkin emas. Moliyaviy resurslarning miqdor chegaralarini o'rnatishga asos bo'luvchi aniq mezonlarini va ularning pul mablag'laridan farqlarini yaqqol ajratib ko'rsatish qiyin.

Moliyaviy resurslarning mohiyatini ta'riflash chog'ida ularning yalpi ichki mahsulotni (YAIM) va milliy daromadni (MD) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonidagi funksional tayinlanishidan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu jarayon tovar va pul massasining harakati bilan tavsiflanadi, bir qancha bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biriga tovar va pul oqimlari bir-biriga turlicha mos keladi.

Yalpi ichki mahsulot harakatining boshlang'ich bosqichi (ishlab chiqarish) va yakuniy bosqichi (uning ishlatilishi)da pul oqimlari tovar oqimlari bilan bog'lanadi. Natijada har xil pul fondlari barpo bo'ladi, ularning qayta guruhlaniishi sodir bo'ladi va yakuniy daromadlar shakllanadi. Milliy ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasi hamda milliy xo'jalik ehtiyojlarining muvofiqlashtirilishi shu tarzda sodir bo'lib, bu amaliyotda xarajatlar bo'yicha YAIM va daromadlar bo'yicha YAIM sifatida hisoblab chiqariladi.

Pul aylanmasining bir qismi tovar muomalasi bilan qat'iy ravishda muvofiqlashadi, chunki tovar (sotuvchida) va pul (xaridorda) shaklida ifodalangan, ekvivalent ayirboshlashlar oqibatida amalga oshiriladi. Ekvivalentlar ayirboshlan-ganida jamiyatda moddiy - moliyaviy nomutanosiblik sharoitlari vujudga kelmaydi.

Pul aylanmasining boshqa qismi yalpi ichki mahsulotni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bog'liq. Ular YAIMni moliya yordamida taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida

ta'minlanadi. Pul aylanmasining ushbu qismi moliyaviy oqimlardan iborat, ya'ni milliy xo'jalikni rivojlantirish, umum-davlat va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanishi mumkin bo'lgan mablag'lar harakatidan iborat. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, moliyaviy oqimlarning o'ziga xos xususiyati (pul mablag'laridan farqli) ularning noekivalent tavsifidan iborat. Aynan moliya YAIMni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida pulning mustaqil harakatlanishini yuzaga keltiradi, milliy xo'jalik moddiy-moliyaviy nomutanosibligini keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar mana shundan kelib chiqadi.

Shunday qilib, *moliyaviy resurslar* – ma'lum davr uchun takror ishlab chiqarish jarayoni moliyaviy natijasining miqdor ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Bu chiqib ketayotgan asosiy fondlarni qoplashga, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish jamg'armasi, jamoa iste'moliga yo'naltirilishi qonuniy hisoblangan pul mablag'laridir. Ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkich balans xususiyatiga ega. Chunki u ham daromadlar, ham xarajatlar summasi ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Moliyaviy resurslarning xususiyatlari quyidagi ko'rinishlarda ifodalanadi:

- yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida barpo bo'ladigan, to'planib boradigan pul mablag'lari fondlari sifatida;
- yakuniy daromadlar, ya'ni tovarlar va ishlarga ayirboshlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari sifatida;
- tovarlar va xizmatlarni sotish natijasida barpo bo'lgani bois, moddiy (real) qobiqqa ega bo'lgan daromadlar sifatida;
- ushbu daromadlarning vujudga kelish manbalari (tarkibiy elementlari) – amortizatsiya, foyda, soliq daromatlari, soliq bo'lmagan daromadlar, kapital transfertlari, maqsadli budjet fondlari, davlat budjetidan tashqari ijtimoiy fondlari, boshqa tushumlar sifatida;
- asosiy vositalarni kapital ta'mirlash va kapital qo'yilmalar, aylanma mablag'larning oshgan qismini, budjet tashkilotlari uchun uzoq muddat ishlatiladigan asbob-uskunalar va buyumlarni sotib olishni, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, fan, mudofaa, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish uchun ishlatilganligi bois, takror ishlab chiqarish jarayonining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida (1.3-rasm).

Qisqa muddatli kredit resurslarini moliyaviy resurslar tarkibiga kiritish noto'g'ri hisoblanadi. Chunki ularni shakllantirish yangi moddiy


boyliklar yaratish bilan bog'liq emas, balki moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash natijasida sodir bo'ladi.

Tijorat banklaridagi aholi omonatlarining qo'shimcha o'sishi ko'rinishidagi jamg'armalari o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra moliyaviy resurslar manbalari hisoblanadi. Chunki moddiy-buyumlashgan jihatida (aholini to'lovga layoqatli talabi va tovar taklifi resurslari va pullik xizmatlar hajmining mos kelishi nuqtayi nazaridan) ularga milliy daromadga chetlashtirilgan talabga teng bo'lgan, moddiy resurslar mos keladi.

Demak, mamlakatning moliyaviy resurslari yalpi ichki mahsulotning bir qismini tashkil etadi va milliy hisoblar tizimi (MHT) ko'rsatkichlarining quyidagi summalari ko'rinishida tasvirlanishi mumkin – (mamlakat iqtisodiy faoliyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun schotlar va jadvallar to'plami ko'rinishida tuzilgan, o'zaro bog'liq statistik ko'rsatkichlar tizimi): iqtisodiyotning yalpi foydasi, davlat budjetdan tashqari ijtimoiy fondlariga ajratmalar, ishlab chiqarish va import soliqlari, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, uy xo'jaliklari jamg'armalari, chet mamlakatlardan olingan kreditlar.

Shunday qilib, moliyaviy resurslar yordamida yalpi ichki mahsulotning butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimni kengaytirishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan qismini ajratish sodir bo'ladi. Ular yordamida ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida materiallar va ishchi kuchini ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan joriy xarajatlarga va ishlab chiqarish omillarini, jumladan, ishchi kuchining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish fondiga mos keladigan qismi ajratib ko'rsatiladi. Shu nuqtayi nazardan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish fondiga jamiyatning sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy siyosat va hokazolarga qilinadigan xarajatlarini kiritish to'g'ri hisoblanadi.

Moliyaviy resurslar—bu obyektiv makroiqtisodiy kategoriya bo'lib, uning mazmuni iqtisodiyotning moddiy-moliyaviy mutanosibligi bilan belgilanadi. Moliyaviy resurslar kirimi va sarflanishining tengligi shundan dalolat beradiki, milliy xo'jalikni rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirish natijasida korxonalar va tashkilotlarda vujudga keladigan to'lovga layoqatli talab va davlat muassasalarning faoliyat ko'rsatishi, yaratilgan moliyaviy resurslarga mos kelganligi bois, moddiy qobiqqa ega bo'ladi. Shuning uchun, moddiy-moliyaviy mutanosiblik sharti moliyaviy resurslar summasining moddiy boyliklar hajmiga mosligi kabi va ular tushumi va sarflanishining tengligi sifatida tasvirlanishi mumkin.



1.3-rasm. Moliyaviy resurslarning mazmuni va ishlab chiqarish jarayonidagi moliyaviy-iqtisodiy o'zaro aloqadorligi.

Shunday qilib, moliyaviy resurslar tushumi va sarflanishining tengligi umumxo'jalik muvozanatining zarur qismini tashkil etadi. Moliyaviy resurslar zamonaviy iqtisodiyotning ichki zaruriy elementi hisoblanib, nafaqat kengaytirilgan takror ishlab chiqarish salohiyatini tavsiflaydi, balki iqtisodiy o'sishning faol omili ham hisoblanadi. Iqtisodiyot faqat asosiy makroiqtisodiy proporsiyalar (iste'mol va jamg'arish) o'rtasida ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari (ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, jamiyat ehtiyojining xususiyatlari va h.) bilan belgilanadigan, tabiiy darajasiga mos kelganida samarali va barqaror rivojlanishi mumkin. Bu holda yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash proporsiyalari uni birlamchi taqsimlash proporsiyalari bilan muvofiqlashtiriladi va undan foydalanish strukturasi javob beradigan, yakuniy daromadlar shakllanishiga olib keladi, ya'ni milliy ishlab chiqarishning moddiy – buyumlashgan va moliyaviy – qiymat jihatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlaydi.

«Moliyaviy resurslar»ning makroiqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish, moddiy va moliyaviy oqimlar mutanosibligini ta'minlashda ifodalanadi.

1.5. Moliya tizimi va uning tarkibi

Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning har xil sharoitlarida moliyaning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish ularning mazmunida umumiy belgilar mavjudligidan dalolat beradi. Bu moliya faoliyat ko'rsatishining obyektiv sabablari va shart-sharoitlari saqlanib qolishi bilan bog'liq. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu shart-sharoitlar ichida ikkitasi ajralib turadi: tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va ushbu munosabatlar subyektivi sifatida davlatning mavjudligi. Pul, kredit, mehnat haqi fondi va boshqa qiymat kategoriyalaridan farq qilib, moliya davlatning faoliyat ko'rsatishi bilan uzviy bog'liqdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, moliyaviy munosabatlar ijtimoiy munosabat-larni ifodalaydi va jamiyatning iqtisodiy bazisini tashkil etadi. Moliyaviy munosabatlar uzoq evolutsion yo'lni bosib o'tgan va xilma-xil shakllarda namoyon bo'lib kelgan. Ularning xilma-xilligi bozorning, davlat funksiyalari va vazifalarining kengayishi natijasida xo'jalik munosabatlarining murakkablashuvi bilan bog'liq. Ayni vaqtda, moliyaviy munosabatlar o'rtasida umumiylik saqlanib qoladi:

- ularning barchasi yalpi ichki mahsulotni va milliy daromadni taqsimlashni amalga oshiradi;

- pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ularni ishlatishda ishtirok etadi;

- taqsimot jarayonini nazorat qiladi va tartibga soladi;
- aksariyat pul shaklida namoyon bo‘ladi.

Moliyaviy munosabatlar umumiy belgilarga ega bo‘lishi bilan birga ulardan ayrimlari o‘ziga xos xususiyatlariga ega va aniq moliyaviy kategoriyani vujudga keltirib, umumiy to‘plamdan ajralib turadi. Masalan, soliqlar moliyaviy munosabatlarning barcha umumiy belgilarini aks ettirib, o‘ziga xos funksiyalari, roli va vazifalari bilan maxsus moliyaviy kategoriyaga aylangan. Bu boshqa moliyaviy kategoriyalar – davlat daromadlari, davlat krediti va hokazolarga ham tegishlidir.

Faoliyat ko‘rsatish maqsadlariga ko‘ra ma‘lum umumiylikka ega bo‘lgan moliyaviy kategoriyalar guruhlanib, moliyaviy bo‘g‘inlarni tashkil etadi. Ularga budjet, korxonalar moliyasi misol bo‘ladi. Budjet moliyaviy bo‘g‘in sifatida, soliqlar, davlat krediti, davlat xarajatlari kabi moliyaviy kategoriyalarni birlashtiradi.

Ishlab chiqarish, savdo, tovarpul munosabatlari, bank ishi va xalqaro pul aylanmasining rivojlanishi mos ravishda moliyaviy munosabatlarda ham o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan. Natijada moliyaviy munosabatlarning eng yuqori pog‘onasi – *moliyaviy sferalarni* (markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliya) vujudga kelgan. Ular barpo bo‘lish, ishlatilish va boshqarishning maxsus shakllari bilan farqlanadi, ammo bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Har bir moliyaviy sfera (soha) maxsus moliyaviy institutlar bilan boshqarilib, ularga davlat moliya apparati (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning joylardagi organlari; Soliq komiteti va soliq inspeksiyalari; Davlat Bojxona komiteti va bojxonalar) va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-hisob markazlari kiradi.

Shunday qilib, moliyaviy munosabatlar rivojlanish va murakablashish jarayonida moliyaviy kategoriyalardan moliyaviy bo‘g‘inlarga, ulardan moliyaviy sferalarga tomon yo‘lni bosib o‘tadi va nihoyat moliya tizimini tashkil etadi.

Bozor munosabatlari sharoitida moliya tizimi jamiyat hayotining ijtimoiysiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini aks ettiradi. Moliya tizimi ko‘p pog‘onali tuzilma bo‘lib, mamlakat moliyaviy resurslarining tayinlanishiga ko‘ra har xil shakldagi pul fondlarini o‘z ichiga oladi. Pul fondlari qonunchilik va ijro organlari orqali yoxud davlat tasarrufida (markazlashgan sfera), yoxud yuridik va jismoniy shaxslarda (markazlashmagan sfera) bo‘ladi.

Pul fondlari ishlatilish jarayonida har xil pul mablag'lari (agregatlari)dan foydalaniladi: naqd pullar (banknotlar, g'azna biletleri), naqd pulsiz (kredit muassasalaridagi schotlardagi pullar, pullik akkreditivlar, pullik sertifikatlar), aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar, opsionlar va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida.

Pul mablag'lari doimiy harakatda bo'lib, pullik hisobkitoblarni puxta tashkil etishni talab qiladigan, pul oqimlarini vujudga keltiradi.

Pul oqimlari moliya tizimining qismlarini yaxlit bir tizimga birlashtiradi. Murakkabligiga ko'ra, *ular bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama* pul oqimlariga bo'linadi.

Bir tomonlama oqimida pul mablag'lari bitta yo'nalishda harakatlanadi. Masalan, davlat budjetidan pensiya fondiga uning xarajatlarini moliyalashtirish uchun o'tkaziladigan mablag'lar.

Ikki tomonlama pul oqimi ikkita bo'g'in yoki bo'g'in va sfera o'rtasidagi pul mablag'lari harakatini nazarda tutib, so'nggisida sfera mazkur bo'g'inni to'g'ri va teskari yo'nalishlarda o'z ichiga olmaydi. Masalan, budjetga korxonalaridan soliqlar kelib tushadi, ammo ma'lum sharoitlarda korxonada budjetdan subsidiyalar yoki kreditlar ko'rinishda mablag'lar olishi mumkin. Ko'p tomonlama oqimlar bir vaqtning o'zida moliyaning har xil qismlarini qamrab oladi va har xil yo'nalishlarda harakatlanadi. Uy xo'jaliklari budjeti har xil manbaalardan olinadigan daromadlar hisobiga shakllanadi (masalan, oila boshlig'i yoki boshqa a'zosi korxonadan ish haqi, budjetdan esa transfert to'lovlari oladi); boshqa tomondan, uy xo'jaligi budjetga va budjetdan tashqari fondlarga soliqlar to'laydi.

Shunday qilib, *moliya tizimi* o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir ko'rsatadigan kategoriyalar, bo'g'inlar va sferalar ko'rinishida namoyon bo'ladigan moliyaviy munosabatlar to'plamidan iborat bo'lib, korxonalar, uy xo'jaliklari va davlatning pul fondlarini taqsimlaydi hamda ishlatadi.

Moliya tizimi doirasida har xil faoliyat, jumladan, rejalashtirish, moliyalashtirish, investitsiyalash, soliq solish, sug'urtalash, buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy nazorat va boshqalar amalga oshiriladi.

1.6. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining bo'g'inlari va sferalari

Moliya tizimiga davlatchilik shakli jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bular: *unitar* – yagona va *federativ* – ittifoq.

Unitar davlatlar ikki pog'onali moliya tizimiga ega. Bunday moliya munosabatlari markaziy hokimiyat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan tartibga solinadi.

Federativ davlatlar uch pog'onali moliya tizimiga ega bo'lib, unda federatsiya a'zolarining moliyaviy munosabatlari yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi ikki pog'onali bo'lib, markaziy hokimiyat va mahalliy hokimiyatlar moliyasidan iborat. Moliya tizi-mining ushbu qismi davlat tasarrufida bo'ladi va *umumdavlat moliyasi* deb ataladi. Ayni paytda *xo'jalik subyektlari moliyasi* ham faoliyat ko'rsatadi.

Umuman moliya tizimi tarkibini quyidagicha tasvirlash mumkin (1.4- rasm).

Umumdavlat moliyasi – moliya tizimining muhim qismi bo'lib, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ma'lum sur'atlar bilan rivojlantirishda; moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat mintaqalari, ishlab chiqarish va noislab chiqarish sohalari, mulkchilik shakllari, aholining alohida guruhlari va qatlamlari o'rtasida qayta taqsimlashda yetakchi rol o'ynaydi. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish faqat davlatning faol moliyaviy siyosati asosidagina amalga oshishi mumkin.

Umumdavlat moliyasi korxonalar moliyasi bilan uzviy bog'liq. Bir tomondan, budget daromadlarining asosiy manbaasi moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratiladigan milliy daromad hisoblanadi. Boshqa tomondan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni nafaqat korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan, balki umumdavlat pul fondidan mablag'larni budget assignovaniyalari va bank kreditlari shaklida jalb qilish hisobiga ham amalga oshiriladi. O'z mablag'lari yetishmagan hollarda korxonalar aksiyadorlik asosida hamda qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar yordamida qarz mablag'lari sifatida boshqa korxonalarining mablag'larini jalb qilishlari mumkin. Bunda sug'urta kompaniyalari bilan shartnomalar tuzish orqali tadbirkorlik risklari sug'urtalanishi zarur.

Moliya tizimi bo'g'inlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligi moliyaning mohiyatan yagonaligi bilan bog'liq.

Davlat moliya tizimi orqali markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlari, jamg'arma va iste'mol fondlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun soliqlar, davlat budjeti xarajatlari va davlat kreditidan foydalanadi.

Moliya tizimi davlat tasarrufida bo'lib, budget tizimi va budgetdan tashqari maxsus fondlarni birlashtiradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan budjet tizimi ikkita bo'g'indan iborat: davlat budjeti va mahalliy budjetlar (viloyatlar, tumanlar va fuqarolar yig'ini). Davlat budjeti moliya tizimining muhim bo'g'ini hisoblanib, hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun markazlashtirilgan pul mablag'lari fondalarini tashkil etish va ishlatish shaklida namoyon bo'ladi (budjet, budjet tuzumi va budjet tizimi masalalari alohida mavzu sifatida II bobda batafsil bayon etiladi).

Har bir budjet mustaqil (avtonom) faoliyat ko'rsatadi, ya'ni quyidagi budjet o'z daromadlari bilan yuqoridagi budjet tarkibiga kiritilmaydi. Budjet resurslarini rejalashtirish maqsadida konsolidatsiyalangan budjet – statistik yig'ma budjet tuzilib, budjet tizimining barcha pog'onalaridagi moliyaviy resurslarni birlashtiradi.

Budjet tizimining moliyaviy resurslari hisobidan iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, fan va texnikani rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, harbiy islohot va uyjoy kommunal xo'jaligini isloh qilish ta'minlanadi. Umuman olganda, bular mamlakat aholisi turmush darajasining barqaror o'sishini ta'minlashi lozim.


Mintaqalarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni bir tekis amalga oshirish uchun mablag'larni tarmoqlar o'rtasida va hududlar o'rtasida qayta taqsimlashda budjet tizimi muhim rol o'ynaydi.

Umumdavlat moliyasining muhim bo'g'inlaridan biri budjetdan tashqari fondlar hisoblanadi. *Budjetdan tashqari fondlar* – davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyatlarning budjetga kiritilmagan xarajatlarini moliyalashtirish bilan bog'liq mablag'lardir.

Budjetdan tashqari fondlarni shakllantirish majburiy maqsadli ajratmalar hisobidan amalga oshirilib, oddiy soliq to'lovchi uchun soliqdan hech qanday farq qilmaydi. Budjetdan tashqari fondlarga ajratmalarining asosiy summasi tannarx tarkibiga qo'shiladi va mehnat haqi fondiga nisbatan foiz ko'rinishida belgilanadi.

Budjetdan tashqari fondlar tashkiliy jihatdan budjetdan alohida ajratilgan va ma'lum mustaqillikka ega. Budjetdan tashqari fondlar qat'iy maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'lib, mablag'larning to'liq hajmda ishlashini kafolatlaydi. Ular aholiga ko'rsatiladigan maishiy xizmatlarni kengaytirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni rag'batlantirish va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan.

Budjetdan tashqari fondlarning alohida faoliyat ko'rsatishi muhim ijtimoiy tadbirlarni mablag' bilan ta'minlashni tezkor amalga oshirishga imkon beradi.



1.4-rasm. Moliya tizimining tarkibi.

Xo'jalik subyektlari moliyasi – moliya tizimining asosini tashkil etib, aynan shu yerda mamlakat moliyaviy resurslarining katta qismi moddiy ishlab chiqarish sohasida barpo bo'ladi. Ular korxonalar moliyasi va uy xo'jaliklari moliyasidan iborat.

Korxonalar moliyasi moliya tizimining bo'g'ini sifatida mamlakatning barcha pul fondlari – milliy daromadning moddiy manbaasini yaratishda ishtirok etadi. Mamlakatning umumiy moliyaviy ahvoli, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi tijorat korxonalarining moliyaviy ahvoliga bog'liq.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'z faoliyatini tijorat hisobkitobi asosida amalga oshirib, unda korxonalar xarajatlari uning xususiy daromadlari hisobidan qoplanishi lozim. Foyda mehnat jamoalarida ishlab chiqarishni va ijtimoiy himoyalashni rivojlantirishning asosiy manbasiga aylanad.

Korxonalar real moliyaviy mustaqillikka ega bo'lib, mahsulot sotishdan olingan tushumni mustaqil taqsimlaydi, foydani o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etadi, ishlab chiqarish va ijtimoiy fondlarni tashkil etadi, investitsiyalash uchun zarur mablag'lar izlab topadi, shu jumladan, moliya bozori resurslari – bank kreditlari, emissiyalar, depozit sertifikatlari va uning boshqa instrumentlaridan foydalanadi.

Tijorat korxonalarining moliyaviy resurslari budjet tizimi orqali noishlab chiqarish sohasini mablag'lar bilan ta'minlashga yo'naltiriladi.

Uy xo'jaliklari moliyasi – bu moliya tizimining alohida bo'g'ini. Aholining moliyaviy munosabatlari mamlakatning to'lovga layoqatlilik talabini tartibga solishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Yalpi ichki mahsulotning tovarlar va xizmatlar ko'rinishida yaratiladigan ma'lum qismi oila budjeti orqali o'tadi. Jamiyat a'zolarining daromadlari qancha yuqori bo'lsa, uning ishlab chiqariladigan moddiy boyliklarga talabi shuncha yuqori, korxonaning iqtisodiy ahvoli shuncha mustahkam bo'ladi (*Uy xo'jaliklari moliyasi moliya tizimining nisbatan yangi elementi va ancha murakkab tushuncha bo'lganligi bois, mazkur kitobning 10-bobida alohida bayon qilinadi*).

Moliya tizimi, uning moliyaviy resurslari yig'ma moliyaviy balansning daromadlar qismida o'z aksini topadi. Lekin, ushbu balans mamlakatning barcha moliyaviy resurslarini qamrab olmaydi. Faqat markazlashtirilgan fondlar – budjet va budjetdan tashqari fondlarga to'liq kiritiladi. Markazlashtirilmagan fondlarning moliyaviy resurslari faqat foyda va amortizatsiya ajratmalari sifatida ko'rsatiladi. Qarz mablag'lari, jalb qilingan investitsiyalar, sug'urta qoplamalari tushumi, undirilgan jarimalar, uy xo'jaliklarining pul daromadlari va

jang'armalari (moliyaviy resurslari) yig'ma moliyaviy balansga kiritilmaydi.

Yig'ma moliyaviy balansning taxminiy ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda markazlashtirilgan moliyaviy resurslar ulushi 60%, markazlashtirilmagan moliyaviy resurslar ulushi esa – 40% atrofida. Agar uy xo'jaliklari daromadlari va korxonalarining moliyaviy mablag'lari summasi aniqroq hisobga olinsa, markazlashtirilgan fondlar ulushi ko'payishi mumkin.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar moliya tizimi asosan, budget tizimining budgetdan tashqari ijtimoiy fondlari bilan chegaralanadi. Unitar davlatlar moliya tizimi (Angliya, Fransiya, Yaponiya) davlat va mahalliy budgetlar hamda budgetdan tashqari maxsus fondlardan tashkil topadi. Federativ davlatlarda esa (AQSH, Germaniya, Shveysariya) davlat budjeti, mahalliy budgetlar va budgetdan tashqari maxsus fondlar bilan birga federatsiya subyektlarining budgetlari ham mavjud.

Barcha budgetlar bir-biridan alohida bo'lib, quyi budgetlarning daromadlari va xarajatlari yuqoridagilarnikiga qo'shilmaydi. Masalan, AQSHda mahalliy budgetlar shtatlar budgetlariga nisbatan, shtatlar budjeti esa – federal budgetga nisbatan mustaqil. Bunda federal budget yetakchi rol o'ynaydi va qonun sifatida tasdiqlanib, asosan, soliq tushumlari hisobidan shakllanadi va umummilliy maqsadlar uchun ishlatiladi. Mahalliy budgetlar federal budget va shtatlar budjeti bilan subsidiyalash tizimi orqali bog'liq bo'lib, asosan, ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni moliyaviy ta'minlaydi.

Nazorat savollari

1. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi jarayonida moliyaning vujudga kelishi va evolutsiyasini asosiy bosqichlari qanday?
2. Moliya qaysi iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liq va nima uchun?
3. Moliyaviy munosabatlarda sifat o'zgarishlari qanday sodir bo'ladi?
4. Moliyaning davlat, pul va kredit resurslari bilan bog'liqligi qanday?
5. Moliyaning mohiyati va funksiyalari nimalardan iborat?
6. Iqtisodiy tizimda moliyaning tutgan o'rni qanday?
7. Moliyaning pozitiv va normativ nazariyalari o'rtasida qanday farqlar mavjud?
8. Yalpi ichki mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayonida moliyaning roli qanday?
9. Makroiqtisodiy muvozanat bilan ifodalangan o'zaro aloqalarda moliya qanday rol o'ynaydi?

10. Moliya uy xo'jaliklari va xususiy biznes faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
11. Milliy moliyaning samaradorligi nimalarda ifodalanadi?
12. Moliyaviy resurslarning mohiyati va ularning shakllanishida moliyaning roli qanday?
13. Moliyaviy resurslarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
14. Moliya tizimining ta'rifi va uning tarkibi qanday?
15. Moliya tizimining rivojlanishini ta'riflang.
16. Umumdavlat moliyasini tavsiflang.
17. Budjetdan tashqari fondlar va ularning tarkibi qanday?
18. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasining mazmuni va tarkibi qanday?

Nazorat testlari

1. Moliyaga ta'rif bering.

- A) Moliya – bu pul demakdir.
- B) Moliya – bu pul fondlari bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.
- C) Moliya – bu pul mablag'lari fondidir.
- D) Moliya – bu ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlarining yig'indisidir.
- E) Moliya – bu pul fondlarini sarflash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

2. Moliyaning funksiyalarini ko'rsating.

- A) To'plash va nazorat qilish funksiyalari.
- B) To'plash, taqsimlash va nazorat qilish vazifalarini bajaradi.
- C) Qayta taqsimlash, tartibga solish va nazorat funksiyalari.
- D) Taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyalari.
- E) Taqsimlash va sarflash funksiyalari.

3. Milliy daromadning bir qismi qaytadan taqsimlanishi zarurligi

- A) Ishlab chiqarish tarmoqlari, davlatni boshqarish va mudofaa xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash uchun.
- B) Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini mablag' bilan ta'minlash uchun.
- C) Noishlab chiqarish tarmoqlarini mablag' bilan ta'minlash uchun.
- D) Ishlab chiqarish tarmoqlarini mablag' bilan ta'minlash uchun.
- E) Davlatni boshqarish va mudofaa xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash uchun.

4. Moliya tizimi:

A) o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir ko'rsatadigan kategoriyalar, bo'g'inlar va sferalar ko'rinishida namoyon bo'ladigan moliyaviy munosabatlar to'plamidan iborat bo'lib, korxonalar, xonadonlar va davlatning pul fondlarini taqsimlaydi va ishlatadi.

B) budjet va soliq tizimidan iborat.

C) umumdavlat moliyasi va budjetdan tashqari fondlarni o'z ichiga oladi.

D) markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlari, jamg'arma va iste'mol fondlaridan iborat.

E) davlat, ma'muriy-hududiy tuzilmalar, iqtisodiy munosabatlar, davlat tuzimi va huquqiy normalarga asoslangan, budjeti bo'yicha mustaqil bo'lgan davlat muassasalari va fondlarining budjetlari to'plami.

5. Moliya makroiqtisodiy nazariyaning maxsus bo'limi sifatida rivojlana borib:

A) soliqqa tortish va davlat budjeti sifatida shakllangan.

B) davlat budjeti va mahaliy budjetlarni tashkil etgan.

C) bank va kredit tizimi sifatida shakllangan.

D) avval davlat moliyasi, keyinchalik esa korxonalar moliyasi va xonadon moliyasi sifatida shakllangan.

E) fiskal va monetar siyosat darajasiga yetgan.

6. Pul oqimlari moliya tizimining qismlarini yaxlit bir tizimga birlashtirib, murakkabligiga ko'ra:

A) ikki tomonlama va uch tomonlama pul oqimlaridan iborat.

B) bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama pul oqimlariga bo'linadi.

C) to'g'ri va teskari pul oqimlari.

D) oddiy va murakkab pul oqimlari.

E) faoliyat turlari (asosiy, innovatsion va nomoliyaviy faoliyat) bo'yicha pul oqimlari.

7. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

A) iqtisodiy siyosat, agrar siyosat, soliq siyosati.

B) hisob siyosati, kadr siyosati, ichki siyosat.

C) budjet siyosati, soliq siyosati, pul siyosati, kredit siyosati, baho siyosati, investitsion siyosat, sotsial moliyaviy siyosat, boj siyosati.

D) monetar siyosat, fiskal siyosat.

E) ichki moliyaviy siyosat, tashqi moliyaviy siyosat.

II bob. BUDJET, BUDJET TUZULMASI VA TIZIMI, DAVLATNING BUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI FONDLARI

2.1. Budjetning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Iqtisodiyotni isloh qilishning dastlabki bosqichida mustaqil mamlakatning o'z budjet tizimini shakllantirish muhim vazifa hisoblandi. Birinchi navbatda, bu davlat budjetining barqaror daromadlarini shakllantirishni va zarur xarajatlarini moliyalashtirishni ta'minlaydigan mustahkam huquqiy-me'yoriy bazani yaratishni talab qildi. Ushbu maqsadda 2000-yilda O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida» qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan budjetni rejalashtirish, davlat budjetining ijrosi va uni nazorat qilish jarayonlari aniqlandi, turli vazirliklar va idoralar, respublika va mahalliy hokimiyat organlarining roli va mas'uliyat sohalari aniq belgilab qo'yildi. Shuningdek, budjet tizimini tartibga solishga doir bir qator qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlari ham qabul qilindi.

Budjetning shakllanishi. Barcha mamlakatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyati natijasida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad yaratiladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan milliy daromad izchil ravishda taqsimlash va qayta taqsimlash bosqichlaridan o'tadi. Milliy daromadning qayta taqsimlanishi va keyinchalik ishlatilishida *budjet* muhim ahamiyatga ega. Mamlakat milliy daromadini qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismi pul shaklida budjetga kelib tushadi va moliyaviy resurslarning markazlashtirilgan fondini tashkil etadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Yevropaning ayrim mamlakatlarida budjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori miqdorni tashkil qilayotgan bir sharoitda O'zbekiston Respublikasida 2007-yildan boshlab davlat budjeti profitsit bilan baja-rilmoqda. 2010-yilda davlat budjeti 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi (2.1-jadval).

Ayrim mamlakatlarda budjet taqchilligi, tashqi qarzlarning holati to'g'risida ma'lumot(YAIMga nisbatan foiz)¹⁵.

2.1-jadval

Mamlakatlar	Budjet taqchilligi	Tashqi qarz
Italiya	5,3 foiz	115,8 foiz
Fransiya	7,5 foiz	78,0 foiz
Portugaliya	9,3 foiz	76,0 foiz
Ispaniya	11,1 foiz	91,0 foiz
Buyuk Britaniya	11,4 foiz	68,0 foiz
Gretsiya	15,4 foiz	115,1 foiz
Irlandiya	32,0 foiz	116,0 foiz
O'zbekiston	0,3 foiz profitsit	10,0 foizdan kamroq

Budjet davlatning vazifalari va funksiyalarini mablag' bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari fondini yaratish va sarflash shaklidan iborat.


Budjet mamlakatning moliya tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. U bir tomondan, davlat, boshqa tomondan korxonalar va aholi o'rtasidagi taqsimot munosabatlarining bir qismini ifoda etib, umumdavlat moliyaviy resurslar fondini tashkil etish va ishlatish bilan bog'liq. Ushbu munosabatlarning mazmuni davlat tomonidan u yoki bu tarixiy davrda hal etiladigan vazifalar bilan bog'liq. Budjetning shakllanishi bevosita mamlakat milliy daromadining rivojlanishi va uning qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy moliyaviy metodlari quyidagilardan iborat:

- pul jang'armalarini barpo etish va ishlatish (foйда, qo'shilgan qiymat solig'i, budjetdan tashqari ijtimoiy fondlarga to'lovlar);
- soliqlarni tashkil etish;
- xalq xo'jaligi tarmoqlarini moliyalashtirish;
- ijtimoiy iste'mol, sug'urta va rezerv fondlarini shakllantirish va ishlatish.

Ushbu barcha jarayonlarda budjet katta rol o'ynaydi. Budjet yordamida davlat va hududiy hokimiyatlar boshqaruv apparatlarini va armiyani saqlash, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish, iqtisodiy vazifalarni hal etish, ya'ni ularga yuklangan funksiyalarni bajarish uchun moliyaviy resurslar oladilar. Mamlakati-miz mustaqillikka erishganidan


¹⁵ Булюк ва муваддассан, мустанақл Ватан./ ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, ЎзР махалла халқармаси: масъул ижодий гуруҳ А.Ш.Бекмуродов (ва бошқ). – Т., «O'qituvchi» НМДУ, 2011.-Б.103.

keyin respublika budget tizimi shakllanib, 2005- yillardan boshlab budget profitsitiga erishildi (2.1-rasm).



2.1-rasm. Budget ko'rsatkichlari (YAIMga nisbatan %) ¹⁶.

1994–2010-yillar mobaynidagi budget saldosini (YAIMga nisbatan, %da) 2.2-rasmda keltirilgan.



2.2-rasm. Budget saldosini (YAIMga nisbatan %) ¹⁷.

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари

¹⁷ Shu manba.

Ayni vaqtda, budget ma'lum iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydigan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Davlat budgetni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni hamda bevosita o'z faoliyatini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatida qo'llaydi.

Mablag'larning markazlashtirilishi muhim iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega, chunki jamg'ariladigan daromadlar davlat belgilagan tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflanadi. Bu mablag'lardan mohirlik bilan foydalanish, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning hal qiluvchi sohalariga safarbar qilish va mamlakat miqyosida yagona moliyaviy siyosatni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Bozor munosabatlari sharoitida ham budget o'zining muhim ahamiyatini saqlab qoladi, lekin uning ijtimoiy ishlab chiqarishga va ijtimoiy munosabat sohalariga ta'sir ko'rsatish uslublari o'zgaradi.

Budgetning funksiyalari. Budget munosabatlari iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaviy munosabatlarning bir qismi hisoblanadi, shunga ko'ra moliyaning asosiy funksiyalari ularga ham xosdir. Budget quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- 1) milliy daromadni qayta taqsimlash;
- 2) iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish;
- 3) ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- 4) markazlashtirilgan pul mablag'lari fondlarini barpo etish va ishlatish ustidan nazorat o'rnatish.

1. *Budgetning qayta taqsimlash funksiyasi* davlat va hududiy hokimiyatlar va boshqaruv darajalari bo'yicha markazlashtirilgan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ishlatish orqali namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda har xil darajadagi budgetlar orqali milliy daromadning 30%dan 50%igacha qayta taqsimlanadi. Davlat budgeti yordamida budget mablag'larini mintaqalar va tarmoqlarni rivojlantirish yoki qo'llabquvvatlash uchun yo'naltirgan holda mamlakat xalq xo'jaligi va iqtisodiy munosabatlar tartibga solinadi. Davlat iqtisodiy munosabatlarni shu tarzda tartibga solib ishlab chiqarish sur'atlarini, kapitalning, xususi jamg'armalarning o'sishini jadallashtirishi, sekinlashtirishi hamda talab va taklif strukturasi o'zgartirishni boshqaradi.

Milliy daromadni budget orqali qayta taqsimlash, bir vaqtda uzluksiz kechadigan ikkita o'zaro bog'liq bosqichga ega: budget daro-

madlarini barpo etish (budjet daromadlari) va budjet mablag'larini ishlatish (budjet xarajatlari).

2. Budjet daromadlarini barpo etish va mablag'larini ishlatish chog'ida mamlakatda kechayotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish vazifasi hal etiladi.

Budjet daromadlari bu bir tomondan davlat, ikkinchi tomondan xo'jalik yurituvchi subyekt va fuqarolar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar. Shu bilan bir vaqtda budjet daromadlari davlat hukumati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag'laridir. Davlat budjeti daromadlarining 1992–2010-yillardagi o'zgarish tendensiyasi 2.2-jadvalda keltirilgan (YAIMga nisbatan, %da).

Davlat budjetining daromadlari(YAIMga nisbatan%)¹⁸

2.2-jadval

Ko'rsatkichlar	1992	1996	2000	2005	2010
Daromadlar jami	29,8	34,3	27,9	22,6	22,0
1.To'g'ri soliqlar	8,0	12,4	8,1	6,2	5,7
2.Bilvosita soliqlar tarkibi	11,2	13,2	12,7	10,5	11,1
3.Resurs to'lovlari va mulk solig'i	0,2	1,8	2,2	3,8	3,4
4.Boshqa daromadlar	10,4	6,9	4,9	2,1	1,8

Davlat budjeti daromadlarining 1992–2010-yillardagi o'zgarish tendensi-yasi 2.3-jadvalda keltirilgan (umumiy hajmga nisbatan, %da).

Davlat budjetining daromadlari(umumiy hajmga nisbatan%)¹⁹

2.3-jadval

Ko'rsatkichlar	1992	1996	2000	2005	2010
Daromadlar jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1.To'g'ri soliqlar	26,8	36,2	29,0	27,2	26,1
Yuridik shaxslar daromad solig'i	18,6	25,8	12,7	6,7	4,7
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	8,2	9,9	11,6	12,7	11,7
2.Bilvosita soliqlar tarkibi	37,8	38,4	45,6	46,4	50,4
Qo'shilgan qiymat solig'i	30,3	17,7	24,4	23,7	28,7
Aksiz solig'i	7,2	19,1	18,8	17,5	16,3
3.Resurs to'lovlari va mulk solig'i	0,6	5,3	7,9	16,9	15,4
4.Boshqa daromadlar	34,8	20,1	17,5	9,5	8,1

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

¹⁹ Shu manba.

Budjet daromadlarining shakllanishida daromadlarning yig'uvchanlik darajasi muhim ahamiyatga ega (2.4-jadval).

Budjet daromadlarini yig'uvchanlik darajasi(%da)²⁰

2.4-jadval

Hududlar	Yig'uvchanlik darajasi		
	2008	2009	2010
Respublika bo'yicha	78,9	76,3	90,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	82,5	86,3	103,6
Andijon viloyati	85,6	75,5	113,5
Buxoro viloyati	69,9	85,8	97,6
Jizzax viloyati	88,1	93,9	107,8
Qashqadaryo viloyati	52,0	48,0	55,7
Navoiy viloyati	104,8	98,6	98,9
Namangan viloyati	73,2	61,1	145,5
Samarqand viloyati	79,3	87,8	98,3
Surxondaryo viloyati	88,5	94,1	107,7
Sirdaryo viloyati	89,9	84,6	104,7
Toshkent viloyati	93,4	92,0	96,6
Farg'ona viloyati	73,3	74,7	89,3
Xorazm viloyati	82,3	91,7	106,3
Toshkent shahri	76,4	72,5	91,0

Budjet daromadlarini shakllantirish jarayonida milliy daromadning bir qismi davlat foydasiga qoldiriladi. Shu asosda davlatning korxonalar va aholi bilan o'zaro moliyaviy munosabatlari vujudga keladi.

Budjet korxonalar va xo'jalik tashkilotlari foydasini taqsimlashda faol ishtirok etadi. Korxonalar foydasining bir qismini budjetga olish shakllari va olingan qismining ko'lami hamda korxonalarining faoliyat natijalaridan manfaatdorligi o'rtasida ma'lum bog'liqlik mavjud. Korxonalarining ishlab chiqarish resuslaridan samarali foydalanishi, rentabellik darajasini oshirish va foydani ko'paytirishdan manfaatdorlik, mablag'ning bir qismini budjet hisobiga olib qo'yish shakllarining qanchalik takomillashganligiga bog'liq.

Budjet xarajatlari – bu markazlashtirilgan pul mablag'larini ishlatish chog'ida bir tomondan davlat, ikkinchi tomondan tashkilotlar muassasalar va fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

Moliyaviy resurslarning bir qismini budgetda markazlashtirish davlatga umumdavlat ehtiyojlari – xalq xo‘jaligining ustuvor tarmoqlarini jadal rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash, fan va texnikani rivojlantirish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta‘minlashni pul mablag‘lari bilan ta‘minlash imkonini beradi.

3. Budget yordamida milliy daromad hududlar bo‘yicha, shuningdek, ishlab chiqarish sohasidan noishlab chiqarish sohasiga qayta taqsimlanadi. Buning uchun budget hisobidan sog‘liqni saqlash, ta‘lim, madaniyat, boshqaruv, mudofaa sohaslarining ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun pul fondlari yaratiladi.

Budgetlar orqali budgetdan moliyalashtirish yo‘li bilan ishlab chiqarish sohaslarini mutanosib rivojlantirish maqsadida moliyaviy resurslar ular o‘rtasida qayta taqsimlanadi.

Davlat budgetdan milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy quroli sifatida foydalanib, mablag‘larni birinchi navbatda, mazkur bosqichda rivojlantirilishi ustuvor hisoblangan xalq xo‘jaligi tarmoqlari va hududlariga yo‘naltiradi, ya‘ni budget orqali milliy daromadni tarmoqlararo va hududlararo qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Shu bilan birga butun mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish va tarmoqlarni hamda hududlarni mutanosib rivojlantirish manfaatlariga rioya qilinadi.

4. Davlat budgeti orqali fundamental ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradigan ilmiy muassasalar moliyalashtirilib, ular o‘z navbatida, amaliy fanlarni rivojlantirish va fantexnika taraqqiyotini jadallashtirishning asosini tashkil etadi. Davlat budget orqali ilmfanning eng istiqbolli yo‘nalishlariga zarur mablag‘larni yo‘naltirish bilan birga mamlakatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishni ta‘minlaydi.

Bularning barchasi davlatning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirish, butun xalq xo‘jaligida pul va moddiy resurslarni oqilona joylashtirishga imkon yaratadi, fan texnika taraqqiyotiga ko‘maklashadi va davlatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytiradi.

Budgetni tartibga solish joylardagi iqtisodiy va madaniy tadbirlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Budgetni tartibga solish yordamida mablag‘larni keng miqyosda hududlararo taqsimlash, hududiy va mahalliy budgetlarning daromad manbalarini ta‘minlash amalga oshiriladi. Mahalliy budgetlar mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy bazasi bo‘lish bilan birga, ularning butun mamlakat iqtisodiyoti bilan aloqasini ham mustahkamlaydi.

Budjet noishlab chiqarish sohasini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbasi hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar, boshqaruv va mudofaani moliyalashtirish davlat budjeti orqali amalga oshiriladi.

Davlat budjeti moliya tizimining yetakchi bo'g'inidir. Mablag'larning jang'arilishi va sarflanishi budjet orqali doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Davlat budjeti joriy yil uchun davlatning asosiy moliyaviy rejasidir. U davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini tashkil etish va sarflash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Davlat budjeti daromad va xarajatlar bo'yicha tuziladi. Budjetning daromatlari (turli mulk shakliga mansub bo'lgan) korxonalarining mablag'lari hamda qisman aholining daromatlari hisobiga tashkil bo'ladi.

Davlat budjetining xarajatlari ijtimoiy-madaniy tadbirlar, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, davlat boshqaruv organlarini saqlash, davlat qarzlarini qaytarish, davlatning moddiy va moliyaviy rezervlarini tashkil etish uchun yo'naltiriladi. Davlat budjeti xarajatlarining 1992–2010-yillardagi o'zgarish tendensiyasi 2.5-jadvalda keltirilgan (YAIMga nisbatan, %da).

Davlat budjetining xarajatlari (YAIMga nisbatan%)²¹

2.5-jadval

Ko'rsatkichlar	1992	1996	2000	2005	2010
Xarajatlar jami	43.7	36.5	29	21.5	21.7
1. Ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya	23.7	16.4	12.3	10.8	12.7
2. Iqtisodiy sohaga yo'naltirilgan harakatlar	5	4.9	2.7	2.9	2.4
3. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashga xarajatlar	3	7.2	5.9	2.3	1.4
4. Boshqa xarajatlar	12	8	8.1	5.5	5.2

Davlat budjeti xarajatlarining 1992–2010-yillardagi o'zgarish tendensiyasi 2.6-jadvalda keltirilgan (umumiy hajmga nisbatan, %da).

Mamlakat iqtisodiyotini bosqichma-bosqich isloh qilish va erkinlashtirish, qator davlat funksiyalarining xususiy sektorga berilishi Davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirishga yordam berdi. Sanoatlashtirishning yangi yo'nalishlari rivojlanishi va xususiy sektor

²¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

moliyaviy ahvoning mustahkamlanishi hamda uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining oshishi budget daromadlarining bir necha marta ko'payishiga imkon yaratdi. Bular natijasida Davlat budjeti defitsitining keskin kamayishiga erishildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan 1991-yilda Davlat budjetining defitsiti uning umumiy xarajatlaridan 44% oshgan. 2005-yildan boshlab Davlat budjeti profitsit bilan ijro qilinmoqda va bu makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam bermoqda.

Davlat budjetning xarajatlari (umumiy hajmga nisbatan%)²²

2.6-jadval

Ko'rsatkichlar	1992	1996	2000	2005	2010
Xarajatlar jami	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
1. Ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya	54.2	45.1	42.4	50.2	58.5
2. Iqtisodiy sohaga yo'naltirilgan harakatlar	11.4	13.5	9.3	13.5	11.1
3. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashga xarajatlar	6.9	19.5	20.3	10.7	6.5
4. Boshqa xarajatlar	27.5	22.0	27.9	25.6	24.0

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida davlat budjeti xarajatlarining tuzilmasi ham sifat jihatdan o'zgardi. Hozirgi vaqtda davlat xarajatlarining tuzilmasida kuchli ijtimoiy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilishni moliyaviy ta'minlash asosiy o'rinni egallaydi. Natijada ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining ulushi izchil ravishda 1990-yilda 31,5% dan 2000- yilgacha 42,5% gacha va 2010-yilda 59% gacha o'sdi.

Mustaqillik yillarida Davlat budjeti jami xarajatlarining YAIM dagi ulushi pasayishiga qaramasdan, xarajatlarining ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi nafaqat saqlanib qolindi, balki sezilarli darajada kuchaydi. Xususan, ta'lim sohasiga qilingan xarajatlar 1990-yilda 17,9%dan 2010-yilda 33,3%ga, sog'liqni saqlash sohasiga mos ravishda 10,0%dan 12,8%gacha ko'paygan (2.7-jadval).

Ishlab chiqarish kuchlarini maqsadga muvofiq ravishda joylashtirish, hamma hududlarning iqtisodi va madaniyatini yuksaltirish manfaatlarini hisobga olib, moliyaviy resurslarni tarmoqlararo va hududlararo qaytadan taqsimlashda budjetdan keng foydalaniladi.

²² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi, yalpi milliy mahsulot (YAMM) uning ikkinchi makroiqtisodiy ko'rsatkichidir. Ularning har ikkalasi xalq xo'jaligining ikki sohasidagi-moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish

Davlat budjeti xarajatlari tuzulmasi o'zgarishining dinamikasi,
(%)²³

2.7-jadval

Ko'rsatkichlar	1990 y.	2000 y.	2010 y.
Jami xarajatlar	100	100	100
1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	31,5	42,5	59,0
shundan:			
maorif	17,9	23,2	33,3
sog'liqni saqlash	10,0	8,7	12,8
2. Iqtisodiyot	40,7	9,2	11,3
3. Investitsiya	16,6	20,4	6,4
4. Boshqa xarajatlar	11,2	27,9	23,3

sohalaridagi faoliyat natijalarini ifodalaydi. Ular iqtisodi-yotda yil (kvartal, oy) davomida ishlab chiqarilgan hamma tovar va xizmatlarning qiymati shaklida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar joriy va doimiy narxlarda hisoblanadi.

YAIM hudud belgisi bo'yicha aniqlanadi. Bu mamlakat hududida joylash-gan korxonalarining qaysi millatga qarashli ekanligidan qat'i nazar, u moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan mahsulotlarning umumiy qiymatidir.

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) – bu milliy korxonalarining qayerda(o'z mamlakatida yoki chet elda) joylashganligidan qat'i nazar, milliy iqtisodiyotning ikkala sohasida yaratilgan hamma mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymatidir.

Bozor munosabatlari sharoitida davlat budjetining mablag'lari hammadan avval iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishni, maqsadli dasturlar majmuini mablag' bilan ta'minlash, ilmiytexnikaviy quvvatni oshirishni, ijtimoiy rivojlanishni tezlashtirishni va aholining kam ta'min-

²³ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тешендиши ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнолари: Стат. тўплам. –Т., «Ўзбекистон», 2011. – Б 19.

langan tabaqalarini ijtimoiy himoyalashni mablag' bilan ta'minlash uchun yo'naltirilishi kerak.

Hozirgi sharoitda agrosanoat yoqilg'i-energetika majmui va transport eng ustuvor tarmoqlardir.

Davlat budjeti xarajatlar va soliqlar orqali iqtisodiyotni va investitsiyani tartibga solishning va rag'batlantirishning, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim quroli bo'lib namoyon bo'ladi. Budjetning bu funksiyasi xalq xo'jaligining muhim tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llabquvvatlashga qaratiladi. Iqtisodiyotni tartibga solish uchun tegishli soliq mexanizmini qo'llash yo'li bilan soliq siyosatidan faol foydalaniladi.

Hozirgi sharoitda budjet siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotni ishlab chiqarish pasayishidan saqlab qolish.
2. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash.
3. Investitsiya faolligini rag'batlantirish jang'armaning milliy daromaddagi hissasi ortishiga erishish.
4. Ayrim moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga beriladigan davlat dotat-siyalari uchun budjet xarajatlarini qisqartirish.
5. Soliqqa tortish ishlarini takomillashtirish va soliq to'lash ustidan nazoratni kuchaytirish hisobiga budjetning daromad negizini mustahkamlash.
6. Davlat xarajatlaridan samarali va belgilangan maqsadiga foydalanish ustidan moliyaviy nazorat tizimini tashkil qilish.
7. Davlat qarzlarning miqdori ustidan nazoratni kuchaytirish va hokazo.

2.2. Budjetga doir asosiy tushunchalar ta'rifi

Budjet tizimi to'g'risida qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

1. Budjet jarayoni. Qonun hujjatlari bilan tartibga solingan. Davlat budje-tini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish va uning ijrosini nazorat qilish, budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzish va tasdiqlash jarayoniga hamda Davlat budjetining tarkibiga kiruvchi budjetlarning o'zaro munosabatlariga budjet jarayoni deyiladi.

2. Budjet dotatsiyasi. O'zining daromadlari va budjetni tartibga solish yo'li bilan beriladigan boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda yuqori budjetdan quyi budjetga uning xarajatlari bilan daromadlarini

balanslash uchun beriladigan pul mablag'lariga budget dotatsiyasi deyiladi.

3. Budget profitsiti. Ma'lum davrdagi budget daromadlarining xarajat-laridan ortiq bo'lgan summasiga budget profitsiti deyiladi.

4. Budget ssudasi. Yuqori budgetdan quyi budgetga yoki xorijiy davlatga qaytarish sharti bilan beriladigan mablag'lardir.

5. Budget subvensiyasi. Budget dotatsiyasining bir shakli bo'lib, yuqori budgetdan quyi budgetga qonunchilikda belgilangan tartibda ma'lum maqsadlarga sarflash uchun qaytarib olmaslik sharti beriladigan pul mablag'laridir.

6. Budget so'rovi. Budgetning daromadlarini shakllantirish va budgetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rovdur.

7. Budget transferti. Budgetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoki vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lardir.

8. Budget taqchilligi ma'lum davrdagi budget xarajatlarining uning daromadlaridan ortiq bo'lgan summasidir.

9. Davlatning maqsadli fondlari bu Davlat budgetining tarkibiga kiritiladigan fondlar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'larning manbalari, shu manbalardan keladigan mablag'larning me'yorlari va shartlari hamda bu mablag'larni qanday maqsadlar uchun sarflash mumkinligi qonun bilan belgilangandir.

10. Moliya yili birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

11. Kassadagi aylanma naqd pul bu moliya yilida Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti va mahalliy budjetlarning schotlarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun bilan belgilangan eng kam miqdoridir.

12. Davlatning ichki qarzlari bu davlat tomonidan ichki mablag'larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan qarz majburiyatlarining yig'indisidir.

13. Davlatning tashqi qarzlari bu mablag'larni xorijiy davlatlardan jalb qilish natijasida vujudga kelgan davlatning qarz majburiyatlaridir.

14. Davlat qarzi ichki mablag'larni va xorijiy davlatlarning mablag'larini jalb qilish natijasida vujudga kelgan davlatning qarz majburiyatlaridir.

2.3. Budget tizimi, uning asosiy tamoyillari va tarkibiy qismlari

Budget tuzumi – bu davlat budjeti va mamlakat budget tizimining tuzilish tamoyillari to‘plami, ularning strukturasi, budget tizimiga kiradigan budjetlarning o‘zaro bog‘liqligi va ular faoliyatining huquqiy asoslaridan iborat.

Budget tuzumining asoslari mamlakat davlatchiligining tuzilish shakli, unda amal qilayotgan asosiy qonun hujjatlari, budgetning ijtimoiy takror ishlab chiqa-rishdagi va sotsial jarayonlardagi roli bilan belgilanadi.

Budget tuzumining bir qismini budget tizimi tashkil etadi.

Budget tizimi – bu davlat, ma‘muriy-hududiy tuzilmalar, iqtisodiy munosabatlar, davlat tuzumi va huquqiy normalarga asoslangan, budjeti bo‘yicha mustaqil bo‘lgan davlat muassasalari va fondlarining budjetlari to‘plami. Budget tizimi davlat moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

Budget tizimi va davlat tuzumining shakli. Budget tizimining tuzilishi mamlakatning davlatchilik va ma‘muriy shakliga bog‘liq. Hokimiyatning markaz va ma‘muriy-hududiy tuzilmalar o‘rtasida taqsimlanish darajasiga ko‘ra barcha davlatlar *unitar, federativ va konfederativ* davlatlarga bo‘linadi.

Unitar davlat davlat tuzumining shakli bo‘lib, unda ma‘muriy-hududiy tuzilmalar o‘z davlatchiligi yoki muxtoriyatiga ega bo‘lmaydi. Mamlakatda yagona konstitutsiya, barcha uchun umumiy huquq tizimi, yagona hukumat organlari, davlatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni markazlashgan boshqaruv amal qiladi. Unitar davlatning budget tizimi ikkita bo‘g‘idan iborat: *davlat budjeti va mahalliy budjetlar*.

Federativ davlat – bu davlat tuzumining shakli bo‘lib, unda davlat tarkibiga kiradigan davlat tuzilmalari yoki ma‘muriy-hududiy tuzilmalar o‘zlarining davlatchiligiga ega hamda ular va markaz o‘rtasida taqsimlangan ma‘lum siyosiy mustaqillikka ega bo‘ladi. Federativ davlatlarning budget tizimi uch bo‘g‘inli bo‘ladi:

1. Federal budjet, ya‘ni davlat budjeti.
2. Federatsiya a‘zolarining budjeti. Masalan, Rossiyada federatsiya subyekt-larining budjeti, AQSHda shtatlarning budjeti.
3. Mahalliy budjetlar.

Unitar davlatlarda ham, federativ davlatlarda ham quyi budjetlar daromad va xarajatlari bilan o'zidan yuqori turuvchi budjetning tarkibiga kirmaydi.

Konfederativ davlat – bu suveren davlatlarning doimiy ittifoqi bo'lib siyosiy yoki harbiy maqsadlarga erishish uchun tashkil topadi. Bunday davlatning budjeti konfederatsiyaga kiruvchi davlatlarning badallaridan shakllanadi. Konfederatsiyaga a'zo davlatlarda o'zlarining budjetlari va soliq tizimlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi budjet tuzumining asoslari mamlakat Konstitutsi-yasi va uning davlatchilik tuzumi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining tuzilishi mamlakat Konstitutsi-yasiga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 122-moddasiga mu-vofiq «*O'zbekistonning davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetidan iborat*»²⁴.

O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi respublika budjeti, Qora-qalpog'iston Respublikasining budjetini va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi. Mahalliy budjetlar tarkibiga viloyat budjetlari, Toshkent shaharining budjeti, shahar, tuman, shaharcha va qishloq fuqarolar yig'inining budjetlari kiradi.

1997-yilning birinchi yanvaridan boshlab Pensiya jamg'armasining pul mab-lag'lari Davlat budjetiga kiritiladi. Bunda jamg'arma mab-lag'larini shakllantirish va sarflash yo'nalishlari saqlab qolinadi.

O'z-o'zini boshqaruvchi quyi organlarning budjetlari o'zlarining daromad va xarajatlari bilan o'zidan yuqori darajadagi budjetlarning tarkibiga kirmaydi. Bu budjetlarning yig'indisi birlashtirilgan budjetni tashkil qiladi. U qonun chiqaruvchi hukumat organi tomonidan tasdiqlanmaydi.

Budjet tizimi birlik, oshkoralik, budjet tizimiga kiruvchi hamma budjetlarning mustaqilligi prinsiplariga asoslanadi.

Shuningdek, davlat budjeti tarkibiga maqsadli manbalar hisobidan tashkil etilgan va muayyan maqsadlar uchun sarflanadigan *davlatning maqsadli budjet fondlari* ham kiradi (yo'l fondi, ekologiya fondi va b.).

O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi 2.3- rasmda keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimiga kiradigan budjetlar mustaqil va bir-biriga qo'shilmaydi, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar respublika budjetiga kiritilmaydi.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., «O'zbekiston» 2003. –B 33.

Budjet tizimiga respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlardan tashqari, *davlatning budjetdan tashqari fondlari* ham kiradi (pensiya fondi, ijtimoiy sug'urta fondi va b.). Ushbu fondlarning mablag'lari iqtisodiy mazmun va ulardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha budjetnikidan deyarli farq qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining faoliyat ko'rsatishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: 1) budjet tizimining yagonaligi; 2) budjet tizimi pog'onalarining o'rtasida daromadlar va xarajatlarning chega-ralanishi; 3) har xil pog'onalar budjetlarining mustaqilligi; 4) budjetlarning va davlatning budjetdan tashqari fondlarining daromadlari va xarajatlarini to'liq aks ettirish; 5) budjetning balanslashganligi; 6) budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va tejamlilik; 7) budjet xarajatlarining qoplanishi; 8) budjetga oid axborotlarning oshkorligi; 9) budjetning ishonchiligi; 10) budjet mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarining aniqligi va maqsadlilik.

1. *Budjet tizimining yagonaligi* – bu huquqiy baza, budjet hujjatlarining shakllari, jarayoni, qonunchiligini, shuningdek, budjet tizimining barcha pog'ona-lari ularining xarajatlarini moliyalashning yagona tartibini, budjet mablag'lari buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzganlik uchun jarimalar bir xilligi.

2. *Budjet tizimi pog'onalarining o'rtasida daromadlar va xarajatlarning chegaralanishi* tegishli daromadlarning davlat hukumati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga to'liq yoki qisman birlashtirilishi va ishlatilishini bildiradi.


3. *Har xil pog'onalar budjetlarining mustaqilligi* barcha budjetlarning muhim tamoyili bo'lib, quyidagilarni bildiradi:

- davlat hokimiyati organlari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan budjet tizimining har bir pog'onasida budjet jarayonini mustaqil amalga oshirish huquqi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan budjet tizimi har bir pog'onasi budjetlari daromadlarining o'z manbalari mavjudligi;

- budjetlarni tartibga soluvchi daromadlarning qonun bilan mustahkamlanishi, tegishli budjetlar daromadlarini shakllantirish bo'yicha vakolatlar;

- davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat organlarining tegishli budjetlar mablag'larini ishlatish yo'nalishlarini mustaqil aniqlash huquqi;



2.3-rasm. O'zbekiston Respublikasining budget tizimi.

- davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat organlarining tegishli budjetlar defitsitlarini moliyalashtirish manbalarini mustaqil aniqlash huquqi;

- budjet to'g'risidagi qonunlar (qarorlar)ni ijro etish chog'ida olingan qo'shimcha daromadlarni, daromadlarning xarajatlardan oshgan qismi va budjet xarajatlari bo'yicha tejalgan summalarni olib qo'yishga yo'l qo'yilmasligi.

4. *Budjetlarning va davlatning budjetdan tashqari fondlarining daro-madlari va xarajatlarini to'liq aks ettirish.* Ushbu tamoyil budjetlarning va davlatning budjetdan tashqari fondlarining daromadlari va xarajatlari hamda boshqa majburiy tushumlar budjetlar va davlat budjetdan tashqari fondlarida majburiy tartibda va to'liq hajmda aks ettirilishini nazarda tutadi. Barcha davlat va mahalliy xarajatlar O'zbekiston Respublikasining budjet tizimida to'plangan, budjet mablag'lari va davlatning budjetdan tashqari fondlari hisobidan qoplanishi lozim.

5. *Budjetning balanslashganligi* – budjetda ko'zda tutilgan xarajatlar hajmi budjet daromadlari va uning defitsitini moliyalashtirish manbalaridan kelgan tushumlarning jami summasiga mos kelishi lozim.

6. *Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va tejamliligiga* erishish uchun hukumat organlari budjetlarini tuzish va ijro etish chog'ida budjet mablag'larini oluvchilar ham budjetdan ajratilgan mablag'larni ishlatishda belgilangan natijalarga erishish zaruratidan kelib chiqishlari lozim.

7. *Budjet xarajatlarning qoplanishi* – budjetning barcha xarajatlari daromalar va uning defitsitini moliyalashtirish manbalarining umumiy summasi bilan qoplanishi lozim.

8. *Budjetga oid axborotlarning oshkoraligi* quyidagilarni nazarda tutadi:

- tasdiqlangan budjetlar va ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni ochiq matbuotda chop etish majburiyiligi, budjetlar ijrosi to'g'risidagi axborotlarni taqdim etishning to'liqligi hamda davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining qarorlari bo'yicha boshqa ma'lumotlarga ruxsat etilishi;

- budjet loyihalari, shu jumladan, yoxud davlat hokimiyatining qonunchilik organlari ichidagi, yoxud davlat hokimiyatining qonunchilik va ijro organlari o'rtasidagi muammolarni keltirib chiqargan masalalar bo'yicha qarorlarni ko'rib chiqish va qabul qilish to'g'risidagi

axborotlarni jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun majburiy ochiqligi;

9. *Budjetning ishonchliligi* tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish prognozlarini ko'rsatkichlarining ishonchliligi hamda budjet daromadlari va xarajatlari hisob-kitobining haqqoniyligi.

10. *Budjet mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarining aniqligi va maqsadliligi* budjet mablag'larining aniq maqsadlarni moliyalashtirish uchun ularning yo'nalishlarini ko'rsatgan holda aniq mablag' oluvchilar ixtiyoriga ajratilganligini bildiradi.

2.4. Budjet huquqi

Budjet huquqi O'zbekiston Respublikasining budjet tuzilishini belgilovchi qonun-qoidalarining yig'indisidir.

Budjet huquqida davlat budjetining tashkiliy tuzilishi, budjetni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish bilan bog'liq bo'lgan qonun-qoidalar hamda budjet nazoratini tashkil qilish, budjetning daromad va xarajatlarini ayrim budjet.turlari o'rtasida taqsimlash tartibi belgilab beriladi.

Budjet huquqi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunga, soliqlar to'g'risidagi qonunlarga va boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslanadi. Unda har bir davlat hukumat va boshqaruv organlarining budjet masalalariga doir vakolatlari aniq belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari:

1. Davlat budjetining loyahasini tuzish ishlarini tashkil qiladi va uni Oliy majlisga taqdim etadi.

2. Davlat budjetining ijrosini tashkil qiladi.

3. Moliya vazirligi va boshqa davlat boshqaruv organlarining budjetni ijro etish bilan bog'liq bo'lgan ishlarini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

4. Davlatning maqsadli fondlarini tashkil qilish va ularni sarflash tartibini belgilaydi.

5. Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni Oliy majlisga tasdiqlash uchun taqdim qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hukumat va boshqaruv organlarining hamda joylardagi mahalliy hukumat organlarining budjet tizimiga rahbarlik qilish sohasidagi vakolatlari:

Qoraqalpog'iston Respublikasining yuqori kengashi va joylardagi hoki-miyatlarning vakillik organlari:

1. Tegishli tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasining budgetini va mahalliy budgetlarni qabul qiladi hamda ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlaydi.

2. Qonunlarga muvofiq mahalliy budgetlarga tushadigan soliq va yig'implarni hamda ular bo'yicha beriladigan imtiyozlarni belgilaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklar:

1. Budgetlarning loyihalarini tegishli tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi-ning Jo'qori kengashiga va joylardagi hokimiyatlarning vakillik organlariga qabul qilishi uchun taqdim etadi hamda ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzadi.

2. Mablag'larning budgetga o'z vaqtida tushishi va belgilangan maqsadiga sarflanishi ustidan olib boriladigan nazoratni tashkil qiladi va hokazo .

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining budget tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari:

Moliya vazirligi:

1. Davlat budgetining loyahasini tuzadi.

2. Mablag'larning budgetga tushish va budgetdan sarflash tartibini belgilaydi, ularning ustidan nazorat olib boradi.

3. Respublika budgetining xarajatlarini amalga oshiradi

4. Budget tashkilotlarining xarajat smetalarini va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazadi.

5. Budget mablag'laridan foydalanishni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni qabul qiladi.

2.5. Davlat budgetining daromadlari va xarajatlari

Bozor munosabatlari sharoitida davlat budgetining daromadlari asosan soliq-lardan iborat bo'ladi.

Soliqlar budget tizimining hamma bo'g'inlariga jamg'ariladigan YAIMning bir qismidir.

Bu davlatning ixtiyoriga avvaldan qonun bilan belgilangan miqdorlarda tushadigan va jismoniy shaxslarning majburiy to'lovlaridir.

Hozirgi zamon soliq tizimi soliqlarning ko'pligi bilan tavsiflanadi. Uning tarkibi davlat tuzumiga bog'liq. Unitar(yaxlit, birlashgan) davlatlarda soliq tizimi ikki bo'g'indan, ya'ni davlat soliqlari va

mahalliy soliqlardan iborat bo'ladi. Federativ davlatlarda soliq tizimi uch bo'g'inlik bo'lib, davlat soliqlari, federatsiya a'zolarining budgetlariga birlashtirilgan soliqlar va mahalliy soliqlardan iborat bo'ladi.

Budget taqchilligi(defitsiti) bu budget xarajatlarining uning daromadlaridan ortiq bo'lishidir.

Budget taqchilligini qoplash uchun davlatning qimmatli qog'ozlari, xazina majburiyatlari, davlat ichki qarzlarning obligatsiyalari, sertifikatlar va xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlaridan foydalanilishi mumkin.

Bu sohadagi asosiy vazifa inflatsiyasiz manbalardan keng foydalanish va chetdan olinadigan qarzlarni izchil qisqartirib borishdir.

Davlat budgetining daromadlari quyidagilardan iborat:

1. Qonun hujjatlarida belgilangan soliq va yig'img'lar, davlat boji va boshqa majburiy to'lovlar.

2. Davlatning moliyaviy aktivlarini joylashtirishdan va sotilishidan olinadigan daromadlar (jimg'arma, sertifikat, obligatsiya, xazina majburiyatlari kabi).

3. Meros huquqi bo'yicha va hadya qilinishi natijasida davlat mulkiga o'tgan mablag'lar.

4. Yuridik va jismoniy shaxslardan hamda chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul kirimlari.

5. Yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan budget sudalarining qaytarilishidan keladigan mablag'lar.

Davlat byujetining xarajatlari takroriy ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyati bo'yicha moddiy ishlab chiqarishni mablag' bilan ta'minlash va noishlab chiqarish sohalarini saqlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga bo'linadi.

Budget xarajatlari belgilangan vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Iqtisodiyotga qilinadigan xarajatlar.
2. Ijtimoiy - madaniy tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash.
3. Mudofaa xarajatlari.
4. Boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari.
5. Huquqni himoya qilish va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.
6. Chuqur (fundamental) ilmiy izlanishlar va ilmiy-texnika taraqqiyotiga yordam ko'rsatish xarajatlari.
7. Davlat qarzlari xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.

Budgetdan qilinadigan hamma xarajatlar:

Joriy xarajatlarga va kapital xarajatlarga bo'linadi. Xarajatlarning asosiy qismi joriy xarajatlardir. Ularga davlat qaramog'idagi tashkilot va muassasalarning tovar va xizmatlar uchun qilinadigan to'lovlari, davlat xizmatchilarining ish haqi, ish haqiga hisoblanadigan ijtimoiy sug'urta ajratmalari, davlatning ichki va tashqi qarzlari bo'yicha to'lovlar kiradi.

Kapital xarajatlar qurilish, asosiy fondlarni sotib olish va kapital ta'mirlash xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Bozor munosabatlari sharoitida budjetdan xalq xo'jaligini mablag' bilan ta'minlashga, shu jumladan, markazlashtirilgan kapital xarajatlar uchun mablag' ajratish keskin kamayadi. Xususiylashtirish dasturi amalga oshiri-lishi munosabati bilan davlat korxonalarining ko'pchilik qismi hissadorlik jamiyatlariga aylantiriladi.

Ular kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish xarajatlarini o'z mablag'lari va moliya bozorida olinadigan mablag'lar hisobiga amalga oshiradi.

Ijtimoiy-madaniy tadbirlarga budjetdan qilinadigan xarajatlar maorif, sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya, ijtimoiy-ta'minot, madaniyat va san'at, ommaviy axborot vositalariga qilinadigan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy xarajatlarning katta qismi budjetdan tashqari ijtimoiy fondlar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi.

Davlat qarzlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga davlat qarzlarini qaytarish va unga xizmatlar ko'rsatish mamlakat hududlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi xarajatlar kiradi.

Xarajatlarni budjetdan mablag' bilan ta'minlashning asosiy tamoyillari (prinsiplari) quyidagilardan iborat:

1. Tejamkorlik, kam xarajat bilan samaradorlikni ta'minlash.
2. Budjetdan ajratilgan mablag'larni belgilangan maqsadiga sarflash.
3. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bajarilgan sari va avval ajratilgan mablag'lardan foydalanganligini hisobga olgan holda budjetdan mablag' berish.

4. Budjetdan berilgan mablag'larning qaytarilmasligi.

Davlat xarajatlari sohasidagi asosiy vazifalar:

1. Budjet mablag'larini eng samarali va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarga yo'naltirish.
2. Davlat apparatini saqlash xarajatlarini qisqartirish.

3. Loyihalarni mablag' bilan ta'minlashning davlat tijorat tajribasini kengaytirish bilan, markazlashtirilmagan investitsiya jarayonini davom ettirish.

4. Milliy mudofaa va mudofaa majmuiga ajratilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish.

5. Ayrim tarmoqlarga beriladigan dotatsiya darajasini pasaytirish.

6. Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish.

7. Fan, madaniyat, tibbiyot va ta'lim sohalarini mablag' bilan ta'minlashning ustuvorligini ta'minlash.

2.6. Budjet klassifikatsiyasi

Budjet klassifikatsiyasi bu davlat budjetiga kiruvchi budjetlarning daromad va xarajatlarini hamda uning taqchilligini mablag' bilan ta'minlash manbalarini guruhlashdan iboratdir.

Budjet klassifikatsiyasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Budjet klassifikatsiyasi Davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish ishlarida budjet ma'lumotlarini tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bu ma'lumotlar xalqaro klassifikatsiya tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan taqqoslanishini (qiyoslanishini) ta'minlaydi.

Budjet klassifikatsiyasi Davlat budjeti daromadlarining klassifikatsiyasini, Davlat budjeti xarajatlarining funksional (vazifasi bo'yicha), tashkiliy va iqtisodiy klassifikatsiyalarini hamda budjet taqchilligini mablag' bilan ta'minlash manbalarining klassifikatsiyasini o'z ichiga oladi.

Budjet daromadlarining klassifikatsiyasi ularning turlari va manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladi.

Budjet xarajatlarining funksional klassifikatsiyasida xarajatlar davlat boshqaruv organlari hamda mahalliy hokimiyat organlari bajaradigan asosiy funksiyalar bo'yicha guruhlanadi.

Budjet xarajatlarining tashkiliy klassifikatsiyasida ular xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirlar bo'yicha guruhlanadi.

Budjet xarajatlarining iqtisodiy klassifikatsiyasida ular iqtisodiy vazifalar va to'lov turlari bo'yicha guruhlanadi.

Budjet taqchilligini mablag' bilan ta'minlash manbalarining klassifikatsiyasida ular ichki va tashqi manbalar bo'yicha guruhlanadi.

Daromad va xarajatlarni guruhlash budjet tizimi yagona bo'lishining, individual smetalarni tarmoq smetalariga birlashtirishning, ularni tegishli budjetga qo'shishning muhim shartidir.

2.7. Davlat budjetini tayyorlash, ko'rib chiqish va qabul qilish tartibi

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi har yili

- Qoraqalpog'iston Respublikasining vazirlar Kengashiga
- Viloyat hokimlariga
- Toshkent shahar hokimiga kelgusi yil budjetlarining loyihalarini tuzish uchun Respublika budjetidan mablag' bilan ta'minlanuvchilarga budjetdan ajratiladigan mablag'larni olish uchun talabnomalar (zayavkalar) tuzish haqida budjet so'rovi yuboradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shaharining moliya organlari 3 kunlik muddat ichida tuman va shahar hokimlariga tegishli budjetlarning loyihalarini tuzish uchun, Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti va mahalliy budjetlardan mablag' bilan ta'minlanuvchilarga budjetdan ajratiladigan mablag'larni olish uchun talabnomalar (zayavkalar) tuzish haqida budjet so'rovi yuboradi.

Tuman va shahar hokimliklarining moliya organlari 3 kunlik muddat ichida budjet mablag'larini oluvchilarga tuman va shaharlarning budjetlaridan mablag' olish uchun talabnomalar (zayavkalar) tuzish haqida budjet so'rovlari yuboradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining budjetidan va mahalliy budjetlardan mablag' oluvchilar joriy yilning 1-iyunidan kechikmay tegishli moliya organlariga, respublika budjetidan mablag' oluvchilar joriy yilning 1-iyulidan kechikmay Moliya vazirligiga tuzgan talabnomalar (zayavkalarini) taqdim etishlari kerak.

Kelgusi yil budjetlarining loyihalari tuman va shahar hokimliklarining moliya organlari tomonidan joriy yilning 25-iyunidan kechikmay yuqori moliya organlariga Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi tomonidan joriy yilning 1-iyulidan kechikmay O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi Davlat budjetining loyahasini budjetdan mablag' oluvchilarning talabnomalariga (zayav-

kalariga) va tegishli budjetlarning loyihalariga asosan tuzadi va joriy yilning 15-sentabrigacha Vazirlar Mahkamasiga taqdim qiladi.

Davlat budjetining loyihasi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1. Davlat budjetining daromad va xarajatlarini.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti, viloyatlar va Toshkent shahari budjetlarining daromad va xarajatlarini, ularga umumdavlat soliqlaridan beriladigan ajratmalarning me'yorlarini, shu budjetlarga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet subvensiyalarini.

3. Mahalliy budjetlarning kassalaridagi aylanma naqd pullarning miqdorini.

4. Vazirlar Mahkamasining zaxira fondi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlarining zaxira fondlarini.

Budjetga nazarda tutilmagan xarajatlar uchun tegishli budjetlardan mablag'lar shu zaxira fondlari doirada sarflanishi mumkin.

5. Davlat budjetining taqchilligi va uni mablag' bilan ta'minlash manbalarini.

6. Ichki va tashqi davlat qarzlarning eng yuqori miqdorlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi, vakil qilingan vazirliklar va boshqa tegishli tashkilotlar bilan birgalikda budjetnoma loyihasini ishlab chiqadi hamda 15 sentabrgacha Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi. Budjetnoma quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va joriy yilga kutilayotgan yakunlarni.

2. Davlat budjetining o'tgan yilgi ijrosi to'g'risidagi hisobot va joriy yilga kutilayotgan ijrosi.

3. Kelgusi yil uchun budjet va soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini va ularning sharhlarini.

4. Ichki va tashqi davlat qarzlarning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni.

5. Kelgusi moliya yili uchun Davlat budjetining loyihasini.

Budjetnoma Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktabridan kechiktirmay Oliy majlisga taqdim qilinadi.

I. Davlat budjeti Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi.

II. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti qabul qilinganidan keyin 2 haftalik muddat ichida Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti uning Jo'qori Kengashi tomonidan qabul

qilinadi, viloyatlar va Toshkent shaharining budjetlari viloyatlar va Toshkent shahar hukumatining vakillik organlari tomonidan qabul qilinadi.

III. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarning budjetlari qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddat ichida tumanlar va shaharlarning budjetlari tuman va shahar hukumatining vakillik organlari tomonidan qabul qilinadi.

IV. Shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlarning budjetlari va tuman qaramog‘idagi shaharlarning budjetlari yuqori turuvchi mahalliy hukumatning vakillik organlari tomonidan belgilangan muddatlarda qabul qilinadi.

Davlat budjeti qabul qilinganidan keyin Moliya vazirligi 1) Qoraqal-pog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahari budjetlarining daromad va xarajatlarini, shu budjetlarga respublika budjetidan beriladigan dotatsiya va subvensiyalarning hajmini 3 kun ichida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shaharining hokimlariga yetkazadi.

2) Davlat budjeti daromadlarining hajmini Davlat soliq komiteti va Davlat bojxona komitetiga bildiradi.

3) Respublika budjetidan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan tashkilotlarga ular uchun belgilangan daromad va xarajatlarning hajmini 10 kun ichida ma‘lum qiladi.

4) Davlatning maqsadli fondlariga egalik qiluvchi organlarga ular uchun belgilangan daromad va xarajatlarning hajmini ham 10 kun ichida ma‘lum qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining budjeti va mahalliy budjetlar qabul qilinganidan keyin tegishli moliya organlari bir hafta ichida:

1) Tegishli soliq xizmati organlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasining budjeti va mahalliy budjetlar uchun tasdiqlangan daromadlarning hajmini ma‘lum qiladi.

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasining budjeti va mahalliy budjetlardan mablag‘ bilan ta‘minlanuvchi tashkilotlarga budjetdan ajratilgan mablag‘-larning hajmini ma‘lum qiladi (2.8-jadval).

Budjet jarayoni va uning qatnashchilari

2.8-jadval

BOSQICHLAR	ISHTIROKCHILAR
1. Budjetni shakllantirish	Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, mahalliy boshqaruv organlari, budjetdan mablag' oluvchilar
2. Budjetni ko'rib chiqish	Moliya vazirligi, Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis palatalari, mahalliy boshqaruv organlari
3. Budjetni qabul qilish, tasdiq-lash	Oliy majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, mahalliy boshqaruv organlari
4. Budjetni ijro etish	Moliya vazirligi, G'aznachilik, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, mahalliy boshqaruv organlari, budjetdan mablag' oluvchilar
5. Nazorat	Moliya vazirligi, G'aznachilik, Nazorat taftish boshqarmalari, Hisob palatasi, mahalliy boshqaruv organlari
6. Hisobot tayyorlash va tasdiq-lash	Budjetdan mablag' oluvchilar, G'aznachilik, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, mahalliy boshqaruv organlari, Moliya vazirligi, Hisob palatasi, Oliy Majlis quyi palatasi

2.8. Davlat budjetining ijrosi va uning ijrosi to'g'risidagi hisobot

Davlat budjetining daromadlari «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunga, soliq va bojxona qonunchiligiga muvofiq shakllantiriladi.

Budjet mablag'lari byujetdan mablag' oluvchilar tomonidan moliya yili davomida xarajat smetalariga muvofiq bosqichma-bosqich ma'lum davrga va tegishli summaga tayinlash sertifikatini rasmiylashtirish yo'li bilan sarflanadi.

Respublika budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlar bo'yicha tayinlash sertifikati Moliya vazirligi tomonidan rasmiylashtiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti yoki mahalliy budjetlardan mablag' bilan ta'minlanuvchi tashkilotlar bo'yicha tayinlash sertifikati te-gishli moliya organi tomonidan rasmiylashtiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti va hamma darajadagi mahalliy budjetlarning hisobidagi budjet mablag'larining qoldiqlari ularning kassasidagi aylanma naqd pullarning tasdiqlangan summasini shakllantirish uchun yo'naltiriladi. Qolgan qismi Qoraqalpog'iston

Respublikasining Va-zirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning qarori bilan qo'shimcha xara-jatlar uchun sarflanishi mumkin.

Budjet tashkilotlarining schetlardagi pul qoldiqlari (kapital xarajatlar uchun belgilangan mablag'lardan tashqari) qaytarib olinmaydi va budjet tashkilotlarining maxsus mablag'lar hisobvarag'iga o'tkaziladi. Budjet tash-kilotlarining maxsus mablag'larini tashkil etish va sarflash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat budjetining kassaviy ijrosini hamda uning daromad va xarajatlarini hisobga olish ishlarini Markaziy bank Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiradi. Markaziy bankning topshirig'iga muvofiq tijorat banklari Davlat budjetining kassaviy ijrosi bilan bog'liq bo'lgan ope-ratsiyalarni bajaradi.

Budjetdan mablag' oluvchilarning hisoboti. Respublika budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan budjetdan mablag' oluvchilar hisobot davrida budjetdan ajratilgan mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligiga taqdim qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti va mahalliy budjetlardan mablag' bilan ta'minlanadigan budjetdan mablag' oluvchilar hisobot davrida budjetdan ajratilgan mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotni tegi-shli moliya organlariga taqdim qiladi.

Moliya organlarining hisoboti. Tumanlar, viloyat qaramog'idagi va Qoraqalpog'iston Respublikasining qaramog'idagi shaharlarning moliya organlari budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tegishli hokimliklarga hamda o'zidan yuqori turuvchi moliya organlariga taqdim qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shaharining Moliya organlari tegishli budjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashiga va tegishli hokimliklarga hamda O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

Davlat soliq komiteti va Davlat bojxona komiteti O'zbekiston Respub-likasining Moliya vazirligiga har oyda Davlat budjetiga tushgan soliq va yig'imlar hamda boshqa majburiy to'lovlar haqidagi hisobotni top-shiradi.

Joylardagi soliq xizmati organlari har oyda tegishli moliya organlariga Davlat budjetiga tushgan soliq va yig'imlar haqidagi hisobotlarni taqdim qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi Davlat budjetining ijrosi haqidagi hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayidan kechikmay Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilishi kerak.

Vazirlar Mahkamasi hisobot yilidan keyingi yilning 15-mayidan kechikmay Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni Oliy Majlisga taqdim qiladi.

Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot Oliy Majlis tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

2.9. Davlat krediti

Davlat krediti – davlat nomidan uning hukumat va boshqaruv organlari bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Bunda davlat qarz oluvchi hamda kreditor va kafil sifatida namoyon bo'ladi. Miqdor jihatidan davlatning qarz oluvchi sifatidagi faoliyati ustun keladi. Davlatning yuridik va jismoniy shaxslarga ssudalar berishi bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni kreditor sifatidagi operatsiyalarining hajmi kam hissaga ega. Davlat qarzlarni qaytarish yoki boshqa majburiyatlarni bajarish bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslar olgan javobgarlikni o'z zimmasiga olgan taqdirda u kafil bo'lgan bo'ladi. Davlatning kafilligi, odatda, yetarlicha ishonchli bo'lmagan qarzdorlarga qo'llaniladi.

Davlat krediti iqtisodiy kategoriya sifatida pul munosabatlarining ikki xil turi – moliya va kredit to'qnashgan joyda turadi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini birgalikda qo'shib olib boradi.

Davlat krediti moliya tizimining bir bo'g'ini sifatida u davlatning markazlashtirilgan pul fondlarini, ya'ni budjet va budjetdan tashqari fondlarni tashkil etilishi va sarflanishiga xizmat qiladi.

Davlat krediti kreditlarning bir turi sifatida uning moliya kategoriyalaridan farq qilishiga sabab bo'ladigan qator xususiyatlarga ega. Masalan, u soliqlardan farq qilib, ixtiyoriylik xususiyatiga ega. Agar soliqlar bir yo'nalishda, ya'ni to'lovchilardan budjet tomonga harakat qilsa, ma'lum muddatdan keyin foiz to'lovlari bilan qaytarish shart ekanligi davlat kreditining asosiy belgisidir.

Davlat krediti moliya kategoriyasi sifatida taqsimot, tartibga solish va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Davlat kreditining taqsimot funksiyasi orqali davlatning markazlashtirilgan pul fondlari muddatlilik, qaytarilishi shartligi va to'lovlilik prinsiplari asosida tashkil etiladi va sarflanadi. Qarzdor

bo'lish bilan davlat o'zining xarajatlarini qoplash uchun qo'shimcha mablag'larga ega bo'ladi. Sanoati rivojlangan davlatlarda davlat qarzlari budget taq-chilligini qoplashning asosiy manbaidir. Hozirgi sharoitda davlat qarzlari budget xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning soliqlardan keyingi ikkinchi usulidir. Bu soliqlar orqali olinadigan kirimlarga nisbatan budget xarajatlarining tezroq o'sishi bilan bog'liq.

Davlat qarzlari qaytarish manbalari. Davlat qarzlari hisobiga ishlab chiqarish sohasiga kapital xarajatlar qilinganida, qurib bitkazilgan obyektlar ishga tushirilishi natijasida olinadigan foyda davlat qarzlari qaytarish uchun yo'naltiriladi. Bunday hollarda soliqlar davlat qarzlari qaytarishning yagona manbai emasdir.

Davlat qarzlari harbiy xarajatlar, ijtimoiy tadbirlar kabi noishlab chiqarish sohasiga safarbar qilinganida ular soliqlar yoki yangi davlat qarzlari hisobiga qaytarilishi mumkin. Avval chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha davlat qarzlari to'lash uchun yangi qarzlarni chiqarilishiga qayta moliyaviy ta'minlash (remoliyalash) deyiladi.

Davlat kredit munosabatlariga kirish bilan, ixtiyoriy yoki beixtyoriy ravishda pul muomalasining holatiga, pul va kapital bozorida foiz to'lov-larining darajasiga, ishlab chiqarish va aholining ish bilan ta'minlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat kreditidan iqtisodiyotni tartibga solishning quroli sifatida foydalanib, davlat u yoki bu moliya siyosatini amalga oshirishi mumkin.

Davlat qarzlari investorlarning turli guruhlariga o'rtasida joylashtirish bilan, pul muomalasini tartibga soladi. Jismoniy shaxslarning mablag'larini jamg'arish bilan u aholining to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talablarini kamaytiradi.

Agar kredit hisobiga investitsiya tadbirlari mablag' bilan ta'minlansa, muomaladagi naqd pullarning miqdori kamayadi. Noishlab chiqarish sohasidagi ishlovchilarning ish haqini oshirish xarajatlari mablag' bilan ta'minlangan taqdirda, muomaladagi naqd pullarning miqdori o'zgarmaydi, lekin to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talabning tarkibi o'zgarishi mumkin.

Moliya bozorida qarz oluvchi sifatida namoyon bo'lish bilan, davlat qarz mablag'larga bo'lgan talabni oshiradi va bu o'z navbatida kreditning bahosi oshishiga olib keladi. Davlatning qarz mablag'larga bo'lgan talabi qanchalik yuqori bo'lsa, ssudalar uchun to'lanadigan foiz to'lovlarining darajasi shunchalik yuqori, kredit, ayniqsa, tadbirkorlar uchun esa qimmat. Qarz mablag'larning qimmatligi tadbirkorlarni ishlab chiqarish sohasiga qilinadigan investitsiyalarni qisqartirishga majbur

qiladi, shu bilan birga u davlatning qimmatli qog'ozlarini sotib olish bilan bo'ladigan jamg'ar-malarni rag'batlantiradi.

Davlat chet eldan olingan qarz mablag'lar hisobiga milliy tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga talablar qo'yish, kreditor va kafil sifatida namoyon bo'lish bilan ishlab chiqarish va aholining ish bilan ta'min-lani-shiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sanoati rivojlangan davlatlarda, tegishli dasturlarga muvofiq banklar tomonidan beriladigan kreditlarni davlat tomonidan kafolatlash yo'li bilan, kichik biznesni va eksportni qo'llabquvvatlash tizimi keng tarqalgan. Respublikamizda ham davlatning iqtisodiy siyosati kichik va o'rta biznesni hamda eksportni soliq, kredit va sug'urta imtiyozlari berish bilan keng ko'lamda qo'llab- quvvatlashga qaratilgan.

Davlat kreditining nazorat funksiyasi moliyaning nazorat funksiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu kategoriyaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan maxsus belgilariga ega.

Davlat qarzlari bir necha belgilar bo'yicha guruhlanishi mumkin.

1. Qarz munosabatlarining subyektlari bo'yicha—markaziy va mahalliy boshqaruv organlari joylashtiradigan qarzar.

2. Qarzning joylashtirilgan joyi bo'yicha—ichki va tashqi qarzar.

3. Bozorda muomalada bo'lishi bo'yicha—sotiladigan va sotilmaydigan. Sotiladigan qarzar bemaolol sotiladi va sotib olinadi. Budget taqchilligini mablag' bilan ta'minlashda ular asosiy bo'lib hisoblanadi. Sotilmaydigan qarzar o'zining egasini erkin o'zgartirolmaydi va qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'lishi mumkin emas. Bunday qimmatli qog'ozlar, odatda, davlat tomonidan ma'lum investorlarni jalb etish uchun ularning maxsus manfaatlariga muvofiq chiqariladi. G'arb davlatlarida sotilmaydigan davlat obligatsiyalari nodavlat pensiya jamg'armalari, sug'urta kompa-niyalari, kichik investorlarning mablag'larini jalb etish uchun chiqariladi.

4. Mablag'larni jalb etish muddatlariga ko'ra —davlat qarzlari qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yil va undan yuqori) bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli qarzar daromadlar bilan xarajatlar o'rtasida vaqtinchalik tafovutni mablag' bilan ta'minlash uchun qo'llaniladi.

5. Qarz majburiyatlarining ta'minlanishi bo'yichagarovli va garovsiz.

Garovli obligatsiyalar aniq garov bilan ta'minlanadi, masalan, ma'lum mulk bilan. Ko'pincha ularni mahalliy hukumat organlari chiqaradi. Dav-latning hamma mulklari garovsiz obligatsiyalarning

ta'minoti bo'lib xizmat qiladi. Markaziy boshqaruv organlari odatda garovsiz obligatsiyalar chi-qaradi. Ularning ishonchliligi g'oyat yuqori bo'lganligi uchun investorlar hech qanday qo'shimcha kafolatga muhtoj bo'lmaydi.

6. To'lanadigan daromadning xususiyatiga ko'ra qarz majburiyatlar yutuqli, foizli va nol kuponli turlarga bo'linadi.

7. Daromadni aniqlash uslubi bo'yicha davlatning qarz majburiyatlari qat'iy daromadli yoki o'zgaruvchan daromadli bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda qimmatli qog'ozlar bo'yicha belgilangan stavkalar davlatning foiz to'lovlari to'lash uchun qiladigan xarajatlari ortishiga sabab bo'ladi, boshqa hollarda foiz to'lovlari oshishini kutayotgan investorlarni cho'chitib yuborishi mumkin. Foiz to'lovlarining miqdori kreditning hamma davri uchun belgilanmaydigan, bozordagi vaziyat o'zgarishiga qarab foiz to'lovlari qayta ko'rib turiladigan qarz majburiyatlar o'zgaruvchan (qalqib yuruvchi) daromadli qarzlarga kiradi. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lanadigan foiz to'lovlarini qaytadan belgilashda odatda banklararo kredit bo'yicha vujudga kelgan foiz to'lovlari asos qilib olinadi.

8. Qarzni qaytarish muddatiga qat'iy rioya qilish to'g'risidagi qarzdorning majburiyatiga ko'ra qarz vositalari muddatidan avval qaytarish huquqini beradigan majburiyatga va muddatidan avval qaytarish huquqi berilmaydigan majburiyatga bo'linadi.

Qarz majburiyatlarini muddatidan avval qaytarish masalasi moliya bozorida jiddiy o'zgarishlar yuz bergan taqdirda dolzarb masala bo'ladi. Masalan, agar qarz oluvchi har yili 10% daromad to'lanishi belgilangan obligatsiya chiqargan bo'lsa, ma'lum vaqtdan keyin moliya bozorida kredit bo'yicha foiz stavkasi pasayib 6% ni tashkil etsa, bunday holda qarz oluvchi zarar ko'radi, investor esa katta yutuqqa ega bo'ladi. Agar obligatsiyalar muddatidan avval qaytarish huquqi bilan chiqarilgan bo'lsa, qarz oluvchi yangi qarz obligatsiyalarini chiqarib joylashtirish va avvalgi qarzlarni qaytarish bilan ko'radigan zararini kamaytirishi mumkin bo'ladi.

Davlat kreditini boshqarish ham keng ma'noda, ham tor ma'noda ko'rilishi mumkin. Keng ma'noda davlat kreditini boshqarish deganda, davlatning qarz oluvchi, kreditor va kafil sifatidagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan u olib boradigan moliya siyosatining bir yo'nalishi shakllantirilishiga tushuniladi. Moliya siyosatining bir yo'nalishi bo'lgan, keng ma'noda Davlat kreditini boshqarish davlat hukumat va boshqaruv organlarining qo'lidadir. Xuddi ana shular budjet

taqchilligining umumiy hajmini va demak, uni mablag' bilan ta'minlash uchun zarur bo'ladigan qarzning hajmini, pul muomalasi, kredit, ishlab chiqarish, aholining bandligiga ta'sir qilishning asosiy yo'nalishlari va maqsadlarini hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha umumdavlat dasturlarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

Hozirgi davrda davlat va mahalliy budjetlarning doimiy taqchilligi va davlat qarzlarning kattaligi ko'pchilik sanoati rivojlangan davlatlarga xosdir. Kreditni davlat egallashi(ekspansiya qilishi) natijasida, boshqa qarz oluvchilar moliya bozoridan surib chiqariladi, kredit uchun yuqori foiz to'lovlari saqlanadi. Davlat qarzlariga xizmat qilish xarajatlari g'oyat katta bo'lishi soliq kirimlarining tobora ko'proq hissasini yutib yuboradi. Shuning uchun budjet taqchilligini va davlat qarzlarni qisqartirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tor ma'noda davlat kreditini boshqarish deganda, davlatning qarz majburiyatlarini chiqarishga tayyorlash va joylashtirish, davlatning qimmatli qog'ozlari bozorini tartibga solish, davlat qarzlarga xizmat ko'rsatish va qaytarish, ssudalar va kafolatlar berish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yig'indisi tushuniladi.

Davlat kreditini boshqarish jarayonida bozor davlatning qarz majburiyatlari bilan to'lib ketishiga va ularning kursi keskin o'zgarib turishiga yo'l qo'ymaslik, kreditlardan belgilangan maqsadiga muvofiq foy-dalanilishi ustidan nazorat qilish, kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash kabi vazifalar bajarilishi kerak.

Davlat kreditini boshqarish ishlari Moliya vazirligi bilan Markaziy bankning zimmasiga yuklatilgan.

Nazorat savollari

1. Davlat budjetining iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshiradigan mexanizm sifatidagi tavsifi.
2. Budjetning funksiyalari va ular qanday namoyon bo'ladi?
3. Budjet daromadlari va budjet xarajatlari nima?
4. Budjet siyosatining asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
5. «Budjet tuzumi» va «budjet tizimi» atamalarini qanday tushunasiz?
6. Budjet tizimining davlatchilik tuzumiga bog'liqligi qanday?
7. O'zbekiston Respublikasining budjet tizimini ta'riflang.
8. Davlatning budjetdan tashqari fondlarini tavsiflang.
9. Budjet tizimining faoliyat ko'rsatish tamoyillari qanday?

Nazorat testlari

1. Budget tizimi –:

- A) o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir ko'rsatadigan kategoriyalar, bo'g'inlar va sferalar ko'rinishida namoyon bo'ladigan moliyaviy munosabatlar to'plamidan iborat bo'lib, korxonalar, xonadonlar va davlatning pul fondlarini taqsimlaydi va ishlatadi
- B) budget va soliq tizimidan iborat.
- C) umumdavlat moliyasi va budgetdan tashqari fanlarni o'z ichiga oladi.
- D) markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlari, jamg'arma va iste'mol fondlaridan iborat.
- E) davlat, ma'muriy-hududiy tuzilmalar, iqtisodiy munosabatlar, davlat tuzimi va huquqiy normalarga asoslangan, budjeti bo'yicha mustaqil bo'lgan davlat muassasalari va fondlarining budjetlari to'plami.

2. Pensiya jamg'armasining mablag'larini tashkil etish manbalari

- A) budgetdan ijtimoiy ta'minot tadbirlari uchun ajratiladigan mablag'lar.
- B) ijtimoiy sug'urta ajratmalarining mablag'lari, fuqarolarning majburiy ijtimoiy sug'urta badallari, korxonalar sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning hajmidan to'laydigan majburiy ajratmalar.
- C) ijtimoiy sug'urta ajratmalarining mablag'lari.
- D) shaxsiy sug'urta fondining mablag'lari.
- E) ijtimoiy va shaxsiy sug'urtaning mablag'lari.

3. Pensiya jamg'armasi mablag'larining sarflanishi

- A) fuqarolarga yoshi bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik bo'yicha pensiyalar tayinlash uchun.
- B) fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash, bolalikdan nogironlarga, ish stajiga ega bo'lmagan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar to'lash uchun.
- C) davlat pensiyalari tayinlash va vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlik bo'yicha shu jumladan, ayollarning homiladorlik ta'tiliga nafaqalar to'lash uchun.
- D) fuqarolarga pensiya va nafaqalar to'lash uchun.
- E) fuqarolarga yoshi bo'yicha pensiya va nafaqalar tayinlash uchun.

4. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risidagi qonuni» necha bob va nechta moddadan iborat?

- A) 5 bobdan, 35 moddadan.
- B) 5 bobdan, 38 moddadan.
- C) 7 bobdan, 40 moddadan.
- D) 7 bobdan, 43 moddadan.
- E) 8 bobdan, 35 moddadan.

5. Vazirlar Mahkamasining budjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari

- A) budjetning ijrosini amalga oshirish, uni hisobga olish va nazorat qilish.
- B) davlat budjetining loyahasini tuzish va uning ijro etilishiga rahbarlik qilish, budjetning loyahasini va uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni Oliy Majlisga taqdim qilish.
- C) davlat budjetining loyahasini tuzish va ijro qilish bo'yicha Moliya vazirligi va davlatning boshqa idora organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.
- D) budjetni tuzish, ijro qilish va budjet hisobini yuritish bo'yicha barcha me'yoriy va uslubiy hujjatlarni tasdiqlash.
- E) budjetning loyahasini tuzish va uning ijrosiga doir qarorlar qabul qilish.

6. Davlat budjetining xarajatlariga quyidagilar kiradi

- A) Budjetdan mablag' oluvchilarning joriy xarajatlari, kapital xarajatlari, debitor qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, qisqa muddatli kredit bo'yicha foiz to'lovlari va hokazo.
- B) Budjetdan mablag' oluvchilarning joriy xarajatlari, berilgan budjet ssudalari, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va tarqatish xarajatlari va hokazo.
- C) Berilgan budjet ssudalari va dotatsiyalar, budjetdan mablag' oluvchilarning joriy xarajatlari, kapital xarajatlari, davlat qarzlari bo'yicha xarajatlar va hokazo.
- D) Budjetdan mablag' oluvchilarning joriy xarajatlari, davlat qarzlarni to'lash, budjetdan beriladigan ssudalar, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar, uzoq muddatli ijara xarajatlari.

E) Ijtimoiy-madaniy, mudofaa, davlatni boshqarish xarajatlari.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti va mahalliy budjetlarning daromad va xarajatlarida yil ichida vujudga keladigan uzilishning qoplanishi

A) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'i bilan qoplanadi.

B) QR Moliya vazirligining hamda viloyat moliya organlarining buyrug'i bilan qoplanadi.

C) budjet dotatsiyasi va budjet subventsiyasi bilan qoplanadi.

D) kassaning aylanma naqd pullari, budjet mablag'larining foydalanilmagan qoldig'i va yuqori budjetdan beriladigan ssuda bilan qoplanadi.

E) tegishli davlat hukumat organlarining buyrug'i bilan qoplanadi.

8. O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi har yili kelgusi moliya yili uchun budjetdan ajratiladigan mablag'larga talabnoma tuzish uchun budjet so'rovi yuboradi:

A) respublika budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan budjetdan mablag' oluvchilarga.

B) davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan budjetdan mablag' oluvchi-larga.

C) davlatning maqsadli jamg'armalaridan mablag' bilan ta'minlanadigan budjet-dan mablag' oluvchilarga.

D) viloyat budjetlaridan mablag' bilan ta'minlanadigan budjetdan mablag' oluvchilarga.

E) tegishli budjet tashkilotlariga.

9. Davlat budjetining daromadlariga quyidagilar kiradi:

A) soliqlar, yig'imlar, boj to'lovlari, ssudalar bo'yicha foiz to'lovlari, royalti, aksiyalar bo'yicha dividendlar.

B) soliq va yig'imlar, boj to'lovlari, meros huquqi bo'yicha olingan va hadya qilingan pul mablag'lari, yuridik shaxslar va chet el davlatlarga berilgan budjet ssudalarining qaytarilishi.

C) soliqlar va yig'imlar, davlat boji, mulklarni ijaraga berishdan tushadigan mablag'lar, meros huquqi bo'yicha va hadya qilish natijasida olinadigan mablag'lar, asosiy vositalarni sotishdan olinadigan daromadlar.

- D) davlat boji, davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarni sotishdan va foydalanishga berishdan tushadigan mablag'lar, soliq va yig'imlar.
- E) soliq kodeksida belgilangan barcha soliq va yig'imlar.

10. Budjet klassifikatsiyasi nima?

- A) budjetning davromad va xarajatlari hamda ularning taqchilligini mablag' bilan ta'minlash manbalarining guruhlanishi.
- B) respublika va mahalliy budjetlardan mablag' oluvchilarning guruhlanishidir.
- C) moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi budjet daromadlarining guruhlanishidir.
- D) noishlab chiqarish tarmoqlaridagi budjet xarajatlarining guruhlanishidir.
- E) rejalashtirish va hisobga olish maqsadida budjetning daromad va xarajatlarini guruhlashdir.

11. Markaziy bankning hisob stavkasi (uchet stavkasi) nima?

- A) tijorat banklari yuridik shaxslarga beradigan uzoq muddatli undiriladigan foiz to'lovi.
- B) tijorat banklari yuridik shaxslarga beradigan qisqa muddatli foiz to'lovi.
- C) markaziy bank xo'jalik yurituvchi subyektlarga beradigan qisqa muddatli kredit bo'yicha undiriladigan foiz to'lovi.
- D) markaziy bank tijorat banklariga beradigan kredit bo'yicha foiz to'lovi.
- E) hamma kredit turlari uchun banklar undradigan foiz to'lovi.

12. Davlat budjetining xarajatlariga quyidagilar kiradi

- A) budjetdan mablag'l oluvchilarning joriy xarajatlari, kapital xarajatlari, debitor qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, qisqa muddatli kredit bo'yicha foiz to'lovlari va hokazo.
- B) budjetdan mablag' oluvchilarning joriy xarajatlari, berilgan budjet ssudalari, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va tarqatish xarajatlari va hokazo.

C) budjetdan mablag' oluvchilarning joriy xarajatlari, davlat qarzlarini to'lash, budjetdan beriladigan ssudalar, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar, uzoq muddatli ijara xarajatlari.

D) berilgan budjet ssudalari va dotatsiyalar, budjetdan mablag' oluvchilarning joriy xarajatlari, kapital xarajatlari, davlat qarzlari bo'yicha xarajatlar va hokazo.

E) ijtimoiy-madaniy, mudofaa, davlatni boshqarish xarajatlari.

13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga vakil qilingan vazirliklar hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda tuzilgan budjetnomaning loyihasini Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilish muddati:

A) 1-sentabrgacha.

B) 25-sentabrgacha.

C) 15-sentabrgacha.

D) 1-oktabrgacha.

E) 15-oktabrgacha.

14. Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotning Moliya vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga va Vazirlar Mahkamasi tomonidan Oliy Majlisga taqdim qilish muddatlari:

A) 1-maygacha, 15-maygacha.

B) 15-martgacha, 25-aprelgacha.

C) 1-aprelgacha, 15-aprelgacha.

D) 15-aprelgacha, 25-aprelgacha.

E) 1-martgacha, 15-martgacha.

II BO'LIM. AGRAR KORXONALAR MOLİYASI

III bob. AGRAR KORXONALAR MOLİYASINING UMUMIY TAVSIFI VA UNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

3.1. Agrar korxonalar moliyasining mohiyati va funksiyalari

Agrar islohotlarni amalga oshirish jarayonida sohadagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan fermer va dehqon xo'jaliklari, agro-firmalarning iqtisodiy moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydigan, xususiylariga meros qilib qoldirish huquqi bilan uzoq muddatli ijaraga beriladigan qishloq xo'jalik yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantiradigan me'yoriy-huquqiy tizim va kafolatlar yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga muvofiq fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalarini 50 yilgacha muddatga ijaraga berish belgilangan. 2010-yilda qishloq xo'jalik jami ekin maydonlarining 3143,0 ming ga fermer xo'jaliklariga, 471,5 ming ga, dehqon xo'jaliklariga va 93,9 ming ga boshqa qishloq xo'jalik korxonalariga to'g'ri keladi (3.1-jadval).

2000–2010-yillarda qishloq xo'jaligining mamlakat yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi, ishlab chiqarish hajmlarining mutlaq ko'rsatkichlari barqaror o'sgani holda, 30,1 foizdan 17,5 foizga pasaygan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha milliy iqtisodiyot dunyoning rivojlanib borayotgan mamlakatlari tuzilmasiga yaqinlashmoqda. Bunday mamlakatlarning YAIM tuzulmasida agrar ishlab chiqarish 10 foizdan oshmaydi (3.2, 3.3-jadvallar).

Agrar sohani isloh qilish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan tadbirlar olib borilganligi natijasida quyidagilar ta'minlandi:

- chorvachilik mahsulotlarining qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy hajmidagi ulushi mos ravishda 1990-yilda 36,6 foizdan 2010-yilda 40,6 foizga ko'paygan. Bu asosan dehqon xo'jaliklarida chorva mollari bosh sonining o'sishi hisobiga sodir bo'lib, mos ravishda 1990-yil va 2010-yilda go'sht ishlab chiqarish hajmi 789,1 ming tonnadan 1461,4 ming tonnaga (1,9 marta), sut 3034,2 ming tonnadan 6169,0 ming tonnaga (2 marta) va tuxum 1231,8 mln. donadan 3061,2 mln. donaga (2,5 marta) ko'paygan;

• paxta xomashyosining ulushi qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiy hajmida 47,7 foizdan 11,1 foizga qisqarib chorvachilik va o'simlikchilik tarmog'idagi qolgan mahsulot turlari ulushining o'sishi hosildorlik va mahsuldorlik oshishi hisobiga amalga oshirilgan;

Qishloq xo'jalik ekinlari bilan band ekin maydonlarining xo'jalik turlari bo'yicha taqsimlanishi²⁵

3.1-jadval

	1990y	2000y	2010y
Dehqon xo'jaliklari			
Jami ekin maydoni	216,5	401,5	471,5
Don ekinlari	37,8	195,4	217,6
shundan, boshog'li	11	161,1	186,5
shu jumladan, bug'doy	7,4	156,3	178,4
Texnik ekinlar	6,1	7	8
Kartoshka	12,6	40,8	54,3
Sabzavot	64,2	86,7	112,6
Poliz ekinlari	15,5	15,5	20,4
Ozuqabop ekinlar	80,3	56,1	58,6
Fermer xo'jaliklari			
Jami ekin maydoni	-	632,2	3143,0
Don ekinlari	-	255,0	1422,4
shundan boshog'li ekinlar	-	216,0	1339,0
shu jumladan bug'doy	-	211,1	1262,0
Texnik ekinlar	-	307,0	1381,1
shu jumladan paxta	-	299,2	1320,8
Kartoshka	-	2,6	15,7
Sabzavot	-	8,4	59,1
Poliz ekinlari	-	6,5	26,4
Ozuqabop ekinlar	-	52,4	238,3
Boshqa qishloq xo'jalik korxonalari			
Jami ekin maydoni	3974,0	2744,6	93,9
Don ekinlari	970,0	1163,6	39,3
shundan boshog'li ekinlar	717,5	1040,4	34,4
shu jumladan bug'doy	425,7	988,4	25,9
Texnik ekinlar	2278,0	1198,5	27,9
shu jumladan paxta	2237,9	1145,3	21,7
Kartoshka	29,3	8,8	0,7
Sabzavot	76,0	34,8	1,3
Poliz ekinlari	642	14,9	1,1
Ozuqabop ekinlar	548,5	320,5	23,5

²⁵ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: Стат. гуллам. –Т., «Ўзбекистон», 2011. – Б. 45.

• don ekinlari ishlab chiqarish hajmlarining 1990-yilga nisbatan 2010-yilda 2038,2 ming tonnadan 2010-yilga kelib, 7504,3 ming tonnaga o'sishiga asosan ekin maydonlarining kengayishi va hosildorlikning oshishi hisobiga erishilgan;

• meva-sabzavot ekinlari ishlab chiqarish hajmining ko'payishi: kartoshka-5 marta, poliz-1,2 marta, meva va rezavorlar-2,6 marta va uzum-1,3 marta o'sgan.

Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tuzulmasi, (%)²⁶

3.2-jadval

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Hammasi	100	100	100
Sanoat	17,6	14,2	24,0
Qishloq xo'jaligi	33,4	30,1	17,5
Qurilish	5,8	6,0	6,4
Transpot va aloqa	5,2	7,7	12,4
Savdo	4,5	10,8	9,0
Boshqalar	22,2	18,7	23,7
Sof soliqlar	11,3	12,5	7,0

Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligining ulushi, (%)²⁷

3.3-jadval

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Yalpi mahsulot, hammasi	33,4	30,1	17,5
Paxta xomashyosi	15,9	3,6	1,9
Donli	1,4	3,4	2,0
Kartoshka	0,3	0,8	1,4
Sabzavotlar	1,3	2,4	2,3
Poliz	0,5	0,3	0,3
Meva	0,7	0,9	1,1
Uzum	0,8	0,8	0,9

Shuningdek, amalga oshirilgan agrar islohotlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda sezilarli ijobiy o'zgarishlar- ishlab chiqarish hajmining o'sishi, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligining oshishiga olib keldi (3.4, 3.5- jadvallar).

²⁶ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraққийнинг мустақиллик йилларидаги (1990-2010-йиллар) асосий тенденция ва курсаткичлари ҳамда 2011-2015- йилларга мўлжалланган прогнозлари: Стат. тўплам. -Т. «Ўзбекистон», 2011. - Б. 37.

²⁷ Shu manba, - Б. 42.

Asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi, (ts/ga)²⁸

3.4-jadval

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Paxta xomashyosi	22,6	21,8	25,6
Don ekinlari	20,2	28,2	44,2
Kartoshka	80,0	129,3	194,9
Sabzavotlar	192,0	183,8	252,5
Poliz ekinlari	115,0	132,4	192,6

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish natijasida minitexnologiyalar bilan jihozlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan zamonaviy korxonalar barpo qilindi. Natijada, 2010-yilda 2000-yilga nisbatan meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash hajmi 3 barobar oshishiga erishildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish²⁹

3.5-jadval

	O'lchov birligi	1990-yil		2000-yil		2010-yil	
		hajmi	tarkibi, %	hajmi	tarkibi, %	hajmi	tarkibi, %
Yalpi mahsulot, jami	ming t	11,1¹	100	1387,2	100	15810,	7
shu jumladan	ming t						
Paxta xomashyosi	ming t	5057,7	47,7	3002,4	11,8	3442,8	11,1
Don mahsulotlari	ming t	2038,2	4,1	4101,4	11,4	7504,3	10,8
Kartoshka	ming t	336,4	1,0	731,1	2,8	1694,8	8,6
Sabzavotlar	ming t	2842,5	3,8	2644,7	8,1	63,46,	5
Poliz mahsulotlari	ming t	1000,0	1,4	451,4	1,0	1182,	4
Mevalar	ming t	660,4	2,0	790,9	3,0	1710,3	4,7
Uzum	ming t	744,7	2,5	624,2	2,6	987,3	4,5
Go'sht (tirik vaznda)	ming t	789,1	20,1	841,8	23,8	1461,4	24,9
Sut	ming t	3034,2	10,0	3632,5	14,9	6169,0	11,5
Tuxum	mln dona	1231,8	1,1	1254,4	3,0	3061,2	2,7
Jun	ming t	25,8	2,3	15,8	0,1	26,5	0,1

²⁸ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010-йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015-йилларга мўлжалланган прогнозлари. Стат. тўшам. –Т. «Ўзбекистон», 2011., – Б. 46.

²⁹ Shu manba –B. 47.

¹ mlrd rubl

Shunday qilib, agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning sifat natijalari o'z ifodasini quyidagilarda aks ettirmoqda:

ishlab chiqarish samaradorligining oshishi—asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligi;

xususi fermer xo'jaliklari rentabelligining oshishi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror o'sishi natijasida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining ta'minlanishi.

Bunday ijobiy natijalarga erishishda agrar korxonalar moliyasini tashkil etish va moliya ishlarini sifatli amalga oshirish muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, hozirgi vaqtda «Yurtimizda fermer xo'jaliklarini moddiytexnik ta'minlash va mo-liyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda»³⁰.

Agrar korxonalar moliyasi korxonalar moliyasining tarkibiy qismi bo'lib, yalpi milliy mahsulotni yaratish va taqsimlashda ishtirok etadi va milliy daromad yaratadigan moddiy ishlab chiqarish sohasiga xizmat qiladi.

Agrar korxonalarining tadbirkorlik faoliyati davomida mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, o'zining moliyaviy resurslarini shakllantirish, tashqi manbaalardan mablag'larni jalb qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan turli pul munosabatlari vujudga keladi. Boshqacha aytganda, ushbu pul munosabatlari moliyaviy munosabatlardir. Moliyaviy munosabatlar xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kapitalini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini tashkil qilish va sarflash jarayonida sodir bo'ladi.


O'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra jami moliyaviy munosabatlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlanishi mumkin:

1) Korxonani tashkil qilish vaqtida – ustav kapitalini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ta'sischi o'rtasidagi pul munosabatlari. Ustav kapi-tali ishlab chiqarish fondlarini tashkil qilishning dastlabki manbai bo'lib hisoblanadi;

2) Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar o'rtasidagi pul munosabatlari. Bu asosan mol yetkazib beruvchilar, pud-ratchilar va xaridorlar bilan bo'ladigan pul munosabatlaridir;

³⁰ Каримов И.А. Жақон молнавий-иқтисодий инқирозин, Ўзбекистон шартинда уни баргараф этишнинг йўллари ва чоралари. «Ўзбекистон», 2009.

3) Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va joylashtirish, o'zaro kredit berish va qo'shma korxonalarni tashkil etishda hissa qo'shib qat-nashish bilan bog'liq bo'lgan tijorat korxonalar o'rtasidagi pul muno-sabatlari;



3.1-rasm. Agrar sohada vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar.

4) Xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash, foyda va aylanma mablag'larni taqsimlash va sarflash bilan bog'liq bo'lgan korxonalar bilan ularning filial, sex, brigada kabi bo'limlari o'rtasidagi pul munosabatlari;

5) Daromadlarni taqsimlash, mehnatga haq to'lash, aksiya va obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar bo'yicha foiz to'lovlari to'lash bilan bog'liq bo'lgan korxonalar bilan ularning ishlovchilari o'rtasidagi pul munosabatlari;

6) Korxonalar bilan ularning yuqori tashkilotlari o'rtasida, xolding ichida korxonalar a'zo bo'lgan uyushma va assotsiatsiyalar bilan vujudga keladigan pul munosabatlari. Moliyaviy munosabatlar markazlashtirilgan maqsadli pul fondlarini va rezervlarni tashkil qilish, taqsimlash va sarflash, marketing izlanishlarini, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish, ko'rgazmalar tashkil qilish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda ularni mablag' bilan ta'minlash jarayonida vujudga keladi;

7) Budjet va budjetdan tashqari fondlarga tegishli to'lovlarni to'lash, budjetdan mablag' bilan ta'minlash va jarimalar to'lash bilan bog'liq bo'lgan korxonalar bilan moliya tizimi o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;

8) Tijorat banklarida pul mablag'larini saqlash, kredit olish va qaytarish, kredit bo'yicha foiz to'lovlarni to'lash, valuta sotib olish va sotish jarayonida korxonalar bilan banklar o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari;

9) Mulklarni, ayrim toifadagi xodimlarni va tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash bo'yicha korxonalar bilan sug'urta kompaniyalari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari.

Qishloq xo'jaligida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlarni quyidagicha ifodalash mumkin (3.1-rasm).

Ushbu munosabatlar korxonalar moliyasining mohiyatini belgilaydi, chunki ularning vositasi bilan davlatning va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyoridagi turli pul fondlari tashkil qilinadi va sarflanadi. Ma'lumki, moliya fani pulning o'zi emas, balki pul fondlari to'g'risidagi fandir. Pul fondlari ma'lum maqsadlar uchun tashkil qilinadi va belgilangan maqsadlar uchun sarflanishi kerak. Pul fondlari o'z maqsadiga sarflanmagan taqdirda moliya intizomi buzilgan deb hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agrar tijorat korxonalarining moliyasi o'z kapitalini va pul mablag'larining maqsadli fondlarini tashkil qilish va sarflash bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlarini ifodalaydi.

Moliyaning funksiyalari va ularni turkumlash bo'yicha iqtisodchi olimlar orasida hozircha yagona fikr yo'q. Moliya sohasida dunyoga taniqli rossiyalik olimlardan, A.M.Birman, E.A.Voznesenskiy, A.M.Aleksandrov, M.Z.Pizengolts, S.I.Kovanov, S.B.Valter, N.P.Jevtyak, N.G.Sicheva va boshqalarning asarlarida moliya asosan ikkita funksiya bajarishi ta'kid-langan. Mamlakatimiz olimlaridan professor N.H.Haydarov ham «mo-liyaning ichki mohiyatini to'liq ochib beruvchi funksiyalari haqidagi olimlar va yirik amaliyotchilar fikrlaridan tahliliy xulosa chiqarib, moliya asosan ikkita funktsiyani bajaradi, deyishga asos bor va ular:

1. Taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi.
2. Nazorat funksiyasi»³¹ deb tasdiqlaydi.

Demak, agrar korxonalarining moliyasi ham umumdavlat moliyasi bajaradi-gan *taqsimot* va *nazorat* funksiyalarini bajaradi.

Taqsimot – bu ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in. Taqsimot funksiyasi tufayli moliya takror ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatadi, uning barcha bosqichlarida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarini qoplash, turli shakllardagi daromadlarni barpo etish hamda ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun zarur bo'ladigan, maqsadli fondlarni tashkil etishga faol ta'sir ko'rsatadi. Ushbu funksiya asosida umumdavlat ehtiyojlari ta'-minlanadi, noishlab chiqarish sohasini saqlash va rivojlantirish uchun resurslar shakllantiriladi.

Korxonalar moliyasining *nazorat funksiyasi* buxgalteriya, statistik va operativ (tezkor) hisobotlardagi ko'rsatkichlarda mujassamlashgan mo-liyaviy axborotlar vositasi bilan amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkichlar korxonaga faoliyatini va uning natijalarini har tomonlama baholash imkonini beradi. Masalan, foyda va rentabellik darajasi xo'jalik faoliyatining nati-jasini belgilaydi, zararlar va yo'qotishlar mavjudligi mazkur korxonaga ishlarini jiddiy tahlil qilish zarurligidan dalolat beradi. Shuningdek, aniqlangan noxush holatlarni bartaraf etishga qaratil-gan tadbirlar ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, moliya so'm bilan nazorat qilish orqali faoliyat samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. U tovar ishlab

³¹ Хайдаров Н.Х., Молья. –Т.: «Академия» нашриети, 2001, -Б. 15.


chiqaruvchining boshqa korxonalar bilan (yetkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlarga haq to'lashda, shartnoma majburiyatlariga rioya qilishda) va moliyakredit muassasalari bilan o'zaro munosabatlarida (soliq to'lovlari, bank kreditlarini olish va qaytarish, budjetdan mablag' bilan ta'minlash) amalga oshiriladi. Korxonada ichida mehnatning miqdori va sifati, asosiy va aylanma mablag'larning hamda rag'batlantirish fondlarining tashkil etilishi va sarflanishi so'm bilan nazorat qilinadi.

Sifatli axborot bilan ta'minlangandagina samarali qarorlar qabul qilinishi mumkin. Nazorat funksiyasi taqsimot funksiyasidan ajralmagan holda amalga oshiriladi. Ularning birgalikda amal qilishi moliyaning iqtisodiy mohiyatini to'laligicha ro'yobga chiqaradi.

Moliyaning yuqorida ko'rib chiqilgan funksiyalari barcha tarmoqlar va xo'jalik subyektlar uchun umumiydir.

3.2. Agrar korxonalar moliyasini tashkil etish tamoyillari

Agrar korxonalarning moliyasi ham boshqa barcha tarmoqlardagi tijorat korxonalari kabi bir nechta tamoyillarga asosan tashkil etiladi (3.2-rasm).



3.2-rasm. Korxonalar moliyasini tashkil etish tamoyillari.

3.2.1. Xo'jalik jihatdan mustaqillik tamoyilining mazmuni shundan iboratki, barcha tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat sohasini va pul mablag'larini sarflash yo'nalishlarini mustaqil tartibda belgilaydi. Tijorat korxonalari qo'shimcha foyda olish maqsadida boshqa korxonalarining qimmatli qog'ozlarini sotib olish, ularning ustav kapitalini tashkil qilishda hissa qo'shib qatnashish bilan qisqa va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Lekin, korxonada hech qachon xo'jalik jihatdan to'la mustaqil bo'lishi mumkin

emas, chunki davlat korxonalar faoliyatining ayrim tomonlarini tartibga soladi. Haqiqatan ham korxonalar qonun bilan belgilangan tartibda budjetga va budjetdan tashqari fondlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi. Davlat eksport-import, valuta va amortizatsiya siyosatini belgilaydi.

3.2.2. O'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash tamoyili tadbirkorlik faoliyatining asosiy shartlaridan biridir. Bu tamoyil ishlab chiqarish, sotish va investitsiya xarajatlarining o'z mablag'lari hisobiga va zarur bo'lganida kredit hisobiga to'liq qoplanishini bildiradi.

3.2.3. Moddiy manfaatdorlik tamoyili tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi – foyda olish bilan belgilanadi. Korxonada xodimlari uchun bu tamoyil mehnat haqining yuqori darajasi bilan ta'minlanadi. Tijorat korxonalarini uchun esa ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy sharoitlar yaratilishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Korxonaning o'zi yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashda iqtisodiy asoslangan mutanosiblikka (proporsiyaga) rioya qilish bilan bu tamoyil amalda bajaralishiga yordam berishi kerak.

3.2.4. Moddiy javobgarlik tamoyili moliya-xo'jalik faoliyatini yuritish va uning natijalari uchun ma'lum javobgarlik tizimi mavjudligini anglatadi. Shartnoma shartlarini, hisob-kitob intizomini, kreditlarni qaytarish mud-datlarini va soliq qonunlarini buzgan korxonalar jarimalar to'laydi. Zarar ko'rib ishlaydigan, o'zining to'lov majburiyatlarini bajarolmaydigan korxonalar bankrot deb e'lon qilinishi mumkin. Yaroqsiz mahsulot ishlab chiqargan ayrim ishlovchilarga jarimalar solinadi, mukofotlardan mahrum qilinadi, mehnat intizomini buzgan taqdirda ishdan bo'shatiladi. Korxonada rahbarlari soliq qonunchiligini buzganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

3.2.5. Moliyaviy rezervlarni tashkil qilish tamoyili sarflangan mablag'lar qoplanmay qolishining ma'lum muammolari bilan bog'liq. Ko'p hollarda qishloq xo'jaligida tadbirkorlar mahsulotlarini pul o'z vaqtida to'lanmaslik xavfi ostida sotishga majbur bo'ladi. Korxonalarining moliyaviy xarajatlari ham sarflangan mablag'larning qoplanmasligi xavfi bilan yoki mo'ljaldan kam daromad olinishi bilan bog'liq.

Bu tamoyil xo'jalik yuritish davomida korxonada mushkul ahvolda tushgan paytlarda moliyaviy ahvolni tiklash uchun yetarli bo'lgan rezervlar tashkil etilishini ko'zda tutadi.

Bozor munosabatlari sharoitida hamma tarmoqlardagi tijorat korxonalarining moliyasi tijorat hisobi asosida tashkil etilishi va

faoliyat ko'rsatishi lozim. Tijorat hisobi esa yuqorida ko'rsatilgan tamoyillarni taqozo qiladi.

Hozirgi vaqtda moddiy ishlab chiqarish sohalaridagi hamma korxonalar hamda noishlab chiqarish sohalaridagi tashkilotlarning bir qismi o'zining faoliyatini tijorat hisobi asosida amalga oshirmoqda.

Tijorat hisobi xarajatlari bilan faoliyatining natijalari pul ifodasida taqqoslanadigan xo'jalik yuritish uslubidir. Uning maqsadi minimal xarajat bilan maksimal foyda olishdir. Korxonalar faoliyatining hamma tomonlari foyda ko'rsatkichida to'la ifodasini topadi. Foyda ishlab chiqarish sama-radorligining muhim qiymat ko'rsatkichlaridan biridir.

Tijorat hisobi albatta foyda olinishini va xo'jalik yuritish uchun rentabellik darajasi yetarli bo'lishini ko'zda tutadi. Aks holda korxonalar sinadi va samarasizligi uchun tugatilishi kerak bo'ladi. Shuning uchun bozor munosabatlariga o'tilishi bilan foyda birdan bir ko'rsatkichga aylanadi

Tijorat hisobi korxonalarning moliyasini tashkil etishga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: xo'jalik yurituvchi subyektlar chinakam moliyaviy mustaqillikka ega bo'ladi. Bu ularning mahsulot, ish va xizmatlar sotishdan olgan pul kirimlarini mustaqil ravishda taqsimlash, olingan foydaga egalik qilish, ishlab chiqarish va iste'mol fondlarini o'z ixtiyori bilan tashkil qilish va sarflash hamda mustaqil ravishda ishlab chiqarishni kengaytirish manbalarini topish, shu jumladan, kredit resurslarini jalb qilish, aksiya va obligatsiyalar chiqarish huquqlarida o'z ifodasini topadi. Korxonalar istalgan bankda pul mablag'larini saqlash hamda hisob, kredit va kassa operatsiyalarining hamma turlarini amalga oshirish uchun hisoblar ochish huquqiga ega. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'la mustaqilligi deganda, ular amaldagi qonunlar doirasida qarorlar qabul qilishi va mustaqil ish yuritishi tushuniladi.

Korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyati davlat tomonidan qiymat vositalari bilan, ya'ni soliq, valuta, eksport-import va amortizatsiya siyosati orqali tartibga solinadi. Moliyaviy resurslarning korxonalar o'rtasida qaytadan taqsimlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat va uning organlari korxonalarining faoliyatiga o'z vakolatlari doirasi aralashishi mumkin. Davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan korxonalar huquqlarining buzilishi yoki ushbu organlar va mansabdor shaxslarning korxonalariga nisbatan qonunlarda ko'zda tutilgan majburiyatlarini yetarlicha bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararlar yoki boy berilgan foyda korxonalariga ular tomonidan qoplanishi kerak.

Moliyaviy munosabatlarning obyektlari o'z faoliyatining haqiqiy natijalari uchun, mol yetkazib beruvchilar, iste'molchilar, davlat, banklar va boshqalar oldidagi majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi uchun javobgardirlar. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'zlarining majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'ladi. Majburiyatlarini bajarmaganligi uchun korxonalarga jarima to'latish bilan jazo beriladi. Korxonalar xo'jalik va moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lganligi uchun ko'rgan zararlarini o'zi qoplashi kerak, bunda davlat tomonidan ham, yuqori tashkilot tomonidan ham yordam kutilmaydi. Innovatsiya faoliyatidan ko'rilgan zarar moliyaviy rezervlar va sug'urta tizimi hisobiga, xo'jasizlikdan ko'rilgan zararlar foyda hisobiga qoplanadi. Innovatsiya fan-texnika taraqqiyotining natijasi bo'lgan yangi texnika va texnologiyalardir.

Korxonalarining moliyaviy resurslari ular ishlab topgan daromadlar hisobiga tashkil bo'ladi. Bu daromadlarga mahsulot sotishdan, moliya bozorida ishtirok etishdan va boshqa manbalardan olingan daromadlar kiradi. Korxonalar yerdan va tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish, atrof-muhitni ifloslantirish, ishlab chiqarish xavfsizligining qoidalarini buzish va sanitariyagigiyena me'yorlarini buzishdan yetkazilgan zararlarni qoplashi kerak. Agar korxonalar ko'zda tutilgan foyda o'rniga zarar ko'rsa va shuning uchun kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ega bo'lmasa, u bankrot deb e'lon qilinishi va tugatilishi mumkin.

3.3. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari va ularning korxonalar moliyasini tashkil etishga ta'siri

Agrar korxonalar moliyasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining sharoitlari bilan bog'liq. Mavsumiylik va ishlab chiqarish jarayonlarining uzoq davom etishi qishloq xo'jaligiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardir.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning ma'lum qismi chetga sotilmasdan, xo'jalikda yosh chorva mollari, urug'lik, yem-xashak, yerni o'g'itlash uchun solinadigan go'ng sifatida xo'jalikda qoldiriladi. Shuning uchun yetishtirilgan mahsulotlarning bir qismi tovar mahsulotlari tarkibiga kiritilmaydi va pul shakliga aylanmasdan, ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlatiladi.

Chorva mollari va o'simliklarni parvarishlashning tabiiy jarayonlari qishloq xo'jaligida mablag'lar doiraviy aylanishining xususiyatlarini belgilaydi. Bu xususiyatlar mablag'lar doiraviy

aylanishining nisbatan sekinligi, xarajatlarning asta-sekin o'sib borishi, mablag'larning doiraviy aylanishdan bir vaqtda, ya'ni yetishtirilgan mahsulotlarni sotish davrlarida ozod bo'lishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yil davomida xarajatlarni amalga oshirish va daromad olish muddatlari o'rtasida mavsumiy uzilish vujudga keladi. Shu munosabat bilan tovar ishlab chiqaruvchilar katta miqdordagi aylanma mablag'lar zaxirasiga ega bo'lishlari talab etiladi. Aylanma mab-lag'lar sekin aylanadi, ishlab chiqarish zaxiralarini bir yo'la tashkil qilish va uzoq vaqt saqlash talab etiladi, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari katta summalarni tashkil qiladi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jalik korxonalarining aylanma mablag'larida yosh va boquvga qo'yilgan mollar, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari, yem-xashak, urug'lik kabi aylanma mablag'larning hissasi katta bo'ladi. Bularning hammasi ishlab chiqarishni mablag' bilan ta'minlash, asosiy va aylanma kapitalni tashkil qilish va foydalanish tartibini, ularning turlari va tarkibini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi(*Aylanma kapitalni tashkil etish va moliyalashtirish 6 bobda batafsil yoritiladi*).

Rentabellik darajasi yetarli bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini o'zining daromadlari bilan qoplaydi. Lekin ularda yil ichida xarajatlar bilan mahsulotlar sotishdan olinadigan pul kirimlarining mavsumiy nomuvofiqligi vujudga keladi. Ishlab chiqarishning mavsumiyliigi

sababli ishlab chiqarish xarajatlari o'sib borayotgan davrlarda xarajatlar daromadlardan oshib ketadi va aksincha yig'im-terim davrlarida sotishdan olinadigan pul kirimlari xarajatlardan ortiq bo'ladi. Yil davomida ishlab chiqarishni mablag' bilan uzluksiz ta'minlash uchun agrar korxonalar qarz mablag'larini jalb qiladi. Shu sababli aylanma mablag'larning tashkil bo'lish manbalarida qarz manbalarning hissasi katta bo'lishi mumkin (*Qishloq xo'jalik korxonalarining joriy faoliyatini qisqa muddatli kreditlash 7 bobda batafsil bayon qilinadi*).

Fan va texnika sohasida erishilgan ulkan yutuqlarga qaramasdan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bevosita tabiiy, obhavo omillariga bog'liq. Shuning uchun qishloq xo'jalik korxonalari hosil bo'lmaslik, tabiiy ofatlar, chorva mollari-ning yuqumli kasalliklardan nobud bo'lishi va boshqa noqulay hodisalardan kafolatlangan emas.


Ishlab chiqarishning barqaror o'sib borishi uchun zamin yaratish, tabiiy ofatlar va noqulay ob-havo sharoitlaridan ko'rilgan zararlarni qoplash uchun qishloq xo'jalik korxonalari olingan daromaddan sug'urta va zaxira fondlariga katta mablag'lar ajratishga majburdir.

Tarmoqda ishlab chiqarish sikli oylab davom etishini (o'simlikchilikda 9-12 oygacha) hisobga olgan holda xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari faqat yil yakuni bo'yicha aniqlanadi. Yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash va fondlar tashkil etish ushbu xususiyatga muvofiq amalga oshiriladi.

3.4. Agrar korxonalarda bajariladigan moliyaviy ishlarning mazmuni va vazifalari

Qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida moliyaviy ishlar yangicha sifat mazmunini kashf etmoqda. Bu har xil huquqiy-tashkiliy shakldagi korxonalarining barpo bo'lishi va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Uning asosiy maqsadi takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanilishini nazorat qilishdan iborat. Lekin qishloq xo'jalik korxonalarida ularning moliyaviy faoliyatini ta'minlash bo'yicha mustaqil tarkibiy bo'linma yo'q. Odatda, bu vazifa reja-iqtisod bo'limi va buxgalteriyaga yuklanadi.

Moliyaviy ishlar ancha xilma-xil va ular agrar korxonalarda quyidagicha turkumlanishi mumkin (3.3-rasm).



3.3-rasm.

*Ushbu moliyaviy ishlar yoritilgan boblar qavs ichida keltirilgan

3.4.1. Pul mablag'lari va hisob-kitoblarni tashkil etish. Kassa operatsiya-lari bo'yicha mablag'larning kirimi va chiqimi bo'yicha kassa rejasini tuzish, kassa operatsiyalarini rasmiylashtirish va kassadagi mablag'larni nazorat qilish.

Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha buyurtmalar va shartnomalar tuzish, tijorat va to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish, majburiyatlar bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, da'vo qo'zg'atish va h.

Moliya tashkilotlari bilan hisob-kitoblar bo'yicha budjet va budjetdan tashqari fondlarga to'lovlar bo'yicha rejadagi va haqiqiy hisob-kitoblarni tuzish, mulklarni, hosilni va chorva mollarini sug'urtalash bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish, nafaqa to'lash bo'yicha muomalalarni bajarish va h.

3.4.2. Daromadlar va xarajatlarni rejalashtirish. Xo'jalik yurituvchi subyektni barqaror rivojlantirish uchun barcha daromadlar va xarajatlar puxta rejalashtirilishi lozim. Biznes-reja istiqbolni va joriy faoliyatni rejalashtirishga misol bo'lib, unda ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining asosiy jihatlarini bayon qilinadi va tovar ishlab chiqaruvchi to'qnashishi mumkin bo'lgan muammolar tahlil qilinadi hamda moliyaviy xo'jalik vazifalarini hal etish usullari belgilanadi.

Biznes-reja tuzish borasida to'plangan tajribalarni umumlashtirish ularni quyidagi sohalarda qo'llashga imkon beradi: tijorat banklaridan kredit olish uchun investitsion buyurtmalarni tayyorlash; to'lovga layoqatsiz ahvolga tushib qolgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ijobiy moliyaviy natijalarga erishishning iqtisodiy jihatdan foydali yo'nalishlari va usullarini tanlash; qimmatli qog'ozlar emissiyasi loyihalarini tuzish va boshqalar.

Biznes-reja yordamida tovar ishlab chiqaruvchilar hal etishi mumkin bo'lgan asosiy vazifalarga quyidagilar kiradi: asosiy ishlab chiqarish bo'yicha mahsulot sotish, bozorning hajmini va rivojlanish istiqbolini aniqlash; mahsulot va xizmatlarni tayyorlash hamda realizatsiya qilish bo'yicha xarajatlarni baholash; foydani bashorat qilish uchun xarajatlar bilan ehtimol qilinayotgan baholarni taqqoslash; moliya-xo'jalik faoliyatini rejalashtirishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni aniqlash; vujudga kelgan iqtisodiy sharoitda mazkur ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadga muvofiqligini aniqlash.

3.4.3. Aylanma kapitalni tashkil etish, moliyalashtirish va boshqarish – o'z aylanma mablag'larining normativlarini va ularning

haqiqiy mavjud summasini aniqlash, o'z aylanma mablag'larini yetishmovchiligini qoplash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish va aylanuvchanligini tezlashtirish.

3.4.4. Kreditlash – kredit shartnomalarini tuzish, kreditlar bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish, kreditlardan oqilona foydalanish ustidan nazorat o'rnatish, ssudalar muddatini uzaytirish hollarida tegishli tadbirlarni ishlab chiqish.

3.4.5. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish – kapital xarajatlar va ularni mablag' bilan ta'minlash manbalari bo'yicha hisob-kitoblar tuzish, loyiha-smeta hujjatlari va titul ro'yxatlarini tuzish, shartnomalar tuzish, hisob-kitoblarni amalga oshirish.

3.4.6. Moliyaviy rejalashtirish va biznes-reja tuzish. Moliyaviy resurslarni prognozlash va rejalashtirish, moliyaviy reja tuzish, moliya xizmatining nazorat-tahlil va tezkor tadbirlarini amalga oshirish.


3.4.7. Boshqa tadbirlarni amalga oshirish – operatsion xarajatlar bo'yicha smeta va hisob-kitoblarni tuzish, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarini saqlash, uy-joy kommunal xo'jaligi (balansda qolgan) va kadrlar tayyorlash hamda mablag'lardan foydalanish ustidan nazorat o'rnatish.

Shuningdek, budjet, banklar, mol yetkazib beruvchilar va xodimlar oldidagi majburiyatlarni bajarish bilan bir qatorda, hisob-kitoblar, o'zining mablag'laridan va qarzga olingan mablag'lardan foydalanish ustidan nazorat olib borish moliyaviy ishlarning muhim vazifalaridir. Bunda birinchidan, daromadlarni ko'paytirish va rentabellikni oshirish yo'llari, ikkinchidan esa asosiy faoliyatni va kapital xarajatlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyatlari aniqlanadi.

3.5. Moliyaviy menejment haqida tushuncha

Bozor sharoitida faol va to'g'ri tashkil etilgan tadbirkorlik faoliyati zarur. Tovar ishlab chiqaruvchilar o'z manfaatlari yo'lida ish yurita borib, marketingning mohiyati, maqsadi va vazifalarini bilishlari, amaliyotda uning uslublaridan foydalanishlari, qimmatli qog'ozlar bozorida mohirona ish yuritishlari lozim. Shuningdek, bank uning raqibi emas, balki qarz mablag'lari va zarur axborotlarni taqdim etadigan hamkor ekanligini bilishlari hamda xo'jalik aloqalarini yo'lga qo'yishga intilishlari lozim. Buning hammasi xo'jalik yuritishda moliyaviy menejmentdan faol foydalanilganda amalga oshishi mumkin.


Moliyaviy menejmentni xususiy va jalb qilingan kapitaldan samaraliroq foydalanish va eng yuqori foyda olish maqsadida moliyaviy oqimlarni boshqarishni tashkil etish sifatida ta'riflash mumkin. U o'zaro shartlashilgan, ammo nisbatan mustaqil qo'llanish sohalariga ega: uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan bog'liq joriy faoliyat va investitsiyalardir. Moliyaviy menejmentning umumiy sxemasi quyida keltirilgan (3.4-rasm).



3.4-rasm. Moliyaviy menejmentning sxemasi.

Moliyaviy boshqarish ishlab chiqarish topshiriqlarini va moddiy-moliyaviy ta'minotni o'zaro bog'lash hisobiga eng yuqori foydali mahsulot hajmini bashoratlash asosida ma'lum strategiya va taktika ishlab chiqishni talab qiladi.

Moliyaviy menejment boshqaruv tizimi sifatida ikkita quyi tizimdan iborat: boshqariladigan, yoki boshqaruv obyekti va boshqaruvchi, ya'ni boshqaruv subyekti. Pul aylanishi, qiymatning doiraviy aylanishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar va ularning bo'linmalari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning majmuyi obyekt hisoblanadi. Subyekt – bu maxsus kishilar guruhi (moliyaviy direksiya, menedjer) bo'lib, u har xil ta'sir shakllari vositasida obyektни aniq maqsadga yo'naltirilgan boshqarishni ta'minlaydi. Shu munosabat bilan moliyaviy menejment, menejment funksiyalari ikkita asosiy tipga bo'linadi: boshqaruv obyekti va subyekti (3.5-rasm).



3.5-rasm.

Boshqaruv obyektining funksiyalari quyidagilardan iborat: pul aylanishini tashkil etish, investitsion instrumentlar, asosiy va aylanma mablag'lar bilan ta'minlash, moliyaviy ishlarni tashkil etish.

Bunda quyidagilar muhim hisoblanadi:

- *xarajatlarni rejalashtirish* – bunda xarajatlarning umumiy miqdori emas, balki ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajatlar muhim ahamiyatga ega;


- *foydani rejalashtirish* – mazkur masala foyda va zararlarni bir-biridan ajratib turadigan, «harakatsiz nuqta» yoki «rentabellik nuqtasi» muhim ahamiyatga ega;

- *kassani rejalashtirish* (foydani rejalashtirish bilan chambarchas bog'liq)- ma'lum davr davomidagi barcha tushumlarning manbalarini va naqd pul sarfini baholash jarayonidan iborat bo'lib, bunda pul mablag'larini tovar zaxiralarga, so'ngra debitor qarzga va nihoyat naqd pulga aylantirish uchun zarur bo'ladigan, aylanma kapitalning eng kam miqdorini aniqlash asosiy vazifa hisoblanadi;

- *investitsion reja* – bu ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va kengaytirishga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdorini aniqlash.


Boshqaruv objekti funksiyalarining xo'jalik jarayonidagi bosqichlar bo'yicha taqsimlanishi 3.6-rasmida ko'rsatilgan.

Ko'rinib turibdiki, moliyaviy ishlarni bozor konyunkturasiga moslashtira borib, ular to'g'risidagi tasavvurimizni ham boyitamiz.



3.6-rasm. Boshqaruv objekti funksiyalarining xo'jalik jarayonlariga taqsimlanishi.

Boshqaruv subyektining funksiyalari xo'jalik jarayoni va moliyaviy ishlarda ishtirok etuvchi kishilarning munosabatlariga ta'sir ko'rsatish bilan ta'riflanadi. Ushbu funksiyalar, ya'ni boshqaruv faoliyatining muayyan turi, izchil ravishda: axborotlarni to'plash, bir tizimga keltirish tuzatish va saqlash hamda qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish, uni amalga oshirishdan iborat. Shunday qilib, rejalashtirish, bashoratlash, tashkil etish, tartibga olish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va nazorat qilish kabi funksiyalar xususida so'z yuritilmoqda (3.7-rasm).



3.7-rasm. Boshqaruv subyektining funksiyalari.

Rejalashtirish topshiriqlarni ishlab chiqish kabi, ularni hayotga tatbiq etish bo'yicha ham butun tadbirlar majmuyini o'z ichiga oladi.

Bashoratlash – bu butun obyekt va har xil bo'limlarning moliyaviy ahvolini uzoq kelajakdagi o'zgarishlarini ishlab chiqishdan iborat. Uning xususiyati boshqaruv obyektining holatini belgilangan tendensiyalar asosida, uni rivojlantirishning har xil variantlarini aniqlaydigan moliyaviy ko'r-satkichlar va parametrlarni tuzishda muqobillikdan iborat. Bashoratlash vujudga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bevosita oldindan ko'rish asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu ish menejerdan ma'lum sezgirlikni talab qiladi va ko'pincha moliyaviy dasturni hamkorlikda amalga oshiruvchi kishilarni birlashtirishga olib keladi

Tashkilotchilik muayyan qoidalar va amallar negizida moliyaviy dasturni hamkorlikda amalga oshiruvchi kishilarni birlashtirishdan iborat. Bunday qoida va amallarga boshqaruv organlarini tashkil etish, bo'linmalar o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatish, me'yor, me'yorlar, uslubnomalar va hokazolar kiradi.

Tartibga solish – bu boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish bo'lib, uning yordamida belgilangan parametrlardan chetga chiqish hollarida tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga erishiladi. U asosan belgilangan me'yorlar, reja topshiriqlari va grafiklardan chetga chiqishlarni bartaraf qilishga doir tadbirlarni o'z ichiga oladi.


Muvofiqlashtirish – bu boshqaruv tizimining barcha bo'g'inlari, boshqaruv apparati va mutaxassislarning ishlarini muvofiqlashtirishga doir tadbirlardan iborat.

Rag'batlantirish sarflangan mehnatning miqdori va sifatiga bog'liq holda moddiy va ma'naviy qiymatliklarni taqsimlashni boshqarishda ifodalanadi.

Nazorat moliya ishlarining tashkil etilishini tekshirishdan iborat. Uning yordamida mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi axborotlar to'planadi, qo'shimcha rezerv va imkoniyatlar ochib beriladi, moliyaviy me-nejmentni tashkil etish dasturiga o'zgartirishlar kiritiladi. Nazorat xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini tahlil qilishni nazarda tutadi.

Boshqaruv vazifalarini hal etishga yondashuvlar turli-tuman bo'lishi mumkin. Moliyaviy menejmentda ko'p variantlilik kombinatsiyalarining bir-biriga o'xshamasligi va standartligi, muayyan xo'jalik vaziyatida u yoki bu usullarning moslashuvchanligi va takrorlanmasligini bildiradi. Moliyaviy boshqaruvda muhimi – boshqaruv obyektining manfaatlariga javob bera-digan maqsadni to'g'ri qo'yish. Moliyaviy menejment juda dinamik rivojlanadi. Uning samaradorligi ko'p jihatdan sharoitlar o'zgarishiga reak-siyaning tezligiga bog'liq. Shuning uchun u boshqaruvning standart usullarini bilishga, vaziyatni tez va to'g'ri baholay olishga va har qanday vaziyatdan o'z vaqtida yaxshi chiqa olish layoqatiga asoslanishi lozim. Moliyaviy menejment tayyor ko'rsatmalarga ega bo'lmasdan, u yoki bu vazifalarni qanday ijobiy hal etish usullarini, muayyan xo'jalik yurituvchi subyektga qanday qilib ulkan muvaffaqiyatlarga erishishni o'rgatadi.

Demak, bir qarashdan sodda ko'ringan *«muvaffaqiyat formulasi»*ni tushunishning o'zi kamlik qiladi, uni amalda qo'llay bilish kerak.



Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi natijasida moliyaviy boshqaruvga ehtiyoj kuchaymoqda. Chunki tizimda vujudga keladigan barcha noxush oqibatlar va adashishlar uchun tovar ishlab chiqaruvchining o'zi javob beradi.

3.6. Agrar sektorga qarashli budjet muassasalarining moliyasini tashkil etish asoslari

Noishlab chiqarish sohasidagi va ayrim qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan tashkilot va muassasalar (masalan, qishloq xo'jalik oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, ilmiy muassasalar va boshqalar) odatda o'z daromadiga ega emas yoki daromadlari xarajatlarini qoplash uchun yetarli emas. Shuning uchun ular budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobiga faoliyat ko'rsatadi va budjet muassasalari deb ataladi. Bu muassasalarning xarajatlari smeta asosida aniqlanadi, shu munosabat bilan ularning xarajatlarini rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash smetaga muvofiq amalga oshiriladi.

Budjetdan ajratiladigan mablag'lar maqsadlidir. Ularning qanday maqsadlar uchun belgilanganligi budjetning xarajatlar klassifikatsiyasiga asosan aniqlanadi. Muassasalar smetada ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun pul mablag'larini sarflashga haqli emaslar. Muassasalar uchun budjet klassifikatsiyasining u yoki bu moddalari doirasida tasdiqlangan xarajat me'yorlari va summalariga aniq rioya qilish majburiydir. Mablag'lardan foydalanish ular ajratilgan davr (budjet yili yoki chorak) bilan cheklanadi.

Agar moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida asosiy samaradorlik ko'rsatkichi foyda va rentabellik bo'lsa, noishlab chiqarish sohasida bun-day ko'rsatkich bo'lib mohirlik bilan xo'jalik yuritish, tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish natijasida tejalgan mablag'lar hisoblanadi.

Smeta muassasani saqlash uchun budjetdan beriladigan mablag'larning hajmini va mablag'larni sarflash yo'nalishlarini belgilovchi asosiy reja hujjatidir. Mablag'lar smetalar bo'yicha o'tgan davrdagi haqiqiy xarajatlarni hisobga olgan holda budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida beriladi.


Smetalarning quyidagi turlari mavjud (3.9-rasm) .



3.9-rasm. Smetalarning turlari.

Budjet hisobidagi muassasalar o'zlarining individual smetalariga ega.

Budjet muassasalarining xarajatlari quyidagi guruhlariga bo'linadi (3.10-rasm).



3.10-rasm. Budjet muassasalarining xarajatlarning turkumlanishi.

Joriy xarajatlar o'z navbatida muassasaning asosiy funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan operatsion xarajatlarga hamda ma'muriy-xo'jalik xarajatlarga bo'linadi. Bu xarajatlar ma'muriy-boshqaruv apparatini saqlash, devonxona va xo'jalik xarajatlari kabilarni o'z ichiga oladi. Kapital qurilish va kapital ta'mirlash xarajatlari alohida smetalarda rejalashtiriladi va muassasaning smetasiga ilova qilinadi.

Individual smeta uch qismdan iborat. Uning birinchi qismida muassasaning nomi va manzili, qaysi budjetdan mablag' bilan ta'minlanishi, qism, bob va paragraflardan iborat smeta qismlari va hamma moddalar bo'yicha xarajatlarning umumiy summasi, shtatdan tashqari xodimlarning ish haqi fondini ajratgan holda ko'rsatiladi.

Smetaning ikkinchi qismida muassasaning amaliy faoliyat ko'rsatkichlari ifodalanadi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalar bo'yicha o'rinlar soni, o'quv yurtlari bo'yicha guruhlar soni va boshqalar. Bundan tashqari, smetaning ikkinchi qismida muassasaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning sonini aniqlash uchun hamda xo'jalik va boshqa xarajatlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan muassasaga qarashli imoratlarining kubometr hisobidagi hajmi, isitish tizimi va boshqa ko'rsatkichlar keltiriladi.

Smetaning uchinchi qismida har bir modda bo'yicha xarajat summalari hisoblanadi va asoslanadi.

Operatsion xarajatlar me'yorlash usuli bilan aniqlanadi. Me'yorlash usulida hisoblash ishlari uchun birinchidan, muassasalar soni va ularning amaliy faoliyat ko'rsatkichlari asos bo'ladi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari bo'yicha bola bog'chalari, ulardagi bolalar soni va boshqalar. Ikkinchidan, hisob birligi uchun xarajat me'yorlari, bola bog'chalarida, bolalar, imorat hajmining bir kubometri va boshqalar asos qilib olinadi. Kelgusi yil uchun xarajatlarning umumiy summasini hisob birligi uchun belgilangan xarajatlar me'yorini hisob birliklarining soniga ko'paytirish bilan aniqlanadi. Hisob birligi o'quv yurtlarida o'quvchilar soni, imoratlarning hajmi bo'yicha 1 m^3 , maydoni bo'yicha 1 m^2 va hokazo. Xarajat me'yorlari moddiy, moliyaviy (pul ifodasida) va budjet me'yorlariga bo'linadi. Moddiy me'yor bir hisob birligi uchun xarajatlarning natural ifodasidagi miqdorini belgilaydi. Moliyaviy me'yor moddiy me'yorlarning pul bilan ifodalanishidir. Faqat qiymat ifodasida belgilanadigan moliyaviy me'yorlar ham mavjud. Masalan, ish haqi stavkalari, xizmat safari bo'yicha sutkalik, kvartira haqining me'yorlari.

Agar budjet mablag' bilan ta'minlashning birdan bir manbai bo'lsa, moliyaviy me'yor bir vaqtning o'zida budjet me'yori bo'lib ham hisoblanadi. Agar muassasa faqat budjetdan mablag' bilan ta'minlanmay, boshqa manbalardan ham mablag' bilan ta'minlansa, moliyaviy me'yor ikkiga bo'linadi: me'yorning bir qismi budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan xarajatlarni, ikkinchi qismi budjetdan tashqari manbalardan mablag' bilan ta'minlanadigan xarajatlarni rejalashtirish uchun qo'llaniladi.

Tuzilish usuli bo'yicha moliyaviy me'yorlar individual va umumiy me'yorlarga bo'linadi. Individual me'yorlar hisob birligi uchun har bir xarajat turiga belgilanadi. Masalan, o'quv xarajatlarning me'yorlari, isitish xarajatlarning me'yorlari va boshqalar.

Muassasalarning smetalari individual moliyaviy me'yorlarga asosan tuziladi. Umumiy rejalashtirish ishlari uchun yiriklashtirilgan o'lchovlar va umumiy o'lchovlar qo'llaniladi. Umumiy me'yorlar hisob birligi uchun bir xil turdagi xarajatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, xo'jalik va devonxona xarajatlarning me'yorlari. Yiriklashtirilgan o'lchovlar bitta hisob birligi uchun hamma xarajat moddalarini ifodalaydi. Masalan, bitta o'quvchi hisobiga yoki maktablarda bir sinf hisobiga belgilangan me'yorlar. Namunaviy smetalar yiriklashtirilgan

o'Ichovlarning alohida turi bo'lib hisoblanadi. Ular butun yil uchun xarajatlari unchalik katta bo'lmagan muassasani saqlash xarajatlarini ifodalaydi. Masalan, veterinariya uchastkasining xarajatlari.

Hamma xarajat me'yorlari majburiy va hisob birligi uchun belgilangan o'rtacha me'yorlarga bo'linadi. Majburiy me'yorlar hukumat tomonidan tasdiqlanadi va bu me'yorlardan chetga chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ularga shtatlar va ish haqi stavkalari, yumshoq inventarlar bilan ta'minlash me'yorlari, bolalar muassasalarida ovqatlantirish xarajatlarining me'yorlari kabilar kiradi. Hisob birligi uchun o'rtacha me'yorlar muassasalar tomonidan moliya organlari bilan kelishilgan holda aniqlanadi va ular har bir aniq muassasaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ayrim tumanlar bo'yicha hisob birligi uchun turlicha belgilanishi mumkin.

Xarajatlar tarkibida eng ko'p hissani ish haqi xarajatlari tashkil qiladi. Ish haqi fondlari shtat birliklarini belgilangan stavkalariga ko'paytirish bilan aniqlanadi.

Ish haqi fondi shtatdan tashqari xodimlarning ish haqi summalarini ajratib ko'rsatgan holda yuqori tashkilotlarning rahbar xodimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bank tomonidan budget mablag'lari hisobidan muassasalarga naqd pul bilan yoki naqd pulsiz hisobkitob tartibida berilgan mablag'lar budget muassasalarining kassa xarajatlari bo'lib hisoblanadi. Ish haqi va stipendiyalar berish uchun, xizmat safariga bo'naklar berish uchun, kichik xo'jalik xarajatlari uchun mol yetkazib beruvchilarga o'var-moddiy qiymatliklar, bajarilgan ish va xizmatlarning hisoblarini to'lash holatlari kassa xarajatlariga kiradi. Kassa xarajatlari muassasalarning smetalari bo'yicha haqiqiy xarajatlarni ifoda qilmaydi. Budget muassasasini hisobot davrida saqlash uchun qilingan, belgilangan tartibda hisobdan chiqarilgan xarajatlar haqiqiy xarajatlar bo'lib hisoblanadi. Masalan, xizmat safariga bo'nak berish uchun bankdan olingan mablag'lar kassa xarajatini tashkil qiladi, haqiqiy xarajat esa xizmat safaridan keyin tasdiqlangan bo'nak hisobotiga asosan aniqlanadi.

Muassasa tomonidan kelgusida imoratlarni ta'mirlash ishlari uchun sotib olinayotgan yoqilg'i yoki materiallarning hisobi bank tomonidan to'lanishi kassa xarajatlariga kiradi, chunki muassasaning omborxonasiga qabul qilingan bu qiymatliklar belgilangan maqsadi uchun hali sarflangani yo'q. Yoqilg'i yoki materiallar haqiqiy sarflangan

sari muassasaning isitish yoki imoratlarni ta'mirlashga qilgan haqiqiy xarajatlari aniqlanadi.

Hisoblangan ish haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalari, tasdiqlangan bo'nak hisoboti bo'yicha hisobdor shaxslarning xarajatlari (materiallar va oziqovqatlar sotib olishga qilingan xarajatlardan tashqari), bajarilgan xizmatlar uchun hisoblarning to'lanishi, sotib olingan uskuna va inventarlarning to'lanishi, bajarilgan ish va xizmatlar, olingan uskuna va inventarlar bo'yicha to'lash uchun qabul qilingan, lekin hali to'lanmagan schotlarining summalari haqiqiy xarajatlarga kiradi.

3.7. Korxonaning moliyaviy mexanizmi

Korxonada moliyasini boshqarish moliyaviy mexanizm yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy mexanizm xo'jalik mexanizmining bir qismi bo'lib, eng yuqori darajada foyda olish maqsadida korxonada moliyasini boshqarish shakllari va metodlaridan iborat.

Korxonada moliyasini boshqarish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: moliyaviy metodlar, moliyaviy instrumentlar, huquqiy ta'minot, moliyani boshqarishning axbrorot-uslubiy ta'minoti.

Moliyaviy metodlar moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy hisob, moliyaviy tahlil, moliyaviy tartibga solish va moliyaviy nazoratdan iborat. Moliyaviy metodlar yordamida moliyaviy munosabatlarning xo'jalik jarayonlariga moliyaviy resurslar harakatini boshqarish va moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlili qilish asosida ulardan foydalanish samaradorligini baholash yo'li bilan ta'sir ko'rsatish amalga oshiriladi.

32-sonli «Moliyaviy instrumentlar: ochib berish va taqdim etish» nomli moliyaviy hisobot Xalqaro Standartiga muvofiq, **moliyaviy instrumentlar** deganda bitta korxonada uchun moliyaviy aktiv va boshqa korxonada uchun moliyaviy majburiyat yoki kapital tavsifidagi (ya'ni kapi-talda ishtirok etish bilan bog'liq) instrumentni vujudga keltiradigan, istalgan kontrakt tushuniladi. Boshqacha aytganda, qarz to'g'risida guvohlik beruvchi istalgan hujjat bo'lib, uni sotishda o'tuvchi moliyalashtirish bilan ta'minlanadi. Moliyaviy instrumentlar birlamchi instrumentlar kabi, debitorlik va kreditorlik qarzlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellarni hamda ularning opsionlar, fyucherslar va forvardlar, foizlar va valuta svoplari kabi hosilalarini ham o'z ichiga oladi.

Moliyaviy aktiv quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: pul mablag'lari, boshqa korxonadan pul mablag'larini yoki boshqa moliyaviy aktivlarni olish uchun kontrakt huquqi, boshqa korxonada bilan

moliyaviy instrumentga ayir-boshlash kontrakt huquqi, boshqa korxonaga kapital tavsifidagi instrumenti.

Moliyaviy majburiyatlar – bu kontrakt majburiyati hisoblangan istalgan majburiyatlar:

- pul mablag‘lari yoki boshqa moliyaviy aktivni berish;
- moliyaviy instrumentlarni boshqa korxonalar bilan noxush shartlarda ayirboshlash.

Moliyaviy instrumentlar yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalar har doim moliyaviy risklar bilan bog‘liq. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni axborot bilan ta‘minlash moliyaviy instrumentlarning tavakkalchilik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Moliyaviy risklarning quyidagi turlari mavjud:

1. Baho riski o‘z ichiga nafaqat potensial zararlar, balki potensial foydani ham oladi. Baho riski quyidagilarga bo‘linadi: valuta riski, foiz riski, bozor riski.

Valuta riski chet el valutasini ayirboshlash kursining o‘zgarishi natijasida moliyaviy instrument qiymatining o‘zgarish ehtimolidan iborat.

Foiz riski – bozordagi foiz stavkasining o‘zgarishi natijasida moliyaviy instrument qiymatining o‘zgarishining riskidan iborat.

Bozor riski – bu bozor baholarining o‘zgarishi, o‘zgarish qanday omillar bilan bog‘liqligidan qat‘i nazar, moliyaviy instrument qiymati o‘zgarishi riskini bildiradi.

2. Kredit riski – moliyaviy instrumentda ishtirok etuvchi kontragentlardan birortasi majburiyatlarni bajara olmasdan, ikkinchi tomonning zarar ko‘rishiga olib kelganida sodir bo‘lishi mumkin.

3. Likvidlik yoki moliyalashtirish riski – korxonaga ma‘lum muddatga moliyaviy instrumentlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini so‘ndirish uchun mablag‘larini yo‘naltirishda to‘qnashadigan qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Bu moliyaviy aktivni uning haqqoniy qiymatiga yaqin qiymat bo‘yicha sotish imkoni bo‘lmaganda vujudga keladi.

Bozor qiymati – bu sotishdan olinishi mumkin yoki faol bozorda moliyaviy buyumni xarid qilish chog‘ida to‘lanishi zarur bo‘lgan summa.

Haqqoniy qiymat – bu birbirlaridan mustaqil tomonlar o‘rtasida ixtiyoriy bitimlar tuzilganida taqqoslanuvchi baholarda faol ayirboshlash yoki majburiyatni so‘ndirish mumkin bo‘lgan summa.

4. Pul oqimi riski – pullik moliyaviy buyum bilan bog‘liq kelajakdagi pul oqimlarining miqdorining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Suzuvchi foiz stavkali qarz instrumenti qo‘llanilganida bunday o‘zgarishlar moliyaviy ins-turment bo‘yicha haqiqiy foiz stavkalarining o‘zgarishiga, odatda, uning haqqoniy qiymati o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Korxonada moliyasini boshqarish axborotlarni to‘plash va tahlil qilish, moliyaviy rejalashtirish va prognozlashni o‘z ichiga olib, ularning sifati pul oqimlarini boshqarish natijalariga, korxonaning moliyaviy barqarorligiga, oqibatda uning raqobatbardoshligiga, moliyaviy resurslarni shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Nazorat savollari

1. Moliyaviy munosabatlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra qaysi yo‘nalishlarda guruhlanadi?
2. Korxonada moliyasining asosiy funksiyalari va ularning mazmunini tavsiflang.
3. Qishloq xo‘jaligida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlarning mazmunini ochib bering.
4. Korxonada moliyasini tashkil etishning asosiy tamoyillari va ularni ta’riflang.
5. Tijorat hisobining mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?
6. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlari agrar korxonalarining moliyasini tashkil etishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
7. Agrar korxonalarda bajariladigan moliyaviy ishlarning tavsifi.
8. Moliyaviy menejment deganda nimani tushunasiz?
9. Boshqaruv obyektining funksiyalari xo‘jalik jarayonlariga qanday taqsimlanadi?
10. Boshqaruv subyektining asosiy funksiyalarini ta’riflang.
11. «Muvaffaqiyat formulasi»ning mazmunini qanday tushunasiz?
12. Agrar sektorga qarashli budjet muassasalari moliyasini tashkil etishning xususiyatlarini ochib bering.
13. Korxonada moliyasini boshqarish mexanizmining mazmunini ta’riflang.
14. Moliyaviy metodlarga nimalar kiradi?
15. Moliyaviy instrumentlar tarkibi va ularni ta’riflang.
16. Moliyaviy risklar va ularning turlarini tavsiflang.

Nazorat testlari

1. Qishloq xo‘jalik korxonalarini moliyasining ta’rifi.

A) qishloq xo‘jalik korxonalarining moliya organlari va bank bilan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarning yig‘indisidir.

- B) xalq xo'jalik tarmoqlari moliyasining tarkibiy qismidir.
- C) qishloq xo'jalik korxonalarida pul fondlarini sarflash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.
- D) milliy daromadni qishloq xo'jalik korxonalarini bilan davlat o'rtasida taqsimlash jaryonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.
- E) qishloq xo'jalik korxonalarida pul fondlarini tashkil etish, taqsimlash va sarflash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarning yig'indisidir.

2. Qishloq xo'jalik korxonalarini moliyasining moliya tizimida tutgan o'rni.

- A) Korxonalar moliyasining tarkibiy qismi.
- B) Moliya tizimining mustaqil bo'g'ini.
- C) Korxonalar moliyasining asosiy bo'g'ini.
- D) Umumdavlat moliyasining tarkibiy qismi.
- E) Moliya tizimining asosiy bo'g'ini.

3. Agrar korxonalarda amalga oshiriladigan moliyaviy ishlar.

- A) Daromadlar va xarajatlarni rejalashtirish, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni tashkil etish, aylanma kapitalni tashkil etish, moliyalashtirish va boshqarish, kreditlash, investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish, moliyaviy rejalashtirish va biznes-reja tuzish va b.
- B) Moliyaviy rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonini mablag' bilan ta'minlash, barcha to'lov majburiyatlarini bajarish.
- C) Hisob muomalalarini amalga oshirish, kapital xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash, moliyaviy rejalashtirish.
- D) Korxonaning moliya faoliyatini nazorat qilish, pul fondlarini tashkil etish va sarflash, budjet bilan olib boriladigan o'zaro munosabatlar.
- E) Kredit olish va qaytarish, budjet va sug'urta idoralari bilan olib boriladigan hisob-kitob ishlari va moliyaviy rejalashtirish.

4. Qishloq xo'jalik korxonalarini moliyasining mohiyati nima bilan belgilanadi?

- A) Pul munosabatlari tizimi bilan.
- B) Shartnomaviy munosabatlar tizimi bilan.
- C) Turli to'lov munosabatlari tizimi bilan.
- D) Kredit munosabatlari tizimi bilan.
- E) Ustav kapitalining shakllantirish va undan foydalanish munosabatlari bilan.

5. Qishloq xo'jalik korxonalarini moliyasining funksiyalari

- A) Pul bilan ta'minlash va rag'batlantirish funksiyasi.

- B) Taqsimlash va nazorat funksiyasi .
- C) Taqsimlash va tartibga solish funksiyasi.
- D) Taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi.
- E) To'lov majburiyatlarini bajarish va qaytadan taqsimlash funksiyasi.

6. Korxonalar moliyasini tashkil etish tamoyillari

- A) O'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, rejalashtirish va rezervlar tashkil etish.
- B) Moddiy manfaatdorlik va javobgarlik, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va moliya intizomiga rioya qilish.
- C) Xo'jalik jihatdan mustaqillik, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, moddiy manfaatdorlik va javobgarlik, moliyaviy rezervlarni tashkil qilish.
- D) Moddiy manfaatdorlik, rezerv fondlari tashkil etish, xo'jalik jihatdan mustaqillik, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash.
- E) Tijorat hisobi, rejalashtirish, rezerv fondlari tashkil etish, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, moddiy manfaatdorlik.

7. Agrosanoat majmuasiga qarashli budjet muassasalarining kassaviy xarajatlari

- A) Ta'mirlash uchun sarflangan materiallarning qiymati hisobdan chiqarilishi.
- B) Hisobdor shaxslardan bo'nak hisoboti qabul qilinishi.
- C) Xodimlarga ish haqi hisoblanishi.
- D) Sotib olinayotgan materiallar uchun mol yetkazib beruvchilarga bankdagi depozit schotidan pul o'tkazilishi.
- E) Puli to'langan uskunalar muassasaga keltirilib, ekspluatatsiyaga berilishi.

8. Agrosanoat majmuiga qarashli budjet muassasalarining haqiqiy xarajatlari

- A) Ishchi va xizmatchilarga ish haqi hisoblanishi.
- B) Budjet schotidan korxonaning kassasiga ish haqi to'lash uchun pul berilishi.
- C) Hisobdor shaxslarga kassadan bo'nak berilishi.
- D) Sotib olinayotgan uskuna va priborlar uchun mol yetkazib beruvchilarga budjet schotidan pul o'tkazilishi.
- E) Ishchi va xizmatchilarga kassadan ish haqi berilishi.

IV bob. PUL MABLAG‘LARI VA HISOB-KITOBLARNI TASHKIL ETISH

4.1. Qishloq xo‘jalik korxonalarida pul mablag‘larini tashkil etish

Hisob-kitoblar yuridik va jismoniy shaxslarning tovar, ish va xizmatlari uchun haq to‘lash bilan bog‘liq pul munosabatlari tizimi. Pullik hisob-kitoblar - butun xo‘jalik mexanizmi faoliyatining muhim bo‘g‘ini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish va ijtimoiy sohani rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ular yordamida mablag‘larning doiraviy aylanishi sodir bo‘ladi va ishlab chiqarishning yangi sikli boshlanadi. Hisob-kitoblar mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar, buyur-tmachilar va pudratchilar o‘rtasida o‘zaro nazorat uchun qo‘llaniladi. Hisob-kitoblar orqali banklar va moliya organlari korxonalar faoliyatini nazorat qiladi hamda ularning moliyaviy holatini kuzatib boradi.

Moliya-xo‘jalik faoliyati jarayonida doimiy vujudga keladigan hisob-kitoblar juda xilma-xildir. Ular xususan, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar, xizmat ko‘rsatuvchi, savdo-ta‘minot, tayyorlov va har xil vositachilik hamda boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hisob-kitoblarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining(O‘zR FK) 790-moddasiga muvofiq: *«Yuridik shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblar, shuningdek, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog‘liq holda ular ishtirokidagi hisob-kitoblar naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi»*³².

Naqd pul muomalalari – naqd pullarni muomala sohasidagi harakati va ularning ikkita: to‘lov vositasi va muomala vositasi funksiyalarini bajaradi. Naqd pullar ishlar va xizmatlarning doiraviy aylanishi hamda tovarlar va xizmatlar harakati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, masalan, ish haqi, nafaqa to‘lash; qimmatli qog‘ozlar va ular bo‘yicha daromadlar to‘lash; kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar va boshqalar uchun ishlatiladi.

³² Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси, –Т.: «Адолат», 2007 й. –Б.329-330.

Naqd pul aylanmasi aholi va yuridik shaxslar, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi hamda ushbu guruhlar ichidagi, aholi va davlat organlari o'rtasidagi, yuridik shaxslar va davlat organlari o'rtasidagi ma'lum vaqt oralig'ida barcha pul massasining harakatini o'z ichiga oladi.

Naqd pul harakati har xil pul turlari yordamida amalga oshiriladi: ban-kuotlar, metall tangalar, boshqa pul instrumentlari (veksellar, bank veksellari, cheklar, plastik kartochkalar).

Naqd pulsiz operatsiya qiymatning naqd pul ishtirokisiz harakati bo'lib, korxonaning bankdagi schotlari orqali pul mablag'larini o'tkazish va o'zaro talablarni hisobga olishdan iborat. Naqd pulsiz operatsiyalar bankda hisobvaraqlariga ega bo'lgan korxonalar, muassasalar, turli mulkchilik tashkilotlari; kredit olish va qaytarish bo'yicha yuridik shaxslar va kredit muassasalari; ish haqi to'lash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar yuzasidan yuridik shaxslar va aholi; soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda budjet mablag'larini olish bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslar va davlat g'aznasi o'rtasidagi hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra naqd pulsiz hisobkitoblar: 1) *tovarli operatsiyalar* va 2) *moliyaviy majburiyatlar* bo'yicha hisob-kitoblarga bo'linadi. Birinchi guruhga tovarlar, ish va xizmatlar uchun hisob-kitoblar; ikkinchi guruhga budjet va budjetdan tashqari fondlarga to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, sug'urta kompaniyalari bilan hisob-kitoblar kiradi.

Naqd pullik va naqd pulsiz hisob-kitoblar o'rtasida o'zaro bog'liqlik hamda o'zaro aloqadorlik mavjud. Pullar doimo bitta muomala sohasidan boshqasiga o'tadi, masalan, naqd pullar kredit muassasasining hisob varag'iga topshiriladi va qaytarib olinadi. Naqd pulsiz aylanma kredit muassasasida hisobvaraqa naqd pul qo'yishda vujudga keladi, naqd pulsiz muomala esa naqd pul bo'lmaganda mumkin emas. Bir vaqtning o'zida naqd pullar mijozda kredit muassasasidagi hisobvaraqdan olinganda paydo bo'ladi.

O'zbekiston hududida naqd pullar (banknotlar va tangalar) va naqd pulsiz (kredit muassasalaridagi hisobvaraqlardagi mablag' ko'rinishida) amal qiladi. O'zbekiston hududida naqd pullik muomalani tashkil etish maqsadida O'zR Markaziy bankiga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

– banknotlar va tangalarni prognozlash, tashish va saqlash hamda ularning rezerv fondlarini yaratish;

– kredit tashkilotlari uchun naqd pullarni saqlash, tashish va inkassatsiya qoidalarini belgilash; pul belgilarining to'lov layoqatini va shikastlangan banknot-lar va tangalarni almashtirish hamda yo'qotish tartibini aniqlash;

– kassa muomalalarini yuritish tartibini ishlab chiqish.

Markaziy bank pul emissiyasi huquqiga ega bo'lib, u muomala sohasida muvozanatni ushlab turish uchun mas'ul, pul emissiyasini cheklangan turuvchi ma'lum tadbirlar yaratishi lozim.

Pul muomalasini tartibga solish pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirilib, bank qonunchiligida belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Naqd pullar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul banknotlari va tangalarning rezerv fondlari hisobidan kassa oborotini mustahkamlashga huquq beradigan hujjat – emissiya ruxsatnomasi asosida muomalaga chiqariladi. Bu hujjat Markaziy bank boshqaruvi tomonidan emissiya direktivasi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan muomalaga pul chiqarishning cheklangan miqdoriga muvofiq beriladi. Pul massasini emissiya kassa tartibga solish funksiyasini hisob-kitob kassa markazlari bajaradi. Ularda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ruxsatiga muvofiq, pul belgilari va tangalarni rezerv fondi yaratiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to'g'risida Nizomi» bilan, naqd pullik hisob-kitoblar esa «Kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini» bilan tartibga solinadi.

Keyingi kunga o'tadigan qoldiqlar va kunlik tushumlar korxonaning kassasida saqlanadi. Korxonalar kassasidagi qoldiq limitidan ortiqcha summalarni «Kassa operatsiyalarini yuritish tartibi»ga muvofiq bankdagi hisobvaraqlarida saqlashi lozim.

Xo'jalik oborotida naqd pulsiz hisob-kitoblarning keng qo'llanilishi aylanma mablag'lar aylanuvchanligini ta'minlaydi, naqd pulga ehtiyojni qisqartirib, to'lov intizomini mustahkamlashga yordam beradi, hisob-kitob operatsiyalarini o'z vaqtidaligi va to'g'riligi ustidan nazoratni kuchaytiradi.

Korxonalar o'rtasidagi hisob-kitoblar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– xo'jalik yurituvchi subyektlar naqd pulsiz hisob-kitoblarni bank muassasalari orqali amalga oshiradi;

– hisob-kitoblar, qoidaga ko‘ra, mahsulot (ish, xizmat)lar xaridorga haqiqatan jo‘natilgani yoki topshirilganidan so‘ng amalga oshirilishi lozim;

– uzoq muddatli va muddati kechiktiriladigan to‘lovlar shartnoma munosabatlari doirasida oluvchi va pul to‘lovchining moliyaviy ahvoriga zarar yetkazmasdan amalga oshirilishiga ruxsat etiladi;

– tez to‘lov bo‘nak shaklida amalga oshirilib, mahsulot jo‘natilganidan so‘ng va yirik oldi-sotdilarida qisman to‘lovlar shaklida amalga oshiriladi;

– to‘lovlar to‘lovchilarning roziligi (aksepti) bilan oshirilib, mol yetkazib beruvchi tomondan shartnomaning asosiy shartlari bajarilishi, yetkazib berish muddatlari, mahsulot sifati va assortimenti hamda baho darajasiga rioya qilinishi nazorat qilinadi;

– to‘lovga rozilik bermaslik (akseptni rad etish) asoslangan bo‘lishi lozim;

– xo‘jalik yurituvchi subyekt hisobvarag‘idan uning roziligisiz pul ko‘chirish faqatgina qonunchilikda ko‘zda tutilgan hollarda ruxsat etiladi;

– to‘lovlar asosan to‘lovchining o‘z mablag‘lari hisobidan, ayrim hollarda esa bank kreditlari hisobidan amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalari hisob-kitoblarini tashkil etishga agrar sektor ishlab chiqarishi va xo‘jalik aloqalarining xususiyatlari (qishloq xo‘jalik mahsulotlari kiriminin mavsumiyiligi, ularning sanoatda qayta ishlashga yaroqlilik darajasi, saqlash muddatlari va tovarlarning boshqa xususiyatlari, ishlab chiqarish vositalarini yetkazib berish muddatlari) ta‘sir ko‘rsatadi. Pul oborotining eng yuqori intensivligi asosiy qishloq xo‘jalik ishlarini bajarish va mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasi davriga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda savdo oldi-sotdisi yoki tovar ayirboshlashining to‘rtta usuli qo‘llanladi:

- 1) tovar ayirboshlash;
- 2) naqd pul to‘lash;
- 3) naqd pulsiz hisob-kitoblar;
- 4) kreditlash bilan birgalikdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar.

Bozor munosabatlari rivojlangani sari barter ayirboshlashlar ulushi kamayib, qolganlari esa ko‘payib boradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hisob-kitoblar tizimi ishonchlilik, arzonlik va to‘lovlarni olish muddatlarining qisqaligi kabi talablarga javob berishi lozim. Bu borada bizning mamlakatimizda ham real vaqt (*On-lain*) rejimida ishlaydigan,

zamonaviy avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimini yaratish ishlari amalga oshirilmogda. Jumladan, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini elektron to'lovlar asosida amalga oshirish joriy qilinmogda. Bu hisob-kitoblarni bajarish vaqti cheklanmasligini bildiradi. Hisob-kitoblarning davlat tizimi bilan bir qatorda nodavlat hisob-kitoblar va *kliring palatalari* faoliyat ko'rsatishi ham nazarda tutilmogda.

Shuningdek, ko'plab hisoblash markazlarini unifikatsiyalangan texnik komplekslar bilan asta-sekin qayta jihozlash, telekommunikatsion tarmoqlarni, jumladan sun'iy yo'ldosh aloqa tizimlari rivojlanmogda. Bu banklararo hisob-kitoblarning elektron tizimini yaratish, mintaqalararo va mintaqalar ichidagi elektron to'lovlarni joriy qilishni kengaytirishga imkon beradi. Mintaqalararo elektron hisob-kitoblar tizimi to'lovlarni o'tkazish vaqtini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Mikro darajada naqd-pulsiz hisob-kitoblarning yaxshi yo'lga qo'yilishi sotilgan mahsulotlar uchun pul tushumlarini o'z vaqtida olish va majburiyatlarni belgilangan muddatlarda to'lashga imkon yaratadi. Makro darajadagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning uzluksizligi pul muomalasini mustahkamlash, davlat budjetini ijro qilish, kredit va fond bozorlarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Samarali hisob-kitoblar tizimini barpo qilish mamlakatdagi iqtisodiy muammolarni hal etishning asosiy shartlaridan biridir.

4.2. Qishloq xo'jalik korxonalarining banklarda hisobvaraqlar ochishi, yopishi va qayta rasmiylashtirishi

Qishloq xo'jalik korxonalari pul mablag'larini saqlash va barcha turdagi hisob-kitob, kredit va kassa operatsiyalarini amalga oshirish uchun bankda hisob-kitob, valuta, ssuda va boshqa maxsus hisobvaraqlar ochish huquqiga ega. Korxonalar hisoblashuv – kassa xizmatlari uchun bankni mus-taqil tanlaydi, o'zaro munosabatlar esa, shartnoma asosida amalga oshiriladi. Korxonalariga bank operatsiyalarining barcha turlari bo'yicha o'zi joylashgan yoki boshqa joydagi bitta bankda xizmat ko'rsatilishi mumkin.

Bank va mijoz o'rtasidagi hisob-kitob xizmati uchun bank hisobvarag'i shartnomasi tuzilib, u mustaqil fuqarolik – huquqiy hujjat hisoblanadi. O'zR FKning 771-moddasiga muvofiq: «*Bank hisobvarag'i shartnomasi bo'yicha bir taraf bank yoki boshqa kredit muassasasi ikkinchi tarafning-mijoz-ning(hisobvaraqlar egasining) hisobvarag'iga tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning*

hisobvaraqqadan tegishli summalarini o'tkazish va d'lash hamda hisobvaraqq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi farmoyishlarini bajarish majburiyatini oladi»³³.

Mijoz o'z navbatida, shartnomada belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda hisobvarag'idagi pul mablag'larini tasarruf etish majburiyatini oladi. Bank mavjud mablag'larni mijozning ushbu mablag'larni tasarruf etish huquqiga muvofiq, hisobvaraqqqa talabnoma taqdim etilganda mablag'lar mavjudligini kafolatlagan holda ishlatishi mumkin.

Bank hisob varag'i shartnomasi konsensual bo'lib, chunki hisobvaraqqqa uni ochish paytida egasi tomonidan mablag' qo'yilishi yoki qo'yilmasligidan qat'i nazar ochiladi va ikki tomonlama xususiyatga ega. Shartnoma qatnashchilari huquqlariga ega bo'lish bilan birga, ular zim-masiga majburiyatlar ham yuklanadi. Bundan tashqari, ushbu shartnoma, qoidaga ko'ra pullik hisoblanadi. O'zR FKning 781 moddasiga muvofiq: «Agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank hisobvaraqqda turgan pul mablag'laridan foydalanganligi uchun mijozga ofizlar to'laydi, ularning summasi hisob-varaqqga kiritib qo'yiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan foizlar bank tomonidan bank hisobvarag'i shartnomasida belgilanadigan miqdorda, shartnomada tegishli shartlar nazarda tutilmagan taqdirda esa odatda, bank talab qilib olguncha saqlanadigan omonatlar yuzasidan to'laydigan miqdorda to'lanadi»³⁴.

Bank hisobvaraqlari bo'yicha munosabatlar muddati cheklanmagan. Bank mijoz tomonidan pul mablag'larining ishlatilish yo'nalishlarini belgilash va nazorat qilish hamda mijozning pul mablag'larini o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish bo'yicha boshqa huquqlarini (qonun hujjatlarida yoki shartnomada ko'rsatilmagan) cheklash huquqiga ega emas.

Bank sirini saqlash bank muassasasining muhim majburiyati hisoblanadi. O'zR FKning 786-moddasiga muvofiq: «Banklar bank hisob-varag'i va bank omonati, hisobvaraqq bo'yicha operatsiyalar hamda mijoz haqidagi ma'lumotlar sir saqlanishini kafolatlaydi»³⁵. Bank o'z mijozlarining hisobvaraqlari va operatsiyalari to'g'risida ularning roziligisiz hech qanday ma'lumot berish huquqiga ega emas.

³³ Узбекистон Республикасининг Фуқаролар Кодекси. –Т.: «Адолат», 2007й. -В.322

³⁴ Shu manba, -В.326.

³⁵ Shu manba, -В.328.

Qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno. Qonunchilikka muvofiq hisobvaraqlar va operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni hisobvaraqa egalari va xo'jalik sudi sudyalari, ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi hisob palatasiga, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi va uning joylardagi organlariga, auditorlik tashkilotlariga va hokazolarga berilishi mumkin. Sirni oshkor etganligi uchun bank va uning xodimlari yetkazilgan zararni qoplaydi hamda javobgarlikka tortiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalari uchun bankdagi hisob-kitob hisobvarag'i asosiy hisoblanadi. U mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushumlarni kirim qilish, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari va xarajatlari hamda boshqa tushumlarni hisobga olish, mol yetkazib beruvchilar, budget bilan soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar, xodimlar bilan ish haqi va boshqa majburiyatlar bo'yicha, banklar bilan olingan kreditlar va ular bo'yicha foyizlar, shuningdek, sudlar, xo'jalik sudlari va yuridik shaxslarning hisobvaraqlaridan mablag'larni so'zsiz undirish huquqiga ega boshqa organlarning qarorlari bo'yicha to'lovlar yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga bankda hisobvaraqlar ochish soni cheklanmagan.

Tadbirkorlik subyektlari (yuridik shaxsni tashkil etgan holda va tashkil etilmagan holda faoliyat ko'rsatadigan) tomonidan milliy valutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlarini ochish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- a) hisobvaraqa ochish to'g'risida ariza;
- b) davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
- d) imzo namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha.

Tadbirkorlik subyekt bo'lmagan rezident yuridik shaxslar, jumladan budget tashkilotlari tomonidan milliy valutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlarini ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- a) hisobvaraqa ochish to'g'risida ariza;
- b) soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) berilganligi haqidagi guvohnomaning nusxasi.
- d) imzo namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha.

To'lov hujjatlarida birinchi imzo huquqi korxonaga rahbari yoki u vakolat bergan mansabdor shaxs, ikkinchi imzo huquqi esa bosh buxgalter va u vakolat bergan shaxsga beriladi.

Yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmalariga (vakolatxonalari, filiallari) talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlar ochish uchun ushbu yuridik shaxsning iltimosnomasi bo'yicha (iltimosnomada yuridik shaxsning soliq to'lovchining identifikatsiya raqami –STIR ko'rsatiladi) hisobvaraq ochish to'g'risida ariza hamda imzo namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha taqdim etilishi kerak.

O'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirmoqchi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat ro'yxatidan o'tishlariga qadar ta'sischilar(ishtirokchilar)ning dastlabki badallarini kiritish uchun milliy va xorijiy valutada vaqtin-chalik(mablag' yig'ish uchun) talab qilib olinguncha hisobvaraq ochish mumkin.

Vaqtinchalik hisobvaraq ochish uchun vakolatli shaxs bankka ta'sischi (ishtirokchi)lar nomidan ixtiyoriy shaklda hisobvaraq ochish to'g'risida ariza taqdim qiladi. Davlat ro'yxatidan o'tgandan keyin asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraq ochiladi.

Taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligi va to'g'riligi tekshirilganidan so'ng, kredit tashkilotining rahbari hisobvaraq ochishga ruxsat etib, tegishli hisobvaraq raqamini beradi. Shu paytdan bank hisobvarag'i shartnomasi tuzilgan hisoblanadi. Korxonaning arizasi shartnoma tuzish uchun taklif, bank rahbarining farmoyishi esa – uni tuzishga roziligi deb tushuniladi.

Barcha mulkchilik tashkiliy-huquqiy shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun hisob-kitob hisobvaraqlari ochish tartibi deyarli bir xil. Uncha katta bo'lmagan ayrim farqlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy maqomidan kelib chiqadi. Bank hisobvaraq ochishni rad etish huquqiga ega emas (O'zR FK 775-m), bankning xizmat ko'rsatish uchun qabul qilish imkoni bo'lmagan yoki qonun hamda boshqa huquqiy hujjatlarda ruxsat etilmagan holatlar bundan mustasno. Bank muas-sasasining bank hisobvarag'i shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortishi hollarida mijoz unga O'zR FK 337-moddasining 6 va 7-qismlarida nazarda tutilgan talablarni qo'yishi mumkin. Bunday tartib korxonalarga o'zlarining tijorat manfaatlaridan kelib chiqib, ya'ni kredit siyosati qulay, operatsiyalar tez va aniq bajariladigan, axborot ta'minoti to'liqroq va xizmat ko'rsatish madaniyati yuqoriroq bankni tanlash imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning xohishiga ko'ra, unga hisob-kitob hisobvarag'idan tashqari, depozit, ssuda va boshqa hisobvaraqlar ochilishi mumkin. Ularni ochish tartibi yuqorida keltirilgan tartibga

o'xshash, farq shundaki, hisob-kitob hisobvarag'i ochilgan bankda mazkur hisobvaraqlarni rasmiylashtirish uchun talab qilinadigan hujjatlardan faqat ariza talab qilinadi.

Hisobvaraq bo'yicha pul mablag'larining harakati bank ko'chirmasida aks ettirilib, u mablag'larning kirimi va chiqimiga asos bo'luvchi hujjatlar bilan birga mijozga beriladi. Unda operatsiyalar bankda buxgalteriya hisobini yuritish tartibiga muvofiq keltiriladi: bank hisobvarag'ining debeti xo'jalik yurituvchi subyekt hisobvarag'ining kreditiga, bank hisobvarag'ining krediti esa – xo'jalik yurituvchi subyekt hisobvarag'ining debetiga mos keladi. Bank operatsiyalarining mazmuni shartli raqamlar (kodlar) bilan belgilanadi. Pul mablag'larining kelish manbalari mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasidan tushum, qarz mablag'lar (qisqa va uzoq muddatli kreditlar), budjet mablag'lari hisoblanadi. Mablag'larni sarflash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sodir bo'ladi: tovar-moddiy boyliklar sotib olish va xizmatlar uchun to'lash, ish haqi berish, budjet va budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, operatsion sarflar va h.

Pul mablag'lari yetishmagan hollarda barcha qo'yilgan talablarni qondirish uchun O'zR FKning 784-moddasiga muvofiq quyidagi to'lov navbati ko'zda tutilgan:

«...birinchi navbatda mutanosib ravishda budjetga, budjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni hamda ish haqi to'lash uchun pul mablag'lari berilishini nazarda tutuvchi to'lov(ijrochi) hujjatlari bo'yicha, alimintlarni undirishga doir talablarni qondirish uchun hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazish yoki pul berishni nazarda tutuvchi ijrochi hujjatlar bo'yicha, mualliflik shartnomalariga binoan mukofotlarni to'lash bo'yicha, shuningdek, hayoti va salomatligiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bo'yicha, budjet to'lovlar bo'yicha hamda mehnatga oid va unga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan to'lovlar bo'yicha xo'jalik subyektlarining majburiyatlari teng darajada bajarilishini ta'minlovchi ijrochi hujjatlar bo'yicha pul o'chiriladi;

ikkinchi navbatda boshqa pul talablarini qondirishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo'yicha pul o'chiriladi;

uchinchi navbatda boshqa to'lov hujjatlari bo'yicha kalendar navbat tartibida pul o'chiriladi.

Bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq kechiktirib bo'l-maydigan ehtiyojlarga pul mablag'larini qonun hujjatlarida belgilangan

miqdorda hisobdan chiqarish, kalendar navbat tartibidan tashqari navbatda amalga oshiriladi»³⁶.

Bitta navbatga taalluqli bo'lgan talablar bo'yicha mablag'larni hisobvaraqlardan chiqarish hujjatlarning kalendarli kelib tushish tartibida amalga oshiriladi. Hisobvaraqdan mablag'larni berish bo'yicha ope-ratsiyalarni to'xtatib turish sud, xo'jalik sudi yoki tergov organlarining qaro-ri bo'yicha amalga oshirilib, bu haqda shaxsiy hisobvaraqa belgi qo'yiladi. Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish bekor qilinganida (bu ham xo'jalik sudi, sud yoki tergov organlari qaroriga asosan) shaxsiy hisob-varaqa operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat etuvchi yozuv amalga oshiriladi. Mijozning hisobvarag'idagi pul mablag'laridan summalar undi-rilishi faqat sud tomonidan berilgan ijro varaqalari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zR FKning 788-moddasiga muvofiq: *«Bank hisobvarag'i shartnomasi mijozning arizasiga muvofiq istalgan vaqtda bekor qilinadi.*

Bankning talabiga ko'ra bank hisobvarag'i shartnomasi quyidagi hollarda sud tomonidan bekor qilinish mumkin:

mijozning hisobvarag'ida saqlanayotgan pul mablag'lari summasi bank qoidalarida yoki shartnomada ko'zda tutilgan eng kam miqdordan oz bo'lsa, agar bunday summa bank bu haqda ogohlantirilgan kundan boshlab bir oyda tiklanmasa;

agar shartnomada boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu hisobvaraq bo'yicha bir yil davomida operatsiyalar qilinmagan bo'lsa.

Hisobvaraqdagi pul mablag'larining qoldig'i mijozning tegishli yozma arizasi olinganidan keyin kechi bilan yetti kun ichida mijozga beriladi yoki uning ko'rsatmasiga muvofiq boshqa hisobvaraqa o'tkaziladi. Bank hisob-varag'i shartnomasining bekor qilinishi mijoz hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi»³⁷.

Bundan tashqari, hisobvaraqlar sud yoki xo'jalik sudi qaroriga muvofiq hamda quyidagi hollarda yopilishi mumkin:

- xo'jalik yurituvchi subyekt bankrot deb tan olinganida;
- xo'jalik yurituvchi subyektning qonunchilikda belgilangan shartlarni bajarmasligi oqibatida faoliyatini taqiqlash to'g'risida qaror qabul qilinganida;
- xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari sud qarori bilan haqiqiy emas deb topilganida va h.

³⁶ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси.—Т.: «Адолат», 2007й. —Б.327.

³⁷ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси.—Т.: «Адолат», 2007й. —Б.329.

Ta'kidlash joizki, yuridik shaxsni tugatish mulkdor yoki uning vakolatli organi tomonidan tayinlangan tugatish komissiyasi, bankrotlik hol-larida esa – sud yoki xo'jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi. Keyingilar tugatish tartibi va muddatlarini hamda kreditorlarning da'vo arizilari uchun muddat belgilab, tugatish e'lon qilingan vaqtdan boshlab ikki oydan kam bo'lishi mumkin emas.

Qayta tashkil etish (birlashish, qo'shilish, bo'linish va ajralib chiqish) munosabati bilan hisobvaraqlarni qayta rasmiylashtirish chog'ida ham hisobvaraqlar ochish paytidagi kabi hujjatlar taqdim etiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar milliy valutadagi hisob-kitob hisobvarag'idan tashqari, xorijiy valutilarda ham hisobvaraqlar ochishi mumkin. Buning uchun tijorat banklari tegishli litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Litsenziyalar bosh, ichki va bir martalik litsenziyalarga bo'linadi. Bo-sh litsenziya kredit tashkilotiga O'zbekiston hududida ham, chet elda ham xorijiy valutadagi operatsiyalarni to'liq yoki cheklangan miqdorini amalga oshirish huquqini beradi. Ichki litsenziya esa, xorijiy valutadagi operatsiyalarni to'liq yoki cheklangan doirada faqat O'zbekiston hududida, bir martalik litsenziya xorijiy valutadagi muayyan operatsiyani amalga oshirish huquqini beradi. Bosh yoki ichki litsenziyaga ega bank o'z mijozlarining operatsiyalari ustidan valuta nazorati agenti funksiyasini bajaradi.

Agar mijoz valuta hisobvarag'ini hisob-kitob hisobvarag'i ochilgan bankda ochayotgan bo'lsa, xorijiy valuta nomi ko'rsatilgan valuta hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi arizadan tashqari, boshqa qo'shimcha hujjat talab qilinmaydi. Valuta hisobvarag'i bilan bir vaqtda birdaniga tranzit valuta hisobvarag'i ochiladi. Unga chet el valutasidagi tushum to'liq hajmda kirim qilinib, bu haqda keyingi ish kunidan kechikmasdan mijozga bildiriladi (hisobvaraqlar bo'yicha bank ko'chirmasiga ilova orqali). Bildirgini olganidan so'ng, korxonaga vakolatli bankka valuta tushumining 50 foizini majburiy sotish va qolgan qismini valuta hisobvarag'iga o'tkazish uchun topshiriqnoma beradi.

Bir vaqtning o'zida valutani o'tkazish uchun topshiriqnoma bilan birga, korxonaga o'tkazilgan pul mablag'larining so'mdagi ekvivalentini hisob-kitob hisobvarag'iga kirim qilish uchun vakolatli bankka «*Valuta sotish uchun*» degan belgi qo'yilgan to'lov talabnoma – topshiriqnomaning taqdim etilishi. Valutani sotish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi valuta kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar valuta tushumini kirim qilish tartibiga rioya qilmaganliklari uchun yashirilgan tushumning miqdorida chet el

valutasida yoki uning soʻmdagi ekvivalentida jarimaga tortiladi. Jarima toʻlash korxonani qonunchilikda belgilangan tartibni bajarishdan ozod etmaydi.

Xoʻjalik yurituvchi subyektning valuta hisobvaragʻiga tovar (ish, xizmat)larni toʻlash hisobiga summalar, boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlardan olingan qisqa va uzoq muddatli qarzlarning summalari (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud boʻlganida), tekinga olingan valuta mablagʻlari, ustav kapitaliga ulush sifatida qoʻshilgan valuta mablagʻlari va h. qabul qilinadi.


Valuta hisobvaragʻidagi mablagʻlar quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin: hisobvara egasining faoliyatiga mos eksport – import operatsiyalari boʻyicha chet elga toʻlovlar; import qilingan tovarlar uchun keyinchalik chet elga oʻtkazish maqsadida tashqi savdo va boshqa tashqi iqtisodiy tashkilotlarga valuta mablagʻlarini oʻtkazish; yet-kazib berilgan tovarlar uchun boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarning valuta hisobvaragʻiga qabul qilish; chet el valutasidagi kreditlar boʻyicha qarzlarni soʻndirish. Valuta hisobvaragʻini yopish va qayta rasmiylashtirish yuqorida koʻrib chiqilgan umumiy tartibda amalga oshiriladi.

4.3. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari

4.3.1. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari, ularni tashkil etishning umumiy qoidalari va ahamiyati


Hozirgi vaqtda naqd pulsiz hisob-kitoblarning quyidagi shakllari qoʻllanmoqda(4.1-rasm).

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etishning amaldagi qoidalariga muvofiq hisob-kitob shaklini tanlash erkinligi xoʻjalik yurituvchi subyektlarga berilgan. Belgilangan hisob-kitob shakli shartnomada koʻrsatiladi va banklar xoʻjalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy muno-sabatlariga aralashmaydi.



4.1-rasm. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.

Naqd pulsiz hisob-kitob ishlari to'g'risidagi qoidalar barcha mijozlarga, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarga tegishlidir. Naqd pulsiz hisob-kitob ishlarini amalga oshirishda Mârkaziy bank tomonidan belgilangan pul-hisob hujjatlarining quyidagi shakllari qo'llaniladi(4.2-rasm).



4.2-rasm. Naqd pulsiz hisob-kitob ishlarida qo'llaniladigan hujjatlar.

To'lovchi bilan haqdor o'rtasidagi hisob shakli tuzilgan shartnomada belgilanadi. Hisob muomalalari banklar tomonidan mijozlarning depozit hisobvarag'idan amalga oshiriladi. Banklar


mijozlarning hisobvaraqlarida ularning pullarini saqlash, shu hisobvaraqlarga kelayotgan pul mablag'larini kiringga olish, mijozlarning topshiriqlariga asosan ularning hisobvaraqlardan pul o'tkazish va pul berish kabi operatsiyalarni bajaradi. Mijozning hisobvarag'ida pul yetarli bo'lmagan taqdirda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida belgilangan navbat bilan mablag'lar mijozning hisobvarag'idan hisobdan chiqariladi.

Pul-hisob hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi.

Pul-hisob hujjatlari quyidagi rekvizitlarga ega bo'lishi shart (4.3-rasm):

Pul-hisob hujjatlarini rasmiylashtirishda bankning va mijozning ishini qiyinlashtirmaydigan tartibda to'lovchi bilan oluvchining nomlarini qisqartirib ko'rsatishga yo'l qo'yiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'laydigan korxonalar pul-hisob hujjatlarini rasmiylashtirishda qo'shilgan qiymat solig'ini alohida satr bilan ajratib ko'rsatishi kerak. Pul-hisob hujjatlarida tuzatish, bo'yash va tozalashga yo'l qo'yilmaydi. Pul-hisob hujjatlari yuridik shaxslardan birinchi nusxada mansabdor shaxslarning imzosi hamda korxonaning muhri bosilgan bo'lsa qabul qilinadi. Yuridik shaxs maqomi rasmiylashtirilmagan tadbirkorlardan bitta imzo bo'lgan taqdirda qabul qilinadi.



Eslatma: pul-hisob hujjatlarida tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi

4.3-rasm. Pul-hisob hujjatlarining rekvizitlari.

Mijozlardan qabul qilingan hujjatlar bo'yicha operatsiyalar shu kunning o'zida ijro qilinadi. Pulhisob hujjatlarining hamma nusxalari ularga muvofiq pul kirimlari yoki chiqimlarini amalga oshirish uchun, albatta, bank buxgalterining imzosi hamda bankning shtampi bilan tasdiqlanishi kerak.

4.3.2. To'lov topshiriqnomalari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar

To'lov topshirig'i mijozning ma'lum summani o'zining hisobvarag'idan haqdorning hisobvarag'iga o'tkazish haqidagi bank bo'limiga bergan topshirig'idir. To'lov topshiriqnomasi yordamida quyidagi to'lovlar amalga oshirilishi mumkin:

- tovar, ish va xizmatlar uchun oldin to'lov(bo'nak);
- olingan tovar, ish va xizmatlar uchun to'lov;
- kreditorlik qarzlarni so'ndirish;
- budjetga soliqlar va davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlariga to'lovlarni o'tkazish;
- bank kreditlarini so'ndirish;
- hisob-kitob cheklarini olish maqsadida hisob-kitob schyotidan pul o'tkazish;
- boshqa to'lovlar.

To'lov topshiriqnomasining sanasi u bankka taqdim qilingan sana bilan muvofiq bo'lishi kerak, muvofiq bo'lmagan taqdirda topshiriq ijro etish uchun qabul qilinmaydi. Budjetga va budjetdan tashqari fondlarga to'lanadigan to'lovlar uchun yozilgan to'lov topshiriqnomalari bundan mustasnodir. To'lov topshiriqnomasi mijozning depozit hisobvarag'ida mablag'i bo'lgan taqdirda qabul qilinadi.

Kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlar uchun mablag'lar xo'jalik yurituvchi subyektlarning to'lov topshirig'iga asosan beriladi. To'lov topshirig'ida *«kechiktirib bo'lmaydigan to'lovlar hisobidan»* so'zi yozilishi kerak. To'lov topshirig'i mijozlar tomonidan bankka to'lovchi bilan haqdorga bitta bank xizmat qilgan taqdirda 3 nusxada, to'lovchi bilan haqdorga turli banklar xizmat qilgan taqdirda 2 nusxada taqdim qilinadi.

To'lov topshiriqnomasi bilan olib boriladigan hisob-kitoblar (4.4-rasm).


Ma'lum vazifalarni bajarish uchun uzoq muddatga boshqa joylarga xizmat safariga jo'natilgan xodimlar bank bo'limlarida depozit hisobvarag'i ochish huquqiga ega. Bu hisobvaraqlarga mablag'lar bank

bo'limi rahbarlarining yozma ruxsati bilan o'tkazilishi mumkin. Korxonalarining xizmat safaridagi xodimlariga ochilgan hisobvaraqlarga faqat xizmat safariga jo'natgan tashkilotdan o'tkazilgan summalar qabul qilinishi mumkin. Xizmat safaridagilarning hisobvaraqlardan ham naqd pul bilan, ham naqd pulsiz hisob-kitob ishlari amalga oshirilishi mumkin. Bank har bir holatda naqd pul olishga qo'yilayotgan talabning asosli ekanligini va hisob-kitob ishlari naqd pulsiz tartibda amalga oshirilishi mumkinligini tekshiradi. Korxonaning xizmat safaridagi vakiliga bankda unga ochilgan schotdan naqd pullar kassa chiqim orderiga muvofiq beriladi.


To'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar va oldin to'lov quyidagi kamchiliklarga ega:

– olingan pul mablag'lari summasi va jo'natilgan mahsulotlar hajmi o'rtasida nomuvofiqlik vujudga kelganida debitorlik-kreditorlik qarzlarini paydo bo'lishi;

aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligining pasayishi va ularning noma'lum muddatga chetlashtirilishi oqibatida ularga bo'lgan ehtiyojining oshishi.



Hisob-kitoblar ketma-ketligi



4.4-rasm. To'lov topshiriqnomasi bilan olib boriladigan hisob-kitoblar.

4.3.3. To'lov talabnomalari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar

To'lov talabnomasi ma'lum summani bank orqali o'tkazish to'g'risidagi mol yetkazib beruvchining xaridorga bo'lgan talabini ifodalovchi pul-hisob hujjatidir. To'lov talabnomasi jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ish va xizmatlar uchun taqdim etiladi. To'lov talabnomasida barcha pul-hisob hujjatlarida ko'rsatilgan rekvizitlar bilan bir qatorda shartnomaning nomeri va sanasi, kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq yetkazib berilgan mahsulotlar bo'yicha tegishli katagida «*kontraktatsiya shartnomasi*» so'zi ko'rsatiladi hamda tovarlarni jo'natish sanasi va tovar-transport hujjatlarining nomerlari yoki qabul qilish-topshirish hujjatlarining sanasi va nomerlari hamda transport turi ko'rsatilishi kerak.

Tovarlar xaridorning transporti bilan olib ketilganida to'lov talabnomasining «*Jo'natish usuli, nakladnoy nomeri*» satrida «*Xaridorning transporti bilan olib ketildi, ishonch qog'ozi №...*» deb ko'rsatiladi. Mol yetkazib beruvchi jo'natilgan tovarlarning narxlarini asoslovchi tovar-transport hujjatlarini to'lov talabnomasiga ilova qilishi kerak. Tarafning kelishuviga asosan to'lov aksept bilan yoki akseptsiz bo'lishi mumkin. Aksept xaridorning to'lovga roziligi demakdir. To'lov talabnomasi schyot-fakturalarning ro'yxati bilan birga mol yetkazib beruvchi tomonidan o'ziga xizmat qiluvchi bank bo'limiga inkassoga

topshiriladi. Bunda hisobvaraƒ-fakturalarning ro'yxati (reestri) 2 nusxada tuziladi. Reestrlar to'lov talab-nomalarining hamma rekvizitlarini ifodalashi kerak.

Reestrning birinchi nusxasi korxonalarahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolalanib, muhr bilan tasdiqlashi kerak.

Qabul qilingan sanasi ko'rsatilgan, buxgalterning imzosi qo'yilgan va bankning shtampi bosilgan reestrning birinchi nusxasi mol yetkazib beruvchining bankida qoladi. Qabul qilingan sanasi, buxgalterning imzosi qo'yilgan va bankning shtampi bosilgan reestrning ikkinchi nusxasi mol yetkazib beruvchiga qaytariladi. Mablag'larni to'lovchi va oluvchiga bitta bank xizmat qilgan taqdirda, to'lov talabnomasi bank bo'limiga 3 nusxada taqdim qilinadi.

To'lov amalga oshirilganidan keyin to'lov talabnomasining birinchi nusxasi bankda qoladi, ikkinchi nusxasi mol yetkazib beruvchining hisobvarag'idan beriladigan ko'chirmaga va uchinchi nusxasi xaridorning hisobvarag'idan beriladigan ko'chirmaga birlashtiriladi. Mol yetkazib beruvchi bilan xaridorga turli banklar xizmat qilgan taqdirda to'lov talabnomasi 2 nusxada taqdim qilinadi. To'lov talabnomasining birinchi va ikkinchi nusxasi pochta orqali xaridorning bankiga jo'natiladi. Uning birinchi nusxasi to'lovni kutish uchun bankda qoladi, ikkinchi nusxasi tovar-transport hujjatlariga birlashtirilib, keyingi ish kunidan kechikmay, to'lov to'g'risidagi xabarnoma sifatida va akseptlash uchun xaridorga yuboriladi. To'lovchi belgilangan muddatda to'lov talabnomasida aksept qilinganligini ko'rsatib bankka qaytirishi kerak. Aks holda to'lov talabnomasi bank tomonidan umumiy tartibda aksept qilinadi va to'lovlar to'langanidan keyin birinchi nusxasi bankning hujjatlariga birlashtiriladi. Ikkinchi nusxasi to'lovchining hisobvarag'idan beriladigan ko'chirma bilan birga unga yuboriladi.

To'lovchining depozit hisobvarag'ida pul bo'lmagan taqdirda to'lov talabnomasi 2-kartotekaga qo'yiladi va bu haqida mol yetkazib beruvchiga xabar qiladi. 2-kartotekaga qo'yilgan pul-hisob hujjatlari to'lovchining hisobvarag'iga pul kelgan sari belgilangan navbat bilan to'lanadi.

To'lovchining depozit hisobvarag'ida pul yetarli bo'lmagan taqdirda to'lov talabnomasi qisman to'lanishi mumkin. Qisman to'langan summalar to'lov talabnomasining orqa tomonida ko'rsatilib 2-kartotekaga qo'yiladi.

Aksept (to'lovchining roziligi) bilan to'lanadigan to'lov talabnomalari. Xaridorning banki to'lov talabnomalarini aksept qilishning quyidagi tartibi va muddatlarini belgilaydi:

Bir shahar ichidagi mijozlar uchun to'lov talabnomasi bankka taqdim qilingan kun hisobga olinmagan holda 3 ish kuni, shaharlararo mijozlar uchun to'lov talabnomasi bankka topshirilgan kun hisobga olinmagan holda 5 ish kuni. To'lovchining asosli iltimosiga ko'ra 10 kungacha belgilanishi mumkin. Aksept bilan to'lanadigan to'lov talabnomalari birinchi karto-tekaga qo'yiladi. Ma'lumki, birinchi kartotekaga to'lash muddatlarini ku-tayotgan hujjatlar qo'yiladi.

To'lov talabnomasining to'lovchilarga xabar berish va aksept qilish uchun belgilangan nusxalari unga tovar-transport hujjatlarini birlashtirilib bankka kelganidan keyingi kundan kechikmasdan tegishli to'lovchilarga taqdim etilishi lozim.

To'lovchi belgilangan muddat ichida o'zining to'lovga to'liq yoki qisman noroziligini yozma ravishda ma'lum qilishi kerak. Mol yetkazib beruvchi tomonidan tovarmoddiy qiymatlarni yetkazib berish bo'yicha shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, xaridor akseptdan qisman yoki to'liq bosh tortishi mumkin.

Xaridor akseptdan bosh tortishini yozma ravishda belgilangan muddat ichida o'zining bankiga ma'lum qilmagan taqdirda to'lov talabnomasi akseptlangan bo'lib hisoblanadi. Bank akseptdan bosh tortish bilan bog'liq bo'lgan kelishmov-chiliklarni hal qilmaydi.

Xaridorning banki xaridor sabablarini ko'rsatib yozma ravishda akseptdan bosh tortganligi to'g'risidagi ma'lumotni olgach, to'lov talabnomalarini shu kuniyoq 1-kartotekadan olib akseptdan bosh tortilganlik to'g'risidagi xatning nusxasi boshqa hamma ilova qilingan hujjatlar bilan mol yetkazib beruvchining bankiga qaytaradi. Xaridor akseptdan qisman bosh tortganida to'lov talabnomasining akseptlangan summasi to'lanadi, xaridorning hisobvarag'ida puli bo'lmagan taqdirda 2-kartotekaga qo'yiladi. To'lov talabnomasining dastlabki summasi chiziq ichiga olinib, uning yonida to'lov talabnomasining akseptlangan summasi yozib qo'yiladi. Bunda xaridorning banki to'lovchi akseptdan qisman bosh tortganligi to'g'risida mol yetkazib beruvchining bankiga xabar qilishi kerak.

O'z vaqtida to'lanmagan to'lov talabnomalari bo'yicha bank xaridorlardan mol yetkazib beruvchilar foydasiga to'lovning har bir kechikkan kuni uchun jarima (penya) undiradi.


To'lov talabnomasi qisman to'langanida ham shunday qisman to'lovlar summasiga hisoblanadi. Hisoblangan jarima summalari to'lov topshirig'ining orqa tomonida ko'rsatib boriladi. To'lov talabnomasi bo'yicha oxirgi to'lov vaqtida hamma hisoblangan jarimalar undiriladi.

Mol yetkazib beruvchi bilan xaridorga turli banklar xizmat qiladigan, to'lov talabnomasi bilan olib boriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarning aksept shaklidagi pul-hisob hujjatlarining aylanishi quyidagicha(4.5-rasm).

Xaridorning hisobvarag'ida pul bo'lmagan taqdirda talabnoma 2-kartotekaga qo'yiladi va bu haqida mol yetkazib beruvchiga xabar beriladi.

Xaridorning hisobvarag'ida pul yetarli bo'lmagan taqdirda talabnoma qisman to'lanishi mumkin. Qisman to'langan summalar talabnomaning orqa tomonida ko'rsatilib 2-kartotekaga qo'yiladi.


Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda xaridor akseptdan to'liq yoki qisman tortishi mumkin.



4.5-rasm. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning aksept shakli.

Akseptsiz to'lanadigan to'lov talabnomalari. Kommunal xizmatlar, kana-lizatsiya, telefondan foydalanish, pochta-telegraf xarajatlari hamda axlatlarni olib ketish uchun, agar tuzilgan shartnomalarda mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish ko'zda tutilgan bo'lsa, to'lovchilarning hisobvaraqlardan mablag'larni hisobdan chiqarish uchun ularning roziligi talab qilinmaydi. Bunda to'lov talabnomasida «Akseptsiz» deb yoziladi yoki shtamp bosiladi.

Hisob-kitoblar ketma-ketligi




Akseptsiz to'lanishi kerak bo'lgan talabnomalar ular bankka kelib tushgan kuni to'lanishi kerak, mablag' bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirda to'lan-magan summalar «O'z vaqtida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari» hisobvarag'i-ning kartotekasiga qo'yiladi.

4.3.4. Akkreditivlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar

Akkreditiv xaridorning bankida ochilib, bu haqda mol yetkazib beruvchining bankiga ma'lum qilinadi. Akkreditiv ochgan bank mol yetkazib beruvchining bankiga to'lovlarni o'tkazish majburiyatini oladi. Akkreditiv ochish uchun xaridor o'ziga xizmat qiluvchi bank bo'limiga ariza beradi. Akkreditivning muddati va akkreditiv orqali hisob-kitob olib borish tartibi xaridor bilan mol yetkazib beruvchi o'rtasida tuziladigan shartnoma bilan belgilanadi. Bu shartnomada akkreditiv ochgan bankning nomi, akkreditiv turi va undan foydalanish usullari, akkreditiv ochilganligi to'g'risida mol yetkazib beruvchiga xabar berish usuli, akkreditivdan pul olish uchun mol yetkazib beruvchi o'zining bankiga taqdim qiladigan hujjatlarning ro'yxati va ularning aniq ta'rifi, tovarlar jo'natilgandan keyin, ish va xizmatlar bajarilganidan keyin hujjatlarni taqdim etish muddatlari va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar hamda boshqa zarur bo'ladigan hujjatlar ko'rsatiladi. Quyidagi akkreditiv turlari ochilishi mumkin:

1. Qoplanagan (deponentlangan) akkreditivlar.
2. Qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditivlar.

Akkreditivlar bankda kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida va «Akkreditivlar bo'yicha mijozlarning depozitlari» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Har bir mol yetkazib beruvchi uchun alohida unga xizmat qiluvchi bankda akkreditiv bo'yicha depozit hisobvarag'i ochiladi. Qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar chaqirib olinadigan yoki chaqirib olinmaydigan akkreditivlar bo'lishi mumkin. Bunday ko'rsatma bo'lmagan taqdirda akkreditiv chaqirib olinadigan akkreditiv bo'ladi. Xaridorga xizmat qiluvchi va uning arizasiga muvofiq akkreditiv ochuvchi bankni *emitent-bank*, mol yetkazib beruvchiga xizmat qiluvchi bankni *ijro etuvchi bank* deb yuritiladi. Chaqirib olinadigan akkreditiv mol yetkazib beruvchi bilan kelishilmagan holda emitent-bank tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Shartnomada ko'zda tutilgan shartlarga rioya qilinmaganida hamda emitent-bank akkreditiv bo'yicha to'lovlarni kafolatlanishni muddatidan oldin rad qilganida chaqirib olinadigan akkreditiv o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Chaqirib olinadigan akkreditivning shartlarini o'zgartirish haqidagi hamma buyruqlarni xaridor mol yetkazib beruvchiga faqat emitent-bank orqali beradi. Emitent-bank ijro qiluvchi bankka xabar beradi. Ijro qiluvchi bank esa o'z navbatida mol yetkazib beruvchiga xabar qiladi. Chaqirib olinmaydigan akkreditiv mol yetkazib beruvchining roziligisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas (4.6-rasm).



4.6-rasm. Naqd pulstz hisob-kitoblarning akkreditiv shakli.

Agar akkreditivning shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, mol yetkazib beruvchi akkreditivdan foydalanishni muddatidan oldin rad qilishi mumkin.

Quyidagi holatlarda akkreditiv mol yetkazib beruvchining bankida yopilishi mumkin:

1. Akkreditivning muddati tugaganida. Bunda akkreditiv yopilganligi to'g'risida ijrochi bank emitent-bankka xabar qiladi.

2. Akkreditivning shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, akkreditivdan foydalanishni rad qilish haqidagi mol yetkazib beruvchining arizasi bo'yicha yopilishi mumkin. Ijrochi bank tomonidan emitent bankka bu haqidagi xa-bar yuboriladi. Akkreditivning foydalanilmagan summasi xaridorning bankiga qaytariladi va mablag'lar qaysi schotdan deponent qilingan bo'lsa, shu schotga o'tkaziladi.

3. Akkreditivning shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, akkreditivni to'liq yoki qisman qaytarish haqidagi xaridorning arizasi bo'yicha akkreditiv yopi-lishi yoki kamaytirilishi mumkin.

Akkreditiv yopilganligi to'g'risidagi xabar emitent-bankka yuboriladi.

Akkreditivdan naqd pul berish hamda akkreditivni boshqa manzilga ko'chirish taqiqlanadi.

Qoplangan (deponentlangan) akkreditivlar. Mol yetkazib beruvchining bankiga emitent-bank o'tkazadigan xaridorning mablag'lari qoplangan (deponentlangan) akkreditiv bo'lib hisoblanadi. Akkreditiv ochish uchun emitent-bankka 2 nusxada ariza beriladi:

1. Arizaning birinchi nusxasi pul o'tkazilganidan keyin bankning kundalik hujjatlariga birlashtiriladi.

2. Arizaning ikkinchi nusxasi xaridorning hisobvarag'idan beriladigan ko'chirmaga ilova qilinadi.

Shu bilan bir vaqtda akkreditivning summasi kutilmagan holatlar hisobva-rag'iga kiringa olinadi.

To'langan akkreditiv elektron to'lovlar tizimi bo'yicha mol yetkazib beruvchining bankiga yuboriladi va mol yetkazib beruvchining akkreditiv hisobvarag'iga kirim qilinadi. Mol yetkazib beruvchining banki mablag'lar kelganligi to'g'risida mol yetkazib beruvchiga xabar qiladi. Mol yetkazib beruvchining bankida akkreditivning elektron arizasi 2 nusxada bosmadan chiqariladi:

1. Birinchi nusxasi bankning kundalik xarajatlariga birlashtiriladi.

2. Ikkinchi nusxasi «*To'lash muddatlarini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari*» 1-kartotekaga qo'yiladi. Akkreditivning hamma shartlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bankka taqdim qilinganidan keyin mol yetkazib beruvchining depozit hisobvarag'iga pul o'tkaziladi.


Akkreditivdan to'lovlar qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar akkreditivning muddati o'tishidan oldin bankka taqdim qilinishi kerak. Mol yetkazib beruvchining banki mol yetkazib beruvchi tomonidan akkre-ditivning hamma shartlariga rioya qilinganligini hamda hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirishi kerak.

Akkreditivning biror sharti buzilgan taqdirda, mol yetkazib beruvchining hisobvarag'iga pul o'tkazish taqiqlanadi. Mol yetkazib beruvchi bankka tasdiqlovchi hujjatlarni ikki nusxada taqdim qiladi.

Mol yetkazib beruvchining depozit hisobvarag'iga pul o'tkazishda ijrochi bankda 4 nusxada memorial order rasmiylashtiriladi. Orderning to'lov maqsadiga doir qismida shartnomaning raqami va sanasi ko'rsatiladi.


Memorial orderning birinchi nusxasi tasdiqlovchi hujjatlarning bir nusxasi bilan bankning kundalik hujjatlariga biriktiriladi. Ikkinchi va uchinchi nusxalari tasdiqlovchi hujjatlarning 2-nusxasi biriktirilib emitent-bankka jo'natiladi. To'rtinchi nusxasi depozit hisobvarag'idan beriladigan ko'chirma bilan birga mol yetkazib beruvchiga beriladi. Shu bilan bir vaqtda akkreditivdan to'langan summalar 1-kartotekadan hisobdan chiqariladi.

Emitent-bank ijrochi bankdan akkreditivning ishlatilganligi to'g'risidagi hujjatlarni olganidan keyin olingan memorial orderga asosan akkreditivning summasini kutilmagan holatlar hisobvarag'idan chiqaradi va tasdiqlovchi hujjatlar biriktirilgan memorial orderning bir nusxasi xaridorga beriladi. Akkreditivdan to'liq foydalanilmagan va u emitent-bankka xaridorning depozit hisob varag'iga qaytarilgan taqdirda kutilmagan holatlar hisobvarag'i ham yopiladi. Mol yetkazib beruvchining bankida akkreditiv qisman-qisman to'langan taqdirda to'langan summalar to'lovlar qilingan sari emitent-bankda kutilmagan holatlar hisobva-rag'idan chiqarib boriladi. Mol yetkazib beruvchining bankiga emitent-bank o'tkazadigan xaridorning mablag'lari qoplangan (deponentlangan) akkreditiv bo'lib hisoblanadi(4.7-rasm).



4.7-rasm. Qoplangan (deponentlangan)akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar

Hisob-kitoblar ketma-ketligi



Akkreditivdan to'liq foydalanilmagan va uni emitent-bankka xaridorning depozit hisobvarag'iga qaytarilgan taqdirda kutilmagan holatlar hisobvarag'i ham yopiladi.

Qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditivlar. Kafolatlangan akkreditiv, emitent-bank bilan bevosita korrespondentlik munosabatlari

bo'lgan taqdirda, ijrochi bankda unda ochilgan emitent-bankning korrespondentlik hisobvarag'idan akkreditivning hamma summasini hisobdan chiqarish huquqini berish bilan ijrochi bankda ochiladi.

Kafolatlangan akkreditivning hamma shartlari mol yetkazib beruvchi bilan xaridor o'rtasida hamda korrespondent banklar o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'rsatiladi. Akkreditivdan to'liq foydalanilmagan taqdirda emitent-bank qisman to'langan summalarni korrespondentlik hisobvarag'iga o'tkazadi. Shu bilan bir vaqtda akkreditivning to'liq summasi kutilmagan holatlar hisobvarag'idan hisobdan chiqariladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning akkreditiv shakli xaridorlar va mol yetkazib beruvchilar o'rtasidagi hisob-kitoblarni tezlashtirib, ayni vaqtda to'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega. Masalan, pul mablag'larining tovarsiz harakatlanishi bartaraf etiladi. Hatto qoplanadigan akkreditivlar qo'llanilganida to'lovchining pul mablag'lari oluvchi uchun tekin kredit resurslari bo'lib xizmat qilmasdan, balki faqat o'z kafolatlarini ta'minlash uchun bank tomonidan deponentlanadi. Mol yetkazib beruvchi tovarlarni xaridor manziliga jo'natib, bu haqda hujjatlarni o'z bankiga taqdim qilishi bilan to'lovi amalga oshiriladi.

Shunga qaramasdan, naqd pulsiz hisob-kitoblar akkreditiv shaklining ulushi kichik bo'lib, bu uning quyidagi **kamchiliklari** bilan izohlanadi:

- aylanma aktivlarning xaridor oborotidan chetlashishi, ularning tarqoqligi va natijada aylanuvchanligining sekinlashishi;
- xaridor tomonidan mol yetkazib beruvchining shartnoma shartlariga rioya qilinishi ustidan nazoratning pasayishi;
- xaridor tomonidan o'z vaqtida akkreditiv qo'yilmaganida ta'minot jarayoni rejasining buzilishi;
- ushbu hisob-kitob shaklining murakkabligi va qimmatligi.

4.3.5. Inkasso topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

Inkasso topshiriqnomasi to'lovchining hisobvarag'idan mablag'larni so'zsiz hisobdan chiqarish to'g'risida undiruvchilarning bankka bergan talabini ifodalaydi. Inkasso topshiriqnomalari quyidagi undiruvchilar tomonidan bankka taqdim qilinishi mumkin:

1. Soliq organlari tomonidan – o‘z vaqtida to‘lanmagan soliqlar va davlat budjetiga to‘lanishi kerak bo‘lgan qat‘iy hamda kun sayin hisoblanadigan jarimalardan iborat to‘lovlarni undirish uchun.

2. Budjetdan tashqari fondlar tomonidan – agar qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, o‘z vaqtida to‘lanmagan to‘lovlarni undirish uchun.

3. Sud organlari tomonidan – ularga berilgan ijro hujjatlari bo‘yicha.

4. Bojxona organlari tomonidan – o‘z vaqtida to‘lanmagan bojxona to‘lovlarini undirish uchun hamda qonunga muvofiq boshqa organlar tomonidan inkasso topshiriqnomalari bankka taqdim qilinishi mumkin.

Ijro hujjatlari deb quyidagilar tan olinadi:

1. xo‘jalik sudining buyruqlari;

2. sudlar tomonidan berilgan ijro varaqalari;

3. notariuslar tomonidan tasdiqlangan ijro varaqalari.

Bank tomonidan mablag‘lar to‘lovchilarning hisobvaraqlardan faqat hujjatlarning asl nusxalariga yoki ularning dublikatlariga asosan hisobdan chiqariladi. Xo‘jalik sudining qarorlariga asosan mablag‘larni undirib olish-da inkasso topshiriqnomalarida ushbu qarorning raqami va sanasi ko‘r-satilib, bunda qarz summasi va davlat boji xarajatlari alohida ajratib ko‘rsatilishi kerak.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning foydasiga mablag‘larni undirish uchun hujjatlar belgilangan muddatidan kechikib taqdim qilinganida bank bu hujjatlarni inkassoga qabul qilmaydi. Qonunga muvofiq ijro hujjatlarini bajarishning quyidagi muddatlarda belgilangan:

1. sudlar tomonidan berilgan ijro varaqalari bo‘yicha-3 yil;

2. ijro ustxatlari bo‘yicha-3 yil;

3. xo‘jalik sudlari tomonidan berilgan ijro varaqalari bo‘yicha-6 oy;

4. mehnat nizolari bo‘yicha komissiya tomonidan berilgan guvohnomalar bo‘yicha-3 oy.

Xo‘jalik sudining sudyasi tomonidan berilgan sud buyrug‘i bo‘yicha mablag‘lar buyruq berilganidan boshlab 10 kun o‘tganidan keyin undirib olinadi.

Ijro hujjatlarini ijro etish uchun bankka yoki sud ijrochisiga taqdim etilishi ularni taqdim qilish muddatining o‘tishini to‘xtatadi. Undiruvchiga hujjat bank yoki sud ijrochisi tomonidan qaytarilgan taqdirda, muddat o‘sha kundan boshlab hisoblanadi.

Banklar faqat quyidagi holatlarda mablag'larni undirishni vaqtincha to'xtatish yoki to'liq to'xtatish huquqiga ega:

1. undiruvchilarning arizasiga muvofiq;
2. xo'jalik sudining tegishli qarori taqdim qilinganida;
3. jinoiy ish qo'zg'atish munosabati bilan tergov organlarining qaror-lari bo'yicha.

Mablag'larning undirilishi vaqtincha to'xtatilishi yoki to'liq to'xtatilishiga asos bo'ladigan yuqoridagi hujjatlarda hujjatning sanasi va raqami ko'rsatilishi kerak.

Undirishni boshqa usul bilan amalga oshirish uchun undiruvchi ijro hujjatlarini sud ijrochisiga berish to'g'risida bankka buyruq berishi ham mumkin.

Undirilishi to'xtatilgan hujjat undiruvchiga qaytarilishi kerak. Hujjat topshirilganida yoki jo'natilganida bank hujjatni bosh buxgalterning imzosi va bankning muhri bilan tasdiqlaydi va quyidagilarni ko'rsatib, ustxat yozadi:

1. hujjatning bankka kelib tushgan sanasi;
2. hujjat qisman to'langan bo'lsa, undirilgan summaning miqdori yozma ravishda ko'rsatiladi;
3. hujjat bank tomonidan undiruvchiga yoki sud ijrochisiga berilgan yoki jo'natilgan sana.

Agar to'lovchining hisobvarag'ida mablag' bo'lmasa, inkasso topshiriq-nomasi 2-kartotekaga qo'yiladi va qonun bilan belgilangan navbat bo'yicha to'lanadi.

Inkasso topshiriqnomasi undiruvchi tomonidan inkassoga bir shahar ichidagi hisob-kitob ishlarida o'ziga xizmat qiluvchi bank bo'limiga yoki bevosita to'lovchining hisob varag'ini yuritayotgan bankka, shaharlararo hisob-kitob ishlarida faqat o'ziga xizmat qiluvchi bankka taqdim qilinadi.

Inkasso topshiriqnomasi bankka 3 nusxada taqdim qilinadi: agar to'lovchi bilan haqdorga bitta bank xizmat qilsa, inkasso top-shiriq-nomasining birinchi nusxasi bankning kundalik hujjatlariga birlashtiriladi; ikkinchi nusxasi ijro hujjatlariga birlashtirilib, to'lovchiga uning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga beriladi; uchinchi nusxasi haqdorga uning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga qaytariladi. Bir shahar ichidagi hisob-kitob ishlarida inkasso topshiriqnomasi bevosita to'lovchining bankiga taqdim qilinishi mumkin. Bunda uning birinchi nusxasi to'lov to'langanidan keyin bankning kundalik hujjatlariga birlashtiriladi, ikkinchi nusxasi ijro hujjatlariga birlashtirilib to'lovchiga

uning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga beriladi, uchinchi nusxasi haqdorga uning hisobvarag'idan ko'chirma bilan beriladi. Banklararo va shaharlararo hisob-kitob ishlarida inkasso topshiriqnomalari undiruvchilarga xizmat ko'r-satuvchi bank bo'limiga taqdim qilinganida, birinchi va ikkinchi nusxalari ijro hujjatlariga birlashtirilib, pochta orqali ijrochi bankka jo'na-tiladi. Bu hujjatlar ularni qabul qilish sanasi ko'rsatilib bank buxgalterining imzosi va bankning shtampi bilan tasdiqlanadi. Inkasso topshiriqnomasining uchinchi nusxasi qabul qilingan sanasi ko'rsatilib, bank buxgalterining imzosi va bankning shtampi bilan tasdiqlanib mijozga qaytariladi.

Ijro hujjatlari bo'yicha ayrim fuqarolarning foydasiga mablag' undirishda to'lovchining hisobvarag'i joylashgan bank ijro hujjatlarini faqat sud ijrochisi orqali qabul qiladi.

Sud ijrochilari inkasso topshiriqnomasini 3 nusxada hamma ijro hujjatlarini birlashtirib topshiradi:

inkasso topshiriqnomasining birinchi nusxasi bankning kundalik hujjatlariga birlashtiriladi, ikkinchi nusxasi ijro hujjatlari bilan birga to'lovchining hisobvarag'idan beriladigan ko'chirmaga ilova qilinadi, uchinchi nusxasi sud ijrochisiga xabarnoma sifatida qaytariladi.

4.3.6. Tijorat bankining hisob-kitob cheklari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

Tijorat bankining hisob cheki ma'lum summani chek beruvchining hisobvarag'idan chek qabul qiluvchining hisob varag'iga o'tkazish haqidagi to'lovchining o'ziga xizmat qiluvchi bankka bergan topshirig'idir.

Chek blankalari tijorat banklarining buyurtmasiga muvofiq ularning faoliyati uchun zarur bo'lgan miqdorda Markaziy bank qoshidagi «*Davlat belgisi*» ishlab chiqarish korxonasida belgilangan shaklda tayyorlanadi. Bunda chek raqami va seriyasi emitent-bankning nomi va firma belgisi tipografiya usulida yoziladi. Cheklar faqat tovar va xizmatlar uchun jismo-niy shaxslar bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitob ishlarida qo'llaniladi. Chekning maksimal summasi O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan, chekning minimal summasi esa tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Bank chek berganda jismoniy shaxsning arizasiga asosan chek summasiga «*Jismoniy shaxslar talab qilib oladigan depozitlar*» deb

ataladigan 20206-sonli balans hisobvarag'ida alohida ikkilamchi schyot ochadi va to'lovlarni faqat shu schyotdan amalga oshiradi. Chek jismoniy shaxsning talab qilib oladigan depozit hisobvarag'idagi mavjud mablag'lar yoki ular topshiradigan naqd pullar hisobiga beriladi.

Chek ikki qismdan: chekning o'zi va uning koreshogidan iborat. Koreshok chekda ko'rsatilgan summalarni tasdiqlash uchun belgilangan nazorat raqamlarini o'z ichiga oladi. Chekning amalda bo'lish muddati tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Agar chek amalda bo'lish muddatida bankka taqdim qilinmagan bo'lsa, chekning summasi «*Harakatsiz depozit majburiyatlari*» deb ataladigan 29842 balans hisobvarag'ida hisobga olinadi. Egasi chekning amalda bo'lish muddati o'tganidan keyin murojaat qilgan taqdirda bank chekni qarshiliksiz qabul qiladi va pulini to'laydi.

Cheklarni berish va pulini to'lash tartibi. Bank xodimi hisob chekini berishda quyidagi rekvizitlarni to'ldirishi kerak:

1. chek berilgan sana;
2. chekning summasi raqamlar va so'z bilan;
3. jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi;
4. pasportining seriyasi va tartib raqami;
5. chek beruvchining depozit hisob varag'i;
6. chek bergan bank bo'limining nomi va kodi;
7. chek.....gacha haqiqiy.

Ko'rsatilgan rekvizitlar to'ldirilganidan keyin, bankning mas'ul xodimlari hisob chekiga imzo qo'yishi kerak va hisob chekning koreshogini nazorat raqamlari joylashgan chiziq bo'yicha chekdan shunday qirqib ajratadiki, bunda kesik chizig'ida qolgan sonlar chekning summasiga mos kelishi kerak va muhr bilan tasdiqlanadi.

Hisob chekini oluvchi chekni olganligi haqida uning koreshogida imzo qo'yishi kerak. Maxsus daftarda hisob chekning raqami va seriyasi, nomiga chek yozilgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi hamda chekning summasi yoziladi. Chek summasining qanchasi naqd pul topshirish bilan, qanchasi omonat daftarchasidagi pullardan hamda jismoniy shaxslar talab qilib oladigan depozit hisobvarag'idan o'tkazilganligi ko'rsatilishi kerak. Kassir bank xodimidan hamma hujjatlarni olib, ularning to'g'ri rasmiy-lashtirilganligini tekshiradi va imzo qo'yadi, hisob chekini oluvchidan chek beriladigan summani va chek uchun to'lovni qabul qiladi, chek oluvchiga hisob chekini va omonat daftarchasini beradi hamda hisob chekning koreshogini ish kunining oxirigacha o'zida qoldiradi. Ish kunining oxirida kassir hisob

cheklarining koreshoklari solingan banderolda belgilangan rekvizitlar bilan bir qatorda naqd pullar qabul qilingan summalarni hamda jismoniy shaxslarning talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'idan hisobdan chiqarilgan summalarni ko'rsatadi. Shundan keyin cheklarning koreshoklarini bank xodimiga beradi. Hisob cheklarining koreshoklari yozilgan tartib raqami va sanasi bo'yicha chek summalari bron qilingan «*Jismoniy shaxslar talab qilib oladigan depozitlar*» 20206-sonli schyotdan hisobdan chiqarish uchun bankka to'langan yoki qoplangan cheklar kelib tushishiga qadar saqlanishi kerak. Shundan keyin hisob cheklarining milklari elektron hisob cheklari bilan birga bankning kundalik hujjatlariga birlashtiriladi. Agar chek blankasini to'ldirishda xato qilinsa, bu blanka buzilgan bo'lib hisoblanadi va uning o'rniga yangi blanka to'ldiriladi. Bunday holda buzilgan chek blankasi quyidagi tartibda bekor qilinadi:

- harflar bilan yozilgan «*hisob-kitob*» so'zidan bir qismi qirqib olinadi;

- chek varaqasining o'rtasiga «*buzilgan*» degan ustxat yoziladi va sana ko'rsatiladi;

- bankning bosh buxgalteri va kassir tomonidan imzo qo'yiladi.

Qabul qilingan, ishlatilgan va qaytarilgan chek blankalari qat'iy nazo-ratdagi blankalar harakatini hisobga olish uchun belgilangan daftarda kutil-magan holatlar hisobvarag'ida qayd etiladi. Ish kuni davomida ishlatilgan hisob cheklarining blankalari chiqim orderiga muvofiq kutilmagan holatlar hisobvarag'idan hisobdan chiqariladi.

Tovarlarni pulini to'lash uchun chek taqdim qilinganida savdo tashkilotining xodimi chek belgilangan namunadagi blankada to'ldirilganligini, o'chirib tuzatishlar, chekning mazmuni va summasini tuzatishlar yo'qligini, nazorat raqamlari chekda yozilgan summaga muvofiqligini chek-ning muddati o'tkazib yuborilmaganligini, unda bank bo'limi muhrining aniq izi va imzolar borligini tekshiradi. Shundan keyin chekni taqdim qiluv-chining shaxsi pasport bilan tasdiqlanishini tekshiradi.

Chek tekshirilganidan va tovarlarning to'lovi uchun qabul qilinganidan keyin savdo tashkilotining xodimi tomonidan hisob chekining teskari tomoniga savdo tashkilotining shtampi bosiladi va mansabdor shaxsning imzosi qo'yiladi. Agar sotilayotgan tovarning qiymati chekning summasidan kam bo'lsa, savdo tashkiloti chek summasining 25% gacha bo'lgan qismini naqd pul bilan qaytarishi mumkin.

Tovarlarning to'lovi uchun qabul qilingan cheklar savdo tashkilotlari tomonidan o'ziga xizmat qiluvchi bank muassasasiga sotishdan olingan pul kirimlari bilan birga belgilangan tartibda inkassatorlar orqali topshiriladi. Bank tomonidan qabul qilingan cheklar quyidagi tartibda to'lanadi:

Tijorat bankining elektron hisob cheki elektron to'lovlar tizimi bo'yicha chek beruvchining bankiga jo'natiladi. Chek beruvchining bankida elektron chek asosida dasturiy yo'l bilan avtomatlashtirilgan tarzda chekning summasi chek beruvchining ikkilamchi hisobvarag'idan hisobdan chiqariladi. Elektron chek bankning kundalik hujjatlariga birlashtiriladi. Hisob cheklari merosxo'r va boshqa shaxslardan notarial idora tasdiqlagan hujjat mavjud bo'lgan holdagina qancha muddat o'tganligidan qat'i nazar qabul qilinadi. Bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri hujjatlarni tekshirib ko'rganidan keyin chek summasini to'lashga ruxsat beradi.

Foydalanilmagan hisob cheki bankka taqdim qilinganida bankning xodimi chekning haqiqiylikini va hujjatni ko'rsatuvchining shaxsini pasport bilan tekshirib ko'radi, chekning yuz tomonida quyidagi mazmundagi ustxatni yozadi «..... sonli hisobvaraqqqa summani o'tkazing», hisob cheki bankning bosh buxgalteriga beriladi, pasport esa egasiga qaytariladi.

Chek yo'qotilgan taqdirda, bank yo'qolgan chek bo'yicha schyotdan, hisobdan chiqarilgan mablag'lar uchun javob bermaydi.

4.3.7. Memorial orderlar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

Bank to'lovchi bo'lib chiqqan va memorial orderlar ishlatilgan hollarda, ular bank rahbarining va bosh buxgalterning imzolari bilan tasdiqlanadi, boshqa holatlarda memorial orderlar ushbu bank schyotini olib boruvchi bosh buxgalter va buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi.


Memorial orderlar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning to'g'riligi bo'yicha javobgarlik bankning rahbariga va bosh buxgalteri zimmasiga yuklatiladi.

Banklar memorial orderlardan fuqarolarning, olib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda, yozma topshiriqnomalari bo'yicha naqd pulsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirishda foydalanishlari mumkin.

Bunda, topshiriqnoma bo'yicha to'lash amalga oshirilgandan so'ng memorial order bilan birga bankning kunlik hujjatlariga tikib qo'yiladi.

4.3.8. Plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

Respublikada naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirishda plastik kartochkalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan to'lovlar alohida ahamiyatga ega. Milliy valutada hisoblashadigan plastik kartochkalar dastlab 1996- yilda paydo bo'ldi va banklarning mijozlari uchun foydalanishda qulayligi tufayli keng tarqalmoqda. Shuningdek, plastik kartochkalarning egalari o'zlarining bank schyotlari bo'yicha qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ham ega bo'ldilar. Hozirgi vaqtda bank plastik kartochkalari soni 8 million donadan oshib bormoqda. Bank mijozlarining plastik kartochkalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha savdo va servis korxonalarida o'rnatilgan terminallar soni 86000 tadan oshmoqda(4.8-rasm)



4.8-rasm. Muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni va ular orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmining dinamikasi³⁸.

³⁸ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогновлари: Стат. тўплам. –Т., «Ўзбекистон», 2011. – Б. 34.

Plastik kartochkalar bank tomonidan chiqarilgan va muayyan shaxsga mo'ljallangan to'lov vositasi bo'lib, kartochka egasining tegishli bankdagi hisobida pul mablag'i borligiga guvohlik beruvchi tovar, ish va xizmatlarni naqd pul to'lamasdan sotib olish huquqini ta'minlaydi.

Plastik kartochkada bir xil ma'noda tenglashtiruvchi emitentning nomi va bosma usulda terilgan bosma bo'g'inli belgilari ko'rsatilishi kerak.

Plastik kartochkalar jismoniy va yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar bir tomondan mahsulotni realizatsiya qiluvchi, ishni bajaruvchi yoki xizmatlarni ko'rsatuvchi (keyinchalik matnda – savdo-sotiq yoki servis xizmat korxonalarini) yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar ikkinchi tomonda turib o'zaro naqd pulsiz hisob-kitoblarda, shuningdek, naqd pul beradigan shahobchalardan va bankomatlardan naqd pul mablag'larini olishda qo'llaniladi.

Vakolatli banklar xalqaro plastik kartochkalarini muomalaga chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishlari mumkin. Bunda ular xalqaro to'lov tizimlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq operatsiyalarni o'tkazish qoidalariga va «O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi Nizom»ga amal qilishlari kerak bo'ladi.

Plastik kartochkalarga xizmat ko'rsatish shartnoma asosida amalga oshirilib, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- a) tomonlarning nomi;
- b) shartnoma predmeti;
- d) tomonlarning huquqlari va majburiyatlari;
- e) tomonlarning javobgarligi;
- f) hisob-kitoblarni o'tkazish shartlari;
- g) shartnomani amal qilish muddati va uni bekor qilish shartlari;
- h) nizolarni hal etish tartibi;
- i) tomonlarning yuridik manzili.

Plastik kartochka muayyan shaxsga rasmiylashtirilganda unga quyidagi rekvizitlar yozilishi kerak:

- a) identifikatsiyalovchi ma'lumotlar (kartochkaning tartib raqami, seriyasi va boshqalar);
- b) bank-emitentning (plastik kartochkalarini muomalaga chiqaruvchi bank-ning) xos raqami;
- d) schyotning tartib raqami va kartochka egasining familiyasi, ismi, sharifi (tashkilotning nomi);
- e) kartochkaning amal qilish muddati.

Agar plastik kartochkada bir nechta hamyon mavjud bo'lsa, indentifikatsiyalovchi ma'lumotlar har bir hamyonni bir xil ma'noda indentifikatsiyalash lozim. Ko'rsatilgan rekvizitlardan tashqari, kartochkaga operatsiyani amalga oshirish va hisobga olib borish uchun zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

Qaytarilib topshirilgan va boshqa shaxslarga rasmiylashtiriladigan plastik kartochkalarning hisobi 93609-sonli «Saqlanadigan boyliklar» nomli ko'zda tutilmagan holatlar schyotining alohida shaxsiy schyotida yuritiladi.

Plastik kartochkalardan foydalanilgan holda o'tkaziladigan operatsiyalar bo'yicha ularni qog'ozda ifodalovchi (slip, elektron terminal kvitansiyasi) va elektron shaklda (terminal yoki bankomatning elektron daftaridan olinadigan hujjat), shuningdek, hisob-kitob ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan boshqa hujjatlarni (bankomat kvitansiyalari va boshqalar) tuzishni nazarda tutiladi. Bunda hujjatlar hisob-kitobda ishtirok etuvchi tomonlarga yetarli bo'lgan nusxalarda tuziladi. Shu-ningdek, kvitansiyalar o'tkazilgan operatsiyalarni qo'lda tiklash uchun yetarli bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Plastik kartochkalardan foydalanilgan holda o'tkazilgan operatsiyalar davomida tuzilgan hujjatlarning rekvizitlari o'z ichiga plastik kartochkalar rekvizitlari bilan plastik kartochkalar egalariining bankdagi schyotlari rekvizitlari o'rtasidagi, shuningdek, korxonalarining indentifikatorlari, PVN, bankomatlar va bank schyotlari o'rtasidagi muvofiqlikni ishonchli tarzda belgilashga imkon beradigan belgilarga ega bo'lishi shart.

Elektron hujjatlar bank-ekvayerga (savdo yoki servis xizmati ko'rsatuvchi bank), shartnomada qayd etilgan davrlarda bank-emitentga yoki kliring markaziga jo'natilib turiladi.

Bitta bankning bo'linmalari o'rtasida plastik kartochkalar bo'yicha hisob-kitoblar texnologiyasi, ishlatiladigan plastik kartochkalarning turi va o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Plastik kartochkalar bo'yicha banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar texnologiyasi quyidagi variantlarni ko'zda tutadi:

a) hisob-kitoblarni amaldagi elektron to'lovlar tizimi (ETT) orqali umumiy asosda amalga oshirish;

b) hisob-kitoblar ishtirokchilari tomonidan tashkil qilingan protsessing markazlar orqali kun davomida o'zaro majburiyatlarni

majburiy tartibda yakuniy hisob-kitob qilish va yakuniy hisob-kitoblar summasini tijorat banklarining korrespondentlik schyotlari orqali o'tkazish hisob-kitoblar yo'li bilan amalga oshirish; o'tkazish.

ETT orqali plastik kartochkalardan foydalangan holda o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha umumiy hisob-kitoblar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

bank-emitent tomonidan avtorizatsiya qilingan hisob-kitoblarda:

a) bank-ekvayer xizmat ko'rsatilayotgan savdo yoki servis xizmati korxonadan olingan, plastik kartochkalarni ishlatish orqali tuzilgan elektron hujjatlar asosida uning schyotiga mablag'larni o'tkazadi, bunda avtomatik tarzda debetli elektron memorial order shakllanadi va elektron to'lovlar tizimi orqali bank-emitentga jo'natiladi;

b) bank-emitentda debetli elektron memorial order asosida dastur yordamida mijozning kartochka schyotidan mablag'lar hisobdan chiqariladi. Debetli elektron memorial order qog'ozga chiqariladi va kunlik hujjatlar jildiga tikiladi;

bank-emitent tomonidan majburiy ravishda oldindan avtorizatsiya qilingan hisob-kitoblarda:

a) texnologiyalardan foydalanish qoidalariga muvofiq plastik kartochkalarni ishlatish orqali tuzilgan xizmat ko'rsatilayotgan savdo yoki servis xizmati korxonalaridan olingan elektron hujjatlar asosida bank-ekvayerda avtomatik tarzda elektron xabarnoma shakllanib, provodkalarini avtorizatsiya qilish va amalga oshirish uchun ETT orqali bank-emitentga jo'natiladi;

b) bank-emitent olingan elektron xabarnoma asosida tranzaksiyani avtorizatsiya qiladi, elektron to'lovlar tizimi bo'yicha savdo va servis xizmati korxonalarining talab qilib olinadigan depozit schyotiga mablag'larni o'tkazish uchun bank-ekvayerga elektron to'lovlar tizimi bo'yicha yuboriladigan, mijozning kartochka schyotidan mablag'larni hisobdan chiqarish uchun elektron memorial orderni avtomatlashgan holda shakllantiradi;

v) bank-emitentdan olingan elektron memorial order asosida bank-ekvayerda savdo va servis xizmati korxonalarining talab qilib olinadigan depozit schyotiga mablag'larni o'tkazish amalga oshiriladi. Memorial order qog'ozga chiqariladi va bankning kunlik hujjatlari yig'masiga tikiladi.

Protessing markazlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) kun davomida plastik kartochkalar bo'yicha barcha operatsiyalar hisob-kitoblar ishtirokchilari tomonidan tasdiqlangan tartibda protsessing markazlari orqali amalga oshiriladi va hisob-kitoblarning ishtirokchisi bo'lgan har bir bank uchun ochilgan alohida shaxsiy schyotlarda aks ettiriladi;

b) hisob-kitob ishtirokchilarining kelishuviga binoan yakuniy summalar (majburiyatlar) Markaziy bankning hisob-kitob markazlarida ochilgan va shartnomada qayd etib o'tilgan davriylik bilan tijorat banklarini korrespondentlik schotlari orqali o'tkaziladi;

v) protsessing markazidan olingan ma'lumotlar asosida banklar plastik kartochkalardan foydalanilgan holda amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha mijozning schotiga mablag'larni o'tkazish yoki hisobdan chiqarishni amalga oshiradilar.

4.4. Naqd pul bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar

Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar, tashkiliy-huquqiy shakllari va faoliyat sohalaridan qat'i nazar, bank muassasalarida bo'sh pul mablag'larini saqlashlari va o'z majburiyatlariga doir hisob-kitoblarning katta qismini pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishlari lozim.

Lekin hisob-kitoblarning shunday turlari borki, unda naqd puldan foydalanish talab etiladi. Masalan, ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lash, xizmat safari xarajatlari uchun pul berish, jismoniy shaxslardan xoma-shyolar sotib olish va h. Demak, har bir korxonaga o'zining kassasiga ega bo'lishi, u orqali naqd pul bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishi lozim.

Naqd pul mablag'larining korxonaga kassasi orqali harakati kassa rejasi (buyurtmasi) ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Kassa rejasi chorak uchun tuziladi va xizmat ko'rsatuvchi bankka reja boshlanishidan 55 kun oldin taq-dim etiladi. Bu bankdan naqd pulni o'z vaqtida olish va ularning ishlatilishi ustidan samarali nazorat o'rnatishni ta'minlaydi.

Rejalashtirish naqd pul aylanishini tashkil etishning quyidagi prinsiplariga asoslanadi: tejamkorlik, hisob yuritish va saqlashning ta'minlanishi, naqd pul mablag'larining maqsadli va reja bo'yicha sarflash. Mazkur prinsiplarga rioya etilishi ba'zi shartlar bilan ta'minlanadi.

Birinchidan, korxonaga kassasida naqd pul mablag'larini saqlash cheklanadi. Shu munosabat bilan korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi

banklar kassada naqd pul qoldig'ining limitini belgilaydi. Zarur hollarda limitlar qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Korxonalar xizmat ko'rsatuvchi banklar bilan kelishilgan tartibda va mud-datlarda belgilangan limitdan ortiq bo'lgan barcha naqd pulni bankka top-shirishlari shart. Naqd pullar banklarning kunduzgi va kechki kas-salariga, inkassotorlarga, keyinchalik bankka topshirishlari uchun korxonalarining birlashgan kassalariga, shuningdek, shartnoma asosida banklardagi hisob raqamlariga o'tkazish uchun aloqa korxonalariga topshirilishi mumkin.

Korxonalar limitdan oshiqcha naqd pullarni faqat mehnatga haq to'lash, nafaqa va stipendiyalar to'lash uchun qoldirishga haqli. Lekin bu pullarni uch ish kunidan ortiq saqlab turish mumkin emas. Bu muddatga pullarning bankdan olingan kuni ham kiradi.

Ikkinchidan, naqd pullarning qarama-qarshi tashuvlariga barham beriladi. Agar korxonalar naqd pul ko'rinishidagi muntazam tushumga ega bo'lsa (shahar transport korxonalari, aloqa, savdo korxonalari va shu kabilar), u holda o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bank bilan kelishgan holda tushumning bir qismini xarajat operatsiyalari uchun ishlatishlari mumkin.

Uchinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kassa intizomiga rioya qilinishi ustidan bank nazorati o'rnatiladi.

Korxonaning kassa rejasi to'rtta bo'limdan iborat bo'lib, dastlabki uchta bo'limda «reja» ustunidan tashqari, «o'tgan yilning tegishli choragi uchun haqiqatda bajarilgan» degan ustuni mavjud.

Kassa rejasini ishlab chiqish birinchi bo'limdan boshlanadi. Unda naqd pullarning korxonalar kassasiga kirimi bankdan olinadigan pullardan tashqari aks ettiriladi. Bu asosan ushbu korxonalar ishchi va xizmatchilarining korxonalar omboridan mahsulotlar (sut, tuxum, go'sht, guruch va h.) olganligi, xizmatlar (transport ta'mirlash), dam olish uylari va sanatoriylarga yo'llanmalari uchun to'lagan to'lovlaridir. Odatda, bular katta bo'lmagan summalar, ularning ko'pi muntazam ko'rinishda bo'lib, ishlovchilarning soniga bog'liq.

Naqd pul mablag'lari tushishi muntazam ravishda sodir bo'ladigan korxonalar ularni ham kassa rejasining birinchi bo'limida aks ettiradilar. Bu holda pullik xizmatlarning barcha turlari qatoridan foydalaniladi.

Kassa rejasining ikkinchi bo'limi «ish haqi to'lovlari va mehnatga haq to'lashning boshqa turlari» deb nomlanib, unda ish haqi fondi va undan ushlanadigan summalar, o'tkaziladigan summalar va nihoyat naqd pul bilan to'lanadigan summalar hisob-kitobi keltiriladi.

Ish haqi uchun naqd pul hisoblangan summadan ushlab qolinuvchi pullar, soliqlar, o'tkazmalarni chiqarib tashlagan holda beriladi.

So'ngra kassa rejasining uchinchi bo'limi to'ldiriladi. Odatda, rag'batlantiruvchi fondlardan olinadigan ish haqi va mukofotlar hajmi bevosita bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar bo'yicha rejaning kutilayotgan bajarilishi kassa rejasida hisobga olinmaydi. Moddiy rag'batlantirish fondlaridan to'lanadigan ish haqi va mukofotlarning rejalashtirilayotgan fondi tegishli chorak uchun yillik reja asosida hisoblab chiqariladi.

Asosiy qismini mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqalar tashkil etadigan nafaqalar summasi yil fasllariga qarab sezilarli tarzda o'zgarib turadi. Avvalo kasalliklar grafigida o'tgan yillar ma'lumotlariga qarab hodi-salar qonuniyligi aniqlanadi, keyin kelayotgan chorak uchun ishlovchilar so-ni va mehnatga haq to'lash fondini hisobga olgan holda nafaqalar summasi rejalashtiriladi.

Xizmat safari xarajatlari uchun to'lovlar summasi hukumat tomonidan belgilangan xizmat safari xarajatlari me'yorini hisobga olgan holda, xo'jalik xarajatlari uchun to'lovlar esa – tasdiqlangan smetalar, yuridik shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomalar va naqd pul bilan hisob-kitoblarning chegaraviy summasi bo'yicha rejalashtiriladi.

Kassa rejasining oxirgi bo'limi ishchi va xizmatchilarga ish haqi berish kalendaridan iborat bo'lib, u jamoa shartnomasiga muvofiq hamda xizmat ko'rsatuvchi bank bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi. Yirik korxonalarda oying u yoki bu yarmi uchun ish haqi bir necha kun mobaynida to'lanadi. Bu xizmat ko'rsatuvchi bank kassasiga naqd pullarning kelib tushish jarayoni bilan bog'liq.

Bankda korxonalar va tashkilotlarga naqd pul chekka asosan beriladi. Bankdan naqd pul olish uchun chek daftarchasi xizmat ko'rsatuvchi bankdan, uning varaqlar soni ko'rsatilgan, korxonalar arizasiga binoan sotib olinadi. Chek daftarchasi schotlarni tasarruf etuvchiga yoki bosh buxgalterga beriladi. Chek daftarchasining muqovasida hisob raqami, cheklar raqamlari, cheklarni to'ldirish va ulardan foydalanish tartibi ko'rsatiladi.

Cheklar Davlat belgisi korxonalarida raqamlari ko'rsatilgan holda tayyorlanadi va qat'iy hisobot blankasi hisoblanadi. Chek koreshogining old tomonida olinadigan summa raqamlarda ko'rsatiladi, shuningdek, ras-miylashtirish sanasi, korxonalar rahbari va bosh buxgalterining imzosi, chek berilgan shaxsning familiyasi va ushbu shaxsning imzosi bilan to'ldiriladi.

Chekning old tomonida korxonaning to'liq nomi, hisob raqami, olinadigan summa raqamlarda va harflarda yozilib, chekning berilgan joyi va sanasi, korxonahabari va bosh buxgalterining imzolari qo'yilib, muhr bosiladi. Chekning orqa tomonida naqd pulning summasi raqamlarda ko'rsatilib, qay maqsadlarga yo'naltirilishi yoziladi, korxonahabari, bosh buxgalteri, chek berilgan shaxsning imzolari qo'yiladi, shuningdek, chek berilgan shaxsning pasport ma'lumotlari qayd etiladi.

Chek koreshogining orqa tomonida bankdan olingan naqd pul summasining korxonahabari kassasida (kirim orderining raqami, bosh buxgalterning imzosi va sana ko'rsatilgan holda) kirim qilinganligi haqida belgi qo'yiladi.

Chek to'ldirilayotganda quyidagi qoidalarni bajarish taqozo etiladi: chek summasi raqamlarda va harflarda, shuningdek, berish sanasi (oy nomi harflar bilan) qo'lda, siyohli yoki sharikli ruchkada to'ldiriladi.

«Summa raqamlar bilan» rekvizitida raqam bilan yozilgan summadan oldingi va keyingi bo'sh joylar, albatta, ikkita chiziq bilan chizib qo'yilishi shart.

Chek egasining nomiga yozilgan chekda «to'lang» so'zlaridan keyin siyohli yoki sharikli ruchkada chek berilgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi yozib qo'yiladi.

Harflar bilan yoziladigan summa albatta satr boshidan yozilishi, «so'm» so'zi harflar bilan yozilgan summa ortidan bo'sh joy qoldirmasdan ko'rsatilishi kerak.

Chek chek beruvchi tomonidan siyohli yoki sharikli ruchkada imzolanishi shart. Chekning barcha rekvizitlari to'ldirilguncha imzolanishi taqiqlanadi.

Chek matnida tuzatishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Tuzatishlar kiritilgan chek haqiqiy hisoblanmaydi.

Hisob raqamining egasi tomonidan bankka taqdim etilgan, imzolar namunasi ko'rsatilgan kartochkada tashkilotga muhr berilmagani haqida belgi qo'yilgan bo'lsa, cheklar bank tomonidan muhr bilan mustahkamlanmagan holda qabul qilinadi.

Nomi yozilgan chekning orqa tomonidagi pul olinganligi haqidagi tilxat bank tomonidan olib qolinadi. Chek tuzish bilan bir vaqtda chek koreshogining barcha rekvizitlari ham to'ldirilishi lozim.

Chekning chek olingani haqidagi tilxati yozilgan koreshogi hisob raqamining egasi tomonidan olib qo'yiladi.

Chek beruvchi to'langan va buzib qo'yilgan cheklarning koreshoklarini, shuningdek, buzib qo'yilgan cheklarni kamida uch yil saqlashi shart.

Hisob raqamining egasi hisob raqami yopilganda bank muassasasiga chek daftarchalarini ishlatilmay qolgan koreshoklar va cheklari bilan, chek-larning raqamlarini ko'rsatgan holda qaytarishga majburdir.

Naqd pullar korxonaga kassalariga bosh buxgalter yoki korxonaga rahbarining yozma farmoyishi bilan vakolatlangan shaxs imzolagan kassa kirim orderlari bo'yicha qabul qilinadi. Pul qabul qilinganligi haqida bosh buxgalter yoki vakolatli shaxs va kassir imzolagan, kassir muhri (shtampi) yoki kassa apparati belgisi (ottiski) bilan tasdiqlangan kirim orderining kvitansiyasi beriladi.

To'lovga qog'oz pullar va tangalarni qabul qilishda korxonaga kassirlari Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan qog'oz pullar (banknotlar) va tangalarning to'lovga yaroqliligini aniqlash belgilari va tartiblariga tayanishlari shart.

Xizmat safari xarajatlari bilan bog'liq naqd pullar safarga jo'natiluvchi shaxslarga ushbu maqsadlar uchun berilishi lozim bo'lgan me'yorlar chegarasi bo'yicha hisobdorlik asosida beriladi.

Hisobdorlik asosida naqd pul olgan shaxslar pul berilgan muddat tugashi bilan yoki safardan qaytgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay, korxonaga buxgalteriyasiga sarflangan pullar summasi haqida hisobot taqdim etishlari va pullar bo'yicha yakuniy hisob-kitob qilishlari shart. Hisobot hujjatlar bilan dalillangan bo'lishi lozim. Naqd pullar hisobdor shaxs oldingi olgan avansi bo'yicha to'la hisobot topshirish sharti bilan beriladi.

Naqd pullar korxonaga kassasidan chiqim orderi yoki tegishli rasmiylash-tirilgan boshqa hujjatlar (to'lov qaydnomasi, pul olish haqidagi arizalar, schotlar va b.) bo'yicha, ushbu hujjatlarga kassa chiqim orderining rekvizitlari bilan shtamp qo'yilgan holda beriladi. Pul berish uchun tayyorlangan hujjatlar rahbar, bosh buxgalter yoki ushbu hujjatlarni imzolashga vakolatli shaxslar tomonidan imzolanishi lozim. Kassa chiqim orderlariga ilova qilinayotgan hujjatlar, arizalar, schotlar va boshqalarda korxonaga rahbarining ruxsat etiluvchi imzosi qo'yilganda kassa chiqim or-deriga rahbarning imzosi qo'yilishi shart emas.

Markaziy buxgalteriyada berilgan ish haqining umumiy summasiga bitta kassa chiqim orderi to'ldiriladi, uning sanasi va raqami har bir to'lov (hisoblashuv to'lov) qaydnomasiga qo'yiladi.

Alohida shaxsga kassa chiqim orderi yoki uning o'rmini bosadigan hujjat bo'yicha pul berilganda kassir pasport yoki oluvchining shaxsini tasdiqlaydigan boshqa hujjat taqdim etishni talab qiladi, hujjat nomi, raqami, qachon va kim tomonidan berilganini yozib oladi va oluvchining tilxatini olib qoladi. Agar kassa chiqim orderi o'rmini bosuvchi hujjat bir necha shaxslarga pul berish uchun tuzilgan bo'lsa, u holda ham pul oluvchilar o'z shaxslarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadilar va to'lov hujjatlarining tegishli qatoriga imzo chekadilar. Lekin oxirgi holda kassa chiqim orderi o'rmini bosadigan hujjatda shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari haqida qayd qilinmaydi. Pullar mazkur korxonaga xodimiga uning fotosurati va shaxsiy imzosi qo'yilgan guvohnomasi bo'yicha ham berilishi mumkin. Pul olingani haqidagi qayd faqat oluvchining o'z qo'li bilan, siyohli yoki sha-rikli ruchkada, olingan summa harflarda ko'rsatilgan holda yozilishi kerak. To'lov (hisoblashuv-to'lov) qaydnomasi bo'yicha pul olishda harflar bilan yozilgan summa ko'rsatilmaydi.

Korxonaga ro'yxatida turmaydigan har bir shaxsga alohida yoziladigan kassa chiqim orderi yoki tuzilgan shartnomalar asosida alohida qaydnomalar bo'yicha pul beriladi.

Qishloq xo'jalik va yuklash-tushirish ishlari, shuningdek, tabiiy ofat oqibatlarini tugatish uchun jalb qilingan shaxslarga pullar qaydnomalar bo'yicha berilishi mumkin. Qaydnomalar xodimlarini ko'rsatilgan ishlar uchun jo'natgan har bir tashkilot bo'yicha alohida tuziladi va ishni tashkil qiluvchi korxonaning rahbari va bosh buxgalteri, shuningdek, tegishli tashkilot vakilining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Kassir pullarni faqat kassa chiqim orderida yoki uning o'rmini bosadigan hujjatda ko'rsatilgan shaxsgagina beradi. Agar pullar o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan ishonch qog'ozi bo'yicha berilayotgan bo'lsa, u holda buxgalteriya order matnida pul oluvchining familiyasi, ismi va ota-sining ismidan keyin pul olishga ishonch bildirilgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismini ko'rsatadi. Agar pullar qaydnoma bo'yicha berilsa, kassir pul olinganligini tasdiqlovchi imzo oldiga *«Ishonchnoma bo'yicha»* deb yozadi. Ishonch bildirilgan shaxsning pasport ma'lumotlari qaydnomaga yozilmaydi, ishonch qog'ozi esa qaydnomaga hujjatlar ilova sifatida qoldiriladi.

Ish haqi, nafaqalar va stipendiyalarni kassir har bir oluvchiga kassa chiqim orderi tuzmasdan to'lov (hisoblashuv-to'lov) qaydnomalari bo'yich beriladi. To'lov (hisoblashuv-to'lov) vedomostlarining titul (ustki) varag'ida korxonaga rahbari va bosh buxgalteri yoki vakolatli

shaxsning ruxsat etuvchi imzosi qo'yiladi. Bir martalik mehnatga haq to'lash (ta'tilga chiqish, kasallik varaqasi uchun va h.), shuningdek, deponentlangan summalarning berilishi va xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar uchun bir necha kishiga hisobdorlik summolari berilishi ham shunga o'xshash rasmiylashtirilishi mumkin. Alohida shaxslarga mehnat haqi uchun bir martalik pul berish odatda, kassa chiqim orderlari bilan amalga oshiriladi.

Mehnat haqi, nafaqalar va boshqa to'lovlarni to'lash muddatlari tugaganidan so'ng kassir quyidagicha yo'l tutishi zarur:

- to'lov (hisoblashuv-to'lov) vedomostidagi pul berilmagan shaxslarning familiyasi ro'parasiga «*Deponentga o'tkazildi*» degan shtamp qo'yishi yoki bu so'zni qo'lda yozishi;

- deponentga o'tkazilgan summalar ro'yxatini tuzishi;

- to'lov (hisoblashuv-to'lov) qaydnomasi oxirida haqiqatda to'langan va deponentga o'tkazilishi lozim bo'lgan summalar haqida qayd qilishi, ularni to'lov qaydnomasining umumiy yakuni bo'yicha solishtirishi va o'z imzosi bilan tasdiqlashi kerak. Agar pullar kassir tomonidan emas, boshqa shaxs tomonidan berilgan bo'lsa, varaqada qo'shimcha ravishda «*Qaydnoma bo'yicha pullar berildi (imzo)*» degan qayd qilinadi. Bitta qaydnoma bo'yicha kassir va pul tarqatuvchi-ning pul berishi taqiqlanadi;

- kassa daftariga haqiqatda to'langan summani yozish va varaqaga «*Kassa chiqim orderi №....*» shtampini qo'yish.

Buxgalteriyada kassirlar tomonidan to'lov (hisoblashuv-to'lov) qaydnomasiga qo'yilgan belgilar tekshiriladi va qaydnomalar bo'yicha berilgan va deponentga o'tkazilgan summalar hisoblab chiqiladi. Deponentga o'tkazilgan summalar bankka topshiriladi va ularga bitta umumiy kassa chiqim orderi tuziladi.

Kassa kirim orderlari va ularning kvitansiyalari, shuningdek, kassa chiqim orderlari va ularning o'rmini bosuvchi hujjatlar buxgalteriya tomonidan aniq va tushunarli qilib, siyohli yoki sharikli ruchkada to'ldirilishi yoki mashinada (yozuv, hisoblash mashinasi) yozilgan bo'lishi kerak. Ushbu hujjatlarda o'chirish, bo'yash yoki tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi. Kassa kirim va chiqim orderlarida ularni tuzish uchun asoslar ko'rsatiladi va ilova qilinayotgan hujjatlar sanab beriladi. Pul topshirayotgan yoki olayotgan shaxslarning qo'liga kassa kirim yoki chiqim orderlarining berilishi taqiqlanadi. Kassa orderlari bo'yicha pullar faqat ular tuzilgan sanada qabul qilinadi va beriladi.

Kassa kirim va chiqim orderlari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlarni olishda kassir quyidagilarni tekshirishi lozim:

- hujjatlarda bosh buxgalter imzosining mavjudligi va uning haqiqiylikini, kassa chiqim orderi yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatda esa korxonahabari yoki vakolati shaxsning ruxsat beruvchi imzosi borligi hamda haqiqiylikini;

- hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini;

- hujjatlarlarda sanab o'tilgan ilovalarning mavjudligini.

Ushbu talablardan birontasiga rioya qilinmaganda kassir hujjatlarni lozim darajada rasmiylashtirish uchun buxgalteriyaga qaytaradi. Kassa kirim va chiqim orderlari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar ushbu hujjatlar bo'yicha pul olingan yoki berilgan zahoti kassir tomonidan imzolaniadi, ularga ilova qilingan hujjatlarga sana (kun, oy, yil) ko'rsatilgan holda «To'landi» degan shtamp yoki yozuv qo'yiladi.

Kassa kirim va chiqim orderlari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar kassaga o'tkazilishidan oldin buxgalteriyada kassa kirim va chiqim hujjatlarini ro'yxatga olish jurnalida belgilanadi. Mehnat haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar bo'yicha to'lov (hisoblashuv-to'lov) qaydnomalariga rasmiylashtirilgan kassa chiqim orderlari ular berilganidan keyin ro'yxatga olinadi.

Kassa kirim va chiqim orderlarini ro'yxatga olish hisoblash texnikasi yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda tegishli kun uchun tuziladigan «Kassa kirim va chiqim orderlarini ro'yxatga olish jurnalining ilova varag'i» mashinogrammasida pul mablag'larining maqsadli tayinlanishi bo'yicha harakatini hisobga olish uchun ma'lumotlar shakllanadi.

Korxonahabari pullarining kirimi va chiqimi kassa daftarida hisobga olinadi. Har bir korxonahabari faqat bitta kassa daftarini yuritadi. Kassa daftarining betlari raqamlangan, tikilgan va surg'uch yoki mastika bilan muhrlangan bo'lishi kerak. Undagi varaqlar soni korxonahabari va bosh buxgalterining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Kassa daftaridagi yozuvlar nusxa ko'chiruvchi qog'oz orqali ikki nusxada siyohli yoki sharikli ruchkada yuritiladi. Kassa daftarini varag'ining ikkinchi nusxasi yirtiladigan bo'lishi kerak, u kassir uchun hisobot bo'lib xizmat qiladi. Birinchi nusxasi kassa daftarida qoladi. Birinchi va ikkinchi nusxalar bir xil raqamlar bilan raqamlanadi.

Kassa daftarida o'chirishlar va izoh berilmagan tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi. Kiritilgan tuzatishlar kassir imzosi, shuningdek, korxonahabari

bosh buxgalteri yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs imzosi bilan tasdiqlanadi.

Kassa daftariga yozuvlar kassir tomonidan har bir order yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjat bo'yicha pullar olingan yoki berilgan zahoti kiritiladi. Har bir ish kuni oxirida kassir kun davomida bajarilgan operatsiyalar yakunini hisoblaydi, kassadagi pullar qoldig'ini kelgusi sanaga chiqaradi va kassa daftariga qayd qilgan holda, uning ikkinchi yirtma varag'ini (kassa daftaridagi kunlik yozuvlarning nusxasini) kassa kirim hamda chiqim hujjatlari bilan birga kassirning hisoboti sifatida buxgal-teriyaga topshiradi.

Korxonalarda kassa hujjatlarining to'la saqlanishi ta'minlangan holda kassa daftari avtomatlashtirilgan usulda yuritilishi mumkin. Bunda uning varaqlari «*Kassa daftarining ilova varag'i*» hamda bir vaqtda «*Kassir hisoboti*» mashinogrammasi ham shakllantiriladi. Ikkala mashinogramma kelgusi ish kuni boshiga tuzilib, bir xil mazmunga ega bo'lishi va kassa daftarining shaklida ko'zda tutilgan barcha rekvizitlarni aks ettirgan bo'lishi kerak. Ushbu mashinogrammalarda kassa daftarining varaqlari avtomatik ravishda, yil boshidan o'sib boruvchi tartibda raqamlanadi.

«*Kassa daftarining ilova varag'i*» mashinogrammasining har oydagi oxirgi varag'ida avtomatik ravishda daftarning bir oy uchun umumiy varaq-lari soni, kalendar yilining oxirgi kuni uchun – kassa daftarining bir yil uchun umumiy varaqlari soni bosilishi kerak.

Kassir «*Kassa daftarining ilova varag'i*» va «*Kassir hisoboti*» mashinogrammalarini olgandan keyin hujjatlarning to'g'ri tuzilganini tekshirishi, ularni imzolashi va kassir hisobotini kassa kirim va chiqim hujjatlari bilan birga kassa daftarining ilova varag'ida buxgalterga imzo qo'ydirgan holda buxgalteriyaga topshirishi shart.

Yil davomida saqlashni ta'minlash va foydalanish qulay bo'lishi uchun kassir «*Kassa daftarining ilova varag'i*» mashinogrammasini har bir oy uchun alohida saqlaydi. Kalendar yili tugashi bilan (yoki zaruriyat tug'il-ganda) mashinogrammalar xronologik tartibda kitob shakliga keltiriladi. Bir yillik varaqlarning umumiy soni korxonahabari va bosh buxgalteri imzolari bilan tasdiqlanadi va kitob muhrlab qo'yiladi.

Kassa daftarining to'g'ri yuritilishi ustidan nazorat olib borish korxonahabari bosh buxgalteri zimmasiga yuklatiladi.

4.5. Qishloq xo'jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitoblarni tashkil etish xususiyatlari

Qishloq xo'jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan naqd pulsiz hisob-kitoblari shartnoma munosabatlariga asoslanadi. Aynan shartnomaga ko'ra, iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining haqiqiy xohishi ko'rinadi, xo'jalik faoliyatidagi ko'plab subyektlarning manfaatlari muvofiqlashtiriladi, tovar, ish, xizmat va boshqalarga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi.

O'zR FK 353-moddasiga muvofiq *«Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi»*³⁹.

Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyati jarayonida mol yetkazib beruvchilar (Agromashservis, Agrokimyoservis, Zoovetta'minot, O'zsbazavotnav-urug' va h.) va xaridorlar (qayta ishlash, oziq-ovqat, yengil sanoat, umumovqatlanish, savdo korxonalari va b.) bilan shartno-malar tuzadilar.

Shartnomaning moliyaviy qismi ko'p jihatdan uning turi, hisob-kitoblar shakli, to'lov yoki mablag'larni olish muddatlari hamda jarima sanksiyalariga bog'liq.

Hisob-kitoblarning istalgan shaklida tovarlarning mol yetkazib beruvchidan xaridorgacha yetib kelishi tijorat hujjatlari bilan kuzatiladi. Bunday hujjatlarga: ishonchnomalar, hisobvaraqlar, yo'l varaqalari, dalo-latnomalar, yukxatlar, talab-nomalar va boshqalar kiradi. Ularning to'g'ri rasmiylashtirilishi bank tomonidan xizmat ko'rsatilishi uchun kafolat va xo'jalik munozaralarini xolisona hal etish uchun asos hisoblanadi. Sanab o'tilgan hujjatlardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Hisobvaraq va hisobvaraq - faktura mol yetkazib beruvchi tomonidan xaridorga taqdim etiladi. Shuningdek, mol yetkazib beruvchi tomonidan bankka quyidagilarni tasdiqlash uchun ham taqdim etilishi mumkin: xaridor to'lovini, to'lov summasini, mazkur xo'jalik operatsiyasi tovarlilikini (to'lovlar hisobvaraqda sanab o'tilgan muayyan tovarlar va xizmatlar uchun amalga oshiriladi), rozilik berish (aksept) yoki uni rad etish. Hujjatlarda quyidagilar ko'rsatilishi lozim: mol yetkazib beruvchining nomi (manzili, telefon raqami, aloqa hisobvarag'i, uning nomi va joylashgan manzili), yuk jo'natuvchining nomi (agar mol yetkazib beruvchi va yuk jo'natuvchi bitta yuridik shaxs

³⁹ Ҷумҳурии Тоҷикистон Республикасидаги Фуқаролик Кодекси.—Т.: «Адолат», 2007 й.—Б.143.

bo'lsa, u holda hisobvaraqlarni to'lg'azishda «*uning o'zi*» deb yoziladi); yuk oluvchining nomi va manzili.

Agar hisob-kitoblar shartnoma, buyurtma yoki naryadga muvofiq amalga oshirilsa, u holda hisobvaraqda quyidagilar ko'rsatiladi: ushbu hujjatning rekvizitlari (raqami va tuzish sanasi); mazkur hujjat tuzilgan hisobvaraqqakturaning raqami va sanasi; to'lovchining to'liq nomi (yuk oluvchi bilan to'lovchi bir xil bo'lganida «*uning o'zi yuk oluvchi*» deb yoziladi); to'lovchi bankining manzili, korrespondentlik hisob varag'i, taqdim etilgan hisobvaraqlar summasi (QQS bilan birga) hamda jo'natish amalga oshirilgan yuk xati yoki kvitansiya raqami.

Hisob varaqlar muvofiq xaridor pulni to'laganidan so'ng tovarni oladi. Buning uchun xarid qilish joyi bo'yicha (mol yetkazib beruvchida) yoki yukni yetkazib berish joyida (transport xizmati ko'rsatuvchi tegishli muassasada) rasman vakolat berilgan xaridor tovarni olish uchun xaridor tashkilotning vakiliga berilgan ishonchnoma va hisobvaraqlar-faktura nusxasini ko'rsatadi. Ishonchnoma blankasining koreshogi bo'lib, unda foydalanishning barcha asosiy qoidalari keltiriladi: berilgan vaqt va amal qilish muddati; ishonchnomani olgan shaxsning familiyasi va ismi-sharifi; mol yetkazib beruvchining nomi; tovarni olish zarurligi to'g'risidagi bildirish rekvizitlari; tovarni olganligi to'g'risida yukxat (kvitansiya) va uning berilgan sanasi ko'rsatilgan yozuv.

Tovarning mol yetkazib beruvchidan xaridorgacha bo'lgan yo'li har xil tovar-transport hujjatlari, eng avvalo yukxat bilan bosib o'tiladi.

Yukxat – hisob hujjati bo'lib, mol yetkazib beruvchi tomonidan xaridorga yoki uning mas'ul vakiliga tovarni olish chog'ida beriladi. Unda quyidagilar ko'rsatiladi: mol yetkazib beruvchi, jo'natuvchi va oluvchining nomi hamda manzili; tovarni berish uchun asos; o'lchov birligi; navi; soni; bahosi; umumiy qiymati. Tovarlar transport tashkiloti orqali jo'natilganida tovar-transport nakladnoyi to'lg'aziladi. Tovar-transport yukxati mol yetkazib beruvchi tomonidan ham, xaridor yoki vositachi tashkilot tomonidan ham to'lg'azilishi mumkin.

Agar xo'jalik yurituvchi subyekt asosiy vositalar (qurilmalar, mashinalar, binolar va h.) sotib olayotgan bo'lsa, ularni hisobga olish «*Asosiy vositalarini qabul qilish – topshirish dalolatnomasi*» bilan rasmiylashtiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'lovchining roziligi bilan, belgilangan shakldagi hujjatlardan foydalanish va fuqarolar huquqiy majburiyatlarni bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Hisob - kitob shakllari deganda huquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan, mablag'larni kreditorning hisobvarag'iga o'tkazish usuli va hisob-kitob hujjatining turi hamda hujjatlar aylanish tartibi bilan farqlanadigan naqd pulsiz to'lov shartlari tushuniladi.

O'zR FKning 791-moddasiga muvofiq *«Naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshirilganda to'lov topshiriqnomalari, akkreditivlar, cheklar bilan hisob-kitob qilishga inkasso bo'yicha hisob-kitob qilishga, shuningdek, qo-nunda, qonunga muvofiq chiqariladigan bank qoidalarida hamda bank amaliyotida qo'llanilayotgan ish muomalasi odatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda hisob-kitob qilishga ham yo'l qo'yiladi».*⁴⁰

Hisob-kitob hujjati – qog'oz yoki elektron shaklda rasmiylashtirilgan hujjat: to'lovchining hisobvarag'idan pul mablag'larini chiqarish va ularni oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi farmoyishi; oluvchi (undiruvchi)ning to'lovchi hisobvarag'idan pul mablag'larini chiqarish va oluvchi tomonidan ko'rsatilgan mablag'larni uning hisobvarag'iga o'tkazish uchun farmoyishi.

Hisob-kitob hujjati quyidagi rekvizitlarga ega bo'lishi lozim: shaklning nomi va xos raqami (kodi); ko'chirmaning raqami va sanasi; to'lov turi; to'lovchining nomi va uning hisobvarag'i; soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR); to'lovchi bankining nomi va joylashgan manzili, uning bank identifikatsion kodi, korrespondentlik hisobvarag'i yoki subhisobvarag'i; mablag'larni oluvchining nomi va hisobvara q raqami; soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR); to'lovchi bankining nomi va joylashgan man-zili; to'lov maqsadi; raqam va so'z bilan yozilgan to'lov summasi; to'lov navbati; operatsiya turi; vakolatli shaxslarning imzolari va muhr izi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilar bilan hisob- kitoblari shartnoma asosida amalga oshiriladi. Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir tomon (sotuvchi) tovarni boshqa tomon (xaridor)ga berish majburiyatini oladi. Xaridor esa – ushbu tovarni qabul qiladi va uning uchun ma'lum summani to'laydi.

Mol yetkazib beruvchi shartnomasi – oldi-sotdi shartnomalarining bir turi bo'lib, unga muvofiq, mol yetkazib beruvchi, ya'ni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan sotuvchi o'zi ishlab chiqargan (yoki sotib olgan) tovarlarni kelishilgan muddatlarda xaridor)ga faqat tadbirkorlik fao-liyatida ishlatish uchun berish majburiyatini oladi.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикасининг Фукарония Кодекси.–Т.: «Адолат», 2007я. -Б.330.

Mazkur shartnomaning xususiyati shundan iboratki, mol yetkazib beruvchi sotayotgan tovar u tomonidan ishlab chiqilgan yoki keyinchalik sotish uchun sotib olingan bo'lishi lozim.

Qishloq xo'jalik korxonalarining xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar (ta'minot, ta'mirlash va b.) bilan olingan tovarlar, ish va xizmatlar uchun hisoblashish tartibi shartnoma va amaldagi hisob-kitob shakllari bilan belgilanadi. Hisob-kitoblar, tovar-transport yukxati, yo'l varaqalari, bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va to'lov hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Avtotransport korxonalarini bajargan ish va ko'rsatgan xizmatlari uchun qishloq xo'jalik korxonalarini bilan yuk tashish va boshqa xizmatlar ta'rifi bo'yicha hisoblashadilar. Qishloq xo'jalik korxonalariga moddiy-texnika resurslarini yetkazib berishda shartnoma majburiyatlariga rioya qilmaslik katta yo'qotishlarga olib keladi. Bu xaridor uchun ham, mol yetkazib beruvchi uchun ham, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, vaqtida olinmagan mineral o'g'itlar joriy yil hosilini yetishtirishda ishlatilmaydi, vaqtida olinmagan qishloq xo'jalik mashinalari esa – qishloq xo'jalik ishlarini bajarish, chorva mollariga xizmat ko'rsatish va h.larni kechiktiradi. Bu esa, o'z navbatida, mahsulotlarni yo'qotishga olib keladi.

Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlovchi dastaklardan biri va zararni undirish hisoblanadi. O'zR FKning 325-moddasiga muvofiq *«agar majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka belgilangan bo'lsa, zararning u bilan qoplanmagan qismi to'lanadi. Qonunda yoki shartnomada zararni emas, balki faqat uni undirib olishga yo'l qo'yiladigan, zarar ham undan tashqari to'la hajmda undirib olinishi mumkin bo'lgan; kreditorning tanloviga ko'ra yoki neustoyka yoxud zarar undirib olinishi mumkin bo'lgan ballar belgilanishi mumkin»*⁴¹.

Agar mahsulot sifati bo'yicha standartlarga, texnik shartlarga, namunalarga, shartnomaga yoki u komplektlanmagan bo'lsa, tayyorlovchi oluvchiga ko'rsatilgan mahsulot qiymatining 20% miqdorida jarima to'laydi va bundan tashqari bunday mol yetkazib berish oqibatida yetkazilgan zararni neustoyka (jarima) hisobga olinmagan holda qoplaydi. Agar tayyorlovchi (mol yetkazib beruvchi) yetkazib berilgan mahsulotning nuqsonini belgilangan muddatda tuzatsa, jarima undirilmaydi. Xaridor shartnomaga mos kelmaydigan mahsulotni qabul qilish va pulini to'lashni rad etishi mumkin. Agar puli oldindan to'langan bo'lsa, u o'tkazilgan summani qaytarish va mahsulotni

⁴¹ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси.–Т.: «Адолат», 2007й. –Б.135.

almashtirishni talab qilishga haqli. Mahsulotni almashtirishda mol yetkazib beruvchigacha xo'jalikning mas'ulligida saqlanadi. Qishloq xo'jalik texnikalarida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish uchun qonunchilikda 20 kun muddat belgilangan. Nuqsonlarni bartaraf etishning boshqa muddatlari va jarimani tayyorlovchidan emas, balki mol yetkazib beruvchidan undirish masalasi tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'zda tutilishi mumkin.

Nuqsonlar belgilangan muddatda tugatilmaganida qishloq xo'jalik korxonasi ikki oy davomida sifatsiz texnikani tayyorlagan tashkilotdan uning roziligisiz jarima undirish huquqiga ega, agar bu kontraktida ko'rsatilgan bo'lsa.

Tovarlar yetkazib berish shartnomasining majburiy sharti – hisob-kitoblar bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati hisoblanadi. Muddatga rioya qilinmaganda to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har kun uchun mol yetkazib beruvchiga 0,5% jarima to'lanadi, agar jarima miqdori tomonlar kelishuvi bilan aniqlanmagan bo'lsa, kontragentlardan mablag'larning o'z vaqtida kelib tushmasligi yoki mablag'larni o'tkazib berish uchun bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatining yo'qligi to'lov muddatini o'tkazib yuborganligi uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma majburiyatlariga rioya qilmaganliklari uchun asosiy va universal sanksiya turi zararlarni qoplash hisoblanadi. shartnoma majburiyatlarini buzganligi uchun aybdor tomon ularni boshqa tomonga neustoyka (jarima, penya) bilan qoplanmagan summada b'laydi. Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki qoniqarsiz bajarganlik, mulklarni yo'qotish yoki buzish, agarda majburiyatlar bajarilganida olinishi mumkin bo'lgan daromadlarni to'liq ololmaslik bilan bog'liq sarflar zararlarga kiradi. Keyinchalik ushbu sanksiya kontraktida ko'rsatilishidan qat'i nazar qo'llanilishi lozim.

Shartnomaga har ikkala tomon rozi bo'lganida, majburiyatlarni bajarmaganlik yoki qoniqarsiz bajarganlik uchun qonunchilik bilan mulkiy javobgarlik belgilanmagan sanksiyalar kiritilishi mumkin. Bularga: akkreditivlarni ishlatmaganlik uchun sanksiyalar, shartnoma shartlarini buzganlik uchun ko'paytirilgan sanksiyalar kiradi. Tomonlar zararlarni ko'rsatilgan summada qoplashni nazarda tutib majburiyatlar qoniqarsiz bajarilgan hollarda, jumladan, mahsulotlarni o'z vaqtida va to'g'risidagi talablar qismida undiriladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini oxirgi iste'molchigacha yetkazish bir qancha alohida bo'g'inlar – qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi,

tayyorlash, saqlash va qayta ishlash, ulgurji va chakana savdo kabilarning o'zaro ta'siri bilan ta'minlanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish kanallarining (tayyorlov tashkilotlari, savdo-vositachilik firmalari, tovar-xom-ashyo va paxta birjalari, o'zining savdo tarmog'i, umum ovqatlanish va h.) kengayishi, ularning erkin oldi-sotdisi imkoniyatlarining oshishi, qishloq xo'jalik korxonalarining xaridorlar bilan munosabatlari majburiylik, teng huquqlilik, qonunga muvofiqlik, komplekslik, samaradorlik va mas'uliyatlilik prinsiplari negizida quriladi.

Hozirgi vaqtda har bir qishloq xo'jalik korxonasi mahsulotini sotish uchun hamkor tanlash va uning bilan kontraktatsiya shartnomasi tuzish huquqiga ega.

O'zR FKning 465-moddasiga muvofiq, *«Kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga - tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish(topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish(qabul qilib turish), uning haq shartlashilgan muddatda belgilangan bahoda to'lash (to'lab turish) majburiyatini oladi»*⁴²

Shuningdek, *«Kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlaydigan tayyorlovchi yetishtiruvchining talabiga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash chiqindilarini taraflar kelishgan narxda yetishtiruvchiga qaytarishi shart»*⁴³.

Kontraktlar 1-2 shartni o'z ichiga oladigan oddiy va bir qancha shartlarni (texnologiyalarni belgilash, unga rioya qilish nazorati, xizmat ko'rsatish va sh.o'. bo'yicha) o'z ichiga oladigan murakkab shakllarda bo'lishi mumkin. Tuziladigan shartnomalar muddati ishlab chiqarishning oqimi yoki sikliga bog'liq.

Shakli bo'yicha shartnomalar ikki tomonlama (buyurtmachi – ishlab chiqaruvchi va unda buyurtmachi bilan ishlab chiqaruvchidan tashqari, qishloq xo'jaligini moddiy-texnika ta'minoti, transport xizmati va hokazolar bilan bog'liq xo'jalik yurituvchi subyektlar ham ishtirok etadigan ko'p tomonlama bo'lishi mumkin.

⁴² Ўзбекистон Республикасининг Фуқароллик Кодекси. –Т.: «Адолат», 2007җ. –Б.197.

⁴³ Shu talba, -B.198.

Mahsulot xarid qilishda kontragentlarning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: shartnoma predmeti, xarid qilinadigan mahsulot miqdori, uning bahosi, kontrakt summasi, bajarish muddatlari, to'lov shartlari, mahsulot sifati, idish va qadoqlash, transportirovka talab darajasida bajarilmaganligi uchun sanksiyalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarining xaridorlar bilan tuzadigan shartnomalari yetkazib beriladigan mahsulot turiga qarab, turli xususiyatlarga ega. Masalan, donni xarid qilish shartnomasida mahsulot miqdori, bahosi, o'zaro hisob-kitoblar sharti, tashish va tayyorlashdan tash-qari, quritish, tozalash, qayta ishlash va saqlash hamda boshqa xizmatlar uchun haq to'lash shartlari ham keltirilishi mumkin. Don sotish uchun tuzilgan har bir kontraktga mahsulotning xavfsizligi to'g'risidagi ariza-deklaratsiya ilova qilinadi.

Chorvachilik mahsulotlarini sotish uchun tuziladigan shartnomalar ham tarmoq xususiyati va kontragentlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettiradi. Masalan, fermer xo'jaliklari cho'chqalarni boqishda 4-6 oy, broyler - 2-3 oy, yirik shoxli qoramol - 6 oydan kam bo'lmagan, sut sotishda - 1 yil. Uzluksiz ishlab chiqarishga asoslangan yirik qishloq xo'jalik korxonalari ko'pincha bir yilga kartnoma tuzadilar.

Chorvachilik mahsulotlari uchun kontraktlar butun shartnomaning amal qilish davri davomida o'zgartmaydigan, qat'iy belgilangan baholarda tuzilib, mahsulotning bazis sifatiga nisbatan ustamalar va chegirmalar (chorva molining semizligi, sutning yog'liligi va hokazolar uchun) yoki shartnoma tuzilgan muddatga bozor kursi bo'yicha indeksatsiyalash qo'llaniladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari realizatsiyasida tovarlarni sotish, yuklarni tashish, xaridor tomonidan mahsulotlarni qabul qilish va saqlash bilan bog'liq risklar hamda xaridorning to'lov layoqati bilan bog'liq risklar vujudga keladi. Shuning uchun har qanday mahsulotni realizatsiya qilish shartnomasida fors-major holatlarining oqibatlaridan kelib chiqadigan natijalari shartnoma ishtirokchilari o'rtasida qanday nisbatlarda taqsimlanishi ko'rsatilishi lozim. Realizatsiya bahosi xo'jalikdan sotib olingan mahsulotlar uchun haq to'lash tartibi kabi tomonlar kelishuviga muvofiq, shartnomada belgilanadi.

Qayta ishlash va boshqa tashkilotlarga yetkazib berilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari va xomashyolari, savdo hamda boshqa tayyorlov tashkilotlariga yetkazib berilgan mahsulotlar uchun to'lov muddati inkasso sharoitida 10 kun, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa -

to'lovchining bankiga hisob-kitob hujjatlari topshirilgan kundan 5 kungacha muddatni tashkil etadi. Xo'jalik aloqalari barqaror bo'lgan sharoitda qishloq xo'jalik korxonalarini bilan hisob-kitoblar majburiy to'lovlar vositasida bir oyda 3 martadan kam bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

Qonunchilikka muvofiq, qishloq xo'jalik mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqatlarni qabul qiluvchilar to'lovning har bir kechiktirilgan kuni uchun o'z vaqtida to'lanmagan mahsulot summasining 2 % miqdorida, 30 kundan oshgan muddat uchun esa – 3 % miqdorida mol yetkazib beruvchilarga penya to'laydilar. Penyani undirish akseptsiz tartibda mol yetkazib beruvchining talabiga asosan xaridorga xizmat ko'rsatuvchi bankning qoidalariga muvofiq amalga oshirilib, keyingisiga penya summasining 5 % to'lanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalaridan mahsulotlarni sotib oluvchi tashkilotlar budjetga soliqlarini va budjetdan tashqari fondlarga badallarini to'laganidan so'ng mahsulot qiymatini birinchi navbatda to'lashi lozim.

4.6. Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy bitimlar

Albatta, har bir muvaffaqiyatli tadbir, foydali bitim o'ziga xos bo'lib, agar xo'jalik rahbarida tadbirkorlik va uddaburonlik yetishmasa, u bozor sharoitida qiyinchilikka duch keladi.

Moliyaviy bitimlardan samarali foydalanish ularning xususiyatlarini bozor konyunkturasini yaxshi bilish va reklama imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Moliyaviy bitimning foydali yoki foydasiz ekanligini qanday aniqlash mumkin? Bu masalada bozorning tashkiliy tuzilmalaridan biri – *birjaga* murojaat qilish mumkin. Aynan birjalar nafaqat bozor konyunkturasini va baho kursini kuzatib borish, balki hamkor izlashni osonlashtirish va shartnoma tuzish ishlarini soddalashtirishga imkon beradi. Agrosanoat birjalarining maqsadi – tegishli infratuzilma va kompyuter axborot tizimi bilan ta'minlangan, qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan savdo qilishning yo'lga qo'yilgan mintaqalararo mexanizmini yaratish. Birja bitimlarni, marketing, sug'urta, transportirovka, saqlash, bojxona masalalarini hal etish, moliyalashtirishni ta'minlash, hisob-kitob operatsiyalarini bajarish bilan birga amalga oshirish bo'yicha bir qator xizmat turlarini tez va samarali taqdim etishi mumkin.

Birjalar bozor munosabatlarining ajralmas qismi bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

– real tovarlar yopiq savdosini tashkil etish, shuning uchun savdoda sotuvchi va xaridorlar ishtirokini ta'minlash;

– o'zi tomonidan qo'shimcha xarajatlarsiz zarur hollarda brokerlar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni ta'minlash. Shunday qilib, kredit tashkilotining aktivlarini jalb qilish ishlab chiqaruvchilar, vositachilar va xaridorlar o'rtasidagi to'lovlar muammosini, ya'ni birja ishini faollashtirish muammosini hal qilishga yordam beradi.

Birja savdolarining barcha bosqichlarini texnik jihatdan ta'minlash funksiyasiga kiruvchi axborot-tahlil tizimini yaratish, mamlakatimiz va jahon kompyuter tizimida axborotlarni joylashtirish.

Fyuchers va forvard bitimlari tuzishni tashkil etish. «Fyuchers»⁴⁴ o'zbek tiliga tarjima qilinganida «kelgusida», ma'nosini anglatib, fyuchers savdosi esa – kelgusidagi hosil uchun tuziladigan shartnomalar, ya'ni birjada kontraktlar bo'yicha savdolar amalga oshirilib, unda mahsulot turi, uning sifati va yetkazib berish muddati, shartnomani tuzish paytida esa – tomonlar baho masalasini kelishib oladilar. «Forvard»⁴⁵ – shartnoma tuzilganidan so'ng 2 kundan oshmasdan, baholar o'zgarishi va valuta kursidan kelib chiqadigan zararlarining oldini olishga imkon beradi.

Fyuchers shartnomalarini tuzish yo'li bilan birja savdosida ishtirok etish qishloq xo'jalik korxonalariga mahsulotlarini, ular ishlab chiqarilgunga qadar sotishga imkon beradi. Masalan, fermer keyingi yilga prognoz qili-nayotgan baho bo'yicha ma'lum miqdordagi don uchun kontraktni sotib, hali o'stirilmagan don uchun pul oladi. Bu pulga yoqilg'i, urug'lik, o'g'it va texnika sotib oladi. Shunday qilib, qishloq xo'jalik korxonasi ham, davlat ham yutadi, chunki don uchun xaridor pul to'laydi va budjetdan ushbu maqsad uchun mablag' sarflanmaydi.

Birjadagi xaridorlar – spekyulantlar (olib-sotarlar). Ayrim mahsulot qiymati (bizning misolimizda don) yuqori bo'ladi (yomon tabiiy sharoitlar oqibatida yalpi don mahsulot ishlab chiqarish pasayib ketadi), boshqalari past bo'ladi, deb hisoblaydilar (yaxshi hosil bo'lganligi uchun). Ko'rinib turibdiki, ikkita qarama-qarshi fikr mavjud. Bir spekyulant mahsulotni oldindan sotib oladi, ikkinchisi esa – sotadi. Ushbu manfaatlar birjada aks etadi. Birjada bahoni oshiruvchilar -

⁴⁴ ingl. futures – tovarlarni sotishga oldindan tuzilgan bitimlar.

⁴⁵Forvard bitimlari – bitim tuzilgan vaqtda amal qilayotgan baho bo'yicha tovarni yetkazib berish va uning qiymatini kelgusida to'lab oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar.

«buqalar», pasaytiruvchilar – «ayiqalar» deb ataladi. Natijada bozorda tovar bahosi barqarorlashadi.

Lekin, bozorda doimo risk omili mavjud. Ayrim hollarda shartnoma tovarni yetkazish paytida shakllanadigan bahodan ancha yuqori (past) bahoda tuzib qo'yilishi mumkin. Bu yerda birja faoliyatining eng samarali yana bitta tomoni – xedjirlash, ya'ni bahoning noxush o'zgarishidan sug'urtalash paydo bo'ladi.

Har xil turdagi kontraktlar yordamida sug'urtalash shundan iboratki, mol yetkazib beruvchi (xaridor) forvard kontrakti (kelgusida tovar yetkazib berish to'g'risida) tuzadi va bir vaqtning o'zida shunga o'xshash tovarni sotib olish (sotish) uchun fyuchers shartnomasi tuzadi. Bunday operatsiya natijasida mol yetkazib beruvchi (xaridor) mahsulotni yetkazib berish paytiga kelib o'zini baholarning noxush o'zgarishlari ehtimolidan sug'urtalaydi.

Ta'kidlash joizki, tezkor bitimlar spekulativ kapitalni jalb qilish inkonini yaratib, bozor hajmini oshiradi va ishlab chiqaruvchi hamda vositachiga o'z mahsulotlarini tezroq sotish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamizda agrosanoat birjalari rivojlanmoqda. Lekin, hozircha savdoda xaridorlar soni cheklangan miqdorda ishtirok etmoqda. Bu tovar ishlab chiqaruvchilar va potensial xaridorlarning savdo-sotiq o'tkazish to'g'risida yetarli darajada xabardor emasligi, ko'plab savdo, qayta ishlash va ishlab chiqaruvchi korxonalar qulay payt poylashidan dalolat beradi. Xaridor shartnoma tuzish uchun yetarli mablag' ta'minlay olmasligi oqibatida tovar aylanishi to'xtalib qoladi.

Mintaqaviy bozorlarning tarqoqligi ham muammoni chigallashtiradi. Masalan, xaridorlar va ishlab chiqaruvchilarda tovarlar va ularning bahosi to'g'risida boshqa mintaqalardan olingan ma'lumotlar yetishmasligi. Shu sababdan, ishlab chiqaruvchilar tashqi bozordagi ahvolni kuzatib borish va baho o'zgarishini oldindan ko'ra bilish imkoniga ega emas.

Savdo va pul oborotini jamlantirish maqsadida ishlab chiqaruvchilar, kreditorlar va iste'molchilarni birlashtirish maqsadga muvofiq. Mana shuning uchun ham agrosanoat birjalarining muhim va zamonaviy vazifalaridan biri – ularning pul kreditlari bilan ta'minlash imkoniga ega moliyaviy tuzilmalar bilan integratsiyalashuvi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida tijorat bitimlarining boshqa turlari, masalan **lizing** ham, qo'llanila boshlandi. Qishloq xo'jaligida lizing asosan fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash maqsadida vujudga kelib, keyinchlik

boshqa moddiy-texnika vositalarini sotib olishda ham keng qo'llanilmoqda.

Lizing munosabatlari ham shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi O'zR FK 587-moddasiga muvofiq «Lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig'iga binoan sotuvchi uchunchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi»⁴⁶.

O'zR FKning 589-moddasiga muvofiq: «Kelajakda lizing oluvchiga lizing bo'yicha topshirish maqsadida mol-mulkni o'ziga mulk qilib oluvchi shaxs lizing beruvchi deb tan olinadi.

Egalik qilish va foydalanish uchun lizing obyektini oladigan shaxs lizing oluvchi deb hisoblanadi.

Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, bu shaxs sotuvchi deb e'tirof etiladi»⁴⁷.

Lizing beruvchi (uning o'rnida tijorat banklari ham bo'lishi mumkin) qishloq xo'jalik texnikalarini keyinchalik foydalanuvchiga arendaga berish uchun sotib olish majburiyatini oladi. Mol yetkazib beruvchi (sotuvchi) qurilmaning mutlaqo lizing to'g'risidagi shartnoma bo'yicha sotib olinayotganligi to'g'risida xabardor qilinishi lozim. Bunday qurilma lizing beruvchining mulki hisoblanib, texnikani ishlatish natijasida olingan mahsulot va daromadlar foydalanuvchiga tegishli bo'ladi. Texnika mol yetkazib beruvchi tomonidan foydalanuvchiga qabul qilish – topshirish dalolatnomasiga asosan beriladi.

Tuzilgan shartnomaga muvofiq, lizing beruvchi foydalanuvchining texnikaga bemaol egalik qilishni kafolatlaydi, lekin u boshqa shaxsga texnika bilan bog'liq yoki lizing to'g'risidagi shartnomadan kelib chiqadigan o'z huquqlarini to'lig'icha yoki ayrimlarini berishi mumkin. Shunga qaramasdan, bunday harakatlar lizing beruvchini tuzilgan shartnoma bo'yicha qandaydir majburiyatlardan ozod etmaydi.

Lizing beruvchi quyidagi hollarda shartnomani muddatidan oldin buzish huquqiga ega: texnika tayinlanishi bo'yicha ishlatilmaganida; qurilmaning holati foydalanuvchining aybi bilan yomonlashganda; agar bir oy davomida foydalanuvchi ijara to'lovini kechiktirsa, shartnomada ko'rsatilgan boshqa shartlar buzilganida. Lizing beruvchi foydalanuvchidan mazkur shartnomaga muvofiq kelgusi to'lovlarni talab

⁴⁶ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролар Кодекси. –Т.: «Аллоҳ», 2007 й. –Б.249.

⁴⁷ Шбу ганба, –В.249.

qilish huquqiga ega, agar shartnoma muddatidan oldin buzilmagan bo'lsa.

Ijaraga oluvchi texnikani bevosita tayinlanishi bo'yicha ishlatishi, uni standartlarga, to'liq ishchi holatida saqlashi tayyorlovchi tashkilotning texnik shartlari yoki boshqa hujjatlariga muvofiq saqlashi, uni asrab-avaylashi, ishlatish, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va h. xarajatlarni zimmasiga olishi lozim. U texnikaning konstruksiyasini o'zgartirishi va holatini yomonlashtiradigan o'zgartirishlar qilmasligi lozim. Agar ijaraga oluvchi ijaraga beruvchining ruxsati bilan o'z mablag'lari hisobidan texnikani yaxshilaydigan xarajatlar qilsa, u ijaraga beruvchidan xarajatlarni qoplashni talab qilishga haqli.

Shartnoma muddati tugaganidan so'ng zimmasiga olingan majburiyatlarni sidqidildan bajargan ijaraga oluvchi shartnomani yangilash huquqiga ega. Texnika qiymatini ijara to'lovlari bilan to'liq qoplagan holda uni o'z mulki sifatida balansiga o'tkazib olishi mumkin. Shuningdek, u texnikani lizing beruvchidan shartnoma bahosi yoki qoldiq qiymati bo'yicha sotib olishi mumkin.

Ijaraga oluvchi u javob bermaydigan holatlar oqibatida texnika ishlatish uchun yaroqsiz holga kelib qolganida yoki lizing beruvchi shartnoma bo'yicha majburiyatlarni buzganida shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi mumkin. Ushbu holatlarda shartnoma bekor qilinganida lizing beruvchi kelgusidagi ijara to'lovlarini talab qilishga haqli emas. Texnika shartnoma bekor qilinganidan so'ng lizing beruvchiga qaytarilishi yoki lizing oluvchining xohishi bo'yicha sotib olinishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tartib lizing operatsiyalari uchun umumiy hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga nisbatan lizing o'ziga xos xususiyatlariga ega, ammo lizing to'lovlarini davlat tomonidan imtiyozli amalga oshirish saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining texnika bilan yetarli ta'minlanmaganligi, xo'jaliklarda traktor va mashinalar sotib olish uchun o'z mablag'lari hamda qarz mablag'larining yetishmasligi, lizing bo'yicha texnika yetkazib berish hajmining kamayib borishi qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy muammolarini o'z kuchi bilan hal eta olmasligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan quyidagi iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: lizing bo'yicha texnika yetkazib berishni mablag' bilan ta'minlashni kuchaytirish; texnika sotib olish uchun eng kam stavkaga uzoq muddatli kredit ajratish; jori yil hosili hisobidan texnika sotib olish uchun xo'jaliklarni

mavsumiy kreditlash (qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan to'lash); texnikaning eng muhim va qimmat turlari uchun dotatsiya berish.

Texnika sotib olishni mablag' bilan ta'minlashning muhim manbasi lizing oluvchilar tomonidan lizing fondi mablag'larining rejali ravishda qaytarilishi hisoblanadi.

Tijorat banklari mablag'lari asosida amalga oshiriladigan qishloq xo'jalik texnikasi lizingi va davlat lizingi o'rtasida raqobat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan tashkiliy-iqtisodiy choralar qishloq xo'jaligiga lizing asosida texnika yetkazib berish hajmini ko'paytirib, hech bo'lmaganda eskirish oqibatida chiqib ketgan texnika o'rmini qisman to'ldiradi va shu bilan birga, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini yanada ko'paytirishga sharoit yaratiladi.

4.7. Eksport-import operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar

Mustaqillik yillarida mamlakatning eksport salohiyati mustahkamlanib, ijobiy saldo o'sib bormoqda. Masalan, 1990-yilda eksport-442,7 mln.doll., import-362,9 mln.doll. bo'lib, ijobiy saldo 79,8 mln.doll.; 2000-yilda eksport-3264,7 mln.doll., import-2947,4 mln.doll. bo'lib, ijobiy saldo 317,3 mln.doll.; 2010-yilda eksport-13044,5 mln.doll., import-8799,7 mln.doll. bo'lib, ijobiy saldo 4244,8 mln.dollarni tashkil etgan(I bob 1.3§,1.2-jadvalga qarang).

Shuningdek, tashqi savdo geografiyasi ham diversifikatsiya qilindi. Tashqi savdo tuzulmasida MDH davlatlarining ulushi kamayib, uzoq xorij mamlakatlarining ulushi oshib bormoqda(4.1-jadval).

Tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi, (foiz)⁴⁸

4.1-jadval

	1990 yil	2010 yil
Tashqi savdo oboroti	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	39,9	56,9
MDH mamlakatlari	60,1	43,1
Eksport	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	37,7	54,8
MDH mamlakatlari	62,3	45,2
Import	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	42,6	59,9
MDH mamlakatlari	57,4	40,1

⁴⁸ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-иқтисодий тараққиётининг мустaqиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: Стат. тўплам. –Т., «Ўзбекистон», 2011. –Б.62.

Hozirgi vaqtda agrar sektor korxonalarining tashqi iqtisodiy aloqalari ham asta-sekin rivojlanmoqda.

Agrar sektor korxonalari tashqi iqtisodiy faoliyat bilan mustaqil yoki vositachi firmalar orqali shug'ullanmoqda. Shu munosabat bilan eksport-im-port operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarni tashkil etish masalasi juda dolzarb hisoblanadi.

Valuta hisob-kitoblari – bu tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog'ida vujudga keladigan, chet el valutasidagi pullik talablar va maj-buriyatlar bo'yicha to'lovlarni tashkil etish va tartibga solish tizimi. Barcha tashqi savdo operatsiyalari bir mamlaktdan boshqasiga pul o'tkazish bilan bog'liq. Ular shunisi bilan *kliring hisob-kitoblar tizimidan* farq qiladi(lug'atga qarang).

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda hisob-kitoblar xalqaro bank amaliyotida qo'llaniladigan shakl va shartlar asosida bajariladi. Sotuvchi va xaridor o'rtasida hisob-kitob shartlari va aniq shakli tomonlar kelishuvi bilan aniqlanadi va shartnomada aks ettiriladi. Xalqaro hisob-kitoblar uchun tovar-yuklab jo'natish va moliya hujjatlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaldagi tartibga muvofiq, yuklarni chegaradan o'tkazish olib kirish va olib chiqish uchun ruxsatnoma (litsenziya, kontraktlarni ro'yxatga olish) asosida amalga oshiriladi. Chorva mollari, o'simliklar, urug'lik, meva, sabzavot, chorva mollari va xomashyolarini olib kirish va olib chiqishda yukning belgilangan me'yorga javob berishini tasdiqlaydigan, veterinariya va sanitariya guvohnomalari (sertifikatlari) talab qilinadi. Bunday guvohnomalar Davlat karantin inspeksiyasi, chegara nazorat veterinar – sanitar punktlari tomonidan beriladi.

Hisob-kitoblar xilma-xil: naqd, kreditga, aralash (qisman naqd to'lov va qisman kredit). Ularning barchasi hujjat asosida bo'lib, ya'ni moliyaviy va tijorat hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Naqd pul bilan hisoblashishda tovarning xaridor tasarrufiga o'tishi vaqtida uning puli naqd to'lanadi. Tashqi savdoda xaridor va sotuvchi uzoq masofada joylashganligi va tovarni yuklab jo'natish vaqti hamda olish pay-tigacha ko'p vaqt o'tishi bois naqd to'lov tushunchasining o'zi xilma-xil. Import qiluvchi tomonidan naqd pul to'lovi quyidagi hollarda bo'lishi mumkin:

- eksportyor tomonidan tovar va boshqa hujjatlarni berish paytida o'z mamlakatining bankiga;
- importyor tomonidan eksportyordan tovarning yuklab jo'natishga tayyorligi to'g'risida xabarnoma olinishi bo'yicha;

- importyor tomonidan eksportyor mamlakatida yoki importyor mamlakatida qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma;
- importyor mamlakatining akkreditiv ochilgan bankiga tovar va boshqa hujjatlarni berish.

Xalqaro savdo amaliyotida muayyan qoidalar shakllangan: oziq-ovqat, iste'mol mollari, xomashyo, yoqilg'i odatda naqd to'lov shartlari asosida sotiladi va sotib olinadi, uzoq vaqt ishlatiladigan qimmatbaho tovarlar esa kredit shartlari asosida to'lanadi.

Kreditga hisoblash yoki to'lovni bo'laklab hisoblashish to'lov tovarni tasarruf etish va boshqa hujjatlarni olgunga qadar yoki olinganidan so'ng amalga oshirilib, ikkita shaklga ega: birinchi holatda eksportyorga bo'nak o'tkazgan, kelgusida yetkazib beriladigan tovar (ish, xizmat) uchun qisman yoki to'liq to'lagan, ammo tovarni tasarruf etish hujjatlarini olmagan importyor kreditor bo'lib hisoblanadi; ikkinchi holatda tovarni tasarruf etish hujjatlari olinganidan so'ng to'lov amalga oshiriladi, ya'ni kreditor eksportyor bo'lib hisoblanadi.

Aralash hisob-kitoblar mashinalar, qurilmalar va boshqa shunga o'xshash buyumlar bo'yicha oldi-sotdilarga taalluqli. Bu holda importyor kontrakt imzolanganidan ma'lum vaqt o'tgan so'ng eksportyorga bo'nak o'tkazadi yoki eksportyor tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha naqd to'laydi, kontraktning qolgan summasiga eksportyor importyorga kredit rasmiylashtiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda valuta hisob-kitoblarining asosiy shakllari: *bank o'tkazmasi, hujjatli inkasso, hujjatli akkreditiv, ochiq hisobvaraq bo'yicha hisob-kitoblar va cheklar bilan hisoblashishlardir.*

Bank o'tkazmasi – bu bank orqali hisoblashish operatsiyasi bo'lib, bir bankdan boshqasiga to'lov topshiriqnomasini yo'llash orqali amalga oshiriladi. To'lov topshiriqnomasi bankning korrespondent bankka yo'llangan, ma'lum miqdordagi summasini chekni yoki boshqa to'lov hujjatlarini taqdim etuvchi benefitsiarga to'lash to'g'risidagi buyrug'i hisoblanadi. Topshiriqnoma bank tomonidan pul o'tkazuvchi hisobidan bajariladi.

Eksport qilingan tovarlar va xizmatlar uchun chet el banklarining to'lov topshiriqlari vakolatli bankka qabul qilinadi. Har bir to'lov topshiriqnomasi uchun belgilangan shakldagi memorial order tuziladi. Uning nusxasi benefitsiarga uning hisobvarag'idan ko'chirma olingan paytda beriladi. Hujjatli o'tkazmalar summalarini kirim qilishda bank ushbu orderda hujjatlarni taqdim etish muddatini ko'rsatib, u o'tkazilgan sum-maning oluvchi hisobvarag'iga kirim qilingan sanasidan boshlab 15

kundan oshmasligi kerak. Chet el banking to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan, hujjatlarni taqdim etish muddatlari buzilgan hollarda vakolatli kredit tashkiloti ushbu summani pul o'tkazuvchining hisobvarag'idan chiqaradi va bir vaqtning o'zida pul o'tkazuvchi chet el bankidan o'tkazma to'g'risida farmoyish (yo'riqnoma) so'raydi.

Bank so'mda pul o'tkazuvchi chet el banklarining to'lov topshiriqnomaalarini ham, ulardan tushum kunidagi bozor kursi bo'yicha tegishli qoplamanı bajaradi. Pul o'tkazuvchi bankning vakolatli bankdagi «Loro»⁴⁹ hisobvarag'iga o'tkazma summasini debitlash huquqini beradigan topshiriqnoma bundan mustasno. Ushbu holatda bank o'tkazmani oluvchining hisobvarag'iga o'zmdagi summani o'tkazadi va bir vaqtning o'zida o'tkazmani beruvchining bankiga tegishli «Nostro»⁵⁰ hisobvarag'iga, (bunday hisobvaraқ vakolatli bankka uning chet eldagi korrespondent banki uchun ochiladi) uning ko'rsatgan bankiga chet el valutasida qoplamanı kirim qilish uchun talabnoma yo'llaydi. O'tkazmani oluvchi hujjatlarda ko'rsatilgan o'tkazmani olganidan so'ng o'n besh kundan kechikmasdan bankni to'langan hujjatlarni hisobdan chiqarish zarurligi to'g'risida xabardor qilishi lozim.

Vakolatli banklar importga olingan tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblar bo'yicha o'tkazmalarni ham amalga oshiradi. Ular o'zbekistonlik pul o'tkazuvchilarning importga olingan tovarlar, tovar hujjatlari yoki xizmat ko'rsatish to'g'risidagi hujjatlar, arbitraj yig'implari, jarima sanksiyalari va da'volar hamda qayta hisoblashlar natijasida hosil bo'lgan qarzlarni qoplash uchun chet el valutasini xorijga o'tkazish uchun topshiriqlarini ham bajaradi.

O'tkazuvchilarning topshiriqnomasi bo'yicha mablag'larni xorijga o'tkazish o'tkazma uchun ariza asosida amalga oshirilib, unda o'tkazuvchi o'tkaziladigan chet el valutasini raqam va yozuv bilan ko'rsatadi. Agar ushbu summa kontrakt bahosida ifodalangan, to'lov esa boshqa chet el valutasida amalga oshirilayotgan bo'lsa, u holda o'tkazuvchi kontrakt bahosining chet el valutasiga qayta hisob-kitobini keltiradi yoki uni aniqlash usulini ko'rsatadi. Valutani qayta hisoblash chog'ida hosil bo'lgan kurs farqi o'tkazuvchi hisobidan to'g'rılanadi va u ham asosiy to'lov aks ettirilgan hisobvaraқ bo'yicha aks ettiriladi. Arizada topshiriqnomani bajarish usuli, benefitsiarning to'liq va aniq nomi, pochta manzili, benefitsiar mijoz bo'lgan bankning to'liq va aniq

⁴⁹ingl. *loro account* – boshqa bankning mazkur kredit muassasidagi korrespondent hisobraqami bo'lib, unda o'zaro to'lovlari aks ettiriladi.


⁵⁰ital. *nostro conto* – *bizning schyot*, ingl. *nostro account* – mazkur bankning korrespondent banklarda o'zaro to'lovlarni aks ettiradigan hisobvaraқ.

nomi, ushbu kredit tashkilotidagi uning hisobvaraqlar raqami, o'tkazish maqsadi, chet ellik hamkor bilan tuzilgan kontraktning raqami va sanasi ko'rsatiladi.

Pul o'tkazuvchi ariza bilan birga bankka chet ellik hamkor bilan tuzilgan shartnomaning nusxasini ham taqdim etadi. U bank yig'imi, o'tkazma va to'lovlar amalga oshiriladigan hisobvaraqlar raqami bo'yicha telegraf xarajatlarini kim to'lashini bildirishi lozim.


O'tkazma uchun ariza uch nusxada rasmiylashtirilib, birinchi nusxasi o'tkazuvchi korxonalar rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi va muhr bosiladi. To'g'ri rasmiylashtirilgan ariza bank tomonidan tilxat bilan qabul qilinadi. Bank yo'riqnomasiga rioya qilmasdan tuzilgan hujjatlar qayta rasmiylashtirilmaslik sharti bilan mijozga qaytariladi. Pul o'tkazuvchining arizasidagi ma'lumotlarga asosan vakolatli bank chet el valutasini o'tkazish uchun xorijiy bankka to'lov topshiriqnomasi tuzadi (4.9-rasm).

Ta'kidlash joizki, bank o'tkazmasi shaklidagi hisob-kitoblarda kontrakt bo'yicha tomonlardan bittasi har doim tavakkal qiladi. Chunonchi, pul o'tkazish yo'li bilan to'lovlarda eksportyor uchun, mol jo'natilganidan so'ng jo'natilgan tovar uchun pul to'lanmay qolish riski, importyor uchun, agar kontraktida bo'nak to'lovi ko'zda tutilgan bo'lsa, bo'nak o'tkazilganidan so'ng tovar yetkazib berilmaslik riski yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun tovar yetkazib berish bo'yicha hisob-kitoblarda bank o'tkazmalarini qo'llash ancha cheklangan.



4.9-rasm. Valuta hisob-kitoblarning shakli.

Hisob-kitoblar ketma-ketligi



Bank o'tkazmasiga nisbatan ancha ishonchli shakl – *hujjatli inkasso*. Soddalashtirgan holda uni eksportyor (kreditor)ning o'z bankiga importyor (to'lovchi)dan bevosita yoki boshqa bank orqali ma'lum pul summasini olish yoki u belgilangan muddatda to'lanishini tasdiqlatish topshiriqnomasi sifatida ta'riflanadi. Bankning inkasso operatsiyasi hisob-kitobning aksept shakli bilan uyg'unlashadi. Ushbu shaklda tovarlar kontraktga asosan xari-dordan to'lovini kutmasdan, zudlik bilan yuklab jo'natiladi. To'lov hisob-kitob hujjatlari olinishi bilan, mol yetkazib beruvchi tomonidan miqdor, baho, jo'natish muddati, sifati va hokazolar bo'yicha shartnomaning barcha shartlari bajarilganligi tekshirilganidan so'ng zudlik bilan amalga oshiriladi. Sotuvchi tomonidan shartnoma buzilgan holda xaridor tovarni to'lashdan bosh tortishi mumkin.

Bankning inkasso operatsiyasi asosan shundan iboratki, u aksept bo'yicha barcha hujjatlar aylanishini o'z zimmasiga oladi. Kredit tashkiloti mol yetkazib beruvchining tovarni jo'natganidan so'ng xaridorga yo'llagan to'lov hujjatlarini qabul qilib, ularni xaridor joylashgan joydagi unga xizmat ko'rsatuvchi bankka tovar uchun to'lovni olish maqsadida jo'natadi. Xaridorga xizmat ko'rsatuvchi kredit tashkiloti mol yetkazib beruvchiga jo'natgan tovari uchun tegishli summa o'z vaqtida to'langanligi, pullar esa – sotuvchiga hujjatlarni inkassoga qabul qilgan, unga xizmat ko'rsatuvchi bank orqali o'tkazilganligini nazorat qilishi lozim. Agar xaridor akseptdan voz kechish to'g'risida bildirsa, bank ushbu arizaning asoslanganligi va sabablarini tekshiradi hamda mol yetkazib beruvchini xabardor qiladi. Xaridor tomonidan to'lov hujjati belgilangan muddatda to'lanmaganda bank bu haqda to'lov hujjatini inkassoga qabul qilgan kredit tashkilotini xabardor qilib, xaridordan tovar uchun to'lovni undirib olish choralari ko'radi.


Eksport qilingan tovar (xizmat)lar uchun hujjatlarni inkassoga qo'yish texnologiyasi quyidagicha: bank-remitent (vakolatli bank) o'z mijozidan tovarni tasarruf etuvchi hujjatlar ilova qilingan inkasso topshirig'ini olgandan so'ng ularni importyor-mamlakatning inkasso qiladigan bankiga jo'natadi. Inkasso qiladigan bank hujjatlarni inkasso topshiriqnomasida ko'rsatilgan yo'riqnomaga muvofiq to'lovchi (importyor)ga beradi. Ushbu bankning o'zi to'lovchidan inkasso qilingan hujjat bo'yicha to'lovni olganidan so'ng inkasso qilingan summani bank-remitentga o'tkazadi. Bank-remitent o'z mijoz

(eksportyor) hisobvarag'ining kreditiga tegishli yozuv yozadi (4.10-rasm).

Inkasso qo'yuvchi bank, agar uning tanlanganligi tashqi savdo kontraktida aks ettirilgan bo'lsa, «*ishonch bildiruvchi*» deb ataladi. Ammo, tanlangan bank vakolatli kredit tashkiloti bilan korrespondentlik aloqasida bo'lishi lozim. Aks holda, vakolatli bank inkassolanuvchi hujjatlarni inkasso qo'yuvchi bankka uning korrespondenti bo'lgan boshqa chet el banki orqali jo'natadi. Agar ishonch bildiruvchi inkasso topshiriqnomasida inkasso qo'yuvchi bankni ko'rsatmagan bo'lsa, uni *bank-remitent* tanlaydi.


Ishonch bildiruvchi inkasso topshiriqnomasida bank-remitentga inkasso hujjatlarini to'lash shartlariga taalluqli yo'riqnoma berishi lozim. Ularni inkasso qo'yuvchi bank to'lovchiga to'lovga va (yoki) akseptga yoki muayyan holatdan kelib chiqqan holatda boshqa shartlar asosida taqdim etadi. Topshiriqnomada inkasso bo'yicha qisman to'lovlarni qabul qilish va inkasso qilinuvchi hujjatlarni to'lovchiga qisman to'lovlarga qarshi berish imkoniyatini (yoki man qilinishini) ko'rsatishi zarur. Qoidaga ko'ra, ishonch bildiruvchi hujjatlarni to'lovchiga taqdim etishni faqat to'lov- to'liq amalga oshirilganida ko'zda tutiladi.

Inkasso topshiriqnomasida inkasso qilinadigan hujjatlarning to'lash muddat-lari ko'rsatiladi, agar ko'rsatilmagan bo'lsa, ular vakolatli bank tomonidan inkasso topshiriqnomasini va unga ilova qilingan hujjatlarni olganidan so'ng, 14 kalendar kuni ichida to'laydi. Bundan tashqari, komission to'lovlarni va inkasso operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash tartibi va shartlari ham ko'rsatiladi. Ishonch bildiruvchi bankning unga chet el qonun-qoidalariga asosan yuklanadigan dastlab 1996- yilda paydo bo'ldi va banklarning mijozlari uchun foydalanishda qulayligi tufayli keng tarqalmoqda. Shuningdek, plastik kartochkalarining egalari o'zlarining bank schyotlari bo'yicha qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ham ega bo'ldilar. Hozirgi vaqtda bank plastik kartochkalari soni 8 million donadan oshib bormoqda. Bank mijozlarining plastik kartochkalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha savdo va servis korxonalarida o'rnatilgan terminallar soni 86000 tadan oshmoqda(4.8-rasm). Tashqi iqtisodiy faoliyatda hisob-kitoblarning *hujjatli akkreditiv shakli* ham qo'llanilishi mumkin.



4.10-rasm. Inkasso bo'yicha hisob-kitoblar.


Hisob-kitoblar ketma-ketligi




U bankning uning importyor mijozi topshiriqnomasiga asosan eksportyor foydasiga tuziladigan pullik majburiyati hisoblanadi. Bunday shakldagi hisob-kitoblar, eksport tushumini o'z vaqtida olishni ta'minlashi bois, eksportyor uchun eng qulay hisoblanadi.

Eksport bo'yicha hisob-kitoblarda barcha akkreditivlar chet el banklarida ochiladi. Eksport akkreditivlarini O'zbekiston Respublikasining vakolatli banklari orqali avizo qilish va ularning ijrochi banklar tayinlanishi eng foydali hisoblanadi. Ijrochisi chet el banki bo'lgan akkreditivlar ancha kamroq foydali hisoblanadi. Bu holda to'lovlarni olish kredit tashkilotlari o'rtasida hujjatlarni pochta orqali o'tkazish sababli uzoq muddatga cho'zilib ketadi. O'zbekistonlik tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan import qilinadigan tovarlar uchun

hisob-kitoblarda mamlakatimizning vakolatli banklarida akkreditiv ochish, chet ellik eksportyor-lardan keladigan hujjatlarga qaraganda ancha foydali. Bunday tartib O'zbekiston tomonining valuta mablag'larini chet ellik kredit tashkilotlaridagi vakolatli banklarning hisobvaraqlarida muzlatib qo'yishning oldini oladi (4.11-rasm).



**4.11-rasm. Hujjatli akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar.
Hisob-kitoblar ketma-ketligi**



Eksport-import operatsiyalarida *ochiq hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblar* qo'llanilib, unda sotuvchi xaridorga tovarni yuklab jo'natadi va uning manziliga farmoyish hujjatlarini yo'llaydi, xaridor nomiga ochilgan hisobvaraqqing debetiga qarz summasini olib boradi.

Xaridor kontraktida belgilangan muddatlarda ushbu hisobvaraqq bo'yicha o'zining qarzlarini so'ndiradi. Uning uchun yetkazib berilmagan tovarni to'lash riski yo'qligi bois ochiq hisobvaraqq foydali bo'lib, odatda kreditdan foydalanganlik uchun foiz undirilmaydi. Ochiq hisobvaraqqdan foydalanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar, qoidaga

ko'ra, sotuvchilar va xaridorlar sifatida o'rin almashib turadilar. Bu tomonlarning to'lov majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash usullaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Cheklar bilan hisob-kitoblar bank o'tkazmalarini qo'llash mumkin bo'lgan hollarda ishlatiladi. Lekin, O'zbekistonda cheklarning to'lov vositasi sifatida hisob-kitoblarda ishtirok etishi cheklangan: birinchidan, chek xususiy tartibdagi pul majburiyati bo'lib, undan umumiy to'lov vositasi sifatida foydalanish mumkin emas; ikkinchidan, chek bilan hisob-kitob qilish, chek summasi eksportyorning bankdagi hisobvarag'iga kelib tushmaguncha eksportyor va importyor o'rtasidagi to'lov munosa-batlarining tugallanganligini bildirmaydi.

Cheklarning shakli va muomalada bo'lish shartlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro huquq qoidalari bilan tartibga solinadi. Chet elda to'ldirilgan chek O'zbekiston hududida 70 kun davomida, MDH a'zolari – davlatlari hududida 20 kun davomida to'lanishi lozim.

Tashqi iqtisodiy operatsiyalarda risklar. Xalqaro operatsiyalar ishtirokchilari har xil – valuta, siyosiy, sug'urta, tijorat va boshqa risklarga uchraydi. Ular xaridorning to'lovga layoqatsizligi, xatolar, suiiste'molliklar yoki hujjatlarni soxtalashtirish, importyorning tovarni qabul qilishdan bosh tortishi (xususan, hisob-kitoblarning inkasso shaklida), kontrakt tuzilgandan so'ng tovar bahosining o'zgarishi, valuta kurslarining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilganlardan valuta risklari alohida o'rin tutadi. Ularning negizida ma'lum davrda pul majburiyatlari qiymatining o'zgarishi yotadi. Bu o'zgarish natijasida eksportyor yoki importyor yutib chiqadi. Valuta kurslarining tez-tez o'zgarishi moliyaviy yo'qotishlar xavfini yuzaga keltiradi va kontraktida har xil istisnolar hamda sug'urtalash kabi himoya tadbirlarini ko'zda tutishni talab etadi.

Xalqaro hisob-kitoblar masalalari MDH davlatlari o'rtasidagi muno-sabatlarda, ularda o'zlarining pul tizimlari shakllanishi munosabati bilan, alohida ahamiyat kasb etmoqda. MDH davlatlari milliy valutilari kurs-larining o'zbek so'miga nisbatan no-barqarorligi hamda ko'pchilik kor-xonalarda chet el valutilari bilan ishlash tajribalarining yo'qligini inobatga olib, o'zbekistonlik tovar ishlab chiqaruvchilarga valuta kurslari farqlaridan kelib chiqadigan jiddiy yo'qotishlarning oldini olish maqsadida so'mda hisob-kitob qilish tavsiya etiladi.

MDHning boshqa davlatlari valutalaridan foydalanishga qaror qilin-ganida shuni nazarda tutish kerakki, mazkur valutadagi mablag' uning egasi (mol yetkazib beruvchi) tomonidan xaridorning mamlakatida tovarlarni to'lash yoki birjada boshqa kerakli valutani so'mga sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Valutani sotishda jiddiy zarar yoki naf ko'rish mumkin. Bunda valuta egasi tavakkal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O'zbekiston banklaridan MDH davlatlarining kredit tashkilotlariga mablag'larni o'tkazish bo'yicha hech qanday cheklovlar qo'yilmagan. Yaqindagi xorijiy davlatlarga to'lovlar mablag'larni Markaziy bankning hisoblashish – kassa markazi orqali xalqaro hisob-kitoblar uchun belgilangan tartibda yoki maz-kur mamlakatlar tomonidan O'zbekistonda ochilgan tijorat banklarining kor-respudentlik hisobvaraqlariga tegishli summalarni kirim qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tovarni sotuvchi O'zbekiston bankida MDH davlatlari banklarining korrespondentlik hisobvaraqlari mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risidagi axborotlar va tegishli rekvizitlarni unga xizmat ko'rsatuvchi kredit tashkilotidan olishi mumkin. Agar xaridor ko'rsatilgan rekvizitlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lmasa, u holda shartnomada u o'zining oddiy bank rekvizitlarini ko'rsatishi lozim va O'zbekistonning kredit tashkiloti O'zR MBning hisoblashish – kassa markazi orqali MDHning tegishli davlati markaziy bankiga o'tkazadi. Keyingisi pul mablag'larini sotuvchiga xizmat ko'rsatadigan tijorat banking hisobvarag'iga qabul qiladi.

O'zbekiston banki pul mablag'larini hisobvaraqdan chiqarishdan tortib to Milliy bankning hisobvarag'iga qabul qilgunga qadar to'sqinliksiz va o'z vaqtida o'tkazishni kafolatlaydi. O'zbekiston tashqarisidagi sotuvchining hisobvarag'iga mablag'larni kirim qilishga doir hujjatlar aylanishi O'zR MB vakolatiga taalluqli bo'lmasdan, MDH dagi tegishli davlatlar qoidalari bilan tartibga solinadi.

4.8. Pul mablag'lari va hisob-kitoblarni tashkil etishga doir tezkor tadbirlar

Pul mablag'lari harakatini tashkil etish va hisob-kitob operatsiyalari ustidan nazorat o'rnatish bo'yicha tezkor tadbirlar – moliya ishining muhim jihatlari hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob-kitob intizomining buzilishi, xo'jalik yurituvchi

subyektlarni iqtisodiy tanglikka olib keladi, hamkorlar ishonchsizligiga sabab bo'ladi va sanksiyalar qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar har bir kelgusi oy uchun tezkor moliyaviy reja tuzishi lozim. Mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar va xaridorlar bilan hisob-kitoblar uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshiri-shni ta'minlaydigan, eng maqbul shakllarni qo'llash zarur.

Qishloq xo'jalik korxonalari mahsulot sotishni, uning uchun mablag'lar tushumini nazorat qilishi, muddati o'tgan debitor qarzlarni undirish va kreditor qarzlarni o'z vaqtida to'lash bo'yicha choralar ko'rishi lozim.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning jo'natgan moddiy boyliklari, ko'rsatgan xizmatlari va bajargan ishlari uchun taqdim etgan schyotlari tuzilgan shartnomalarga muvofiq to'lanishi lozim. Bunda ushbu maqsadlar uchun qilingan xarajatlar hamda schyotlarni rasmiylashtirishning to'g'riligi nazorat qilinadi. Amaldagi qoidalarga va hisob-kitob shakllariga so'zsiz rioya qilish hamkorlar bilan munosabatlarda vujudga keladigan kelishmovchiliklarni bartaraf qiladi va hamkorlik samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hisoblashish – to'lov intizomini buzganlik uchun qishloq xo'jalik korxonalariga nisbatan butun xalq xo'jaligi uchun umumiy bo'lgan ta'sir choralari qo'llaniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt yil davomida majburiyatlarini mavjud mablag'lari hisobiga o'z vaqtida qoplash, jumladan, joriy va kutilayotgan to'lovlarni qoplash imkoniyatining haqqoniyligini nazorat qiladi. Shu maq-sadda debitorlik va kreditorlik qarzlarini so'ndirish muddatlari bo'yicha tahlil qiladi, mablag'lar tushumi va sarflanishining grafigini tuzadi.

To'lovlarni to'xtatib turish, to'lov muddati kelgan kundan boshlab uch oy davomida kreditorlarning talablarini bajarmaslik xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatining nochorligini bildiradi. Bunga qarzdor korxonalar majburiyatlarining uning mulklari qiymatidan oshib ketganligi yoki balans tarkibining qoniqarsizligi (nolikvidligi) sabab bo'ladi. Bunday holatda, agar sanatsiyalash ijobiy natijalar bermasa, korxonalar bankrot deb e'lon qilinishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun hisob-kitoblarning borishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish, noxush vaziyatlarni o'z vaqtida ochib berish va bartaraf etish, budjetga to'lovlar, bank kreditlari bo'yicha to'lovlar, mol yetkazib beruvchilar yoki pudratchilar hisobvaraqlari, mehnat haqi va h. to'lovlar bo'yicha doimiy nazorat o'rnatish lozim.

Nazorat savollari

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida hisob-kitoblarni tashkil etish tartibi qanday?
2. Naqd pullik va naqd pulsiz hisob-kitoblarni tavsiflang.
3. Qishloq xo'jalik korxonalarining banklarda hisobvaraqlar ochish, yopish va qayta rasmiylashtirish tartibi qanday?
4. Hisob-kitob hisobvarag'ida pul mablag'lari yetishmaganda to'lovlarni amalga oshirish ketma-ketligini ayting.
5. O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblarning qanday shakllari qo'llaniladi?
6. Naqd pulsiz hisob-kitoblarda qanday hujjatlardan foydalaniladi?
7. Naqd pulsiz hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlarning rekvizitlari qanday?
8. To'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni tavsiflang.
9. To'lov talabnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning xususiyatlari, afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?
10. Naqd pulsiz hisob-kitoblar akkreditiv shaklining xususiyatlari va uni qo'llash tartibi.
11. Tijorat bankining hisob-kitob cheklaridan foydalanish tartibi qanday?
12. Memorial orderlar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni tavsiflang.
13. Plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning mazmuni va xususiyatlarini tushuntirib bering.
14. Naqd pullik hisob-kitoblar qanday tashkil etiladi?
15. Valuta hisobvarag'ini ochish qanday amalga oshiriladi?
16. Valuta tushumining qanday qismi ichki valuta bozorida majburiy tartibda sotiladi?
17. Qishloq xo'jalik korxonalarida hisob-kitoblarni tashkil etish tartibini bayon qiling.
18. Qishloq xo'jalik korxonalarida mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitoblarni qanday tartibda amalga oshiradi?
19. Agrosanoat birjalari faoliyatining maqsadi qanday?
20. Forvard va fyuchers operatsiyalari mohiyatini tushuntiring. Xedjirlash nima?
21. Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashda lizingning ahamiyati qanday?

22. Eksport-import operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar qanday tashkil etiladi? Buning uchun qanday shakllar qo'llaniladi?

23. Pul mablag'lari va hisob-kitoblarni tashkil etish bo'yicha qanday tezkor tadbirlar amalga oshiriladi, ularning maqsadi va mazmuni?

Nazorat testlari

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblar iqtisodiy mazmuniga ko'ra –

- A) Mehnat haqi bo'yicha; xizmat safari bo'yicha hisob-kitoblarga bo'linadi.
- B) Ichki hisob-kitoblar va tashqi hisob-kitoblarga bo'linadi.
- C) Sug'urta va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarga bo'linadi.
- D) Tovarli operatsiyalar bo'yicha; moliyaviy majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblarga bo'linadi.
- E) To'lov talabnomasi va to'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitoblarga bo'linadi.

2. Xaridor uchun eng qulay bo'lgan hisob shaklini ko'rsating

- A) Hisob cheklari.
- B) Inkasso topshiriqlari.
- C) Akkreditiv.
- D) To'lov talabnomasi.
- E) To'lov topshiriqnomasi.

3. Mol yetkazib beruvchi uchun eng qulay bo'lgan hisob shakli.

- A) To'lov talabnomasi.
- B) To'lov topshirig'i.
- C) Akkreditiv.
- D) Hisob cheklari.
- E) Inkasso topshirig'i.

4. Akseptsiz to'lanadigan to'lov talabnomalari

- A) Mol yetkazib beruvchilardan olingan tovar-moddiy qiymatliklarning to'lov talabnomalari.
- B) Asosiy ishlab chiqarish uchun boshqa korxonalar ko'rsatgan xizmatlarning to'lov talabnomalari.
- C) Boshqa tashkilotlar bajargan ta'mirlash ishlarining to'lov talabnomalari.
- D) Pudratchi qurilish tashkilotlari bajargan ishlarning to'lov talabnomalari.

E) Kommunal xizmatlar, kanalizatsiya, telefon, pochta-telegraf xizmatlarining to'lov talabnomalari.

5. Qoplangan (deponentlangan) akkreditiv qanday mablag'lar hisobiga ochiladi?

A) to'lovchining o'z mablag'lariga yoki unga beriladigan kredit hisobiga ochiladi.

B) maqsadli kirimlar va jamg'armalar hisobiga ochiladi.

C) budjetdan beriladigan mablag'lar hisobiga ochiladi.

D) faqat ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan mablag'lar hisobiga ochiladi.

E) bank-emitentning ijrochi bankdagi vakillik hisobvarag'idagi (korrespondent hisobidagi) mablag'lar hisobiga.

6. Akkreditiv nima?

A) xaridorning topshirig'iga ko'ra mol yetkazib beruvchining foydasiga berilayotgan bankning pul majburiyatlari.

B) xaridorga jo'natilgan mahsulot yoki bajarilgan ishlar uchun hisob hujjatlarining pulini to'lash to'g'risidagi xaridorning banki boshqa shahardagi mol yetkazib beruvchining bankiga bergan topshirig'idir.

C) pul hisobi.

D) akkreditiv mohiyati akkreditiv ochish to'g'risidagi arizaning mazmuni bilan belgilanadi.

E) naqd pulsiz hisob shaklidir.

7. Qoplanmagan (kafolatlangan) akkreditiv qanday mablag'lar hisobiga ochiladi?

A) xaridorning o'z mablag'lari hisobiga.

B) tijorat bankining qisqa muddatli krediti hisobiga.

C) budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobiga.

D) maqsadli kirimlar va jamg'armalar hisobiga.

E) bank emitentning ijrochi bankdagi vakillik hisobvarag'idagi (korrespondent hisobidagi) mablag'lar hisobiga.

8. Chek nima?

A) imzolagan shaxsning joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshqa hisobga o'tkazish haqida bankka berilgan yozma topshiriqdir.

B) qo'shimcha mahsulotning pul shakli.

C) aksionerlik jamiyati foydasining aksiya egasiga tegadigan qismi.

D) markaziy emissiya banklari tomonidan chiqariladigan foizsiz qarz pattasidr.

E) tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqariladigan foizli kredit hujjatidir.

9. Hisob cheki kim tomonidan yoziladi?

A) markaziy bank tomonidan.

B) sotib oluvchi tomonidan.

C) tijorat banklari tomonidan.

D) sotuvchi tomonidan.

E) moliya-hisob markazi tomonidan.

V bob. AGRAR KORXONALARNING XARAJAT VA DAROMADLARI, FOYDA VA RENTABELLIGI

5.1. Agrar korxonalar faoliyatining daromadlari va moliyaviy natijalari

Mamlakatimiz agrar sektorida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat ishlab chiqarish vositalari, yerdan va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritishning yangi tashkiliy-huquqiy shakllarini (dehqon, fermer xo'jaliklari, agrofirkmalar, MTP, SIU va. b.) barpo etish, balki ularning daromadlarini ko'paytirish bo'yicha iqtisodiy usullarni takomillashtirishni ham nazarda tutadi.

Lekin yangidan barpo etilgan agrar tuzilmalarning ko'pchiligida o'z aylanma mablag'larining yetishmasligi, ustav kapitalining to'liq shakllanmaganligi, moddiy-texnika bazasining jismonan va ma'naviy eskirganligi, debitor va kreditor qarzlarning oshib borishi sababli, ularda oddiy takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun ham mablag'larning yetishmaslik holatlari mavjud.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda «...bir fermer majburiyatini bajarib o'z daromadidan orttirib, maktab yoki bog'cha quryapti, ba'zi fermerlar esa zimmasiga olgan shartnoma rejasini ham bajarmayapti»⁵¹.

Qishloq xo'jalik korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun katta moliyaviy mablag' zarur bo'lib, ularni hozirgi vaqtda to'liq ta'minlash imkoniyatiga ega emas. Hatto moliyaviy yordam miqdori oshganida ham, bu xo'jalikning rentabelligi o'z-o'zidan oshishiga olib kelmaydi. Shuning uchun agrar sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda korxonalarda moliyaviy resurslardan foydalanish, daromadlarni shakllantirish va ulardan foydalanishning ichki moliyaviy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zarur.


Darhaqiqat, qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining moliyaviy natijalari olgan daromadlariga bevosita bog'liq. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda «daromad» atamasi quyidagilarni tavsiflash uchun ishlatiladi: qandaydir ishlab chiqarish natijasida olingan pul yoki boshqa

⁵¹ I.A.Karimov. Демократик ҳукуматий давлат, эркин иқтисодийёт талабларини тўлиқ жорий этиш, фуқаролик жамияти восиларини қуриш-фаровон қилтириш гаровидир. Тошкент «Ўзбекистон», 2007, - Б. 18-19.

qiymatliklar; moliyaxo'jalik faoliyatining natijalari; aksiyadorlarga to'lanadigan dividendlar va divizlar; kapitalni ko'paytirishga tib keladigan iqtisodiy naf va h.

Qo'llanilish maqsadi va sohalariga qarab, yuqorida sanab o'tilgan barcha tushunchalar ishlatilishi mumkin. Korxonalarining daromadlariga umumiyqisodiyot, moliya va hisob nuqtayi nazaridan qaralishi mumkin(5.1-rasm).

Qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyati moddiy ishlab chiqarish tarmog'ining subyekti sifatida har xil turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqarish hamda har xil ish va xizmatlar bajarish bilan bog'liq. Ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy qiymati *Yalpi mahsulot* qiymatini tashkil etadi. U iste'mol qilingan asosiy vositalar, xomashyo, yoqilg'i, o'g'itlar kabi ishlab chiqarish vositalarining tayyor mahsulotga o'tkazilgan qiymatini va yangidan yaratilgan qiymatni ham o'z ichiga oladi.



5.1-rasm. Korxonalarining daromadi tushunchasiga yondashuvlar.

Umumiyqisodiyot nuqtayi nazaridan yangidan yaratilgan qiymatning puldagi ifodasi korxonaning asosiy (operatsion) faoliyatidan olingan yalpi daromadni tashkil etadi. Yalpi daromad birlamchi taqsimot natijasida xodimlarning ish haqi shaklidagi daromadi va korxonaning sof daromadiga bo'linadi.

Sof daromad yangidan yaratilgan qiymatning pul shaklidagi ko'rinishi bo'lib, korxonaning va davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirish manbai bo'lib hisoblanadi. Moliya nuqtayi nazaridan qiymatning faqat shu qismigina xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan asosiy faoliyatdan olingan umumiy daromadni tashkil etadi. Davlatning moliyaviy resurslarini tashkil etadigan daromad har xil darajadagi budjetlarga tushadigan soliq to'lovlari va yig'imglar, budjetdan tashqari fondlarga to'lanadigan to'lovlar shaklida namoyon bo'ladi. Sof daromadning qolgan qismi korxonaning asosiy faoliyatidan olingan yakuniy daromad bo'lib, uning tasarrufida qoladi va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash va moddiy rag'batlantirish manbasi bo'lib hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan esa sof daromadning alohida soliq turlarini va fondlarga ajratmalarni to'lash uchun mo'ljallangan qismi korxonaga mahsulot(ish va xizmat)larining tannarxini shakllantiradi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yaratilgan mahsulotlarning ma'lum bir qismi sotilmasdan, ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlatilishi bois, moliya nuqtayi nazaridan, yaratilgan hamda sotilgan yalpi va sof daromadga bo'linadi.

Yaratilgan yalpi daromadni ikkita usul bilan hisob-kitob qilish mumkin:

1) Yalpi mahsulotning qiymatidan ishlab chiqarish vositalarining tayyor mahsulotga o'tkazgan qiymatini, ya'ni moddiy va pul xarajatlarini chegirish bilan;

2) mehnat haqi va sof daromadni qo'shish yo'li bilan.

Sotilgan yalpi daromad tovar va xizmatlarni sotishdan olingan pul kirimlaridan mehnat vositalari va mehnat predmetlari tayyor mahsulotga o'tkazgan qiymatni, ya'ni sarflangan moddiy va pul xarajatlarni ayirish bilan aniqlanadi.

Yaratilgan sof daromad yalpi daromaddan mehnat haqini ayirish bilan aniqlanadi.

Umumiqtisodiyot nuqtayi nazaridan hisoblangan daromadlar ko'rsatkichlari, qoidaga ko'ra, makroiqtisodiyot sohasida (masalan, yalpi milliy mahsulotning hajmini aniqlashda), moliya nuqtayi nazaridan – makroiqtisodiyotda ham, mikroiqtisodiyotda ham (davlatning soliq siyosatini, moliyaviy menejmentda korxonaning hisob va moliya siyosatini ishlab chiqish uchun), buxgalteriya qoidalari bo'yicha hisoblangan oddiy va boshqa faoliyat turlaridan olingan daromadlar esa – kreditorlar, mol yetkazib beruvchilar hamda korxonaning iqtisodiy xizmati tomonidan operativ hisob – moliya ishlarida inobatga olinadi.


Qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy faoliyati bilan bir qatorda, uning boshqa *faoliyat turlaridan tushumlair* ham korxonaning umumiy daromadiga qo'shiladi.

Lekin, daromad korxonada faoliyatining yakuniy natijaviy ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki uning bir qismi xo'jalik yurituvchi subyekt nuqtayi nazaridan xarajat hisoblanadi. Masalan, asosiy faoliyatdan olingan daromad umumiyqtisodiyot nuqtayi nazaridan korxonada ishchilari va boshqaruv xodimlarining ish haqini o'z ichiga olib, xo'jalik yurituvchi subyekt uchun xarajat hisoblanadi. Shuning uchun moliya nuqtayi nazaridan u daromad tarkibiga qo'shilmaydi. Ayni vaqtda asosiy faoliyatdan olingan daromad moliya nuqtayi nazaridan sof daromadning ayrim elementlarini o'z ichiga olib, ular hozirgi vaqtda korxonada xarajatlari qatoriga kiritiladi: ijtimoiy sug'urta va yer solig'i va h. Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan asosiy faoliyatdan olingan daromad – bu mahsulot, tovar, ish va xizmatlar sotishdan olingan barcha pul kirimlari bo'lib, ishlab chiqarishga jalb qilingan barcha omillarning va qisman mahsulot tannarxiga soliq to'lovlari ko'rinishida qo'shilgan sof daromad qismini qoplash manbai bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan korxonalar asosiy faoliyatdan va faoliyatning boshqa turlaridan olinadigan natijaviy daromadni aniqlashga majburdirlar.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat natijasini aniqlash uchun pul shaklida olingan tushumlarni barcha ish turlari yoki bir toifadagi operatsiyalar guruhi bo'yicha xarajatlilar bilan taqqoslanadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaiy natijasi – bu korxonaning xususiy kapitali ko'payishiga, mulkdorlar, ishchilar va davlatning daromadlarini ko'paytirishga olib keladigan foydaga yoki zarardan iborat, erishilgan yoki yo'qotilgan faoliyat natijasidir. Naf ko'rilganligi yoki yo'qotilganligiga qarab faoliyat natijasi ijobiy yoki salbiy va har xil shakllarga ega bo'lishi mumkin: foyda yoki zarar, ijobiy yoki salbiy sof pul oqimi va b.

Qishloq xo'jalik korxonalarida faoliyatining umumiy moliyaviy natijasi foyda yoki zarar shaklida ifodalanadi. Foyda umumlashtiruvchi sintetik ko'rsatkich sifatida ko'p sonli omillar ta'siri ostida shakllanadi. Tashqi omillar (yuridik shaxslarni soliqqa tortish, mamlakatda moliya bozorining faoliyat ko'rsatishi va b.) hamda ichki omillar (mehnat unumdorligining darajasi, kapitalning aylanish tezligi, ishlab chiqarish tuzilmasi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turlari, korxonaning amortizatsiya hisoblash va ishlab chiqarish zaxiralarini baholash kabi usullarni qo'llash bo'yicha hisob hamda moliya siyosati).

Moliyaviy hisobotda aks ettirilgan, faoliyatning umumiy moliyaviy natijasini chiqarish tartibi xilma-xil bo'lishi mumkin. Ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida umumiy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) xo'jalik va moliyaviy faoliyat hamda favqulodda vaziyat natijalari kabi oraliq ko'rsatkichlar asosida shakllanadi (5.2-rasm).



5.2-rasm. Yevropa mamlakatlarida firma faoliyatining umumiy moliyaviy natijasini shakllantirish.

Bizning amaliyotimizda ham korxonalar faoliyatining umumiy moliyaviy natijasini shakllantirish tartibi ko'p pog'onali hisoblanadi. Yakuniy moliyaviy natija foyda yoki zarar va boshqa daromad hamda xarajatlar, jumladan favqulodda moddalarni ham qo'shgan holda tashkil topadi. U 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» hisobning ma'lumotlariga asosan aniqlanib, «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ning tegishli moddasi(270 satr)da aks ettiriladi va korxonalar faoliyatining buxgalteriya foydasi yoki zararini tashkil etadi.

Korxonalar moliyasini boshqarish uchun qo'llaniladigan oraliq va yakuniy moliyaviy natijalar boshqacha shaklga ega bo'lishi ham mumkin (sof pul oqimi, sotishdan tushgan yalpi va sof daromad, operatsion va marjinal foyda va b.).

5.2. Asosiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy natijalarni shakllantirish.

5.2.1. Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinadigan sof pul kirimlari va asosiy faoliyatining boshqa daromadlari

Qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy faoliyatidan olinadigan tushumning tarkibi, tuzilishi va shakllanishi. Qishloq xo'jalik korxonasining asosiy faoliyati mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi, ya'ni moddiy ishlab chiqarish sohasiga taalluqli. Ishlab chiqarish jarayoni tayyor mahsulot chiqishi yoki ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan yakunlanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarning asosiy qismi tashqi iste'molchilarga – yuridik va jismoniy shaxslarga sotiladi. Mahsulotlarning sotilishi asosiy faoliyatga sarflangan mablag'larning navbatdagi doiraviy aylanishi yakunlanganligini bildiradi. Qonunchilikka muvofiq, mahsulot, ish va xizmatlar, ularga egalik huquqi xaridorga o'tganidan so'ng sotilgan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 185-moddasiga muvofiq: *«shartnoma asosida mol-mulk oluvchida mulk huquqi, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, ashyo topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi»*⁵².

Sotish vaqti deb quyidagi sanalar hisoblanishi mumkin: mahsulotlarni jo'natish, ishni bajarish yoki xizmatni ko'rsatish, ya'ni to'lovga schyot taqdim etish; korxonaning hisob-kitob schotiga yoki

⁵² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, –T.: «Adolat», 2007 й. –Б.81-82.

kassasiga tushumni kirim qilish; mulk huquqining xaridorga o'tishini belgilovchi boshqa vaqt.

Sotilgan mahsulot uchun mol yetkazib beruvchiga ma'lum summadagi pul yoki sotilgan tovarlarning qiymatiga teng bo'lgan qiymatga ega bo'lgan mulk beriladi. Korxonaning ma'lum davr uchun pul kirimlarini aniqlash uslubi hisobot davri uchun sotish bo'yicha qabul qilingan hisob siyosatiga asoslanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari mahsulot sotishdan olgan pul kirimlari hisobiga ishlab chiqarishga qilingan moddiy xarajatlar qoplanadi, mehnat haqi, soliq to'lovlari, ssuda qarzlari va ularning foiz to'lovlari to'lanadi, noishlab chiqarish sohasini saqlash xarajatlari qoplanadi, kapital xarajatlar mablag' bilan ta'minlanadi va hokazo.

*«Mahsulotlar, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom»⁵³*ga muvofiq asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar sotishdan olinadigan sof pul kirimlariga va asosiy faoliyatning boshqa daromadlariga bo'linadi. Bular o'z navbatida quyidagicha guruhlanadi:

1. Sotishdan olinadigan sof pul kirimlari

1.1. Sotishdan olingan sof pul kirimlari mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olingan yalpi pul kirimlaridan qo'shilgan qiymat solig'ini, aksiz solig'ini va eksport bo'yicha bojxona bojini ayirish bilan aniqlanadi.

1.2. Eksport faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar, daromad (foyda) ni amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblab chiqaradilar.

1.3. Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olingan pul kirimlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi.

2. Asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar:

2.1. Undirilgan yoki qarzдор tomonidan e'tirof etilgan turli jarimalar, vaqtida to'lanmagan qarzar va shartnoma shartlarini

⁵³ Mahsulot (ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajalarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom, Toshkent 2007 й., –Б.32.

buzganligi uchun undiriladigan jazo jarimalari, shuningdek, yetkazilgan zararlarni qoplash uchun undiriladigan daromadlar.

2.2. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda.

2.3. Mahsulot sotish, ish va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan, xo'jalik yurituvchi subyektlar huzuridagi oshxonalaridan keladigan pul kirimlaridan, yordamchi xizmatlardan olinadigan daromadlardan renta shaklidagi daromadlardan iborat boshqa daromadlar.

2.4. Xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar.

2.5. Da'vo muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar.

2.6. Tovar-moddiy boyliklarning bahosini oshirish.

2.7. Davlat subsidiyalari shaklidagi daromadlar.

2.8. Qaytarilmaydigan moliyaviy yordam.

2.9. Boshqa turli muomalalardan olinadigan daromadlar»⁵⁴.

Shunday qilib, qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinadigan pul kirimlari ishlab chiqarish jarayonida shakllanadi, ammo sotish jarayonida o'zining maxsus shakliga ega bo'ladi.

Joriy yilda sotilgan mahsulotlarning miqdori yil boshiga bo'lgan tovar mahsulotlarining qoldig'iga joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymatini qo'shish va undan yil oxiriga qolgan tayyor mahsulotlarning qiymatini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning bir qismi ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun urug'lik, yemxashak, boqish davom ettiriladigan yosh mollar shaklida xo'jalikda qoldirilishi sababli olingan natijada ichki ehtiyojlar uchun foydalaniladigan mahsulotlarning qiymati chegirib tashlanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlar sotish, ish va xizmatlarning sotish narxlari bozordagi talab va taklif ta'sirida erkin belgilanadi. Bunda eng past baho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan sarf-xarajatlar, ayrim hollarda esa, mahsulotga bo'lgan talab (bozor ushbu tovar bilan to'lgan hollarda) bo'yicha aniqlanadi. Bahoning eng yuqori chegarasi esa tovarga bo'lgan haqiqiy talab va raqobatchilarning baholariga bog'liq.

⁵⁴ Махсулот (ишлар ва хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молжавий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом, Тошкент 2007 й., - Б. 20-21 б.

Tovarlarning ayrim guruhlarini sotish davlat tomonidan qat'iy belgilangan va tartibga solinadigan baho bo'yicha amalga oshiriladi. Qoidaga ko'ra, ular faqat tabiiy monopoliya mahsulotlari – gaz, elektr energiyasi, yuklar va yo'lovchilarni tashish, ayrim aloqa xizmatlari uchun belgilanadi. Agar qishloq xo'jalik korxonasi ularni olib sotish bilan shug'ullansa, tegishli qat'iy belgilangan bahoga ustama o'rnatiladi. Hukumat organlari qishloq xo'jalik mahsulotlari negizida ishlab chiqarilgan ayrim tovar turlari–sut mahsulotlari, non va non mahsulotlari va hokazolarga ham tartibga solinadigan baho joriy etishi mumkin. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari va ularni belgilash uslubi ko'p jihatdan sotish kanallariga bog'liq.

Tovar mahsulotlarining ma'lum qismi davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadi. Chunki ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlari masalan, paxta, g'alla strategik ahamiyatga ega. Qonunchilikka muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlarining bir qismi oziq-ovqat fondlariga yetkazib beriladi. Ushbu mahsulotlarga qishloq xo'jalik korxonasi va davlat buyurtmachilari o'rtasida tuzilgan kontraktatsiya-shartnomasiga muvofiq, erkin xarid baholari belgilanadi. Ular qoidaga ko'ra, tegishli mahsulot turi uchun o'rtacha bozor bahosidan oshmasligi, ammo ularning eng past kafolatlangan darajasidan past bo'lmasligi kerak. Agar mahsulot forward kontrakti asosida davlat buyurtmasi hisobiga sotilsa, mahsulot yetkazib beruvchi bilan buyurtmachining kelishuviga muvofiq, shartnoma tuzish paytida amal qilayotgan baho kutilayotgan inflatsiya darajasini hisobga olgan holda tuzatilishi mumkin.

Agrar korxonalar mahsulot(ish, xizmat)larning asosiy qismini tayyorlov tashkilotlariga yoki yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlarga sotadi. Shuningdek, ayrim hollarda qishloq xo'jalik mahsulotlari vositachilar – tovar birjalari, savdo uylari, auksionlar, yarmarkalar va shunga o'xshashlar orqali ham sotilishi mumkin. Bunda baholar talab va taklif hamda tijorat bitimlarining turlariga qarab shakllantiriladi. Shartnoma tuzilganidan so'ng zudlik bilan tovarni yetkazib berish ta'minlanadigan tezkor kelishuvlarda real bozor bahosi qo'llaniladi. Kelgusi davrlarda tovar yetkazib berishni nazarda tutuvchi forward bitimlari qo'llanilganda, hisob-kitoblar kontrakt tuzilgan paytdagi baholar bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda sotish bahosi inflatsiya sur'atini hisobga olgan holda indeksatsiyalanishi mumkin. Qishloq xo'jalik mahsulotlari fyuchers kontraktlari asosida sotilganida ularni sotib olish paytidagi birja bahosi qo'llaniladi, ammo kutilmagan baho o'zgarishi

natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni xedjirlash (sug'urtalash) imkoniyati mavjud.

Sotish bahosini shakllantirishda mol yetkazib beruvchi va xaridor tomonidan har xil chegirma turlari (xarid hajmining kattaligi, to'lov muddati, tovarlarni ulgurji xarid qilish va shunga o'xshashlar uchun) yoki bahoni oshi-radigan ustamalar qo'llanilishi mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalari shirkat a'zosi, xolding yoki moliya-sanoat guruhining ishtirokchisi bo'lishi ham mumkin. Bunda hamkorlikdagi faoliyat uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish, ish bajarish va xizmatlar ko'rsatish transfert baholari (firma ichida kelishilgan baho) bo'yicha amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining mehnat haqi sifatida berilishi (natural mehnat haqi) – alohida sotish yo'nalishi hisoblanadi. Bunda baho mulkdor tomonidan, zarar ko'rmaslik va xodimlarni rag'batlantirish maqsadida, tayyor mahsulot tannarxidan ulgurji bahogacha bo'lgan oraliqda belgilanadi. Ko'pchilik qishloq xo'jalik korxonalari mahsulotlarning bir qismini o'z xodimlariga sotadi. Mulkdorlar ushbu kanal bo'yicha sotish bahosini moliya strategiyasidan kelib chiqqan holda belgilaydi. Bu baho bozor bahosidan oshmasligi va mahsulotning tannarxidan past bo'lmasligi maqsadga muvofiq.

Ayrim agrar korxonalar o'z mahsulotlarini MDH mamlakatlariga yoki uzoq xorijga eksport qiladi. Erkin eksport baholarini shakllantirishda tashqi bozordagi talab va taklif, mahsulot sotish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar: eksport bo'yicha bojxona to'lovi, transportirovka xarajatlari, sug'urta, tashish, yuklash – tushirish xarajatlari, mahsulotlarni qadoqlash hamda kontraktlar tuzish, ularni ro'yxatga olish, sertifikatlash va shunga o'xshash ishlarning xarajatlarini inobatga olinadi.

Ishlab chiqarish – tijorat faoliyatidan olinadigan pul kirimlarining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, unga ko'plab tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu korxonaning asosiy faoliyatidan olinadigan moliyaviy natijalarni aniqlash uchun birlamchi bosqich hisoblanadi.

Asosiy faoliyatdan olinadigan pul kirimlarini prognozlash va rejalashtirish – korxonaning biznes-rejasini tuzishda bajariladigan moliya ishlarining muhim qismi hisoblanadi. Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinadigan foyda ko'p jihatdan tushumni rejalashtirishning asoslanganligiga bog'liq.

Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olingan pul kirimlarini prognozlashda realizatsiyaning muqobil yo'nalishlari,

mahsulot sotish hajmining hisob-kitobi va sotish baholari nazarda tutiladi. Pul kirimlari bo'yicha moliyaviy strategiyani tanlashda ularning eng yuqori va eng past darajada o'zgarishi, qoniqarli tushum va hokazolar bo'lishi mumkin.

Sotish yo'nalishlari, uning hajmi va baholarining ma'lum belgilari bo'yicha tanlangan variantlarini birga qo'shish asosida prognoz qilinadi, agar uning realligi tan olinsa rejaga aylantiriladi. Ushbu rejaning miqdor va qiymat o'lchovlarida ifodalanishi sotish budjeti (rejasi) hisoblanadi. U sotish hajmi, baholar va sotishdan olinadigan pul kirimlari to'g'risidagi axborotlarni birlashtiradi.

Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinadigan pul kirimlarining kutilayotgan (rejalashtirilayotgan) summasini (T_r) hisob-kitob qilish uchun, qoidaga ko'ra, to'g'ri hisob-kitob uslubi qo'llaniladi:

$$T_r = M_r \cdot B_{birl.} \quad (5.1)$$

Bunda, T_r – mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinishi rejalashtirilayotgan pul kirimlari;

M_r – sotish uchun rejalashtirilayotgan mahsulot, ish va xizmatlarning miqdori;

$B_{birl.}$ – mahsulot, ish va xizmatlar turi birligining sotish narxlar.

Sotiladigan mahsulotlarning miqdori, shu jumladan sotish yo'nalishlari bo'yicha ham, marketing rejasiga asosan aniqlanadi. Sotiladigan mahsulotlarning miqdori korxonada tomonidan tanlangan rejalashtirish siyosatiga ko'ra ishlab chiqarish hajmi va sotish imkoniyatlariga asoslanadi. Bunda tovarlar taklifi va mahsulotlarni chiqarish imkoniyatlari yoki mahsulot, ish va xizmatlarga bo'lgan talab tayanch nuqtasi bo'lishi mumkin. U yoki bu davrda sotiladigan mahsulot miqdorini rejalashtirishda, har qanday holatda ham mahsulotlarning oldingi yildan o'tadigan qoldiqlari inobatga olinadi.

Qishloq xo'jalik korxonasi sotish rejasini umumlashtirilgan shaklda yoki batafsil tuzilishi mumkin. Birinchi holatda sotish rejasini butun bir yilga, ikkinchi holatda esa yilning oylari (choraklari) bo'yicha tuziladi. Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jalik korxonalari uchun sotish rejasini mahsulot, ish va xizmatlarning turlari, sotish yo'nalishlari va choraklar bo'yicha batafsil tuzilishi maqsadga muvofiq (5.1-jadval).

Sotiladigan mahsulotlarning miqdori va sotish baholari to'g'risidagi ma'lumotlar kontraktatsiya shartnomalariga asosan aniqlanadi. Kontraktatsiya shartnomalari bo'lmagan hollarda esa – o'tgan yildagi haqiqiy

baholar bo'yicha (kutilayotgan inflatsiya sur'atlarini hisobga olgan holda) aniqlash mumkin. Yillik sotish hajmi sotish yo'nalishlari bo'yicha mahsulot, ish va xizmatlarni faoliyat turlari (o'simlikchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarishi va h.) bo'yicha taqsimlash rejalari bilan bog'lanishi lozim.

Sotiladigan mahsulotlarning hajmi va yil davomida olinishi kutilayotgan pul kirimlari to'g'risidagi axborotlarga ega bo'lish pul oqimlarini prognozlashga mikon beradi. Faqat sotish yo'nalishlari bo'yicha rejalashtirish ishlab chiqarish va mahsulot sotishning mavsu-miyiligini aks ettirmaydi. Buning ustiga korxonada boshqa moliyaviy prognozlarni: (yilning choraklari bo'yicha daromad va xarajatlar, pul oqimlari, kreditlarning harakati va hokazolarni) tuzish uchun axborotlarga ega bo'linmaydi. Sotish rejasini batafsil tuzish korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish uchun imkon beradi. Xususan, batafsil reja bo'yicha mahsulot sotishning bir yillik, yilning davrlari bo'yicha va har xil sotish yo'nalishlari bo'yicha rejadagi samaradorligini aniqlash mumkin.

**2012-yil choraklari va sotish yo'nalishlari bo'yicha mahsulot (ish va xizmat)lar sotish
rejasi(namuna)⁵⁵**

5.1-jadval

Sotish yo'nalishlari	I chorak						II chorak					
	Davlat buyurtmasi			Erkin bahoda			Davlat buyurtmasi			Erkin bahoda		
	miq. t.	baho ming. so'm	tushum ming. so'm.	miq. t.	baho ming. so'm	tushum ming. so'm	miq. t.	baho ming. so'm	tushum ming. so'm	miq. t.	baho ming. so'm	tushum ming. so'm
-1-	-2-	-3-	-4-	-5-	-6-	-7-	-8-	-9-	-10-	-11-	-12-	-13-
<i>O'simlikchilik mahsulotlari:</i>	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
paxta	-	-	-	-	-	-	42	290	12180	42	850	35700
bug'doy va h.												
Jami									12180			35700
<i>Chorva mahsulotlari:</i>												
sut	x	x	x	75	550	41250	x	x	x	60	550	33000
mol go'shti(so'yilgan vaznda)	x	x	x	5,6	8000	44800	x	x	x	4	8000	32000
Jami	x	x	-	x	x	86050	x	x	-	x	x	65000
Sanoat mahsulotlari												
Ish va xizmatlar												
HAMMASI:	x	x	-	x	x	86050	x	x	12180	x	x	100700

⁵⁵ Hisob-kitob uchun 2011-yil degi o'rtacha ulgurji baholar olingan.

IV chorak										Bir yilda				
III chorak					IV chorak					Bir yilda				
Davlat buyurtmasi					Erkin bahoda					Erkin bahoda				
miq. t.	baho ming. so'm.	tushum ming. so'm.	miq. t.	baho ming. so'm.	tushum ming. so'm.	miq. t.	baho ming. so'm.	tushum ming. so'm.	miq. t.	baho ming. so'm.	tushum ming. so'm.	miq. t.	baho ming. so'm.	tushum ming. so'm.
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28
80	640	51200	x	x	x	60	640,0	38400	x	x	x	140	640	89600
-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	84	-	47880
x	x	51200	x	x	-	x	X	38400	x	x	-	x	x	137480
x	x	x	70	550	38500	x	x	x	65	550	35750	270	550	148500
x	x	x	6,4	8000	51200	x	x	x	8	8000	64000	24	8000	192000
x	x	-	x	x	89700	x	X	-	x	x	49750	x	x	340500
x	x	51200	x	x	89700	x	X	38400	x	x	99750	x	x	477980

5.2.2. Mahsulotlar ishlab chiqarish, ish va xizmatlar bajarish, davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa xarajatlari

Mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlar bajarish hamda sotish jarayonlari xomashyolarni sotib olish, ishlab chiqarish, tayyor mahsulot olish va ularni sotish kabi bosqichlarning ma'lum va uzluksiz ketma-ketligidan iborat. Bunda har xil – moddiy mehnat va moliyaviy resurslardan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining uzluksizligi doimiy ravishda xomashyolarning yangi partiyalarini sotib olish bilan ta'minlanadi, ular boshqa xarajat elementlari (ish haqi, amortizatsiya va sh.k) bilan birgalikda tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini shakllantiradi. Tayyor mahsulotlar olingan sari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari yana to'ldiriladi va ko'payadi, tayyor mahsulotlarning omborxonadagi zaxirasi sotiladi. Keyinchalik ushbu zaxiralar ishlab chiqarish jarayoni tugallanishi bilan yangidan tiklanadi, tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan mablag'lar hisobiga korxonaning xarajatlari qoplanadi. Demak, tovar ishlab chiqaruvchilar mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni ular tayyor mahsulotlarni sotishdan olinadigan pul kirimlari hisobiga qoplanishidan ancha avval amalga oshiradi. Shuning uchun asosiy faoliyatga sarflangan mablag'lar qaytimsiz sarflanmaydi, faqat kapitalning uzluksiz doiraviy aylanishiga xizmat ko'rsatish uchun sarflanadi, ya'ni korxonada doimiy aylanishda bo'ladi.

Xarajatlarning turkumlanishi. Ishlab chiqarish tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning tarkibi bir xil emas, u korxonaning ixtisosiga bog'liq. Moliyaviy ishlarda xarajatlarni guruhlashning bir qancha turlaridan foydalaniladi: iqtisodiy mazmuni bo'yicha; davlat tomonidan iqtisodiy tartibga solish darajasi bo'yicha; ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi bo'yicha guruhlash.

Iqtisodiy mazmuni (iqtisodiy elementlari) bo'yicha ishlab chiqarish va sotish xarajatlari moddiy xarajatlar, mehnat haqi, ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi hamda boshqa xarajatlarga (mulklarni majburiy va ixtiyoriy sug'urtalash, ijara to'lovlari, xizmat safari xarajatlari, vakillik xarajatlari, kadrlar tayyorlash, reklama va h.) bo'linadi.

Asosiy faoliyatning xarajatlari mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini shakllantiradi.

Xarajatlarni iqtisodiy elementlari bo'yicha mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va davr xarajatlari yo'nalishida guruhlash tayyor mahsulotlarning rejali va haqiqiy tannarxini hisoblash hamda uni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.


Davlat tomonidan tartibga solinishi bo'yicha xarajatlar soliqqa tortish maqsadlari uchun limitlangan (xizmat safari, vakillik xarajatlari va sh.) va limitlanmagan xarajatlarga bo'linadi. Foydani soliqqa tortishda hisobga olinadigan moliyaviy natijalarni shakllantirishda limitlanadigan xarajatlar me'yoriy hujjatlarda belgilangan limitlar doirasida mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Limitdan ortiqcha xarajatlar korxonaning moliyaviy natijasiga qo'shiladi va foyda solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan bazani ko'paytiradi.

Bozor sharoitida moliyaviy natijalarni rejalashtirish va tahlil qilish uchun ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liqligi bo'yicha guruhlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu belgi bo'yicha xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linadi. Doimiy xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq emas (ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, vaqtbay ish haqi, amortizatsiya, ijara haqi va b.), o'zgaruvchan xarajatlar esa ishlab chiqarish hajmiga mutanosib ravishda o'zgaradi (sarflangan urug'lik qiymati, yem-xashaklar, yoqilg'i moylash materiallari, ishbay ish haqi va h.). Xarajatlarni bunday guruhlash egiluvchan dastur – ope-ratsion tahlil smetasini tuzish va korxonani samaraliroq moliyaviy boshqarish uchun zarur (zarar ko'rmaslik nuqtasini, ishlab chiqarish liveridjini, moliyaviy mustahkamlik zaxirasini aniqlash va hokazolar).

Amaliyotda xarajatlarni oqilona boshqarishni ta'minlaydigan, ularning boshqacha guruhlanishi ham qo'llanilishi mumkin (hisob belgisi, bir xillik darajasi, mahsulot birligining tannarxiga qo'shish usuli bo'yicha va boshqalar).

Korxonalar xarajatlarning ayrim elementlari o'rtasidagi o'zaro nisbat ularning tarkibini aniqlash imkonini beradi. Xarajatlarning tarkibi va tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, rejali hisob-kitoblar, maqbul assortiment va baho siyosatini ishlab chiqish hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa ishlab chiqarish – moliya masalalarini hal etish uchun qo'llaniladi.

Xarajatlarni rejalashtirish. Qishloq xo'jalik korxonalari hozirgi vaqtda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning rejali hisob-kitoblarini tuzishga har xil yondashishlari mumkin (5.3-rasm).



5.3-rasm. Xarajatlarni rejalashtirish usullari.

Xarajatlarni rejalashtirishda, qoidaga ko'ra, mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va korxonalar resurslaridan kelib chiqqan holda, ya'ni deyarli bozor talabi o'rganilmasdan, mahsulot ishlab chiqarish mo'ljal qilinadi. Bu holda sotiladigan mahsulotlarning miqdori tovar mahsulotlarining yil boshiga bo'lgan qoldiqlarini rejalashtirayotgan yildagi ishlab chiqarish hajmi bilan qo'shish va undan ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalaniladigan hamda qoldiq sifatida keyingi yilga o'tadigan mahsulotlar qiymatini chegirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish uchun qishloq xo'jalik korxonalariga *kalkulatsiya usulidan* foydalanish an'ana bo'lib kelmoqda.

Xarajatlarni rejalashtirishning kalkulatsiya usuli yillik ishlab chiqarish dasturida rejalashtirilgan barcha turdagi mahsulotlarning tannaxsini kalkulatsiyalash, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlarini hisob-kitob qilish ishlarini bajarishga asoslanadi. Kalkulatsiya hisob-kitobida (ishlab chiqarish xarajatlari smetasida) xarajatlar bir tomondan, kalkulatsiya moddalari (xomashyo, yoqilg'i, ish haqi yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va b.) bo'yicha, boshqa tomondan esa xarajatlarning iqtisodiy elementlari bo'yicha guruhlanadi.

Har qanday usul qo'llanilganda ham ishlab chiqarish xarajatlarning rejasini tuzishdan maqsad – ishlab chiqarish tannaxsini, keyinchalik esa sotilgan mahsulotlarning to'la tannaxsini hisoblashdan iborat. Sotiladigan mahsulotlarning to'la tannaxsini kalkulatsiya usuli yordamida hisob-kitob qilish ketma-ketligi quyidagicha:


1. O'simlikchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarishi va yordamchi ishlab chiqarishlar bo'yicha xarajatlar rejasi (smetasi) tuziladi. Buning uchun biznesrejaning tegishli jadvallaridan foydalaniladi. Har bir mahsulot turi va ishlab chiqarish tarmog'i bo'yicha xarajatlar, ularning iqtisodiy elementlari bo'yicha jamlash yo'li bilan hisoblanadi. Har bir element bo'yicha sarflarni hisob-kitob qilish uchun me'yorlar

(urug'lik, o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari sarfi va sh.o'), ta'riflar (mehnat haqi, ijtimoiy fondlarga ajratmalar) shu kabilar qo'llaniladi. Ushbu xarajatlar va ishlab chiqarish hajmiga asosan mahsulot (ish, xizmat) birligining tannarxi hisoblanadi.

2. Rejalashtirilayotgan yil oxiriga har bir tegishli tarmoq bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining rejasi (smetasi) tuziladi. Uni yil boshidagi haqiqiy tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bilan taqqoslash ularning yil davomida o'sishi yoki kamayishini aniqlash imkonini beradi.

3. Kelgusi davr xarajatlari smetasi tuzilib, rejalashtirilayotgan yil uchun ularning o'sishi yoki pasayishini hisoblash imkoniyati yaratiladi.

4. Rejalashtirilayotgan yilda jami ishlab chiqariladigan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Mahsulotlar ushbu baho (ishlab chiqarish tannarxi) bo'yicha ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlatiladi (5.4-rasm).



5.4-rasm. Mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxining shakllanishi.

5. Sotiladigan mahsulotlarga to'g'ri keladigan, ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi aniqlanadi. Alohida hisob-kitob qilish zaruriyati oldingi yillardan o'tib kelayotgan tovar qoldiqlarini rejalashtirilayotgan yilda sotish, rejalashtirilayotgan davrda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlarining bir qismi esa sotilmasdan, keyingi yilga o'tishi bilan bog'liq.

6. Sotish xarajatlari hisoblab chiqariladi. Buning uchun *to'g'ri hisob-kitob usuli* yoki soddalashtirilgan usulni qo'llash maqsadga muvo-

fiq. *To'g'ri hisob-kitob usuli* ko'rsatilgan ishni bajaruvchi shaxslar uchun rejalashtirilgan ish haqi, unga nisbatan ijtimoiy fondlar uchun ajratmalar, amortizatsiya ajratmalari, vakillik xarajatlari kabi xarajatlarini qo'shishga asoslangan.

Soddalashtirilgan usul – o'tgan yil tajribasidan kelib chiqqan holda (hisobot yilidagi bo'yicha haqiqiy sotish xarajatlarini rejalashtirilayotgan yilda unga nisbatan sotish hajmining o'sish yoki pasayish koefitsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan) aniqlanadi.

Rejalashtirilayotgan yilda sotiladigan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi (IT_0) quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$IT_0 = TMQ_{y,b} + IT_{rtm} - TMQ_{y,o}, \quad (5.2)$$

bunda,

$TMQ_{y,b}$ – yil boshiga sotilmay qolgan tovar mahsulotlarining haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi ;

IT_{rtm} – yil davomida yetishtiriladigan tovar mahsulotlarining rejalashtirilgan ishlab chiqarish tannarxi;

$TMQ_{y,o}$ –yil oxiriga qoladigan tovar mahsulotlarning rejalashtirilgan ishlab chiqarish tannarxi.

Sotiladigan mahsulotlarning bir oy, chorak, yil hamda sotish yo'nalishlari bo'yicha tannarxi tegishli mahsulot birligining tannarxini ma'lum davr ichida (sotish yo'nalishi bo'yicha) mahsulot miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanishi mumkin.

Sotiladigan mahsulotlarning tannarxi, qoidaga ko'ra, sotish yo'nalishiga bog'liq emas. Ammo, mahsulotlarni makaron, sut, tuxum va go'sht kabilarni uzluksiz ishlab chiqarish va sotishda tannarx yilning davrlari bo'yicha har xil bo'lishi mumkin. Masalan, sutning tannarxi fevral oyida iyunga nisbatan yuqori bo'ladi. Shu boisdan, bir oylik (choraklik) foydani hisob-kitob qilish uchun har oyda doimiy ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini hisoblash zarur. Buning uchun har xil usullardan foydalanish mumkin: ayrim xarajat elementlarini (materiallar, mehnat haqi va h.) ular qimmatlashishining har xil sur'atlariga indeksatsiyalash yoki mahsulotlar birligini ishlab chiqarish tannarxini tegishli davr uchun o'rtacha inflatsiya sur'atiga indeksatsiyalash.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini va mahsulot sotishni rejalashtirishning bozor mexanizmlaridan keng foydalanish zarurati kuchaymoqda. U sotilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan xarajatlarni hisoblashga asoslanadi. Bu holda mahsulot ishlab chiqarish hajmi va xarajatlarni

prognozlash tovarga bo'lgan talab asosida amalga oshiriladi. Bunda avvalo, bozor talabi, so'ngra imkoniyatlar hisobga olingan holda ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishi inobatga olinadi. Bu holda rejalashtirish obyektlari quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqariladigan jami mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgarimas xarajatlar, ya'ni «qirqma» tannarx hisob-kitobi qo'llaniladi, mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish hamda sotish bo'yicha doimiy xarajatlar.

Jami ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori ($M_{i.ch.}$) quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{i.ch.} = M_{s.h.} + TM_{q,y/o} - TM_{q,o'/y} \quad (5.3)$$

bunda,

$M_{s.h.}$ – bozor talabidan kelib chiqadigan sotish hajmi;

$TM_{q,y/o}$ – rejalashtirilayotgan yil oxiriga tayyor mahsulot qoldig'i;

$TM_{q,o'/y}$ – o'tgan yildan qolgan tayyor mahsulot qoldig'i.

Ushbu hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun o'zgaruvchan xarajatlar hisob-kitob qilinadi. Buning uchun, rejalashtirishga an'anaviy yondashuvlardagi kabi, mahsulot birligiga sarflanadigan xomashyo va boshqa moddiy resurslarning me'yorlari, ish haqi ta'riflari, ijtimoiy fondlarga ajratmalar va shunga o'xshashlar qo'llaniladi. (N) O'zgaruvchan xarajatlarning rejalashtirilgan summasi O^*X_r to'g'ri hisob-kitob usuli bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$O^*X_r = N M_{i.ch.} \quad (5.4)$$

Indikativ usul qo'llanilganda (o'tgan yil ma'lumotlariga asoslanib) hisobot davridagi o'zgaruvchan xarajatlarning haqiqiy miqdori (O^*X_h) o'tgan yilga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish rejasining o'zgarish koeffitsiyentiga ($K_{i,r}$) (K_h) tuzatiladi:

$$O^*X_r = K_h \frac{K_{i,r}}{K_f} \quad (5.5)$$

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning «qirqma» tannarxi to'g'ri o'zgaruvchan va to'g'ri doimiy xarajatlarning umumiy summasini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. To'g'ri doimiy xarajatlar – qat'iy belgilangan xarajatlarning bir qismi bo'lib, ularni muayyan tovarni ishlab chiqarishga bevosita olib borish mumkin (mahsulot ishlab chiqariladigan qurilmalarning amortizatsiyasi, agronom, zoomuhandis va h. ish haqi).

Qat'iy belgilangan sarflar to'g'ridan-to'g'ri hisoblash (amortizatsiyani – belgilangan amortizatsiya normalari bo'yicha, boshqaruv xodimlarining ish haqini – ta'riflar bo'yicha va h.) yoki soddalashtirilgan usul – o'tgan yilgi tajriba bo'yicha rejalashtirilayotgan yilga ta'sir ko'rsatuvchi, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda (asosiy vositalarni kutilayotgan qayta baholash, lavozim maoshlarining o'sishi va h. sh.o') hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Jami sotiladigan mahsulotning to'la tannarxi ($M_{t,t}$) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$M_{t,t} = M_{s,h} \cdot O \cdot X_{r,birl} + DX, \quad (5.6)$$

bunda, $M_{s,h}$ – sotiladigan mahsulot miqdori;


$O \cdot X_{r,birl}$ – mahsulot birligiga to'g'ri keladigan rejadagi o'zgaruvchan xarajatlar (to'g'ri doimiy xarajatlarni hisobga olib yoki olmasdan);

DX – doimiy xarajatlar (jami summasi yoki to'g'ri doimiy xarajatlarni qo'shmasdan).

Ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini prognozlashning keyingi varianti *operatsion budjetlashtirish usuliga* asoslanadi (5.5.-rasm).

Sotish budjeti ishlab chiqariladigan mahsulot hamda keyingi yilga o'tadigan ishlab chiqarish zaxiralari va tovarlarning hajmini aniqlash, ishlab chiqarish budjeti esa – doimiy va o'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasini, so'ngra mahsulotning to'la (tijorat) tannarxini aniqlash imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida «*sof tushumdan foiz*» deb nomlanadigan rejalashtirish usuli ham keng qo'llaniladi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyekt hamma vaqt to'la quvvat bilan va barcha resurslari balanslashgan holda ishlashi ko'zda tutiladi. Bu usul boshqa usullarni qo'llash uchun yetarli ma'lumotlar bo'lmaganda keng qo'llaniladi. O'zgaruvchan xarajatlarning barcha turlari rejalashtirilayotgan yildagi sotish hajmiga nisbatan foiz hisobida rejalashtiriladi. O'zgaruvchan xarajatlarning har bir turi bo'yicha foiz miqdorlari o'tgan yillarning tajribasi bo'yicha aniqlanadi. Bunda foiz miqdorlari o'tgan yildagi o'zgaruvchan xarajatlarning hisobot yilidagi sotilgan mahsulot qiymatiga nisbati shaklida hisoblab chiqariladi. Qat'iy belgilangan xarajatlar o'tgan yillarning tajribasi bo'yicha rejalashtirilayotgan yildagi baza ko'rsatkichlarining o'zgarishini hisobga olgan holda aniqlanadi. Oy (chorak, yil) uchun rejalashtirilayotgan xarajatlarning butun xo'jalik bo'yicha (yoki mahsulot turlari bo'yicha) hisob-kitobi «sof tushumdan foiz» usulini qo'llagan holda 5.2-jadvalda keltirilgan.



5.5-rasm. Ishlab chiqarish va davr xarajatlarini «operation budgetlashirish» usuli bo'yicha prognozlash.

«Sof tushumdan foiz» usuli bo'yicha hisoblangan xarajatlar budjeti

5.2-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yildagi haqiqiy ma'lumotlar (2013 y. hisobot)		2014 yilning rejasi bo'yicha (ming so'm)
	ming so'm	tushumga n-n, %	
Mahsulotlar sotish ish va xizmatlar bajarishdan sof tushum (SST)	8311787	100	8.500.000
O'zgaruvchan xarajatlar (-), jami	12763	54,6	13104
shu jumladan:	1115,9	4,8	1152
mehnat haqi, ajratmalari bilan birga va h.	11647,1	1,5	11952
Doimiy xarajatlar (-), jami	5607	x	5607
shu jumladan: amortizatsiya va h.	4909,7	x	4909,7
	697,3	x	697,3
Davr xarajatlari	942301	11,3	960500
Jami	18370	X	18711

Ushbu usul bo'yicha prognoz tuzish uchun o'tgan yildagi tegishli buxgalteriya hisobi registrlari va moliyaviy hisobot shakllaridan foydalaniladi: butun xo'jalik bo'yicha o'tgan yil uchun sotishdan olingan sof tushum summasi va davr xarajatlari to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlar moliyaviy hisobotning 2-shakli «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»dan, har bir mahsulot turi bo'yicha sotishdan sof tushum– 9000-«Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi hisoblar» (9010, 9020, 9030) schoyti bo'yicha analitik hisob registrlaridan; doimiy va o'zgaruvchan sarflar, xarajat elementlari bo'yicha – o'simlikchilik, chorvachilik, sanoat va yordamchi ishlab chiqarish bo'yicha ularning hisobotlaridan; soliq to'lovlari tegishli yig'ma hisob-kitoblardan olinadi. Mahsulot sotishdan olinadigan rejadagi sof tushum «Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishning prognoz hisob-kitobi» jadvaliga asosan aniqlanadi.

Lekin bu usulni qo'llash uchun yuqorida keltirilgan buxgalteriya hisobi registrlari, ishlab chiqarish hisobotlari va moliyaviy hisobot ma'lumotlari ishonchli bo'lishi lozim.

Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni va davr xarajatlarini prognozlash hamda rejalashtirishning ushbu usuli operatsion budjetlashtirish usuliga qaraganda unchalik aniq bo'lmasada, oddiy va qulaydir.

Shunday qilib, turli qishloq xo'jalik korxonalari xarajat va daromadlarni boshqarishni amalga oshirishda mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini prognozlash hamda rejalashtirishning muqobil variantlaridan eng maqbulini tanlaydilar. Tanlangan variantni hisobga olgan holda kelgusi davr uchun asosiy faoliyatdan olinishi kutilayotgan moliyaviy natija hisob-kitob qilinadi.

5.2.3. Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishning moliyaviy natijalari

Har bir korxonada uning ustavida bayon qilingan va qonun bilan taqiqlan-magan, istalgan faoliyat turini amalga oshirishi mumkin. Qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy faoliyatiga shu xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qayta ishlash va sotish, ta'mirlash - texnik xizmatlar ko'rsatish, savdo - ta'minot faoliyati va boshqalar kiradi.

Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olingan foyda yoki zarar hisoblanadi. Asosiy faoliyatning har bir turi bo'yicha natija (egri soliqlar chegirib tashlangan holda) mahsulot sotishdan tushgan sof pul kiritilari bilan sotilgan mahsulot bajarilgan ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. O'z mahsulotlarini eksport qiladigan korxonada olingan pul kiritilari bevosita davlat budjetiga borib tushadigan boj to'lovini ham chegiradi. Agar mahsulot sotishdan olingan pul kiritilari xarajatlardan yuqori bo'lsa, u holda korxonada mazkur faoliyat turidan foyda olgan hisoblanadi. Aks holda, u asosiy faoliyatga sarflangan mablag'larni yo'qotadi, ya'ni mahsulot sotishdan zarar ko'radi.


Asosiy faoliyatning yalpi (brutto) foydasi amaliyotda qo'yilgan maqsadga qarab har xil usullar bilan hisoblanadi. Masalan, agrar korxonada asosiy faoliyatdan olgan sof foyda yoki zararga tijorat va ma'muriy - boshqaruv xarajatlari qanday ta'sir qilganligini aniqlash uchun «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl)da yalpi foydani sotishdan olingan netto pul kiritilari texnologik jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan (tijorat va ma'muriy - boshqaruv xarajatlari hisobga olinmagan) ishlab chiqarish xarajatlarini ayirish bilan aniqlanadi. Ammo, bunday izohlash, bizning fikrimizcha, foydaning iqtisodiy mazmuniga mos kelmaydi. Asosiy faoliyatdan olingan yalpi foyda deb, sotishdan olingan netto pul kiritilari bilan sotilgan mahsulotlarning tannarxi o'rtasidagi farqni atash asosliroqdir. «Moliyaviy natijalar

to'g'risidagi hisobot» (2-shakl)da u «Mahsulot(tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi(zarari)» (030-satr) deb nomlangan.

Asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijani hisob-kitob qilishda faqat hisoblash usuli qo'llaniladi, ya'ni o'tgan hisobot davridagi sotishdan olingan pul kirimlari va sotilgan mahsulot bajarilgan ish va xizmatlarning tannarxi pul to'lovlari kirimlarini olish vaqtidan qat'i nazar hisobga olinadi.

Agrar korxonalar asosiy faoliyatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va natijaliligini moliyaviy natijalarning absolyut va nisbiy ko'rsatkichlari yordamida baholash mumkin. Absolyut ko'rsatkichlarga asosiy faoliyatning har bir turi va butun korxonaga bo'yicha foyda (zarar) hajmi, nisbiy ko'rsatkichlarga esa ishlab chiqarish va sotish rentabelligi ko'rsatkichlari (sotishdan olingan foydaning mahsulot tannarxi yoki uni sotishdan tushgan sof tushumga nisbati) kiradi.

Asosiy faoliyatdan olinadigan foyda va uni rejalashtirish uslubi korxonaning moliya - xo'jalik faoliyatida tutgan strategiyasiga bog'liq. Agrar korxonaning strategik maqsadi foydani eng yuqori darajaga ko'paytirish, uni eng past darajaga ko'paytirish, qoniqarli darajada foyda olish va hatto foyda muhim bo'lmasligi mumkin. Strategiya turi asosiy faoliyat tavsifi va tarkibini, mahsulot sotish yo'nalishlari, xaridorlar va mol yetkazib beruvchilar, ishchi va xizmatchilar, favqulodda holatlardan sug'urtalanish usullari, miqdori va boshqalarni tanlashda muhim omil hisoblanadi (5.6-rasm).



5.6-rasm. Agrar korxonaning moliyaviy strategiyasi.

Foydani eng yuqori darajaga ko'paytirish strategiyasi korxonaning barcha qarorlari imkon qadar bahoni oshirish va xarajatlarni pasaytirishni nazarda tutadi. Bu strategiyani qabul qilgan korxonaga, odatda, ijtimoiy va madaniy-maishiy obyektlarni mablag' bilan ta'minlamaydi, ixtiyoriy sug'urtani istalgan turiga, kadrlarni qayta tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlari va tezda naf keltirmaydigan boshqa

faoliyat turlariga mablag' sarflamaydi. Bunday strategiya qisqa davr ichida ishlatilishi mumkin (tanazzul yaqinlashayotganda yoki tanazzul vaziyatida va b.).

Foydani eng past darajaga ko'paytirish strategiyasi ham yuqoridagi maqsadga (eng yuqori foyda olishga) qaratilgan bo'lib, ammo ayrim farqlar mavjud: aholi bandligini ta'minlaydigan va tayyorlanayotgan mahsulotga doimiy xarajatlarning ma'lum ulushini qo'shadigan, vaqtinchalik zarar ko'radigan ayrim ishlab chiqarishlarga yo'l qo'yiladi, bunda o'z-o'zini sug'urtalash, ixtiyoriy mulk sug'urtasi va shaxsiy sug'urta, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari amalga oshiriladi, mahsulotlarni xodimlarga tannarxi bo'yicha sotish (agar tannarx bozor bahosidan yuqori bo'lmasa), doimiy xaridorlarga esa eng yuqori bahoda emas (mavjud bozorni saqlab qolish uchun), balki arzon bahoda sotish mumkin. Bu strategiya korxonani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uzoq vaqt davomida qo'llanilishi mumkin.

Qoniqarli foyda strategiyasi oddiy takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun yetarli daromad olishga qaratilgan. Ushbu strategiyani tanlagan korxonalar uchun bankdagi depozitlarning daromadliligi mo'ljal bo'lishi mumkin. Ushbu moliyaviy strategiyani tanlagan korxonalar ijtimoiy-madaniy obyektlarni saqlaydi, xodimlarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini tannarxidan past baholarda sotishi mumkin. Shuningdek, aholining to'liq bandligini ta'minlash maqsadida mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va resurlarini to'liq ishlatishga harakat qilinadi. Bunday strategiya iqtisodiy qiyinchilik davrida o'zini oqlasada, ammo uning istiqboli kam hisoblanadi.

Foydasiz strategiya korxonaning «jon saqlashi»ni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish va mehnat resurslarini hamda ijtimoiy infratuzilmalarni saqlashga qaratiladi. Bu strategiyani tanlagan qishloq xo'jalik korxonasi bozor talablarini hisobga olmagan holda mahsulot ishlab chiqaradi, o'z balansida madaniy-maishiy obyektlarni zarar keltirishiga qaramasdan saqlaydi, o'z xodimlariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib, tannarxidan past bahoda sotadi. Bunday korxonalar odatda, davlatga, mol yetkazib beruvchilarga, ishchi va xizmatchilarga katta miqdorlarda muddati o'tgan qarzlari bo'ladi. Bu strategiyani uzoq vaqt qo'llash bankrotlikka olib keladi.

Korxonaning tanlagan moliyaviy strategiyasi sotish yo'nalishlarini tanlash, bevosita shartnomalar tuzish, tannarxni shakllantirish va bahoni prognozlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy faoliyat bo'yicha moliyaviy natijalarning rejasini hisob-kitob qilish shakllari rejalashtirish (joriy, tezkor) turlari hamda korxonada o'z oralig'ichorak va yolg'arg b'lingan kelgusi yil hisoblanadi. Moliyaviy natijalarni tezkor rejalashtirish ancha qisqa muddatlarga chorak oylarga, oy dekalarga bo'lingan holda amalga oshiriladi. Masalan, pul oqimlarini prognoz qilish va qisqa muddatli kreditga bo'lgan talabni aniqlash maqsadida kelgusi yil uchun oylarga bo'lingan sotish yo'nalishlari ko'rsatilmagan holda moliyaviy natijalarning rejasi tuzilishi zarur, mahsulot sotish jarayonlarini nazorat qilish va tartibga solish hamda sotish samaradorligini nazorat qilish uchun ham ayrim mahsulot turlari bo'yicha ularni sotish yo'nalishlari bo'yicha yilning davrlariga bo'linmagan holda rejali hisoblash ishlari bajarilishi kerak.

Prognoz qilishning har ikkala yo'nalishini o'zida mujasamlashtiradigan, asosiy faoliyatning moliyaviy natijalarini rejalashtirish uchun namunaviy hisob-kitob shakli taklif qilinadi (5.3-jadval). Bu jadvalni mahsulot sotishdan olinadigan pul kirimlari, ularning tannarxini oldindan tuzilgan rejali hisoblash ishlari asosida to'ldirilishi tavsiya etiladi.

Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olingan pul kirimlari, ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining prognozlari va rejaları, moliyaviy natijalarning hisob-kitoblari qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish tijorat faoliyatini boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Fermier xo'jaligining 2014-yil uchun asosiy faoliyati bo'yicha moliyaviy natijalar rejasi (ming so'm)

5.3-[adval

Mahsulotlarning turlari	I chorak					II chorak						
	Davlat buyurtmasi		Erkin bahoda			Davlat buyurtmasi		Erkin bahoda				
	Sotishdan pul kirimlari	tannarxi	Moliyaviy natija (foйда +, zarar -)	Sotishdan pul kirimlari	tannarxi	Moliyaviy natija (foйда +, zarar -)	Sotishdan pul kirimlari	tannarxi	moliyaviy natija (foйда +, zarar -)	Sotishdan pul kirimlari	tannarxi	Moliyaviy natija (foйда +, zarar -)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
<i>O'simlikchilik mahsulotlari:</i>												
paxta	-	-	-	x	x	x	-	8800	-	x	x	x
bug'doy	-	-	-	-	-	-	12180	-	+3380	35700	8800	+26900
jami	-	-	-	-	-	-	12180	8800	+3380	35700	8800	+26900
<i>Chorva mahsulotlari:</i>												
sut	x	x	x	41250	24000	+17250	x	x	x	33000	19200	+13800
mol	x	x	x	44800	33600	+11200	x	x	x	32000	24000	+8000
go'sht (so'yilgan vaznda)												
jami	x	x	x	86050	57600	+28450	x	x	x	65000	43200	+21800
Sanoat mahsulotlari												

5.3-jachvalning davomi

III chorak						IV chorak						Yillik moliyaviy natija (foйда +, zarar -)					
Davlat buyurtmasi			Erkin bahoda			Davlat buyurtmasi			Erkin bahoda			moliya natija (foйда +, zarar -)			Sotish-dan pul kirimi	tannarxi	Moliya-viy natija (foйда +, zarar -)
Sotish-dan pul kirimi	tannarxi	Moliya-viy natija (foйда +, zarar -)	Sotish-dan pul kirimi	tannarxi	Moliya-viy natija (foйда +, zarar -)	Sotish-dan pul kirimi	tannarxi	Moliya-viy natija (foйда +, zarar -)	Sotish-dan pul kirimi	tannarxi	Moliya-viy natija (foйда +, zarar -)	Sotish-dan pul kirimi	tannarxi	Moliya-viy natija (foйда +, zarar -)			
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28			
51200	46400	+4800	x	x	x	38400	34800	+3600	x	x	x	89600	81200	+8400			
-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	47880	17600	+30280			
51200	46400	+4800	-	-	-	38400	34800	+3600	-	-	-	13748	98800	+38680			
x	x	x	38500	22400	+16100	x	x	x	35750	20800	+1495	14850	86400	+62100			
x	x	x	51200	38400	+12800	x	x	x	64000	48000	0	0	144000	+48000			
x	x	x	89700	60800	+28900	x	x	x	99750	68800	+3095	34050	230400	+11010			
											0	0		0			
51200	46400	+4800	89760	60800	+28900	38400	34800	+3600	99750	68800	+30950	477960	329200	+148780			

5.2.4. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi, soliq to'lanishiga qadar bo'lgan foyda va sof foydani shakllantirish hamda taqsimlash mexanizmi

Sof foydani shakllantirish. Mamlakatimizda korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini tavsiflash uchun quyidagi tushunchalar qo'llaniladi: Yalpi foyda (YAF), asosiy faoliyat foydasi (AFF), umumxo'jalik faoliyatining foydasi (UXF), soliq to'lanishiga qadar bo'lgan foyda (STF), sof foyda (SF), konsolidatsiyalangan foyda, balans foydasi va b. Ushbu tushunchalarning ayrimlari me'yoriy hujjat bilan mustahkamlanmagan va har xil ma'noda talqin etiladi. Masalan, «Yalpi foyda» tushunchasi «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»(2-shakl)da va moliyaviy menejmentda har xil ma'noga egaligini, «balans foydasi» esa faqat buxgalteriya hisobida ishlatilishini hisobga olib, butun moliya-xo'jalik faoliyatining natijasini sof foyda (zarar) deb ataymiz. Sof foyda tijorat korxonasi faoliyatining barcha turlaridan olingan moliyaviy natijalarni jamlash yo'li bilan aniqlanadi.


Qishloq xo'jalik korxonalarining sof foydasini shakllantirish mexanizmi vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadi. Bozor munosabatlariga o'tilishiga qadar qishloq xo'jalik korxonalari (shirkat va jamoa xo'jaliklari) umuman moliyani tashkil etish bo'yicha, xususan yakuniy moliyaviy natijani shakllantirish tizimida jiddiy farq qilgan. Davlat korxonalari moliyaviy natijani foyda (zarar), jamoa xo'jaliklari esa yalpi va sof daromad ko'rinishida aniqlagan.

Bozor munosabatlariga o'tilganidan so'ng barcha, jumladan, qishloq xo'jalik korxonalari ham, sof foyda(zarar)ni shakllantirish jarayonini yagona, ammo doimo takomillashib boradigan qoida bo'yicha aks ettiradi. Bunga umumiy moliyaviy natijani bosqichma-bosqich shakllantirish uslubi asos bo'lib, uni qo'llash tartibi doimo takomillashtirib borilishi lozim.

Moliya - xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) realizatsiyadan tashqari daromadlar va xarajatlarni (xo'jalik shartnomalarini buzganligi uchun jarimalar, penyalari, neustoykalar va h.) sof foyda(zarar)ni aniqlashga imkon beradi.

Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotda aniqlashda (№BHMS) mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olingan foyda alohida, ya'ni asosiy faoliyatning natijasi alohida oraliq natija – yalpi foyda alohida aks ettiriladi. Asosiy

faoliyatning foydasi yalpi foydaga asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini qo'shish, davr xarajatlarini esa ayirish bilan aniqlanadi.



«XttN» – «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»

5.7-rasm. Moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi.

Korxonaning moliyaviy ahvoriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi, yakuniy moliyaviy natija – bu *sof foyda* yoki *zarardir*.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yakuniy moliyaviy natijani shakllantirish mexanizmi 5.7-rasmda ko'rsatilgan.

Korxonada faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini shakllantirishning ushbu modeli kamchiliklardan xoli emas: Jumladan korxonada faoliyatining alohida turlari (asosiy, investitsiya, moliyaviy va b.) bo'yicha samaradorlikni aniqlashga imkon bermaydi. Shuningdek, yakuniy moliyaviy natija to'g'risida fikr bildirish va foyda tarkibini baholashga ham imkon bermaydi. Ushbu kamchiliklar boshqa faoliyat turlaridan olinadigan daromad va xarajatlarni guruhlashga yondashuvlarni o'zgartirish va hisobotda nafaqat korxonaning boshqa faoliyatlaridan olinadigan daromadlar va xarajatlarni, balki moliyaviy natijalarni ham o'zgartirish orqali bartaraf etish mumkin. Bu hisobot davri uchun umumiy moliyaviy natijani shakllantirish ketma-ketligini, umumiy foyda yoki zararni hisoblash jarayonini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga imkon beradi. Xalqaro standartlarga asoslangan «yangi schotlar rejasi»ni qo'llash qishloq xo'jalik korxonalarining umumiy moliyaviy natijasini aniqlashni yanada takomillashtirishga yordam bermoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyatida rejalashtirilgan va haqiqiy foyda shakllantiriladi. *Rejalashtirilgan foyda* – bu mulkdorlarning moliyaviy natija olish uchun menejerlar oldiga qo'yilgan minimal topshirig'i. Rejadagi foyda soliqlarni to'lash va tadbirkorlikning boshqa tarmoqlariga qaraganda kapital rentabelligini ta'minlash uchun yetarli bo'lishi lozim. Asosiy faoliyat, moliyaviy faoliyat hamda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha daromad va xarajatlar rejalashtiriladi.


Sof foyda qishloq xo'jalik korxonasining hisobot davrida barcha faoliyat turlaridan olingan haqiqiy moliyaviy natijani tavsiflaydi. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish sikli uzoq vaqt davom etganligi bois, haqiqiy moliyaviy natijani faqat yil oxirida aniqlash mumkin.

Sof foydani taqsimlash. Foydani taqsimlash qishloq xo'jalik korxonalarida moliya ishlarining muhim bosqichi hisoblanadi. Uni taqsimlash tartibi va proporsiyalari unumdavlat va mahalliy budjet ehtiyojlarini ta'minlash, mulkdorlar va boshqa investorlarning kapital xarajatlardan manfaatdorligi, menejerlar va yollangan ishchilarning mehnat unumdorligini oshirishga qiziqishi hamda tijorat korxonasini

ichki moliyaviy resurslar hisobidan rivojlantirishga bog'liq. Foydani taqsimlash mexanizmi moliyaning korxonalarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy dastaklardan biri hisoblanadi.

Foydani taqsimlash uslubi mamlakatimiz iqtisodiyoti oldida turgan vazifalarning o'zgarishiga muvofiq o'zgaradi va rivojlanadi. Uni umumiy holda 5.8-rasmdagi ko'rinishda tasvirlash mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarida foydani taqsimlash amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Bular O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik va Soliq Kodeksi, aksiyadorlik jamiyatlari, ishlab chiqarish shirkatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunlar va boshqa amaldagi huquqiymeyoriy hujjatlar bilan foydani taqsimlashda quyidagi masalalar tartibga solinadi.



5.8-rasm. Agrar korxonalarda sof foydani taqsimlashning umumiy tartibi.

Umumdavlat va mahalliy budjetlarga to'lanadigan soliqlar ro'yxati, hisoblash uslubi va o'tkazish tartibi. Soliq qonunchiligi bilan foydadan to'lanadigan soliq uning umumiy miqdorini hisoblashgacha, foydadan va sof foydadan, ya'ni foyda solig'ini to'lagandan so'ng qoladigan, foydadan to'lanadigan soliq uning umumiy summasini hisoblashgacha (korxonalar mulkiga reklama va h.), uning miqdorini kamaytiradigan realizatsiyadan tashqari xarajatlarni shakllantiradi. Agrar sektor korxonalarini umumiy foydadan foyda solig'i hamda uning tarkibida maxsus soliqqa tortish rejimiga ega ayrim daromadlar (masalan, o'yin biznesidan olingan daromadlar) soliqqa tortiladi. Foyda (daromad) solig'i to'langanidan so'ng korxonaning sof foydasi qoladi. Foydaning ushbu qismidan birjada amalga oshirilgan savdolar, suv resurslaridan foydalanganlik va atrof-muhitni me'yorida oshiqcha ifloslantirganlik uchun to'lovlar va hokazolar o'tkaziladi. Barcha xo'jalik yurituvchi


subyektlar, jumladan, qishloq xo'jalik korxonalari ham umumdavlat va mahalliy budjetlarga to'lovlarni majburiy tartibda amalga oshiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari va ishlab chiqarish shirkatlari tomonidan o'zlarining moliyaviy rezervlariga yo'naltiriladigan foyda hajmi. Tegishli qonun hujjatlari bilan rezerv fondining eng kam miqdorlari belgilangan: aksiyadorlik jamiyatlarida – ustav kapitalining 15%dan kam bo'lmagan, ishlab chiqarish kooperativlarida esa pay fondining 10%dan kam bo'lmagan miqdorda. Har bir aksiyadorlik jamiyati moliyaviy rezerv summasining eng kam miqdorini shakllantirish uchun har yili sof foydaning 5% igacha ajratishi lozim. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kooperativlari tomonidan sof foydaning dividend to'lash uchun ajratiladigan qismi uning 30% dan oshmasligi lozim.

Foydani mulkdorlar o'rtasida taqsimlash tartibi, ketmaketligi va cheklashlar hamda foydani taqsimlash bo'yicha boshqa masalalar tegishli tijorat korxonasining mulkdorlari tomonidan korxonaning ustavi, moliya strategiyasi va moliya-hisob siyosatiga muvofiq aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik korxonasining moliya-hisob markazi rejalashtirilgan va haqiqiy foydani taqsimlashni amalga oshiradi. Birinchi holatda foydani taqsimlashning asosiy yo'nalishlari, ikkinchi holatda esa foydani yil davomida sarflash belgilanadi va taqsimlanmagan foydani ishlatish yo'nalishlari aniqlanadi.

Rejalashtirilgan foydani taqsimlash tartibi 5.9-rasmda ko'rsatilgan.



5.9-rasm. Qishloq xo'jalik korxonalarida rejalashtirilgan foydani taqsimlashning umumiy tartibi.

Soliq qonunchiligi bilan belgilangan soliqlarning tarkibi va hisoblash tartibi korxonaning umumiy hamda sof foydasidan soliqlar shaklida chetlashtiriladigan foyda miqdorini aniqlashga imkon beradi. Rezerv kapitalini shakllantirish qishloq xo'jalik korxonasi uchun uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaganligi bois, birinchi navbatda amalga oshirilishi lozim. Moliyaviy rezervlarni tashkil etish tijorat hisobining muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Korxonada tasarrufida qoldiriladigan foydani taqsimlash yo'nalishlari, ajratmalar miqdori va tartibi qishloq xo'jalik korxonasining ustavi va mulkdorlar umumiy majlisida tasdiqlangan moliya siyosati bilan belgilanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida foydaning bir qismini mulkdorlarga to'lash (aksiyalar, paylar, va ulushlar bo'yicha dividendlar) yil davomida deyarli amalga oshirilmaydi. Agar ayrim korxonalarining moliya siyosatida shunga o'xshash amaliyot ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda buning uchun foydani taqsimlash normasi belgilanadi.


Foydaning korxonani rivojlantirishga sarflanishi (kapital sarflar, uzoq muddatli ssudalarni qaytarish, moddiy ishlab chiqarish xazinalarining qo'shimcha o'sishi va b.) ikkita usulda amalga oshirilishi mumkin: fond usuli yoki foydani aniq xarajatlarni qoplash uchun yo'naltirish usuli. Qaysi usulni tanlash qishloq xo'jalik korxonasining hisob-moliya siyosati bilan aniqlanadi. Birinchi holda foydadan maxsus mo'ljallangan fondlar: jamg'arish fondi, ijtimoiy soha mablag'larining fondi, o'z aylanma mablag'lari fondi shakllantiriladi, boshqa holda esa foyda investitsion xarajatlarning aniq turlarini maxsus fondlar tashkil etmasdan qoplashni ta'minlaydi. Har qanday holatda (fond usulida ham, bevosita usulda ham) korxonani rivojlantirishga yo'naltirilgan foyda mulklar qiymatini ko'paytiradi, ya'ni kapitalning jamg'arilish jarayonida ishtirok etadi va taqsimlanmagan hisoblanadi. Taqsimlanmagan foydaning mavjudligi korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi va uning ichki rivojlanish sur'atlarini tavsiflaydi.

Ishlovchilarni moddiy rag'batlantirishga ajratiladigan foyda yollangan shaxslar va rahbar xodimlarni moddiy rag'batlantirish fondi yoki iste'mol fondini shakllantirishi, so'ngra mukofot to'lash, moddiy yordam ko'rsatish va shunga o'xshashlarni ta'minlashi mumkin.

Barcha yo'nalishlar bo'yicha sarflangan foyda summasi hamda uning jamg'ariladigan qismi har yili moliyaviy menejerlar taklifiga ko'ra korxonada mulkdorlari tomonidan aniqlanadi. Foydani taqsimlashning proporsiyalari xo'jalik yurituvchi subyektning strategiyasi va taktikasidan kelib chiqadigan maqsadlar – ishlab chiqarishni, inves-

titsiyalarni va shu kabilarni rivojlantirishni jadallashtirish bilan belgilanadi.

Haqiqiy (balans) foydasini taqsimlash yil davomida rejada belgilangani bo'yicha – rejadagi foydani taqsimlash budjetiga muvofiq amalga oshiriladi. Yil oxirida moliyaviy hisob qoidalariga muvofiq taqsimlanmagan foydaning haqiqiy hajmi va summasi aniqlanadi. U mulkdorlarning qarorlariga muvofiq istalgan maqsadga yo'naltirilishi mumkin. Moliya yili tugaganidan keyin 3 oy ichida uning sarflanishi to'g'risida qaror qabul qilinib, undan keyin mulkdorlar «Foydani taqsimlash to'g'risidagi hisobot»ni tasdiqlaydi. Qishloq xo'jalik korxonalarida haqiqiy (balans) foydasini taqsimlash tartibi 5.10-rasmda keltirilgan.



5.10-rasm. Qishloq xo'jalik korxonasida haqiqiy foydani taqsimlashning umumiy tartibi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat korxonaning soliqlar to'lanidan so'ng uning ixtiyorida qoladigan foydani taqsimlash jarayoniga aralashmaydi. Shunga qaramasdan, u foydaning sarflanishiga soliq imtiyozlari va qulayliklari (preferensiyalari) berish yo'li bilan bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat korxonasining pirovard maqsadi va xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi sof foyda hisoblanadi. Lekin yuqori inflatsiya, tako-

millashmagan soliqqa tortish tizimi agrar sohani kreditlash masalalaridagi kamchiliklar va ichki xo'jalik omillari (boshqaruvning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, mahsulotlarni sotishning sustligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi, bozor talablariga moslashmaganlik va h.) ko'p hollarda kutilayotgan foyda o'rninga zarar ko'rishga olib keladi. Zarar ko'rilgan taqdirda korxonaning xo'jalik faoliyat doiraviy aylanishiga safarbar qilingan mablag'lar to'lig'icha qaytmaydi. Zarur hollarda mulkdorlarning qaroriga muvofiq ko'rilgan zarar korxonaning balansidan o'chirilishi mumkin. Buning uchun moliya xizmati O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari», «Fermer xo'jaligi», «Mas'uliyati cheklanagan jamiyatlar» va boshqa qonunlar bilan belgilangan navbatga muvofiq har xil manbalardan foydalanishi mumkin.

Dastavval zarar rezerv kapitali hisobidan qoplanadi. Qishloq xo'jalik kooperativlarida zaxira kapitali yetishmaganida kooperativ a'zolari pay ulushlarining qo'shimcha o'sishi shu maqsadda ishlatilishi mumkin. So'ngra zararni qoplash uchun o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi balansdagi sof aylanma aktivlar doirasida yo'naltiriladi, ko'rsatilgan manbalar yetishmagan taqdirda zararni qoplash uchun qo'shilgan kapitaldan (uning asosiy vositalarni qayta baholashdan hosil bo'lgan qismidan tashqari) foydalaniladi. Ishlab chiqarish kooperativlarida zararlarni qoplash uchun qo'shimcha pay badallari ham jalb qilinishi, aksiyadorlik jamiyatlaridan tashqari, boshqa korxonalarda esa ta'sischilarning mablag'lari ham ishlatilishi mumkin.

Lekin xo'jalik yurituvchi subyektning zararlari uning balansidan faqat pul mablag'lariga oson aylantirilishi, likvidli sof aylanma mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda esa hisobdan chiqarilishi mumkin. Natijada, qishloq xo'jalik korxonasi qarzlarni to'lashi, kredit qarzlarini qaytarishi va o'z aylanma kapitalini shakllantirishi mumkin. Agarda, zararni qoplash uchun manbalar yetarli bo'lmasa, u korxonaning balansida qoladi va dastlabki yilda «hisobot yilining zarari», keyingi yillarda esa «o'tgan yillarning zarari» deb ko'rsatiladi. Kelgusi yillarda u yangidan olingan foyda hisobiga yoki ustav kapitalini kamaytirish hisobiga qoplanishi mumkin.

Shunday qilib, foydani taqsimlash pul ifodasidagi umumiy taqsimot munosabatlari tizimining ajralmas qismidir. U uch yo'nalishdan iborat: budget, korxonalar va mulkdorlar. Taqsimlash mexanizmi, budgetga to'lanadigan ajratmalardan tashqari, xo'jalik yuri-

tishning turli tashkiliy - huquqiy shakllarida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

5.3. Agrar sektorning har xil tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarida daromadlarning shakllanishi va foydani taqsimlash (zararlarni qoplash) xususiyatlari

Foydani davlat va xo'jalik yurituvchi subyekt o'rtasida taqsimlashning moliyaviy mexanizmi amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi va korxonaning tashkiliy-huquqiy shakliga bog'liq emas. Sof foydani taqsimlash tartibi uning egalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, unitar korxonalarining faoliyat ko'rsatish asoslari hamda maxsus me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining turli tashkiliy-huquqiy shakllari bilan bog'liq, sof foydani taqsimlash xususiyatlari foydani taqsimlash jarayonini boshqarish, foydaning ishlatilishi bo'yicha hisobot tuzish amallarida, mavjud zararlarni qoplash uchun o'z manbalarini ishlatish ketma-ketligi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Barcha qishloq xo'jalik korxonalarida sof foydani taqsimlash mulkdorlar ixtiyorida bo'ladi. Faqat to'la xo'jalik yuritish huquqidagi unitar korxonalarda foydani taqsimlash mehnat jamoasi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Unitar korxonalar mulkdori foydaning hukumat organiga yo'naltiradigan va korxonani rivojlantirish, xodimlarni rag'batlantirish va h. uchun qoldiriladigan proporsiyasini tasdiqlaydi. Foydaning ikkinchi qismi kelgusi yil uchun reja-buyurtma, kapital sarflar va ularni mablag' bilan ta'minlash manbalariga bo'lgan ehtiyojni korxonalar mulkdori bilan kelishilganidan so'ng mehnat jamoasining xohishiga ko'ra taqsimlanadi.

Foydaning taqsimlanishi va sarflanishi mulkdorlar tomonidan nazorat qilinadi. Ochiq aksiyadorlik jamiyatlari har yili moliyaviy hisobotini va auditorlik xulosasini e'lon qilishlari lozim. «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ning (2-shakl) alohida bo'limlarida quyidagilar aks ettiriladi. Aksiyadorlik jamiyati faoliyatining umumiy moliyaviy natijasi shakllanishi; yil davomida tasdiqlangan rejadagi yo'nalishlarga muvofiq foydaning ishlatilishi hamda rejada ko'zda tutilmagan, ammo foyda hisobidan moliyalashtirilgan haqiqiy xarajatlar (jarimalar, penyalar va sh.); yil davomida ishlatilmagan foydani taqsimlash bo'yicha takliflar. Ushbu hisobot moliya yili yakunidan

so'ng uch oy davomida o'tkaziladigan, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi. Qishloq xo'jalik kooperativlarida, aksiyadorlik jamiyatlaridagi kabi foydani taqsimlash (zararlarni qoplash) to'g'risidagi hisobotni tasdiqlashning tartibi belgilangan.

Qishloq xo'jalik korxonalarining sof foydasini taqsimlash va sarflash jarayonini davlat tomonidan tartibga solish har xil darajada va turli shakllarda namoyon bo'ladi. Davlat korxonalarida sof foydani taqsimlashning yo'nalishlari va miqdorlarini belgilash davlat tomonidan amalga oshiriladi. Butun sof foydaning qoldig'i, qoidaga ko'ra, davlat budjetiga o'tkaziladi. Boshqa tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonalarda davlat tomonidan tartibga solish katta yoki kichik darajada kuzatiladi, ammo buyruq shaklida amalga oshirilmaydi. Xususan, shirkatlar, jamiyatlar va kooperativlar uchun davlat qonunchiligi bilan sof foydani mulkdorlar o'rtasida taqsimlashda ma'lum cheklovlar belgilangan. Lekin cheklovlarning parametrlari xilma-xil.

Shirkatlar uchun ular, asosan xo'jalik yurituvchi subyekt sof aktivlarining hajmi bilan bog'liq. To'liq va to'liq bo'lmagan shirkatlar, agar sof aktivlarining qiymati ustav kapitalining hajmidan kam bo'lsa (yoki dividendlar to'langanidan so'ng kam bo'lsa) foydani mulkdorlar o'rtasida taqsimlash huquqiga ega emas.

Jamiyatlar quyidagi hollarda foydani mulkdorlar o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qila olmaydilar. Masalan, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat quyidagi hollarda dividend to'lay olmaydi, agar: ustav kapitali to'liq shakllantirilmagan bo'lsa; jamiyatdan chiqib ketgan ishtirokchilar (paychilar)ga ulush qiymati to'lanmagan bo'lsa; jamiyatning foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish paytida iqtisodiy nochorlik belgilari namoyon bo'lsa (yoki taqsimlaganidan so'ng iqtisodiy nochor holatga tushish ehtimoli bo'lsa); sof aktivlarining qiymati ustav yoki rezerv kapitalidan kam (yoki dividendlar to'langanidan so'ng kam bo'lishi mumkin) bo'lsa.

Aksiyadorlik jamiyatlari sof aktivlarini nafaqat ustav va rezerv kapitalining hajmi bilan, balki imtiyozli aksiyalarning tugatish qiymatini ularning nominal qiymatidan oshgan miqdori bilan ham taqqoslashlari lozim. Shuningdek, imtiyozli aksiyalar chiqargan aksiyadorlik jamiyatlari birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar va obligatsiyalar bo'yicha dividendlar to'lashni ta'minlashi hamda quyidagi qoidalarga rioya qilishi lozim: agar yil davomida oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'langan va ularning summasi imtiyozli aksiyalarga qaraganda yuqori

bo'lsa, u holda yil oxirida oddiy aksiyalar bo'yicha qo'shimcha dividendlar to'lash zarur.

Davlat tomonidan tartibga solish nafaqat foydani mulkdorlar o'rtasida taqsimlash, balki foydaning bir qismini rezervga ajratishda ham namoyon bo'ladi. Bu faqat aksiyadorlik jamiyatlari va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kooperativlarida namoyon bo'ladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida quyidagi normativlar o'rnatilgan: rezerv kapitali ustav kapitalini 15% dan kam bo'lmasligi va shuning uchun har yili foydadan qilinadigan ajratmalar rezerv kapitali shu miqdorgacha yetishi uchun jamiyat sof foydasining 5% dan kam bo'lmasligi lozim.

Aksiyadorlik jamiyatlarida zararlarni qoplash uchun o'z mablag'larini yo'naltirishning ketma-ketligi ham qonun bilan belgilanadi. Buning uchun asosan rezerv kapitalidan hisoblanadi.

Xo'jalik yuritishning turli tashkiliy-huquqiy shaklidagi qishloq xo'jalik korxonalarining foydasini taqsimlashning ko'rib chiqilgan barcha xususiyatlari moliyaviy natijalarni rejalashtirishda, dividendlarni taqsimlash va tezkor moliya ishlarida o'z aksini topadi.

5.4. Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalarini rejalashtirish

Moliyaviy natijalarni rejalashtirish—moliyaviy rejalashtirishning muhim qismi hisoblanadi. Moliyaviy natijalar budjeti ishlab chiqarish rejaları va marketing rejalariga asoslanadi. Agrar korxonada faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan moliyaviy natijalar rejasining ishlab chiqilganligiga bog'liq. Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillar moliyaviy natijalar rejasining bir necha variantlarini ishlab chiqishni talab etadi. Bular korxonaning bozordagi talab hajmiga (maksimal, o'rtacha, minimal) moslashishi hamda baho yoki xarajatlar darajasiga bog'liq. Ishlab chiqilgan variantlardan birisini tanlash esa korxonaning moliyaviy strategiyasiga bog'liq.

Korxonada tanlangan variantga muvofiq kelgusi yil uchun o'z faoliyatining moliyaviy natijasini rejalashtiradi. Korxonada moliya-xo'jalik faoliyatining turlari (asosiy, operatsion, moliyaviy), umumiy moliyaviy natija elementlari (yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi, umumxo'jalik foydasi, soliq to'lanishiga qadar bo'lgan foyda, sof foyda) rejalashtirish obyektlari hisoblanadi. Moliyaviy natijani rejalashtirishning asosiy bosqichi – mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinadigan foyda yoki zararni realizatsiya yo'nalishlari va

yil choraklari bo'yicha aniqlash hisoblanadi. Davr xarajatlari, moliyaviy faoliyatning daromad va xarajatlarini rejalashtirish umumiy moliyaviy natijani rejalashtirishning alohida bosqichini tashkil etadi. Qishloq xo'jalik korxonasi rahbariyatining qaroriga ko'ra, bu bosqichda asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotishdan hamda moliyaviy faoliyatdan olinadigan moliyaviy natijalar maxsus hisob-kitob qilinadi. Barcha faoliyat turlari bo'yicha daromadlar va xarajatlarni umumlashtirish va konsolidatsiyalangan (birlashtirilgan) moliyaviy natijalarni hisob-kitob qilish yakunlovchi bosqichda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan boshqaruv strategiyasi va taktikasiga ko'ra, prognoz shakli va mazmuni har xil bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish moliya faoliyatining biznes-rejasini tuzishda moliyaviy natijalar va yalpi daromad hisob-kitobini amalga oshiradi. Birinchi hisob-kitobni tuzishda yillik foyda yoki zararni (choraklarga bo'lib) aniqlashning umumqabul qilingan usulidan foydalaniladi: Solingan sof pul kirimlari – sotilgan mahsulotlarning tannarxi – davr xarajatlari + boshqa daromadlar + moliyaviy faoliyatning daromadlari – moliyaviy faoliyatning xarajatlari + ,(-) favqulodda foyda yoki zarar – daromad solig'i va boshqa soliqlar.

Yalpi daromad yangidan yaratilgan qiymat bo'lib, u yalpi mahsulotning qiymati bilan uni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat haqidan tashqari barcha moddiy va pul xarajatlarining farqi sifatida rejalashtiriladi. Yalpi mahsulotning qiymati hamma ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxiga sotishdan olingan foydani qo'shish, ko'rilgan zararni ayirish bilan aniqlanadi..

Moliyaviy natijalarning yakuniy hisob-kitobini tuzish uchun «Asosiy faoliyat moliyaviy natijalarining rejasi» va asosiy faoliyatning boshqa operatsiyalari hamda moliyaviy faoliyatdan kutilayotgan natijalarning yordamchi reja hisob-kitoblaridan foydalaniladi (5.2.1, 5.2.2 va 5.2.3 bo'limlarga qarang). Chorvachilik mahsulotlari, elita urug' va hokazolarni ishlab chiqarish bo'yicha dotatsiyalar va kompensatsiyalar, mahsulot birligi uchun ma'muriy organlar tomonidan belgilangan me'yorlar asosida rejalashtiriladi.

Agar korxonada boshqaruv obyekti sifatida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot modeliga o'xshash, faoliyat turlari bo'yicha oraliq moliyaviy natijalarni tanlasa, u holda umumiy moliyaviy natija rejasining shakli moliyaviy hisobotning 2-shakli «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»ga mos keladi.

Chetdan investitsiya jalb qilishni mo'ljallayotgan, yangidan tashkil etilgan korxonalar hamda qimmatli qog'ozlarning qo'shimcha emis-siyasini amalga oshirayotgan aksiyadorlik jamiyatlari «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot prognozi»ni 3 yilga oldindan tuzishi va kelgusi yil budjetini choraklarga bo'lingan holda tuzishi lozim. Oldindan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar uni faqat kelgusi yil uchun choraklar va oylarga bo'lgan holda tuzadilar.

Moliyaviy natijalar rejasi har qanday xo'jalik yurituvchi subyek-tning operatsion budjetlashtirishida asosiy moliyaviy budjetlardan biri hisoblanadi. «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl)ga mazmuni aynan o'xshash «moliyaviy natijalar rejasi» qoidaga ko'ra, uzoq muddatli kreditlarni olish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga davlat kafolatlarini olishni asoslash uchun tuziladi. Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligida korxonani rivojlantirish va investitsion loyihalarni asoslash ushbu reja inobatga olingan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bu davlatning va mahalliy hokimiyatlarning moliya struk-turalari asosiy soliq tushumlarini (foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, yagona soliq va h.) aniqroq prognoz qilish uchun talab etadi. Moliyaviy natijalar rejasi va kelgusi yil uchun tegishli reja (budjet) quyidagi axborotlarni o'z ichiga olishi mumkin (5.4-jadval).

Moliyaviy natijalar rejasi mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olingan pul kirimlari, ishlab chiqarish va davr xarajatlari hamda moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlarining rejadagi hisob-kitobi asosida tuziladi. Foyda (daromad) solig'i va boshqa soliqlar ham-da to'lovlar soliq qonunchiligiga asosan aniqlanadi. Moliyaviy natijalar prognozi va kelgusi yil uchun moliyaviy natijalar rejasi kelgusi yilda umumiy moliyaviy natijani shakllantiradigan daromadlar tarkibi to'g'risidagi axborotlarni olishga imkon beradi.

Kelgusi davr uchun sof foydaning sarflanishi foydani taqsimlash smetasini tuzish yo'li bilan rejalashtiriladi.

Foydaning har bir aniq maqsad uchun yo'naltiriladigan summasi amaldagi qonunchilik (rezerv kapitalini shakllantirish va dividendlar to'lash bo'yicha) va korxonaning moliya siyosatini hisobga olingan holda aniqlanadi. Bunda ajratmalarni talab va imkoniyatga qarab amalga oshirish prinsipi qo'llaniladi. Masalan, ishlab chiqarishni va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun foydadan qilinadigan ajratmalarga bo'lgan ehtiyoj kapital xarajatlar rejasi va o'z aylanma mablag'larini ko'-paytirish rejalarini hisobga olgan holda aniqlanadi. U yoki bu maqsad

uchun mablag' ajratish imkoniyati korxonada ixtiyorida qoladigan sof foydaning hajmiga bog'liq.

Moliyaviy natijalar rejasi (ming so'm hisobida)

5.4-jadval


satr	Ko'rsatkichlar nomi	O'tgan yilda	Joriy yil uchun				Jami
			shu jumladan choraklar bo'yicha				
			I	II	III	IV	
010	Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinadigan sof pul kiritmalari	83117787	2759300	2810300	4260000	2916400	12460000
020	Sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning tannarxi	5163060	1955460	1424800	2360400	1246300	6986960
030	Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinadigan yalpi foyda (010-020)	3148727	803840	1385500	1899600	1670100	5759040
040	Davr xarajatlari, jami (satr.050+060+070+080), shu jumladan:	942301	386800	403500	486200	439800	1716300
050	Sotish xarajatlari	63323	16400	16310	22360	17880	72950
060	Ma'muriy xarajatlar	77236	28750	32450	42600	36200	140000
070	Boshqa operatsion xarajatlar	801742	341650	354740	421240	385720	1503350
080	Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davrining xarajatlari	-	-	-	-	-	-
090	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	176322	-	-	-	-	-
100	Asosiy faoliyatning foydasi (satr.030-040+090)	2382748	417040	982000	1413400	1230300	4042740
110	Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (satr. 120+130+140+150+160), shu jumladan:	11799	12200	12500	12500	12800	50000
120	Dividendlar shaklidagi daromadlar	-	-	15	-	15	30
130	Foizlar shaklidagi daromadlar	-	4200	5300	5300	6200	21000
140	Uzoq muddatli tjara (lizing)dan olinadigan daromadlar	-	-	-	-	-	-

150	Valuta kursining farqidan olinadigan daromadlar	11799	8000	7185	7200	6585	28970
160	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	-	-	-	-	-	-
170	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (satr.180+190+200+210), shu jumladan:	-	32600	38900	46400	39900	157800
180	Foizlar shaklidagi xarajatlar	-	29440	35500	42700	36160	143800
190	Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	-	-	-	-	-	-
200	Valuta kursining farqidan ko'riladigan zararlar	-	2200	2200	2450	2850	9700
210	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajtlar	-	960	1200	1250	890	4300
220	Umumxo'jalik faoliyatning foydasi (zarari) (satr.100+110-170)	2218663	396640	955600	1379500	1203200	3934940
230	Favqulodda ko'riladigan foyda va zararlar	-	-	-	-	-	-
240	Daromad (foyda) solig'i to'lanishiga qadar bo'ladigan foyda (zarar) (satr.220+/-230)	2218663	396640	955600	1379500	1203200	3934940
250	Daromad (foyda) solig'i	25831	7600	8240	8400	8160	32400
260	Foydadan to'lanadigan boshqa soliq va yig'imlar	31099	8350	8800	9650	10000	36800
270	Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr.240-250-260)	2161733	380690	938560	1361450	1185040	3865740

Moliyaviy natijalarni va ularning sarflanishini rejalashtirish tartibi 5.11-rasmda ko'rsatilgan.

Qishloq xo'jalik korxonasi moliyaviy natijalari va ularni sarflashni rejalashtirish, yig'ma jadval tuzish bilan yakunlanadi. Ushbu jadval «Daromad va xarajatlar balansi» yoki «Moliyaviy resurslarning manbalari va ularni sarflash rejasi» deb atalishi mumkin va «shaxmat qaydnomasi» shaklida tuziladi. Balansning daromad qismida o'zining boshqa daromadlari va jalb qilingan resurslar bilan bir qatorda kor-

xonaning umumiy foydasi, xarajat qismida esa – uning sarflanishi ko'rsatiladi.



5.11-rasm. Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy natijalari va ularning sarflanishini rejalashtirish tartibi.

Shunday qilib, umumiy moliyaviy natijalarni va ularning sarflanishini rejalashtirish tartibi u yoki bu agrar korxonada doirasida amal qilayotgan boshqaruv tizimi, uning moliya siyosati bilan belgilanadi.

5.5. Daromadlarni shakllantirish va foydani ishlatishga doir tezkor ishlar

Daromadlarni shakllantirish va sarflash bo'yicha tezkor ishlarni amalga oshirishdan maqsad – mablag'larning o'z vaqtida va to'g'ri kirimini, ularning oqilona va samarali sarflanishini ta'minlashdan iborat. Buning uchun korxonada mahsulotlarni sotish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, xomashyolar, neft mahsulotlari, zaharli ximikatlar va boshqa tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish va sarflash hamda xodimlar mehnatiga haq to'lash va shu kabilar bilan bog'liq munosabatlarni tezkor rejalashtirish va tartibga solish ishlari amalga oshiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasi asosan kelgusi oy uchun sotishdan olinadigan moliyaviy natijalarning rejalari mahsulot turlari va sotish yo'nalishlari bo'yicha tuziladi. Bu sotish samaradorligini tahlil qilish, xaridorlar tarkibining o'zgarishi bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rish, sotishdan zarar ko'rishni bartaraf etish uchun sotish baholariga tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Agrar korxonalarining reja-iqtisod va moliya-hisob xizmatlarining xodimlari o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarning o'sish sur'atlarini kuzatib borishlari va mas'ul rahbarlarni xabardor qilib turishlari lozim. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan moliyaviy menejmentning maxsus operatsion va moliyaviy dastaklaridan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsion tahlil korxonaning assortiment, moliya va baho siyosatini o'z vaqtida tuzatish hamda mahsulotlar tannarxini pasaytirishga imkon beradi.

Barcha tezkor moliyaviy ishlarni o'z vaqtida to'g'irlab turish uchun *zararsizlik tahlili alohida* muhim ahamiyatga ega. Zararsizlik tahlili xarajat - sotish hajmi, foyda, doimiy (DX) va o'zgaruvchan (O'X) xarajatlarning asosiy faoliyat moliyaviy natijasiga ishlab chiqarish va sotish hajmi o'zgarganida turli darajada ta'sir qilishiga o'zaro bog'liqligi asoslangan.

Moliyaviy natija (foyda yoki zararni) aniqlash uchun sotishdan olingan sof pul kirimidan birin-ketin o'zgaruvchan xarajatlar ayiriladi (yalpi marja shakllantiriladi), so'ngra doimiy xarajatlar ayiriladi. Zarar ko'rmaslik nuqtasi (rentabellik ostonasi) –bu korxonada faoliyatini saqlab qolishi uchun hatlab o'tish lozim bo'lgan chegara (ostona) hisoblanadi. Bu chegarada korxonaning daromadlari uning barcha xarajatlarini qoplaydi, ammo foyda ham olinmaydi, zarar ham ko'rilmaydi. Zarar ko'rmaslik nuqtasiga (N_z) va rentabellik ostonasiga (RO) erishilganda

yalpi marja (YAM) faqat doimiy xarajatlarni qoplashgagina yetadi xalos, foyda esa nolga teng bo'ladi.

$$RO=DX : \frac{YAM}{M} \text{ (so'm),} \quad (5.7)$$

$$N_z = \frac{RO}{B_{1b}} \text{ (birl),} \quad (5.8)$$

yoki

$$N_z = \frac{DX}{B_{1birt} - O'X_{1birt}} \quad (5.9)$$

Bunda,

YAM – Yalpi marja; **M** – sotishdan olinadigan pul kirimi;

N_z – zarar ko'rmaslik nuqtasi; **RO** – rentabellik ostonasi;


DX – doimiy xarajatlar; **O'X** – o'zgaruvchan xarajatlar;

B_{1birt} – tovar birligining bahosi.

Rentabellik ostonasi (zararsizlik nuqtasi) past bo'lganida sotiladigan mahsulotning bahosi va unga bo'lgan talabning pasayishini yengil o'tkazish mumkin. Rentabellik ostonasidan o'tganidan so'ng foyda olayotgan korxonalar qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosini o'zgaruvchan xarajatlar darajasigacha, ya'ni *moliyaviy mustahkamlik zaxirasi* (MMZ) doirasida pasaytirishi mumkin:

$$MMZ=P_k-RO, \quad (5.10)$$

Bundan tashqari, rentabellik ostonasidan o'tilganidan so'ng agrar korxonada sotilgan tovarning har birligidan qo'shimcha yalpi marja va foyda olishi mumkin:



Qo'shimcha foydaning miqdori operatsion dastakning ta'sir kuchi (ODTK)ga bog'liq. U sotishdan olinadigan pul kirimlarining rejalashtirilayotgan o'sishidan yoki kamayishidan foyda qanchalik o'zgarishini ko'rsatadi:

$$ODTK = \frac{\text{Yalpi marja (} P_k - RO \text{ga teng)}}{\text{Foyda}} \quad (5.11)$$

Qanchalik doimiy xarajatlar va foyda kam bo'lsa, sotish hajmi rentabellik ostonasiga qanchalik yaqin bo'lsa, operatsion dastak shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatadi, demak, tadbirkorlik tavakkalchiligi ortadi va aksincha. Moliyaviy mustahkamlik zaxirasining mavjudligi va zararsizlik nuqtasidan uzoqlashish operatsion dastakning xavfli ta'sir kuchini yengillashdiradi. Operatsion dastakning ta'sir kuchi foyda, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning ma'lum nisbatiga asoslangan. Rejadagi xarajatlarning tarkibini o'zgartirish bilan foydani maqbullashtirish masalasini hal etish mumkin.

Operatsion dastakning amal qilishi va zararsizlik tahlili bilan bog'liq ko'rsatkichlar xarajatlarning puxta smetasini, sotishdan olinadigan pul kirimlari budjetini va mas'uliyat markazlari bo'yicha hamda butun korxonaga bo'yicha moliyaviy natijalarning budjetini tuzishga yordam beradi. Shuningdek, moliyaviy ishlarning daromadlar bilan bog'liq tegishli uchastkalarida tezkor nazoratni amalga oshirishga yordam beradi.

Korxonaga daromadlarining miqdori mahsulotlarni sotish hajmi, muddatlari va bahosiga bog'liq. Marketing bo'limi mahsulot sotishning korxonaga uchun eng foydali (oldindan tuzilgan shartnomalar bo'lmaganida) muddatlarini yoki davrlarini kuzatib borishi lozim. Bunda mahsulot sifatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Sotishdan pul kirimlari, foyda olinishi va uning sarflanishi ustidan olib boriladigan tezkor moliyaviy nazorat ishlari mahsulotlarni jo'natish, sotish va pul kelib tushishiga doir hisob, tijorat, to'lov hujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirishdan iborat.

Yil davomida sotishdan olingan pul kirimlari va foyda belgilangan smeta rejasiga muvofiq sarflanishi kerak.

Foydadan to'lovlar va ajratmalarning kalendar rejasiga asosan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilarga qarzlarni to'lash uchun mablag' izlanadi; soliq to'lovlari to'lanadi, uzoq muddatli ssudalar qarzlari hamda ularning foiz to'lovlarini to'lash kuzatib boriladi; dividendlarni hisoblash va to'lash ta'minlanadi va h. Pul mablag'lari kirimlari kalendarli rejasidan foydalanish xo'jalik shartnomalarini va moliya - kredit muassasalari oldidagi to'lov majburiyatlari bajarmaganligi uchun to'lanadigan jarimalar summasini kamaytirish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, daromadlarning shakllanishi va sarflanishi bo'yicha tezkor tadbirlarni samarali tashkil etish ichki imkoniyatlarni topishga yordam beradi, unumsiz yo'qotishlarning oldini oladi va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5.6. Agrar korxonalar daromadlarini va rentabelligini oshirish imkoniyatlari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrar sektorda bozor munosabatlarini qaror toptirish va yanada rivojlantirishning muhim shartlaridan biri korxonalarining ichki imkoniyatlarini aniqlash, xususan moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarishning shakl va usullarini takomillashtirishdan iborat. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, faqat tovar ishlab chiqaruvchilar rentabelli ishlab chiqarishga erishganlaridagina amalga oshishi mumkin.

Hozirgi sharoitda qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashuviga olib keladigan turli ichki omillar mavjud. Jumladan, aktivlar tarkibining nomutanosibligi, ishlab chiqarishni tashkil etishning samarasizligi, resurslardan oqilona foydalanmaslik hamda butun moliya-iqtisod ishlarining darajasining pastligi natijasida ko'p hollarda xo'jalikdagi mavjud cheklangan resurslar past rentabelli, hatto zarar ko'riladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadi. Bu holat ishlab chiqarish faoliyatining umumiy moliyaviy natijasi yomonlashuviga olib kelmoqda.

Shulardan kelib chiqib, iqtisodiyotning agrar sektorini yanada rivojlantirish, har bir qishloq xo'jalik korxonasida, butun tarmoqda raqobatbardosh mahsulotlarni zarur hajmda ishlab chiqarish va uning samaradorligini oshirish, daromadlarni shakllantirishning iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida rentabellikni oshirishning usullaridan biri qilinadigan xarajatlar evaziga eng yuqori foyda olish uchun qanday mahsulot turlarini va qancha hajmda ishlab chiqarishni ta'minlaydigan moliyaviy tadbirlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Bu qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mavsumiy xususiyatlarini va qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyat dasturiga qisqa muddat ichida tuzatish kiritish imkoniyatlarining yo'qligini hisobga olganda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz va xorij nazariyasi hamda amaliyotida moliyaviy muolajalarni ishlab chiqishda mezonlar sifatida tavsiya etilayotgan tahlil ko'rsatkichlari, resurslardan foydalanishning umumiy samarasini aks ettiruvchi, asosiy absolyut moliyaviy ko'rsatkich sifatida foyda ko'rsatkichini, moliyaviy natijaning nisbiy ko'rsatkichi sifatida rentabellik ko'rsatkichidan foydalanish afzalligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida foydaning asosiy manbasi ishlab chiqarish faoliyati bo'lib, uning natijaviyligi operatsion foyda, ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan foyda hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida operatsion foydaning shakllanishini boshqarish jarayonida uning yakuniy hajmini belgilaydigan asosiy omillarni va foydani yanada ko'paytirishning rezervlarini topish zarur.

Operatsion foydaning shakllanishini boshqarishda quyidagi uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: ekstropolatsiya uslubi, to'g'ri hisob-kitob uslubi, me'yoriy uslub, «CVP»⁵⁶ uslubi, omilli modellashtirish uslubi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi iqtisodiy muhit tez o'zgaradigan sharoitda qishloq xo'jalik korxonalari daromadlarining shakllanishini rejalashtirishda eng ishonchli uslub sifatida to'g'ri hisob-kitob uslubi, «CVP» uslubi va «CVP» uslubi bilan chambarchas bog'liq hamda mohiyatan uning ko'rinishlaridan biri hisoblangan omilli modellashtirish uslubi qo'llanilishi mumkin.

To'g'ri hisob-kitob usulini qo'llash eng aniq natijalar beradi. Ammo ishonchli natijaga ega bo'lish uchun katta miqdordagi axborotlarni to'plash va ishlov berish, mahsulot ishlab chiqarish hajmining har bir varianti uchun alohida hisob-kitoblarni amalga oshirish talab qilinadi. Shuningdek, bunda variantlarning bir qismi tahlil qilinmasdan qolishi mumkin. Shu boisdan to'g'ri hisob-kitob usulini qo'llash amaliyotda qiyin kechmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalari moliyaviy natijalarini shakllantirishni rejalashtirish uchun «CVP» usuli eng qulay hisoblanadi. Ushbu usul foyda ko'rsatkichining daromad va xarajatlarning miqdori hamda mahsulot sotish hajmi bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olishga asoslangan bo'lib, operatsion foydaning shakllanishida ayrim omillarning rolini ko'rsatish, korxonada rejalarni puxta tuzish va ushbu jarayonni samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Operatsion foydani rejalashtirishda «CVP» usulini qo'llash natijasida korxonaning zararsiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan sotish hajmini («zararsizlik nuqtasi»ni) aniqlash va sotishdan olinadigan foydani bashorat qilish (prognozlash) imkoniyati ta'minlanadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari va ularning tarkibi, mahsulot, ish va xizmatlarning bahosi boshqariladigan omillar hisoblanadi.

⁵⁶ cost -volume- profit (CVP) analysis: xarajalar - ishlab chiqarish hajmi - foyda bog'liqligining tahlili, zarar ko'rmaslik tahlili.

Ishlab chiqarish hajmiga ko'ra o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bo'linish belgisi bo'yicha ayrim xarajat turlarining o'zga-rishidagi farqlar «CVP» usulini qo'llashda birlamchi uslubiy qoida hisoblanadi.

Operatsion foydaning shakllanishini rejalashtirish uchun «CVP» usulidan foydalanish operatsion dastak (leveridj) ko'rsatkichi bilan to'ldirilishi mumkin. Bu ko'rsatkich ham doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning ta'sirini alohida hisobga olishga asoslangan, tannarx tarkibini va mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish yo'li bilan foyda hajmiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini tavsiflaydi. Bunda operatsion foydaning o'zgarishi mahsulot sotish hajmining o'zgarishiga qaraganda yuqoriroq sur'atlarda sodir bo'ladi. Ammo, foydaning shakllanishini rejalashtirish uchun «CVP» usulidan foydalanish ham mahsulotlarning eng rentabelli cheklangan turini aniqlash uchun zarur bo'lgan qiyosiy tahlil mahsulot hajmining har bir varianti uchun rentabellik ko'rsatkichini hisoblashni talab qiladi. Bu esa ancha sermehnat jarayon va ishlab chiqarish hajmining ruxsat etilgan diapazonida barcha variantlarni to'liq hisobga olishga imkon bermaydi. Operatsion dastak samarasini hisoblashda ham barcha o'zgarishlar aniq ishlab chiqarish hajmiga nisbatan aniqlanadi.

Shuning uchun mahsulotlarning har xil turlarini ishlab chiqarish samaradorligini qiyosiy tahlil qilish jarayonini maqbullashtirish uchun ilmiy izlanishlarda qo'shimcha ko'rsatkich – «chegaraviy rentabellik» ko'rsatkichini qo'llash zarurligi asoslangan.

«Chegaraviy rentabellik» ko'rsatkichini hisoblashda xarajatlar, sotishdan olinadigan pul kirimlari va foydaning o'zgarishi hisobga olinadi.

Ushbu ko'rsatkich rentabellikning o'sish tezligini tavsiflaydi va bir vaqtning o'zida muayyan mahsulot turini ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan shart-sharoitlarda erishish mumkin bo'lgan chegaraviy rentabellik darajasini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkichni hisob-kitob qilish uchun quyidagi formula tavsifiya qilinadi:

$$CHR_{\text{u}} = \frac{\Delta F_m}{\Delta X_m}, \quad (5.12)$$

bunda,

CHR_m – mahsulot turi bo'yicha «chegaraviy rentabellik» ko'rsatkichi;

ΔF_m – foydaning qo'shimcha o'sishi;

ΔX_m – xarajatlarning qo'shimcha o'sishi.

Foydaning qo'shimcha o'sishi (ΔF_m) ishlab chiqarish hajmi oshganida foydaning ko'payish miqdorini ifodalaydi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta F_m = F_m^{(n+1)} - F_m^n, \quad (5.13)$$

bunda:

$F_m^{(n+1)}$ – $(p+1)$ hajmdagi mahsulotni sotishdan olingan foyda;

F_m^n – p – hajmdagi mahsulotni sotishdan olingan foyda.

Xarajatlarning qo'shimcha o'sishi (ΔX_m) ishlab chiqarish hajmlari oshganida xarajatlarning ko'payishini ifodalaydi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:


$$\Delta X_m = X_m^{(n+1)} - X_m^n, \quad (5.14)$$

bunda,

$X_m^{(n+1)}$ – $(p+1)$ hajmdagi mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari;

X_m^n – p – hajmdagi mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari.

Chegaraviy rentabellik ko'rsatkichi har bir mahsulot uchun xarajatlar va bahoning har xil birikmalarida hisoblab chiqilishi mumkin. Bunda uning miqdori ishlab chiqarish hajmi o'zgarganida o'zgarmasdan qoladi (5.12-rasm).



5.12-rasm. Muayyan mahsulot turining ishlab chiqarish rentabelligi (R_m) va chegaraviy rentabellik (CH) ko'rsatkichlarining o'zgarishi.

Chegaraviy rentabellik ko'rsatkichi qanchalik yuqori bo'lsa, boshqa teng sharoitlarda, mahsulot turini ishlab chiqarish shunchalik afzalroq. Chunki bu holda foydaning o'sish sur'ati, ishlab chiqarish hajmi oshganida yuqori bo'ladi.

Chegaraviy rentabellik ko'rsatkichi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan operatsion xarajatlar o'zgaruvchan qismining miqdori va bahoga bog'liq bo'lib, ularning o'zgarishiga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

- mahsulot birligiga to'g'ri keladigan operatsion xarajatlarning o'zgaruvchan qismi pasayganida o'sadi va aksincha, u ko'payganida pasayadi;

- sotiladigan mahsulot, ish va xizmatlarning bahosi oshganida o'sadi va u tushganida pasayadi;

- mahsulot birligiga to'g'ri keladigan operatsion xarajatlarning o'zgaruvchan qismi va ushbu mahsulotning sotish bahosi teng bo'lganida u nolga teng bo'ladi;

mahsulot birligiga to'g'ri keladigan operatsion xarajatlarning o'zgaruvchan qismi uning sotish bahosidan yuqori bo'lganida salbiy qiymatga ega bo'ladi.

Shuningdek, chegaraviy rentabellik ko'rsatkichi operatsion xarajatlarning doimiy qismiga bog'liq bo'lmasdan, mahsulot ishlab chiqarishning har xil hajmlarida ham o'zgaras bo'lib qoladi.

Chegaraviy rentabellik ko'rsatkichining ushbu xususiyatini mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish samaradorligini qiyosiy tahlil qilishda ham qo'llash tavsiya qilindi. Bunda chegaraviy rentabellik ko'rsatkichi faqat rentabellik ko'rsatkichiga qo'shimcha sifatida ishlatilishi lozim.

Rentabellik ko'rsatkichlari va mahsulot turlarining chegaraviy rentabellik ko'rsatkichlarini birlashtirish (5.13-rasm) quyidagi variantlarda namoyon bo'lishi mumkin (A va V taqqoslanadigan mahsulot turlari) (5.5-jadval):


Mahsulot turlari bo'yicha rentabellik va chegaraviy rentabellik ko'rsatkichlarini birlashtirish variantlari

5.5-jadval

Ko'rsatkichlar	I variant	II variant	III variant
R	$R_A > R_B$	$R_A > R_B$	$R_A = R_B$
CHR	$CHR_A > CHR_B$	$CHR_A < CHR_B$	$CHR_A > (<) CHR_B$
Xulosalar	A mahsulotni ishlab chiqarish afzalroq	Qo'shimcha hisob-kitob talab qilinadi	Qo'shimcha hisob-kitob talab qilinadi

Birinchi variant. «A» mahsulotni ishlab chiqarishda rentabellik ko'rsatkichi va «chegaraviy rentabellik» ko'rsatkichi «V» mahsulotni ishlab chiqarishga qaraganda yuqori. Bu holda, boshqa barcha sharoitlar bir xil bo'lganida, «A» mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirish eng maqsadga muvofiq hisoblanib, unda ikkala ko'rsatkich (R_m , CHR_m) qiymati ham yuqori bo'ladi.

Ikkinchi variant. «A» mahsulotni ishlab chiqarishda rentabellik ko'rsatkichi «V» mahsulotni ishlab chiqarishga qaraganda yuqori. Ammo chegaraviy rentabellik, aksincha, «V» mahsulotni ishlab chiqarishda yuqori. Bunday vaziyatda u yoki bu mahsulot turini ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish qiyinlashadi. Bunda «A» mahsulotni qanday hajmda ishlab chiqarish eng rentabelli va «V» mahsulotni qanday hajmda ishlab chiqarish eng rentabelli ekanligini aniqlash uchun qo'shimcha hisob-kitob ishlarini bajarish zarur. Qo'shimcha hisob-kitoblarni kesishish nuqtasini topish (S nuqta) va unga mos keladigan ko'rsatkichlarni aniqlashdan iborat.




5.13-rasm. Ikki turdagi mahsulot ishlab chiqarishda rentabellik ko'rsatkichlari (R_m) va chegaraviy rentabellik (CHR_m) ko'rsatkichlarining aloqadorligi.

Uchinchi variant. «A» mahsulotni ishlab chiqarishning rentabellik ko'rsatkichi «V» mahsulotni ishlab chiqarish rentabelligiga teng bo'lib, ularning chegaraviy rentabelliklari esa har xil. Ushbu variant birinchi yoki ikkinchi variantning xususiy holati bo'lib, chunki ishlab chiqarishning mazkur hajmida rentabellik ko'rsatkichlari teng (S nuqta), ammo ularning har qanday o'zgarishida bitta mahsulot turining rentabelligi boshqa mahsulot turining rentabelligidan oshadi (yoki pasayadi).

Mahsulot turlari bo'yicha rentabellik (R_m) va chegaraviy rentabellik (CHR_m) ko'rsatkichlarining har xil variantlarini o'rganishdan olingan natijalar, ularning ishlab chiqarish samaradorligini taqqoslash va raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan mahsulot turini tanlashga imkon beradi.

Chegaraviy rentabellik ko'rsatkichidan amalda foydalanish uchun uni hisob-kitob qilish ketma-ketligi ishlab chiqildi. U quyidagi bloklardan iborat (5.14-rasm):



5.14-rasm. Chegaraviy rentabellik ko'rsatkichini hisoblash ketma-ketligi.

«CVP» tizimida ishlatiladigan cheklovlarga o'xshash shartlar va cheklovlar chegaraviy rentabellik ko'rsatkichini hisob-kitob qilishda inobatga olinishi zarur:


1. Hisob-kitob har bir mahsulot turi bo'yicha alohida amalga oshiriladi.

2. Hisob-kitob ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining relevant diapazonida amalga oshiriladi.

3. Sotish hajmini aniqlash korxonaga nisbatan faqat tashqi bozorda amalga oshiriladi.

4. Ishlab chiqarilgan tovar to'liq sotiladi.

5. Mahsulotlar korxonada bir mas'uliyat markazidan ikkinchisiga haqiqiy tannarxi bo'yicha baholanadi.



5.15-rasm. Qishloq xo'jalik korxonalarida chegaraviy rentabellik ko'rsatkichi asosida ishlab chiqarish dasturini tuzish tartibi.

Mahsulot turlarining chegaraviy rentabellik ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish va qiyosiy tahlil natijalari bo'yicha qaysi mahsulot turi erishilgan hajmda ishlab chiqarish va qaysilarini ko'paytirishning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

Chegaraviy rentabellik ko'rsatkichini qo'llash asosida qishloq xo'jalik korxonalari moliya-xo'jalik faoliyatining samaradorligini oshirish mumkin.

Ushbu tavsiya qilinayotgan uslub moliyaviy tahlil usullariga asoslangan mahsulot turlarini aniqlash algoritmini, ularning ishlab chiqarish sharoitlarini tahlili qilishga doir uslubiy qoidalarni, ishlab chiqarish hajmlarini maqbullashtirish qoidalarini, korxonaga bo'yicha ishlab chiqarish dasturining maqbul variantini tanlash mexanizmini o'z ichiga oladi (5.15-rasm).

Ishlab chiqarish dasturining tanlangan varianti korxonada ishlab chiqiladigan rejalarning boshqa turlarini tayyorlashda asos qilib olinadi.

Nazorat savollari

1. Agrar korxonalarining daromadlari va moliyaviy natijalarining umumiyliigi va farqlarini izohlang.
2. Moliyaviy natijani shakllantirishning mumkin bo'lgan variantlarini bayon qiling.
3. Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlarni bajarishdan olinadigan pul kirimlari iqtisodiy mazmunini va nimaga belgilanganligini tushuntiring.
4. Sotishdan olinadigan pul kirimlarini rejalashtirishning maqsadi va uslubi qanday?
5. Moliya ishlarida asosiy faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni rejalashtirishning qanday sxemalari qo'llaniladi?
6. Agrar korxonalarining xo'jalik faoliyati jarayonida vujudga keladigan boshqa daromadlar va xarajatlarni tavsiflang.
7. Agrar korxonalar faoliyatining umumiy moliyaviy natijasini shakllantirishning amaldagi mexanizmini bayon qiling.
8. Agrar korxonalarda foydani taqsimlash va ishlatish tartibi qanday?
9. Turli tashkiliy-iqtisodiy shakldagi agrar korxonalarda foydani taqsimlashning xususiyatlarini ayting.
10. Foydani shakllantirish, taqsimlash va sarflash bilan bog'liq tezkor moliyaviy ishlarning mazmuni nimadan iborat?
11. Operatsion dastak tushunchasi daromadlar bo'yicha tezkor moliyaviy ishlarda qanday qo'llaniladi?
12. Rentabellik va chegaraviy rentabellik tushunchalarini ta'riflang.

Nazorat testlari

1. Xarajatlarni rejalashtirish usullari:

- A) kalkulyatsiya usuli, indikativ usul, operatsion budjetlashtirish usuli, sof tushumdan foiz usuli.
- B) me'yoriy usul, inventarizatsiya usuli.
- C) balans metodi, indikativ metod, logistik metod.
- D) kalkulyatsiya metodi, hisob-kitob metodi, koeffitsiyentli metod.
- E) «Sof tushumdan foiz» metodi, induksiya va deduksiya metodlari.

2. Korxonalarining asosiy faoliyatidan olinadigan foyda

- A) Sotishdan olingan yalpi foydadan davr xarajatlari ayriladi.
- B) Sotishdan olinadigan yalpi foydadan davr xarajatlari ayriladi va asosiy faoliyatning boshqa daromadlari qo'shiladi.
- C) Sotishdan olinadigan jami pul kirimidan sotilgan mahsulotlarning tannarxi ayriladi.
- D) Sotishdan olinadigan jami pul kirimidan sotilgan mahsulotlarning tannarxi va asosiy faoliyatning turli zararlari ayriladi.
- E) Sotishdan olinadigan yalpi foydaga asosiy faoliyatning turli daromadlari qo'shiladi.

3. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlariga nimalar kiradi?

- A) Royalti va boshqa korxonalarining faoliyatida hissa qo'shib ishtirok qilishdan olinadigan daromadlar.
- B) Asosiy vositalarni va boshqa mulklarni sotishdan olingan daromadlar, undirilgan jarimalar, yordamchi xo'jalikdan olingan daromadlar, da'vo muddati o'tgan kreditor va deponent qarzlarini hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar.
- C) Kreditor va deponent qarzlarini hisobdan chiqarishdan, mulklarni uzoq muddat ijaraga berishdan olinadigan daromadlar va boshqalar.
- D) Korxonaning yordamchi xo'jaliklaridan, boshqa korxonalarining faoliyatiga hissa qo'shib ishtirok qilishdan olinadigan daromadlar va boshqalar.
- E) Boshqa korxonalaridan undirilgan jarimalar, olingan dividend, foiz to'lovlari va boshqalar.

4. Qishloq xo'jalik korxonasining yalpi daromadi to'g'risida tushuncha

- A) Bu sotishdan olingan sof pul kirimi.

- B) Bu yangidan yaratilgan qiymat.
- C) Bu yalpi mahsulotning qiymati.
- D) Bu moddiy, pul va mehnat xarajatlari.
- E) Bu umum xo'jalik faoliyatining foydasi.

5. Korxonalarining yalpi foydasi

- A) Sotishdan olingan jami pul kirimidan ish haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalarini ayirish bilan aniqlanadi.
- B) Sotishdan olingan jami kirimdan sotilgan mahsulotlarning tannarxini ayirish bilan aniqlanadi.
- C) Sotishdan olingan jami pul kirimidan hamma moddiy va pul xarajatlari ayirish bilan aniqlanadi.
- D) Sotishdan olingan sof pul kirimidan sotilgan mahsulotlarning tannarxini ayirish bilan aniqlanadi.
- E) Sotishdan olingan jami pul kirimidan to'g'ri va egri soliqlarni ayirish bilan aniqlanadi.

6. Korxonalarda moliyaviy faoliyat xarajatlari

- A) Mahsulot sotish, asosiy vositalarni va boshqa mulklarni sotishdan, debitor qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zarar.
- B) To'langan jarimalar, qisqa muddatli kredit bo'yicha to'langan foiz to'lovlari, uzoq muddatli ijara xarajatlari.
- C) Qisqa muddatli kredit uchun to'langan foiz to'lovlari, uzoq muddatli ijara xarajatlari, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish xarajatlari.
- D) Xorijiy valuta operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar, asosiy vositalar va boshqa mulklarni sotishdan ko'rilgan zararlar, mahsulot sotish xarajatlari.
- E) Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish xarajatlari, xorijiy valuta operatsiyalaridan ko'riladigan zararlar, debitor qarzlarni hisobdan chiqarishdan hamda asosiy vositalarni sotishdan ko'riladigan zararlar.

7. Korxonalarda moliya faoliyatining daromadlari

- A) Undirilgan jarimalar, royalti, korxonalarining yordamchi tarmoqlaridan olinadigan daromadlar, asosiy vositalar va boshqa mulklarni sotishdan olinadigan daromadlar.
- B) Da'vo muddati o'tgan kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar, royalti, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olinadigan daromadlar.

C) Asosiy vositalar va boshqa mulklarni sotishdan olinadigan daromadlar, boshqa korxonalarining faoliyatida hissa qo'shib qatnashishdan olinadigan daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar, obligatsiyalar bo'yicha foiz to'lovlari.

D) Mulklarni uzoq muddatli ijaraga berishdan olinadigan daromadlar, asosiy vositalar va boshqa mulklarni sotishdan olinadigan, kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar, royalti.

E) Royalti, olinadigan dividend va foiz to'lovlari, mulklarni uzoq muddatga ijaraga berishdan, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olinadigan daromadlar.

8. Sotishdan olingan sof pul kirimlari qanday aniqlanadi?

A) Sotishdan olingan jami pul kirimlaridan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari ayriladi.

B) Sotishdan olingan jami pul kirimlaridan egri soliqlar ayriladi.

C) Sotishdan olingan jami pul kirimlaridan hamma moddiy xarajatlar va egri soliqlar ayriladi.

D) Sotishdan olingan jami pul kirimlaridan hamma moddiy va pul xarajatlar hamda to'g'ri soliqlar ayriladi.

E) Sotishdan olingan jami pul kirimlaridan moddiy va pul xarajatlari ayriladi.

9. Uzoq muddatli moliyaviy xarajatlarga nimalar kiradi?

A) Moliyaviy lizing huquqi asosida uzoq muddatga ijaraga berilgan mulklarning qiymati, tugallanmagan qurilish xarajatlari.

B) Uskunalar sotib olish xarajatlari, boshqa korxonalarining ustav kapitalida hissa qo'shib qatnashish xarajatlari.

C) Boshqa korxonalarining ustav kapitaliga hissa qo'shib qatnashish xarajatlari, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar sotib olish xarajatlari, ijaraga berilgan mulklarning qiymati.

D) Ijaraga berilgan mulklarning qiymati, uskunalar sotib olish xarajatlari, qimmatli qog'ozlar sotib olish xarajatlari.

E) Tugallanmagan qurilish xarajatlari, uskunalar va qimmatli qog'ozlar sotib olish xarajatlari.

VI bob. AGRAR KORXONALAR AYLANMA KAPITALINI TASHKIL ETISH VA UNDA FOYDALANISH

6.1. Aylanma kapital, uning mohiyati va korxonaning ishlab chiqarish – tijorat faoliyatidagi roli

Agrar korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyati foyda olish va ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan, xaridorgir mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatni ta'minlaydigan, uzoq muddatli va joriy (aylanma) aktivlarga qo'yilgan operatsion kapital ikkita: asosiy va aylanma kapital shaklida namoyon bo'ladi. Ular doiraviy aylanishda har xil xususiyatlarga ega va tayyor mahsulot tannarxi shakllanishida turlicha ishtirok etadi.

Korxonaning *asosiy kapitali* – uning asosiy ishlab chiqarish fondlari. Ularning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular tayyor mahsulot (ish, xizmat) tannarxini shakllantirishda amortizatsiya orqali ishtirok etib, uning hajmi hisoblangan eskirish summasiga tengdir. Mahsulot (ish, xizmat) realizatsiya qilinganidan so'ng, boshqa uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan birga asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Yaqin vaqtlargacha amortizatsiya ajratmalari mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasidan olingan pul mablag'larining bir qismi sifatida xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan boshqa maqsadlarga – xomashyo sotib olish, ish haqi to'lash, mukofot, soliqlarni to'lash va sh.o'., ya'ni asosiy faoliyatni moliyalashtirishga sarflanar edi.

Aylanma kapital xo'jalik jarayonlarida turlicha ishtirok etadi va aktivlarning xilma-xil ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Uning ishlab chiqarish sohasiga xizmat ko'rsatadigan mehnat predmetlari ko'rinishida faqat bitta ishlab chiqarish siklida ishtirok etadigan va o'z qiymatini ishlab chiqariladigan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga to'liq o'tkazadigan qismi *ishlab chiqarish sohasidagi aylanma kapital* deb ataladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma kapital tarkibiga ko'ra, umumiy kapitalning yangi qiymat yaratish maqsadida bitta ishlab chiqarish sikliga sarflangan qismi hisoblanadi. Ammo, ishlab chiqarish

siklining tugashi kapital doiraviy aylanishining yakunlanganligini bildirmaydi. Doiraviy aylanish muomala sohasida, ya'ni mahsulot (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish bosqichida yakunlanadi. Ushbu bosqichda tayyor mahsulot (ish, xizmat)lar qiymatining pul mablag'lariga aylanishi sodir bo'ladi. Agrar korxonada ikkala sohani (ishlab chiqarish va muomala) birlashtirib, mablag'lar doiraviy aylanishini amalga oshiradigan kapital – *muomala sohasidagi aylanma kapital* deyiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma kapital va muomala sohasidagi aylanma kapitalning funksiyalari har xil.

Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma kapital ishlab chiqarish siklining uzluksizligini ta'minlaydi, muomala sohasidagi aylanma kapital esa korxonada mablag'lari doiraviy aylanishining yakunlanishi va yangi ishlab chiqarish jarayonining boshlanishi uchun sharoit yaratadi hamda muomala sohasini moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Shuning uchun xomashyo, yoqilg'i, xodimlar ish haqi va boshqa ishlab chiqarish sarflari hamda asosiy vositalarning eskirishi ko'rinishida jamg'arma yaratishga sarflangan aylanma ishlab chiqarish kapitali ishlab chiqarish funksiyasini bajaradi. Muomala sohasidagi aylanma kapital esa hisoblashuv-to'lov funksiyasini bajaradi (ya'ni bir tomondan, u xaridorlar bilan hisob-kitoblarni, ikkinchi tomondan esa realizatsiyadan olingan tushum hisobidan mol yetkazib beruvchilarning schotlarini to'lash, ish haqi to'lash, soliq majburiyatlarini to'lash va hokazolarni ta'minlaydi). Faqat aylanma ishlab chiqarish kapitali va muomala sohasidagi kapitalning birgalikdagi ishtirokigina korxonada xo'jalik faoliyatini amalga oshirishga imkon yaratadi.


Demak, aylanma kapital – bu bir ishlab chiqarish-tijorat sikliga sarflangan aylanma ishlab chiqarish aktivlari va muomala sohasidagi aktivlar ko'rinishidagi moliyaviy va kredit resurslarining to'plami (aylanma kapitalning mohiyatini ochib beradigan xususiyatlari 6.2 (6.2.1.,6.2.2) bo'limda keltirilgan). Doiraviy aylanishda sarflangan kapitalning qiymati ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga va undan teskarisiga uzluksiz ravishda o'tib turadi. Bunda u har xil moddiy– buyumlashgan shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'simlikchilik va chorvachilik uchun urug'lik, ozuqa, neft mahsulotlari, o'g'it, zaharli ximikatlar, gerbitsitlar va boshqalar ko'rinishidagi ishlab chiqarish zaxiralari zarur. Keyinchalik ular ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladi va qiymati tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining elementlaridan biriga ko'chib o'tadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar chiqishi, ular xaridorlarga jo'natilib, debitor qarzlari vujudga kelishi va qarzlari undirilganidan so'ng pul mablag'lari vujudga kelishi bilan yakunlanadi. Bunda aylanma mablag'lar iste'mol qilinmaydi (ya'ni yo'qolib ketmaydi), balki ular qiymati korxonada joriy xarajatlarining har xil ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Mahsulot sotishdan tushumning olinishiga qarab sarflangan kapitalning qoplanishi va uning dastlabki miqdorigacha ko'payishi sodir bo'ladi. Sarflangan summa olingan tushum hisobidan to'liq hajmda tiklanishi lozim. Aks holda aylanma kapitalning yo'qolishiga (yeyilishiga) olib keladi.

Sarflangan qiymatning «qisqarish» sababi mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan zarar ko'rish, tayyor mahsulotlar va ishlab chiqarish zaxiralarining tabiiy ofatlardan nobud bo'lishi, xaridorlarning bankrot bo'lishi, aylanma aktivlarning uzoq muddatli aktivlar qatoriga o'tkazilishi va boshqalar bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish – tijorat sikliga sarflangan mablag'lar summasi realizatsiyadan olingan tushumdan oshib ketganida, aylanma kapital yo'qotilishi (yeyilishi) sodir bo'ladi. Mahsulotlar haqiqiy tannarxidan yuqori bahoda sotilganida sarflangan kapitalni to'liq tiklash va foyda olishga erishiladi.

Mahsulot realizatsiyasidan olingan tushum va uni ishlab chiqarish hamda sotish uchun sarflangan aylanma kapital o'rtasidagi farq – olingan naf (yoki yo'qotish), ya'ni asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi hisoblanadi. Asosiy faoliyatdan foyda olgan korxonada keyingi ishlab chiqarish – tijorat sikliga sarflash uchun yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Aylanma kapital doimiy harakatda bo'lib, uzluksiz doiraviy aylanishda uchta bosqich: *ta'minot*, *ishlab chiqarish* va *realizatsiya* bosqichlaridan o'tadi (6.1-rasm).



6.1-rasm. Aylanma kapital doiraviy aylanishining uch bosqichi.

Doiraviy aylanishning birinchi bosqichida (P-T) aylanma kapital pul shaklidan ishlab chiqarish zaxiralari shakliga o'tadi. Ta'minot

bosqichida ishlab chiqarish zaxiralarini boshqarish va ularni qoplash manbalarining maqbul tarkibini shakllantirish amalga oshiriladi. Zaxiralarning har bir turini maqbullashtirish murakkab muammo hisoblanadi. Ortiqcha zaxiralar ularni saqlash va tabiiy kamayish bilan bog'liq sarflarning o'sishiga olib keladi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini oshiradi va foydani pasaytiradi. Boshqa tomondan, xomashyo va materiallar zaxirasining taqchilligi ishlab chiqarish va sotish hajmining pasayishi, ishlab chiqarishdagi uzilishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zaxiralarni boshqarish moliyaviy masalalarni hal etishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish zaxiralari korxonaning o'z mablag'lari, qarzga olingan mablag'lar va chetdan jalb qilingan manbalar hisobidan shakllantirilishi mumkin. Har bir korxonada ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olish manbalarining tarkibi uning moliyaviy ahvoli, xususiy kapitalning qiymati, kreditlari va qarzlarga bog'liq. Aylanma kapitalning maqbul tarkibini shakllantirish mol yetkazib beruvchilar bilan o'z vaqtida hisoblashish, ssudalar va qarzlarni so'ndirish hamda o'z resurslaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan, *doiraviy aylanishning ikkinchi bosqichida* (T'-I-ch- T') moddiy zaxiralar xo'jalik yurituvchi subyektning tegishli bo'linmalariga beriladi. Ular mehnat vositalari va ishchi kuchi bilan birgalikda yangi mahsulotni yaratishda ishtirok etadi. Ishlab chiqarilgan tovarning qiymati oldin yaratilgan va yangidan yaratilgan qiymatdan iborat. Uning iste'mol qiymati esa – ishlab chiqarishda foydalanilgan tovar zaxiralari va asosiy vositalarning xususiyatlaridan farq qiladigan jihatlariga ega. Ushbu bosqichda moliyaviy boshqarishning maqsadi – barcha joriy to'lovlarni (ishchi va xizmatchilarga, mol yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga, ijtimoiy fondlarga va hokazolarga to'lovlarni) pul fondlari bilan ta'minlashdan iborat.

Doiraviy aylanishning uchinchi bosqichida (T'-P') mahsulot (ish, xizmat)larni sotish amalga oshiriladi, xaridorlar bilan hisob-kitoblar yakunlanadi va pul mablag'lari kelib tushadi. Bunda sarflangan kapitalning qiymati ishlab chiqarish bosqichidan muomala bosqichiga o'tadi va yana pul mablag'lari shaklini qabul qiladi. Tayyor mahsulotlarni sotish jarayonida eng foydali sotish yo'nalishlari va baholari aniqlanadi, tijorat bitimlari tuziladi, naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari tanlanadi, naqd pullarni tezkor boshqarish tadbirlari amalga oshiriladi.

Shunday qilib, korxonaning ishlab chiqarish – tijorat faoliyati aylanma kapitalning uzluksiz harakati sifatida namoyon bo'ladi. Bitta doiraviy aylanish yakunlanganidan so'ng, aylanma aktivlar yangi ko'rinishga o'tadi. Doiraviy aylanish uzluksiz sodir bo'ladi. Aylanma kapitalning harakatlanishi agar korxonalar xo'jalik muomalalarining barcha bo'g'inlariga taalluqlidir: ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olish, ularni ishlab chiqarishga berish, xodimlar mehnatiga haq to'lash, soliqlar va to'lovlar bo'yicha soliq organlari bilan o'zaro munosabatlar, mahsulotlarni sotish va xaridorlar bilan hisob-kitoblarni tashkil etish. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish-tijorat faoliyatiga xizmat ko'rsatuvchi aylanma kapital miqdorining o'zgarishi pul mablag'larining va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati moliyaviy natijalarining o'zgarishi bilan o'zaro bog'liq.

Xo'jalik faoliyati bir maromda amalga oshirilganida ishlab chiqarishga sarflangan aylanma aktivlar har bir doiraviy aylanish yakunlanganida qo'shimcha o'sgan holda dastlabki pul shakliga qaytib keladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mavsumiyligi aylanma aktivlarni shakllantirish uchun nafaqat o'zining, balki qarzga olingan resurslardan foydalanishni ham talab qiladi. Mahsulotlar sotilganidan so'ng olingan tushum hisobidan barcha sarflangan mablag'lar qoplanadi: qisqa muddatli qarzlar so'ndiriladi; o'z mablag'lari korxonaning hisob-kitob va boshqa schyotlaridan yangi ishlab chiqarish - tijorat sikli uchun ishlab chiqarish zaxiralari sotib olishga ishlatiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonasi faoliyatining tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqligi xo'jalik faoliyati normal rejimining buzilishi va buning oqibatida sarflangan mablag'lar bir qismining yo'qotilish riskini vujudga keltiradi. Bular asosan tabiiy ofatlar tufayli mahsulotlarning to'liq yig'ishtirib olinmasligi va turli qo'shimcha xarajatlar (qayta ekish, zaharli ximikatlarni qo'shimcha ishlatish va h.) bilan bog'liq. Ishlab chiqarish faoliyatiga sarflangan aylanma aktivlarni yo'qotish xo'jasizlik, ishlab chiqarish va sotish jarayonini qoniqarsiz tashkil etish oqibatida kelib chiqishi ham mumkin. Bunday korxonalar xo'jalik faoliyatidan zarar ko'rib, yuridik va jismoniy shaxslarga muddati o'tgan qarzdorliklari, jarimalar, penyalar va sanksiyalarning boshqa turlari mavjudligi shundan dalolat beradi.

Joriy xarajatlarni ta'minlash odatdagi manbalar (o'z mablag'lari va qarz mablag'lar)dan tashqari mablag'larni jalb qilishning boshqa manbalarini izlashni talab etadi. Bular o'z-o'zini sug'urtalash yo'li bilan jang'arilgan rezerv mablag'lari (rezerv kapitali, shubhali qarzlar

bo'yicha rezerv va h.) mulkdorlarning qo'shimcha badallari (agar bu korxonada ustavida ko'zda tutilgan bo'lsa) hamda boshqa tashkilotlar va shaxslarning (homiylar, mahalliy hokimiyat va h.) mablag'lari bo'lishi mumkin. Moddiy ishlab chiqarishni moliyaviy ta'minlash va moliyaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab ichki omillardan aylanma kapitalni tashkil etish kabi asosiy omilni alohida ko'rsatish lozim.

6.2. Aylanma kapitalni tashkil etish

Aylanma kapital mohiyatida ikkita xususiyat mujassamlashgan: *bir tomondan*, u aylanma aktivlarda: tovar-moddiy zaxiralar, debitorlar, pul mablag'lari va boshqalar ko'rinishida namoyon bo'ladi (balans aktivining II bo'limi). *Ikkinchi tomondan*, vujudga kelish manbalari (o'ziniki yoki qarz) va maqsadli tayinlanishini (nimaga ishlatilishini) ifodalaydi (bu korxonada balans passivida ko'rinadi). Agrar korxonalarining aylanma kapitalini tashkil etish ham mana shu xususiyatga asoslangan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- aylanma kapitalning strukturasi va tarkibini (aylanma aktivlar va ularning shakllanish manbalari) ishlab chiqish;
- aylanma kapitalga ehtiyojni (aylanma aktivlarning umumiy summasini, shu jumladan, ularga bo'lgan minimal ehtiyojni hamda aylanma aktivlarga qilingan umumiy va doimiy qo'yilmalarning shakllanish manbalarini) aniqlash va rejalashtirish;
- aylanma kapitalni tasarruf etish va uni tartibga solib turish, ya'ni tezkor tadbirlarni amalga oshirish.

Aylanma kapitalning tuzilishi (strukturasi) aylanma aktivlar tarkibiy qismlari yoki ularning alohida elementlari o'rtasida vujudga keladigan nisbatlarni (foizlar, ulushlar ko'rinishida) aks ettiradi.


Agrar korxonada aylanma kapitalining tarkibi uning aylanma aktivlari va pas-sivlari qanday qismlar hamda alohida elementlardan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Aylanma kapitalni rejalashtirish quyidagi o'zaro aloqadorliklarni ta'minlashga imkon beradi:

- aylanma aktivlar summalari bilan mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlari o'rtasidagi, ya'ni ishlab chiqarish va marketing rejalari o'rtasidagi aloqadorlik;
- aylanma aktivlar summasi bilan qisqa muddatli kreditlar va qarzarlar o'rtasidagi aloqadorlik;
- debitorlik va kreditorlik qarzarlar o'rtasidagi nisbat.

Tezkor tadbirlar belgilangan rejalarni amalga oshirish va o'z vaqtida tuzatishlar kiritishga yordam beradi.

Aylanma kapitalni tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi (6.2-rasm).



6.2-rasm. Fermer xo'jaligida aylanma kapitalni tashkil etish tamoyillari.

Aylanma aktivlarni me'yoralashtirish ularga bo'lgan iqtisodiy asoslangan eng kam ehtiyojni (struktura qismi) va uning asosida o'z aylanma kapitaliga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga imkon beradi. Aylanma kapitalni tashkil etishning ushbu tamoyilini bajarish ishlab chiqarish va hisoblashuv-to'lov funksiyalarini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi.

Sarflangan aylanma kapitalni *maqsadli tayinlanishi bo'yicha ishlatish*, uni moliyalashtirish manbasi aylanma kapital emas, balki foydadan qoplanishi lozim bo'lgan zararlarni, xo'jasizlik oqibatidagi yo'qotishlar, kredit uchun oshib ketgan bank foizlarini to'lash va boshqalarga sarflamasdan, ishlab chiqarish zaxiralari va boshqa joriy aktivlarga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Aylanma aktivlarning *saqlanishini ta'minlash*, ularning maqsadli ishlatilishi bilan chambarchas bog'liq. Aylanma aktivlarni yo'qotishning oldini olish, ularni oqilona ishlatishni ta'minlash va aylanuvchanligini jadallashtirish uchun o'z aylanma kapitalining o'zgarishini muntazam ravishda tahlil qilib turish, sotish rentabelligini nazorat qilish, debitorlik va kreditorlik qarzlarning nisbatini hamda debitorlarning muddati o'tib ketgan qarzlari bo'yicha hisob-kitoblar ahvolini, mehnat haqi va yalpi daromad nisbatini kuzatib borish lozim.

Aylanma kapitaldan *samarali foydalanishga* doiraviy aylanishning har bir bosqichida uni oqilona tashkil etish, ya'ni: *ta'minot bosqichida* – resurslarni tejash, xaridlar hajmini va baholarini maqbullashtirish, bevosita xo'jalik aloqalaridan foydalanish va sh.o'. ; *ishlab chiqarish*

bosqichida—yangi texnologiyalarni joriy qilish, arzonroq materiallarni qo'llash, fond qaytimini oshirish; *realizatsiya bosqichida* — mahsulotlarni jo'natish va haq to'lash o'rtasidagi vaqtni qisqartirish, tijorat xarajatlarini pasaytirish, bozorning qimmatroq segmentlarini egallash va boshqalar hisobiga erishiladi.

Agrar korxonalarda aylanma kapitalni tashkil etish moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlariga nisbatan bir qancha xususiyatlarga ega:

- texnologik siklning uzoq davom etishi munosabati bilan aylanma kapital nisbatan uzoq davrga safarbar etiladi;

- ishlab chiqarish jarayonining bir tekis kechmasligi va ish davrining uzluksizligi oqibatida faoliyatning boshqa sohalariga nisbatan sezilarli darajada ko'p sarflanadi;

- aylanma kapitalning yil ichida taqsimlanishi ishlab chiqarishning mavsumiyliги bilan bog'liq, sezilarli tebranish amplitudasiga ega;

- aylanma aktivlarni ishlab chiqarish jarayoniga avanslash doimiy ravishda oshib boradi, mahsulotlar sotilganidan so'ng mablag'lar nisbatan bir vaqtda ozod bo'lib, bu tabiiy omillar (o'simlikchilik mahsulotlarining pishib yetilish, chorva mollarini parvarishlash muddatlari) ta'sirida vujudga keladi;

- aylanma kapitalning katta qismi xo'jalik ichida, ya'ni muomala sohasini chetlab o'tib, natural shaklida doimo yangilanib turadi (urug'lik, ozuqa, yosh chorva mollari va b.);

- aylanma kapitalning bir qismi natural fondlar (urug'lik, ozuqa) va pul zaxiralari (zaxira kapitali va tijorat sug'urtasi tizimida ishtirok etish) tashkil etish hisobiga doiraviy aylanishdan chetlashtiriladi. Bu o'simlikchilik va chorvachilikning tabiiy-iqlim omillariga bog'liqligidan kelib chiqadi.

Aylanma kapitalni tashkil etish va uning doiraviy aylanishi ma'lum darajada qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tarmoqlariga bog'liq. O'simlikchilikda, odatda, aylanma aktivlarni har xil ishlab chiqarish sikllariga bir vaqtda sarflanmaydi. Kapital bitta ishlab chiqarish siklida uning yakunlanishigacha ishlatilib, shundan so'ng aktivlarni boshqa siklga sarflash boshlanadi (joriy va kelgusi yil hosili uchun ishlar parallel ravishda bajarilish hollari bundan mustasno). Bitta ishlab chiqarish sikli doirasida aylanma kapitalni sarflash uzluksiz ravishda o'sib boradi.

O'simlikchilikda mablag'lar doiraviy aylanishining davomiyligi biologik omillar, ob-havo va iqlim sharoitlariga ham bog'liq.

Chorvachilikda mablag'lar sarfi ko'proq bir tekisligi bilan farq qiladi. Lekin, chorvachilikning har xil tarmoqlarida aylanma aktivlarning harakatiga ta'sir ko'rsatuvchi, o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Mablag'larning aylanish davri o'simlikchilikka nisbatan parrandachilik va sut yo'nalishidagi chorvachilikda qisqaroq, go'sht (yirik shoxli qoramollarni boqish) va naschilik yo'nalishidagi qoramolchilikda esa uzoqroq davom etadi. Chorvachilikda har xil ishlab chiqarish-tijorat sikllariga kapital sarflashning aniq ketma-ketligi yo'q. Agrar korxonalar mahsulotlarni sotish me'yoriga qarab, vaqti-vaqti bilan kelib tushgan pul mablag'lari hisobidan ta'minot va ishlab chiqarish jarayonlarini mablag' bilan ta'minlaydi.

Aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi ichki va tashqi omillarga bog'liq. Moddiy-texnika ta'minoti va sotishni (hisob-kitoblarni ham qo'shgan holda) tashkil etish, xarajatlar va daromadlarni boshqarish siyosati, kreditlar va qarzlarni jalb etish – ishlab chiqarish va muomala sohasidagi aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar hisoblanadi. Muhim ahamiyatga ega tashqi omillarga inflatsiya sur'atlari, soliq yukining darajasi, iqtisodiyotning agrar sektorini kreditlash bo'yicha bank siyosati, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan boshqarish siyosati va boshqalar misol bo'ladi. Aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi ularning aylanuvchanlik va rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi.

6.2.1. Agrar korxonalarining aylanma aktivlari va ularning tarkibi

Aylanma kapitalni tashkil etishning negizi uning aylanma aktivlar va joriy majburiyatlar (aylanma aktivlarning vujudga kelish manbalari)ga bo'linishidan iborat.

Aylanma aktivlar aylanma kapitalning moddiy-buyumlashgan shaklida namoyon bo'ladi. Bu qisqa muddatli ishlatish uchun mo'ljallangan va bitta ishlab chiqarish-tijorat sikli davomida naqd pulga aylantiriladigan mablag'lardir.

Agrar korxonalar aylanma aktivlarining tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin (6.1-jadval). Aylanma aktivlarning funksional tayinlanishi bo'yicha bo'linishi eng umumiy hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish sohasi va muomala sohasiga xizmat ko'rsatuvchi aktivlar o'rtasidagi nisbatga agrar korxonaning ixtisoslashganligi, yilning davri, asosiy xaridorlarning to'lov layoqati va hokazolar ta'sir ko'rsa-tadi.

Lekin har doim aktivlarning katta qismi yangidan qiymat yaratiladigan soha – ishlab chiqarish jarayoniga sarflanadi.

Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma aktivlar zaxiradagi mablag'lar va ishlab chiqarishdagi mablag'lar ko'rinishida bo'lib, o'z navbatida quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- *ishlab chiqarish zaxiralari* – urug'lik, ko'chat, ozuqa, to'shama, neft mahsulotlari, ehtiyot qismlar, ma'danli o'g'itlar, biopreparatlar va zaharli ximikatlar, idish, yordamchi korxonalar uchun xomashyo, yoqilg'i, inventar va xo'jalik anjomlari, ta'mirlash uchun qurilish materiallari va b.;

- *o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari* – barcha turdagi yosh chorva mollari, bo'rdoqiga boqilayotgan katta yoshdagi chorva mollari, sotish uchun asosiy podadan chiqarilgan hayvonlar, parrandalar, yovvoyi hayvonlar, quyonlar, asalari uyalari;

- *tugallanmagan ishlab chiqarish* – hali ishlab chiqarilmagan o'simlikchilik, chorvachilik, sanoat, yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlar mahsulotlariga taalluqli xarajatlar, shuningdek, kelgusi davr xarajatlari.

Agrar korxonalar aylanma aktivlarining tarkibi

6.1-jadval

Guruhlash belgisi	Aylanma aktivlar							
Funksional tayinlanishi	Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma aktivlar				Muomala sohasidagi aylanma aktivlar			
Taqror ishlab chiqarish jarayonidagi roli	Zaxiradagi aktivlar		Ishlab chiqarishdagi aktivlar		Tayyor mahsulotlar		Hisoblashuvdagi mablag'lar va pul aktivlari	
	Mehnat predmetlari	Mehnat qurollari	Tugallanmagan ishlab chiqarish	Kelgusi davr xarajatlari	Tayyor mahsulot	Tovarlar	Hisoblashuvdagi mablag'lar	Pul mablag'lari
Likvidlik darajasi	Qiyin sotiladigan aktivlar		Sekin sotiladigan aktivlar		Tez sotiladigan aktivlar		Yuqori likvidli aktivlar	Mutaqil likvidli aktivlar
Tashkil etish usuli	Me'yorlashtiriladigan					Me'yorlashtirilmaydigan		
Moddiy shakli	Moddiy aylanma aktivlar							Pul mablag'lari

Muomala sohasidagi aylanma aktivlar:

- *tayyor mahsulotlar* – sotish uchun va mehnatga haq to‘lashga mo‘ljallangan o‘simlikchilik, chorvachilik va boshqa tarmoqlar mahsulotlari. U omborda saqlanishi yoki to‘lov muddati kelmagan yoki o‘tib ketgan, jo‘natilgan tovarlar tarkibida bo‘lishi mumkin;

- *hisoblashuvlardagi mablag‘lar* – xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari hamda asosiy faoliyatga doir debitor qarzlarning boshqa turlari;

- *pul mablag‘lari* – kassadagi, hisob-kitob va valuta hisobvarag‘idagi pullar, asosiy faoliyatga doir akkreditivlar, pul mablag‘lari va pul hujjatlarining boshqa turlari hamda qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar.

Mablag‘larning ishlab chiqarish jarayonidagi roli har xil. Zaxiradagi mablag‘lar – aylanma ishlab chiqarish aktivlarining passiv elementi bo‘lib, ularni omborda saqlash kapital sifatida aylanishdan vaqtincha chetlashtiradi va saqlash bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlarni vujudga keltiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi mablag‘lar, aksincha, yangi qiymat yaratish jarayonida faol ishtirok etadi, tayyor mahsulotlar, debitorlik qarzlari va pul mablag‘lari esa faqat yaratilgan qiymatni iste‘molchiga yetkazishni ta‘minlaydi va takror ishlab chiqarish jarayonini yakunlashga yordam beradi. Aylanma aktivlar likvidlik, tashkil etish kabi, moliyaviy tahlil va rejalashtirish uchun alohida ahamiyatga ega belgilar bo‘yicha ham tavsiflanadi. Aylanma aktivlarning ushbu belgilari bo‘yicha tavsiflanishini ko‘rib chiqamiz. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida aylanma aktivlarning asosiy qismi ishlab chiqarish sohasidagi aylanma aktivlarga to‘g‘ri keladi. Muomala sohasidagi aylanma aktivlar nisbatan katta bo‘lmagan ulushni tashkil etadi. Chunki qishloq xo‘jaligida tovar fondlariga yirik qo‘yilmalarni amalga oshirish va katta miqdorda pul rezervlarini tashkil etish talab qilinmaydi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida aylanma aktivlarning tarkibi va tuzilishi ishlab chiqarish yo‘nalishi va ixtisoslashganligiga qarab farq qiladi. Donchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida aylanma kapitalning katta qismi tugallanmagan ishlab chiqarish, xomashyo, urug‘lik, o‘g‘it, neft mahsulotlari va tayyor mahsulotlarga, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida esa o‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari, ozuqa kabi aktivlarga yo‘naltiriladi.

Aylanma aktivlar tuzilishiga agrosanoat majmuining boshqa korxonalari bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatlar, tovarlilik darajasi va

moliya intizomining ahvoli ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tovarliligining yuqori darajasi mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan iqtisodiy aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilishi, hisoblashuv-to'lov intizomiga rioya qilish muomala sohasidagi aylanma aktivlarni hamda oshiqcha va keraksiz tovar-moddiy boyliklarni qisqartirishga yordam beradi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mavsumiyliги yil davomida aylanma aktivlar tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Qish mavsumida ishlab chiqarish sohasidagi aylanma aktivlarning katta qismini urug'lik, ozuqa, mineral o'g'itlar ehtiyot qismlar va shu kabilar tashkil etadi. Bahorgiyozgi davrda esa dala ishlarini bajarish me'yoriga qarab, o'simlikchilikda ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydigan zaxiralarning pasayishi sodir bo'ladi. Kuzda hosilni yoppasiga yig'ishtirish me'yoriga qarab tugallanmagan ishlab chiqarish, sotiladigan tayyor mahsulotlar, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari va korxonaning o'zida tayyorlangan ishlab chiqarish zaxiralarning o'sishi kuzatiladi. Chorvachilikda aylanma aktivlar tarkibining o'zgarishi o'simlikchilikka nisbatan kichik darajada sodir bo'ladi.

Aylanma aktivlar bir shakldan boshqasiga o'tadi va to'liq doiraviy aylanishni amalga oshiradi. Aylanma aktivlarning yil davomida o'zgarishini buxgalteriya balansi(1-shakl), Bosh daftar va buxgalteriya hisobi registrlari ma'lumotlari asosida tahlil qilish mumkin. Ishlab chiqarish va muomala sohasidagi aylanma aktivlarning tarkibi, buxgalteriya balansining II «Joriy aktivlar» bo'limida aks ettiriladi. So'nggi yillarda muomala sohasidagi aktivlarning o'sishi debitorlik qarzlarga ko'payishi hisobiga sodir bo'lmoqda. Bu asosan xaridorlarning to'lovga layoqatsizligi, korxonalar tomonidan muddati o'tgan debitorlik qarzlarning undirilishi qat'iy nazorat qilinmasligi, faktoring operatsiyalari va sh.o'. yordamida pul mablag'lariga aylantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanmaslik oqibatida vujudga keladi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil nazariyasi hamda amaliyotida «sof aylanma aktivlar» va «moliya-ekspluatatsiya ehtiyojlari» tushunchalari keng qo'llaniladi.

Sof aylanma aktivlar deganda ishlayotgan yoki daromad keltirayotgan aylanma kapital tushuniladi. U buxgalteriya hisobi yoki moliyaviy tahlil maqsadidan kelib chiqib, turlicha aniqlanadi. Buxgalteriya hisobida sof aylanma aktivlar jami joriy aktivlar (balans aktivining II bo'limi – 390 satr) va joriy majburiyatlar (balans passivining II bo'limi 600 satr) o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Moliyaviy tahlilda sof aylanma aktivlar jami aylanma aktivlardan qat'iy belgilangan to'lovlar to'lanmaydigan qisqa muddatli majburiyatlarni chegirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Majburiyatlar tarkibiga kreditlar va qarzlir kirmaydi.


Moliya – ekspluatatsiya ehtiyojlari (MEE) korxonaning xususiy va qarz mablag'lari hisobidan tashkil topgan, pul ko'rinishida bo'lmagan aylanma aktivlardan iborat. MEE bir tomondan, moddiy-ishlab chiqarish zaxiralari, xarajatlar, debitorlik qarzlari va boshqa tomondan, kreditorlik qarzlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Aylanma aktivlar, sof aylanma aktivlar va moliya-ekspluatatsiya ehtiyoj-larining tarkibi va o'zaro bog'liqligi to'g'risida faoliyat ko'rsatayotgan agrar korxonona biznes-modeli orqali tassavvurga ega bo'lishimiz mumkin (6.3-rasm):

- ishlab chiqarish sohasidagi aylanma aktivlar: 4+5;
- muomala sohasidagi aylanma aktivlar: 6+7+2;
- jami aylanma (joriy) aktivlar: 4+5+6+7+2;
- moliya-ekspluatatsiya ehtiyojlari: (4+5+6+7) - 8;
- sof aylanma aktivlar : (4+5+6+7+2) – 8 – 1.2b.

Shunday qilib, korxonaning aylanma (joriy) aktivlarini samarali boshqarish uchun ularning tarkibi va strukturasi bilish zarur. Tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, aylanma aktivlarning ratsional strukturasi saqlab turish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- tovarmoddiy boyliklar maqbul hajmining shakllanishini nazorat qilish, oshiqcha zaxiralarni xo'jalik jarayonlariga o'z vaqtida jalb qilish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish imkoniyatlarini topish;
- debitorlar bilan hisob-kitoblar nazoratini amalga oshirish va debitorlik qarzlarning real holatini baholash;
- sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun xaridorlar bilan hisob-kitob qilishning pul mablag'larini tezlik bilan o'ndirishni ta'minlaydigan, chegirmalar tizimini o'z ichiga oluvchi va boshqa samarali shakllarini qo'llash.



6.3-rasm. Faoliyat ko'rsatayotgan agrar korxonaning biznes-modeli.

6.2.2. Aylanma aktivlarning manbalari, ularning tarkibi va tuzilishi

Agrar korxonaning aylanma aktivlari kimlarningdir mulkini aks ettiradigan tegishli manbalar hisobiga tashkil etiladi. Bular xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari manbalari va qarz manbalari hisoblanadi. So'nggisi banklar va turli kreditorlar bo'lishi mumkin. Mulkdorlarning har bir toifasidan jalb qilinadigan mablag'lar o'zlarining iqtisodiy mohiyatiga, o'ziga xos xususiyatlariga ega va har xil manbalar hisobidan vujudga keladi.

Korxonada normal faoliyat ko'rsatishi uchun aylanma aktivlarning aylanish davri va ularni barpo etuvchi manbalardan foydalanish muddatlari taxminan mos kelishi lozim. Ushbu tamoyilga rioya qilinishi qarzlarni o'z vaqtida qaytarish uchun zarur bo'lgan resurslarga ega bo'lish imkonini beradi. Masalan, mavsumda urug'lik sotib olish uchun olingan kredit hosil sotilganidan so'ng qaytarilishi kerak. Ishlab chiqarishda uzluksiz ishlatiladigan tovar-moddiy boyliklar zaxirasini esa doimiy manba – o'z moliyaviy resurslari hisobidan tashkil etish eng sama-ralidir. Aylanma kapitalni moliyalashtirishning bunday tartibi «moliyalashtirishning oltin qoidasi» deb ataladi.

Aylanma aktivlar qisqa muddatda ishlatilishi va doiraviy aylanishning barcha bosqichlarida bir vaqtda ishtirok etish xususiyati bilan ajralib turadi. Joriy aktivlarning ishlab chiqarish – tijorat siklini amalga oshirish uchun doimiy zarur bo'ladigan qismi *muntazam qism* deb ataladi. Aylanma aktivlarni shakllantirishning har xil manbalari ham vaqtinchalik, ham doimiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Manbalarning umumiy summasi aylanma aktivlarga safarbar qilingan qo'yilmalar (mablag'lar)ga mos keladi.

Aylanma aktivlarni moliyalashtirishning asosiy manbalari *xususiy, jalb qilingan va qarz* resurslarga bo'linadi (6.2-jadval).

Aylanma aktivlarni shakllantirishning *xususiy(I)* manbalari ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar hamda kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun rezervlar hisoblanadi. Xususiy kapital va unga tenglashtirilgan manbalarning turlari buxgalteriya balansi passivining *I «O'z mablag'lari manbalari»* bo'limida, ularni doiraviy aylanishga yo'naltirishning tavsifi bo'yicha bo'linmasdan, ya'ni: ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash uchun aylanma aktivlar yoki asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarga bo'linmasdan ko'rsatiladi.

Aylanma aktivlarni moliyalashtirish manbalarining tarkibi

6.2-jadval

Guruhlash belgilari	Aylanma aktivlarning manbalari							
<i>Iqtisodiy mohiyati</i>	1. Xususiy				2. Jalb qilingan		3. Qarz	
	Ustav kapitaliga ulushlar (1.1)	Foydadan ajratma (1.2)	Boshqa xususiy manbalar (1.3)	Ta'xis chilar ning maqsadli baddallari (1.4)	Barqaror passivlar (2.1)	O'zgaruvchan qarzlari (2.2)	Qisqa muddatli kreditlar (3.1)	Qisqa muddatli qarzlari (3.2)
<i>Vujudga kelish davri</i>	Korxonani tashkil etishda	Xo'jalik faoliyati jarayonida						
<i>Tashkil bo'lish sohasi</i>	Ichki			Tashqi				
<i>Takror ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki</i>	Doimiy		Vaqtinchalik	Doimiy		Vaqtinchalik		
<i>Rejalashtirish darajasi</i>	Rejalashtiriladigan		Rejalashtirilmaydigan	Rejalashtiriladigan		Rejalashtirilmaydigan		

Xususiy aylanma kapital korxonaning joriy faoliyatini ta'minlashda eng muhim ahamiyatga ega. U korxonaga xususiy kapitalning aylanma mablag'larga safarbar qilingan va xo'jalik faoliyatida doimiy foydalaniladigan qismini aks ettiradi. Xususiy aylanma kapital korxonani tashkil etish paytida ustav kapitali(1.1) tarkibida shakllantiriladi. Mulkdorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga safarbar qilingan mablag'lar nafaqat asosiy aktivlarni sotib olishga, balki ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish, mehnatga haq to'lash va hokazolarga ham yo'naltiriladi. Bu, odatda, ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun doimiy zarur bo'ladigan aylanma aktivlarning muntazam qismidir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan tushum kirim qilinganidan so'ng, o'z aylanma aktivlari summasidagi pul resurslari (shu paytda ustav kapitalining bir qismiga to'g'ri keladigan) Yana

doiraviy aylanishga safarbar qilinib, o'z manbalarining joriy ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ishlatilishini bildiradi.

Xo'jalik faoliyati jarayonida o'z aylanma kapitali mulkdorlarning ishlab chiqarish - tijorat siklini yangilash uchun qilingan qo'shimcha investitsiyalari hisobiga ham ko'paytirilishi mumkin. Bunga ishlab chiqarish hajmini kengaytirish yoki xarid qilinayotgan resurslar bahosining sotiladigan qishloq xo'jalik mahsu-lotlari bahosiga nisbatan oshib ketishi sabab bo'lishi mumkin.


O'z aylanma kapitalini ko'paytirishning asosiy ichki manbaasi taqsimlanmagan foyda(1.2) hisoblanadi. Taqsimlanmagan foyda bo'lmaganida yoki yetishmaganida agrar korxonalar ayrim hollarda aylanma aktivlarini to'ldirish uchun tashqi manbalarni jalb qiladi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va shu bilan bog'liq aylanma aktivlarga bo'lgan qo'shimcha talabni qondirish uchun maqsadli mablag'lar jalb qilinadi.

Xususiy kapitaldan foydalanishning samaradorligini baholash uchun aylanma aktivlarga qo'yilgan xususiy kapital miqdori aniqlanadi. *O'z aylanma kapitalini* (AK_{o'z}) buxgalteriya balansi ko'rsatkichlari asosida aniqlash uchun ikki usul tavsiya etiladi. Birinchi usul bo'yicha hisob-kitobda balans passivining yuqori va quyi bo'limlari, aktivining esa faqat yuqori bo'limi ishtirok etganligi uchun «*aralash usul*» deb nomlanadi. Ikkinchi usul hisob-kitobda balans aktivi va passivining quyidagi bo'limlari, ya'ni Aktiv II b. «Joriy aktivlar» va Passiv II b «Joriy majburiyatlar» olinganligi uchun «*Joriy usul*» deb nomlanadi. Har ikkala usul ham «*Mehnat*» agrofirmasining 2012-yil 1-yanvar holatiga tuzilgan buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida mustahkamlangan.

Hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, har ikkala usul bo'yicha ham bir xil natija olingan, ya'ni agrofirmaning o'z aylanma kapitali 2626315 ming so'mni tashkil etgan.


O'z aylanma kapitalini yetarli darajada shakllantirish korxonaning mulkiy va operativ mustaqilligini hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

«Aralash usul»



Misol: $AK_{0z} = 4137896 + 0 - 1511581 = 2626315$ ming soʻm

«Joriy usul»



Misol: $AK_{0z} = 4550814 - 1924499 = 2626315$ ming soʻm

Hozirgi vaqtda agrar korxonalar xususiy moliyaviy resurslarini tasarruf etish boʻyicha katta vakolatlarga ega. Koʻpchilik korxonalar aylanma aktivlarni shakllantirish uchun aylanma aktivlar bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan, maqsadli tayinlangan, ichki xususiy resurslaridan vaqtincha foydalanadilar. Ular *aylanma aktivlarning boshqa xususiy manbaalarini*(1.3) tashkil etib, asosan rezerv kapitali, kelgusi davr xarajatlari va toʻlovlari uchun rezervlar hamda kelgusi davr daromadlaridan iborat. Ushbu manbaalar balans passivining I «Oʻz mablagʻlari manbalari» va II «Majburiyatlar» boʻlimi («Joriy majburiyatlar»-600 satr)da aks ettiriladi. Koʻpincha ushbu manbaalar debitorlik qarzlari, naqd pul mablagʻlari va tovar-moddiy zaxiralarga qoʻyilgan boʻladi.

Asosiy fondlarni yangilash uchun vaqtincha ishlatilmaydigan, uzoq muddatli aktivlarning amortizatsiyasi ham mazkur guruhga kiruvchi aylanma aktivlarning oʻziga xos manbasi boʻlishi mumkin. Amor-

tizatsiya fondi inflatsiya sur'atlari yuqori va agrar sektorda real uzoq muddatli investitsiyalar tanqis bo'lganda, joriy aktivlarni shakllantirishning doimiy manbasiga aylanadi (*agar korxonaning moliya va hisob siyosatida amortizatsiya fondi tashkil etish ko'zda tutilgan bo'lsa!*). U joriy aylanishdagi xususiy kapital hajmini barqarorlashtirib turadi. Natijada, korxonaning qarz mablag'larga tobeligi kamayadi, to'lovga layoqatlilik va likvidlik darajasi oshadi. Lekin, bu moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanish tamoyilining buzilishiga olib keladi.

Shuningdek, zarur hollarda aylanma aktivlarni ko'paytirish uchun ta'sischi(lar) qarori bilan maqsadli badallar kiritilishi mumkin(1.4).

Aylanma aktivlarni shakllantirishning *jalb qilingan (2)* manbalari qarz manbalaridan farqi – ular qarz munosabatlarini ifodalamaydi. Bu manbalarga birinchi navbatda kreditorlik qarzlari kiradi.

Kreditorlik qarzlarning tarkibi xilma-xil. Mulkdorlar nuqtayi nazaridan, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: tovar-moddiy boyliklarni yetkazib beruvchilarning; ish bajargan pudratchilarning; ishchi va xizmatchilarning ularga ish haqi to'lanmagandagi; soliq to'lovlari va boshqa to'lovlar to'lanmaganida vujudga kelgan budjet hamda budjetdan tashqari fondlarga to'lovlar bo'yicha qarzarlar. Vujudga kelish xususiyati nuqtayi nazaridan kreditorlik qarzi ikki turda bo'lishi mumkin: xo'jalik yurituvchi subyektning oborotida doimiy bo'ladigan, muntazam kreditorlik qarzlari, ya'ni *barqaror passivlar(2.1)* va *o'zgaruvchan kreditorlik qarzlari(2.2)*.

Kreditorlik qarzlarning muntazam qismi alohida guruhni-*barqaror passivlarni* tashkil etadi. Ular uchun xususiy aylanma kapital va mablag'larning jalb qilingan manbaalari o'rtasida oraliq vaziyat xosdir. Barqaror passivlar korxonaning xo'jalik oborotiga doimiy ishga tushirilganligi bois, joriy faoliyatni moliyalashtirish jarayonida ishlatilish rejimiga ko'ra xususiy aylanma kapitalga mos keladi. Shu bilan birga barqaror passivlar – xo'jalik yurituvchi subyektning emas, balki kreditorlarning mulki hisoblanadi. Kreditorlik qarzlarning barcha summasi emas, balki ularning yil davomida qoldig'i ma'lum darajadan pasaymaydigan eng kam miqdordagi qismi barqaror passiv hisoblanadi. Barqaror passivlarga kreditorlik qarzlarning quyidagi turlari kiradi:

- mehnat haqi va budjetdan tashqari maqsadli fondlarga ajratmalar bo'yicha muntazam ravishda keyingi oyga o'tib boruvchi qarzdorlik. Bu qarzdorlik ish haqini va unga nisbatan ajratmalarni hisoblash muddati bilan ajratmalar bo'yicha majburiyatlarni o'tkazish

hamda kassadan ish haqi to'lash muddatlari o'rtasidagi tafovutlar bilan bog'liq;

- kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun ajratiladigan rezervlar bo'yicha eng kam miqdordagi qarzdorlik;

- hujjatsiz olingan mol-mulklar va akseptlangan, lekin to'lov muddati kelmagan hisoblashuv hujjatlari bo'yicha mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan eng kam miqdordagi qarzdorlik;

- to'lash muddatidan oldin hisoblanadigan soliqlarning ayrim turlari bo'yicha budjetga to'lanadigan eng kam miqdordagi qarzdorlik.

Barqaror passivlarning umumiy summasi (BP) kreditorlik qarzlarning har bir turi bo'yicha alohida hisob-kitob qilinadi. Mehnat haqi bo'yicha keyingi oyga muntazam ravishda o'tib boradigan eng kam qarzdorlik, ya'ni barqaror passiv summasi (BP_{mh}) quyidagicha aniqlanadi:

$$BP_{mh} = M_{mhq} - K_q, \quad (6.1)$$

Bunda,

M_{mhq} – butun yil davomida mavjud bo'ladigan, mehnat haqi bo'yicha bir kunlik eng kam qarzdorlik (bir chorakdagi mehnat haqi umumiy summasini shu davrda eng kam ish bajarilgan kunlar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi);

K_q – mehnat haqi bo'yicha doimiy qarzdorlik mavjud bo'lgan kunlar soni (belgilangan grafikka muvofiq ish haqi hisoblanadigan oydan keyingi oy boshidan, to ish haqi to'lanadigan kungacha).

Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lanadigan badallar bo'yicha eng kam qarzdorlik (BP_d) quyidagi formula bo'yicha hisoblanishi mumkin (% hisobida):

$$BP_d = \frac{BP_m \cdot T_s}{100}, \quad (6.2)$$

Bunda,

T_s – sug'urta ta'rifining umumiy ko'lami.

Kelgusi davr to'lovlari bo'yicha eng kam qarzdorlik (BP_{kt}) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$BP_{kt} = M_{ktq} \cdot K_{tho'}, \quad (6.3)$$

Bunda,

M_{ktq} –hisobot yilidagi kelgusi davr to‘lovlari rezervi bo‘yicha eng kam qoldiq (qarzdorlik);

K_{iho} – kelgusi yil uchun rejalashtirilgan ish haqi fondining o‘tgan yil uchun haqiqiy ish haqi fondiga nisbatan o‘zgarish koeffitsiyenti (indeksi).

Mol yetkazib beruvchilarga qarzdorlik bo‘yicha barqaror passiv (BP_{mq}) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$BP_{mq} = BK_{mq} \cdot K_q, \quad (6.4)$$

Bunda,

BK_{mq} – to‘lov muddati kelmagan bir kunlik eng kam qarzdorlik.

Mazkur barqaror passiv, agar agrar korxonalar tovar-moddiy boyliklarni (yoqilg‘i, elektr energiyasi, gaz, omuxta yem va h.) muntazam ravishda va ular uchun to‘lovlar sotib olinganidan so‘ng amalga oshiradigan bo‘lsa, vujudga kelishi mumkin.

Budjetga soliqlar bo‘yicha eng kam qarzdorlik soliqlar bo‘nak tarzida o‘tkazib borilmasdan, hisobot davri tugaganida to‘lanadigan korxonalarda vujudga keladi. « Yagona yer solig‘ini quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

hisobot yilining iyuligacha – yillik soliq summasining 20 foizi;

hisobot yilining 1sentabrigacha – yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1dekabrigacha – soliqning qolgan summasi»⁵⁷.

Yil oxirida esa qayta hisob-kitob qilinadi. Demak, qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosan xodimlarning ish haqidan ushlanadigan daromad solig‘i bo‘yicha eng kam qarzdorlik vujudga kelishi mumkin. Barqaror passiv summasi soliqlar bo‘yicha eng kam qarzdorlik bo‘lgan hisobot davrida (muddati o‘tgan qarzlarni hisobga olmasdan) aniqlanadi.

Kreditorlik qarzlarning o‘zgaruvchan qismiga ikkita omil ta‘sir ko‘rsatadi:

- korxonalar ishlab chiqarish – tijorat faoliyatining mavsumiyligi (ishlab chiqarish resurslarini xarid qilishning, ish haqi hisoblash va tushumlar kiriminining notekisligi);
- mol yetkazib beruvchilar, ishchi-xizmatchilar, budjet va boshqa yuridik shaxslarga muddati o‘tgan qarzdorlikning vujudga kelishi. Bu omil moliyaviy intizomning buzilishi bilan bog‘liq va korxonalar moliyaviy ahvolidan beqarorligidan dalolat beradi.

⁵⁷ Soliqlar o‘ldirish qonuni hujjatlaridagi yangiliklar. 2008 yil. – Toshkent: «NORMA», 2012. – 512 b. («Norma maslahatchi» gazetasini kutubxonasi, 1-chi qismini), -B. 361.

Kreditorlik qarzlarning hisobot sanasiga aylanishga jalb qilingan umumiy summasi buxgalteriya balansi passivi II «Majburiyatlar» bo'limining «Joriy majburiyatlar» moddasida (600 satr) aks ettiriladi.

Qarz manbalar(3) korxonada faoliyatiga moliyaviy resurslarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular bankning qisqa muddatli kredit resurslari va boshqa shaxslarning mablag'laridan vaqtinchalik qisqa muddatli foydalanishni ifodalaydi. Ularning ajralib turuvchi xususiyati – kredit shartnomasi yoki qarz shartnomasida ko'rsatilgan muddatga, foizlarni to'lash sharti bilan jalb qilinadi. Aylanma aktivlarni shakllantirishda ular qisqa vaqt ichida ishtirok etadi. Belgilangan muddat tugaganida qarzlarning mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasidan olingan tushum hisobidan yoki natural shaklda qaytariladi. Qishloq xo'jaligida kreditlar va qarzlarga bo'lgan ehtiyoj mablag'lar doiraviy aylanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan, mablag'larni ishlab chiqarish-tijorat sikliga sarflash vaqti bilan aylanishda bo'lgan mablag'larning olinish vaqti mos kelmaydi. Korxonalar qarz mablag'larining manbalari buxgalteriya balansi passivining ikkinchi bo'limida tegishli moddalar(570,580,730,740-satrlar) bo'yicha aks etiriladi. Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini kreditlash jarayonini tashkil etish va amalga oshirish masalalari yetarli darajada murakkab bo'lganligi bois kitobning 7-bobida alohida bayon qilinadi.


6.2.3. Aylanma aktivlarni moliyalashtirish strategiyasi

Aylanma aktivlarni shakllantirish manbalarining strukturasi ularni moliyalashtirish (o'z aylanma kapitalini shakllantirish) bo'yicha tanlangan strategiyaga bog'liq (6.4-rasm). U moliyalashtirishning asosiy tamoyillariga tayanadi: jalb qilinadigan moliyalashtirish resurslarining tarkibi aktivlarning aylanish tavsifiga bog'liq va moliyalashtirish manbalarining summasi aktivlar miqdoriga mos keladi. Fermer xo'jaligi faoliyatini amalga oshirishda uzoq muddatli aktivlardan (UMA) foydalanadi. Ularni moliyalashtirish manbasi uzoq muddatli passivlar (UMP) bo'lib, u xususiy kapital (XK) va uzoq muddatli majburiyatlar (UMM)dan iborat. Aylanma aktivlar safarbar qilinuvchan joriy aktivlar (JA) bo'lib, ularning miqdori va tarkibi butun ishlab chiqarish – tijorat sikli davomida doimiy o'zgarib turadi. Fermer xo'jaligi aktivlari va ularning vujudga kelish manbalarini umumiy tarzda quyidagi formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$UMA+JA=XK+UMM+QMM, \quad (6.5)$$

Bunda,

QMM – qisqa muddatli majburiyatlar (qisqa muddatli qarzarlar, kreditlar va kreditorlik qarzlari)



6.4-rasm. Aylanma aktivlarni moliyalashtirish strategiyasi.

Aylanma aktivlar ishlatilish jarayonida doimiy, ya'ni muntazam qism (MQ) va ishlab chiqarishning mavsumiyligi va boshqa omillar oqibatida o'zgarib turadigan qism (O'Q)ga bo'linadi. Aktivlar va ularni shakllantirish manbalarining dinamikasini (doiraviy aylanish tavsifini hisobga olgan holda) quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$$UMA=UMP, \text{ ya'ni } UMA=XK+UMM, \quad (6.6)$$

$$JA=QMM, \text{ ya'ni } MQ+O'Q=QMM, \quad (6.7)$$

Lekin, amaliyotda bunday «ideal», ya'ni uzoq muddatli aktivlar xususiy kapital va uzoq muddatli majburiyatlar hisobidan, aylanma(joriy) aktivlar esa faqat qisqa muddatli manbalar hisobidan shakllantiriladigan holat bo'lishi deyarli mumkin emas. Bunda likvidlik riski juda yuqori bo'ladi va xo'jalik faoliyati jarayonida resurslarni boshqarish imkoniyati esa cheklanadi. Fermer xo'jaliklarida aylanma aktivlar aylanishining uzoq davom etishi sababli moliyalashtirishning bunday «ideal» modelidan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Moliyalashtirishning boshqa modeli, uzoq muddatli aktivlar va aylanma aktivlarning muntazam qismini moliyalashtirish uzoq muddatli manbalar hisobidan, o'zgaruvchan qismini esa qisqa muddatli resurslar hisobidan ta'min-lashga asoslangan bo'lishi mumkin. Aylanma aktivlarni moliyalashtirishning bunday strategiyasi «agressiv» model deb nomlanadi va quyidagi tenglamalar orqali tasvirlash mumkin:

$$UMA+MQ=XK+UMM, \quad (6.8)$$

$$O'Q=QMM, \quad (6.9)$$

Ushbu model aylanma aktivlar muntazam qismining eng kam miqdorini xususiy kapital hisobidan ta'minlashga qaratilgan. Bunda likvidlik riski ideal yondashuvdagiga qaraganda birmuncha kamroq bo'ladi. Demak, bu model ham unchalik maqsadga muvofiq emas.

«Konservativ» model aylanma aktivlarning nafaqat muntazam qismi, balki o'zgaruvchan qismi ham, xususiy kapital hisobidan ta'minlanishini nazarda tutadi. Bu holda korxonaga uchun likvidlikni yo'qotish riski bo'lmaydi, ammo bunday yondashuv amaliyotda qiyin amalga oshiriladi va aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

Bizningcha, barcha uzoq muddatli aktivlar, aylanma aktivlarning muntazam qismi va o'zgaruvchan qismining 50 foizini uzoq muddatli passivlar hisobidan, qolgan 50 foizini esa qisqa muddatli majburiyatlar hisobidan shakllantirish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuvni «murosali» model deb nomlash va quyidagi tenglik orqali ifodalashimiz mumkin:

$$UMA+MQ+0,5O'Q=XK+UMM, \quad (6.10)$$

$$0,5O'Q=QMM, \quad (6.11)$$

Shunday qilib, «murosali» modelda aylanma aktivlar muntazam qismining hammasi va o'zgaruvchan qismining yarmi xususiy kapital va uzoq muddatli majburiyatlar hisobidan moliyalashtiriladi. Aylanma aktivlar o'zgaruvchan qismining qolgan yarmi esa qisqa muddatli majburiyatlar hisobidan moliyalashtiriladi. Aylanma aktivlarni moliyalashtirish strategiyasining yuqorida ko'rib chiqilgan modellaridan bittasini tanlash ko'plab omillar bilan bog'liq. Jumladan, asosiy faoliyatning tavsifi, rentabellik darajasi, moliya intizomining ahvoli, yil vaqtlari, mol yetkazib beruvchilarning kredit siyosati, xo'jalik yurituvchi subyektning ishlash faolligi, ya'ni moliyaviy menejmentning darajasi, iqtisodiyotning umumiy ahvoli va boshqalar bilan bog'liq.

O'simlikchilik yoki chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatiga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mavsumiyligi har xil ta'sir ko'rsatadi. Bu joriy faoliyatni moliyaviy ta'minlashda xususiy va qarz manbalarining nisbati o'zgarishida namoyon bo'ladi. Odatda, rentabellik darajasi yuqori va moliya intizomiga rioya qiladigan fermer xo'jaliklari xususiy kapitali va unga tenglashtirilgan mablag'larning zarur darajasiga ega bo'ladi. Ular

qarz manbalarini faqat yilning eng og'ir davrlaridagina (masalan, ekish, hosilni yig'ishtirish, kuzgi shudgor va h.) jalb qiladilar, muddati o'tgan kreditorlik qarzlari esa bo'lmaydi. Aksincha, rentabellik darajasining pastligi va moliyaviy ahvolning yomonligi, kreditorlik qarzlari ulushining yuqoriligi (shu jumladan, muddati o'tganlari ham) asosan o'z aylanma kapitali ulushining pastligi (ayrim hollarda umuman yo'qligi) bilan bog'liq.

Xususiy, jalb qilingan va qarz manbalar nisbatiga qishloq xo'jaligining mavsumiyligi bilan bog'liq yil davomidagi o'zgarishlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Yilning birinchi yarmida qarz mablag'lari va kreditorlik qarzlarning hajmi katta bo'lib, bu o'simlikchilik tarmog'ida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining o'sib borishi bilan bog'liq. Ikkinchi yarim yillikda qishloq xo'jalik ekinlari hosilini yig'ishtirish amalga oshiriladi, chorva mollari vazni va sog'ilgan sut miqdori oshadi, mahsulot sotishdan tushum birinchi yarim yillikka nisbatan katta sur'atlar bilan o'sadi. Korxonaning kreditlar bo'yicha qarzlarni so'ndirish tezlashadi va aylanma aktivlarni shakllantirish manbalarining umumiy summasida xususiy resurslarning ulushi oshadi. Shuningdek, ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olish uchun shartnomalarni puxta tuzish, mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashuvlarni maqbul muddatlarda yakunlash tadbirlari ham kreditlar va qarzlarga bo'lgan ehtiyojni pasaytirishga yordam beradi. Buning uchun fermer xo'jaliklari menejmenti yuqori darajada bo'lishi zarur.

Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklarida aylanma aktivlar manbalarining tarkibi va strukturasi shakllantirishda davlat ustun darajada ishtirok etmoqda. Rivojlanayotgan kredit bozori, fermer xo'jaliklarini imtiyozli kreditlash shartlarini qo'llash va boshqa qulay tashqi iqtisodiy omillar qisqa muddatli kreditlardan o'z vaqtida va zarur hajmda foydalanishga imkon bermoqda (agrar korxonalar faoliyatini qisqa muddatli kreditlash mexanizmi darslikning 7 bobida batafsil bayon etilgan).

Ta'kidlash joizki, joriy faoliyatda xususiy va qarz mablag'larining maqbul nisbatini ta'minlash – moliya xizmatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunga erishish usullari va uslublari har bir fermer xo'jaligi uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususiy va qarz kapitali o'rtasidagi nisbatni baholash uchun manyovrlashganlik (mablag'larning chaqqon harakatlanishi) koeffitsiyenti, o'z aylanma aktivlar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti va moliyaviy dastak samarasidan foydalanish zarur. Birinchi koeffitsiyent o'z aylanma kapitalining haqiqiy hajmi bilan xususiy kapital va rezervlarning umumiy summasi o'rtasidagi nisbat, ikkinchisi – o'z aylanma kapitali bilan aylanma aktivlarning nisbati kabi aniq-


lanadi. Moliyaviy dastak samarasi xususiy kapital rentabelligining kreditdan foydalanish tufayli qo'shimcha o'sish imkoniyatini ko'rsatadi.

Shunday qilib, fermer xo'jaligi aylanma aktivlari manbalarining struk-turasini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- har yili o'z aylanma kapitaliga bo'lgan rejadagi ehtiyojni aniqlash va uni tegishli hajmda shakllantirish;
- fermer xo'jaligining ishlash faolligini oshirish. Bu xususiy aylanma kapitalga ehtiyojni eng past darajagacha tushirishga yordam beradi (aylanma aktivlarning aylanuvchanligini oshirish natijasida);
- xususiy kapital bahosiga asoslangan va kreditlash tamoyillariga rioya qilgan holda qarz mablag'larini jalb qilish;
- kreditorlik qarzlarning muddatlari o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik, debitorlik – kreditorlik qarzlarni mohirona boshqarish va h.

6.3. Aylanma kapitalni rejalashtirish

Xo'jalik yurituvchi subyekt takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ko'p jihatdan aylanma kapitalga bo'lgan ehtiyojni to'g'ri aniqlashga bog'liq. Ehtiyojni hisob-kitob qilish moliyaviy prognozlashning murakkab uchastkasi hisoblanadi. Aylanma kapitalning ikki yoqlama xususiyati (aktivlar, passivlar), aylanma kapital elementlarining xilma-xilligi, ularni sotib olish va ishlatish usullari hamda shakllantirish manbalari tarkibining xilma-xilligi rejalashtirish jarayonida quyidagi mustaqil obyektlarni belgilashni taqozo etadi (6.5-rasm).




6.5-rasm. Aylanma kapitalni rejalashtirish obyektlari.

6.3.1. Moddiy aylanma aktivlarni rejalashtirish. Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma aktivlar va muomala sohasidagi aktivlarga qilingan qo'yilmalar hajmi moddiy-texnika ta'minoti, ishlab chiqarish va mahsulot sotish rejalariga asosan aniqlanadi. Moddiy-texnika ta'minoti rejalarida xo'jalik faoliyati uchun sotib olinadigan ishlab chiqarish zaxiralarining turlari va ularni xarid qilish hajmlari aks ettiriladi. Ishlab chiqarish rejalarida ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqariladigan mahsulot (bajariladigan ish, ko'rsatiladigan xizmat) tannarxi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi. Sotish rejaları ishlab chiqarish rejaları bilan birgalikda yil oxiriga tayyor mahsulotlar qoldiqlarining hajmini oldindan ko'rishga imkon beradi.

Moddiy aylanma aktivlarni shakllantirishga sarflanadigan moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj ko'plab omillarga bog'liq. Bunday omillar ishlab chiqarish faoliyatining turi; ishlab chiqarish-tijorat siklining davomiyligi; ishlab chiqarish hajmlari va tovarlilik darajasi; moddiy-texnika ta'minoti va mahsulot sotishni tashkil etish va h. Ular aylanma aktivlarning ishlab chiqarish va muomala sohasida bo'lish vaqtiga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy aylanma aktivlarni rejalashtirish ularni shakllantirish siyosatiga bog'liq. Aylanma aktivlarni shakllantirish bo'yicha uch xil moliyaviy siyosat qo'llanilishi mumkin (6.6-rasm).



6.6-rasm. Aylanma aktivlarni shakllantirish bo'yicha moliyaviy siyosat.

Aylanma aktivlarni shakllantirishning *agressiv moliyaviy siyosati* aylanma kapitalning rentabelligi sezilarsiz bo'lganida, yo'qotishlar riskini eng kam darajaga pasaytiradi. Bu holda, aylanma aktivlar joriy ehtiyojlarni to'liq ta'minlaydigan hajmda shakllantiriladi hamda kutilmagan vaziyatlar uchun katta miqdorda rezervlar tashkil etiladi (urug'lik, ozuqa, neft mahsulotlari va sh.o'. fondlar).

Aylanma aktivlarni shakllantirish bo'yicha *konservativ moliyaviy siyosat* barcha turdagi aylanma aktivlarni eng past darajaga tushirishga

asoslangan. Bu holda ishlab chiqarish zaxiralarning sug'urta rezervi yaratilmaydi. Bunday siyosat aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligini rag'batlantiradi (uning rentabel-ligini va aylanuvchanligini oshiradi), ammo moliyaviy va tadbirkorlik riskini keskin oshiradi.

Aylanma aktivlarni shakllantirish bo'yicha *mo'tadil moliyaviy siyosat* korxonaning joriy ehtiyojlarini barcha turdagi aylanma aktivlar bilan to'liq ta'minlash va natural zaxiralarning maqbul hajmini yaratishga qaratiladi. Xo'jalik yuritishning real shart-sharoitlari uchun yo'qotish riski va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi o'rtasidagi o'rtacha nisbat ta'minlanadi.

Moliyaviy siyosatning har qanday turi qo'llanilganida, agrar korxonaning moddiy aylanma aktivlariga qilinadigan qo'yilmalarni prognozlashda quyidagi usullardan foydalaniladi (6.7-rasm).



6.7-rasm. Aylanma aktivlarni prognozlash usullari.

To'g'ri hisob-kitob usuli – eng aniq usul bo'lib, aylanma aktivlarning har bir elementi bo'yicha kutilayotgan qoldiqlarini, ularning ishlab chiqarishda yoki muomalada bo'lish vaqti me'yori (zaxira me'yori) asosida keyinchalik aylanma aktivlarga jami qo'yilmalarni aniqlagan holda hisob-kitob qilishni nazarda tutadi. Zaxira me'yori (aylanma aktivlar normativi) – bu rejalashtirilgan ishlarni normal va bir me'yorda amalga oshirishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan, aylanma aktivlar zaxirasi hajmi. Ushbu me'yor zaxira kunlar yoki ma'lum bazaga: tovar yoki yalpi mahsulot, asosiy fondlar va shunga o'xshashlar hajmiga nisbatan foiz hisobida aniqlanishi mumkin.

To'g'ri hisob-kitob usuli asosan zaxiralarning kunlardagi me'yorini qo'llashga asoslangan. Me'yorlar ta'minot-sotish va ishlab chiqarish jarayonlarida hamda xaridorlar bilan hisob-kitoblarni tashkil etishda keskin o'zgarishlar sodir bo'lganida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Aylanma aktivlarning har bir elementi uchun alohida me'yor o'rnatiladi.

Aylanma aktivlarning har bir elementi bo'yicha zaxiralarning kunlardagi me'yorini hisobga olgan holda rejalashtirilayotgan davr oxiriga kutilayotgan qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$AAQ_{ei} = X_{ei} \cdot M_{ei}, \quad (6.12)$$

bunda,

AAQ_{ei} – rejalashtirilayotgan yil oxiriga mazkur element bo'yicha aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalar;

X_{ei} – mazkur element bo'yicha joriy aktivning bir kunlik sarfi (bir kunlik tayyor mahsulot chiqarish);

M_{ei} – joriy aktivlarning mazkur elementi bo'yicha zaxira me'yori (kunlarda).

Bir kunlik sarf (mahsulot chiqishi) rejalashtirilayotgan yilning IV choragida sarflanadigan tegishli aylanma aktivning umumiy summasini davr davomidagi kunlar (90 kun)ga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Aylanma aktivlarning har xil elementlari bo'yicha zaxira me'yorini aniqlash uchun to'g'ri hisob-kitob qilish uslubi qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha kunlardagi me'yor ularning omborda turish vaqti (omborxonadagi joriy zaxira) sug'urta va transport zaxiralari ko'rinishidagi va navbatdagi ikkita mol yetkazib berish o'rtasidagi intervaldan tashkil topadi. Aylanma aktivlarning materiallar uchun kunlardagi me'yori 6.3 – jadvalda keltirilgan shakl bo'yicha aniqlanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma aktivlarning kunlardagi me'yori ishlab chiqarish siklining davomiyligi va xarajatlarning o'sish koeffitsiyenti (mahsulotning tayyorlik darajasi)dan kelib chiqib aniqlanadi. Yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishga qilinadigan qo'yilmalar hajmi bir kunlik xarajatlarni (yalpi mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan) tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma aktivlar me'yori va xarajatlarning o'sib borish koeffitsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Tayyor mahsulotga qilinadigan qo'yilmalar bir kunlik mahsulot chiqishi (ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha bahoda) va tayyor mahsulotlar bo'yicha aylanma aktivlar me'yori asosida hisoblanadi. Keyingisi har bir mahsulot turi bo'yicha saqlash muddati, qadoqlash, Tayyor mahsulotga qilinadigan qo'yilmalar bir kunlik mahsulot chiqishi (ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha bahoda) va tayyor mahsulotlar bo'yicha aylanma aktivlar me'yori asosida hisoblanadi. Keyingisi har bir mahsulot turi bo'yicha saqlash muddati, qadoqlash, yuklash, hisoblashish hujjatlarini tayyorlash va ularni bankka topshirish hamda

aylanma mablag'larni shakllantirish bo'yicha tanlangan siyosatni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Materiallarning alohida turlari uchun me'yorlar hisob-kitobi, kunlarda

6.3-jadval

Materiallar turi	Yo'lda bo'lish vaqti, schotni to'lash uchun belgilangan muddat	Qabul qilish, tushirish, joylashtirish	Joriy ombor-xona zaxirasi	Sug'urta zaxirasi (joriy ombor zaxirasi-ning ½ qismi)	Aylanma aktivlarni shakllantirish siyosatiga ko'ra zaxira me'yori		
					Agressiv	Konservativ	Mo'tadil
Omuxta yem va h.	1	1	8	4	1+1+8+8=18	1+1+4=6	1+1+8+4=14

Debitorlik qarzlaridagi qo'yilmalar to'lovlarning muddatini o'zgartirish va qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishning bir kunlik hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yil mavsumiga qarab shakllantiriladigan va (yoki) ishlatiladigan, aylanma aktivlarning boshqa turlari (urug'lik, ozuqa, mineral o'g'itlar, o'simlikchilikdagi va chorvachilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarish va h.) bo'yicha yil oxiriga rejadagi qo'yilmalar boshqacha usul – *rejalashtirilayotgan davrda qo'yilmalarning operatsion harakatlanishi* asosida hisoblanadi:

$$AAQ_{el} = Q_{el} + K_{el} - CH_{el}, \quad (6.13)$$

Bunda,

Q_{el} – mazkur element bo'yicha aylanma aktivning yil boshiga qoldig'i;

K_{el} – mazkur aktivning rejalashtirilayotgan yildagi kirimi;

CH_{el} – mazkur aktivning rejalashtirilayotgan yildagi chiqimi (ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarida ishlatilishi).

Aylanma aktivlarni shakllantirishda agressiv va mo'tadil siyosat qo'llanilganda AAQ_{el} miqdori rezerv kapitalining tegishli summasiga ko'payadi (maqbul yoki maksimal darajada).

Aylanma aktivlarning kirim va chiqim operatsiyalar bo'yicha harakati moddiy-texnika ta'minoti, ishlab chiqarish va sotish rejalari bilan bog'liq.

Yil oxirida joriy aktivlarga sarflangan kapitalning umumiy hajmi barcha xususiy qo'yimalarni jamlash yo'li bilan aniqlanadi.

Aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yimalarni hisoblashning to'g'ri hisob-kitob usuli murakkab va sermehnat jarayondir. Unga nisbatan indikativ usul ancha sodda bo'lib, ammo unda unchalik aniq natijaga erishilmaydi.

Indikativ usul rejalashtirilayotgan yil oxiriga moddiy joriy aktivlarga qilinadigan qo'yimalarni, ularning rejalashtirilayotgan davr boshiga, ishlab chiqarish va mahsulot sotishni rejalashtirilgan tuzatishlarni hisobga olgan holda, haqiqiy miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu usul qo'llanilganda agrar korxonaning barcha zaxiralari va xarajatlari ikki guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bog'liq (xomashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari ombordagi tayyor mahsulot va sh.o.) va ishlab chiqarish hajmining o'sishiga bog'liq bo'lmagan (ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, qattiq yoqilg'i).

Aylanma aktivlarning ishlab chiqarish hajmiga bog'liq turlari bo'yicha yil oxiriga ehtiyoj, yil boshiga bo'lgan qoldiq va o'tgan yilga nisbatan rejadagi yilda ishlab chiqarish hajmining o'sish (pasayish) koeffitsiyentidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi. Haqiqatga yaqinlashish maqsadida joriy aktivlarga qilinadigan qo'yimalarni kamida besh yilda bir marta to'g'ri hisob-kitob usuli bilan hisoblash zarur.

Zaxiralar va xarajatlarning boshqa turlari bo'yicha qo'yimlar hajmi, odatda, o'tgan yil yoki boshqa bazis yili oxiridagi haqiqiy qoldiq darajasida aniqlanadi.

Uyg'unlashgan usul yuqorida ko'rib chiqilgan usullarni birlashtirish (kombinatsiyalash) natijasida hosil bo'ladi. Joriy aktivlarning eng ahamiyatli turlari (xomashyo, o'g'it, tugallanmagan ishlab chiqarish va sh.o.) bo'yicha yil oxiriga qo'yimlar to'g'ri hisob-kitob usuli bilan aniqlanadi; ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining uzluksizligi nuqtayi nazaridan ikkinchi darajali hisoblangan aylanma mablag'lar bo'yicha qo'yimlar esa indikativ usul asosida aniqlanadi. Aylanma aktivlarning rejadagi qo'yimlari aniqlanganidan so'ng ularni moliyalashtirish manbalari rejalashtiriladi.

6.3.2. Moddiy aylanma aktivlarning moliyalashtirish manbalarini rejalashtirish. Ushbu mablag'larga qilinadigan qo'yimlar hajmi ularni moliya-lashtirish manbalarining zarur ko'lamini belgilaydi. Xususiy, jalb qilingan va qarz resurslarining jami manbalar hajmidagi

nisbati agrar korxonaning joriy aktivlarini moliyalashtirish bo'yicha tanlagan strategiyasiga bog'liq (bu masala 5.2.2 bo'limda batafsil yoritilgan).

Aylanma aktivlarni moliyalashtirishning ideal va konservativ strategiyasi agrar sektor korxonalari uchun unchalik qulay emas, ko'proq agressiv va mo'tadil modeldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agressiv model moddiy aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalarning faqat eng kam qismini o'z manbalari hisobidan shakllantirishni nazarda tutadi va eng samarali hisoblanadi. Ammo, bu modelni qo'llash faqat qisqa muddatli kreditlash nisbatan arzon va iqtisodiy rentabellik bank foizining o'rtacha stavkasidan yuqori bo'lgan sharoitda qulay hisoblanadi. Aks holda, agrar korxonaning aylanma aktivlari o'z manbalari hisobidan, ularning muntazam va qisman o'zgaruvchan qismlari doirasida shakllantiriladi. Har qanday holatda agrar korxonaga aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalarning eng kam chegarasini aniqlaydi. Bu, odatda, o'z aylanma mablag'larini *me'yori* deb ataladi.

O'z aylanma aktivlarning me'yori – bu takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz ta'minlash uchun korxonaga doimiy zarur bo'ladigan, o'z aylanma mablag'larining eng kam hajmi.

Aylanma aktivlarning turlari bo'yicha normativlarini hisob-kitob qilish – *normalashtirish* (me'yorlashtirish) deyiladi. U ishlab chiqarish va moliyaviy ahamiyatga ega. Me'yorlashtirishning ishlab chiqarish ahamiyati agrar korxonaga normal faoliyat ko'rsatishi uchun doimiy zarur bo'ladigan aylanma aktivlarning eng kam (minimal) miqdorini hisob-kitob qilishdan iborat. Moliyaviy ahamiyati esa ularni mablag' bilan ta'minlash uchun o'z manbalarining tarkibi va summasini aniqlashdan iborat.

Aylanma aktivlar tashkil etish usuliga ko'ra, *me'yorlashtiriladigan* va *me'yorlashtirilmaydigan* aylanma aktivlarga bo'linadi.

Me'yorlashtiriladigan aylanma aktivlar – ular bo'lmaganida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligi buziladigan aktivlardir. Ular tarkibiga ishlab chiqarish aylanma aktivlarining barcha turlari va muomala sohasidagi aktivlarning bir qismi – tayyor mahsulot va doimiy xaridorlar bilan hisoblashuvlardagi mablag'lar kiradi.


Me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'larga qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning borishiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydigan aylanma aktivlar kiradi. Masalan, hisob-kitob schotida pul bo'lmaganida, uni kreditlar va qarzlar hisobiga to'ldirish mumkin.

Shuning uchun, muomala sohasidagi aylanma aktivlarning katta qismi bo'yicha o'z aylanma aktivlariga normativ hisob-kitob qilinmaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish sikli nisbatan bir tekis kechadigan korxonalarda yil oxiridagi xususiy aylanma mablag'lar me'yori barcha joriy aktivlar hajmiga mos keladi va shu uslub bo'yicha rejalashtiriladi. Agrar korxonalar uchun o'z aylanma aktivlarini me'yorlashtirish aylanma aktivlarni rejalashtirish degani emas, chunki amaliyotda keyingisining summasi aylanma kapitalga qilinadigan me'yoriy qo'yilmalardan ancha yuqori bo'ladi.

O'z aylanma aktivlarining me'yorlarini, odatda, rejalashtirilayotgan yil oxiriga hisob-kitob qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi (6.8-rasm).

To'g'ri hisob-kitob usuli me'yorlashtiriladigan aylanma aktivlarning barcha turlari bo'yicha alohida normativlarini aniqlashga asoslangan. Normativlar rejalashtirilayotgan yilning aniq shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinadi. Bular ishlab chiqarish rejalari, ekin maydonlari, chorva mollari harakati va h. O'z aylanma aktivlarining turlari bo'yicha normativlarini hisob-kitob qilish jarayonida ishlab chiqarish va moliyaviy me'yorlar muhim ahamiyatga ega.




6.8-rasm. O'z aylanma aktivlarining normativlarini hisoblash usullari.

Ishlab chiqarish me'yorlari ishlab chiqarish dasturlarini tuzishda aniqlanadi. Ularga bir gektarga urug'lik ekish me'yori, bir bosh chorva molini oziqlantirish, bir gektar yerga o'g'it solish, neft mahsulotlari va h. me'yorlar kiradi. Ushbu me'yorlar bo'yicha aylanma aktivlarga qilinadigan umumiy qo'yilmalar va ayrim normativlar (maksimallik prinsipi bo'yicha) hisob-kitob qilinadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish me'yorlari o'tgan yil tajribasi bo'yicha hisoblanadigan, o'z aylanma mablag'larining pasaymaydigan eng kam qoldiqlarini tuzatish uchun normativlarni indikativ usul bilan hisoblashda qo'llaniladi.

Moliyaviy me'yorlar faqat o'z aylanma mablag'larini me'yorlashtirish jarayonida qo'llaniladi va hisob-kitob qilinadi. Ular

bo'yicha aylanma mablag'larning, agrar korxonada normal faoliyat ko'rsatishi uchun doimiy zarur bo'ladigan va to'liq o'z manbalari hisobidan qoplanadigan aylanma mablag'larning rejadagi eng kam qoldiqlari aniqlanadi. Ular har xil tovar-moddiy boyliklarning kunlardagi zaxirasi yoki yillik ehtiyojdan foiz hisobida va mahsulot ishlab chiqarish hamda sotishning boshqa ko'rsatkichlarida o'rnatiladi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish ko'rsatkichlari, odatda, ishlab chiqarish dasturlari asosida hisob-kitob qilinadi.

To'g'ri hisob-kitob usuli bo'yicha aniqlanadigan moliyaviy me'yorlar ikki guruhga bo'linadi (6.9-rasm).



6.9-rasm. To'g'ri hisob-kitob usuli bo'yicha aniqlanadigan moliyaviy me'yorlar.

Qat'iy belgilangan moliyaviy me'yorlar xo'jalikning moliya xizmati yoki ilmiy tadqiqot institutlari tadqiqotlari asosida aylanma aktivlarning tegishli turiga bo'lgan yillik ehtiyojdan yoki boshqa muhim ko'rsatkichlardan (traktorlarning balans qiymati va h.) foiz hisobida o'rnatiladi. O'z aylanma aktivlarning me'yori ($N_{o'.a/a.}$) bu holda quyidagicha hisoblanadi:

$$N_{o'.a/a.} = N_{o'.a/a.} \cdot W, \quad (6.14)$$

Bunda,

$N_{o'.a/a.}$ – o'z aylanma aktivlarining o'rnatilgan qat'iy me'yori;

W – tegishli turdagi aylanma aktivga bo'lgan yillik

kutilayotgan ehtiyoj.

Agrar soha iqtisodchi olimlari va amaliyotchilarning tadqiqotlari ko'rsatishicha, donli ozuqa bo'yicha keyingi davrga o'tuvchi eng kam ehtiyoj (belgilangan me'yor) taxminan bir oylik zaxiraga mos keladi, ya'ni yillik ehtiyojning 8,3%, pichan va somon bo'yicha – 15-20; mineral o'g'itlar, zaharli ximikatlar, medikamentlar va dezinfeksiya

vositalari – 8,3; ta'mirlash-texnik materiallar – 8,3; traktorlarning ehtiyot qismlari -10; avtomobillarning ehtiyot qismlari – 5; qattiq yoqilg'i – 16,6%.

Kapital va joriy ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar va ta'mirlash – texnik materiallar normativi ushbu ishlar korxonaning ta'mirlash ustaxonasida bajarilganida hisoblab chiqariladi. Traktorlar, avtomobillar va qishloq xo'jalik mashinalari uchun motorlar hamda agregatlarning almashtirish fondini tashkil etish me'yori ularning balans qiymatidan 0,6% (eskirishni hisobga olmasdan) miqdorda o'rnatiladi.

Individual moliyaviy me'yorlar har bir xo'jalikda hisobot yoki boshqa bazis yili ma'lumotlariga asosan aniqlanadi. Ular foizlarda yoki zaxira kunlarida ifodalanishi mumkin. Har qanday holatda ularni hisob-kitob qilish o'z aylanma kapitalini xo'jalik jarayoniga kam miqdorda jalb qilish tamoyiliga asoslanadi. Foizlardagi me'yorlar inventar va xo'jalik anjomlari, idish va qadoqlash materiallari, tugallanmagan ishlab chiqarish kabilar bo'yicha normativlarni hisob-kitob qilish uchun aniqlanadi. Individual moliyaviy me'yor ($N, \%$) quyidagicha aniqlanadi:

$$N = (M_{h,y} / B_{h,y}) \cdot 100, \quad (6.15)$$

bunda,

$M_{h,y}$ – hisobot yilidagi aylanma aktivlar tegishli turining eng kam qoldig'i;

$B_{h,y}$ – aylanma aktivlar tegishli turining o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, hisobot yili joriy faoliyatining asosiy ko'rsatkichi.

Asosiy ko'rsatkich bo'lib: inventar va xo'jalik anjomlari hamda yordamchi materiallar uchun yalpi mahsulot qiymati; idish va idish materiallari uchun tuzilgan shartnomalar bo'yicha realizatsiya qilinadigan tovar mahsulotlar qiymati; tayyor mahsulot qoldig'i bo'yicha realizatsiya qilingan mahsulotlarning umumiy qiymati; yordamchi sanoat ishlab chiqarishlardagi tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha sanoat mahsulotlarining qiymati; ta'mirlash ustaxonalaridagi tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha ta'mirlash xarajatlarining summasi hisoblanadi.

O'z aylanma aktivlari normativi ($N_{o',u/a}, \%$) moliyaviy individual me'yorlardan foydalangan holda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N_{o',u/a} = N \cdot B_{r,y} \quad (6.16)$$

bunda,

B_{r.y.} – rejalashtirilayotgan yilda aylanma mablag‘lar tegishli turining miqdorini belgilaydigan, bosh ko‘rsatkich.

Meva-sabzavot va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida mahsulotlarni sotish davrida idish va ularni me‘yorlashtirish quyidagi tartibda hisoblash tavsiya etiladi (6.4-jadval).

Idish va idishlik materiallar bo‘yicha o‘z aylanma mablag‘lari normativining hisob-kitobi

6.4-jadval

No	Ko‘rsatkichlar	Summa, ming so‘m
1	Eng kam haqiqiy qoldiq (hisobot yili uchun buxgalteriya hisobining har oylik ma‘lumotlari bo‘yicha)	52900,0
2	Ishlab chiqarish uchun oshiqcha va keraksiz zaxiralar qiymati (inventarizatsiya yo‘li bilan aniqlanadi)	100,0
3	Eng kam haqiqiy qoldiq qiymati (ishlab chiqarish uchun oshiqcha va keraksiz zaxiralar qiymati chegirib tashlangan holda) (1 satr – 2 satr)	52800,0
4	O‘tgan yilda tuzilgan shartnomalar bo‘yicha mahsulot sotishdan olingan yalpi daromad	480000,0
5	Aylanma mablag‘larning moliyaviy individual me‘yori (3 satr·100:4 satr), %	11,0
6	Rejadagi yilda tuzilgan shartnomalar bo‘yicha mahsulot sotishdan olinadigan yalpi daromad	495000,0
7	Normativ (5 satr·6 satr: 100)	54450,0

Ta‘mirlash uchun neft mahsulotlari va qurilish materiallari bo‘yicha xususiy aylanma mablag‘larining normativlarini hisoblashda individual moliyaviy me‘yor kunlarda ifodalanadi. Uni aniqlash o‘tgan (boshqa bazis) yil uchun tegishli mablag‘ turining haqiqiy eng kam qoldig‘ini ushbu aylanma aktivning bir kunlik sarfiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi (yillik sarf : 360 kun). Misol tariqasida yoqilg‘i-moylash materiallari bo‘yicha o‘z aylanma aktivlari normativining hisob-kitobi keltirilgan (6.5-jadval).

Yoqilg'i-moylash materiallari bo'yicha o'z aylanma aktivlari normativining hisob-kitobi

6.5-jadval

t/r №	Ko'rsatikichlar	Summa, ming so'm
1	Yoqilg'i-moylash materiallari bo'yicha eng kam haqiqiy qoldiq (hisobot yili uchun buxgalteriya hisobining har oylik ma'lumotlari bo'yicha)	5400,0
2	Yoqilg'i-moylash materiallarining haqiqiy sarfi (o'tgan yil uchun yillik hisobot bo'yicha)	194400,0
3	Oldingi yilda yoqilg'i-moylash materiallarining bir kunlik sarfi (2 satr:360)	540,0
4	Moliyaviy me'yor (1 satr:3 satr), kunlar	10
5	Rejadagi yilda sotib olinadigan yoqilg'i-moylash materiallarining qiymati	208000,0
6	Rejadagi yilda yoqilg'i-moylash materiallarining bir kunlik sarfi (5 satr:360)	577,8
7	Rejadagi yilga o'z aylanma mablag'lari normativi (4 satr-6 satr)	5778,0

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun alohida ahamiyatga, asosan o'z ishlab chiqarishi hisobiga shakllanadigan va mavsumiy xususiyatiga ega aylanma mablag'lar (urug'lik, ko'chat va ekish materiallari, o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari, o'simlikchilik va chorvachilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarish hamda kelgusi davr xarajatlari) bo'yicha o'z aylanma aktivlarining normativi yil oxiriga kelgusi qo'yilmalarning umumiy miqdori kabi ($N_{o.a/a}$), ya'ni maksimal tamoyil bo'yicha aniqlanadi.

Urug'lik va ekish materiallari bo'yicha o'z aylanma aktivlari normativi rejalashtirilayotgan yildan keyingi yilda ekish uchun zarur bo'ladigan, urug'liklarga bo'lgan to'liq ehtiyojni ifodalaydi (qayta ekish hollarida sug'urta zaxirasini ham hisobga olgan holda). Ushbu zaxira miqdori 1 gektarga ekiladigan urug'lik va ekish materiallari me'yorini hamda ekin maydonlarini hisobga olgan holda hisoblab chiqariladi.

Urug'lik va ekish materiallari bo'yicha o'z aylanma aktivlari normativi ularga bo'lgan ehtiyojning reja tannarxi bilan sug'urta zaxirasi summasiga teng (6.6-jadval).

**Urug'lik va ekish materiallari uchun o'z aylanma aktivlari
normativini hisoblash**

6.6-jadval

Ekin turi yoki urug'lik	Urug'likka bo'lgan ehtiyoj,	Ekin maydoni, ga	1 ga uchun			Umumiy summasi, ming so'm	Sug'urta zaxirasi, so'm	Sug'urta zaxirasi qiymati, ming so'm	Normativ, ming so'm
			Ekish normasi, kg	1 kg. reja tannarxi, so'm	Summa, so'm				
Chigit	2250	50	45	1600	72000	3600,0	x	x	3600,0
Urug'lik bug'doy	15000	60	250	1200	300000	15000,0	10	1500,0	16500,0
O'tgan yildan qolgan urug'lik bug'doy	8000	40	200	900	180000	7200,0	x	x	7200,0
JAMI	x	X	x	x	x	x	x	x	27300,0

O'simlikchilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarish (kelgusi yil hosili uchun) bo'yicha normativ tugallanmagan ishlab chiqarishning har bir turi bo'yicha xarajatlar miqdori asosida aniqlanadi. Xarajatlarning umumiy summasini (normativni) hisob-kitob hamda kelgusi davrlar hosili uchun qilinadigan ishlarning har bir turi bo'yicha (kuzgi shudgor, ekish, o'g'it solish va h.), ishlarning jami hajmiga to'g'ri keladigan xarajatlarni aniqlash zarur (6.7-jadval).

**Kelgusi yil hosili uchun tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha o'z
aylanma aktivlarining normativini hisoblash**

6.7-jadval

	Maydoni, ga	Reja bo'yicha 1 ga xarajati, so'm	Normativ, ming so'm
Kuzgi shudgor	400	38500	15400,0
Kuzgi bug'doy ekish	500	18000	9000,0
Maballiy o'g'it	1000	55000	55000,0
Sug'orish	1000	20000	20000,0
Jami	X	x	99400,0

O'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari bo'yicha normativ yil oxiriga ularning rejadagi harakatini (poda aylanishi) ham hisobga olgan holda qoladigan, chorva mollarining qiymatidan tashkil topadi.

Chorvachilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha normativ yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishda qoladigan xarajatlarning to'liq reja qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Masalan, asalarichilikda amaldagi me'yorlar bo'yicha bitta asalari oilasiga to'g'ri keladigan ularni qishda boqish uchun zarur asal (qand) zaxirasi; parrandachilikda inkubatorga qo'yilgan tuxumlar; baliqchilikda hovuzlar va ko'llarda baliqlarni ko'paytirish xarajatlari, chavoqlar qiymatini ham qo'shgan holda. Aylanma aktivlarning ushbu turlari bo'yicha normativlar hisob-kitobi quyidagicha (6.8-jadval).

Chorvachilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha o'z aylanma aktivlarning normativini hisoblash

6.8-jadval

Tugallanmagan ishlab chiqarish turi	Miqd ori	Bahosi yoki reja tannarxi, so'm	Normativ, ming so'm
Rejadagi yil oxiriga inkubatsiyaga qo'yilgan tuxum, ming dona	30	310	9300,0
Asalarilarni qishda oziqlantirish uchun uyalarda qoldirilgan asal, kg	6	30 000	180,0
Rejadagi yil oxirida hovuzda qoldirilgan baliqlar, ts	11,5	20 000	230,0
Jami	X	x	9710,0

O'z aylanma aktivlarining jami normativi butun xo'jalik bo'yicha xususiy normativlar yig'indisidan tashkil topadi.

Indikativ usul bo'yicha o'z aylanma aktivlarining jami normativini aniqlashda aylanma mablag'larning alohida turlari bo'yicha normativlarini hisob-kitob qilish talab etilmaydi. Bunda jami normativni quyidagi variantlardan biri bo'yicha hisob-kitob qilish mumkin:

1 so'mlik yalpi mahsulotga yoki sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan aylanma mablag'larning, so'nggi 3-5 yillik ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan, o'rtacha yillik qoldiqlar to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlar, aylanma mablag'larning aylanuvchanligini hisobga olgan holda reja ko'rsatkichlarida tuzatilgan;

o'z aylanma aktivlarining ishlar mavsumiy kamaygan davrdagi eng kam haqiqiy jami summasidan kelib chiqqan holda;

yil boshidagi o'z aylanma aktivlarining, rejalashtirilayotgan yilda hisobot yiliga nisbatan mahsulot sotish hajmining o'zgarish foiziga tuzatilgan, jami normativi hajmida.

Ushbu variantlardan istalganini qo'llash reja hisob-kitoblarini soddalashtiradi va ularning sarmehnatligini qisqartiradi. Shu bilan birga jami normativni yuqorida ko'rsatilgan variantlar bo'yicha hisob-kitob qilish hisoblab chiqarilgan miqdorlarning xo'jalikdagi o'z aylanma aktivlariga bo'lgan eng kam haqiqiy ehtiyojga mosligini ta'minlamaydi. Birinchi variant bo'yicha hisob-kitobda eng kam emas, balki o'rtacha yillik ehtiyoj aniqlanadi, ikkinchi variant bo'yicha esa tegishli sanaga (ishlarning pasayish paytiga) mos kelishni aks ettiruvchi, aylanma aktivlarning eng kam, eng ko'p, o'rtacha va boshqa qoldiqlarining miqdorlari jamlanadi. Uchinchi variantni 2-3 yil davomida qo'llash me'yorlashtirish uchun birlamchi haqqoniy asosning yo'qolishiga olib keladi. Chunki jami me'yorning o'zgarishi tovar mahsulotlarning hajmi va sotish baholariga bog'liq.

Moliyaviy rejalashtirishda o'z aylanma aktivlariga bo'lgan ehtiyoj boshqa usullar yordamida ham aniqlanishi mumkin. Xususan, o'z aylanma mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj *moliyaviy koeffitsiyentlar* orqali aniqlanishi mumkin. Buning uchun eng qulay bo'lgani xususiy kapitalning manyovrililik koeffitsiyenti (K_m) va zaxiralar hamda xarajatlarning o'z aylanma aktivlari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti ($K_{o.a.}$).

Qishloq xo'jalik korxonalarini uchun K_m 0,2-0,5 oraligida bo'lishi maqbul hisoblanadi. Uning maqbul qiymati tanlanib, qishloq xo'jalik korxonalarida o'z aylanma aktivlariga bo'lgan ehtiyoj ($E_{o.a.}$) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E_{o.a.} = K_m \times XK_{y.o.} \quad (6.17)$$

bunda,

$XK_{y.o.}$ – xususiy kapitalning yil oxiriga qiymati.

Xususiy kapitalning rejadagi summasi ($XK_{y.o.}$) uning foyda hisobidan ta'minlangan, ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlantirish hamda rezerv kapitalini to'ldirish uchun qoldirilgan, rejalashtirilayotgan yildagi qo'shimcha o'sishi va yil boshidagi haqiqiy hajmini jamlash yo'li bilan aniqlanadi. Korxonada xususiy kapitali to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansini passivining birinchi bo'limida ko'rsatiladi. Xususiy kapitalning foyda hisobidan rejadagi ko'payishi foydani taqsimlash smetasi(rejasi)da aks ettiriladi.

Agar korxonada aylanma mablag'larni shakllantiradigan o'z resurslariga bo'lgan ehtiyoj zaxiralar va xarajatlarning o'z aylanma

mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti ($K_{o'.a/a}$) asosida aniqlansa, formula quyidagicha ifodalanadi:

$$E_{o'.a/a} = K_{o'.a/a} \times Z_{y.o} \quad (6.18)$$

bunda,

$Z_{y.o}$ – zaxiralar va xarajatlarning yil oxiriga rejalashtirilayotgan miqdori (moddiy aylanma aktivlarga qilingan qo'yilmalar va debitor qarzlarsiz).

Agrar korxonalar uchun $K_{o'.a/a}$ ning maqbul qiymati 0,5 va undan yuqori, kritik (pastki) chegarasi esa, 0,1 ni tashkil etadi.

6.3.3. Moddiy aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalar va ular manbalarining yig'ma-rejasi. O'z aylanma mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni hisob-kitob qilinishining maqbul usulini tanlash korxonaning moliyaviy siyosatiga bog'liq. Moliyalashtirishning «ideal» modeli qo'llanilganda o'z aylanma kapitaliga ehtiyoj umuman hisoblanmaydi, «konservativ» modelda aylanma aktivlarning rejalashtirilgan summasiga mos keladi, «murosali» modelda esa – aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoj o'zgaruvchan qismining yarmiga teng bo'ladi. Har qanday usul bo'yicha hisoblangan, o'z aylanma mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj ularni shakllantirishning o'z manbalarini topish bilan mustahkamlanishi lozim.

O'z aylanma aktivlari va ularni shakllantirish manbalariga bo'lgan ehtiyojni yig'ma rejasini tuzish quyidagicha bo'lishi mumkin (6.9 jadval).

O'z aylanma aktivlariga bo'lgan ehtiyoj va ularni shakllantirish manbalari

6.9-jadval

Ko'rsatkichlar	Summa, ming so'm
Rejalashtirilayotgan yil oxiriga o'z aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoj	480 000
Shakllantirish manbalari:	
rejalashtirilayotgan yil boshiga o'z aylanma aktivlarining haqiqiy miqdori	390 000
rejalashtirilayotgan yil oxiriga barqaror passivlar	10 000
rejalashtirilayotgan yil foydasidan ajratma	80 000
J a m i m a n b a l a r	480 000

O'z aylanma aktivlarining haqiqiy qoldig'i buxgalteriya balansi ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Barqaror passivlar hisob-kitobi mazkur guruhga kiruvchi har bir modda bo'yicha amalga oshiriladi va keyinchalik jamlanadi (hisob-kitob formulalari 6.2.2 bo'limda

keltirilgan). Foydadan ajratiladigan summa foydani taqsimlash rejasiga muvofiq aniqlanadi.

Agar o'z aylanma aktivlariga qilingan qo'yilmalar, ularning yil boshidagi (barqaror passivlar bilan birgalikdagi) haqiqiy qoldig'iga nisbatan kam bo'lsa, bunday holat yil oxiriga o'z aylanma mablag'larining oshiqchaligidan dalolat beradi. Agar o'z aylanma aktivlariga bo'lgan ehtiyoj, uni shakllantirish mumkin bo'lgan manbalardan katta bo'lsa, u holda korxonada keyingi yillarda ishlab chiqarishini to'la ta'minlash uchun resurslar topishi lozim.

Shunday qilib, o'z aylanma aktivlari va ularni shakllantirish manbalariga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi – rejalashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Lekin amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda ko'pchilik agrar korxonalar aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalarning hammasini faqat o'z manbalari hisobidan qoplay olmaydi. Natijada, ular jalb qilingan manbalar, ya'ni kreditorlik qarzlardan (barqaror passivlardan tashqari) foydalanishlariga to'g'ri kelmoqda. Ularning miqdori asosan korxonaning kredit layoqati va qarz beruvchilarning kredit siyosatiga bog'liq. Kreditorlik qarzlarning ushbu nomuntazam qismi *to'g'ri hisob-kitob* yoki *indikativ* usul bilan aniqlanishi mumkin.

Birinchi usul xarid shartnomalarini qo'llashga asoslangan bo'lib, dastavval, kutilayotgan bir kunlik kreditorlik qarzlari aniqlanadi. Kreditorlik qarzlarning rejadagi umumiy summasi bir kunlik qarzni (uning doimiy, ya'ni muntazam qismi chegirib tashlangan holda) qarzdorlik kunlari soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Qarzdorlik muddati mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar shakllari; hujjatlar aylanishi; to'lov muddatini kechiktirish vaqti va hokazolarga bog'liq.

Indikativ usulni qo'llash agrar korxonaga muntazam ravishda moddiy qiymatliklarni yetkazib turadigan tashkilotlar oldidagi haqiqiy normal qarzini va ushbu qarzning bir yillik mol yetkazib berishlarning umumiy summasidagi ulushini aniqlashga asoslangan. Rejadagi yil oxiriga kutilayotgan kreditorlik qarzlari ($KQ_{y.o}$) yil oxiridagi haqiqiy normal kreditorlik qarzning bir yillik mol yetkazib berishlar umumiy summasidagi ulushiga asosan ($U_{k,q}$) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$KQ_{y.a} = U_{k,q} \cdot XH, \quad (6.19)$$

bunda, XH – rejalashtirilgan xaridlar hajmi.

Rejadagi yilning oxiriga aylanma aktivlarni tashkil etish uchun qisqa muddatli kreditlar va qarzlarga bo'lgan ehtiyojni rejalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektda oldin olingan kreditlar va qarzlarning bir qismi rejalashtirilgan yilda qoplanmay qolayotganligidan dalolat beradi. Bu vaqtda aylanma aktivlarga qilingan qo'yilmalarning xususiy, unga tenglashtirilgan va jalb qilingan manbalar hisobidan qoplanmagan bir qismiga kredit (yoki qarz) olishni rejalashtirish maqsadga muvofiq. Natijada rejalashtirilayotgan yil oxiriga moddiy aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalar hajmi ularni qoplash manbalarining: xususiy, jalb qilingan va qarz manbalarining umumiy summasiga mos keladi.

6.3.4. Pul oqimlarini rejalashtirish

Pul mablag'lari aylanma aktivlarning o'ziga xos turi bo'lib, ularning tarkibida alohida o'rin tutadi va moliyaviy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Ular agrar korxonaning barcha moliyaviy munosabatlarida qatnashadi: mulkdorlar bilan (ustav kapitalini shakllantirish va olingan daromadning bir qismini to'lash), ishchi va xizmatchilar bilan (mehnat haqi to'lash, moddiy rag'batlantirish, yetkazilgan zarar uchun jarima undirish va h.), davlatning moliya tizimi bilan (soliqlarni to'lash, budjetdan mablag' olish va h.) va b.

Funksional tayinlanishi bo'yicha pul hisoblashuv-to'lov vositasi hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish zaxiralari, mashina va qurilmalarni yetkazib beruvchilar, qurilish-montaj ishlarini bajarish bo'yicha pudratchilar bilan, ish haqi va mukofot to'lash bo'yicha xodimlar bilan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish bo'yicha xaridorlar bilan hisob-kitoblarning yakunlanishini ta'minlaydi.

Pul mablag'larining harakatlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun olingan pul mablag'larining bir qismi, yana xo'jalik ehtiyojiga ishlatiladi, oldin ishlatilgan ishlab chiqarish zaxiralari tiklanadi, tugallanmagan ishlab chiqarishning zarur qismi, tayyor mahsulotlar va realizatsiya uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Bunda pul mablag'lari aylanishining davomiyligi aylanma aktivlar aylanishining davomiyligi bilan debitorlik-kreditorlik qarzlarning aylanuvchanlik davridagi farqiga mos kelmaydi. Agar kreditorlik qarzar debitorlik qarzlardan ko'p bo'lsa, u holda pul mablag'larining aylanuvchanligi barcha aylanma aktivlarga nisbatan uzoqroq davom etadi. Aksincha, debitorlik qarzar kreditorlik qarzlardan

ko'p bo'lsa, pul mablag'larining aylanuvchanligi barcha aylanma aktivlarga nisbatan tezlashadi.

Olingan pul mablag'larining boshqa qismi agrar korxonaning investitsiya faoliyatiga yoki noishlab chiqarish sohasining xarajatlarini to'lashga ishlatiladi. Daromadlarning bir qismi davlat, mulkdorlar, ishchi va xizmatchilar foydasiga taqsimlanishi natijasida pul kirimlarining ma'lum ulushi korxonaga aktivlarining doiraviy aylanishidan chiqib ketadi.

Pul mablag'larining aylanma aktivlar tarkibidagi maxsus o'rni ularni alohida rejalashtirishni talab etadi.

Pul oqimlari rejasini tuzishdan asosiy maqsad – korxonaga faoliyatining barcha turlari (asosiy, investitsiya, moliyaviy) bo'yicha xo'jalik muomalalarini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan pul resurslarining hajmini aniqlash hamda kelgusidagi barqaror kirimi va sarflanishini ta'minlashdan iborat.

Pul oqimlarini rejalashtirish to'g'ri va egri usullar bilan amalga oshiriladi.

To'g'ri usul pul mablag'lari hajmining ma'lum davrdagi o'zgarishini ularning kirimi va chiqimini taqqoslash asosida hisob-kitob qilishni nazarda tutadi. Bu o'zgarishlar (ijobiy yoki salbiy pul oqimi) rejada pul mablag'larining rejalashtirilayotgan davr boshiga va oxiriga bo'lgan qoldiqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rnatishga imkon beradi.

Pul oqimlarini ma'lum davr uchun rejalashtirish uslubi quyidagilarni aniqlashni ta'minlaydi:

– korxonaning kassasiga va bankdagi schyotlariga asosiy manbalardan kelib tushishi kutilayotgan pul mablag'larining hajmi (pul mablag'lari kirimi);

– tegishli yo'nalishlar bo'yicha pul mablag'lari sarflanishining kutilayotgan hajmi (pul mablag'larining chiqimi);

– sof pul oqimi (pul mablag'larining oshiqchaligi yoki yetishmasligi);

– qisqa muddatli moliyalashtirishga bo'lgan jami ehtiyoj.

Pul oqimlarining choraklar (oylar)ga bo'lingan rejasi, odatda, agrar korxonaning faoliyat turlari (asosiy, investitsion va moliyaviy faoliyatlar) bo'yicha tuziladi.

Asosiy, ya'ni ishlab chiqarish-tijorat faoliyati agrar korxonaga foydasining asosiy manbasi bo'lib hisoblanadi. U boshqa faoliyat

turlariga qaraganda, mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasidan olinadigan pul tushumlarining asosiy qismini ta'minlaydi. Pul chiqimlari tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish, mol yetkazib beruvchilarga qarzlarni to'lash, soliqlar hamda majburiy to'lovlar va h. bilan bog'liq. Asosiy faoliyatdan olinadigan ijobiy pul kirimlari ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsiya faoliyatini ta'minlash hamda kreditlar va qarzlarni to'lashga imkon yaratadi.

Investitsiya faoliyati ko'pincha pul mablag'larining chiqimiga olib keladi, chunki bu sohada pul kirimlarining asl omili hisoblangan, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni, qimmatli qog'ozlarni sotish hamda xususiy aksiyalarni qayta sotish korxonada kamdan-kam amalga oshiriladi. Masalan, 2011-yilda «Mehnat» agrofirmasida investitsiya faoliyati bo'yicha pul kirimi bo'lmagan. Asosiy vositalar sotib olish uchun 197606 ming so'm sarflangan.

Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'lari tushumi kreditlar va qarzlarni jalb qilish hamda qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish hisobiga shakllantiriladi. Mazkur faoliyat bo'yicha pul chiqimining asosiy yo'nalishlari: banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar bo'yicha foizlar, lizing bo'yicha foiz to'lovlari; xorijiy valuta bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar; o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar; moliyaviy faoliyat bilan bog'liq boshqa xarajatlardan iborat.

Asosiy, investitsiya va moliyaviy faoliyat turlari pul oqimlarini bitta sohadan ikkinchisiga o'tkazish yo'li bilan korxonaning normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlab, pul resurslarining yagona summasini shakllantiradi. Pul mablag'larining harakatlanish rejasi moliyaviy hisobotning 4-shakli- «*Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot*»ga o'xshash shaklda tuziladi. Bunda mazkur reja muayyan korxonaga shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda oy yoki choraklarga bo'lib tuzilishi mumkin.

Pul oqimlari rejasining shakli xilma-xil. Agrofirmanda pul oqimlarini rejalashtirish variantlaridan bittasini misol tariqasida keltiramiz (6.10-jadval).

Agrofirmaning moliya xizmati ushbu shakl bo'yicha pul oqimlari rejasini tuzib, pul mablag'larining kirimi va chiqimini faoliyat turlari bo'yicha kuzatib borishi lozim. Asosiy faoliyatdan olingan oshiqcha pul mablag'lari investitsiya qilinishi yoki qarzlarni so'ndirish uchun yo'naltirilishi mumkin. Asosiy va investitsiya faoliyatidan olingan,

vaqtinchalik oshiqcha pul mablag'larini yuqori likvidli pul mablag'lariga joylashtirish yoki boshqa tijorat korxonalariga qarz shaklida berish mumkin.

Pul oqimlari rejasini to'g'ri usul bo'yicha tuzish uchun mahsulot (ish, xizmat) lar realizatsiyasi, kapital qo'yilmalar, tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish rejasini; o'tgan yil uchun bankdagi schyotlardan ko'chirmalar; oldi-sotdi va pudrat shartnomalari va h. ma'lumotlardan foydalaniladi.

Agrar korxonaga uchun pul oqimlari rejasini tuzishda, xaridorlardan pul olinishi va mahsulotlarni sotishga jo'natish hamda tovar-moddiy boyliklarni sotib olish va ularning pulini to'lash vaqti ko'p hollarda mos kelmasligini inobatga olish zarur. Har qanday holatda ham, pul kiritilishi va chiqimlarini rejalashtirish korxonaga va mol yetkazib beruvchilarning kredit siyosati, soliq qonunchiligi, ish haqi to'lash rejimi, tuzilgan shartnomalar va kreditorlik hamda debitorlik qarzlarni so'ndirish bo'yicha o'tgan yillar tajribasiga tayanish lozim.

Agrar korxonaning joriy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur pul mablag'lariga bo'lgan rejadagi eng kam ehtiyojini (PM_{\min}) quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$PM_{\min} = \frac{CH_f}{A_{pm}}, \quad (6.20)$$

Bunda,

CH_f – joriy faoliyatga doir pul chiqimlarining taxmin qilinayotgan hajmi;

A_{pm} – pul mablag'larining aylanuvchanligi (hisobot davridagi muddatga o'xshash).

«Mehnat» agrofirmasida pul oqimlarining rejasini, ming so'm

6.10-jadval

Ko'rsatkichlar	Rejalashtirilgan yil oylar bo'yicha												Yilda jami			
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12				
I. Operatsion faoliyat																
Davr boshiga pul mablag'larining qoldig'i	3000	8000						5000						21000		37000
Operatsion faoliyatdan pul mablag'larini tushumi: mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'larini	20000	23000	3000	40000	43000	45000	60000	80000	98000	210000	150000	130000				929000
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va h.	15000	19000	22000	20000	11000	17000	15000	25000	67000	20000	10000	5000				246000
Operatsion faoliyatning jami pul tushumi	35000	42000	52000	60000	54000	62000	75000	105000	165000	230000	160000	135000				1175000
Jami pul mablag'larini	38000	50000	52000	60000	54000	62000	75000	110000	165000	230000	160000	156000				1212000
Operatsion faoliyat bo'yicha pul chiqimlari: mol yetkazib beruvchilarga to'langan	12000	30000	20000	20000	25000	30000	30000	33000	30000	32000	35000	30000				327000
Xodimlarga to'langan va h.	18000	4000	30000	80000	83000	70000	40000	37000	35000	58000	70000	80000				605000
Jami pul chiqimlari	30000	34000	50000	100000	108000	100000	70000	70000	65000	90000	105000	110000				932000
Operatsion faoliyat bo'yicha pul mablag'larini																

oshiqchaligi (+), tanciqsligi (-)	+8000	+16000	+2000	-40000	-54000	-38000	+5000	+40000	+100000	+140000	+55000	+46000	+246000
Asosiy vositalarni sotish va h.	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Jami pul kiritimi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Investitsiya faoliyati bo'yicha pul chiqimi: asosiy vositalar sotib olish	120000	120000	80000										200000
Jami pul chiqimlari	120000	120000	80000										200000
Investitsiya faoliyati bo'yicha pul mablag'lari oshiqchaligi (+), tanciqsligi (-)	-120000	-120000	-80000										-200000
Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul kiritimi: olingan dividendlar va h.	104000	104000	78000	40000	54000	38000							314000
Jami pul mablag'lari tushumi	104000	104000	78000	40000	54000	38000							314000
Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul chiqimi								40000	100000	140000	34000		314000
Jami pul chiqimi								40000	100000	140000	34000		314000
Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'lari oshiqchaligi (+), tanciqsligi (-)	-	+104000	+78000	+40000	+54000	+38000		-40000	-100000	-140000	-34000		-
Davr oxiriga qoldiq	8000	-	-	-	-	-	5	-	-	-	21000	46000	46000

Pul oqimlari rejasiga asosan agrar korxonaning likvidlik darajasini, joriy majburiyatlarini to'lash uchun o'z to'lov mablag'lari bilan ta'minlanganligi va investitsiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlash imkoniyatini baholash mumkin.

Lekin, pul oqimlarini to'g'ri usul bo'yicha rejalashtirish moliyaviy natija va pul mablag'lari summasi o'zgarishining o'zaro aloqadorligini ko'rsatishga imkon bermaydi. Bunga pul oqimlarini rejalashtirishning egri usuli yordamida erishish mumkin.

Egri usulga muvofiq pul mablag'lari harakatining davr oxiriga sof natijasi, kirimlar va chiqimlar aks ettirilmasdan aniqlanadi. Uni hisob-kitob qilish uslubining mazmuni korxonada sof foydasini pul mablag'lariga aylantirish jarayonidan iborat. Sof foydani pul mablag'lariga aylantirishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- moliyaviy natijani va pul mablag'larining kirimi (chiqimi)ni aniqlash tamoyillarining buzilishi. Ya'ni asosiy faoliyat va faoliyatning boshqa turlari bo'yicha moliyaviy natija pul kirimlari va chiqimlari *hisoblash usuli* asosida, pul mablag'larining qo'shimcha o'sishi (kamayishi) esa pul oqimlari usuli asosida aniqlanadi;

- moliyaviy natijaga ta'sir ko'rsatuvchi, ammo pul ishtirok etmaydigan kirimlar va chiqimlarning mavjudligi. Agrar korxonaning xo'jalik faoliyati sohasida shunday daromad va xarajat moddolari borki, ular faoliyatning moliyaviy natijasiga ta'sir ko'rsatadi, ammo pul mablag'larini ishlatish bilan bog'liq emas. Masalan, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa aktivlar eskirishi, o'zida ishlab chiqarilgan zaxiralarning (urug'lik, ozuqa, o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari) xo'jalik ichida ishlatilishi.

Asosiy, investitsiya va moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'lari o'sishi yoki kamayishining rejasini hisob-kitob qilish uslublari asosiy faoliyat bo'yicha pul mablag'larining kirimi (chiqimi) aylanma aktivlarning harakati va mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasidan foyda olish (zarar ko'rish) bilan bog'liq. Asosiy faoliyat bo'yicha pul oqimlarining o'sishi yoki kamayishini aniqlash uchun quyidagi hisob-kitoblar qo'llaniladi:

- aylanma aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar qoldiqlarining kutilayotgan o'zgarishlari, ularning rejalashtirilayotgan davr boshiga va oxiriga qoldiqlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi;

- aylanma aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar har bir turi o'zgarishining pul mablag'lari va sof foyda holatiga ta'siri baholanadi. Buning uchun rejalashtirilayotgan davrdagi sof foyda summasiga

aylanma aktivlarning kamayishi qo'shiladi yoki ularning qo'shimcha o'sishi ayriladi hamda qisqa muddatli kreditlar va qarzlarning barcha turlari bo'yicha kreditorlik qarzlarning ko'payishi qo'shiladi yoki ularning kamayish summasi ayriladi;

- sof foyda, uni ko'paytiradigan (kamaytiradigan), ammo pul mablag'lariga ta'sir ko'rsatmaydigan kirimlar va chiqimlar summasiga tuzatiladi. Buning uchun sof foydani tuzatishning oldingi natijasiga asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning rejalashtirilayotgan davrdagi eskirishi hamda zaxiralalar, jumladan, o'stirilayotgan va boquvdagi mollarning xo'jalik ichidagi aylanish summasi qo'shiladi;

- asosiy ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha boshqa daromadlar va xarajatlarning ta'siri chegirib tashlanadi (asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishi bo'yicha). Asosiy faoliyat bo'yicha pul mablag'larining qo'shimcha o'sishi (kamayishi)ni aniqlashda ikki marta hisobga kiritishning oldini olish uchun ushbu operatsiyalardan ko'rilgan zararlar sof foydaga qo'shiladi, foyda esa, chegirib tashlanadi.

Pul mablag'larining investitsiya faoliyatdagi kirimi (chiqimi) uzoq muddatli aktivlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Rejalashtirilayotgan davrda ularning o'zgarishiga asosiy vositalarni sotish va sotib olish, boshqa korxonalarining qimmatli qog'ozlarini sotib olish, uzoq muddatli qarzar berish va ularni so'ndirishdan olinadigan mablag'lar kirimi kabilar sabab bo'ladi. Investitsiya faoliyati bo'yicha pul oqimlari rejasini tuzishda sof foyda yuqorida aytilgan aktivlarni sotish summasiga (egri soliqlar hisobga olinmasdan) ko'payadi va ularni sotib olish bilan bog'liq xarajatlar summasiga kamayadi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'larining kirimi (chiqimi) uzoq muddatli majburiyatlar va xususiy kapitalning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan muomalalar – olingan kreditlar bo'yicha foizlar to'lash, mulklarni uzoq muddatli ijaraga olish (berish) bilan bog'liq xarajatlar (daromadlar), obligatsiyalar chiqarish, dividendlar to'lash, uzoq muddatli kreditlar va qarzar olish natijasida vujudga keladi. Moliyaviy faoliyatga doir muomalalarni hisobga olgan holda sof foyda quyidagicha tuzatiladi (korrektirovka qilinadi): qimmatli qog'ozlarni chiqarish va olingan uzoq muddatli kreditlar summasiga ko'payadi va so'ndiriladigan obligatsiyalar, kreditlar, to'lanadigan dividendlar va shunga o'xshashlar summasiga kamayadi.

Pul mablag'larining hisobot davri oxiriga umumiy o'zgarishi, pul mablag'larining rejalashtirilayotgan davr boshiga qoldig'i va agrar korxonaning barcha faoliyat turlari bo'yicha hisobot davridagi

o'zgarishlari (kirimi, chiqimi) bo'yicha aniqlanadi. Ya'ni rejalashtirilayotgan davr boshidagi pul mablag'i qoldig'iga har bir faoliyat turi bo'yicha kirim qo'shib, chiqim chegirib tashlanadi va hisobot davri oxiriga qoldiq chiqariladi. Pul oqimlari rejasini egri usul bilan tuzish uchun buxgalteriya balansi (1-shakl) va moliyaviy natijalar prognozi ma'lumot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

6.4. Aylanma kapitalni tashkil etishga doir tezkor tadbirlar

Moddiy va pul aylanma aktivlari, xususiy aylanma kapital va boshqa moliyaviy resurslar tezkor moliyaviy ishlar amalga oshiriladigan obyektlar hisoblanadi. Bunda har bir obyekt bo'yicha quyidagilar amalga oshiriladi: moddiy va pul aylanma aktivlari bo'yicha tezkor moliyaviy rejalashtirish; aylanma aktivlarning harakatlanishi bilan bog'liq muomalalarni hujjatlashtirish; buxgalteriya balansi aktivining «Joriy aktivlar» bo'limini tuzish; tezkor moliyaviy tahlil va aylanma aktivlarni tartibga solish.

Moddiy aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalarni tezkor rejalashtirishda, odatda, shunga o'xshash prognozlarni yil oxiriga tuzishda qo'llaniladigan usullardan foydalaniladi. Prognozlashning indikativ usulini qo'llashda qo'shimcha ravishda yangi hisob-kitob uslubi – har chorak oxiriga qoldiqlarni, ularning yil oxiriga rejalashtirilgan miqdoriga nisbatan foizda aniqlash usuli bilan to'ldiriladi. Bunda o'tgan yil (yoki so'nggi uch yildan o'xshash bo'lgan bir yil) uchun buxgalteriya balansi ma'lumotlari bo'yicha moddiy aylanma aktivlarga qilingan haqiqiy qo'yilmalar miqdori yil ichidagi har bir chorak oxirida aniqlanadi. So'ngra u yoki bu chorak oxiriga bo'lgan qo'yilmalar foizi yil oxiriga bo'lgan moddiy aylanma aktivlarga qilingan qo'yilmalarga nisbatan aniqlanadi.

O'z aylanma aktivlarini, ya'ni (qo'yilmalar hajmi va ularni shakllantirishning manbalarini) yil ichida rejalashtirish o'z aylanma aktivlarini me'yorlashtirish asosida yoki 6.3.2 bo'limda bayon etilgan koeffitsiyent usulidan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda rejalashtirilayotgan yildagi jami normativning qo'shimcha o'sishi (kamayishi) yil oxiridagi normativ va o'z aylanma aktivlarining rejalashtirilayotgan yil boshidagi miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Chorak sanalari bo'yicha jami normativ o'z aylanma aktivlarining yil boshiga va oxiriga bo'lgan qoldiqlari doirasida rejalashtiriladi. Ya'ni o'z aylanma aktivlarining o'sishini rejalashtirishda

yil ichidagi summa yil boshidagi summaga qaraganda past bo'lmashligi, yil oxiridagi summadan yuqori bo'lmashligi lozim.

O'z aylanma aktivlarining choraklik rejalashtirilishi chekka nuqtalar oralig'ida tovar-moddiy zaxiralar va ishlab chiqarish xarajatlarining haqiqiy o'zgarishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Masalan, o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari bo'yicha normativning qo'shimcha o'sishi butun yil davomida rejalashtirilishi mumkin; ozuqalar bo'yicha – ularni qishga tayyorlash vaqtida (III chorak) urug'lik bo'yicha – ularni bahorgi ekish uchun jang'arish davrida (III-IV choraklar); o'simlikchilik va chorvachilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha – kelgusi yil hosili uchun ishlarni bajarish, inkubatorlarga tuxumlarni joylashtirish davrida (III-IV choraklar) va h.; o'z aylanma kapitali hisobidan aylanma aktivlarga qilingan qo'yilmalarning qo'shimcha o'sishi barcha chorak sanalariga ularni qoplash manbalarini rejalashtirish – barqaror passivlarning qo'shimcha o'sishi, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun foydadan ajratmalar, shu jumladan, rezerv kapitalini ko'paytirishga ajratmalar bilan bog'lanadi. Barqaror passivlarning o'sishi (rejalashtirilayotgan yil oxiriga va boshiga bo'lgan summalar o'rtasidagi farq) yil davomida bir me'yorda taqsimlanadi. Barqaror passivlar summasining har chorak oxiriga qoldig'i yil boshidan o'sib boruvchi jami bilan aniqlanadi. Rejalashtirilayotgan chorakda aylanma mablag'larga qilinadigan qo'yilmalarni shakllantirishga yo'naltiriladigan foyda summasi uni shakllantirish va taqsimlash smetasi bilan bog'lanadi.

O'z moliyaviy resurslari hisobidan aylanma aktivlarga qilinadigan rejadagi qo'yilmalarning umumiy summasi har chorak oxirida to'la hajmda o'z manbalari hisobidan ta'minlanishi lozim. Bunday manbalarga o'z aylanma aktivlarining rejalashtirilayotgan yil boshidagi haqiqiy qoldig'i, yil boshidan o'sib boruvchi jami bilan hisoblangan foydadan ajratmalar va barqaror passivlar kiradi. O'z aylanma aktivlariga ehtiyoj va ularni qoplash manbalarining yil davomidagi yig'ma rejasi 6.11-jadvalda keltirilgan.

O'z aylanma aktivlariga bo'lgan ehtiyojni *koeffitsiyent usuli* yordamida aniqlashda, masalan, manevrlik koeffitsiyenti qo'llanilganda, qo'yilmalarni yil davomida rejalashtirish ketma-ketligi quyidagicha:

**O'z aylanma aktivlariga ehtiyoj va ularni qoplash manbalarining
yig'ma rejasi (ming so'm hisobida)**

6.11- jadval

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	1 aprelga	1 iyulga	1 oktyabrga	Yil oxiriga
O'z aylanma mablag'lariga ehtiyoj	188300	189900	194400	205000	213400
Qoplash manbalari: rejalashtirilayotgan yil boshiga o'z aylanma aktivlarining haqiqiy qoldig'i	177900	177900	177900	177900	177900
barqaror passivlar	10400	11000	11500	12000	12500
o'z aylanma aktivlarini to'ldirish uchun foydadan ajratmalar (jamb'arish fondi, qo'shilgan kapital)	x	1000	5000	15000	20000
rezerv kapitaliga foydadan ajratmalar	x	-	-	1	30
Jami manbalar	188300	189900	194400	205000	213400
Yil oxiriga o'z aylanma aktivlarining oshiqchaligi	x	-	-	-	-

• rejalashtirilayotgan yil har choragining oxiriga kutilayotgan xususiy kapital hajmi aniqlanadi. U o'sib boruvchi jami bilan hisoblab chiqariladi, ya'ni yil boshidagi xususiy kapital summasiga xususiy kapitalning choraklik, yarim yillik yoki 9 oylik qo'shimcha o'sishi qo'shiladi. Qo'shimcha o'sish ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlantirishga hamda korxonaning rezerv kapitaliga yo'naltirilgan foydadan ajratmalar hisobiga erishiladi. Ma'lumotlar foydani shakllantirish va taqsimlashning choraklik rejalaridan hamda tegishli maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar mablag'laridan foydalanish smetasidan olinadi;

• o'z aylanma mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi. Buning uchun manevrlilik koeffitsiyentining maqbul qiymati tegishli chorak oxiriga (1-aprel, 1- iyul, 1-oktabr) kutilayotgan xususiy kapital summasiga ko'paytiriladi;

• har chorak oxiriga o'z aylanma aktivlariga bo'lgan rejadagi ehtiyojni ta'minlashning o'z manbalari prognozlashtiriladi. Manbalar tarkibi va ularni rejalashtirish tartibi o'z aylanma mablag'larini yil oxiriga rejalashtirishga o'xshash;

• o‘z aylanma aktivlariga bo‘lgan ehtiyojning va ularni qoplash manbalarining chorak sanalariga yig‘ma rejasi tuziladi (uni tuzish uslubi aylanma mablag‘larni me‘yorlashtirishga o‘xshash).

Mazkur uchastkada moliya ishlarini tezkor rejalashtirish moddiy aylanma aktivlarga qilinadigan umumiy qo‘yilmalar va ularni qoplash manbalarini rejalashtirish bilan yakunlanadi. Shungacha moliyaviy menejer moddiy aylanma aktivlarga qilinadigan qo‘yilmalar va o‘z aylanma mablag‘larining umumiy summasini hisoblab, ularni shakllantirishning tashqi manbalarini aniqlaydi. Bunday manbalarga kreditorlik qarzlari, qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni kiradi. Yil ichida rejalashtirish yil oxiriga prognozlash qoidalariga asoslanadi (6.12-jadval).

Pul mablag‘larini tezkor rejalashtirish to‘lov taqvimini tuzish va bajarishdan iborat. U oylarga bo‘lingan holda bir chorakka ishlab chiqiladi. Ushbu hujjatni ishlab chiqish uchun quyidagilar bo‘yicha tezkor rejalar ma‘lumot bazasi bo‘lib hisoblanadi: mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasi, kapital qo‘yilmalar, moddiy-texnika ta‘minoti, mehnat haqi fondi va faoliyatning moliyaviy natijalari. Oy davomida pul mablag‘lari harakatining taqvimli rejasini tuzish uchun qo‘shimcha ravishda shartnomalar, moddiy boyliklarni kirim qilish yoki mahsulotlar va boshqa aktivlarni jo‘natish uchun schot-fakturalar, bank ko‘chirmalari, kassir hisobotlari, ish haqi va soliqlarni to‘lash grafigi, korxonada ma‘muriyatining ichki buyruqlari va h. ma‘lumotlardan foydalaniladi. Ishlar yakuni kelgusi chorak (oy) uchun to‘lov taqvimi va kelgusi oy uchun naqd pul mablag‘lari harakatining taqvimli rejasini tuzish bilan yakunlanadi. Birinchi yo‘nalish ishlarni har chorakda va oyma-oy bajarilishini aks ettiradi. U taxminan kelgusi yil uchun pul mablag‘lari harakatini to‘g‘ri usul bilan prognozlashga o‘xshash.

Aylanma aktivlarning reja balansi (ming so‘m)

6.12- jadval

Ko‘rsatkichlar	Yil boshiga	1-aprelga	1-iyulga	1-oktabrga	Yil oxiriga
Aylanma mablag‘lar (moddiy aylanma aktivlarga qo‘yilma)	200000	230000	240000	220000	210000
Qoplash manbalari, jami	200000	230000	240000	220000	210000
shu jumladan: rejalashtirilayotgan yil boshiga xususiy					

kapitalning haqiqiy hajmi	177900	177900	177900	177900	177900
barqaror passivlar	10400	11000	11500	12000	12500
rejalashtirilayotgan yilda o'z manbalari	-	1000	5000	15100	23000
tovar, ish va xizmatlar uchun kreditorlik qarzi (barqaror passivlardan oshgan qismi)	2700	10000	12000	8000	7000
qarz manbalar	9000	31100	33600	7000	2100

Ikkinchi yo'nalish tovar-moddiy boyliklarni sotib olish va ularning pulini to'lash, ish haqi to'lash (ish haqi bo'yicha bo'naklar va yakuniy hisob-kitoblarni to'lash summasi va sanasi), soliqlar va boshqa to'lovlarning muddatlari va hajmi (pudrat ishlari, avtotransport xizmatlari, elektr energiyasi, sug'urta badallari va shu kabilarni to'lash) bilan bog'liq ma'lumotlarga asoslanadi.

Muomalalarni hujjatli rasmiylashtirish aylanma aktivlarni to'lash, pul mablag'larini bankdagi hisob-kitob hisobvarag'iga va korxonaga kassasiga kirim qilish, soliq to'lovlarini hisoblash va soliq organlari shchyotlariga o'tkazish va h. bilan bog'liq.

Moliyaviy hisobotni tuzish moliyaviy menejmentda ishlatiladigan axborot-larni to'plashda katta ahamiyatga ega. Korxonaga hisobot davri yakuni bo'yicha buxgalteriya balansini tuzib, uning aktividagi II bo'limida joriy aktivlarning tarkibi, passividagi II bo'limida esa ularni shakllantirish manbalari aks ettiriladi. Korxonani tezkor moliyaviy nazorat qilish va boshqarish uchun buxgalteriya balansi har oyda tuzilishi ham mumkin. Shuningdek, debitorlik - kreditorlik qarzlari va pul mablag'lari harakati bo'yicha ham tezkor moliyaviy hisobot tuziladi.

Aylanma aktivlardan foydalanishni *tezkor moliyaviy tahlil* qilish, odatda, buxgalteriya balansi va uning ilovalari ma'lumotlariga asosan amalga oshiriladi. Tezkor moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi aylanma aktivlar va ular manbalarining strukturasi o'zgarishlarni aniqlash; o'z aylanma aktivlarining o'zgarishini aniqlash va hokazolardan iborat.

Aylanma aktivlarni tezkor tahlil qilish maxsus usullar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Joriy aktivlar va passivlar tahlilida taqqoslash, guruhlash va zanjirli usullar keng qo'llaniladi. Tezkor tahlilda maxsus vositalar sifatida esa manevrlilik, likvidlik, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik va boshqa moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Aylanma aktivlar moliyaviy tahlil

qilish natijasida olingan xulosalarga asosan korxonada ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari ishlab chiqiladi. Aylanma aktivlardan foydalanishning samaradorligini oshirish yo'llaridan biri – ortiqcha va ishlatilmaydigan qiymatliklarni sotish yoki urug'lik, ozuqa va korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan boshqa aylanma aktivlarning tannarxini pasaytirish hisobiga zaxiralar miqdorini pasaytirish hisoblanadi.

Lekin, aylanma aktivlarga qilingan qo'yilmalarni tartibga solish muhim, ammo yagona tezkor tadbir emas. Bundan tashqari, debitorlik-kreditorlik qarzlarni va o'z aylanma aktivlarini, xususan, debitorlik qarzlarning real holatini, shu jumladan, dargumon qarzlarni so'ndirish ehtimolini tartibga solish tadbirlari ham amalga oshiriladi. Dargumon qarzlar summasiga o'z vaqtida rezerv yaratish maqsadga muvofiq. Debitorlik qarzlarni qisqartirish uchun baho shakllanishi va to'lov shartlari bo'yicha muayyan sharoitga moslashuvchan shartnomalar modelidan keng foydalanish zarur.

Agrar korxonada o'z aylanma aktivlarini tartibga solish bo'yicha tezkor ishlar ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1) o'z aylanma aktivlarining haqiqiy va reja summalarini tartibga solish;

2) o'z aylanma aktivlariga rejali ehtiyojni tartibga solish.

1. O'z aylanma aktivlarining haqiqiy va rejadagi miqdori chorak (yil) boshi yoki oxiriga bo'lgan holati bo'yicha taqqoslanadi. Taqqoslash natijasida o'z aylanma kapitalining oshiqchaligi yoki yetishmasligi aniqlanadi.

O'z aylanma kapitalining yetishmasligi moliyaviy qiyinchiliklardan dalolat beradi. Bular hisob-kitob schyotida erkin pul mablag'larining yo'qligi, mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlik qarzlari to'lov muddatining o'tib ketishi va h. Aylanma kapital yetishmovchiligi mulkdorlarning qo'shimcha badallari va kelgusi yil foydasi hisobidan to'ldirilishi mumkin. Bunday manbalar bo'lmaganida o'z mablag'lari o'miga muddati o'tgan ssudalar, soliqlar, tovar-moddiy boyliklar uchun to'lovlar va h. qarzlar ishlatiladi. Shuning uchun, o'z mablag'lari yetishmovchiligining oshib borishi korxonani bankrotlikka olib kelishi mumkin. O'z aylanma aktivlarining oshiqchaligi odatda, korxonahavolining barqarorligidan dalolat beradi.

2. Rejalashtirilayotgan davr (chorak, yil) boshi va oxiridagi o'z aylanma kapitaliga bo'lgan rejadagi ehtiyoj taqqoslanadi va o'z aylanma kapitali miqdorining o'sishi yoki pasayishi aniqlanadi. Prognoz

qilinayotgan o'sish summasiga qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini izlab topish zarur. Bular foydadan ajratmalar, ishlatilmayotgan rezerv kapitali mablag'lari, maxsus mo'ljaldagi fondlar bo'lishi mumkin. Ushbu resurslar yetishmaganida mulkdorlarning qo'shimcha badallari jalb qilinishi mumkin. O'z aylanma aktivlariga ehtiyoj pasayganida, davr oxiridagi holat bo'yicha ularning oshiqchaligi vujudga keladi. Ehtiyojning pasayishi ishlab chiqarish faoliyatining qisqarishi, sotib olinadigan ishlab chiqarish resurslari bahosining tushib ketishi hamda aylanma aktivlar aylanuvchanligining tezlashishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, aylanma aktivlarga qo'yilgan o'z aylanma kapitalini o'z vaqtida tezkor tartibga solish agrar korxonalar moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Nazorat savollari

1. Agrar korxonalar aylanma kapitalining mohiyati, tarkibi va funksiyalarini tavsiflang.
2. Agrar korxonalar aylanma kapitalini tashkil etish xususiyatlari va yo'nalishlari qanday?
3. Aylanma kapitalni rejalashtirish qanday o'zaro aloqadorliklarni ta'minlashi mumkin?
4. Aylanma kapitalni tashkil etish agrar soha tarmoqlari bilan bog'liq qanday xususiyatlarga ega?
5. Agrar korxonalar aylanma aktivlari va ularning tarkibini tavsiflang.
6. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning biznes-modelini tavsiflang.
7. Aylanma aktivlarning manbalari va ularning tarkibini tavsiflang.
8. O'z aylanma kapitalini aniqlash nima uchun zarur? U qanday usullar yordamida aniqlanadi?
9. Qarz manbalar va jalb qilingan manbalarning farqi hamda turlari qanday?
10. Barqaror passivlarning mazmuni va ularni turlari bo'yicha hisoblash tartibi?
11. Kreditorlik qarzlarning o'zgaruvchan qismining mazmuni va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
12. Aylanma aktivlarning doimiy qismi va o'zgaruvchan qismi deganda nimani tushunasiz?

13. Aylanma aktivlarni moliyalashtirishning: «ideal», «agressiv», «konservativ» va «murosali» modellarini tavsiflang (farqlari, kamchiliklari, afzalliklari)?

14. Xususiy kapital va qarz kapitalining maqbul nisbatini ta'minlashning ahamiyati nimadan iborat? Ular o'rtasidagi nisbat qanday usullar yordamida baholanadi?

15. Aylanma kapitalni rejalashtirish (ehtiyojni hisob-kitob qilish) zarurati va obyektlarini tavsiflang?

16. Agrar korxonaning moddiy aylanma aktivlarini shakllantirishda qanday moli-yaviy siyosat shakllari qo'llanilishi mumkin?

17. Moddiy aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalarni prognozlashda qanday usullar qo'llaniladi? Ularni tavsiflang.

18. Moddiy aylanma aktivlarning manbalari qanday rejalashtiriladi?

19. Me'yorlashtiriladigan va me'yorlashtirilmaydigan aylanma aktivlarni tavsiflang.

20. O'z aylanma aktivlarining normativi qanday usullar yordamida aniqlanadi? Ularni tavsiflang.

21. Moddiy aylanma aktivlarga qilinadigan qo'yilmalarning yig'ma rejasi qanday tuziladi?

22. Pul oqimlarini *egri usul* va *to'g'ri usul* bo'yicha rejalashtirishning xususi-yatlari, kamchilik va afzalliklari nimalardan iborat?

23. Aylanma kapitalni tashkil etishga doir tezkor tadbirlarning mazmuni va ahamiyatini ochib bering.

Nazorat testlari

1. Ishlab chiqarish sohasidagi aylanma aktivlar

A) Ishlab chiqarish zaxiralari, yosh va boquvdagi mollar va tayyor mahsulotlar

B) Aylanma mablag'larning hammasi.

C) Ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari, kelgusi davr xarajatlari.

D) Kelgusi davr xarajatlari, ishlab chiqarish zaxiralari va pul mablag'lari.

E) Ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va debitor qarzlar.

2. Korxonaning o'z aylanma kapitali qanday aniqlanadi?

A) Ustav kapitaliga taqsimlanmagan foydani qo'shish bilan.

- B) Ustav kapitaliga rezerv kapitalini qo'shish va tashqi majburiyatlarni ayirish bilan.
- C) Ustav kapitaliga qo'shilgan kapital va taqsimlanmagan foydani qo'shish va tashqi majburiyatlarni ayirish bilan.
- D) Ustav kapitaliga rezerv kapitalini va taqsimlanmagan foydani qo'shish bilan.
- E) Joriy aktivlar summasidan joriy majburiyatlar summasini ayirish bilan.

3. Quyidagi ma'lumotlarga muvofiq aylanma mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsiyentini aniqlang. 1) sotishdan olingan yalpi pul kirimi 1256 ming so'm. 2) sotilgan mahsulotlarning tannarxi 9850 ming so'm.3) to'langan egri soliqlarning summasi 63 ming so'm.4) aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qoldig'i 598 ming so'm.

- A) 2,31
- B) 2,1
- C) 1,98
- D) 1,89
- E) 2,23

4. Muomala sohasidagi aylanma mablag'lar

- A) Ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari.
- B) Yosh va boquvdagi katta hayvonlar, kelgusi davr xarajatlari, debitor qarzarlar.
- C) Debitor qarzarlar, kelgusi davr xarajatlari, pul mablag'lari.
- D) Pul mablag'lari, tayyor mahsulot, yosh va boquvdagi hayvonlar.
- E) Tayyor mahsulot, pul mablag'lari va debitor qarzarlar.

5. Qishloq xo'jalik korxonalarida aylanma mablag'larning manbalari

- A) O'z aylanma mablag'larining manbalari, bank krediti, barcha kredit qarzarlar.
- B) Budjetdan beriladigan mablag'lar, bank krediti va yuqori tashkilotning mablag'lari.
- C) Bank krediti, o'z mablag'larining manbalari va budjetdan beriladigan mablag'lar.
- D) O'z aylanma mablag'larining ustav kapitalidagi manbalari.
- E) O'z aylanma mablag'larining balansdagi mavjud manbalari.

6. Qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy faoliyatga doir aylanma mablag'lariga nimalar kiradi?

- A) Tayyor mahsulot, ishlab chiqarish zaxiralari va pul mablag'lari.
- B) Ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari, kelgusi davr xarajatlari, tayyor mahsulot, pul mablag'lari va debitor qarzlari.
- C) Ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot, yosh va boquvdagi mollar, kelgusi davr xarajatlari va pul mablag'lari.
- D) Ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari.
- E) Ishlab chiqarish zaxiralari, debitor qarzlari, pul mablag'lari kam qiymatli predmetlar, yosh va boquvdagi katta hayvonlar, kelgusi davr xarajatlari.

7. Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jalik korxonalarini mablag' bilan ta'minlash manbalari

- A) Budget mablag'lari, bank krediti va o'z mablag'lari.
- B) Budgetdan beriladigan mablag'lar va ta'sischi'larning mablag'lari.
- C) O'z mablag'lari va bank krediti.
- D) O'z mablag'lari, qarzga olinadigan mablag'lar va ta'sischi'larning mablag'lari.
- E) O'z mablag'lari, yuqori tashkilotlardan beriladigan mablag'lar va bank krediti.

8. O'z aylanma mablag'larning normativi

- A) O'z aylanma mablag'larning ustav kapitalidagi manbalaridir.
- B) O'z aylanma mablag'larning rejada ko'zda tutilgan summasidir.
- C) O'z aylanma mablag'larning balansidagi mavjud summasidir.
- D) Aylanma mablag'larga bo'lgan umumiy ehtiyojlar.
- E) Korxonaning hamma aylanma mablag'laridir.

9. Quyidagi ma'lumotlarga asosan aylanma mablag'lar aylanishining tezlashishi yoki sekinlashishi natijasida ularning aylanishdan bo'shab chiqqan yoki aylanishdan to'xtagan summasini aniqlang.

1) sotishdan olingan pul kirimlari hisobot yilida 1200 m.s o'tgan yili 1800 ming so'm 2) aylanma mablag'larning o'rtacha qoldiq summasi hisobot yilida 200 ming so'm o'tgan yili 240 ming so'm 3) kun hisobidagi aylanuvchanlik hisobot yilida 60 ming so'm o'tgan yili 72 ming so'm

- A) 60,0 ming.so‘m.
- B) 55,0 ming.so‘m.
- C) 58,0 ming.so‘m.
- D) 59,0 ming.so‘m.
- E) 61,0 ming.so‘m.

10. Korxonaning o‘zgaruvchan kapitali qanday aniqlanadi?

- A) Rezerv kapitali, qo‘shilgan kapital va taqsimlanmagan foydani qo‘shish bilan.
- B) Taqsimlanmagan foydaga aylanma kapitalni qo‘shish bilan.
- C) Taqsimlanmagan foydaga rezerv kapitalini qo‘shish bilan.
- D) Aylanma kapitalga rezerv kapitali va qo‘shilgan kapitalni qo‘shish bilan.
- E) Taqsimlanmagan foydaga qo‘shilgan kapital va asosiy kapitalni qo‘shish bilan.

11. Ishlab chiqarish zaxiralariga nimalar kiradi?

- A) Urug‘lik, yem-xashak, o‘g‘it, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar.
- B) Xomashyo, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar va tayyor mahsulotlar.
- C) Korxonadagi barcha aylanma ishlab chiqarish fondlari.
- D) Tayyor mahsulot va ishlab chiqarishning aylanma fondlari.
- E) Urug‘lik, yem-xashak, o‘g‘it, ehtiyot qismlar va tayyor mahsulotlar.

VII bob. AGRAR KORXONALAR FAOLIYATINI QISQA MUDDATLI KREDITLASH

7.1. Agrar korxonalar faoliyatini moliyaviy ta'minlashda qisqa muddatli kreditlarning ahamiyati

Mamlakatimiz bank tizimida kreditlash shakllaridan keng foydalanish mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, banklarning kredit operatsiyalari ko'lamini kengaytirishga, kredit riskini ma'lum darajada minimallashtirishga va nihoyat, banklarning kredit operatsiyalaridan oladigan daromadlarni oshirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6-apreldagi «Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1317-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tijorat banklarning ishtirokini yanada faollashtirish maqsadida 2010-yilda jami 3,2 trillion so'mlik kredit resurslarini ajratish belgilab berilgan. 2010-yilda tijorat banklari tomonidan korxonalar va tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga yo'naltirilgan investitsion kreditlarning miqdori 3,1 trillion so'mni tashkil etib, yillik reja 96 foizga bajarilgan.


2010-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 35 foizga ko'payib, bugungi kunda ularning miqdori 11,5 trillion so'mdan oshib ketdi va ichki manbalar hisobidan berilgan kreditlarning tijorat banklari umumiy kredit portfelidagi yalpi ulushi 85,1 foizni tashkil etdi.

Banklarning kredit portfeli tarkibida ham sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Umumiy kredit portfelida uzoq muddatli, ya'ni 3 yildan ortiq muddatga beriladigan investitsiya kreditlarining ulushi 2000-yilning oxiridagi 35 foizdan 2010-yilning oxirida 75,2 foizga o'sdi (7.1-rasm).

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra «Kredit – bu pulning egasi ishtirokida uni haq to'lash sharti bilan qarzga olib ishlatishi va ular o'rtasida turgan vositachilarning iqtisodiy munosabatlaridir»⁵⁸.

⁵⁸Улмасов А., Валобов А. Иқтисодийет назарияси, Тошкент «Шарк» – 2006, - Б. 360

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditlash muhim ahamiyat kasb etib, quyidagi funksiyalarni bajaradi: kapitalning doiraviy aylanishi jarayonida korxonalarda, aholida, budjetda turib qoladigan pul mablag'larining doimiy vujudga kelishi va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun to'laroq safarbar qilish o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish; mablag'lar doiraviy aylanishining davomiyligi xilma-xil bo'lgan, ko'plab tarmoqlar va korxonalarining faoliyat ko'rsatishi sharoitida kapital aylanishining uzluksizligini ta'minlash; korxonalarni tijorat asosida boshqarish. Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish va sotish yil mavsumlari bilan bog'liq va agrar korxonalarining aylanma kapitalini tashkil etishda kreditlar alohida ahamiyatga ega.



7.1-rasm. Tijorat banklari kredit portfelining o'sishi.⁵⁹

Qo'shimcha mablag'larni jalb qilish vaqtinchalik zaxiralar va tugallanmagan ishlab chiqarishni shakllantirish uchun zarur.

Doiraviy aylanish jarayonida barcha mablag'lar uchta bosqichdan o'tadi: ta'minot, ishlab chiqarish va realizatsiya. Ushbu barcha bosqichlarda aylanma aktivlar xo'jalik faoliyatining uzluksizligini va muvaffaqiyatini ta'minlaydigan hajmda bo'lishi lozim.

Birinchi bosqichda pul mablag'lari korxonalar tomonidan zarur xomashyo, urug'lik, o'g'it, yoqilg'i, ehtiyot qismlar va boshqa moddiy boyliklarni xarid qilish uchun sarflanadi. Xarid qilingan ushbu zaxiralar

⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққотининг мустакиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: Стат. тўплам. –Т., «Ўзбекистон», 2011. – Б. 32.

ishlab chiqarishga sarflanib, u yerda asosiy vositalar va ishchi kuchi yordamida yangi mahsulot yaratiladi va uning katta qismi sotish uchun mo'ljallanadi, ya'ni tovarga aylanadi hamda xaridorlarga sotiladi.

Aylanma aktivlar doiraviy aylanishning ikkinchi bosqichida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun bir necha oylab, ayrim hollarda yillab turib qolishi tabiiy sharoitlarga bog'liq. Masalan, o'simlikchilikda mahsulot chiqishi bilan qoplanmaydigan, xarajatlar o'sishining keskin notekisligi kuzatiladi. Ular birinchi yarim yillikda ko'payadi va ikkinchisida kamayadi. Tayyor mahsulot chiqishi va uni sotish, asosan, uchinchi chorakda boshlanadi. Chorvachilikda aylanma mablag'larni sarflash va mahsulot chiqishi ham notekis amalga oshiriladi. Bu tebranishlar bitta doiraviy aylanishdan boshqasiga o'tishda biroz tekislanishi mumkin. Chorva mollarini boqish jarayonida aylanma aktivlar sarfi o'sib, xarajatlar faqat mol bo'rdoqidan olingan va sotilganidan so'ng qoplanadi. Xarajatlar va mahsulot chiqishining mavsumiy tebranishi pul aylanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi: mahsulot sotishdan tushum notekis olinadi, buning ustiga, eng kam mahsulot chiqishi eng ko'p xarajat qilish davriga to'g'ri keladi.

Agrar korxonalarda o'z aylanma aktivlari eng kam miqdorda bo'lib, mavsumiy zaxiralar yaratiladi va boshqa xarajatlar uchun esa qarz mablag'lari (asosan qisqa muddatli kreditlar) jalb qilinadi. Bu aylanma aktivlarni sotib olishga pul yetishmasligi oqibatida ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolish yoki sekinlashish xavfini bartaraf etadi. Bu holda kredit eng yaxshi iqtisodiy dastak va aylanma mablag'larni shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi. Kreditlar o'z aylanma aktivlari bilan birga, jami aylanma aktivlar tarkibida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish jarayonida doiraviy aylanishda ishtirok etadi.

Kreditlar moddiy boyliklar sotib olishga doir muomalalarni jadallashtiradi, mahsulot sotish bosqichida u realizatsiyaga doir muomalalarni jadallashtirish, muomala fondiga oshiqcha qo'yilmalar qilishga yo'l qo'ymaydigan dastak hisoblanadi.

Kreditlar asosan kapital aylanishining ishlab chiqarish bosqichida jalb qilinadi. Kredit resurslari zarur ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish uchun ham, bevosita ishlab chiqarish xarajatlari sarflash uchun ham jalb qilinadi. Kreditlar mablag'larni ishlab chiqarish jarayoniga oqilona joylashtirishga yordam beradi va ularning harakatini tezlashtiradi.

Qisqa muddatli kreditlash shakllari va usullari qishloq xo'jaligida kapital doiraviy aylanishining xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishi lozim. Bular:

– ishlab chiqarish bosqichida mablag'lar aylanishining sekinlashishi;

– ichki aylanish ulushining kattaligi;

– mavsumiy ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish zarurligi katta summadagi mablag'larni sarflashni talab etadi;

– xarajatlarning asta-sekin va notekis o'sib borib, ishlab chiqarish sikli oxirida olingan mahsulotlarni sotish natijasida qaytishi;

– noqulay ob-havo sharoitlari va tabiiy ofatlar oqibatida mahsulotlarning to'liq yig'ib olinmasligi va nobud bo'lishi. So'nggi xususiyat sug'urta fondlari yaratishni talab etadi.

Shunday qilib, aylanma aktivlarning doiraviy aylanishi ssuda munosabat-laridan foydalanish uchun imkoniyat va iqtisodiy asos yaratadi. Kreditlash zarurati esa bozor sharoitida aylanma kapitaldan oqilona foydalanish va doiraviy aylanish-ning har bir bosqichida eng kam miqdorda ishtirok etish shartidan kelib chiqadi.

7.2. Agrar korxonalarini kreditlash jarayonining mazmuni va umumiy tartibi

Kreditlash jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat bo'lib, kredit qo'yilmalari dasturini tuzish, bank kreditlarini olish, ishlatish va qaytarilishi kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Kredit qo'yilmalarini dasturlash korxonalarining kredit olish arizalariga asosan bank tomonidan amalga oshiriladi. Bozorda ahvoli barqaror korxonalarda ushbu ariza ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturining bir qismi hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar dasturi natijasida, tadbirkorlik faoliya-tini kengaytirish va kapital doiraviy aylanishining uzluksizligini ta'minlaydigan qarz resurslar jalb qilinadi.

Bank kreditlarini olishning mazmuni pul mablag'larini, ularni foizlari bilan birga qaytarish kafolatlangan holda bank tomonidan taqdim etilishidan iborat. Bunda banklarning majburiyati shundan iboratki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning qarz kapitaliga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilishi lozim.

Kreditlardan foydalanish bank mablag'larini korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq majburiyatlariga doir to'lovlarni amalga oshirish uchun yo'naltirishni bildiradi. Uning maqsadi-debitorlik

qarzlari vujudga kelishining oldini olish, korxonalarining o'zaro ishonch asosida to'lov intizomini qo'llab-quvvatlash hamda xo'jalik aloqalarining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Kreditlardan foydalanishning muhim sharti-kredit berilgan tadbirlarning samaradorligi, foyda keltirishi va qarzning bankka o'z vaqtida qaytarilishi hisoblanadi.

Kreditlarning qaytarilishi pul mablag'larining tegishli foiz summolari bilan birga bankka qaytib kelishini bildiradi. Ushbu jarayon kreditning mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ishlashi uchun alohida ahamiyatga ega. Bu bosqichda bank resurslarining portfeli qayta tiklanadi va yangi kreditlar berish imkoniyati yaratiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlashning umumiy mexanizmi 7.2-rasmda ko'rsatilgan.

Kredit berish qoidalari, kredit shartnomalarini tuzish tartibi, bosqichlari va shartlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tavsiyanomalari va ko'rsatmalari asosida tijorat banklari tomonidan mustaqil ishlab chiqiladi. Biroq, umumiy ketma-ketlikka rioya qilish kredit arizalarini o'rganishga ketadigan vaqtni tejash va shartnomaning barcha tafsilotlarini to'liq hisobga olishga imkon beradi.


Mijoz-korxonalar bilan bank muzokaralari. Mijoz-korxonalar kredit olish uchun bankka murojaat qilganida tegishli bank bo'limining menejeri tomonidan kreditning barcha shakllari, amaldagi foiz stavkalari, ta'minlash turlari hamda bankning tijorat siri hisoblanmaydigan boshqa ma'lumotlar to'g'risida batafsil axborot beriladi.

Menejer mijoz bilan ishlash jarayonida uning bank xizmatlari to'g'risida tasavvurga ega emasligini inobatga olishi va kreditlashning maqbul shaklini tanlashda unga har tomonlama yordam berishi lozim.

Bank mijoz-korxonalar faoliyati to'g'risida axborotlarga ega bo'lishi uchun bank vakili korxonalar rahbariyati yoki tegishli ishlarni amalga oshirish uchun ishonch bildirilgan, vakolatli shaxs bilan muzokaralar olib boradi.

Muzokara jarayonida quyidagi muhim masalalar aniqlanadi:

- korxonalar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar;
- mazkur bankka murojaat qilinish sabablari;
- loyihaning o'z-o'zini qoplashi;
- qarzni so'ndirishning taxmin qilinayotgan usullari;
- qarz mablag'lar bo'yicha ta'minot;
- korxonada mavjud qarzdorlik miqdori va xususiyati.



7.2-rasm. Kreditlash jarayonining umumiy tartibi.

Bank xodimi korxonada ishlarining ahvoli to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlarni (tajriba va professional kompetentlik, faoliyat istiqbollari va qarzni to'lash) mijoz-korxonani o'rganish natijasida olishi mumkin.

Hujjatlar to'plamini shakllantirish. Agar muzokaralar muvaffaqiyatli o'tsa, kredit oluvchi tomonidan bank rahbari nomiga qarz olish to'g'risida ariza (buyurtma) yoziladi. Unda kredit summasi, muddati, ishlatish maqsadi, taklif qilinadigan ta'minot va so'ndirish manbalari ko'rsatiladi.

Kredit uchun buyurtmanoma(ariza) ro'yxatga olinganidan so'ng mijoz bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. Kredit mablag'laridan foydalanishning texnik-iqtisodiy asosnomasi (TLA): loyihaning texnik bayoni; xarajatlar hisob - kitobi; kreditni qaytarish manbalari; kredit loyihasi amalga oshirishdan olinadigan daromad hisob-kitobi, loyihani amalga oshirish uchun zarur muddat.

2. Ta'sis hujjatlarining to'plami (mijozga xizmat ko'rsatmaydigan boshqa bankka murojaat qilinganida): ustav yoki ta'sis shartnomasining nusxasi (notarial tasdiqlangan); ro'yxatga olish guvohnomasi; soliq inspeksiyasida ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lumotnoma; imzo namunalari va muhr tushirilgan bank kartochkasi; xizmat ko'rsatuvchi bankdan olingan saldo ma'lumotnomasi (unda hisob - kitob va valuta schotlarining mavjudligi so'nggi olti oydagi oylik oborotlari ko'rsatilgan holda tasdiqlanadi); qarz oluvchi korxonada rekvizitlari.

3. Kredit oluvchi korxonaning moliyaviy ahvolini tavsiflaydigan hujjatlar to'plami: ikkita hisobot davri uchun soliq inspeksiyasida tasdiqlangan buxgalteriya balansi (1-shakl) va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl); debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2a-shakl).

4. Kredit resurslarining maqsadli ishlatilishini aks ettiradigan hujjatlar.

5. Kreditlarni ta'minlashga doir hujjatlar:

- *tovar-moddiy boyliklar garovga qo'yilganda* – garovga qo'yiladigan tovar-moddiy boyliklar ro'yxati, aniq bahosi va sotib olingan sanasi ko'rsatilgan holda; tovarlar mavjudligini tasdiqlovchi omborxonada ma'lumotnomasi; ko'rsatilgan tovarga mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

- *mulklar garovga qo'yilganda* – garovga qo'yiladigan mulklar ro'yxati asosiy risk turlaridan sug'urtalanganlik to'g'risida sug'urta polislarini ilova qilingan holda;

- *ishlab chiqarish qurilmasi garovga qo'yilganda* – qurilmalar ro'yxati, ishlab chiqarilgan mamlakat va yili, balans qiymati, eskirish darajasi; asosiy vositalarning inventarizatsiya ro'yxati;

- *ko'chmas mulk garovga qo'yilganda* – ko'chmas mulk hujjatlari;

- *qishloq xo'jalik chorva mollari garovga qo'yilganda* – chorva mollari (yoki guruh) nomi, yoshi, bir boshining o'rtacha og'irligi, bosh soni tirik vazni, balans va garov qiymati, Bosh daftardagi 1100 «O'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari» schotining rashifrovkasi, yirik shoxli qoramollar guruhlari to'g'risida

ma'lumotnoma; «Chorva mollari va parrandalar harakati to'g'risida hisobot»dan ko'chirma;

- *qimmatli qog'ozlar garovga qo'yilganda* – garovga taklif qilinadigan qimmatli qog'ozlar ro'yxati, nominal qiymati, chiqarilgan yili, emitent haqida ma'lumotlar, so'ndirish sanasi;

- *boshqa banklar va chet tashkilotlar kafolat berganida* – bankning birinchi va ikkinchi imzo huquqiga ega shaxslari imzolagan hamda muhr bosilgan bank kafolati; kafolat beruvchining keyingi ikki hisobot davri uchun balansi (mablag'larni jalb qilish va yo'naltirish muddatlari bo'yicha rasshifrovkasi bilan birga), balansdan tashqari schyotlar qoldiqlarini ham ko'rsatgan holda;

- *sug'urta guvohnomasi mavjud bo'lganida* – kreditni, foizlarini va ehtimoli bo'lgan jarima to'lovlarini so'ndiraolmaslik riskini sug'urtalash haqida polis; soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan sug'urta kompaniyasining ikki hisobot davri uchun balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti; sug'urta kompaniyasi ta'sis hujjatlari va sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaning notarial idora tomonidan tasdiqlangan nusxasi.

5. Kredit mablag'larini tanlashning taxminiy grafigi (kredit liniyasi doirasida kredit olish uchun ariza taqdim etilganda).

6. Kreditni so'ndirish grafigi.

7. Agar kredit olish uchun taxmin qilinayotgan operatsiya kredit oluvchi korxonaning bu sohadagi birinchi tajribasi bo'lmasa, o'tgan yilda shunga o'xshash operatsiyalar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Bank mutaxassislari tushgan ariza bo'yicha xulosa tayyorlashga kirishishdan oldin, bankning kredit bo'limi tomonidan kredit oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar tekshiriladi. Bular asosan ta'sis va ro'yxatga olish hujjatlarida bayon qilingan ma'lumotlar, korxonahabbarining va ta'sischilarning tarjimai holi (ularning tashkilotchilik va axloqiy xususiyatlari) hamda korxonaning mulkiy va xo'jalik holati to'g'risidagi axborotlarning ishonchiligi; hujjatlar to'plamining sifati va talablarga mosligi, qalbakilashtirish holatlarining yo'qligi; korxonaning obro'si; kredit oluvchining mustaqilligi va biznesining «tozaligi»; ariza beruvchining qarz mablag'larini ishlatish va ularni qaytarishi bo'yicha rejalarning to'g'riligi; taklif etilayotgan garov predmetining «tozaligi» va qiymatining haqqoniyliigi.

Tekshiruv natijalari xulosa bilan rasmiylashtirilib, unda mijoz bilan kelishilgan shartnoma majburiyatlarini bajarishga ta'sir ko'rsatadigan

bank risklari va omillari baholanadi. Kreditlash bo'yicha qo'shimcha shartlar va tavsiyalar ilgari surilishi mumkin. Ushbu hujjat ekspert va bankning kredit bo'limi boshlig'i tomonidan imzolanadi.

Mijozning moliyaviy ahvolini va kreditning ta'minlanganligini tahlil qilish. Kredit berilishi to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin kredit oluvchi korxonaning faoliyatini dastlabki nazorat qilish va kreditning qaytarilmaslik xatarini prognozlashga katta e'tibor beriladi. Shu maqsadda bankning tahlil xizmati mijozning moliyaviy ahvolini tahlil qilib, uning kredit layoqati va to'lov layoqatini, balansining tuzilishi va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasini baholaydi.

Korxonada balansini tahlil qilish ikkita: *vertikal* (joriy balans asosida koeffitsiyentlarni tahlil qilish) va *gorizontal* (har xil hisobot davrlari uchun tendensiyalarni tahlil qilish), usulda amalga oshiriladi.

Korxonada moliyaviy ahvolini «vertikal» usulda tahlil qilish DSIga so'nggi topshirilgan balans (1-shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl), debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma (2a-shakl) ma'lumotlariga ishlov berishdan iborat.

Ushbu axborotlar asosida, iqtisodiy nuqtayi nazardan korxonada ahvolini eng to'la aks ettiradigan parametrlar hisoblab chiqariladi. Tahlil quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi: absolyut ko'rsatkichlar, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, to'lov layoqati, rentabellik, ishlash faolligi. Quyida ko'riladigan ko'rsatkichlar korxonaning ma'lum mezonlariga mos kelishi to'g'risida guvohlik beradi. Lekin, mezonlarning o'zi (ularning miqdor ko'rsatkichlari) tarmoq, mintaqa va korxonada hajmiga bog'liq. Keyingisi bilvosita tarzda absolyut ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanadi.

Absolyut ko'rsatkichlar – korxonaning absolyut miqdordagi o'z aktivlari va aylanma mablag'laridir.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari investorlar va kreditorlar manfaatlarining himoyalanganlik darajasini tavsiflaydi. Bu ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish uchun mulklar qiymati asos bo'ladi.

Ushbu guruhning muhim ko'rsatkichi mustaqillik koeffitsiyenti bo'lib, korxonada o'z mablag'larining mulklar qiymatidagi ulushini bildiradi. Bu ko'rsatkich 0,4 dan katta bo'lganda yuqori hisoblanadi. Bu holda kreditorlar riski eng past darajaga tushadi.

Qarz mablag'larining o'z mablag'lariga nisbati korxonaning tashqi qarzlarga bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu nisbat qanchalik yuqori bo'lsa, aksiyadorlar uchun tavakkalchilik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Bu

ko'rsatkichning maqbul chegarasi 0,3 dan 1 gacha bo'lib, 1 dan oshgani kritik holat hisoblanadi. Qarzdorlik summasining o'z mablag'lari summasidan oshib ketishi korxonada moliyaviy barqarorligi shubhaliligidan dalolat beradi.

Shuni inobatga olish kerakki, mazkur parametrda nisbatan bu mezon ko'proq tavsifiyaviy tavsifga ega va faoliyat turlari xilma-xil korxonalar uchun keskin farq qilishi mumkin.

To'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari korxonaning kreditlik qarzlarni oson realizatsiya qilinadigan mablag'lari hisobidan qaytarish imkoniyatini ifodalaydi. Ular hisob-kitob qilinganida qisqa muddatli majburiyatlar asos qilib olinadi. Ushbu guruhning asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi.

Umumiy qoplash koeffitsiyenti likvid mablag'lar qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashi, ya'ni bu ko'rsatkich 1 dan pastga tushmasligi lozimligini nazarda tutgan holda aniqlanadi. Uning maqbul qiymati 2 ga teng. Oraliq qoplash koeffitsiyenti aksiyadorlarni ko'proq qiziqtiradi.

Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti tovar-moddiy boyliklarni yetkazib beruvchilar va korxonaga kredit beruvchi bank uchun muhim hisoblanadi. Bu koeffitsiyentning 0,1 ga teng bo'lishi ruxsat etiladi, agar 0,5 dan yuqori bo'lsa, to'lov layoqatining yuqoriligini bildiradi.

Rentabellik ko'rsatkichi xo'jalik yurituvchi subyektning foydaliligini tavsiflaydi va balans foydasining mablag'lar manbalarini har xil guruhlariga nisbati kabi aniqlanadi.

Sotish rentabelligi korxonada tushumining bir so'miga qancha sof foyda olinganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning normativ qiymati, ishlab chiqarish tarmoqlari, turlari va mahsulotlar tayyorlash texnologiyalari bo'yicha sezilarli darajada tabaqalanadi. Shu bois, rentabellikni baholash uchun bank xodimlari bir necha yillar ko'rsatkichlarining dinamikasini o'rganadi. Rentabellikning o'sishi foydaning ko'payishi va moliyaviy ahvoldning mustahkamlanishidan dalolat beradi.

Asosiy ishlab chiqarish rentabelligi ishlab chiqarishga qilingan bir so'mlik xarajatga qancha sof foyda olinganligini ko'rsatadi. Korxonada faoliyati samarali tashkil etilganida mazkur ko'rsatkich o'sishi lozim.

Ish faolligi ko'rsatkichi, korxonaning o'z mablag'laridan qanchalik samarali foydalanayotganligini tavsiflaydi. Potensial kredit oluvchining ish faolligini tahlil qilish natijasida olingan ma'lumotlar korxonada reytingini baholash hisob-kitobida hisobga olinmaydi. Lekin ular

namunaviy xulosadagi kredit loyihasing «Kredit oluvchining moliyaviy ahvoli» bo'limida majburiy tartibda aks ettiriladi.

Aylanuvchanlikning umumiy koeffitsiyenti vujudga kelish manbasidan qat'i nazar, korxonada tasarrufidagi barcha mavjud mablag'lardan samarali foydalanishni aks ettiradi. U hisobot davri ichida ishlab chiqarish va muomalaning to'liq sikli qancha sodir bo'lishini belgilaydi.

Zaxiralarning aylanuvchanligi (kunlarda) qanchalik kam bo'lsa, tovarlar to'planib qolishi shunchalik kamayadi, tovar-moddiy boyliklarni tezroq sotish va zarur hollarda qarzlarni qoplash mumkin.

Qisqa muddatli debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi (kunlarda) mahsulot sotishning bir sikli o'rtacha necha kunda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich qancha kam bo'lsa, korxonada o'z mahsulotlarini sotish bo'yicha shunchalik tezkor ishlayotganligini bil-diradi. Uning kunlarda ifodalanishi, nafaqat korxonaning faoliyat ko'rsatishini yorqin ifodalaydi, balki siklni qarz olish muddati bilan taqqoslashga ham yordam beradi.

Qisqa muddatli kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi (kunlarda) mol yetkazib beruvchilar bilan o'zaro hisob-kitoblarning iste'mol sikli qanchalik tez amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich oshganida, korxonada mol yetkazib beruvchidan olingan materiallarni yetarli darajada samarali ishlatmayotganligini taxmin qilish mumkin. Bu holat, agar korxonada hisob-kitoblarida murakkabliklar bo'lsa, yoki olingan materiallarga tezkor ishlov berish ta'minlanmasa, sodir bo'lishi mumkin.

Qisqa muddatli debitorlik qarzlari va qisqa muddatli kreditorlik qarzlari nisbati, korxonada debitorlik qarzlarning o'sishi bilan aylanma aktivlarni bankning qisqa muddatli kreditlari va kreditorlik qarzlari hisobidan shakllantirish uchun qo'shimcha manbalarga ehtiyoj vujudga kelayotganligini ko'rsatadi. Kreditorlik qarzining debitorlik qarziga nisbatan ko'payib ketishi pirovard natijada likvidlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Hisobot sanasiga debitorlik (kreditorlik) qarzlarni so'ndirishga doir o'rtacha bir oylik aylanma, kredit olgan korxonaning so'nggi olti oyda tegishli qarzдорlikning so'ndirilishi bo'yicha har oylik aylanmalar to'g'risidagi olingan ma'lumotnomasi asosida aniqlanadi. Bu korxonada qarzlarning ahvolini tavsiflaydigan qo'shimcha ko'rsatkichdir.

Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi (kunlarda) ishlab chiqarish va muomalaning to'liq sikli qancha vaqt ichida sodir bo'lishini ko'rsatadi.

Moliyaviy ahvolni «gorizontal» usul bilan tahlil qilish korxonada kechayotgan jarayonlarni baholashdan iborat. Shu maqsadda yuqorida keltirilgan, ammo har xil hisobot davrlari uchun, koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Bir hisobot davridan ikkinchisiga tomon parametrlar o'zgarishini baholash, rivojlanish istiqboli to'g'risida xulosa qilishga imkon beradi.

Kredit oluvchi korxonaning reytingini baholash moliyaviy koeffitsiyentlar asosida shakllantirilib, ulardan har biriga ma'lum miqdorda ball beriladi. Ushbu baholash mijoz-korxonaning to'lovga layoqatlilikini tahlil qilish bo'yicha umumlashtiruvchi xulosa hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi (7.1-jadval).

Moliyaviy koeffitsiyentlarga beriladigan ball miqdori

7.1-jadval

Koeffitsiyentlar	Ball
Mustaqillik koeffitsiyenti	20
Qarz va o'z mablag'larining nisbati (leverdj)	15
Qoplash (umumiy koeffitsiyent)	20
Oraliq qoplash koeffitsiyenti	10
Absolyut likvidlik koeffitsiyenti	10
Sotish rentabelligi	10
Asosiy faoliyat rentabelligi	10

Olingan koeffitsiyentlardan har birining mezon darajasiga rioya qilinishi qarz oluvchi korxonaning reytingini baholash uchun tegishli miqdorlar (ballar) beriladi. Kredit oluvchi korxonaga «korxonada iqtisodining oltin qoidasi» deb ataluvchi qoidaga rioya qilganida, qo'shimcha ravishda 5 ball berilib, ushbu qoidaga muvofiq quyidagi miqdorlar ko'rib chiqiladi:

$BF_{o'a}$ – balans foydasining o'sish sur'ati;

$RH_{o'a}$ – realizatsiya hajmining o'sish sur'ati;

$\Sigma A_{o'a}$ – aktivlar (asosiy va aylanma kapital) summasining o'sish sur'ati.

Bunda quyidagi nisbat maqbul hisoblanadi:

$$BF_{o'a} > RH_{o'a} > \Sigma A_{o'a} > 100\%, \quad (7.1)$$

O'sish sur'ati so'nggi hisobot davri uchun tegishli ko'rsatkichning oldingi hisobot davri ko'rsatkichiga (har ikkala davr uchun ham o'sib boruvchi jamini hisobga olmasdan) nisbati 100%ga ko'paytirilib, aniqlanadi.

Koeffitsiyentlarni moliyaviy tahlil qilish chog'ida olingan har bir tavsiya qilinadigan darajaga rioya qilmaslik hamda «korxonalar iqtisodining oltin qoidasi»ning bajarilmasligi mazkur ko'rsatkichni nolga olib keladi. Shunday qilib, 75 dan 100 gacha ball to'plagan mijoz-korxonaga 1-sinf, 50 dan 70 gacha – 2-sinf, 25 dan 45 gacha – 3-sinf, 20 balldan pastiga – 4-sinf beriladi.

Bank xodimlari taklif etilayotgan kredit ta'minotini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratadi va bu yerda quyidagi holatlar muhim hisoblanadi:

- *saqlanishi* (tez buziladigan mahsulotlar garovga qo'yilganida ularning saqlanish muddatlari, maxsus shart-sharoitlari va ularga rioya qilish imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi);
- *hisoblanishi* (garovni tekshirishda mahsulotlar qoldig'ini katta xarajatlar qilmasdan aniq o'lchashni amalga oshirish imkoniyatlari);
- *nazorat qilinuvchanligi* (garovni qo'shimcha tadbirlar tashkil etmasdan, muntazam nazorat qilish);
- *likvidlik* (garovga qo'yilgan mulkni muddati o'tayotgan qarzni qaytarish uchun tez sotish imkoniyati).

Shundan so'ng oldi-sotdi shartlari tahlil qilinadi. Kredit bo'limi kredit loyihasi, menedjer xulosasi va kelishuv bayonnomasi asosida kredit berish to'g'risida qaror qabul qiladi. Kredit bo'limining xulosasi kredit oluvchi korxonaga yozma shaklda, uni olganligini yozma ravishda tasdiqlagan holda yetkaziladi. Kredit berish rad etilganida, bu to'g'ridagi qaror asoslangan bo'lishi kerak.

Kredit shartnomasi va garov shartnomasi. Agar kredit berish to'g'risidagi masala ijobiy hal etilgan bo'lsa, kredit oluvchi korxonaning kelishuv shartlariga roziligi olinganidan so'ng, kredit shartnomasi va garov shartnomasi imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 744-moddasiga muvofiq, «*Kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul*

mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa – olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi»⁶⁰.

Kredit shartnomasining asosiy shartlariga quyidagilar kiradi: kreditning maqsadi, muddatlari, hajmi va ta'minlash shartlari; asosiy qarz summasini so'ndirish tartibi va kreditdan foydalanganlik uchun foizlar to'lovi; majburiyatlarni bajarmaganlik (yoki yetarli darajada bajarilmaganligi) uchun sanksiyalar hajmi; kreditdan foydalanish va uning ta'minlanishini tekshirish ustidan bank nazoratining shakllari; kredit berish tartibi; tomonlarning huquq va majburiyatlari; shartnomani bekor qilish tartibi.

Kredit shartnomasi bo'yicha bank, kredit oluvchi korxonaga ma'lum summadagi va tomonlar kelishuvi bilan ta'minlangan pul mablag'larini berish majburiyatini oladi. Kredit oluvchi esa kredit shartnomasi bo'yicha olingan mablag'larni maqsadli tayinlanishi bo'yicha ishlatish, pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlarni o'z vaqtida to'lash va qarzni so'ndirish majburiyatini oladi. Kredit oluvchi korxonaga bankka olingan mablag'lar sarflanishi va kreditning ta'minlanganligi ustidan nazorat o'rnatish imkoniyatini yaratishi lozim. Mazkur shart kreditlashning asosiy muammosini hal etishga qaratilgan bo'lib, qarzni o'z vaqtida qaytarish va mablag'lardan foydalanganlik uchun foizlarni to'lashdan iborat.

Kredit naqd pulsiz tartibda kredit oluvchining ssuda schotidan hisoblashuv-pul hujjatlarini, bir vaqtning o'zida, har kuni yoki moliyaviy resurslarga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda, boshqa muddatlarda to'lash yo'li bilan taqdim etiladi. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalari shartnomaga muvofiq belgilanib, ularning miqdori bankning kredit siyosati, kredit resurslarining mavjudligi va qiymati, davlatning pul-kredit siyosati, kreditlash tavakkalchiligi va foydaliligining nisbati hamda berilgan mablag'lardan foydalanish muddatlariga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 746-moddasiga muvofiq, *«Kreditor qarz oluvchini to'lovga qobiliyatsiz deb hisoblasa, qarz oluvchi kreditni ta'minlash majburiyatlarini bajarmasa, shartnomada nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzsa, shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortishi mumkin.»⁶¹.*

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, – T.: «Adolat», 2007 й. –Б.311.

⁶¹ Shu manba –Б.310.

Kredit bo'yicha foizlarni va qarzning asosiy summasini qaytarish shartnoma bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan kreditlash amaliyoti to'lovlarni quyidagi ketma-ketligini nazarda tutadi: kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash, foizlar o'z vaqtida to'lanmaganida neustoyka to'lash, asosiy qarz summasini qaytarish.

Kredit shartnomasida belgilangan majburiyatlarni buzganlik uchun tomonlarning javobgarligi amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgani kabi, shartnomaning o'zida ham aks ettiriladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 324-moddasida ko'rsatilishicha «*Qarzdor majburiyatlar bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart*»⁶². Bundan tashqari, begonalar mablag'laridan, ularni noqonuniy ushlab turish, qaytib berishdan bosh tortish, muddatini o'tkazib yuborish oqibatida foydalanilganda, shu mablag'lar summasidan foiz to'lanishi kerak.

Kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini kredit oluvchi ham, kredit beruvchi ham bajarishlari lozim. Shartnomada pul mablag'larini o'z vaqtida bermaganligi uchun bankning javobgarligi ko'zda tutilishi mumkin. Kreditor nafaqat kredit oluvchiga kreditni o'z vaqtida va belgilangan hajmda yetkazib berishi, balki qaytarilayotgan mablag'larni o'z vaqtida qabul qilishi ham lozim. Kreditor, agar kredit oluvchi tomonidan taklif etilgan majburiyatlarni talab darajasida bajarishni rad etsa yoki u o'z majburiyatlarini bajarmaguncha kredit oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan, shartnomada ko'zda tutilgan talablarni bajarmasa, majburiyatlarini bajarmagan hisoblanadi. Kredit oluvchi pullik majburiyati bo'yicha kreditorning muddatni o'tkazib yuborganligi uchun foiz to'lashga majbur emas.

Qishloq xo'jalik korxonalarida qisqa muddatli kreditlash bo'yicha tezkor ishlar bank kreditini jalb qilish imkoniyatlaridan foydalanishga, zarur hujjatlarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirishga, olingan mablag'larni maqsadli va oqilona ishlatishga hamda kreditni o'z vaqtida so'ndirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Kreditlashga doir tezkor tadbirlarda kredit shartnomalarini tuzish muhim o'rin tutadi. Buning uchun, eng avvalo, kreditlanadigan aylanma mablag'lar holatini va hisobot yili uchun qarz resurslarining harakatini tahlil qilish zarur. Buxgalteriya xizmati tomonidan amalga oshirilgan tezkor tayyorgarlik ishlari kredit shartnomasini tuzib, unga muvofiq, agrar korxonaning normal ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlashga imkon beradi.

⁶² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, – T.: «Adolat», 2007 й, –Б.134.

7.3. Fermer xo'jaliklari faoliyatini kreditlash tartibi va xususiyatlari

Qishloq xo'jaligida islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida xo'jalik yuritishning eng afzal shakli fermer xo'jaligi deb tan olindi. Fermer xo'jaliklarini kreditlashning huquqiy-me'yoriy bazasi shakllandi va rivojlanmoqda (7.2-jadval).

Qishloq xo'jalik korxonalari, xususan, fermer xo'jaliklarini kreditlashning amaldagi turlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular asosan davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini kreditlash mexanizmi orqali kredit resurslari bilan ta'minlanmoqda. Kreditlashning boshqa turlaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Fikrimiz dalili sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi «Agrobanki», «Asakabanki» va «Mikrokreditbanki» bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalariga kreditlash turlari bo'yicha ajratilgan mablag'larning tarkibi va dinamikasini keltiramiz (7.3, 7.4 va 7.5-jadvallar).

*«Tijorat banklari fermer xo'jaliklarini, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy valutada kreditlash tartibi»*ga muvofiq kredit berish quyidagicha amalga oshiriladi:

Mazkur tartib asosida fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxs maqomiga ega dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etish, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 2 yildan kam bo'lmagan, qaytarish muddati uzaytirilishini hisobga olganda 30 oydan oshmagan muddatga;

fermer va dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, o'z aylanma mablag'larini to'ldirish uchun, uni qaytarish muddatini uzaytirilishini hisobga olgan holda 12 oygacha;

shuningdek, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz 5 yilgacha muddatga kredit berilishi mumkin. Kredit-lardan foydalanish uchun foiz stavkasi Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo'lmagan miqdorda o'rnatiladi.

Kredit olish uchun fermer bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

1. Kredit buyurtmanomasi (ariza);
2. Pul oqimi tahlili majburiy tarzda ko'rsatilgan biznes-reja;
3. Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tasdiqlagan oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy

natijalar to'g'risida hisobot(2-shakl), debitorlik va kreditorlik qarzi to'g'risidagi ma'lumotnoma (2^a-shakl)(90 kundan oshgan qarzdorliklar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari bilan birga).

4. Ta'minot turlaridan biri:

– mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;

– bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati;

– uchinchi shaxs kafilligi;

– sug'urta kompaniyasi tomonidan qarz oluvchining kreditni qaytara olmaslik xatari sug'urta qilingani to'g'risidagi sug'urta polisi.

Kredit olish uchun garovga qo'yilayotgan mol-mulk bank xodimlari tomonidan baholanib, mijoz bilan bank o'rtasida *garov shartnomasi* tuziladi. Tuzilgan garov shartnomasi asosida garovga olingan mulk qiymatining 80 foiz miqdorida kredit ajratilishi mumkin.

Kredit ta'minotiga uchinchi shaxs kafilliga taqdim etilganda, kafilning qoniqarli moliyaviy holatini tasdiqlovchi auditorlik tashkilot xulosasi taqdim etilishi kerak.

Shuningdek, kafil tashkilot tomonidan *kafillik shartnomasining* rasmiy-lashtirilishi talab etiladi.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymatini garovga olgan holda kreditlash tartibi. Fermer xo'jaliklarida olinadigan kredit uchun garovning yetishmasligi ular faoliyatida uchraydigan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu masalani ijobiy hal qilish maqsadida 2004-yildan boshlab fermer xo'jaliklarining yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqining qiymatini garovga qo'ygan holda tijorat banklaridan kredit olish tartibi amaliyotga joriy etildi.

Ijara huquqining bahosi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004-yil 13-martidagi 6/17-sonli qarori bilan tasdiqlangan «*Yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymatini baholash tartibi to'g'risida Nizom*»ga muvofiq aniqlanadi.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymatini baholash fermer xo'jaligida so'nggi uch yil mobaynidagi yer maydonining 1 gektariga to'g'ri keladigan sof foydaning o'rtacha hajmini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Agar fermer xo'jaligi o'z faoliyatini boshlaganiga uch yil to'lmagan bo'lsa, asos sifatida xuddi shu hududda (tuman hududi va boshqalar) joylashgan shu kabi yer uchastkasiga oid ijara huquqining o'rtacha qiymati olinadi.

Fermier xo'jaliklarini kreditlashning huquqiy-me'yoriy asoslari

7.2-jadval

№	Hujjat nomi	Tasdiqlangan organ, sanasi va №	O'zR Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan sana va №
I O'zbekiston Respublikasi qonamlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident qarorlari			
1	Fermier xo'jaligi to'g'risida	Oliy Majlis, 26.08.2004 y. (yangi tahrir)	-
2	Mikromoliyala to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Senati, 25.08.2006 y.	-
3	Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kredit berish masnusi jang'armasi bisobidan kredit berish tartibi to'g'risida Nizom	O'zR VM ning 19.05.2000 y. 195-sonli qarori bilan tasdiqlangan	-
4	Meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha mini-texnologiyalar va saboq-ustumalar sohib uchun fermer xo'jaliklariga va kichik biznesning boshqa subyektlariga imtiyozli kreditlar berish va lizing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida Nizom	O'zR VM ning 20.08.2007 y. 178-sonli qarori bilan tasdiqlangan	-
II Me'yoriy hujjatlar			
1	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy valutasida kreditlash tartibi	O'zR MB boshqaruvi, 04.03.2000 y. № 465	7.03.2000 y., № 907
2	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risida Nizom	O'zR MB boshqaruvi, 1.03.2004 y., №563	16.04.2004 y., №1337 (o'zgartirishlar 30.04.2005 y., № 1337-1)
3	Yer uchastkasining ijaraga olish huquqining qiymatini babolash tartibi to'g'risida Nizom	O'zR MB boshqaruvi, 13 mart 2004 y., №617	8 aprel 2004 y., №1336 (o'zgartirishlar 31.12.2004 y., № 1345-1)
4	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida Nizom	O'zR MB boshqaruvi, 1.03.2004 y., №564	30.04.2004 y., №1345 (o'zgartirishlar 31.12.2004 y., № 1345-1)
5	«AT Tadbirkorbankning kredit imtiyozli hisobidagi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga dastlabki (boshlang'ich) sarmoniyani shakllantirishga kredit berish hamda lizing kompaniyalari tomonidan lizingni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom»	O'zR MB boshqaruvi, Moliya vazirligi va Davlat mulki qo'mitasi, 13.03.2004 y., №247-V, №45, №61/06-03	20.05.2004 y., №1362
6	Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga budjetdan tasbeqari jang'armalar va Mikroreditbank kredit imtiyozlari hisobidagi mikroreditlar berish tartibi to'g'risida Nizom	Adliya vazirligi tomonidan 21.02.2006 y. 1548-son bilan to'yatiga olingan	-
7	Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maqsadli mikroreditlar berish tartibi to'g'risida Nizom	O'zR Markaziy banki boshqaruvi, 8.04.2006 y., №917	-
8	Osihloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlarini uchun xarid qilindigim paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom	O'zR MB va Moliya vazirligi. 13-mart 2007 y., №30	14 aprel 2007 y., №1675

Qoraqalpog'iston Respublikasi AT «Agrobank» bo'yicha fermer xo'jaliklarini kreditlashning asosiy turlari bo'yicha dinamikasi va strukturasi

7.3-jadval

№	Turlari	2005		2006		2007		2008		2009		2010		I yarim. 2011	
		Ming. so'm	%	ming. so'm	%	ming.so' m	%	ming.so' m	%	ming.so' m	%	ming.so' m	%	ming.so' m	%
1	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy vahtusda kreditlash tartibi	1204000	10,6	1885400	13	3522000	16,9	2456000	11,7	9574771	44,4	9877000	49,2	12584000	26,6
2	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilini garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risida Nizom														
3	Yer uchastkasining ijaraga olish huquqining qiymatini baholash tartibi to'g'risida Nizom														
4	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida Nizom														
5	«AT.Fabirikorba nkning kredit liniyalari hisobidan tijorat banklari														

6	<p>tomonidan kichik biznes subyektlariga darabli (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga kredit berish hamda lizing kompaniyalari tomonidan litsenziya asosida oshirish tadbiri to'g'risida Nizom</p>	68400	0,6	74500	0,6	78500	0,4	135400	0,6	301907	1,4	779000	3,8	1850000	3,9
7	<p>Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyozli maaqsadli mikrokreditlar tadbiri to'g'risida Nizom</p>	10100000	88,8	12086000	86,0	17173000	82,7	18356000	87,7	11688121	54,2	9490000	47,0	32929000	69,5
	J A M I:	11372400	100	14045900	100	20773500	100	20906400	100	21564800	100	20146000	100	47363000	100

Qoraqalpog'iston Respublikasi AT «Asakbank» bo'yicha fermer xo'jaliklarini kreditlashning asosiy turlari dinamikasi va strukturasi

7.4-jahval

№	Turlari	2005		2006		2007		2008		2009		2010		2011y 1 yanvarga	
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%
1	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklari, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi	9501456	99,6	15475255	99,9	22233715	99,8	32105100	97,9	25046634	96,7	-	-	-	-
2	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hisolini garovga olgan holda kredit beshik tartibi to'g'risida Nizom	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
3	Yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini o'tirna-tin baholash tartibi to'g'risida Nizom	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
4	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida Nizom	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
5	«AT Tadbirkorbankning kredit linoyalari bishobidan tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga dastlabki (bo'shilan-g'ich) sarmoniyavi shakllantirishga kredit beshik hamda lizang kompaniyalari tomonidan lizangni amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom»	35000	0,4	10000	0,1	-	-	-	-	-	-	218940	16,2	104904	7,8
6	Tijorat banklari tomonidan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga chorvachilikni rivojlantirish uchun inaliyozi maqsaddi mikroreditlar beshik tartibi to'g'risida Nizom	-	-	-	-	35818	0,2	51769	0,2	112870	0,5	800419	59,1	852984	63,5
7	Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilina-digan paxta va g'alla yetishtirish xarajalarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'ri-sida Nizom	-	-	-	-	-	-	642020	1,9	746978	2,8	335832	24,7	385273	28,7
	J A M I:	9536456	100	15485255	100	22269533	100	32798889	100	25906482	100	1355191	100	1343161	100

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'ATB «Mikrokreditbank» bo'yicha fermer xo'jaliklarini kreditlashning asosiy turlari dinamikasi va strukturasi

7.5-jadval

№	Turlari	2005		2006		2007		2008		2009		2010		1 yarim 2011	
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%
1	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, shu jumladan, kichik biznes subyektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi	-	-	-	-	8500	0,1	190230	1,9	138610	1,4	333867	2,6	240400	2,8
2	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'ani hisoblanib garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risida Nizom	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
4	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida Nizom	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
5	«O'ATB» Tadbirkorlikning kredit liniyalari hisobidan tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga dastlabbi (bo'shilang'ich) arziyatli kredit berish haqida huzur kompaniyalari tomonidan lizingni amalga oshirish	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Taqvimiy yil davomidagi yer maydonining bir gektariga hisob-kitob qilgandagi sof foyda quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$P = C - F, \quad (7.2)$$

Bunda, **P** – bir yilga bo'lgan yer uchastkasining 1 gektariga to'g'ri keladigan sof foyda;

C – bir yilga bo'lgan yer uchastkasining 1 gektariga to'g'ri keladigan daromadlar umumiy summasi;

F – bir yilga bo'lgan yer uchastkasining 1 gektariga to'g'ri keladigan xarajatlarning umumiy summasi.

Bir yilga bo'lgan yer uchastkasining 1 gektariga to'g'ri keladigan umumiy daromadlar summasi qishloq xo'jaligi mahsulotining sotilishidan olingan umumiy daromadlar summasini ijaraga olish huquqi garovga tegishli bo'lgan umumiy yer uchastkasi maydoniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Yer uchastkasining 1 gektariga to'g'ri keladigan umumiy daromadlar summasi hisob-kitobi quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$C = [(c_1+c_2+c_3):3]:S, \quad (7.3)$$

Bunda, **C** – bir yilga bo'lgan yer uchastkasining 1 gektariga to'g'ri keladigan daromadlarning umumiy summasi;

c₁, c₂, c₃ – tegishli yillarda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining sotilishidan olingan umumiy daromadlar summasi;

3 – hisob-kitob uchun olingan yillar soni;

S – ijaraga olish huquqi garovga qo'yilgan umumiy yer uchastkasi maydoni- ga.

Yer uchastkasining 1 gektariga to'g'ri keladigan daromadlarning umumiy summasi aniqlanganidan so'ng 1 ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan ishlab chiqarishning to'liq xarajatlari aniqlanadi. Ishlab chiqarishning to'liq xarajatlari nafaqat hosilni yetishtirish va uni yig'ishtirib olishga bo'lgan xarajatlarni, shuningdek, yagona yer solig'i va boshqa majburiy to'lovlar bilan birgalikda barcha boshqa qo'shimcha xarajatlarni ham o'z ichiga oladi.

To'liq ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash uchun ushbu xarajatlarni har bir yil bo'yicha (**f₁, f₂, f₃**) aniqlash lozim. Ishlab chiqarishning to'liq xarajatlari ushbu xarajatlarni yillar bo'yicha arifmetik qo'shib chiqish va olingan natijani yer uchastkasining umumiy maydoniga bo'lish orqali quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$F = [(f_1+f_2+f_3):3]:S, \quad (7.4)$$

Bunda, **F** – 1 ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan ishlab chiqarishning to'liq xarajatlari summasi;

f1, f2, f3 – yagona yer solig'i va boshqa majburiy to'lovlar bilan birgalikda tegishli yillarga oid umumiy xarajatlar summasi;

3 – hisob-kitob uchun olingan yillar soni;

S – ijaraga olish huquqi garovga qo'yilgan umumiy yer uchastkasi maydoni.

1 gektar yer maydoni ijara olish huquqining qiymati sof foyda hajmini yer uchastkasining uzoq muddatli ijarasi to'g'risidagi shartnomaga muvofiq hisoblab yoziladigan, quyidagi formula bo'yicha aniqlangan ijara yillar soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$Q = P \times S \times t, \quad (7.5)$$

Bunda, **Q** – yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymati;

P – bir yilda yer uchastkasining 1 gektariga to'g'ri keladigan sof foyda;

S – ijaraga olish huquqi garovga qo'yilgan yer uchastkasining umumiy maydoni;

t – qolgan ijara yillar soni.

Bunda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymati so'ralayotgan kredit summasidan 1,25 barobar ortiq bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, so'ralayotgan kredit yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatining 80 foizi miqdorida bo'lishi kerak.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymatini baholash hisob-kitobi fermer xo'jaligi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, shu jumladan, so'nggi uch yil uchun buxgalterlik balanslari (1-shakl) asosida bank tomonidan amalga oshiriladi. Fermer xo'jaligi tijorat bankining iltimosiga ko'ra yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymatini baholash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni ham taqdim etishi shart.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining hududiy bo'linmalari, yer resurslari bo'yicha xizmatlar, boshqaruv organlari tijorat banklariga ularning so'rovi bo'yicha yer uchastkasi ijara huquqi qiymatining hisob-kitob qilinishi uchun barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etadilar.

Amaliyotga joriy etilgan tartibga asosan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqining qiymatini garovga qo'ygan holda fermer xo'jaliklari:

– bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 2 yildan kam bo'lmagan muddatga;

– investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 5yilgacha bo'lgan muddatga;

- qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish faoliyatida aylanma mablag'larni ta'minlash uchun 12 oydan ortiq bo'lmagan muddatga kredit olishlari mumkin.

Fermer tomonidan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqining qiymatini garovga qo'yib kredit olish uchun zarur hujjatlar talab darajasida rasmiylashtirilib, tijorat bankiga topshirilgandan keyin 10 ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi va ijobiy yoki salbiy xulosa beriladi.

Agar yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymati, so'ralayotgan kredit summasidan kam bo'lsa, yetmagan qismini qoplash uchun fermer boshqa garov turlaridan, masalan sug'urta, kafillik va shu kabilardan foydalanish mumkin. Beriladigan kredit uchun yillik foizlar bank bilan fermer o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida ko'rsatiladi.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymatini garovga qo'yishni rasmiylashtirish tartibi quyidagicha:

- dastlab fermer tuman hokimiga o'zi ijaraga olgan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini garovga qo'yishga rozilik bildirishni so'rab murojaat qiladi;

- tuman hokimi fermerning yozma arizasini uch kun ichida ko'rib chiqib ijobiy yoki asoslangan holda salbiy javob beradi;

- tuman hokimining yozma roziligi olingandan so'ng tuman yer resurslari xizmati 10 kun davomida fermerning mablag'i hisobiga yer uchastkasini suratga oladi va garovga qo'yilayotgan qismini ajratadi;

- yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqining qiymatini garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomada fermerning ijara huquqi bahosi ko'rsatiladi. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish shartnomasiga tuman yer resurslari xizmati rahbari tasdiqlagan, garovga qo'yilayotgan yer uchastkasi chizmasi va ijara huquqining qiymatini garovga qo'yish uchun hokimiyatning roziligi ilova qilinadi.

Kredit bergan tijorat banklari tomonidan kreditdan foydalanishning butun davri mobaynida berilgan kreditdan foydalanish bo'yicha doimiy monitoring (kuzatuv) o'tkaziladi va bunda olingan kreditning maqsadli ishlatilayotganligiga alohida e'tibor qaratiladi. Berilgan kredit boshqa maqsadlarga ishlatilayotganligi aniqlansa, bank kreditning foydalanilmay turgan qismini muddatdan oldin qaytarib olish huquqiga ega.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi. Fermer xo'jaliklarini bozor tamoyillari asosida kreditlash yo'lga qo'yish, ularning ishlab

chiqarish uchun aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tijorat banklari tomonidan bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi ishlab chiqilgan.

Mazkur hujjatning amaliyotga joriy qilinishi bilan fermer xo'jaliklarida tanlash imkoniyati vujudga keladi. Endilikda fermer davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetishtirishda, xohlasa Moliya vazirligi qoshidagi «*Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi*» kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olish, xohlasa davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilayogan hosilni garovga qo'yib tijorat bankidan kredit olish yoki har ikkala manbadan bir vaqtning o'zida kredit olish imkoniga ega bo'ldi.

Esda tutish zarurki, Moliya vazirligi huzuridagi «*Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi*» kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan fermer xo'jaliklariga g'alla yetishtirish uchun kontraktatsiya shartnomasi summasining 30 foizigacha miqdorda, imtiyozli kredit olmagan fermer xo'jaliklariga 80 foizigacha miqdorda kredit berilishi mumkin. Jamg'arma hisobidan imtiyozli kredit olgan paxta xomashyosi yetishtiradigan fermer xo'jaliklariga kontraktatsiya shartnomasi summasining 20 foizigacha miqdorda, imtiyozli kredit olmagan fermer xo'jaliklariga 70 foizigacha miqdorda beriladi.

Mazkur Nizomga asosan kreditlar faqat davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetishtiruvchi, kreditni qaytarish layoqatiga ega fermer xo'jaliklariga 1,5 yil(18 oy) muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqsiz ajratiladi. Kreditlar qishloq xo'jaligi texnikasi, ehtiyot qismlar va asbob-uskunalar, YOMM, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari va veterinariya dori-darmonlari sotib olish, MTP, muqobil MTP, SIU va boshqa xo'jalik subyektlari xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish, paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar uchun beriladi.

Fermer o'z hosilini garovga qo'yib kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- kredit olish uchun ariza;
- tuzilgan kontraktatsiya shartomalarining nusxalari;
- biznes reja;
- tuman davlat soliq xizmati tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya balansi (1-shakl); moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl); debitor va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2-a shakl);

muddati 90 kundan o'tib ketgan qarzdorlar bilan tuzilgan solishtirma dalolatnomalar, kreditni qaytarish ta'minoti (garov).

Albatta, bu yerda olinadigan hosil kredit ta'minoti (garov) sifatida qabul qilinadi. Bunda bank va fermer xo'jaligi o'rtasida bo'lajak hosilni garovga qo'yish shartnomasi imzolaniadi. Mazkur shartnomaga muvofiq garovga qo'yilgan hosilni sotishdan tushgan barcha pul mablag'lari birinchi navbatda berilgan kredit va unga hisoblangan foizlarni qoplashga yo'naltiriladi. Shu bilan birgalikda garovga qo'yiladigan hosil kredit beruvchi bank foydasiga sug'urtalangan bo'lishi shart. Chunki, tabiiy ofat yoki boshqa sabablar oqibatida rejalashtirilgan hosil olinmagan taqdirda, kreditlarning qaytarilmagan qismi sug'urta kompaniyasi tomonidan qoplab beriladi. Beriladigan kredit uchun yillik foizlar bank bilan fermer o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida ko'rsatiladi.

Fermer kredit olish uchun barcha zaruriy hujjatlarni talab darajasida rasmiylashtirib, bankka topshirganidan so'ng 10 kun muddat ichida bank fermerga kredit berish yoki bermaslik to'g'risida o'z xulosasini taqdim etadi.

Bank bilan fermer xo'jaligi o'rtasida kredit shartnomasi imzolanganidan so'ng bank fermer xo'jaligi uchun alohida hisobvarag'i ochadi va undan fermer xo'jaligining to'lov topshiriqnomalari asosida faqat naqd pulsiz shaklda to'lovlarni amalga oshirish orqali kredit beriladi.

Bank tomonidan berilgan kreditdan foydalanishning butun davri mobaynida fermer xo'jaligining olingan kreditdan foydalanilishi bo'yicha monitoring (kuzatuv) olib boriladi. Monitoring davomida kreditdan samarasiz foydalanish holati, xususan ekinlar to'liq ekilmalik, agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida va sifatli bajarilmalik holatlari va buning oqibatida kreditni vaqtida qaytarmaslik xavfi borligi aniqlansa, kreditlash darhol to'xtatiladi hamda berilgan kreditni foizlari bilan undirib olish chora-tadbirlari ko'riladi.

Qarz olgan fermer xo'jaligida yetishtirilgan hosilni sotishdan hamda sug'urta to'lovlaridan tushgan mablag'lar olingan kredit va uning foizlarini to'lashga yetmasligi kredit va unga hisoblangan foiz qoldig'i belgilangan tartibda fermer xo'jaligining likvidli mol-mulkiga qaratish yo'li bilan undirib olinadi.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibining joriy qilinishi fermer xo'jaliklarini kreditlash sharoitini yaxshilash uchun qo'yilgan dastlabki

qadamlardan biridir. Albatta, bu tartib kelgusida takomillashtirib boriladi.

Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini kreditlash tartibi. 2003-yil hosilidan boshlab tajriba tariqasida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklarini ushbu mahsulotlarni yetishtirish bilan bog'liq xarajatlarini moliyalashtirishning yangicha tizimiga o'tila boshlandi. Ya'ni fermer xo'jaliklariga transh usulida mablag' ajratish tizimidan voz kechila boshlandi. Dastlab bu tajriba 4 ta, keyinchalik 8 ta viloyatda sinab ko'rilgan bo'lsa, 2005-yil hosilidan boshlab barcha viloyatlardagi fermer xo'jaliklariga paxta va g'alla yetishtirish uchun transh mablag'lari o'rniga imtiyozli kreditlar berila boshlandi (7.5-jadval). Bu fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlashning bozor tamoyillariga mos keladigan usullariga o'tishda muhim qadam bo'ldi (7.2-rasm).

Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini moliyalashtirish tizimining rivojlanish bosqichlari

7.5-jadval

Bosqichlar	Davr	Moliyalash mexanizmi
I bosqich	1999–2002 y.y.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish xarajatlarini tayyorlov korxonasi orqali bo'naklash
II bosqich	2003–2004 y.y.	Ayrim viloyatlarda fermer xo'jaliklarning bo'naklashning amaldagi mexanizmi o'rniga, xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarining imtiyozli kreditlash mexanizmi sinov tariqasida joriy etish
III bosqich	2005–2006 y.y. Hozirgacha takomillashtirilmoqda	2005-yildan boshlab paxta va 2006-yildan boshlab g'alla yetishtirish xarajatlarini to'liq hajmda imtiyozli kredit ajratish yo'li bilan moliyalashtirish

Paxta va g'alla yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar ushbu mahsulotlar uchun tuzilgan kontraktatsiya shartnomasidagi mahsulot qiymatining 60 foizigacha (tayyorlov korxonasi tomonidan bo'nak tariqasida yetkazib berilgan urug'lik qiymatini inobatga olgan holda) miqdorida beriladi.

Bunda, kreditlar agrotexnik tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda ajratiladi:

- paxta xomashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil yetishtirilayotgan yilning 1-yanvariga qadar paxta xomashyosi qiymatining 10 foizigacha, 1-aprelga qadar 25 foizigacha, 1-iyulga qadar 50 foizigacha va 1-sentabrga qadar 60 foizigacha;

- g'alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil yetishtirilayotgan yilning 1-yanvariga qadar g'alla qiymatining 35 foizigacha, 1-aprelga qadar 50 foizigacha va 1-yunga qadar 60 foizigacha.


Har oy va choraklarda ajratiladigan kredit resurslari miqdori Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi taklifiga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda o'zgartirilishi mumkin.

Kredit miqdori qishloq xo'jaligi korxonasining «O'zpxatasanoat» uyushmasi va «O'zdonmahsulot» AK korxonalari (bundan keyingi matnlarda – tayyorlov korxonalari) bilan davlat ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan mahsulot uchun tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi xarid narxlari asos qilib olinadi. Yangi xarid narxlari tasdiqlangach, kredit miqdori kredit oluvchining talabiga ko'ra qayta hisoblab chiqilishi mumkin.

Mazkur kreditlar faqat quyidagi maqsadlar uchun berilishi mumkin:

- ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to'lash uchun;
- mineral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini xarid qilish uchun;
- yonilg'i-moylash mahsulotlarini xarid qilish uchun;
- MTPlar, muqobil MTPlar va qishloq xo'jaligi texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik subyektlarining xizmatlari uchun to'lovlarga;
- lizingga (moliyaviy ijaraga) berilgan texnika vositalarining lizing to'lovlariga;
- SIUlar (suvdan foydalanuvchilar uyushmalari) xizmatlar uchun to'lovlarga;
- yagona yer solig'i to'lovlariga (muddati o'tgan yer solig'i. muddatli yer solig'i to'lovlari qonunchilikda belgilangan muddatlarda to'lanadi).



7.2-rasm. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish xarajatlarini imtiyozli kreditlash tartibi.

Shuningdek, xo'jaliklarning paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa zaruriy ehtiyojlari, shu jumladan, sug'urta mukofoti uchun to'lovlar ham amalga oshirilishi mumkin.

- foydalanuvchilar uyushmalari) xizmatlar uchun to'lovlarga;

- yagona yer solig'i to'lovlariga (muddati o'tgan yer solig'i. muddatli yer solig'i to'lovlari qonunchilikda belgilangan muddatlarda to'lanadi).

Shuningdek, xo'jaliklarning paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa zaruriy ehtiyojlari, shu jumladan, sug'urta mukofoti uchun to'lovlar ham amalga oshirilishi mumkin.

Bunda paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarining har bir turini moliya-lashtirish uchun beriladigan kreditlarning eng ko'p miqdori yuzasidan tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan har yilgi hosil uchun agrotexkartalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mazkur tavsiya etilayotgan xarajatlarining agrotexnika me'yorlari qishloq xo'jaligi korxonalariga biznes-reja ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonasi biror bir xarajat turi bo'yicha to'lovlarga ehtiyoji bo'lmagan hollarda, kredit resurslarini ayrim maqsadlarga sarflashdan voz kechish huquqiga ega (mineral o'g'it, kimyoviy yoki biologik vositalar va urug'lik material xarajatlari bundan mustasno).

Bunda, ishlatilmagan kredit resurslari qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejaga muvofiq g'alla va paxta yetishtirish bilan bog'liq boshqa ruxsat etilgan xarajat turlari bo'yicha, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olishga, ichki xo'jalik irrigatsiya va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalashga ishlatilishi mumkin.

Kreditlar tegishli qishloq xo'jalik mahsuloti bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalarini bilan yakuniy hisob-kitoblar yakunlanguncha, lekin g'alla yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha 12 oydan va paxta xomashyosi yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha 18 oydan ko'p bo'lmagan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini kreditlash bank marjasini hisobga olgan holda, imtiyozli foiz stavkasi bilan amalga oshiriladi. Bu kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi yillik 3% miqdorida belgilanib, uning 2 foizi bank marjasini tashkil etadi.

Kredit qishloq xo'jaligi korxonasi uni asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob raqamini ochgan va unga xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan beriladi. Ushbu kreditlarni ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisob raqami ochilgan bank tomonidan berilishiga ruxsat etilmaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari tayyorlov korxonalari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzganlaridan keyin kredit olish uchun ularning asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotlariga xizmat ko'rsatayotgan bankka ariza bilan murojaat etishadi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari nusxalari;
- kreditga bo'lgan talabni aniqlash uchun tayyorlangan biznes-reja;
- debitor-kreditor qarzar to'g'risida ma'lumotnoma (2a-shakl) va moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl).

Ushbu hujjatlar taqdim etilganidan so'ng, bank qishloq xo'jaligi korxo-nasining arizasini ko'rib chiqishi va 3 kun muddat ichida u bilan kredit shartnomasi tuzishi lozim.

Bank kredit qo'mitasi tomonidan kredit berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda, u raddiyani yozma shaklda izohlab berishi shart.

Kredit shartnomasi kuchga kirgandan so'ng, keyingi ish kunidan kechiktirmasdan qishloq xo'jaligi korxonasi ssuda schyoti ochiladi.

Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari kredit olishi uchun bankka taqdim etadigan hujjatlar ro'yxati kredit turlari bo'yicha 7.6-jadvalda keltirilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan kredit turlarini berish muddatlari va kreditdan foydalanganlik uchun foiz to'lovlari 7.7-jadvalda keltirilgan.

Bank tomonidan berilgan imtiyozli kredit faqat maqsadli ishlatilishi, paxta va g'alla ekinlari holati va bo'lajak hosil olingan kreditlarni qaytarish uchun yetarliligi monitoring qilib boriladi (kuzatib boriladi). Agar ekinlarning to'la yoki qisman mavjud bo'lmasligi, agrotexnik tadbirlarning kechikishi, ekin maydonlarini begona o'tlar bosib ketish holatlari aniqlansa, kredit ajratish to'xtatiladi va berilgan kredit hamda unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirish choralari ko'riladi.

Fermer xo'jaligi kredit olishi uchun bankka taqdim qilinadigan hujjatlar

7.6-jadval

№	Hujjatlar	Umum tijorat kredit	Davlat buyurtmasi kredit	Bulg'usi hosil garovi kredit	Boshlangich sarmoyani shakllantirish kredit	Yer
						uchastkasini garovga qo'yish bo'yicha kredit
1	Ariza (kredit buyurtmanomasi)	+	+	+	+	+
2	Tayyorlov tashiloti bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari nusxalari	-	+	+	-	-
3	Kreditga bo'lgan talabni aniqlash uchun tayyorlangan biznes-reja	+	+	+	+	+
4	So'nggi hisobot davri uchun Davlat soliq qumita-sining mahalliy organi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya balansi (1-shakl)	+	-	+	-	+
5	Debitor va kredit qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2-shakl)	+	+	+	-	+
6	Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl)	+	+	+	-	+
7	90 kundan oshgan qarzlarga doir solishtirish dalol-lanomalari	+	-	+	-	+
8	Kreditni qaytarish ta'minoti (garov shartnomasi, kafillik shartnomasi, sug'urta polis i va h.)	+	+	+	+	+
9	Yer uchastkasi uzoq muddatli ijaraga olish shartno-masining notarial tasdiqlangan nusxasi	-	-	-	-	+
10	Ijaraga beruvchining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga berish uchun roziligi	-	-	-	-	+
11	Yer uchastkasining chizmasi	-	-	-	-	+
Jami hujjatlar soni		7	6	8	3	10

Fermer xo'jaliklariga beriladigan kreditlar bo'yicha kredit berish muddatlari va foiz to'lovlari

7.7-jadval

№	Kredit turlari	Kredit berish muddatlari	Foiz to'lovlari (%)
1	<p>Utmum tijorat krediti.</p> <p>Kichik biznes subyektlariga oborot mablag'larni to'ldirish uchun kreditlar, Fermer xo'jaliklariga, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil etgan dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish oborot mablag'larni to'ldirish uchun kreditlar (to'lash muddatini uzaytirish huquqsiz);</p> <p>Kichik biznesning barcha subyektlariga, shu jumladan, yuridik shaxsni tashkil etgan fermer va dehqon xo'jaliklariga investitsiya loyihalarini moliyalash uchun kreditlar (to'lash muddatini uzaytirish huquqsiz)</p>	<p>1 yilgacha</p> <p>kamida 2 yil muddatga</p> <p>5 yilgacha</p>	<p>O'zaro kelishuvga asosan</p>
2	<p>Davlat buyurtmasi krediti</p> <p>G'alla yetishtirishga ajratilgan kreditlar (to'lash muddatini uzaytirish huquqsiz);</p> <p>Paxta xomashyosi yetishtirishga ajratilgan kreditlar (to'lash muddatini uzaytirish huquqsiz)</p>	<p>12 oygacha</p> <p>18 oygacha</p>	<p>3</p> <p>3</p>
3	<p>Bo'lg'usi hosilini garovi bo'yicha kredit</p>	<p>1,5 yilgacha yoki 18 oygacha</p>	<p>O'zaro kelishuvga asosan</p>
4	<p>Yer uchastkasini garovga qo'yish bo'yicha kredit</p> <p>Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishga doir aylanma mablag'larni to'ldirishga kredit;</p> <p>Fermer xo'jaliklariga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun kreditlar (to'lash muddatini uzaytirish huquqsiz)</p>	<p>2 yildan kam bo'lmagan muddatga</p> <p>12 oygacha</p>	<p>O'zaro kelishuvga asosan</p>

7.4. Kredit shartnomalarining bajarilishi ustidan bank nazorati

Bank berilgan kreditlar bo'yicha qarzlarning muddati o'tib ketishini imkon qadar cheklash maqsadida o'z mablag'larining qaytarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatadi. Kreditlarning qaytarilishi ustidan bank nazoratini uchta bosqichga bo'lish mumkin:

1. *dastlabki bosqich* – korxonaning moliyaviy ahvolini, to'lov intizomini va bozordagi holatini tahlil qilish;

2. *joriy bosqich* – kredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlar paketini tahlil qilish va korxonaning kredit layoqatini aniqlash;

3. *keyingi bosqich* – kreditning maqsadli ishlatilishini va uning belgilangan muddatda qaytarilish imkoniyatini aniqlash.

Berilgan kredit monitoringi deyilganda foizlarni o'z vaqtida to'lash, asosiy qarzni qaytarish va kreditni qaytarish ta'minotining holatini nazorat qilishga qaratilgan tadbirlar majmui tushuniladi. Monitoring mablag'lar berilgan paytdan to qarzlarni to'liq so'ndirilguncha, foizlarni ham qo'shgan holda, ular muddati o'tib ketganida, kreditni so'ndirish grafigi buzilganida esa jarimalarni ham qo'shgan holda amalga oshiriladi.

Monitoringning asosiy obyektlariga quyidagilar kiradi:

- foizlarni o'z vaqtida to'lash (kredit oluvchi har oyda o'tgan davr uchun hisoblangan foizlar summasi haqida xabardor qilinadi, to'lov sanasidan keyingi kun davomida foizlarni to'lashga zarur summalar kelib tushmaganida kredit oluvchiga uni to'lash to'g'risida xabarnoma yuboriladi);

- mablag'larni tanlash grafigining bajarilishi, agar u oldindan ko'zda tutilgan bo'lsa (grafikka muvofiq kredit oluvchiga navbatdagi to'lov summasi eslatiladi);

- kreditni so'ndirish grafigining bajarilishi, agar u ko'zda tutilgan bo'lsa;

- kreditni to'liq va o'z vaqtida so'ndirish (kreditni so'ndirish sanasidan ikki hafta oldin qarzdorga navbatdagi to'lov summasi eslatiladi; to'lov sanasidan keyingi kun davomida to'lanadigan zarur summalar kelib tushmaganida, kredit oluvchiga uni to'lash to'g'risida xabarnoma yuboriladi);

- agar jarima sanksiyalari amal qilayotgan bo'lsa, ularning to'lanishi (foizlarni to'lash muddati o'tganida, kreditni so'ngdirish

grafigi buzilganida, kredit oluvchiga muddat o'tkazilganligi uchun to'lashi lozim bo'lgan jarima summasi to'g'risida bildiriladi);

- kreditning ta'minlanganlik holati;
- kredit oluvchining moliyaviy ahvoli (uning hisob-kitob va joriy schotlari bo'yicha mablag'lar harakati har oyda, zarur hollarda esa oy davomida tez-tez tahlil qilinadi; har chorakda mijoz soliq inspeksiyasiga topshiriladigan moliyaviy hisobotning bir nusxasini bankka ham topshiradi).

Mazkur kredit bo'yicha ish yurituvchi bank xodimi kredit oluvchiga u tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar to'g'risidagi axborotni yetkazish hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish lozim.

7.5. Agrar korxonalarini qisqa muddatli kreditlashni takomillashtirish

Agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish natijasida banklar va qishloq xo'jalik korxonalarini o'rtasidagi kredit munosabatlari tubdan o'zgarib qolgan. Hozirgi kreditlash tizimi ancha liberal tizim bo'lib, mijoz-korxonalar o'zi xohlagan kredit muassasasini tanlaydi. Kredit oluvchining huquq va majburiyatlari o'zaro kelishuv bo'yicha kredit shartnomasida ko'rsatiladi. Vujudga kelgan kreditlash tizimi banklararo raqobat uchun shart-sharoitlar yaratmoqda.

1. Shunga qaramasdan, ushbu sohadagi kredit munosabatlari bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq mos kelmaydi:

- moliya-kredit mexanizmi yetarli darajada rivojlanmagan;
- agrar sohaning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yetarli emas;
- qishloq xo'jalik korxonalarini kredit olishida ayrim qiyinchiliklar bo'lib, shu munosabat bilan ularning ko'pchiligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashga qarz mablag'lari yetishmaydi;
- ayrim fermer xo'jaliklarining iqtisodiy nochorligi olingan kreditlarni qaytarishda muammolar keltirib chiqarmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalarini bunday sharoitda kredit bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirishni davlat tomonidan tartibga solishni yanada rivojlantirish zarur. Baho mexanizmi orqali harakatlanadigan budjet hamda kredit mablag'lari hajmi va kelib tushish vaqti bo'yicha uzluksizlik tamoyilini amalga oshirish moliyalashtirish jarayonining yetarilishini to'liq ta'minlash lozim. Aks holda to'liq moliyalashtirilmalik, to'lovlarning izdan chiqishi, aylanma

mablag'larning muzlatilishi va ishlab chiqarishning pasayib ketishiga olib kelishi mumkin.

2. Qisqa muddatli kreditlashning eng samarali shakllaridan biri bo'lg'usi hosilni garovga qo'yib kreditlash hisoblanadi. Uning amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida kreditlash jarayonini aylanma mablag'larning mavsumiy yetishmovchiligini to'ldirish uchun qarz resurlarini jalb qilish va davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari (paxta, g'alla) yetishtirishini mablag' bilan ta'minlashni yanada yaxshilagan bo'lar edi. Davlat uchun garov operatsiyalari shunisi bilan ahamiyatliki, bunday kreditlar moddiylashgan asosga ega, maqsadli hisoblanadi va likvidli resurslar evaziga beriladi, ya'ni ularning qaytarilishi kafolatlanadi. Fermer xo'jaliklarining manfaati pul mablag'larini o'z vaqtida olish va noqulay bozor konyunkturasi sharoitida mahsulotlarni sotishni osonlashtirish bilan ta'minlanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini garovga qo'yib kreditlash pul va tovar shakllarida avanslashtirish ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Garov predmeti bo'lib ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot kabi, bo'lg'usi hosildan olinadigan mahsulot ham bo'lishi mumkin. Bo'lg'usi hosil uchun kredit tuzilgan kontrakt va sug'urta polisini garovga qo'ygan holda, tegishli ekinlarning tabiiy vegetatsiya davridan oshmagan muddatga berilishi maqsadga muvofiq.

3. Qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlash mexanizmining huquqiy-me'yoriy bazasi va amaliyotini tadqiq qilish qishloq xo'jalik korxonalarini to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlash mexanizmi moliyalashtirishning boshqa shakllariga qaraganda bir qancha afzallarga ega ekanligini ko'rsatdi:

- mablag'lar qishloq xo'jalik korxonalariga ularning o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ajratib boriladi. Bu esa o'z navbatida mablag'larning muvaqqat hisob raqamlarida ishlatilmasdan qolib ketish hollariga chek qo'yadi;

- moliyaviy mablag'larni mustaqil ishlatish imkoniyati yaratiladi va olingan kreditlardan samarali foydalanish ta'minlanadi;

- fermer xo'jaliklarining paxta xomashyosi va g'alla yetishtirish xarajatlarining ayrim turlari bo'yicha to'lovlarga ehtiyoji bo'lmagan hollarda, ular mazkur mablag'larni texnologik kartalarda belgilangan boshqa xarajatlarga ishlatishlariga imkon yaratiladi;

- moddiy resurslarga ehtiyoji bo'lmagan hollarda asossiz oldindan to'lovlarni amalga oshirish holatlariga chek qo'yiladi. Buning natijasida

xizmat ko'rsatuvchi tarmoq korxonalarining qishloq xo'jalik korxonalari oldida katta miqdorda kreditorlik qarzlari vujudga kelishining oldi olinadi;

- qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan kredit mablag'laridan mustaqil va oqilona foydalanishi natijasida yonilg'i-moylash materiallari va mineral o'g'itlarni samarali ishlatish bo'yicha manfaatdorliklari oshadi;

- tijorat banklari va xo'jaliklarning ajratilgan kredit mablag'larini o'z vaqtida qaytarilishi uchun mas'uliyatini va manfaatdorligini yanada oshiradi.

4. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalari yuqori, qishloq xo'jalik korxonalari o'z mablag'larining yetishmasligi sharoitida veksel kreditidan foydalanish tavsiya etiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillarida (1996–1997 yy.) veksel kreditlash shakli sifatida muomalaga chiqarilgan edi. Lekin ba'zi sabablarga ko'ra, uni qo'llash to'xtatildi. Kreditlash vositasi sifatida vekselning mohiyati shundan iboratki, qarz oluvchi korxonalar o'zining kreditorlariga qarzlarni real pul mablag'lari bilan to'lamasdan, balki vekselda ko'rsatilgan ma'lum summaning to'lanishi bo'yicha bankning qarz majburiyati (tilxati, ya'ni veksel) bilan to'laydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun veksel kreditining afzalligi aylanma mablag'larning past bahoda to'ldirishidan iborat (kredit bo'yicha foiz stavkasi yuqori bo'lmagan). Shuningdek, bu bank uchun pul mablag'larini uzoq muddat davomida aylanmadan chetlatmasdan, iqtisodiyotning samarali tarmoqlariga kapital sifatida qo'yish imkoniyatini bersa, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun esa hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlaydi.

Albatta, bank vekseli o'z funksiyalarini bajarishi uchun yuqori likvidli ishonchli bo'lishi lozim. Shu bois, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun veksel bilan kreditlashning yirik va ishonchli banklar tomonidan amalga oshiriladigan dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Veksel bilan kreditlashda tomonlar quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- bank pul mablag'larini ssuda berish uchun chetlashtirmasdan, kreditni so'ndirish paytidan veksellar qaytarilgunigacha mijoz mablag'laridan foydalanadi (uning daromadi ikkita tarkibiy qismdan tashkil topadi: kreditni qaytarish paytidan vekselni so'ndirishgacha bo'lgan vaqt oralig'ida pul mablag'laridan bepul foydalanishdan olingan – «yashirin daromad»; mijozning berilgan kredit uchun to'lovi – «real daromad»);

- xo'jalik yurituvchi subyekt qishloq xo'jalik ishlarini amalga oshirish uchun zarur ishlab chiqarish zaxiralarini (yoqilg'i, urug'lik, ehtiyot qismlar, o'g'itlar va h.) o'z vaqtida xarid qilish imkoniga ega bo'ladi, uning mahsulotlarini sotish esa xaridorlar bilan tuzilgan shartnoma bilan kafolatlanadi;

- mol yetkazib beruvchilar to'lovlarni o'z vaqtida olib, bu ularga kreditorlari bilan hisoblashishga imkon yaratadi;

- xaridor pul mablag'larini bo'nak to'lovlari uchun chetlash-tirmaydi va ularni boshqa maqsadlarda ishlatishi mumkin.

Veksel bilan kreditlashning afzalligi yana shundan iboratki, agar mijozning budjet oldida qarzlari bo'lsa, ularni qoplash hisobiga vekselni hisobdan chiqarib olish mumkin emas. Kreditlashning ushbu mexanizmi yana shunisi bilan e'tiborli-ki, bunda oldin berilgan kredit bo'yicha qarzdorlikni bir vaqtda so'ndirish amalga oshishi mumkin va bu shubhasiz, har ikkala tomon uchun ham foydali hisoblanadi.

Veksel bilan kreditlashda xo'jalik aloqalarining zanjiri vujudga keladi: resurslar – ishlab chiqarish (qishloq xo'jalik korxonalari) – tayyorlash – realizatsiya – veksel emitenti.

5. Jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan kreditlash shakli *tovar kredit* hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jalik korxonalarini mavsumiy kreditlashning bunday shakli ma'lum qonuniyatga ega. Chunonchi, agrar sektorga berilgan mavsumiy kreditning – G'arbiy Yevropada 33 foizi, AQSHda 20 foizi tovarli kreditga to'g'ri keladi.

Aralash bank va tijorat kreditidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, agrar soha xo'jaliklarining resurslarini, shartnomalar tuzish orqali turli korxonalar mablag'larini jalb qilish hisobiga ko'paytirishga imkon beradi. Bunday operatsi-yalarning samaradorligi nafaqat tomonlarning rasmiy shartnoma majburiyatlari bilan, balki kreditlashda ishtirok etayotgan korxonaning bevosita tijorat manfaati bilan ham ta'minlanadi.

Shunday qilib, fermer xo'jaliklarini qisqa muddatli kreditlash muammolarini hal etish ko'proq bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Fermer xo'jaliklarni mablag' bilan ta'minlashning takomillashishi, o'z navbatida, butun bozor munosabatlarining rivojlanishini rag'batlantiradi.

Nazorat savollari

1. Agrar korxonalar faoliyatini mablag' bilan ta'minlashda qisqa muddatli kreditlashning zarurati, ahamiyati va xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Kreditlash jarayonining umumiy mexanizmini tavsiflang.
3. Kredit olish uchun bankka qanday hujjatlar taqdim etiladi?
4. Bank tomonidan kredit oluvchining moliyaviy ahvoli va kreditning ta'minlanganligi qanday tahlil qilinadi?
5. Kredit oluvchi korxonaning reytingi qanday baholanadi?
6. Kredit shartnomasi va garov shartnomasi, ularning mazmuni va ahamiyatini tavsiflang.
7. Fermer xo'jaliklarini kreditlashning huquqiy-me'yoriy asoslari va xususiyatlarini tavsiflang.
8. Yer uchastkalarini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kredit berish tartibini tavsiflang.
9. Fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibini tushuntirib bering.
10. Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlariga qanday tartibda imtiyozli kredit beriladi?
11. Kredit shartnomalarining bajarilishi bank tomonidan qanday nazorat qilinadi?
12. Agrar korxonalarini qisqa muddatli kreditlashni takomillash-tirishning asosiy yo'nalishlari qanday?

Nazorat testlari

1. Kreditlash jarayoni qanday bosqichlardan iborat?

- A) Dastlabki bosqich, asosiy bosqich, yakuniy bosqich.
- B) Kredit qo'yilmalarini dasturlash, bank kreditlarini olish, ishlatish va qaytarish.
- C) Rejalashtirish bosqichi, foyizlarni to'lash bosqichi.
- D) Bank bilan muzokara bosqichi, shartnoma tuzish bosqichi.
- E) Kredit layoqatini o'rganish bosqichi va baholash bosqichi.

2. Korxonaning kredit layoqatini belgilovchi qo'shimcha ko'rsatkichlar

- A) Qoplash koeffitsiyenti, o'z aylanma mablag'larining mavjud manbalari.

- B) Likvidlik koeffitsiyenti, aylanma mablag'larning aylanuvchanlik ko'rsatkichlari.
- C) O'z aylanma mablag'larining mavjud manbalari, o'z vaqtida to'lanmagan qarzar, rentabellik, aylanma mablag'larning aylanuvchanlik ko'rsatkichlari.
- D) Qoplash va avtonomlik koeffitsiyentlari, o'z aylanma mablag'larining mavjud manbalari.
- E) Avtonomlik koeffitsiyenti, korxonaning to'lanmagan qarzlari, rentabellik.

3. Ta'minotsiz (ishonch) krediti bo'yicha qarzlarning qaytarish muddati uzaytirilishi

- A) Iшонch krediti bo'yicha qarzlarning qaytarish muddati har oy oxirida uzaytirilishi mumkin.
- B) Har chorak oxirida uzaytirilishi mumkin.
- C) Qaytarish muddati kredit komitetining ruxsati bilan uzaytirishi mumkin.
- D) Qaytarish muddatini asoslangan ariza bilan uzaytirish mumkin.
- E) Qaytarish muddatini uzaytirish mumkin emas.

4. Nima uchun kontokorrent krediti moliyaviy ahvoli barqaror bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga beriladi?

- A) Kredit ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga beriladi.
- B) Kredit hisob muomalalarining uzluksizligini ta'minlash uchun beriladi.
- C) Kredit asosiy ishlab chiqarish fondlari uchun beriladi.
- D) Kredit bo'yicha nisbatan yuqori foiz stavkasi undiriladi.
- E) Kredit qarz oluvchiga ishonch asosida beriladi.

5. Remoliyalashtirishning amaldagi stavkasi 2,5%. Markaziy bank uni muddatli ssudalar bo'yicha 1,5 barobargacha oshirishga ruxsat qiladi. Kreditning oylik va yillik bahosini aniqlang.

- A) Oylik 2,95% yillik 36,5%
 - B) Oylik 3,95% yillik 48,6%
 - C) Oylik 4,05% yillik 48,5%
 - D) Oylik 3,75% yillik 45,0%
 - E) Oylik 4,15% yillik 50,0%
- aylanuvchanlik ko'rsatkichlari

6. Overdraft bo'yicha beriladigan kredit

- A) Korxonaning depozit schotidan beriladi.
- B) Maxsus ssuda schotidan beriladi.
- C) Oddiy ssuda schotidan beriladi.
- D) Kontokorrent schotidan beriladi.
- E) Budjet schyotidan beriladi.

7. Kredit liniyasi nima?

- A) Uzoq muddatli kredit shakllaridan biri.
- B) Bir martalik bitimlarni mablag' bilan ta'minlash uchun beriladigan kredit.
- C) Yil davomida mijoz olishi mumkin bo'lgan kreditning limiti.
- D) Mijoz oy davomida olishi mumkin bo'lgan kreditning limiti.
- E) Mijozning to'lov hujjatlarini to'lash uchun beriladigan kredit.

8. Overdraft schotidan kredit berishning asosiy sharti

- A) Mijozning talab qilib olinadigan asosiy depozit schyotida har oy oxiriga kredit qoldig'i qolishi.
- B) Har kvartal oxiriga debet qoldig'i qolishi.
- C) Har yil oxiriga debet qoldig'i qolishi.
- D) Har olti oy oxiriga debet qoldig'i qolishi.
- E) Har oy oxiriga debet qoldig'i qolishi.

9. Kontokorrent schotidan kredit berishning asosiy sharti

- A) Har oy oxirida kredit qoldig'i qolishi.
- B) Har oyning oxiriga debet qoldig'i qolishi.
- C) Har yilning oxiriga debet qoldig'i qolishi.
- D) Har yilning oxiriga kredit qoldig'i qolishi.
- E) Har kvartalning oxiriga debet qoldig'ining qolishi.

10. Kontokorrent schotidan nimalar uchun kredit beriladi?

- A) Budjetga va sug'urtaga to'lanadigan to'lovlar uchun asosiy faoliyat bo'yicha tovar-moddiy qiymatlar (ish va xizmatlar)ning hisob hujjatlarini to'lash uchun.
- B) Ish haqi va ijtimoiy sug'urta to'lovlari uchun.
- C) Kechiktirib bo'lmaydigan xo'jalik xarajatlari uchun, asosiy faoliyatga doir xarajatlar uchun.
- D) Asosiy faoliyat bo'yicha tovar-moddiy qiymatlar, bajarilgan ish va xizmatlarning hisob hujjatlarini to'lash uchun.

E) Kapital faoliyati bo'yicha tovar-moddiy qiymatlar, bajarilgan ish va xizmatlarning hisob hujjatlarini to'lash uchun.

11. Kontokorrent schotidan kredit beriladigan obyektini ko'rsating

A) Budjetga to'lanadigan to'lovlr uchun.

B) Ish haqi to'lash uchun.

C) Kechiktirib bo'lmaydigan xo'jalik xarajatlari uchun.

D) Kapital faoliyati bo'yicha tovar-moddiy qiymatliklar, bajarilgan ish va xizmat-larning hisob hujjatlarini to'lash uchun.

E) Asosiy faoliyat bo'yicha tovar-moddiy qiymatlar, bajarilgan ish va xizmat-larning hisob hujjatlarini to'lash uchun.

12. Remoliyalashtirishning amaldagi stavkasi 3%. Markaziy bank uni muddatli ssudalar bo'yicha 1,5 barobargacha, resurslarni qaytarish 30 kungacha bo'lgan muddatga kechiktirilganda foiz stavkasini 1,3 barobar oshirishga ruxsat beradi. Kreditning oylik va yillik oshirilgan stavkalarini aniqlang

A) Oylik 7,35% yillik 84,5%

B) Oylik 6,85% yillik 81,2%

C) Oylik 6,25% yillik 70,6%

D) Oylik 5.85% yillik 70,2%

E) Oylik 5,15% yillik 63,3%

13. Korxonaning kredit layoqatini belgilovchi asosiy ko'rsatgichlar

A) Rentabellik, aylanma mablag'larning aylanuvchanlik ko'rsatgichlari, qoplash koeffitsiyenti.

B) Likvilik koeffitsiyenti, rentabellik va aylanma mablag'larining mavjud manbalari.

C) Korxonaning to'lanmagan qarzlari, rentabellik, avtonomlik koeffitsiyenti.

D) Qoplash, likvidlik va o'z manbalari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyentlari.

E) Qoplash va likvidlik koeffitsiyentlari, rentabellik.

14. Kreditning ta'minotlaridan qaysi biri eng yuqori likvidlik xususiyatiga ega?

A) Yirik sanoat korxonalarining obligatsiyalari.

B) Hukumatning obligatsiyalari.

S) Tovar-moddiy qiymatliklar.

- D) Xaridorlarning debitor qarzlari.
- E) Turli elementlarning obligatsiya va sertifikatlari.

15. Ishonchli kreditlarga nimalar kiradi?

- A) Hukumatning qisqa muddatli qimmatbaho qog'ozlari bilan ta'minlangan kreditlar.
- B) Xaridorlarning debitor qarzlari bilan ta'minlangan kreditlar.
- C) Garovsiz berilgan kreditlar.
- D) Imtiyozli kreditlar.
- E) Sanoat korxonalarining aksiyalari bilan ta'minlangan kreditlar.

16. Reyting sifati va beriladigan kreditning maksimal summasi yuqori bo'lgan, garovga qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlar

- A) Davlatning qimmatli qog'ozlari.
- B) Yirik sanoat korxonalarining obligatsiyalari.
- C) Turli emitentlarning aksiyalari.
- D) Banklarning aksiyalari.
- E) Turli emitentlarning aksiya, obligatsiya va depozit sertifikatlari.

VIII bob. AGRAR KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLIYATINING MOLIYAVIY MEXANIZMI

8.1. Agrar korxonalarda investitsiyalar, ularning turlari va moliyalashtirish manbalari

Mustaqillik yillarida erishilgan makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy va insti-tutsional islohotlarni chuqurlashtirish, investitsion muhitni yaxshilash investitsiya faoliyatini sezilarli darajada faollashtirish va 2010-yilda 1990-yilga nisbatan iqtisodiyotga qilingan kapital qo'yilmalar hajmining 11,6 marta o'sishiga zamin yaratdi.

Eng muhim sifat o'zgarishlari investitsiyalari tuzilmasida moliyalashtirish manbalari bo'yicha sodir bo'lmoqda. Investitsiyalarning yuqori sur'atlar bilan o'sishi hisobiga markazlashtirilmagan manbalardan, birinchi navbatda, xususiy va bevosita xorijiy investitsiyalar ulushi o'sib bormoqda.

Agar 1990-yilda mamlakatning investitsiya portfelida xorijiy investitsiyalar umuman jalb qilinmagan bo'lib, 2000-yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 23,2%, shundan hukumat kafolati ostida jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlar-19,8% va to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan investitsiyalar 3,4%ni tashkil qilgan.

Qulay investitsion muhit, jumladan xorijiy investorlar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimi xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini rag'batlantirishga doir tadbirlar tizimi mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada ko'payishiga yordam berdi. Natijada, 2010-yilda jami kapital qo'yilmalar tuzilmasida xorijiy investitsiyalar ulushi 29,1% bo'lib, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 25,3% va hukumat kafolati ostida jalb qilingan investitsiyalar 3,8%ni tashkil etdi.

Agar 1990-yilda iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalarning 46%dan ko'prog'i davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar va boshqa markazlashtirilgan manbalarning mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2010-yilda jami kapital qo'yilmalar tarkibida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalarining ulushi 13,0%ni tashkil etgan. Bunda Davlat budjeti va boshqa markazlashtirilgan manbalarning

mablag'lari hisobidan qilingan investitsiyalar hajmi 3,3 marta o'sgan (8.1-jadval).

1990–2010-yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha amalga oshirilgan maqsadli investitsion siyosat natijasi sifatida ishlab chiqarishga mo'ljallangan investitsiyalarning jami kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 58,3%dan 73,5%ga o'sgan. Shu davrda investitsiyalar tarkibida yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirish ulushi 5,2%dan 11,8%ga transport va aloqa ulushi 5,4% dan 29,9%ga, metallurgiya ulushi 0,1% dan 5,5%ga o'sgan (8.2-jadval).

Kapital qo'yilmalar dinamikasi va tarkibi⁶³

8.1-jadval

	Kapital qo'yilmalar, ekv.mln.doll.			Kapital qo'yilmalar tuzulmasi,%		
	1990 yil	2000 yil	2010 yil	1990 yil	2000 yil	2010 yil
Kapital qo'yilmalar	833,8	3142,5	9712,7	100	100	100
shu jumladan:						
Davlat budjeti, davlatning budjetdan tashqari fondlari va boshqa markazlashgan manba- lardan mablag'lar	386,1	958,1	1266,6	46,3	30,5	13,0
Markazlashmagan inves- titsiyalar:	447,7	1456,9	5621,6	53,7	46,3	57,9
korxonalar mablag'lari	342,7	852,9	3124,4	41,1	27,1	32,2
aholi mablag'lari	105,0	376,6	1554,2	12,6	12,0	16,0
bank kreditlari va jamg'arma mablag'lari	-	227,4	943,0	-	7,2	9,7
Xorijiy va investitsiyalar kre- ditlar	-	727,5	2824,5	-	23,2	29,1
shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyalari	-	105,2	2454,7	-	3,4	25,3

Har qanday tarmoqdagi korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining muhim tomonlaridan biri – o'zining ishlab chiqarish-iqtisodiy salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish. Korxonalarning bu sohadagi faoliyatiga *investitsiya faoliyati* deyiladi.

⁶³ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётнинг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: Стат. тўплам. –Т., «Ўзбекистон», 2011. – Б. 53.

**Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yilmalar tarkibi,
(% da)⁶⁴**

8.2-jadval

	1990 yil	2000 Yil	2010 yil
Hammasi	100	100	100
Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari	58,3	57,5	73,5
Yoqilg'i-energetika	5,2	7,6	11,8
Metallurgiya	0,1	2,7	5,5
Kimyo va neft	1,4	7,9	1,2
Mashinosozlik	3,6	4,1	3,4
Yengil sanoat	2,5	2,4	2,5
Oziq-ovqat	2,3	2,5	1,7
Qurilish materiallari	1,7	0,3	2,5
Qishloq xo'jaligi	26,7	5,7	3,5
Transpot va aloqa	5,4	16,8	29,9
Boshqa tarmoqlar	9,4	7,5	11,5
Noishlab chiqarish ko'rsatkichlari	41,7	42,5	26,5

Investitsiyalar aktivlarni ko'paytirish va foyda olish maqsadida moliyaviy resurslarni uzoq muddatli qo'yilma shaklida ishlatishdir. Investitsiyalar xo'jalik yurituvchi subyektning dinamik rivojlantirishni ta'minlaydi va quyidagi vazifalarni hal etishga imkon beradi: moliyaviy va moddiy resurslarni to'plash hisobiga tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish; yangi korxonalarni sotib olish; ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash (faoliyatning yangi sohalarini o'zlashtirish).

Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z faoliyatini kengaytirishi va bozordagi mavqei mustahkamligi, ishlab chiqariladigan mahsulot, bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmatlariga talabning mavjudligidan dalolat beradi.

Korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar turlari va shakllarining xilma-xilligi ularni ma'lum mezonlar bo'yicha turkumlashni talab etadi (8.1-rasm).

Kapital qo'yish obyektlari bo'yicha real va moliyaviy investitsiyalarga bo'linadi. Real investitsiyalar kapitalning asosiy vositalarni takror ishlab chiqarish, innovatsion nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy boyliklar zaxiralarning qo'shimcha o'sishi va korxonaning asosiy faoliyatini amalga oshirish yoki xodimlarning mehnat va madaniy-

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraqqiyotining mustaqillik йилларидаги (1990–2010 йиллар) asosiy tendentsiyasi va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015 йилларга muvajjalangan prognozlar: Stat. tujilam. –T., «Ўзбекистон», 2011. –B. 54.


maishiy sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq boshqa obyektlarga investitsiyalanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar esa kapitalni har xil moliyaviy instrumentlar, asosan daromad olish maqsadida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirishni tavsiflaydi.

Investitsiya jarayonida ishtirok etishi bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning bevosita va bilvosita investitsiyalariga bo'linadi. Bevosita investitsiyalar deganda investorning kapital qo'yiladigan obyektlarni tanlashda bevosita ishtirok etishi tushuniladi. Odatda, ular kapital qo'yilmalar, boshqa korxonlarning ustav kapitaliga qo'yilmalar, fond bozorida ommaviy muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlarning ayrim turlariga qilingan qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladi. Bevosita investitsiyalar asosan, investitsiyalash obyekti to'g'risida yetarli darajadagi aniq axborotlarga ega bo'lgan va investitsiyalash mexanizmi bilan yaxshi tanish bo'lgan, puxta tayyorgarlik ko'rgan investorlar tomonidan amalga oshiriladi. Bevosita investitsiyalar boshqa shaxslar (moliyaviy vositachilar) orqali amalga oshiriladi.

Investitsiyalash davri bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi. Qisqa muddatli investitsiyalar kapitalning bir yilgacha bo'lgan davrga qo'yilishini bildiradi. Korxonada qisqa muddatli investitsiyalarining asosini qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar tashkil etadi. Uzoq muddatli investitsiyalar esa kapitalning bir yildan ortiq muddatga qo'yilishini tavsiflaydi. Uzoq muddatli investitsiyalarning asosiy qismini korxonalarining asosiy vositalarni takror barpo etishga qilinadigan kapital qo'yilmalari tashkil etadi.

Investitsiya tavakkalchiligining darajasi bo'yicha investitsiyalar quyidagilarga bo'linadi: risksiz investitsiyalar qo'yilgan kapitalni yoki kutilayotgan daromadni yo'qotish xavfi bo'lmagan obyektlarga mablag'lar sarflash va hisob-kitob qilingan investitsiya foydasini olish kafolatlanganligini tavsiflaydi. Past riskli investitsiyalar o'rtacha bozor riskiga qaraganda risk ancha past bo'lgan obyektlarga mablag'lar qo'yish. O'rta riskli investitsiyalar investitsiyalash obyektlari bo'yicha risk darajasi o'rtacha bozor riskiga taxminan teng bo'ladi. Yuqori riskli investitsiyalar – risk darajasi o'rtacha bozor riskidan oshib ketadi. Spekulyativ investitsiyalar kapitalni eng riskli loyihalarga qo'yish yoki eng yuqori darajadagi investitsion daromad olinishi kutilayotgan investitsiyalash instrument-lari bilan bog'liq.

Investitsiyalanadigan kapitalning mulkchilik shakli bo'yicha investitsiyalar xususiy va davlat investitsiyalariga bo'linadi. Xususiy investitsiyalar nodavlat mulk shaklidagi jismoniy va yuridik shaxslar



8.1-rasm. Investitsiyalarning turkumlanishi.

mablag'larining sarflanishini bildiradi. Davlat investitsiyalari davlat korxonalari kapitali hamda har xil darajadagi davlat budget va budgetdan tashqari fondlar mablag'larining sarflanishini bildiradi.

Investorlarning mintaqaviy mansubligi bo'yicha milliy (ichki) va chet el investitsiyalariga bo'linadi. Milliy (ichki) investitsiyalar mazkur mamlakat rezidentlari (yuridik va jismoniy shaxslari) tomonidan uning hududidagi obyektlarga kapital qo'yilishi bilan tavsiflanadi. Chet el investitsiyalari – bu norezidentlar (yuridik yoki jismoniy shaxslar) tomonidan mazkur mamlakatning investitsiyalash obyektlariga kapital qo'yilishidir.

Investitsiya faoliyati korxonaning iqtisodiy salohiyatini kengaytirishga yo'naltirilib, u quyidagi asosiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy strategiyasini amalga oshirib, asosiy faoliyatini o'stirishni ta'minlashning muhim shakli hisoblanadi;
- investitsiya faoliyatining hajmlari xo'jalikning iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi;
- investitsiya faoliyati korxonada asosiy faoliyatining maqsad va vazifalariga qaratilishi lozim;
- xo'jalik yurituvchi subyekt qo'yilmalarining hajmlari alohida davrlar bo'yicha jiddiy tarzda notekisligi bilan tavsiflanadi;
- investitsiya faoliyatining shakllari va uslublari korxonaning asosiy faoliyatiga qaraganda, uning tarmoq xususiyatlariga kam darajada bog'liq;
- xo'jalikning investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi risklar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular «investitsion risk» tushunchasini tashkil etadi;
- investitsiya faoliyati jarayonida pul oqimlari o'z yo'nalishlari bo'yicha alohida davrlarda bir-birlaridan jiddiy farq qiladi.

Investitsiya faoliyatning subyektlari bo'lib investorlar, buyurtmachilar, in-vestitsiya faoliyati obyektlaridan foydalanuvchilar (jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, chet ellik hamda har xil davlatlar va xalqaro tashkilotlar) hisoblanadi.

Investorlar o'zlarining xususiy, qarzga olingan va jalb qilingan mablag'larini investitsiya shaklida qo'yadilar va ularning maqsadli ishlatilishini ta'minlaydilar.

Buyurtmachilar investorlarning o'zlari hamda investor tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga vakolat berilgan, har qanday

boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bo'lishlari mumkin. Agar buyurtmachi investor bo'lib hisoblanmasa, bu holda u shartnomada ko'rsatilgan davr davomida va vakolatlari doirasida investitsiyalarga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlariga ega bo'ladi.

Investitsiya faoliyati obyektlaridan foydalanuvchilar investorlarning o'zlari, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar, davlat va mahalliy organlar, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar. Agar investitsiya obyektidan foydalanuvchi investor bo'lib hisoblanmasa, u holda, uning bilan investor o'rtasidagi munosabatlar investitsiyalash to'g'risidagi shartnoma (qaror) bilan aniqlanadi. Qo'yilmalar subyektlari ikki yoki bir necha ishtirokchilarning funksiyalarini birlashtirish huquqlariga ega.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining obyektlari: iqtisodi-yotning barcha tarmoqlaridagi yangidan yaratilayotgan va modernizatsiya qilinayotgan asosiy fondlar; qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va b.); maqsadli pul qo'yilmalari; fan-texnika mahsulotlari va boshqa mulkchilik obyektlari; mulkiy huquqlar va intellektual mulkka bo'lgan huquqlar hisoblanadi.

Chet ellik investorlar O'zbekiston hududida tegishli faoliyatni quyidagilar vositasida amalga oshirish huquqiga ega: O'zbekiston Respublikasidagi yuridik shaxslar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan korxonalar; chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan korxonalar hamda chet ellik yuridik shaxslarning filiallarini tashkil etish; korxonalar, binolar, inshootlar, xo'jalikdagi ishtirok ulushlari, paylar, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha chet ellik investorlarga tegishli bo'lgan boshqa mulklarni sotib olish; yerdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlarini sotib olish; qarzlarni, kreditlarni mulklar va boshqa mulkiy paylarni taqdim etish.

Barpo etish va ishlatilishi ekologik, sanitariya-gigiyena va boshqa belgilangan me'yorlar talablariga javob bermaydigan hamda fuqarolar, yuridik shaxslar yoki davlat huquqi va manfaatlariga zarar yetkazadigan obyektlarga investitsiyalar qo'yish man etiladi.

Investitsiya faoliyatining subyektlari amalda moliyaviy qo'yilmalar amalga oshiriladigan investitsiya sohalari hisoblanadi.

Investitsiya sohalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish mo'ljalidagi asosiy fondlarga mablag'lar qo'yiladigan kapital qurilishlar. Ushbu faoliyat buyurtmachi-investorlar, pudratchilar, loyihalovchilar, qurilmalarni

yetkazib beruvchilar, yakka tartibda va kooperativ shaklida uy-joy quruvchi fuqarolar va investitsiya faoliyatining boshqa subyektlarini birlashtiradi;

- fan-texnika mahsulotlari va intellektual salohiyat safarbar etiladigan innovatsiya sohasi;

- moliya kapitalining muomaladagi sohasi (pul, ssuda va har xil shakldagi moliyaviy majburiyatlar).

Investitsiyalarni amalga oshirishda barcha investorlar teng huquqqa ega. Ular qo'yilmalarning hajmi, yo'nalishlari miqdori va samaradorligini mustaqil aniqlaydilar hamda investitsiyalarni amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida (aksariyat tanlov asosida) o'z xohishiga ko'ra jalb qiladi. Investitsiya faoliyati obyektlaridan foydalanuvchi hisoblanmagan investor, ularning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va bunday obyektlardan foydalanuvchilarga nisbatan shartnomada ko'zda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishga haqli. Investor investitsiya obyektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega. U investitsiyalar va ularning natijalari bo'yicha o'z huquqlarini jismoniy yoki yuridik shaxslarga hamda mahalliy hokimiyat organlariga shartnoma asosida berish huquqiga ega.

Investitsiya faoliyatining tugallanmagan obyektlari investor tomonidan bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish va haqi to'lan-gungacha investitsiya jarayoni subyektlarining ulushli mulki hisoblanadi. Investor loyihani keyinchalik investitsiyalashni rad etgan holda, agar boshqacha holat shartnomada belgilan-magan bo'lsa, uning boshqa ishtirokchilariga xarajatlarni to'lab berishi lozim.

Davlat investitsiya subyektlari huquqlarining barqarorligini kafolatlaydi. Ularning huquqlarini cheklaydigan qonun hujjatlari qabul qilingan hollarda, ushbu hujjatlarning qoidalari e'lon qilinganidan so'ng bir yil o'tmasdan oldin kuchga kiritilishi mumkin emas. Investorlar va investitsiya faoliyati boshqa ishtirokchilarining qonuniy huquqlari va manfaatlariga zid keladigan hujjatlar davlat organlari tomonidan qabul qilingan hollarda, ko'rilgan zararlar, chiqarilgan nafni ham qo'shgan holda, sud qaroriga muvofiq, ushbu organlar tomonidan investitsiya subyektlariga to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka muvofiq, investitsiyalar, shu jumladan, chet el investitsiyalarini himoyalash, mulkchilik shaklidan qat'i nazar kafolatlanadi.

Investitsiyalarning barcha manbalari o'zini va tashqi manbalarga bo'linadi.

Investitsiyalarning o'z manbalariga quyidagilar kiradi:

- asosiy kapital bo'yicha amortizatsiya hisoblash natijasida shakllangan o'z moliyaviy mablag'lari; investitsiyalash ehtiyojlari uchun foydadan ajratmalar; tabiiy va boshqa ofatlardan ko'rilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta kompaniyalari hamda muassasalari tomonidan to'lanadigan summalar va h.;

- aktivlarning boshqa turlari (asosiy vositalar, yer uchastkalari, patentlar ko'rinishidagi sanoat mulklari, dastur mahsulotlari, savdo markalari va h.);

- aksiyalarni chiqarish va sotish natijasida jalb qilingan mablag'lar;

- yuqori xolding va aksiyadorlik kompaniyalari, sanoat-moliya guruhlaridan tekinga berilgan mablag'lar;

- xayriya va boshqa shunga o'xshash badallar.

Investitsiyalarning tashqi manbalariga quyidagilar kiradi:

- respublika budjeti va mahalliy budjetlardan, tabdirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir har xil fondlardan ajratmalar;

- chet el investitsiyalari, shu jumladan qo'shma korxonalar ustav kapitalida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy aktivlar bilan ishtirok etish hamda xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, davlat, turli xil mulkchilik korxonalar va xususiy shaxslarning pul shaklidagi qo'yilmalari;

- qarz mablag'larining har xil shakllari, shu jumladan, davlat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash fondlari tomonidan imtiyozli asoslarda qaytarib berish sharti bilan beriladigan kreditlar;

- banklar, boshqa institutsional investorlar (investitsiya fondlari va kompaniyalari, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari) kreditlari, veksellar va boshqa manbalar.

Foyda korxonalar sof daromadining asosiy shakli bo'lib, mahsulot (ish, xizmat)lar sotish bahosi va uning to'la tannarxi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lgan pul tushumining bir qismida. Budjetga soliqlar va boshqa to'lovlar to'langanidan so'ng xo'jalik yurituvchi subyektda sof foyda qoladi. Uning bir qismini ishlab chiqarish va ijtimoiy kapital qo'yilmalarga yo'naltirish mumkin. Shuningdek, u korxonada tashkil etiladigan jamg'arma fondi yoki shunga o'xshash boshqa fond tarkibida investitsiyaga ishlatilishi mumkin.

Investitsiyalashni moliyalashning ikkinchi bir manbasi amortizatsiya ajratmalari bo'lishi mumkin. Asosiy vositalarning eskirish qiymatini jang'arish har oyda sodir bo'ladi. Natijada amortizatsiya ajratmalarini ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shish yo'li bilan pul fondlari tashkil etilib, ular asosiy kapitalni ko'paytirish uchun yo'naltirilishi mumkin. Bundan tashqari, korxonalar va tashkilotlarning asosiy fondlarni yangilashdan manfaatdorligini oshirish uchun ayrim hollarda ularning faol qismiga (mashinalar, qurilmalar, transport vositalari va sh.o'.) jadallashtirilgan amortizatsiya usuli qo'llaniladi. Jadallashtirilgan amortizatsiya usuli investitsiyalashning iqtisodiy stimuli sifatida ikkita usulda qo'llanilishi mumkin.

Agrar korxonalarining kapital qo'yilmalarga ishlatiladigan mablag'lariga quyidagilar kiradi: sof foydadan ajratma, amortizatsiya, qurilish materiallari, konstruksiyalar, detallar, qurilmalar hamda ko'p yillik daraxtlar ko'chatlarining qoldiq qiymati; asosiy vositalarni tugatishdan olingan daromadlar; boshqa manbalar.

Agrar korxonalarining asosiy fondlarini takror ishlab chiqarishga yo'naltiriladigan mablag'lariga quyidagilar kiradi: davlatning investitsiya dasturlarida ko'zda tutilgan markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar (qaytarib beriladigan va qaytarib berilmaydigan) kapital ishlar va lizing asosida qishloq xo'jalik texnikalarini olish uchun sarflanadigan har xil turdagi assignovaniyalar.

Qaytarilmaslik sharti bilan berilgan moliyaviy qo'yilmalar maqsadli dasturlarni amalga oshirish, davlat ahamiyatiga ega notijorat tashkilotlari qurilishlari, qishloqdagi qishloq xo'jalik o'quv yurtlari uchun turar joy qurilishi, ilmiy tadqiqot va boshqa budget tashkilotlari qurilishi uchun yo'naltiriladi. Bundan tashqari, mablag'larning bir qismi un va non mahsulotlari ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik korxonalarini bo'yicha davlat ahamiyatiga ega obyektlarni moliyalashtirish uchun sarflanadi.

Davlatning qaytariladigan moliyaviy qo'yilmalari fermer xo'jaliklari va boshqa agrar soha korxonalarini xodimlari uchun turar joy qurilishi, tanlov asosida amalga oshiriladigan, o'zini tez qoplaydigan tijorat loyihalariga yo'naltiriladi. Yakka tartibdagi qurilish uchun kreditlar uy joy qurilishi uchun beriladi.

Qishloq xo'jaligida qaytarilmaydigan assignovaniyalar quyidagi maqsadlarda beriladi: davlat mulki hisoblangan gidrotexnik inshootlar, melioratsiya tizimlarini qurish va rekonstruksiyalash, melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish va muhim suv xo'jalik obyektlarini qurish;

ko'p yillik daraxtlarni o'tqazish; tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan yirik tadbirlarni o'tkazish; tarmoqda fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari hamda naslchilik va urug'chilik xo'jaliklarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish.

«*Yer resurslari*» moddasi bo'yicha mablag'lar yer melioratsiyasi, eroziyaga qarshi kurash, gidrotexnik inshootlarni qurish va rekonstruksiyalash, budjetdan moliyalanadigan suv xo'jalik tashkilotlari uchun qurilish smetasiga kirmaydigan texnika va qurilmalarni sotib olish.

8.2. Agrar sektorda kapital qo'yilmalar va ularning turkumlanishi

Agrar sohaning moddiy-texnika bazasi uning tarmoqlarida qo'llaniladigan barcha ishlab chiqarish vositalarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligini moddiy-texnik jihozlashda va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashda kapital qo'yilmalar – yangi asosiy vositalarni barpo etish, mavjudlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va texnik qayta qurollantirish asosiy ahamiyatga ega.

Asosiy ishlab chiqarish vositalarini reja asosida yangilash – kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning muhim sharti hisoblanadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini takror barpo etishning har xil shakllarini aks ettiradigan, kapital qo'yilmalarning quyidagi yo'nalishlari mavjud: yangi qurilish; faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiyalash va texnik qayta qurollantirish. Mazkur takror barpo etish shakllarining afzalligi shundan iboratki, bunda kapital qo'yilmalar asosan ishlab chiqarish fondlarining faol qismini takomillashtirishga yo'naltiriladi. Mahsulotlar ko'payishi kam xarj amalga oshiriladi va loyihalashtirilgan unumdorlikka tez erishiladi.

Shunday qilib, kapital qo'yilmalarni turkumlashga asosiy fondlarni takror barpo etishning tavsifi asos qilib olingan:

yangi qurilish – ishga tushirilganidan so'ng yuridik shaxs maqomi beriladigan (mustaqil balansga, bankda schyotiga ega va davlat ro'yxatidan o'tgan) obyektни qurish;

korxonani kengaytirish – faoliyat ko'rsatayotgan obyektlarga qo'shimcha ravishda yangi maydonlarda ishlab chiqarishga mo'ljallangan obyektlarni barpo etish (ularga yuridik shaxs maqomi berilmaydi);

rekonstruksiya – ishlab chiqarishni yangi texnik asosda to'liq yoki qisman qayta qurish. U ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va

avtomatlashtirish maqsadida jismoniy yoki ma'naviy eskirgan qurilmalarni almashtirish, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi obyektlarning yangilarini qurish va mavjudlarini kengaytirishni o'z ichiga oladi;

texnik qayta qurollantirish – ishlab chiqarish maydonlarini kengaytirmasdan va xodimlar sonini ko'paytirmasdan, eskirgan mashina va qurilmalarni yangilari, unumliroqlariga almashtirish yo'li bilan ishlab chiqarishdagi ayrim uchastkalarining texnik darajasini oshirishga doir kompleks tadbirlar. Bunda hech qanday qurilish - montaj ishlari bajarilishi ko'zda tutilmaydi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni rekonstruksiyalash va texnik qayta qurollantirish, xarajatlarni kamaytirgan va yangi korxonalarni barpo etishga nisbatan qurilish muddatlarini qisqartirgan holda, ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini, ekologiyasini, mahsulotlarining raqobatbardoshligini yaxshilashga imkon yaratadi.

Yuqorida keltirilgan turkumlash ulkan amaliy ahamiyatga ega. Vaholanki, har qanday qurilishni boshlash uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari va ular asosida qurilish uchun davlat ruxsati olinishi zarur. Bunda hujjatlarni muvofiqlashtirish, qurilish uchun ruxsat olish tartibi va xo'jalik yurituvchi subyektning ushbu tadbirlar uchun qilinadigan xarajatlari kapitallashadigan investitsiyalarning yuqorida sanab o'tilgan shakllariga bog'liq holda jiddiy farq qiladi.

Shuningdek, investitsiyalar yer uchastkalarini, mulkiy huquqlarni, litsenzi-yalarni, «nou-xau»larni, patentlarni foydali modellar va sanoat namunalarini, tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilarini, yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari kabilarni sotib olish shaklida ham amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan takror barpo etishni ta'minlaydigan, barcha mablag'larning asosiy qismini tashkil etadi. Oddiy takror barpo etish deganda amal qilayotgan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha hisoblangan eskirish summasiga mos keladigan hajmdagi, asosiy vositalarga qilingan qo'yilmalar tushuniladi. Bu holda, asosiy fondlarning umumiy hajmini ularning dastlabki qiymatigacha yetkazish amalga oshiriladi. Kengaytirilgan takror barpo etish – bu asosiy fondlarning eskirishi natijasida kamaygan qiymatidan oshadigan summadagi kapital qo'yilmalar.

Kapital qo'yilmalar quyidagi xarajatlardan iborat: qurilish smetasiga kiradigan qurilish-montaj ishlari va qurilmalarni sotib olish xarajatlari; qurilish smetasiga kirmaydigan, mashinalar, uskunalalar,

inventar va jihozlarni sotib olish xarajatlari, ko'p yillik o'simliklarni ekish va parvarishlash xarajatlari; mahsuldor va ish hayvonlarining asosiy podasini shakllantirish xarajatlari; boshqa kapital xarajatlar (qurilish uchun yer uchastkalarini ajratish, loyihalovchi tashkilotlarning loyiha-qidiruv ishlari va mualliflik nazorati bilan bog'liq xarajatlar; tuproq eroziyasiga qarshi tadbirlarni amalga oshirish va h.).

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarning nisbati kapital qo'yimalarning strukturasi belgilaydi. Mashinalar va qurilmalarni sotib olish, ya'ni asosiy ishlab chiqarish vositalarining faol qismini barpo etishga yo'naltiriladigan kapital qo'yimlar eng maqbul hisoblanadi.

Kapital qo'yimlar ikki usulda amalga oshiriladi: pudrat usuli va xo'jalik usuli.

Pudrat usulida qurilish obyektini loyihalashtirish, qurilmalarni tanlash, ularga buyurtma berish va o'rnatish, har xil subpudratchilarni jalb qilish va obyektini tayyor holda topshirish pudratchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Amaliyotda qurilish pudrat va xo'jalik usuli birgalikda amalga oshirilish hollari ham uchraydi. Bunda pudratchi qurish va jihozlash ishlarini amalga oshirsa, buyurtmachi loyiha hujjatlarini taqdim etishi, qurilmalarni hamda ayrim qurilish materiallari va konstruksiyalarni sotib olishi va qurilish maydoniga yetkazib berishi mumkin.

Xo'jalik usulida amalga oshiriladigan qurilish ishlarida korxonalar buyurtmachini ham, pudratchini ham bitta yuridik shaxsda birlashtirgan holda qurilish-montaj ishlarini mustaqil tashkil etadi. Bunda ixtisoslashgan qurilish-montaj uchastkalari yoki sexlari tashkil etiladi. Ayrim hollarda ular o'zlarining bankdagi hisob-kitob hisobvarag'i va maxsus ajratilgan ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lib, pudrat tashkilotiga aylanishi mumkin. Ammo ko'p hollarda korxonalar tarkibidagi bo'linma sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Asosiy fondlarni yangilash katta kapital xarajatlarni talab etadi. Ko'pchilik korxonalarda bunday xarajatlar uzoq davom etadigan moliyaviy qiyinchilik, barcha ichki resurslarni safarbar etish zaruratini yuzaga keltiradi. Kapital qo'yimalarning samaradorligini oshirish va ularni tejash vaziyatni yaxshilashga yordam beradi. Bunga eng avvalo, mavjud asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash orqali erishish mumkin.

Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilashda ikkita asosiy yo'nalishni alohida ko'rsatish mumkin. Bular *ekstensiv usul* va *intensiv usul*.

Ekstensiv usulda asosiy fondlarning umumiy ish vaqtini oshirish va ishlab chiqarish jarayoniga ko'plab mashina va qurilmalarni jalb etish orqali erishiladi. *Intensiv usul* fondlardan foydalanish darajasini oshirish, vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ko'paytirish va fond qaytimini oshirishni bildiradi.

Qishloq xo'jaligiga qilinadigan kapital qo'yilmalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – mablag'larni sarflash va iqtisodiy samaradorlik olinishi o'rtasidagi vaqt farqining kattaligi hisoblanadi. Kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish obyektlarini qurish yoki texnikalarni sotib olish uchun zarur bo'ladigan, katta xarajatlar qilinishi bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalarning qoplanishi juda past darajada bo'lib, natijada muayyan investitsiya bo'yicha qaror qabul qilish uchun puxta iqtisodiy tahlil o'tkazish zarur.

8.3. Investitsiya loyihalarini baholash usullari va qarorlar qabul qilish

Investitsiyalarni loyihalashtirish va ularning samaradorligini baholashning negizini ko'zda tutilayotgan investitsiyalar hajmi va olinadigan daromadlarni taqqoslash tashkil etadi. Investitsiyalarni amalga oshirish va daromadlar olinishi har xil davrlarda sodir bo'lishi bois, ularni taqqoslash muammosi vujudga keladi. Rejali iqtisodiyot sharoitida obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar sababli, investitsion loyihalarni baholash chog'ida mazkur muammo, odatda, e'tiborga olinmas edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarning samaradorlik ko'rsatkich-larini hisob-kitob qilish zarurati vujudga keladi. Bular asosan quyidagilar: keltirilgan sof samara ko'rsatkichi (diskontlangan daromad), investitsiyalar rentabelligi, investitsiyalarning rentabellik normasi, investitsiyalarning o'z-o'zini qoplash muddati, investitsiyalarning samaradorlik koeffitsiyenti, muqobil loyihalar tahlili va ulardan eng maqbulini tanlash.

Keltirilgan sof samara ko'rsatkichi (diskontlangan daromad). Ushbu ko'rsatkich birlamchi investitsiyalarni (IC) rejalashtirilgan davr davomida mazkur investitsiyadan olinishi kutilayotgan diskontlangan pul tushumlarining umumiy summasi bilan taqqoslashga asoslangan.

Pul mablag'larining kirimi ma'lum davr oralig'ida taqsimlanganligi bois, u investor tomonidan, investitsiyalarning yillik foiz qaytimidan kelib chiqqan holda o'rnatilgan koeffitsiyent (r) yordamida

diskontlanishi lozim. Loyihaning samaradorlik mezonlari ikkita ko'rsatkich yordamida aniqlanadi: diskontlangan daromadlarning umumiy to'plangan miqdori (PV) va sof keltirilgan daromad (NPV). Ular quyidagicha hisoblanadi:

$$PV = \sum_{k=1}^n \frac{P_k}{(1+r)^k}, \quad (8.1)$$

$$NPV = \sum_{k=1}^n \frac{P_k}{(1+r)^k} - IC, \quad (8.2)$$

bunda, P_k - k -nchi yilda ($k=1, 2, 3, \dots, n$) investitsiyalardan olinadigan yillik daromad; n - investitsiyadan daromad olinishi kutilayotgan yillar.

Agar $NPV > 0$ bo'lsa loyiha samarali; $NPV < 0$ bo'lsa, loyiha samarasiz; $NPV = 0$ bo'lsa loyihadan foyda ham olinmaydi, zarar ham ko'rilmaydi.

Agar loyihadan foydalanish davri tugaganidan so'ng qurilmalarni yoki aylanma mablag'larni tugatishdan daromadlar olinishi rejalashtirilgan bo'lsa, olingan pul tushumlari tegishli davr uchun daromad sifatida kirim qilinishi lozim.

Agar loyiha bir martalik emas, balki m yil davomida investitsiyalanishi ko'zda tutilayotgan bo'lsa, u holda yuqoridagi formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$NPV = \sum_{k=1}^n \frac{P_k}{(1+r)^k} - \sum_{j=1}^m \frac{IC_j}{(1+i)^j}, \quad (8.3)$$

bunda, i - rejalashtirilayotgan investitsiya darajasi; j - 1dan m gacha bo'lgan moliyalashtiriladigan yillar ketma-ketligi.

NPV ko'rsatkichining investitsiyalarni rejalashtirishda qo'llaniladigan o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uni har xil loyihalar bo'yicha jamlash imkoniyati korxonaning ma'lum davr uchun butun investitsiya portfelini integrallashgan baholashga imkon beradi.

Investitsiyalar rentabelligi. Ushbu holda investitsiyalar samaradorligining asosiy ko'rsatkichi rentabellik (IP) bo'lib, u quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$IP = \frac{PV}{IC}, \quad (8.4)$$

Agar $IP > 1$ bo'lsa loyiha samarali; $IP < 1$ bo'lsa loyiha samarasiz; $IP = 1$ bo'lsa loyihadan foyda ham olinmaydi, zarar ham ko'rilmaydi.

Rentabellik indeksi keltirilgan sof samaradan farq qilib, nisbiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu bir qancha muqobil loyihalardan maqbulini tanlash chog'ida rejalashtirishga qulaylik yaratadi.

Investitsiyalarning rentabellik normasi. Investitsiyalarning rentabellik normasi (IRR) deyilganda loyihaning NPV ko'rsatkichi nolga teng bo'lgandagi diskontlash koeffitsiyenti tushuniladi:

$$IRR = r, NPV = f(r) = 0, \text{ bo'lganda}$$

Ushbu ko'rsatkich aniq loyihaga investitsiyalanishi mumkin bo'lgan, ruxsat etiladigan xarajatlar nisbiy darajasining eng yuqori chegarasini ko'rsatadi. Masalan, agar loyiha to'lig'icha tijorat banki ssudasi hisobidan moliyalash tiriladigan bo'lsa, u holda IRR qiymati bank foizi stavkasining ruxsat etiladigan darajasining yuqori chegarasini ko'rsatib, undan oshib ketish investitsiya loyihasidan zarar ko'rishga olib keladi.

Investitsiyalarni rejalashtirishda rentabellik normasini taqqoslash uchun «avanslangan kapitalning bahosi» (CC) asos bo'lib, korxonada vujudga kelgan qo'yilgan kapitalning eng kichik qaytimi (rentabelligi)ni ifodalaydi. U tashqi moliyalashtirishning barcha manbalari bo'yicha o'rtacha arifmetik o'lchangan usul formulasi bo'yicha hisoblanadi.

Shunday qilib, investitsiyalarni rejalashtirishda rentabellik darajasi CC ko'rsatkichining joriy qiymatidan past bo'lmagan loyihalar samarali hisoblanadi. Bunda agar:

$IRR > CC$ bo'lsa, loyiha qabul qilinadi;

$IRR < CC$ bo'lsa, loyiha rad etiladi;

$IRR = CC$ bo'lsa, loyiha foyda keltirmaydi, ammo zarar ham ko'rilmaydi.

Investitsiyalarning rentabellik normasini hisob-kitob qilish uchun diskontla-nadigan ko'paytmalar qiymatini tabulatsiyaladan foydalanilgan holda kelma-ket iteratsiyalash uslubi qo'llaniladi. Buning uchun diskontlash koeffitsiyentining $r_1 < r_2$ bo'lgan ikkita qiymati jadval

yordamida (r_1, r_2) intervalda $NPV=f(r)$ funksiyasi o'z qiymatini «+» dan «-»ga yoki «-» dan «+» ga o'zgartiradigan tarzda tanlanadi. So'ngra quyidagi formula qo'llaniladi:

$$IRR = r_1 + \frac{f(r_1)}{f(r_1) - f(r_2)} \cdot (r_2 - r_1)$$

r_1 - bunda diskontlash koeffitsiyentining $(f(r_1) > 0)$ ($f(r_1) < 0$) bo'lgandagi tabulatsiyalangan qiymati;

r_2 - bunda diskontlash koeffitsiyentining $(f(r_2) < 0)$ ($f(r_2) > 0$) bo'lgandagi tabulatsiyalangan qiymati.

Hisoblashning aniqligi (r_1, r_2) interval uzunligiga teskari proporsional bo'lib, tabulatsiyalangan qiymatlardan foydalangan holda interval uzunligi eng kichik bo'lgan vaqtda (1%ga teng), eng yaxshi approksimatsiyaga erishiladi, ya'ni r_1 va r_2 - diskontlash koeffitsiyentlarining qiymati bir-biriga yaqin bo'lib, shartlari bajariladi (funksiya belgisi «+» dan «-»ga o'zgargan holda).

r_1 - NPV ko'rsatkichi ijobiy qiymatini eng past darajaga tushuradigan, ya'ni $r_1 - f(r_1) = \min \{f(r) > 0\}$ bo'lgandagi diskontlash koeffitsiyentini tabulatsiyalangan qiymati;

r_2 -NPV ko'rsatkichi salbiy qiymatini eng yuqori darajaga ko'taradigan, ya'ni $r_2 - f(r_2) = -\max \{f(r) < 0\}$ bo'lgandagi diskontlash koeffitsiyentini tabulatsiyalangan qiymati.

r_1 va r_2 koeffitsiyentlarni o'zaro almashtirish yo'li bilan funksiya «-» dan «+» ga o'zgargan vaziyat uchun shunga o'xshash shartlar bajariladi.

Investitsiyalarning o'z-o'zini qoplash muddati. O'z-o'zini qoplash muddati - bu investitsiyaning investorga sof daromad ko'rinishida qaytadigan yillar. O'z-o'zini qoplash muddatini (RR) hisoblash investitsiyalarni safarbar etishdan olinadigan, rejadagi daromadlarni bir me'yorda taqsimlashga bog'liq. Bu yerda ikkita variant bo'lishi mumkin.

1. Daromad yillar bo'yicha bir tekisda taqsimlanadi. Bu holda o'z-o'zini qoplash muddati bir martalik qilinadigan xarajatlarni yillik daromad miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$PP = \frac{IC}{P_t}, \quad (8.5)$$

2. Investitsiyadan olinadigan daromad o'z-o'zini qoplash muddatidagi yillar bo'yicha notekis taqsimlanishi mumkin. Bu holda

o'z-o'zini qoplash muddati investitsiya kumulyativ daromad bilan qoplanadigan yillar yig'indisini to'g'ri hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi.

$$PP = n, \sum_{i=1}^n P_i \geq IC, \text{ bo'lganda (8.6)}$$

«O'z-o'zini qoplash muddati» ko'rsatkichining ayrim kamchiliklarini inobatga olish lozim.

Birinchidan, u o'z-o'zini qoplash muddatidan tashqaridagi daromadlar mavjudligini hisobga olmaydi (8.1-jadval). Masalan, investitsiyalashning birinchi va ikkinchi variantlari o'z-o'zini qoplash muddatlari bo'yicha bir xil samaralidir, chunki xarajatlarni qoplash 4 yil ichida ta'minlanadi. Lekin 1-chi variant afzalroq, chunki u investitsiyalardan foydalanishning butun davri davomida ko'proq daromad keltiradi.

Investitsiya loyihalarining qiyosiy tavsifi

8.1-jadval

Variant	Yillik daromad, mln. so'm	Investitsiya hajmi, mln. so'm	O'zini-o'zi qoplash muddati, yil	Loyihani ishlatish muddati, yil
1	3,8	14	3,7	6
2	4,2	14	3,3	4

Ikkinchidan, ushbu ko'rsatkich kumulyativ daromadlar summasi bir xil, ammo uni yillar bo'yicha taqsimlash har xil bo'lgan loyihalar o'rtasidagi farqni hisobga olmaydi. Masalan, A loyihaning yillik daromatlari 800, 600, 400 mln. so'm va B loyiha yillik daromatlari 200, 600, 1000 mln. so'm bo'lib, samaradorlik bir xil. Lekin, agar daromadlar diskontlansa, A loyiha dastlabki ikki yilda katta daromad keltirganligi bois, afzal hisoblanadi.

Uchinchidan, ushbu ko'rsatkich additivlik xususiyatiga ega emas. Buni quyidagi misolda ko'ramiz (8.2-jadval).

Investitsiya loyihalarining parametrlari

8.2-jadval

Yil	Loyihalar bo'yicha daromadlar, mln. so'm				
	A	B	V	A i V	B i V
0	-10	-10	-10	-20	-20
1	0	10	0	0	10
2	20	0	0	20	0
3	5	15	15	20	30
O'zini-o'zi qoplash muddati	2	1	3	2	3

A va B loyihalar bir-birini o'zaro istisno qiladi, V loyiha esa mustaqil. Bu resurslar mavjud bo'lganida ushbu loyihalardan (A va V) va (B va V) kombinatsiyalar rejalashtirilishi mumkin. O'z-o'zini qoplash muddati bo'yicha B loyiha eng samarali, A va V loyihalar kamroq samarali hisoblanadi. Lekin, kombinatsiyada eng yomon loyihalar A va V birlashmasi eng samarali bo'ladi.

Investitsiyalarning samaradorlik koeffitsiyenti. Ushbu koeffitsiyent quyidagi xususiyatlarga ega. Birinchidan, u «sof» foyda ko'rsatkichi (balans foydasidan budjetga to'lovlar chegirib tashlangan) bo'yicha aniqlanadi. Ikkinchidan, uni hisob-kitob qilishda daromad diskontlanmaydi.

Investitsiyalarning samaradorlik koeffitsiyenti (ARR) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$ARR = \frac{PN}{0,5(IC-RV)}, \quad (8.7)$$

Bu yerda,

PN – investitsiyani amalga oshirishdan olingan o'rtacha yillik sof foyda;

RV – loyihaning qoldiq (tugatilish) qiymati.

Ushbu ko'rsatkich butun korxonaga bo'yicha olingan umumiy sof foydani uning faoliyatiga avanslangan mablag'larning umumiy summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlangan, avanslangan kapital rentabelligi koeffitsiyenti bilan taqqoslanadi.

Samaradorlik koeffitsiyentining kamchiliklari ham o'z-o'zini qoplash muddatining ko'rsatkichlariga o'xshashdir.

Muqobil loyihalar tahlili va eng maqbulini tanlash. Investitsiya rejasini shakllantirishda mumkin bo'lgan ko'p variantlardan yaxshisini tanlay bilish zarur. Ayrim hollarda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini yuqorida ko'rib chiqilgan mezonlar asosida baholashda ularni reja kiritishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida mutlaqo teskari xulosalar qilinishi mumkin. Masalan, NPV, IP va IRR ko'rsatkichlariga muvofiq loyihalar samarasiz deb chetlashtirilishi, RR va ARR ko'rsatkichlariga muvofiq esa – qabul qilinishi mumkin.

Bu holda quyidagi tavsiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Birinchidan, ko'rsatkichlar o'rtasida ma'lum o'zaro bog'liqliklar mavjud bo'lib, ular kompleks baholashda hisobga olinishi zarur:

agar $NPV > 0$ bo'lsa, $IRR > CC$; $IP > 1$ bo'ladi;

agar $NPV < 0$ bo'lsa, $IRR < CC$; $IP < 1$ bo'ladi;

agar $NPV = 0$ bo'lsa, $IRR = CC$; $IP = 1$ bo'ladi.

Ikkinchidan, korxonaning strategiyasi nuqtayi nazaridan eng muhim, bitta ko'rsatkich tanlanishi va u bitta loyihani tanlashni aniqlashi lozim.

Uchinchidan, zarur axborotlarani jalb qilish asosida investitsiya siyosatining talablarini aks ettiradigan, qo'shimcha mezonlarni shakllantirish zarur.

8.4. Qurilishning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shartnoma baholarini shakllantirish

Qurilish obyektlarining loyiha hujjatlarini ishlab chiqish korxonasi, bino va inshootlar qurilishiga qilinadigan investitsiyalarning asosnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. Loyiha hujjatlarida asosnomada qabul qilingan qarorlar tafsiloti keltiriladi va asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar aniqlashtiriladi. Loyiha hujjatlari odatda, qurilish (loyiha)ning texnik-iqtisodiy asosnomasi (TIA) va ish hujjatlaridan iborat bo'ladi.

Korxonalarining binolar va inshootlar qurilishi uchun ish hujjatlari odatda, qurilish loyiha hujjatlari tizimining davlat standartlari (QLHT)ga muvofiq ishlab chiqiladi va buyurtmachi hamda loyihalovchi tomonidan loyihalash shartnomasida aniqlashtiriladi. Havola qilinadigan hujjatlar (namunaviy konstruksiyalar, jihozlar va moslamalarning chizmalari ilova qilinishi talab etilmaydigan, davlat va tarmoq standartlari) ish hujjatlari tarkibiga kiritilmaydi va agar shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, buyurtmachiga berilishi mumkin.

Buyurtmachi loyihalash topshirig'i bilan birga loyihalovchi tashkilotga quyidagi birlamchi materiallarni taqdim etadi: investitsiyalar asosnomasi; obyektning joylashtirish o'rni dastlabki kelishish to'g'risidagi mahalliy ijroya hokimiyat organining qarori; yer uchastkasini tanlash dalolatnomasi va unga ilova qilinadigan materiallar; arxitektura – rejalashtirish topshirig'i loyihalashtirilayotgan obyektlarni energiya bilan ta'minlash manbalari, muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalariga ulanishning texnik shartsharoitlari; qurilmalar, shu jumladan, individual tayyorlanganlari bo'yicha birlamchi ma'lumotlar; ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) bajarish bo'yicha ma'lumotlar; investorning ma'lumotlari; baholash dalolatnomalari va mahalliy ma'muriyat organlarining buziladigan binolar va inshootlar uchun kompensatsiya to'lash to'g'risidagi qarori; atrof-muhit tabiatining ahvoli va loyiha qurilishi

qismiga taalluqli mahalliy ma'muriyat va davlat nazorat organlaridan olingan materiallar, muhandislik-qidiruv va kuzatuv materiallari va b.

Loyiha ustida ishlashning har bir bosqichida uning smeta qiymatini baholash amalga oshiriladi. Loyihalanayotgan korxonalar, inshootlar, obyektlar qurilishi, ularning qismlari va ish turlarining smeta qiymatini aniqlashda smeta hujjatlari tuziladi. Ular lokal smetalar, lokal smeta hisob-kitoblari, obyekt smetalari, obyekt smetalari hisob-kitoblari, alohida xarajat turlarining smeta hisob-kitoblari, qurilish qiymatining yig'ma smeta hisob-kitobi va h.

Smeta hujjatlari qurilishning mayda elementlaridan yirikroq elementlariga bosqichma-bosqich o'tgan holda ma'lum ketma-ketlikda tuziladi. Masalan, ish (xarajat) turi – obyekt – ishga tushirish kompleksi – qurilish navbati – butun qurilish.

Lokal smetalar (lokal smeta hisob-kitoblari), qurilish vazirligi tomonidan tavsiya etiladigan shakllar bo'yicha qurilish va montaj ishlarining alohida turlari bo'yicha chizmalarga muvofiq tuziladi. Ularda ishlarning konstruktiv elementlari va turlarining smeta qiymati ko'rsatiladi. Qurilish va montaj ishlarining hajmlari ish hajmlari qaydnomalaridan olinadi yoki ishchi chizmalar bo'yicha aniqlanadi. Ish hajmlari hisob-kitoblar jarayonini ularning bajarilish ketma-ketligini oson ko'rib chiqish imkonini beradigan sxemalar bo'yicha hisoblanadi.

Qurilish turlari, pudratchi qurilish-montaj tashkilotlarining ixtisoslashganligi va loyiha hujjatlarining tarkibiga ko'ra lokal smeta hisob-kitoblari quyidagilar bo'yicha tuzilishi mumkin: binolar va inshootlar – qurilish ishlari (shu jumladan, maxsus qurilishlar ham), ichki sanitariya-texnik ishlari, ichki elektr yoritgichlar, elektr quvvati uskunalari, texnologik va boshqa turdagi qurilmalarni, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatlarini montajlash va sotib olish hamda boshqa ishlar; qurilish maydonida bajariladigan ishlar – yer tekislash, muhandislik tarmoqlari, aloqa tizimlari va yo'llar, hududni obodonlashtirish va b.

Lokal smeta hisob-kitoblari, to'g'ri xarajatlar, ustama xarajatlar va smeta foydasidan tashkil topadi.

To'g'ri xarajatlar qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq va quyidagilardan iborat: asosiy ish haqi; materiallar, konstruksiyalar, detallar va yarim fabrikatlar qiymati; mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlari.

Ustama xarajatlar qurilish ishlarini tashkil etish, boshqarish va xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan bo'lib, to'g'ri xarajatlardan farqi

-- ular bevosita qurilish-montaj ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lmaydi va qurilish jarayonining normal amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish xarajatlarini aks ettiradi. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi: ma'muriy-xo'jalik xarajatlari; qurilish xodimlariga xizmat ko'rsatish xarajatlari (kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar, sanitariya-gigiyena va maishiy sharoitlarni yaratish, mehnat muhofazasi va sh.o.); qurilish maydonlarida ishlarni tashkil etish xarajatlari; boshqa ustama xarajatlar.

Ustama xarajatlarning to'g'ri xarajatlardan farqi -- ular tanlangan hisoblash bazalariga, masalan, ishchilarning mehnat haqi fondi, to'g'ri xarajatlarning smeta qiymati va boshqalarga nisbatan foizlarda bilvosita normalashtiriladi (me'yorlashtiriladi).

Smeta foydasi -- qurilish tashkilotining ishlar tannarxiga olib bo'rilmaydigan, ayrim (umumiy) xarajatlarini qoplash uchun zarur bo'ladigan mablag'lar summasi. U quyidagilardan iborat: foyda solig'i va boshqa foyda hisobidan to'lanadigan soliqlarni to'lash xarajatlari, ishlab chiqarishni rivojlantirish xarajatlari, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy sohani rivojlantirish xarajatlari.

Loyiha ma'lumotlariga muvofiq, konstruksiyalarni buzish, foydalanish uchun yaroqli konstruksiyalari, materiallari va buyumlarini olish maqsadida bino va inshootlarni tugatish amalga oshiriladigan hollarda qaytarib olinadigan summalar ma'lumotnoma sifatida ko'rsatiladi (buyurtmachi tomonidan ajratiladigan kapital qo'yilmalar miqdorini kamaytiradigan, bajariladigan ishlarning jami lokal smeta hisob-kitobi va hajmidan chegirilmaydigan xarajatlar summasi).

Obyekt bo'yicha smeta hisob-kitoblari (smetalar) qurilish vazirligi tavsiyalariga muvofiq bazis yoki joriy (prognoz) baholarda ishlab chiqiladi. Lokal smeta ma'lumotlari quyidagi tarzda guruhlangan holda jamlanadi: qurilish va montaj ishlari; qurilmalar, mebellar va inventarlar; boshqa xarajatlar.

Obyekt bo'yicha smeta hisob-kitoblari (smetalar)da 1 m^3 hajm, 1 m^2 bino va inshoot maydoni, 1 m tarmoq uzunligi birligining qiymat ko'rsatkichlari keltiriladi.

Obyekt va lokal smetalarda normativ mehnat hajmi va ish haqi smetasi alohida ko'rsatiladi.

Normativ mehnat sarfi qurilish va montaj ishlarini bajarishga sarflanishi lozim bo'ladigan, ishchilar mehnat sarfini (kishi-soati) ifodalaydi. Bunga to'g'ri va egri xarajatlarda ko'zda tutilgan ishlarning

mehnat hajmi hamda titulli vaqtinchalik bino va inshootlar, qish vaqtida bajariladigan ishlar kiradi.

Smetadagi ish haqi: bevosita qurilish va montaj ishlarida band bo'lgan ishchilarning asosiy ish haqi; qurilish mashinalariga xizmat ko'rsatuvchi ishchilar ish haqi; ustama xarajatlarda, ishchilarning vaqtinchalik bino va inshootlar qiymatida hisobga olingan ish haqidan iborat.

Xarajatlarning alohida turlari uchun smeta hisob-kitoblari butun qurilish bo'yicha smeta normativlarida hisobga olinmagan xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'ladigan, mablag'lar limitini aniqlash lozim bo'lgan hollarda tuziladi.

Qurilish qiymatining *yig'ma smeta hisob-kitobi* obyektlar bo'yicha tuzilgan va lokal smetalar hamda qo'shimcha xarajatlar uchun smeta hisob-kitoblariga asosan tuziladi. U korxonona, bino va inshoot qurilishi qiymatini belgilaydigan asosiy hujjat hisoblanadi.

Qurilish qiymatining *yig'ma smeta hisob-kitobida* mablag'lar 12 ta bob bo'yicha taqsimlanadi (8.3-jadval).

Yig'ma smeta hisob-kitobida kutilmagan xarajatlar va ishlar uchun rezerv ham ko'zda tutiladi. Bunday ish va xarajatlar loyihalash jarayonida har doim ko'zda tutilmasligi mumkin, ammo ular loyiha yechimlarini batafsil ko'rib chiqishda, shuningdek, qurilish-montaj ishlarini bajarish chog'ida vujudga kelishi mumkin.

Kutilmagan ish va xarajatlar uchun mablag'lar rezervining miqdori umumiy smeta qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadi va obyekt hamda tarmoq turiga bog'liq. Rezerv shunday bo'lishi lozimki, loyihani bajarish qo'shimcha pul xarajatlarisiz amalga oshirilishi mumkin bo'lsin.

Qurilish qiymatining *yig'ma smeta hisob-kitobi* jamidan keyin quyidagilar ko'rsatiladi: qaytariladigan summalar; faoliyat ko'rsatayotgan korxonani rekonstruksiya qilish yoki qayta qurollantirish doirasida buziladigan yoki joyi o'zgartiriladigan qurilmalarning balans (qoldiq) qiymati; korxonona va tashkilotlarning qurilishda umumfoydalaniladigan obyektlar yoki umumtarmoq obyektlarni qurishdagi ulush qo'shishi to'g'risida ma'lumotlar; qurilishning umumiy smeta qiymatini kapital qo'yilmalarning yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash to'g'risidagi jami ma'lumotlar; qo'shilgan qiymat solig'i summasi va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa xarajatlar.

Qurilish qiymatining yig'ma smeta hisob-kitobi

8.3-jadval

Tr №	Yig'ma smeta hisob-kitobining bobi	Bobning mazmuni
1.	Qurilish hududi	Qurilish qilinadigan hududni ajratish va o'zlashtirish bilan bog'liq ishlar va xarajatlar uchun mablag'lar
2.	Asosiy qurilish obyektlari	Binolar, inshootlar, asosiy ishlab chiqarish mo'ljalidagi sexlar va qurilmalarning smeta qiymati
3.	Yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish mo'ljalidagi obyektlar	
4.	Energetika xo'jaligi obyektlari	
5.	Transport xo'jaligi va aloqa obyektlari	Ro'yxati bobning nomlanishiga mos keladigan obyektlarning smeta qiymati
6.	Tashqi tarmoqlar va suv ta'minoti inshootlari, kanalizatsiya, issiqlik va gaz ta'minoti	
7.	Hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	
8.	Vaqtinchalik binolar va inshootlar	Vaqtinchalik (titulli) bino va inshootlarni barpo etish mablag'lari Qurilishga xizmat ko'rsatish uchun boshqa bino va inshootlarni qayta jihozlashga doir ishlarni bajarish uchun mablag'lar
9.	Boshqa ishlar va xarajatlar	Loyiha-qidiruv ishlarini bajarish xarajatlari Maydonlarni o'zlashtirish xarajatlari Qurilayotgan korxonaga uchun ekspluatatsiya kadrlarini tayyorlash xarajatlari Xodimlarga to'lanadigan har xil kompensatsiyalar va ustamalar va b.
10.	Qurilayotgan korxonaning direksiyasini saqlash (texnik nazorat) va mualliflik nazorati	Buyurtmachi - quruvchi xizmatini saqlash uchun mablag'lar
11.	Ekspluatatsiya kadrlarini tayyorlash	Yangidan qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan korxonalar uchun ekspluatatsiya kadrlarini tayyorlash xarajatlari (7 va 8 boblarga ham qo'shiladi)
12.	Loyiha - qidiruv ishlari	Sarflanadigan mablag'lar: loyiha qidiruv ishlari (xizmatlari) loyiha va qidiruv ishlariga alohida; qurilish ustidan loyihalovchi tashkilotlarning mualliflik nazorati; loyiha va loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish; qurilish buyurtmachisining texnik topshirig'i bo'yicha pudratchi qurilish-montaj tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan sinov.

Yig'ma smeta hisob-kitobiga tushuntirish xati ilova qilinib, unda quyidagilar keltiriladi: qurilish bajariladigan hudud ko'rsatiladi; hisob-kitob tuzishda qo'llanilgan smeta baholari; obyektlar qurilishiga smeta tuzish uchun qabul qilingan smeta normativlari kataloglarining ro'yxati; bosh pudratchi tashkilotning nomi; ustama xarajatlar va smeta foydasining normasi; qurilish ishlari, qurilmalar va ularni mazkur qurilish uchun montajlashning smeta qiymatini aniqlash xususiyatlari; yig'ma smeta hisob-kitobining 8-12 boblari bo'yicha mablag'larni aniqlashning xususiyatlari; mablag'larni kapital qo'yilmalarning yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash hisob-kitobi; qiymatni aniqlash tartibi to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar, shuningdek, mazkur qurilish uchun baho shakllanishi va imtiyozlar bilan bog'liq masalalarga oid hukumat hamda boshqa davlat hokimiyati organlarining tegishli qarorlariga havolalar.

Qurilish mahsulotlarini baholash buyurtmachi va pudratchi tomonidan korxonalar, bino va inshootlar qurilishi yoki kapital ta'mirlanishi uchun pudrat shartnomasini tuzish va bajarish chog'ida teng huquqli asosda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi umumiy qisqartirilgan nomli qurilish baho siyosatiga muvofiq kapital qurilishda baho shakllantirish quyidagilarni nazarda tutadi:

– deyarli barcha ishlab chiqarish – texnik mo'ljaldagi mahsulotlar va xizmatlar uchun kapital qurilishda qo'llaniladigan erkin bozor baholari va ta'riflarining qo'llanilishi. Tabiiy monopoliyalar mahsulotlarining tartibga solinadigan baholari va ta'riflari bundan mustasno: elektr va issiqlik energiyasi, temiryo'l va suv orqali yuk tashish (yuklash - tushirish ishlari bilan birga) va b.

– qurilish mahsulotlariga erkin shartnoma baholarining qo'llanilishi;

– qurilish mahsulotlariga shartnoma baholarini shakllantirish chog'ida investitsiya jarayonining ishtirokchilariga teng huquqlar berilishi;

– shartnoma baholarini shakllantirishning ustuvor usuli sifatida tender savdolarining qo'llanilishi;

– kapital qurilishda baho shakllantirish tizimi umumiy qoidalarining tavsifiy tavsifi.

– kapital qurilishda baho shakllantirish tizimi ikkita hujjatlar to'plamidan iborat:

– smeta normativlari, shu jumladan, davlat, idoraviy, hududiy va korxonalar (foydalanuvchining xususiy normativ bazasi) normativlari;

– normativlarni qo‘llash qoidalari va qurilish qiymatini aniqlash.

Smeta normativlari – bu alohida to‘plamlarga birlashtirilgan smeta normalari, rassenkalar va baholar majmuasi. Bunda smeta normasi deyilganda, qurilish, montaj yoki boshqa ishlarning qabul qilingan o‘lchoviga o‘rnatilgan resurslar to‘plami (xodimlarning mehnat xarajatlari), qurilish mashinalarining ish vaqti, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va shu kabilarga bo‘lgan ehtiyoj) tushuniladi.

Alohida ish turlarining *normativlarni qo‘llash va qiymatni aniqlash qoidalari* smeta normalari tegishli to‘plamlarining texnik qismida hamda smeta normalarini qo‘llash bo‘yicha umumiy qoidalarda keltiriladi.

Ishlab chiqarish-texnik mo‘ljaldagi mahsulotlar (xizmatlar)ga erkin bozor va tartibga solinadigan baho hamda ta‘riflardan tashqari, barcha smeta normativlari, kapital qurilishda baho shakllantirish tizimining smeta - normativ (normativ-axborot) bazasini tashkil etadi.

Joriy (prognoz) qiymatga asoslanib, qurilish mahsulotlariga belgilanadigan erkin shartnoma baholari ochiq (shartnoma shartlariga muvofiq aniqlik kiritiladigan) yoki haqiqiy (oxirgi) bo‘lishi mumkin.

Qurilish mahsulotlarining qiymatini aniqlash uchun quyidagi hujjatlar tuziladi: investorlarning buyurtmasi bo‘yicha loyihaoldi yoki loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida – investor smetalari (hisob-kitoblar, xarajatlar kalkulyatsiyasi, boshlang‘ich baholar); shartnoma tuzish jarayonida, shu jumladan, investor tomonidan beriladigan tender hujjatlariga asosan tender savdosida – pudratchining hisob-kitoblari (smetalari, ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyatsiyasi).

Bozor munosabatlari sharoitida ochiq yoki yopiq tender shaklida o‘tkaziladigan tanlovlar qurilish mahsulotlariga erkin shartnoma baholarini shakllantirishning afzal usullaridan hisoblanadi. Qurilishning shartnoma bahosi pudratchilar tomonidan taqdim etilgan takliflar o‘rganilib, baholanganidan so‘ng aniqlanadi, aks holda ushbu baho buyurtmachi va bosh pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzish jarayonida kelishiladi.

Qurilishning qiymati to‘g‘risida o‘zaro kelishilgan qaror qabul qilinganidan so‘ng qurilish mahsuloti shartnoma bahosining kelishuv bayonnomasi tuzilib, u pudrat shartnomasining muhim qismi hisoblanadi. Buyurtmachi va pudratchi tomonidan qabul qilingan shartnoma bahosini bir tomon boshqasining roziligisiz o‘zgartirishi mumkin emas.

8.5. Agrar korxonalarda kapital qo'yimalarni moliyalashtirish va kreditlash mexanizmi

Kapital qo'yimalarni investorlarning o'z mablag'lari hamda bank mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tomonlarning kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Kelishuvchi tomonlar investorlar (buyurtmachilar) tomonidan o'z mablag'larini bankdagi schotlarga qo'yish tartibini, bajarilgan pudrat ishlari va qurilmalar, moddiy va energetika resurslarini yetkazib berish hamda xizmat ko'rsatish uchun kreditlash va investitsiya jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar tartibini belgilaydi. To'lov shakllari shartnomalar (kontraktlar) bilan belgilanadi.

Kapital qo'yimalarni moliyalash va kreditlash quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Kapital qurilishning titul ro'yxati – bu rejalashtirilayotgan davrdagi qurila-yotgan va qurilishi ko'zda tutilgan obyektlar ro'yxati. U kapital qo'yimalarning belgilangan limiti doirasida qurilishning boshlangan va tugallanadigan yili hamda oyi, smeta qiymati (sh.j. qurilish-montaj ishlari), rejalashtirilayotgan yilga va butun qurilish davriga ishga tushiriladigan quvvatlarning yillar, muddatlari va miqdori bo'yicha bo'lingan holda ishlar hajmi, qurilishning loyiha-smeta hujjatlari bilan ta'minlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda tuziladi. Titul ro'yxatiga kiritiladigan obyektlar endi boshlangan (rejalashtirilgan davrda yangidan boshlangan), o'tuvchi (o'tgan davrda boshlangan va rejalashtirilgan yilda tugallanmaydigan) va ishga tushiriladigan (rejalashtirilgan yilda ishga tushiriladigan) turlarga bo'linadi. Agar qurilish kalendar yili ichida tugallanadigan bo'lsa, titul ro'yxati tuzilmasligi mumkin.

Ichki qurilish titul ro'yxati – obyektlar qurilishining bir yilga mo'ljallangan aniq dasturi bo'lib, unga asosan loyiha-smeta hujjatlari tasdiqlanadi. Unda har bir obyektning to'la smeta qiymati, smeta limitining qoldig'i, qurilish-montaj ishlari va qurilmalarning qiymati ajratib ko'rsatilgan holda kapital qo'yimalarning yillik limiti, asosiy fondlar va quvvatlarni ishga tushirish ko'rsatkichlari keltiriladi.

Loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotnoma korxonra rahbari imzosi bilan tasdiqlangan holda bankka taqdim etiladi. Unda quyidagilar rasman ko'rsatiladi: loyiha-smeta hujjatlari qaysi organ bilan kelishilgani; yig'ma smeta kim tomonidan va qachon tasdiqlangani; texnik loyiha va yig'ma smeta qaysi organ tomonidan hamda

qachon ekspertiza qilingan; alohida obyektlar, ishlar va xarajatlar bo'yicha qanday hujjatlar, kim tomonidan va qachon tasdiqlangan; qurilish uchun yer uchastkasini ajratish va suvdan foydalanish uchun maxsus ruxsatnoma berish amalga oshirilgan hujjatlarning sanasi va raqami.

Qurilish smetasi (smeta-moliya hisob-kitobi)da alohida obyektlar bo'yicha ishlarni bajarish uchun sarflanadigan pul mablag'lari summasi aniqlanadi. U bajariladigan ishlar hajmini, buyurtmachi va pudratchi o'rtasidagi hisob-kitoblarni rejalashtirish hamda hisobga olish, moliyalash limitini aniqlash uchun zarur. Smeta barcha ish turlari uchun smeta me'yorlari, ishlar qiymati va ishlar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida tuziladi.

Smeta-moliya hisob-kitobi alohida ish turlari va umumqurilish xarajatlari, santexnika ishlari va hokazolar bo'yicha ishlab chiqiladi. Uning negizida alohida obyektlar bo'yicha butun qurilish qiymati aniqlanadi, ya'ni yig'ma smeta-moliya hisob-kitobi tuziladi. U tasdiqlanganidan so'ng, loyiha topshirig'ining bir qismi sifatida qurilishni moliyalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Pudrat shartnomasi buyurtmachilar bilan pudrat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Tomonlar shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajaraganliklari uchun o'zaro moddiy javobgarlikka tortiladi.

Tayyorgarlik ishlarining bajarilishi to'g'risidagi dalolatnoma buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikda tuzilib, bankka taqdim etiladi. Bank ushbu hujjatlarsiz bajarilgan qurilish-montaj ishlari bo'yicha to'lovni amalga oshirmaydi.

Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar rejalari – yuqori tashkilotlar tomonidan xo'jaliklarga va tegishli banklarga bir vaqtda jo'natiladigan hujjatlar. Ularda markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarning umumiy limiti, qurilish-montaj ishlarining hajmi ajratib ko'rsatilgan holda keltiriladi. Umumiy limitdan obyektlarni texnik qayta qurollantirish va rekonstruksiyalash uchun kapital qo'yilmalar limiti ajratib ko'rsatiladi. Rejada asosiy fondlarni ishga tushirish bir yil va choraklar bo'yicha pul ifodasida ham belgilanadi.

Davlatning markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarini qaytarilmaslik asosida beriladigan davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish qurilishlar va obyektlarning tasdiqlangan ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi. Davlatning markazlashtirilgan kapital qo'yilmalari davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish uchun davlat

buyurtmachilari Moliya vazirligiga qurilishlar va obyektlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxatidan ko'chirmani davlatning markazlash-tirilgan kapital qo'yilmalari hajmi va davlat ehtiyojlari uchun obyektlarni qurish bo'yicha davlat kontraktlari (pudrat shartnomalari)ni ko'rsatgan holda taqdim etadi.

Davlat buyurtmachilariga mablag' ajratishni O'zR Moliya vazirligi davlatning markazlashtirilgan kapital qo'yilmalari hajmi va davlat ehtiyojlari uchun qurilishlar hamda obyektlar ro'yxati tasdiqlanganidan so'ng bir oy ichida mablag'larni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

Davlatning markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarini davlat budjetidan qaytarilmaslik shartlari asosida beriladigan mablag'lar hisobidan rasmiylashtirish uchun buyurtmachilar moliyalashtirishga doir operatsiyalarni amalga oshiradigan bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi: yangidan boshlanayotgan qurilishlarning yillarga bo'lingan titul ro'yxati; butun qurilish davriga bajarilgan ishlar uchun hisoblashish shakllari ko'rsatilgan davlat kontraktlari (pudrat shartnomalari); qurilish qiymatining umumlashtirilgan smeta hisob-kitobi; loyiha hujjatlari bo'yicha davlatning idoradan tashqari va ekologik ekspertiza xulosalari; yildan-yilga o'tuvchi qurilishlar bo'yicha kapital qo'yilmalar va qurilish-montaj ishlarining aniqlashtirilgan hajmi.

Davlatning markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish uchun qaytarilmaslik sharti bilan beriladigan davlat budjeti mablag'lari O'zR Moliya vazirligiga O'zR Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda beriladigan kreditlar doirasida ajratiladi. O'zR Moliya vazirligi ko'rsatilgan mablag'larni qarz oluvchi (quruvchi)larga tuzilgan shartnomaga muvofiq tijorat banklari orqali jo'natadi.

Qarz oluvchi (quruvchi)larni moliyalashtirishga doir operatsiyalarni amalga oshiradigan tijorat banklarining ro'yxati O'zR Moliya vazirligining taklifiga muvofiq, O'zR Markaziy banki, vazirliklar va idoralar fikrlarini inobatga olgan holda, kredit siyosati masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadi. Tijorat banklarining O'zR Moliya vazirligidan olgan davlat budjeti mablag'lari qarz oluvchi (quruvchi)larga shartnoma bo'yicha beriladi. Shartnoma tuzish chog'ida qarz oluvchi (quruvchi) bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi: davlat ehtiyojlari uchun qurilishlar va obyektlar ro'yxatidan ko'chirma; ishga tushirilgan obyektlarning loyiha quvvatlariga erishish muddatlarini asoslovchi hisob-kitoblar; mazkur mablag'larni va ular bo'yicha foizlarni qaytarish muddatlarining hisob-kitobi; loyiha hujjatlari va qarz oluvchining to'lov layoqatini hamda mablag'larning

qaytarilishini tasdiqlaydigan hujjatlar, davlatning idoradan tashqari va ekologik ekspertiza xulosalari.

Qaytarish sharti bilan davlat budjetidan ajratilgan resurslardan foydalanishning umumiy muddati va qarzni so'ndirishning boshlanish sanasi obyektlarni qurishning davomiyligi va ishga tushirilgan obyektlarning loyiha quvvatiga erishish muddatlarini hisobga olgan holda shartnomalarda belgilanadi.

Tijorat banklari tomonidan davlat budjetidan olingan, qaytarish sharti bilan ajratilgan mablag'lar qat'i tayinlanishi bo'yicha ishlatiladi va depozit schotlariga o'tkazilishi, banklararo kreditlar berish va erkin konvertatsiyalanadigan valuta sotib olish uchun ishlatish, boshqa maqsadlarda chetlashtirilishi mumkin emas.

Qarz oluvchilar (quruvchilar)ga budjet mablag'larini qaytarish sharti bilan berish O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi qonunida ko'zda tutilgan tegishli hujjatlarni rasmiylashtirgan holda, binolar, inshootlar, qurilmalar, tugallanmagan qurilish obyektlari, tovar-moddiy boyliklar va boshqa mulklarni garovga qo'yib amalga oshiriladi.

Qarz oluvchilar (quruvchilar) tomonidan davlat budjetidan olingan mablag'larning qaytarilishi shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi kreditni qonunchilikda belgilangan muddatlarda Markaziy bankka qaytaradi.

Qaytarilish sharti bilan Davlat budjetidan ajratilgan resurslardan foydalanganlik uchun foizlar, tuzilgan shartnomalarga muvofiq, ular berilgan sanadan boshlab hisoblanadi. Qarz oluvchilar tomonidan mablag'lardan foydalanganlik uchun foizlarning to'lanishi mablag'larning qaytarilishi bilan bir vaqtda boshlanadi. O'zR Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kreditidan foydalanganlik uchun foizlarni qarz vujudga kelgan vaqtdan boshlab to'laydi. Ushbu kreditlar bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bank va Moliya vazirligi kelishuvida belgilangan miqdordan oshmasligi lozim.

Moliyalash bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradigan banklar buyurtma-chilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tekshiruvdan o'tkazadi, davlat ehtiyoji uchun zarur qurilishlar va obyektlarning tasdiqlangan ro'yxati bilan taqqoslaydi va qurilish uchun mablag' ajratadi (davom ettiradi). Agar moliyalash manbai qaytarilish sharti bilan Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar bo'lsa, mablag'larni va ular bo'yicha foizlarni qaytarish muddatlarining hisob-kitobi tahlil qilinadi hamda qarz oluvchi bilan o'rnatilgan shakldagi shartnoma tuziladi. Qarz oluvchi tomonidan mablag'lar va ular bo'yicha foizlarning belgilangan

muddatlarda qaytarilishi tasdiqlanmaganda hamda qarz oluvchining aybiga ko'ra shartnomani rasmiylashtirish kechiktirilganda, bu haqda O'zR Moliya vazirligiga bildiriladi. Banklar faqat loyiha hujjatlari bo'yicha davlatning idoradan tashqari va ekologik ekspertiza xulosalari ijobiy bo'lgandagina, qurilishlarni moliyalashtiradi.

Davlat budjeti, tashkilotlar korxonalar va boshqa yuridik va jismoniy shaxslar hisobidan aralash investitsiyalanadigan qurilish obyektlarini moliyalash va kreditlash obyektlarini qurishning butun davri davomida budjet assignovanilari va xususiy mablag'larning sarflanish proporsiyalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Banklar, buyurtmachilar (quruvchilar), pudrat tashkilotlari va investitsiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlar, yetkazib berilgan moddiy va energetik resurslar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitoblarni hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq, boshqa hisob-kitoblarni bajaradilar.

Davlat kontrakti (pudrat shartnomasi) butun qurilish davriga tuzilib, buyurtmachi va pudrat tashkiloti o'rtasida hisob-kitoblar uchun asosiy hujjat hisoblanadi. Investitsiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan tuzilgan shartnomalar (kontraktlar) ular o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar uchun asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

Buyurtmachilar bajarilgan ishlar uchun pudrat tashkilotlarining schotlarini to'laydi, yetkazib berilgan materiallar, konstruksiyalar, energo-resurslar, transport xizmatlari va qurilmalar uchun pul o'tkazib beradi. Materiallar va buyumlar yetkazib berilganda buyurtmachi va pudratchi tashkilot o'rtasida berilgan moddiy boyliklar uchun hisob-kitoblar ularni berish me'yoriga qarab bank orqali yoki qarzlarni o'zaro surishish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat kontrakti (pudrat shartnomasi) asosida amalga oshiriladigan qurilishlar konservatsiyalangan yoki vaqtinchalik to'xtatilgan, buyurtmachi qurilishni yoki obyektini moliyalashdan bosh tortgan holda u qurilishning boshqa ishtirokchilariga, agar davlat kontrakti (pudrat shartnomasi)da boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, xarajatlarni qoplaydi.

Ishlar pudrat usulida amalga oshirilganda, qurilishni moliyalashtirish va kreditlash buyurtmachi-xo'jalik va pudratchi tashkilot o'rtasida tuzilgan pudrat shartnomasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. To'lash uchun taqdim etiladigan obyektning qiymati loyiha-smeta hujjatlari va shartnomada ko'zda tutilgan qiymatga mos bo'lishi lozim.

Kapital qurilish rejalarini shakllantirishda kapital qo'yilmalar, moddiy-texnik va moliyaviy resurslar, ishga tushiriladigan va o'tkaziladigan qurilishlar deb pudrat tashkilotlarning quvvati, avvalo davlat buyurtmasi obyektlaridagilarni maksimal darajada konsentratsiyalash ta'minlanadi. Kapital qurilishni moliyalashni rasmiylashtirish chog'ida kapital qo'yilmalar va qurilish-monaj ishlarining limiti normativ muddatlarga qat'iy rioya qilgan holda qurilishlar bo'yicha alohida ko'rsatilishi zarur.

Qishloq xo'jalik korxonalari bo'yicha moliyalashtirish bankda faqat uzoq muddatli kreditlar va budjet assignovanialari ishtirokida qurilayotgan obyektlar bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Yangidan boshlanayotgan qurilishlar va obyektlar, ular bo'yicha qurilishni amalga oshirish uchun, zarur bo'lganidan kam hajmda kapital qo'yilmalar limiti ajratilganda, shuningdek, agar titul ro'yxatlarida ishlab chiqarish quvvatlarini, tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilmagan, alohida-alohida komplekslar bo'yicha ishga tushirilsa, moliyalashtirilmaydi.

Yildan-yilga o'tadigan qurilishlar va obyektlar quyidagi hollarda moliyalashtirilmaydi: titul ro'yxatlaridagi quvvatlarni ishga tushirish muddatlariga rioya qilinmaganida, kapital qo'yilmalar ajratishning normativ muddatlari buzilganida, kapital qo'yilmalar va qurilish-montaj ishlarining limitlarini ishlatishda o'tgan yilda yo'l qo'yilgan kechikishlar o'rni to'ldirilmaganida; buyurtmachi va pudratchilar tomonidan qurilishlarning titul ro'yxatiga o'zgartish kiritilganida va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish bo'yicha pudrat shartnomalarining muddati uzaytirilganida; loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilmagan holda qurilish alohida ishga tushiriladigan komplekslarga bo'linganida. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish faqat davlat ekologiya ekspertizasining barcha loyihalar va dasturlar bo'yicha ijobiy xulosasi mavjud bo'lganidagina ochiladi.

Pudrat tashkilotlari uchun tayyor qurilish mahsulotlarini aniqlash tartibi tegishli uslubiy ko'rsatmalar bilan belgilanadi. Qurilishi tugallangan va ishga tushirishga tayyorlangan korxonalar, ularning navbati, ishga tushiriladigan komplekslar, buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ishlab chiqarish va ijtimoiy soha obyektlari to'lanishi zarur: qurilishning normativ davomiyligi bir yilgacha bo'lgan qurilishlar va «kaliti bilan topshiriladigan» metod asosida amalga oshirilgan qurilishlar va obyektlar bo'yicha – tugallangan qurilishni foydalanishga qabul qilish to'g'risida davlat komissiyasining dalolatnomasiga asosan;

qurilishning normativ davomiyligi bir yildan oshiq qurilishlar bo'yicha – davlat komissiyasining korxonani, navbatni, ishga tushiriladigan kompleksni qabul qilish to'g'risidagi dalolatnomasiga asosan tabiiy-iqlim sharoitlariga ko'ra ijtimoiy soha obyektlari bo'yicha bajariladigan ishlar muddati ko'chirilganda (qurilish olib borilayotgan maydonlarni ko'kalamzorlashtirish, binolarga olib boradigan yo'laklarning ustki qismini, xo'jalik va sport maydonchalarini qurish, bino fasadlariga ishlov berish), to'lov bajarilgan qurilish-montaj ishlari qiymatining 95 foizi doirasida amalga oshirilib, ular tugallanganidan so'ng yakuniy hisob-kitob qilinadi.

Chet el litsenziyalari bo'yicha kompleks import qurilmalari negizida va chet el firmalari bilan kompensatsion kelishuvlar hamda kontraktlar asosida amalga oshirilayotgan obyektlar bo'yicha hisob-kitoblar ishchi komissiyaning obyektini foydalanishga qabul qilish to'g'risidagi dalolatnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Agrar korxonalarda kapital qurilishlar xo'jalik usulida amalga oshirilganida kapital qurilish bo'limi (KQB) pudratchi hisoblanib, unga bankda alohida hisob-kitob hisobvarag'i ochiladi. Buyurtmachi - xo'jalik rahbari har chorakda xo'jalikning hisob-kitob hisobvarag'idan kapital qurilish bo'limi (pudratchi)ning hisob-kitob hisobvarag'iga tayyorlangan qurilish materiallari, detallar, konstruksiyalar, bloklar va h. uchun o'tkaziladigan summani aniqlaydi. Alohida ish turlari yoki butun obyekt yakunlanganida qabul qilish dalolatnomasi tuzilib, unga asosan xo'jalikning hisob-kitob hisobvarag'idan KQB ning hisob-kitob raqamiga pul o'tkazish uchun schot yoziladi. Schotlar to'langanida, oldin olingan bo'naklar hisobidan amalga oshirilgan materiallar, konstruksiyalar va boshqa xarajatlar sarfi ham hisobga olinadi.

Qurilish smetasiga kirmaydigan mashinalar va qurilmalarni xarid qilish xarajatlarini moliyalash va kreditlash mol yetkazib beruvchilarning(tayyorlovchi-zavod va ta'minot tashkiloti) to'lov hujjatlariga asosan, mazkur maqsad uchun ko'zda tutilgan summalar doirasida hisob-kitob va ssuda schotlaridan (uzoq muddatli kreditlar hisobidan to'langanida) o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sifatsiz yoki komplektlanmagan mashina va qurilmalar olingan hollarda qishloq xo'jalik korxonalari savdo-ta'minot tashkilotining vakili ishtirokida, zarur hollarda tayyorlovchi-zavod vakilini ham taklif qilgan holda dalolatnoma tuzadi. Unga asosan, to'lovdan bosh tortish va mol yetkazib beruvchidan mahsulotni almashtirib berishni talab qilinadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari kapital qo'yilmalar hisobidan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan obyektlar qatoriga kiruvchi ko'p yillik o'simliklar ko'chatlarini o'tqazish va parvarishlash xarajatlarini ham moliyalashtiradi va kreditlaydi. Bularga mevali bog'lar va rezavorlar, tokzorlar, tutzorlar, sitrus mevalilar, atirgullar va boshqa subtropik o'simliklar, ihota ekinzorlari (dalalar, yaylovlar, bog'larni himoyalash, tuproq eroziyasining oldini olish, suv havzalarini himoyalash uchun), qum ko'chishining oldini olish va ushlab turish, jarliklarni ko'chkidan himoyalash, yo'l bo'ylaridagi va alleyalardagi daraxtlar va «yashil devorlar»ni barpo etish kiradi.

Shuningdek, loyiha-qidiruv faoliyati, hududlarni va ko'chat ekish uchun yerlarni tayyorlash, ko'p yillik o'simliklarni ekish va parvarishlash uchun urug'lik, ko'chat va boshqa materiallarni sotib olish, tuproqqa ishlov berish, mineral o'g'it solish va ko'p yillik o'simliklarni ekish hamda foydalanishga topshirilgunga qadar parvarishlash bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarning majmuasi ham kapital xarajatlar jumlasiga kiradi.

Foydalanishga topshirilmagan maydonlardagi ko'chat mahsulotlarini sotishdan tushgan mablag'lar joriy yildagi parvarishlash bo'yicha haqiqiy xarajatlarni kamaytiradi. Hosilni yig'ish, idishlarni yetkazib berish, tashish va qo'riqlash bilan bog'liq xarajatlar bundan mustasno.

Bajarilgan ishlar uchun pul o'tkazish qabul qilish-topshirish dalolatnomasi mavjud bo'lganida amalga oshiriladi: tugallangan ish turlari bo'yicha hisob-kitoblarda – smetalar va smeta hisob-kitoblarida ko'zda tutilgan qiymati bo'yicha; ishlarning bajarilgan qismi – smeta hisob-kitoblarida qabul qilingan ish birligi uchun o'rtacha qiymat bo'yicha. Tugallangan ayrim ish turlari alohida rassenkalar bo'yicha to'lanishi, tugallanmaganlari esa, agar smeta normalarida oraliq hisob-kitobga ruxsat etilgan bo'lsa, qabul qilish dalolatnomasiga kiritilishi mumkin. Ishlar qiymati alohida rassenkalar bo'yicha aniqlanganida, ustama xarajatlar belgilangan miqdorlarda qabul qilinadi.

Putrat tashkilotlari tomonidan bajariladigan suv xo'jaligi qurilishlari va meliorativ ishlarni moliyalashtirish va kreditlash, qurilish ishlari uchun qabul qilingan tartibda bajariladi. Xo'jaliklar va putrat tashkilotlari o'rtasidagi hisob-kitoblar shartnoma asosida amalga oshiriladi. Davlat va viloyatlararo ahamiyatga ega suv xo'jaligi qurilishi va meliorativ obyektlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Asosiy poda tashkil etish va kengaytirish, unga xo'jalikda o'stirilgan yosh mahsuldor va ishchi hayvonlarni asosiy podaga o'tkazish hamda chetdan nasldor chorva mollarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu maqsadga qilinadigan xarajatlar mazmunan kapital qo'yilmalar hisoblanib, ular poda aylanishining rejali hisob-kitobida belgilanadi.

Asosiy poda tashkil etish xarajatlariga quyidagilar kiradi: yosh mahsuldor va ish hayvonlarini parvarishlash xarajatlari; katta yoshdagi mahsuldor va ish hayvonlarini sotib olish xarajatlari, boshqa korxon va tashkilotlardan tekinga olingan katta yoshdagi chorva mollarni xo'jalikka keltirish xarajatlari. Parrandalar, quyonlar, yovvoyi hayvonlar, asalari uyalari va qo'riqlovchi itlarni sotib olish, olib kelish hamda parvarishlash xarajatlari aylanma mablag'lar tarkibida hisobga olinadi va asosiy poda tuzish xarajatlariga olib borilmaydi.

Yil davomida asosiy podaga o'tkazilgan yosh mollarni, shu jumladan, nasldorlarini ham baholash, yil boshidagi balans qiymatiga asosiy podaga o'tkazish paytigacha qilingan rejadagi parvarishlash xarajatlarini qo'shgan holda amalga oshirilib, yil oxirida esa, haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

Asosiy poda tashkil etish xarajatlari o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilib, ularga boshqa tushumlar bilan bir qatorda quyidagilar ham kiritiladi: asosiy vositalar qatoridan chiqarilgan mollar (nobud bo'lgan va tekinga berilganlardan tashqari) olingan daromadlar; katta yoshdagi nasldor va naslsiz otlarni, boshqa ish hayvonlarini sotish va brakka chiqarishdan olingan tushumlar; nobud bo'lgan asosiy podadagi hayvonlar uchun sug'urta qoplamalari. Mablag'lar yetishmaganida bank kreditlari jalb qilinadi.

Asosiy poda tuzish xarajatlari va ularni moliyalashtirish manbalari butun asosiy podani va mollarning alohida turlari bo'yicha shakllantirish xarajatlarini hamda ularning manbalarini hisob-kitob qilish asosida tuziladi. O'tgan yildagi qoplanmagan xarajatlar balans yoki kutilayotgan ma'lumotlar bo'yicha aniqlanadi.

Qarz mablag'lari xo'jalikka jalb qilinganida belgilangan hujjatlar bilan birga, bankka asosiy poda tuzish xarajatlarining hisob-kitobi, o'tgan yildagi xarajatlarni ham qo'shgan holda, taqdim etiladi. Bunda ushbu maqsadga mo'ljallangan o'z mablag'larining mavjudligi ham ko'rsatiladi.

8.6. Investitsiyalar bilan bog'liq risklarni sug'urtalash

Investitsiya faoliyatining har xil turlari bo'yicha ehtimoli bo'lgan zararlarni bartaraf etishning turli usullari mavjud. Bunda asosan to'g'ri investitsiyalarni sug'urtalash uchun sug'urta kompaniyalari bilan tegishli shartnomalar tuziladi. To'g'ri investitsiyalarga xavf tug'diradigan risklar quyidagi guruhlariga bo'linishi mumkin:

- o tabiiy ofatlar riski – zilzila, suv toshqini, dovul, sel, ko'chki, jazirama issiq va qattiq sovuq, sizot suvlarining ko'tarilishi va b.;

- o tabiiy sabablar (masalan, yashin) kabi texnogen sabablari (ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq) oqibatida kelib chiqqan yong'inlar;

- o qurilish, montaj ishlari, sinov va qurilayotgan obyektlarni ishlatish bilan bevosita bog'liq texnik risklar;

- o siyosiy risklar: investitsiyalarni natsionalizatsiya va ekspropriatsiya; umummilliy ish tashlashlar, tartibsizliklar, urush holatlari, valutani konvertatsiyalashning cheklanishi, chetga kapital chiqarish rejimi va b.;

- o uchinchi shaxslar xatti-harakatlari: talon-tarojlik, o'g'irlik, tovlamachilik va b.sh.o'.

- o bozor konyunkturasi o'zgarishi bilan bog'liq xo'jalik risklari va b.;

- o yuqoridagilarga kirmaydigan boshqa risklar.

Ushbu investitsiya risklarining ko'pchiligi sug'urta yoki ayrim hollarda o'z-o'zini sug'urtalash, ya'ni ma'lum rezerv fondlari yaratish yo'li bilan qoplanadi.

Qurilish ishlari sug'urtalanadigan sug'urta summasi qurilishning shartnoma bahosi hisoblanib, yetkazib berilgan qurilish materiallari va bajarilgan ishlar qiymati ham kiradi.

Obyektlarni qurish jarayonida quyidagilar sug'urtalanadi:

- qurilish obyekti;
- qurilish maydonchasining qurilmalari;
- qurilish mashinalari;
- qurilish maydonchasida ishlatiladigan transport vositalari;
- sug'urta hodisasidan keyin hududni tozalash xarajatlari;
- sug'urtalanuvchining fuqarolik javobgarligi;
- qurilish olib borilayotgan yoki uning atrofidagi obyektlar;
- sug'urtalangan shaxsga ishonib topshirilgan yoki unda saqlanayotgan obyektlar.

Sug'urta shartnomasi doirasida mashinalar, qurilmalar va temir-beton konstruksiyalarni montajlash bo'yicha ishlar ham sug'urtalanishi mumkin. Bu ish agar qurilish ishlari, ya'ni montajlanadigan obyektlar qiymati (montaj xarajatlarini ham qo'shganda) umumiy sug'urta summasini 50 foizidan kam bo'lganda amalga oshiriladi.

Sug'urtalash ulkan himoya ahamiyatiga ega. Sug'urta amal qilayotgan davrda kutilmagan va ko'zda tutilmagan halokat hodisalaridan ko'rilgan barcha zararlar, agar ularning vujudga kelish sabablari istisno qatoriga kirmagan taqdirda, qoplanadi. Bunday istisnolarga quyidagilar kiradi: harbiy harakatlar, tadbirlar yoki hodisalar, ish tashlashlar, hukumat talablariga muvofiq mulklarning musodara qilinishi; sug'urtalanuvchining ataylab qilgan xatti-harakatlari yoki qo'pol ehtiyotsizligi; yadro energiyasining ta'siri natijasida ko'rilgan zararlar; qurilish mashinalarining ichki sabablarga ko'ra zararlanishi; loyihalashdagi xatolar; qurilish ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish (masalan, nuqsonli yoki yaroqsiz materialning ishlatilishi).

Sug'urta himoyasi qurilish ishlari boshlangan paytda yoki sug'urtalangan obyektlarni qurilish maydoniga tushirgandan so'ng boshlanadi va inshootlarni qabul qilish yoki ishga tushirish bilan yakunlanadi.

Qurilish-montaj risklarini sug'urtalashning boshqa bir turi – montaj ishlarini sug'urtalash hisoblanadi. Sug'urtalashning bu turiga mashina va mexanizmlarni montajlash hamda po'lat konstruksiyalarni tiklash chog'ida vujudga keladigan barcha risklarni qoplash kiradi. Bu holda, obyektlarni montajlash munosabati bilan risk vujudga keladigan barcha tomonlar sug'urtalanuvchi bo'lishi mumkin. Risklarning bunday turlari bo'yicha quyidagilar sug'urtalanadi:

- mashinalar, mexanizmlar va konstruksiyalarning barcha turlarini montajlash va sinab ko'rish;

- montaj ishlarini bajarish uchun mashinalar, qurilmalar va jihozlar (masalan, kranlar, mactalar, lebyodkalar, kompressorlar);

- montajlash maydonchasida turgan va sug'urtalangan holda saqlashga qabul qilingan buyumlar;

- sug'urta hodisasidan keyin hududni tozalash xarajatlari;

- agar qoplanadigan zararni tugatish bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ish vaqtdan tashqari, ishlar uchun haq to'lash, yuk tashish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar;

– sug‘urtalangan shaxsning fuqarolik javobgarligi, ya‘ni uchinchi shaxslar-ning qonunchilikka muvofiq sug‘urtalangan shaxs hisobidan qondiriladigan da‘volari.

Mazkur obyektida bajarilayotgan qurilish ishlari ham, agar montaj ishlarining ulushi, ya‘ni ularning qiymati montajlanadigan qurilmaning qiymatidan yuqori bo‘lsa, sug‘urtalanishi mumkin.

Montaj risklarini sug‘urtalash istisno metodi bo‘yicha tuzilgan ancha to‘liq sug‘urta qoplamasi bilan ta‘minlanadi. Xalqaro amaliyotda bunday istisnolarga quyidagilar kiradi:

– konstruksiyalardagi xatolar, materiallar nuqsonlari yoki ularni tayyorlashda yo‘l qo‘yilgan xatolar natijasida vujudga kelgan zararlar;

– sug‘urtalanuvchi yoki uning vakilining ataylab qilingan xatti-harakatlari yoki qo‘pol ehtiyotsizligi natijasida kelib chiqqan zararlar;

– burdsizliklar va ko‘rsatilgan xizmatlarning kamchiliklari bo‘yicha da‘volar, boshqa mulkiy zararlar;

– harbiy harakatlar yoki boshqa hodisalar, hukumat qaroriga muvofiq mulklar musodara qilinishi natijasida ko‘rilgan zararlar.

8.7. Agrar korxonalarini lizing asosida investitsiyalash

Hozirgi vaqtda agrar sohada investitsiya siyosatining muhim yo‘nalishi lizingni rivojlantirish hisoblanadi.

Lizingdan foydalanish lizing oluvchiga o‘zining asosiy ishlab chiqarish vositalarini yangilash va chiqarilayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari, lizing muomalalari bo‘yicha soliq imtiyozlari ko‘zda tutilgan bo‘lib, odatda, bank kreditini jalb qilishga qaraganda arzon tushadi. shunday qilib, investitsiya tadbirkorligining bunday turi juda istiqbolli hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida lizingning afzalligi shundan iboratki, u davlat tomonidan tartibga solishning turli shakllarini, masalan, soliq va kredit imtiyozlarini nazarda tutadi. Lizing yordamida ma‘lum darajada texnika olishning boshqa manbalaridan foydalanish (import, eskirgan detallarni tiklash va b.) hisobiga qishloq xo‘jalik texnikalarini ishlab chiqaruvchilarining monopolligini bartaraf etish mumkin. Bundan tashqari, lizing qishloq xo‘jalik korxonasini o‘z mashina-traktor parkini saqlash va servis xizmatlarini tashkil etish ishlaridan xalos qilgan holda, qimmatbaho texnikalardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Qishloq xo‘ja-ligida lizing tizimini rivojlantirish: qishloq xo‘jalik texnikalari va agrar korxonalar mahsulotlari baholari o‘rtasidagi nomutanosiblikni

pasaytirish; qishloq xo'jalik mashinalari va qurilmalarini sotishni kengaytirish; qishloq xo'jalik texnikalariga bo'lgan talabni nafaqat korporativ agrar korxonalar va fermer xo'jaliklari tomonidan, balki dehqon xo'jaliklari hamda sanoat korxonalarining yordamchi xo'jaliklari tomonidan ham oshishiga; qishloq xo'jalik texnikalarini ishlab chiqaruvchilar, ulardan foydalanuvchilar va lizing beruvchilar manfaatlarini oqilona birlashtirishga yordam beradi.

Natijada lizing sharoitida ko'plab omillar ta'sirida vujudga keladigan samaraga erishiladi. Ular qishloq xo'jaligiga beriladigan imtiyozlar; lizing to'lovlarining ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxiga qo'shilishi, qishloq xo'jalik mahsulotlariga fyuchers shartnomalarining qo'llanilishi; texnikalarning bekor turib qolishi va qishloq xo'jalik ishlarini bajarishda yo'qotishlarning pasayishi; ishlab chiqarishning mashinalar bilan qurollanganligi va texnika aylanishining oshishi; yuqori sifatli servis hisobiga texnikadan foydalanish samaradorligining oshishi va b.

Har bir yo'nalish bo'yicha olingan iqtisodiy samara lizing ishtirokchilari o'rtasida tegishli proporsiyalarda – yakuniy natijani shakllantirishdagi ulushni hisobga olgan holda taqsimlanadi.

Agrolizing – bu qishloq xo'jalik iste'molchilariga mashina va qurilmalarni to'lov muddatini uzaytirgan holda sotish. U texnik vositalar prokatini bir turi va uning yanada rivojlantirilishi hisoblanadi. Mazmunan esa, u qishloq xo'jalik texnikasini uning qiymatini 2 va undan ortiq yil davomida bo'laklab to'lagan holda uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat. Ijarachi ijaraga olingan texnika uchun ijara beruvchiga texnika qiymatining ma'lum foizini to'lab, normativ foyda hamda ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini to'ldiradi.

Shunday qilib, qishloq xo'jalik korxonasi uchun lizing bir vaqtning o'zida ikkita muhim muammoni – texnika sotib olish va uni moliyalashtirishni hal qiladi. Natijada bozor sharoitida fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jalik korxonalarining raqo-batbardoshligi ta'minlanadi.

Umumiy holda agrolizing tizimida quyidagilar ishtirok etadi: texnikani ishlab chiqaruvchi (mol yetkazib beruvchi), lizing beruvchi, foydalanuvchi (ijarachi – qishloq xo'jalik korxonasi), investorlar, moliya-kredit muassasalari, ulgurji va chakana savdo tashkilotlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, konsultatsiya, servis, o'quv va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi vositachilar.

Amaliy lizing taxminan 8ta turdagi ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

1. mashina va qurilmalar ro'yxatini aniqlashtirish (eksport bo'yicha yangi va ishlatilgan mashinalarni olish istiqbolini baholash; sanoat, qurilish va transport tashkilotlarida vaqtincha bo'sh turgan mashinalarni jalb qilish imkoniyatlarini o'rganish; eskirgan mashinalarni qayta tiklash masalasini hal etish);

2. xizmatlar tarkibini aniqlash (texnikani ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarni aniqlash; ularning ish bajarish bo'yicha imkoniyatlarini baholash muddatlarni, quvvati; mashinalarni tashish bo'yicha muzokaralar olib borish; xizmat muddati tugagan buyumlarni hisobdan chiqarish maqsadga muvofiqligini aniqlash; mijozlarni o'qitish va konsultatsiya masalalarini ishlab chiqish; mashinalarni lizing oldidan tayyorlash masalalarini hal etish; sug'urtalash masalalarini aniqlash);

3. ehtiyojlarni aniqlash (mashinalar va xizmatlar turlari bo'yicha doimiy va mavsumiy ehtiyojlar hajmi);

4. qishloq xo'jalik texnikalarini sotib olish (mashinalarni tayyorlovchilar bilan oldi-sotdi shartnomalarini tuzish; vaqtinchalik foydalanish uchun mashinalarni ijaraga olish shartnomalarini tuzish; qishloq xo'jalik mashinalarini lizing oldidan tayyorlash; mashinalarni saqlashni tashkil etish (zarur hollarda));

5. lizing oluvchi – mijozlar ro'yxatini tuzish (agrar sektor tashkilotlari va organlari bilan aloqa o'rnatish; mijozni tanlash tartibini ishlab chiqish; mijozlar ro'yxatini tuzish);

6. ijarachilarni tanlash (mijozlar bilan reklama-o'quv tadbirlarini o'tkazish; tanlashni amalga oshirish);

7. lizing munosabatlarini rasmiylashtirish (lizing xizmati shartnomalarini tuzish; mijozlarga texnikani yetkazib berish);

8. lizing to'lovlari sifatida kishloq xo'jalik mahsulotlari assortimentini aniqlash (fyuchers kontraktlarini tuzish) yoki lizing shartnomasida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish miqdori, sifati, assortimenti va muddatlari bo'yicha shartlarni shakllantirish; mahsulotlarni tashish, qayta ishlash va zarur hollarda ularni sotish uchun muzokaralar olib borish va kontraktlarni tuzish).

Qishloq xo'jalik texnikasi lizingining yuqori samaradorligi uning o'zini oqlash muddatlarini sezilarli darajada qisqartiradi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik texnikalarining uzoq muddatli (5-7 yil) ijarasi lizing obyektini dastlabki qiymati bo'yicha (ushbu obyektlar bahosi

butun lizing muddati davomida o'zgarmaydi) asta-sekin sotib olishga, hisob-kitoblarni ham moliyaviy resurslar, ham mahsulotlar bilan, ya'ni tovar ayirboshlash operatsiyalari, o'zaro hisob-kitoblar va hokazolarni amalga oshirishga imkon beradi. Qishloq xo'jaligiga lizing asosida berilgan texnika mulk solig'iga tortilmaydi. Chunki u to'liq sotib olingunga qadar davlatga tegishli bo'ladi. Fermerlar va mashina-traktor parklari uchun hukumat tomonidan lizing to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berilgan.

Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, barcha lizing oluvchilar uchun ijara to'lovi past darajada (markaziy bank remoliyalashtirish stavkasining yarmi miqdorida), dastlabki badallarni tabaqalangan holda to'lash va lizing muddatlarini obyektlar qiymatiga bog'liq holda oshirish ko'zda tutilgan. Oldindan lizingga berilgan mashinalar uchun barcha qaytariladigan to'lovlar ushbu maqsadda ishlatiladi, ularga xarid va navbatdagi lizingni yetkazib berish joriy qilinadi. shuningdek, agrota'minot uchun savdo ustamolari davlat tomonidan tartibga solinadi va temiryo'l ta'rifini to'lash muddati cho'zilishi mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarini lizing asosida texnika bilan ta'minlashning amaldagi tartibi monopolist zavod - mol yetkazib beruvchilarga o'z mahsulotlariga baho belgilashda to'sqinlik qiladi, yetkazib beriladigan texnikaning komplekt-langanligi va sifatini kafolatlaydi, lizing obyektlarini texnik sozligi uchun lizing beruvchilar mas'uliyatini ko'zda tutadi, ya'ni lizing oluvchining tayyorlovchi - zavod oldidagi huquqiy himoyasini hamda texnikani majburiy sug'urtalashni ta'minlaydi.

Lizing bo'yicha texnikani sotib olish bahosi Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi bilan kelishiladi. Vazirlik mintaqalar uchun kvota belgilaydi va lizing obyektlari nomenklaturasini tasdiqlab, texnikani taqsimlashda haqqoniylikni va davlat mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, lizing tufayli qishloq xo'jalik korxonalari o'z manfaatdor-ligini inobatga olgan holda texnikani uzoq muddatga olib foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu qishloq xo'jaligiga davlat tomonidan berilayotgan katta yordam, ammo u yetarli emas.

Investitsiya faoliyatida lizing jarayonining metodikasi har xil moliyalash-tirish sxemalarini, jumladan, soliq imtiyozlari, investitsiya-soliq krediti, kredit liniyalari va hokazolarni nazarda tutadi.

Lizing to'lovlarini kiritish uchun tomonlar uslubiy tavsiyalarda keltirilgan uchta usuldan bittasini tanlashi mumkin:

– «qat’iy belgilangan summa bilan», bunda tomonlar kelishilgan davriylikka muvofiq, butun shartnoma muddati davomida to’lovlarning umumiy summasi teng ulushlar bilan hisoblanadi;

– «bo’nak bilan», bunda lizing oluvchi shartnoma tuzib, lizing beruvchiga kelishilgan miqdorda bo’nak to’laydi, lizing to’lovlari umumiy summasining qolgan qismi (bo’nak chegirib tashlangan hamda) butun shartnoma muddati davomida hisoblanadi va to’lanadi;

– «eng kam to’lovlar», bunda to’lovlarning umumiy summasiga butun shartnoma davri uchun lizing mulkining amortizatsiya summasi, lizing oluvchi tomonidan qarz mablag’laridan foydalanilganlik uchun to’lov, komission mukofotlar va lizing beruvchining qo’shimcha xizmatlari uchun to’lovlar hamda lizing muddati so’ngida texnikani sotib olish qiymati kiradi.

Lekin, uchchala usulning ham asosiy sharti to’lovlarning umumiy summasini teng ulushlar bilan hisoblashdir.

Lizing to’lovlarning umumiy summasi quyidagi formula bo’yicha hisoblanadi:

$$LT=AA+KT+KM+QX+QQS, \quad (8.8)$$

Bunda: LT – lizing to’lovlarning umumiy summasi;

AA – lizing beruvchiga joriy yilda o’tkazib beriladigan amortizatsiya ajratmalari;

KT – lizing beruvchining lizing obyektini sotib olishga ishlatgan kredit resurslari uchun to’lovi;

KM – lizing shartnomalari bo’yicha mulkni berganligi uchun lizing beruvchiga to’lanadigan komission mukofotlar;

QX – lizing oluvchiga ko’rsatilgan qo’shimcha xizmatlari uchun lizing beruvchiga o’tkaziladigan to’lov;

QQS – lizing oluvchi tomonidan to’lanadigan qo’shilgan qiymat solig’i.

Ta’kidlash joizki, jadallashtirish koeffitsiyenti qo’llanilganda amaldagi qo’nunchilikka muvofiq faqat amortizatsiya hisoblashning chiziqli usuli qo’llanilishi mumkin. Shuningdek, soliqqa tortish maqsadida xarajat sifatida O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23-moddasiga muvofiq hisoblangan asosiy vositalar eskirishi qabul qilingan.

Texnika va nasldor mollar lizingi moliyaviy mablag’lar samaradorligini oshirish va agrosanoat majmui uchun texnika, qurilma, ehtiyot qism va boshqa texnik resurslar hajmini ko’paytirish maqsadida uzluksiz takomillashtirilib borilishi lozim.

Germaniya, Italiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning lizing ishlari bo'yicha tajribasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamizda amal qilayotgan lizing ishlari tartibi asosan xalqaro standartlarga javob beradi. Respublikamiz qishloq xo'jaligida texnika va nasldor mollar lizingini tashkil etishning amaldagi tartibi bugungi kunda qishloq xo'jaligiga texnikani tezkor yetkazib berish, budjet mablag'laridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanish, qishloq xo'jalik korxonalari, xususan, fermer xo'jaliklari uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Ushbu tadbirlarni moliyalashtirish hajmini yanada oshirish, soliqlar va tariflarni pasaytirish yo'li bilan yanada takomillashtirish agrar sohaning texnik darajasini oshirish va mamlakatimiz qishloq xo'jalik mashina-sozligi faoliyatini yaxshilashga imkon beradi.

8.8. Asosiy vositalar ta'mirini moliyalashtirish

Ma'lumki, asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida eskiradi. Asosiy vositalarni ta'mirlash oddiy takror ishlab chiqarishning elementi bo'lib, ularning xizmat muddatini uzaytiradi, unumdorligini oshiradi, yangi asosiy fondlar barpo qilish uchun to'g'ri investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Ta'mirlash ishlarining barcha turlari mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar hisobiga amalga oshiriladi.

Ta'mirlashning quyidagi turlari mavjud: *joriy, o'rta va kapital.*

Joriy ta'mirlashda mayda nosozliklarni tuzatish, ayrim detallarni almashtirish amalga oshirilib, u odatda tasodifiy tusga ega.

O'rta ta'mirlash ayrim elementlar, detallar va qismlarni almashtirish, barcha agregatlarning ishlashini tekshirish bilan bog'liq. O'rta ta'mirlash yilda bir necha marta amalga oshirilishi mumkin.

Kapital ta'mirlashda mashina va qurilmalar bir yildan ko'p davrda amalga oshirilib, odatda, agregatlarni bo'laklash, eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki qayta tiklash, asosiy detallarni almashtirish amalga oshiriladi. Bino va inshootlarni kapital ta'mirlashda eskirgan konstruksiya va detallarni, ta'mirlanadigan obyektlarning foydalanish ko'rsatkichlarini yaxshilaydigan, mustahkam va tejamliroqlari bilan almashtiriladi.

Kapital ta'mirlashning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi kapital ta'mirlash xarajatlarini ta'mirlanadigan obyektlar qiymati bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Agar kapital ta'mirlash iqtisodiy jihatdan

maqsadga muvofiq bo'lmasa, u holda uni amalga oshirish uchun mo'ljallangan mablag'lar eskirgan va ishdan chiqqan mashina hamda qurilmalar o'rniiga yangilarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida korxonalarda asosiy vositalarni ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish tartibi o'zgardi.

Hozirgi vaqtda agrar korxonalar ta'mirlash ishlarining umumiy hajmini ham, turlari bo'yicha strukturasi ham mustaqil aniqlaydi. Ta'mirlash rejasi odatda bir yilga korxonaga bo'yicha alohida obyektlarni amaldagi normalar, baholar va ta'riflarni hisobga olgan holda ta'mirlash bo'yicha smeta-moliya hisob-kitoblari asosida tuziladi.

Barcha korxonalar bo'ysunishi va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, asosiy vositalar obyektlarini ta'mirlashning barcha turlariga qilinadigan xarajatlarni mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibiga kiritadi. Korxonaga ta'mirlash xarajatlarini tannarxga qo'shishning quyidagi variantlaridan bittasini tanlashi mumkin:

– ta'mirlashga qilingan haqiqiy xarajatlarni bevosita uni amalga oshirgandan keyin tannarxga qo'shish. Ushbu usul bir qancha kamchiliklarga ega. Agar ta'mirlash ishlarini bajarishda mavsumiy tebranish kuzatilsa, u holda alohida davrlar bo'yicha tannarxda sezilarli tebranishlar vujudga keladi, bu o'z navbatida foydani hisob-kitob qilish va budjetga to'lovlarni aniqlashni murakkablashtiradi;

– ta'mirlash fondi tashkil etish. Korxonaga texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar asosida ta'mirlash ishlarining umumiy hajmini va ta'mirlash fondini moliyalashtirish me'yorini aniqlaydi. Ta'mirlash fondiga ajratmalarda qurilmalarni modernizatsiyalash xarajatlari ham hisobga olinishi lozim, agar u rekonstruksiyalash va texnik qayta qurollantirish chog'ida amalga oshirilmasa. Tasdiqlangan me'yorlarga asosan, asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatiga har oyda ta'mirlash fondi hisoblanadi va uni teng ulushlarda tannarxga qo'shib boradi. Ushbu fondan mablag'larni sarflash zaruratga qarab amalga oshiriladi. Bu ishlab chiqarish va mahsulot sotish xarajatlari hamda korxonaga foydasining shakllanishini ma'lum darajada barqarorlashtiradi;

– zarur hollarda asosiy kapital obyektlarini ta'mirlash bo'yicha haqiqiy xarajatlar kelgusi davr xarajatlariga olib borilib, keyinchalik ular har oyda ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkaziladi. Asosiy kapital noishlab chiqarish elementlarini ta'mirlashning barcha turlarini moliyalashtirib korxonaga ixtiyorida qoladigan sof foyda hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu maqsadga korxonaga yilning ayrim davrlarida ta'mirlash ishlarining hajmi ularni moliyalashtirish manbalarining hajmidan oshib

ketganida, ya'ni mavsumiy uzilish vujudga kelganida, qisqa muddatli bank kreditlari ham jalb qilinadi.

Ta'mirlashni moliyalashtirishning tartibi asosan uni amalga oshirish usuliga bog'liq. Ta'mirlash ishlari pudrat usulida bajarilganida pudratchi va buyurtmachi o'rtasidagi hisob-kitoblar ishlarning tugallangan bosqichlari yoki butun obyekt uchun shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bunda shartnomalarga bajarilgan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari ilova qilinadi.

Xo'jalik usulida amalga oshiriladigan ta'mirlash bo'yicha hisob-kitoblar, odatda, xarajatlarning alohida elementlari: ish haqi, yagona ijtimoiy to'lov uchun ajratmalar, materiallar, detallar va boshqa xarajatlar bo'yicha amalga oshiriladi.

8.9. Investitsiyalashga doir tezkor tadbirlar

Kapital qo'yilmalar, asosiy poda tuzish va ta'mirlash bo'yicha tezkor ishlar ko'zda tutilgan tadbirlarni mablag'lar bilan uzluksiz ta'minlash va ichki resurslarni safarbar qilishga qaratilgan, joriy moliyaviy operatsiyalarni o'z vaqtida va aniq amalga oshirishdan iborat. Bunda reja-moliya xodimlarining asosiy vazifasi – hisob-kitob schyotlarida aylanma mablag'larni to'plashdan iborat. Buning uchun buxgalteriya belgilangan muddatlarda to'lov topshiriqnomalarini rasmiylashtiradi va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun bankka topshiradi.

Kapital qo'yilmalar uchun mo'ljallangan mablag'lar yil ichida (ayrim choraklarda) yetishmaganida ularning o'rnini to'ldirish va kredit summasini ssuda hisobvarag'idan hisob-kitob hisobvarag'iga o'tkazish uchun qisqa muddatli kredit olishga bankka tavsifnoma rasmiylashtiriladi (tegishli hisob-kitoblar bilan). Bunday zarurat kapital qo'yilmalar hajmi yilning ayrim choraklarida rejada ko'zda tutilgan, ularni moliyalash manbalaridan oshganida vujudga keladi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalash uchun mablag'larni to'plash bo'yicha tezkor ishlarning roli tabiiy ofatlar va boshqa kutilmagan holatlar oqibatida kelib chiqqan moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu holda moliya xodimlari bankka qo'shimcha uzoq muddatli kreditlar ajratish yoki oldin olingan kreditlarni qaytarish muddatini uzaytirish to'g'risida xodataystvo tayyorlaydi va jo'natadi.

Bundan tashqari, korxonalarga ayrim choraklarda yillik ish rejasini muddatidan oldin bajarganligi munosabati bilan mablag'lar yetishmagan

qismiga qisqa muddatli kredit ajratilishi mumkin. Mablag'lar vaqtinchalik yetishmagan sharoitda xo'jalik pudratchi tashkilotlarni qurilish – montaj va ta'mirlash ishlari uchun hisob-kitoblar bo'yicha akseptlangan to'lov topshiriqnomalarini to'lash uchun qisqa muddatli kredit ajratish uchun xodadaystva qilishi mumkin.

Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida moliya xodimlari vujudga kelgan vaziyatni puxta tahlil qilib, o'z mablag'larining yaqin kelajakdagi tushum imkoniyatlarini aniqlaydi va bankka pudrat tashkilotlarining bajargan ishlari, mol yetkazib beruvchilarning jo'natgan materiallari va h. lar uchun aktseptlangan schyotlarni to'lash maqsadida qisqa muddali kredit olishga xodadaystva yo'llaydi.

Xo'jalikning o'z mablag'lari va uzoq muddatli kreditlar hisobidan moliyalashtiriladigan, kapital qo'yilmalarning yillik rejası oshrib bajarilganida, tugallanmagan qurilish, moddiy va mehnat resurslari mavjud bo'lganida moliya xodimlari bankka kapital qo'yilmalarni rejasini oshirib bajarganlik uchun qisqa muddatli kredit olishga xodadaystva taqdim etiladi.

Ta'mirlashni amalga oshirish uchun ta'mirlash fondini yaratish va undan foydalanish bo'yicha o'z vaqtida hamda yaxshi yo'lga qo'yilgan hisob zarur. Ta'mirlash xarajatlari mablag'larning ta'mirlash fondiga rejadagi tushumidan oshib ketadigan, yilning ayrim davrlarida ta'mirlash uchun mablag'larning mavsumiy yetishmagan qismiga qisqa muddatli kredit olish uchun bankka xodadaystva (tegishli hujjatlar ilova qilingan holda) jo'natiladi.

Asosiy poda tuzish uchun korxonaning o'z mablag'lari yetishmaganida moliya xodimlari keyingi yil yoki chorak uchun kredit shartnomasida ushbu maqsadga tegishli kreditni nazarda tutishi va kredit olish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirishi lozim.

Aylanma mablag'larning kapital xarajatlarga chetlashtirilishi munosabati bilan asosiy faoliyat bo'yicha uzoq muddatli qarzdorlikni bartaraf etish uchun bir tomondan, asosiy faoliyat xarajatlari bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida rasmiylashtirish, kapital qo'yilmalar, ta'mirlash va asosiy poda tuzish uchun ikkinchi tomondan, shuningdek, kapital xarajatlar uchun mo'ljallangan o'z mablag'lari yetishmagan vaqtda maqsadli qisqa muddatli kreditlar olishni rasmiylashtirish zarur.

Qurilish-montaj ishlari xo'jalik usulida amalga oshirilganida moliya xodimlari bankka ushbu ishlarni moliyalashtirish uchun qurilish bo'yicha hisob-kitob hisobvarag'i ochish to'g'risida ariza va mablag'larni o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi taqdim etadi.

Mol yetkazib beruvchilarga to'lanmagan qarzdorlik vujudga kelishini oldini olish uchun qishloq xo'jalik texnikasi, mashinalar va qurilmalarga bo'lgan ehtiyoj hamda mavjud mablag'larni to'lashga mosligi tekshiriladi. Bu ish mashina va qurilmalarga buyurtmalar tuzish va buyurtmalarni rasmiylashtirish davrida zarur.

Tezkor ish pudrat va loyiha tashkilotlari bilan tugallangan obyektlar va loyihalar bo'yicha hisob-kitob qilish uchun korxonaning o'z mablag'lari, budjet va qarz mablag'larini o'z vaqtida o'tkazishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlar uchun mablag'lar vaqtinchalik yetishmaganida korxonaga qisqa muddatli kredit ajratish to'g'risida bankka ariza taqdim etadi.

Moliya xodimlari materiallar va qurilmalar zaxiralarining holatini tahlil qilishlari, ulardan foydalanish, keraksiz va oshiqcha materiallarni sotish bo'yicha aniq choralar taklif qilishi, debitorlar tomonidan qarzlarning o'z vaqtida to'lanishini kuzatib borishi, kreditorlik qarzlarni so'ndirish uchun to'lov topshiriqnomasi rasmiylashtirishi va bankka taqdim etishi, kapital qurilishda aylanma mablag'larning rejali qo'shimcha o'sishini nazorat qilib borishi lozim. Binolar, inshootlar, mashina va qurilmalarni ta'mirlashda, ta'mirlanadigan obyektlarni buzishdan olingan materiallarni hamda ulardan ta'mirlash, kapital qurilish va boshqa maqsadlarda foydalanishni o'z vaqtida hisobga olish zarur.

Kapital qo'yilmalar, ta'mirlash va asosiy poda tuzishni moliyalash uchun olingan kreditlarning o'z vaqtida so'ndirilishi tezkor ishlarning muhim uchastkasi hisoblanadi. Mablag'lardan samarali foydalanishni nazorat qilish rejalashtirish jarayonida ham, kapital xarajatlar uchun mo'ljallangan pul mablag'lari fondlarini tashkil etish va ishlatish jarayonida ham amalga oshiriladi. Nazoratning asosiy vazifasi – moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va ishga tushirish, yo'qotishlarning oldini olish, asosiy vositalarni qayta tiklash xarajatlarini pasaytirish, kapital ta'mirlashni moliyalash manbalari bilan o'z vaqtida ta'minlash. Nazorat bevosita qishloq xo'jalik korxonalari hamda banklar, moliya va nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kapital xarajatlar uchun mablag'larni ishlatish samaradorligining asosiy mezonini, odatda, tugallanmagan qurilishlar hajmini pasaytirish hisoblanib, bunga mablag'larni ishga tushiriladigan va o'tuvchi obyektlarda to'plash, qurilish muddatlariga rioya qilish orqali erishiladi. Boshqa muhim omil mablag'larni rekonstruksiya, texnik qayta qurollantirish va ishlayotgan obyektlarni kengaytirishni moliyalashga

yo'naltirishning ustuvorligi bo'lib, bu qisqa muddatlarda va kam xarajat qilgan holda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda fond qaytimini oshirishga imkon beradi.

Asosiy vositalarni qayta tiklashga sarflanadigan mablag'larning ishlatilishi ustidan nazorat quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

— kapital qo'yilmalari rejaları, texnik-iqtisodiy asosnomalar, loyiha-qidiruv ishlari va qurilishning titul ro'yxatini tuzishning to'g'riligi, kapital qo'yilmalarni moliyalashni rasmiylashtirishning o'z vaqtidaligi;

— ishga tushiriladigan va o'tuvchi obyektlarni yakunlash uchun mablag'larni konsratsiyalash, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini qisqartirish;

— ishlab chiqarish quvvatlarini, turar joylarni, madaniy-maishiy obyektlarni va boshqa asosiy fondlarni belgilangan muddatda ishga tushirish, ularni foydalanishga qabul qilishning to'g'riligi;

— belgilangan muddatlarga hamda ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish normalariga muvofiq ishga tushirilgan obyektlarni o'z vaqtida o'zlashtirish;

— berilgan uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarni ushbu maqsad uchun manbalarni rejalashtirishga qat'iy muvofiq ravishda so'ndirish;

— yillik va choraklik ta'mirlash ishlarini bajarish, ta'mirlash fondini o'z vaqtida va to'liq shakllantirish, undan foydalanish;

— ta'mirlash bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtidaligi, smeta hujjatlarini, bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomalarini tuzishning to'g'riligi;

— asosiy poda tuzish rejasining bajarilishi, ushbu maqsadga xarajatlarni aniqlashning to'g'riligi, yosh chorva mollarni asosiy podaga o'tkazish dalolatnomalarini tuzishning o'z vaqtidaligi, katta yoshdagi mahsuldor va ish hayvonlarini sotib olish baholarining haqqoniyligi.

Bajarilgan ishlar uchun tuzilgan dalolatnomalar va schotlar puxta tekshirilishi zarur. Taqdim etilgan hujjatlardan shubhalanilganda ishlar qayta o'lchash nazoratidan o'tkaziladi. Shu bilan birga qurilish qiymatining pasaytirilganligi yoki oshirilganligini aniqlash maqsadida loyiha-smeta hujjatlari ham tekshiriladi. Bunday hollarda qurilish tashkilotlariga obyektни foydalanishga topshirgunga qadar chala ishlarni tugatish va sifatsiz bajarilgan ishlarni tuzatish bo'yicha talablar qo'yiladi.

Xo'jalik usulida amalga oshirilgan qurilishda ish haqi fondini sarflashning to'g'riligi ustidan nazorat o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Ishlar qiymati mehnat va ish haqi xarajatlarini smeta kalkulyatsiyasiga asosan hisoblangan bo'lishi lozim. Qurilish ishlari bo'yicha naryadlar va rassenkalarda hajmni oshirib ko'rsatishga yo'l qo'yilmasligi lozim. Har bir obyektning smeta qiymatida ish haqi xarajatlarini alohida ko'rsatish va ular asosida quruvchilarga akkord topshiriqlari belgilash zarur.

Xo'jalik usulida bajariladigan qurilishda materiallar sarflanishi va qurilish ishlari qiymatini aniqlashning to'g'riligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Qoidaga ko'ra, qurilish materiallariga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi, ularning smetaga nisbatan oshiqcha sarflanishi, yo'qotishlar va noratsional ishlatilishi bilan izohlanadi.

Ayrim hollarda qurilish ishlari qiymatining oshib ketishi ish birligiga to'g'ri keladigan amortizatsiya ajratmalarining qo'payishi bilan bog'liq bo'lib, bu mavjud mashina va mexanizmlardan yetarli darajada to'liq foydalanilmayotganligini bildiradi.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda investitsiya faoliyati qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
2. Investitsiya faoliyatida resurslarning qanday turlari jalb qilinishi mumkin?
3. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va shakllari, ularning o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligi qanday?
4. Kapital qo'yimalarning mazmuni va ularning turkumlanishini tavsiflang.
5. Investitsiyalarni prognozlash, investitsiya loyihalarini baholash usullari va investitsiya qarorlarini qabul qilish mezonlarini ta'riflang.
6. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning fazalari va bosqichlarini ayting hamda tavsiflang.
7. Titul ro'yxatlari, loyiha-smeta hujjatlari va pudrat shartnomasi bahosining mazmunini va mohiyatini ochib bering.
8. Agrar korxonalarida kapital qo'yimalarni obyektlari bo'yicha moliyalashtirish hamda kreditlash mexanizmining mazmuni nimadan iborat?
9. Investitsiyalar bilan bog'liq risklar qanday sug'urtalanadi?
10. Qishloq xo'jalik korxonalarini investitsiyalash usuli sifatida lizingning mohiyati nimadan iborat?

11. Asosiy vositalarni ta'mirlashni moliyalashtirish qanday amalga oshiriladi?

12. Asosiy kapitalga investitsiya qo'yish bo'yicha tezkor ishlarning maqsadi va mazmuni nimadan iborat?

Nazorat testlari

1. Korxonaning asosiy kapitali nimalardan iborat?

A) Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan uzoq muddatli investitsiyalar.

B) Asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, uzoq muddatli moliyaviy xarajatlar.

C) Tugallanmagan uzoq muddatli investitsiyalar, aylanma mablag'lar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar.

D) O'rnatiladigan va o'rnatilmaydigan uskunalar, transport vositalari, qishloq xo'jalik texnikasi, imorat va inshootlar, mahsuldor va ish hayvonlari, ko'p yillik daraxtzorlar.

E) Asosiy vositalar, uzoq muddatli moliyaviy xarajatlar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan uzoq muddatli investitsiyalar.

2. Asosiy fondlarga nimalar kiradi?

A) Korxonalarining barcha mehnat vositalari va mehnat predmetlari.

B) Korxonalarining barcha ishlab chiqarish vositalari.

C) Korxonalarining barcha mehnat vositalari.

D) Korxonalarining barcha asosiy ishlab chiqarish fondlari.

E) Korxonalarining barcha mehnat predmetlari.

3. Asosiy fondlarning turlari.

A) Ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan binolar, inshootlar asbob-uskunalar, uzatish moslamalari, transport vositalari, inventar va uskunalar.

B) Ishlab chiqarish binolari, inshootlar, uzatish moslamalari, kuch beruvchi va ish bajaruvchi mashinalar, inventar hamda uskunalar.

C) Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan imorat, inshoot, mashina va uskunalar, transport vositalari, ko'p yillik daraxtzorlar va ish hayvonlari.

D) Hamma amortizatsiya hisoblanadigan imorat, inshoot, mashina va uskunalar, transport vositalari, ko'p yillik daraxtzorlar va ish hayvonlari.

E) Hamma amortizatsiya hisoblanmaydigan asosiy fondlar.

4. Kapital xarajatlarning mazmuni.

- A) Kapital xarajatlar bu kapital mablag'lardir.
- B) Kapital xarajatlar bu kapital qurilishdir.
- C) Kapital xarajatlar bu asosiy ishlab chiqarish fondlarini barpo qilish uchun yo'naltiriladigan mablag'lardir.
- D) Kapital xarajatlar bu asosiy fondlarni barpo qilish xarajatlardir.
- E) Kapital xarajatlar bu asosiy vositalarni sotib olish uchun qilingan xarajatlardir.

5. Uzoq muddatli investitsiya manbalari

- A) O'z mablag'lari, jalb etilgan pul mablag'lar, qarzga olingan mablag'lar, budjet mablag'lari.
- B) Ta'sischilarning a'zolik to'lovlari, foyda, amortizatsiya ajratmalari, tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari, lizing krediti, budjet mablag'lari.
- C) O'z mablag'lari, jalb etiladigan va qarzga olinadigan mablag'lar, xorijiy investorlarning mablag'lari, budjetdan ajratiladigan mablag'lar.
- D) Xorijiy investorlarning mablag'lari, ta'sischilarning mablag'lari, qarzga olinadigan mablag'lar, foyda, amortizatsiya ajratmalari.
- E) Foyda, amortizatsiya ajratmalari, uzoq muddatli kredit, moliyaviy lizing, xorijiy investorlarning mablag'lari.

6. Kapital xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash manbalari

- A) Davlat budjetidan beriladigan mablag'lar.
- B) Banklar tomonidan beriladigan mablag'lar.
- C) Korxonalarining o'z mablag'lari.
- D) Korxonalarining o'z mablag'lari va bank krediti.
- E) Foydadan ajratiladigan mablag'lar va bank krediti.

IX bob. AGRAR KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA BIZNES-REJA TUZISH

Barcha muvaffaqiyatlar rejalashtirish va
maqsadga muvofiqlik darajasiga bog'liq.
Genri Ford⁶⁵

9.1. Moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati, asosiy tamoyillari va bosqichlari

Rejalashtirish – tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, uning mazmuni shundan iboratki, o'z faoliyatini rejalashtirishni bilmaydigan yoki keraksiz deb hisoblaydigan xo'jalik yurituvchi subyekt o'z maqsadiga erisha olmaydi. Rejalashtirishga jiddiy yondashish korxonaning barqaror va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratadi.

«Moliyaviy rejalashtirish» tushunchasi ikki xil: xo'jalik yuritishning umumiy nazariyasi, uning mohiyati nuqtayi nazaridan – *umumiqtisodiy*, xo'jalik yurituvchi subyekt nuqtayi nazaridan – *aniq boshqaruv* ahamiyatiga ega.

Moliyaviy rejalashtirishning har ikkala tomoni o'zaro bog'liq. Rejalashtirishning aniq faoliyat turi sifatidagi mazmuni korxonaning tashkiliy-iqtisodiy shaklidan kelib chiqqan holda, bevosita xo'jalik yuritishning umumiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Korxonada moliyaviy rejalarining yo'qligi ikkilanishlar, noto'g'ri xatti-harakatlar va yo'nalishni bevaqt o'zgartirishlarga olib keladi. Bularning oqibatida esa korxonaning moliyaviy holati yomonlashishi, hatto inqirozga olib kelishi ham mumkin.

Moliyaviy rejalashtirishni qo'llash quyidagi muhim sharoitlarni yaratadi: ish jarayonida vujudga keladigan muammolarni oydinlashtiradi; keyinchalik ishlarda qarorlarni amalga oshirishda me-nejrlarni rag'batlantiradi; xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini

⁶⁵ Genri Ford(30.07.1863-7.04.1947) – amerikalik sanoatchi, bunun dunyo bo'yicha avtomobil zavodlariga ega, ixtirochi, AQSHda 161 ta patent muallifi. Uning shiori «avtomobil barcha uchun» bo'lib, avtomobilsozlikning dastlabki davrida eng arzon avtomobillar chiqargan. Ford Motors Sompony hozir ham mavjud. Manba: ru.wikipedia.org/wiki/Ford_Genri.

muvofiglashtirishni yaxshilaydi; resurslarni oqilona taqsimlashga yordam beradi; korxonada nazoratni kuchaytiradi.

Moliyaviy rejalashtirishning tavsifi va mazmuni rejalashtirish tamoyillari bilan belgilanib, ularga rioya qilish salbiy natijalar riskini kamaytiradi.

Fransuz olimi A.Fayol rejalashtirishning asosiy to'rtta: *birlik, uzluksizlik, moslashuvchanlik va aniqlik* tamoyillarini ko'rsatib, ularni oqilona ish yuritish dasturining umumiy belgilari deb nomlagan. U keyinchalik, rejalashtirishning yana bir muhim tamoyili – *ishtirok etish* tamoyilini asoslagan (9.1-rasm).

Birlik tamoyili korxonada rejalashtirishning tizimli amalga oshirilishini nazarda tutadi. «Tizim» tushunchasi uni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi sabab-oqibatli, uzviy aloqadorlikni va ularning yagona maqsadga yo'nal-tirilganligini bildiradi.

Korxonaning bo'linmalari va rejalashtirish jarayonining alohida qismlari rejalashtirish tizimining elementlari bo'lib hisoblanadi. Bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik gorizontal darajalarda muvofiglashtirish asosida amalga oshiriladi.



9.1-rasm. Moliyaviy rejalashtirish tamoyillari.

Rejali faoliyatning yagona yo'nalishi, barcha elementlar maqsadining umumiyligi bo'linmalarning vertikal birligi (ya'ni boshqaruv ierarxiyasi), ularning integratsiyalashuvi doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Uzluksizlik tamoyili korxonalarda moliyaviy rejalashtirish muntazam belgilangan sikl doirasida amalga oshirilishini va moliyaviy rejalar navbatma-navbat ishlab chiqilishini bildiradi.

Uzluksizlik quyidagi shart-sharoitlardan kelib chiqadi:

– tashqi muhitning uzluksizligi va ko'zda tutilmagan o'zgarishlar xo'jalik yurituvchi subyekt rejalarining bajarilishini doimo kuzatib borish va ularga tegishli tuzatishlar hamda aniqliklar kiritish zaruratini yuzaga keltiradi;

– nafaqat haqiqiy shart-sharoitlarning, balki korxonaning o‘z ichki imkoniyatlari to‘g‘risidagi tasavvurining o‘zgarishi. Agar bunday o‘zgarishlar hisobga olinmasa, rejalashtirilgan natija hech kimga keraksiz bo‘lib chiqishi mumkin.

Moslashuvchanlik tamoyili korxonada moliya-xo‘jalik faoliyatida kutilmagan vaziyatlar vujudga kelganda moliyaviy rejalar va moliyaviy rejalashtirish jarayonining yo‘nalishini o‘zgartira olish imkonini bildiradi. Moliyaviy rejalar ichki va tashqi shart-sharoitlar o‘zgargan holda, ularga o‘zgartirishlar hamda qo‘shimchalar kiritish mumkin bo‘ladigan qilib tuzilishi kerak. Shuning uchun, moliyaviy rejalar «xavfsizlik yostiqlari» deb ataluvchi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Lekin, moliyaviy rejalashtirishda rezervlar tashkil etishning ma‘lum chegaralari mavjud. Ko‘rsatkichlar tarkibiga kiritiladigan rezervlar juda katta bo‘lmasligi lozim, aks holda rejalar noaniq bo‘lib chiqadi. Juda kichik rezervlar esa moliyaviy rejalar tez-tez o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etib, korxonada faoliyatining yo‘nalishini chalkashtiradi.

Aniqlik tamoyili har qanday moliyaviy reja imkon qadar yuqori darajada aniq tuzilishi lozimligini bildiradi. Boshqacha aytganda, moliyaviy reja korxonada faoliyatining tashqi va ichki sharoitlari imkon beradigan darajada aniq hamda batafsil bo‘lishi lozim.

Uzoq muddatli strategik moliyaviy rejalar tuzish korxonada faoliyatining asosiy maqsadi va yo‘nalishlarini aniqlash bilan chegaralanadi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida istiqbol to‘g‘risida ishonchli axborotlarni to‘plash qiyin, ularning o‘zgarish diapazoni va tezligi esa doimo o‘sib boradi. Qisqa vaqtga va alohida bo‘linmalar uchun mo‘ljallangan moliyaviy rejalar esa ancha batafsil va aniq tuziladi. Shu bois, bunday rejalar ma‘lum davrda ish yuritish tartibini belgilaydigan yo‘riqnoma hisoblanadi.

Ishtirok etish tamoyili birlik tamoyili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u korxonaning har bir xodimi lavozimi va bajaradigan vazifasidan qat‘i nazar, reja-moliya faoliyatining ishtirokchisiga aylanishini bildiradi. Boshqacha aytganda, rejalashtirish jarayoni kimlarga taalluqli bo‘lsa, ularning barchasi ushbu jarayonga jalb qilinishi lozim. Ishtirok etish tamoyiliga asoslangan moliyaviy rejalashtirish partisipativ moliyaviy rejalashtirish deb ham ataladi.

Yirik agrar korxonalarda partisipativ moliyaviy rejalashtirishni tashkil etish uchun barcha bo‘linmalari o‘rtasida uzviy aloqadorlikni

ta'minlaydigan qat'iroq va vertikal tuzulmalarni shakllantirish tavsiya qilinadi.

Moliyaviy rejalashtirish bilan bog'liq faoliyatda uchta jihatni ajratib ko'rsatish mumkin:

– rejalarini tuzish, ya'ni bevosita rejalashtirish. Bu jarayon natijasida rejalar tizimi shakllanadi;

– rejali qarorlarni amalga oshirishga doir faoliyat. Bunda korxonada faoliyatining muhim ko'rsatkichlari shakllantiriladi;

– moliyaviy natijalarni nazorat qilish, ya'ni haqiqiy natijalarni reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslash, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy yo'nalish bo'yicha zarur tuzatishlarni kiritish uchun shart-sharoitlar yaratish. Nazorat rejalashtirishning yakunlovchi bosqichi bo'lishiga qaramasdan, uning ahamiyati o'ta muhim hisoblanadi. Chunki rejalashtirishning samaradorlik darajasini aynan nazorat belgilaydi.

Moliyaviy rejalashtirish jarayoni – bu nafaqat izchil bajariladigan hisob-kitob ishlari va amallari, balki ulkan muvofiqlikni va boshqaruv san'atini talab etadigan murakkab jarayon. Shu bois, moliyaviy rejalashtirishda ishtirok etadigan xodimlar belgilangan vazifalarni bajarish bilan birga ichki hamda tashqi vaziyatning o'zgarishini har tomonlama hisobga olgan holda ishlashi lozim.

Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari:

- 1) korxonaning ichki va tashqi moliyaviy muhitini o'rganish;
- 2) tashkiliy muhitning asosiy moliyaviy komponentlarini belgilash, ulardan xo'jalik yurituvchi subyekt uchun muhimlarini ajratib olish, muhitning holatini prognoz qilish, korxonaning real ahvolini baholash, kelgusi rejalarini belgilash. Ayrim hollarda moliyaviy maqsadlarni aniqlashdan oldin muhit tahlil qilinadi;
- 3) moliyaviy maqsadlarni (kutilayotgan ko'rsatkichlarni) va ichki hamda tashqi muhit omillarini o'rganish natijalarini taqqoslash, ular o'rtasidagi uzilishlarni aniqlash. Strategik moliyaviy tahlil usullari yordamida strategiyaning har xil usullari shakllanadi;
- 4) muqobil strategiyalardan bittasini tanlash va o'rganish;
- 5) korxonada faoliyatining yakuniy strategik rejasini shakllantirish;
- 6) o'rta muddatli moliyaviy rejalar va dasturlarni ishlab chiqish;
- 7) bir yillik moliyaviy tezkor rejalar va loyihalarni tuzish;
- 8) moliyaviy rejalarini amalga oshirish;
- 9) moliyaviy natijalarni nazorat qilish.

8 va 9 bosqichlar bevosita moliyaviy rejalashtirish jarayonining bosqichlari bo'lmasligiga qaramasdan, yangi rejalarini tuzishga shart-

sharoitlar yaratadi. Yangi rejalar quyidagilarni hisobga olishi lozim: xo'jalik yurituvchi subyekt nimaga erishdi; reja va haqiqiy ko'rsatkichlar o'rtasida qanday uzilishlar mavjud va h.


Umuman olganda, moliyaviy rejalashtirish strategiyani ishlab chiqishdan, rejalarini aniqlash, amalga oshirish va nazoratgacha bo'lgan to'g'ri va ularni bajarish natijalarini hisobga olishdan to' rejani qayta rasmiylashtirishgacha bo'lgan teskari bog'liqlikdagi yopiq sikllari jarayon.

9.2. Moliyaviy rejani tuzish tartibi

Moliyaviy rejalashtirish ichki xo'jalik rejalashtirishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U ishlab chiqilgan strategik maqsadlarni aniq moliyaviy ko'rsatkichlar shakliga keltiradi; moliyaviy axborotlarni tashkil etish uchun standartlarni belgilaydi; korxonaning barcha rejalarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan xarajatlarning maqbul chegaralarini aniqlaydi; operativ moliyaviy rejalashtirish qismida umumxo'jalik strategiyasini ishlab chiqish va tuzatish uchun foydali ma'lumotlar beradi. Moliyaviy rejalashtirishning obyekti bo'lib pul mablag'lari fondlari va ularni shakllantirish manbalari hisoblanadi.

Moliyaviy rejalarini tuzish tashqi muhit – mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, kreditorlar, investorlar va shu kabilar bilan bog'lanish vositalaridan biri hisoblanadi. Korxonaning samarali ishlashi ularning ishonchiga bog'liq. Shuning uchun moliyaviy reja puxta o'ylangan va jiddiy asoslangan bo'lishi lozim.

Moliyaviy ko'rsatkichlarni rejalashtirish bir nechta usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin(9.2-rasm).



9.2-rasm. Moliyaviy ko'rsatkichlarni rejalashtirish usullari.

Normativ usulga muvofiq oldindan belgilangan norma va texnik-iqtisodiy normativlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarga va ularning manbalariga bo'lgan ehtiyoji aniqlanadi. Bunday normativlarga soliq stavkalari, badal va yig'imlar tarifi, amortizatsiya

ajratmalari, aylanma aktivlar normativi va boshqalar kiradi. Ushbu usul juda sodda bo'lib, normativlar va miqdor ko'rsatkichlarini bilgan holda reja ko'rsatkichlarini oson hisoblash mumkin.

Hisob-kitob – tahliliy usul normativlar bo'lmagan hollarda qo'llanilib, ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik esa bilvosita, ularning dinamikasi va aloqadorliklarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Asos sifatida olinadigan miqdorlarni va ularning rejalashtirilayotgan davrdagi o'zgarish indekslarini tahlil qilish natijasida reja ko'rsatkichi aniqlanadi.

Reja qarorlarini *maqbullashtirish usulining* mohiyati bir qancha variantdagi reja hisob-kitoblarini tuzishdan iborat. Ulardan esa eng maqbuli tanlanadi.

Balans usuli moliyaviy rejalashtirishning asosi bo'lib, uni qo'llashda moliyaviy rejaning alohida bo'lim va bo'g'inlari, xarajatlar ularni qoplash manbalari bilan muvofiqlashtiriladi, rejaning barcha bo'limlari, shuningdek, ishlab chiqarish va moliyaviy ko'rsatkichlari o'zaro bog'lanadi. Natijada moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar, xarajatlar va daromadlar balanslashtiriladi.

Moliyaviy reja tuzish – biznes-reja tuzishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, uning negizini mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuziladigan shartnomalar tashkil etadi. Bunda mavjud yer maydonlari, asosiy va aylanma aktivlar, mehnat resurslari, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va intensivlashtirish, qishloq xo'jalik ekinlarining haqiqiy hosildorligi va chorva mollarining mahsuldorligi hisobga olinishi lozim.

Moliyaviy rejalarni tuzishda xo'jalik yurituvchi subyektni rivojlantirish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy va kredit resurslari aniqlanadi, ishlab chiqarish quvvatlari, mehnat xarajatlari, materiallar, energiya va yoqilg'idan to'laroq foydalanish, ishlab chiqarishga ikkilamchi resurslarni ko'proq jalb qilish, moliyaviy resurslarni ularning vujudga kelish manbalari va taqsimlanish yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirish, moliyaviy va kredit resurslarini taqsimlash hamda ishlatishda rejadagi proporsiyalarga rioya qilish, natural, qiymat va moliyaviy ko'rsatkichlarni balanslashtirish, korxonaning barqaror moliyaviy ahvolini ta'minlash ko'zda tutiladi.

Fermer xo'jaligi faoliyatining biznes-rejasi asosan quyidagi bo'limlardan iborat: 1. «Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar»; 2. «Ishlab chiqarish dasturi»; 3. «Baho shakllantirish»; 4. «Investitsiya faoliyati rejasi»; 5. «Moliyaviy reja».

O'z navbatida, «Moliyaviy reja» bo'limi bir qancha shakllardan iborat: 1) «Mahsulot(ish, xizmat)larni sotish natijalari va mablag'lar tushumining hisob-kitobi»(29-shakl); 2) «Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari va yalpi foyda-si»; 3) «Moliyaviy qo'yilmalar»; 4) «Mulklar va mahsulotlarni sug'urtalash»; 5) «Kreditlarga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi»; 6) «Kreditorlik qarzlari»; 7) «Ichki xo'jalik bo'linmalari, vakolatxonada va filiallar, sho'ba va tobe korxonalarining daromadlar va xarajatlar balansi»; 8) «Moliyaviy reja (daromadlar va xarajatlar balansi)».

Moliyaviy reja ko'rsatkichlari ma'lum ketma-ketlikda hisob-kitob qilinadi. Odatda, tushum va foydani hisob-kitob qilishdan boshlanib, so'ngra o'z aylanma aktivlarining va ularni qoplash manbalari, mahsuldor va ish hayvonlarining asosiy podasini tuzish, maxsus tadbirlar uchun xarajatlar me'yori aniqlanadi. Shundan keyin foydani taqsimlash aniqlanadi, va nihoyat, daromadlar va xarajatlar balansi (moliyaviy reja) tuziladi. Moliyaviy rejaning barcha ko'rsatkichlari o'zaro bog'lanadi va muvofiqlashtiriladi. Ulardan birortasining o'zgarishi boshqalariga aniqlik kiritishga olib keladi.

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olinadigan tushum va natijalar hisob-kitobi (29-shakl). Barcha turdagi mahsulot va xizmatlarni sotishdan natija hisob-kitob qilinadi hamda asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi boshqa daromadlar va xarajatlarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Mahsulot sotishdan tushum summasini aniqlashda 24-shakl «Taklif qilingan baho va 1 ts qishloq xo'jalik mahsulotining prognoz qilinayotgan baholari hisob-kitobi»dan mahsulotlarning har bir turi bo'yicha olingan sotish bahosi qo'llaniladi. Davlat ehtiyojlari uchun mahsulot sotish alohida ko'rsatiladi.

Jami sotilgan mahsulot tannarxi va davr xarajatlari alohida grafalarda ko'rsatiladi. Realizatsiyaga doir xarajatlarni aniqlashda tayyorlov tashkilotlari tomonidan qoplanmaydigan xarajatlarni e'tiborga olish zarur (masalan, yuklash xarajatlari va b.). Tannarxni hisob-kitob qilishda mahsulot sotish bo'yicha rejadagi xarajatlar moddiy, mehnat va pul xarajatlari, idish, qadoqlash va mahsulotlarni xaridorlar va boshqalarga yetkazib berish xarajatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Realizatsiya natijalarini hisob-kitob qilishda quyidagi xususiyatlarni hisobga olish zarur.

* Eslatma: 29-shaklni to'ldirishda 5.1 va 5.3-jadvallar ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Qayta ishlash korxonalari yoki boshqa tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha sut sotish hajmi, hisobga o'tgan massa bo'yicha aniqlanadi. Shuning uchun sotilgan sut tannarxi uni hisobga o'tadigan massaga o'tkazishni hisobga olgan holda ko'rsatiladi. Korxonaga sog'ilgan sutning bir qismini sof holda, bir qismini esa slivki yoki sariyog' ko'rinishida sotganida, alohida sotish yo'nalishlari bo'yicha tushum aniqlanishi va shundan kelib chiqqan holda sotilgan 1 ts sutning o'rtacha bahosi aniqlanadi.

Jun sotish bo'yicha natija uning alohida turlari bo'yicha emas, balki butunligicha aniqlanadi. Bunda sotish bahosi va tushum junning har bir turi bo'yicha aniqlanadi. Jun sotishdan olingan tushumning umumiy summasi barcha turlari bo'yicha butunligicha ko'rsatiladi.

1-23 kodlar bo'yicha o'simlikchilik mahsulotlari, 24-50 kodlar bo'yicha esa – chorvachilik mahsulotlarini sotish ko'rsatiladi. Ushbu shaklda ko'rsatilmagan mahsulotlar bo'sh kodlar bo'yicha aks ettiriladi.

Qayta ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish 21, 22, 41-49 kodlar bo'yicha ko'rsatiladi. Qayta ishlash mahsulotlari bo'yicha ko'rsatkichlar 15 – shakl «Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish» ma'lumotlari bilan bog'lanadi. 52 chi kod bo'yicha 21, 22, 41-49 kodlar bo'yicha ko'rsatilmagan, qolgan sanoat mahsulotlari aks ettiriladi.

Chetga bajarilgan ishlar va xizmatlar (54- kod) quyidagilarni o'z ichiga oladi: tayyorlov tashkilotlariga sotilgan mahsulotlarni tashish xarajatlari va bu xarajatlarning qoplanish summasi; korxonaga xodimlariga hamda uning hududida yashovchi shifokorlar, o'qituvchilar, ishlaydigan va ishlamaydigan pensionerlarga to'lovlar va ko'rsatilgan xizmatlar, yem-xashak jamg'arish, uy xo'jaliklari va xo'jalik qurilmalarini ta'mirlash va h.

Mabulot (shb, xizmat)larni sotishdan olinadigan tushum va natijalar hisob-kitobi (29-shakl)

Ko'rsatkichlar	Kod	Davlat ehtiyotini uchun sotish			Bozorga sotish			Jami sotish			Sotiladigan mahsulot tamarxi			Natija		Doutun-ay avay kon-pensatsiya-lar, ming so'm
		Miq. don, L	1 l. Ming so'm	Jami, ming so'm	Miq. don, L	1 l. Ming so'm	Jami, ming so'm	Miq. don, L	1 l. Ming so'm	Jami, ming so'm	1 l. Ming so'm	Jami, ming so'm	Sotish xarajalari, ming so'm	Foydani ming so'm	Za-rar, ming so'm	
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
pastra	1	140	640,0	89600,0	-	-	-	140	89600,0	580,0	81200,0	-	81200,0	8400,0	-	-
don ekani jami:																
ab.j'bag'd oy	2	42	290,0	12180,0	42	850,0	35700,0	84	47880,0	209,5	17600,0	-	17600,0	30280,0	-	-
javdar	3															
arpa	4															
sul	5															
makhoj'o'x ori	6															
oq jo'xori	7															
g'rechka	8															
sholi	9															
bo'xat	10															
Kanop	11															
Kartoshka	12															
Qand	13															
lavlagi	14															
Silos	14															
Somon	15															
Ochiodagi sabzavot	16															
Yopiqdagi sabzavot	17															

Barcha turdagi mahsulotlar, ish va xizmatlar tannarxi hamda mahsulot sotishdan olinadigan tushum hisob-kitob qilinganidan so'ng realizatsiya bo'yicha bir yillik natija aniqlanadi.

7- va 8- grafalar bo'yicha sotilgan mahsulot hajmi va olingan tushum summasi yoziladi.

10- grafada sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aks ettiriladi. Barcha mahsulotlarni sotishdan natija, dotatsiyalar va kompensatsiyalar hisobga olinmagan holda 13- va 14- grafalarga yoziladi.

Sotilgan chorva mollari va parrandalarning ishlab chiqarish tannarxi (10- grafa, 24-27 kodlar) 13-shakl «Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va tannarxi» ma'lumotlariga mos kelishi lozim.

Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari va yalpi daromadi (30-shakl). Ushbu shaklda korxonaning butun moliya-xo'jalik faoliyatidan moliyaviy natija aniqlanadi. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan barcha tushum va ularning tannarxi hamda davr xarajatlari ko'rsatiladi. 1-grafadagi 1- va 3- kodlarning ko'rsatkichlari 29-shakl 57-kodi 8- va 12- grafadagi ma'lumotlarga mos keladi (dotatsiya va kompensatsiyalar hisobga olinmasdan). 8- kod bo'yicha mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan moliyaviy natija (foyda, zarar) ko'rsatiladi (№29-shakl, 57 chi kod, 13(foyda) yoki 14 grafa(zarar)).

Yalpi foyda (5-kod) 1-kod «Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum» va 3-kod «Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi» o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

6-kod bo'yicha realizatsiya xarajatlari yozilib, ularning tarkibi «Xarajatlar tarkibi to'g'risida... Nizom»ga muvofiq aniqlanadi.

Ma'muriy xarajatlar (7-kod) korxonalar boshqaruv xodimlarining ish haqi, ularning ish haqiga nisbatan ajratmalar, yengil avtotransport va mikroavtobuslarni saqlash, ularni ijaraga olish xarajatlari, aloqa xizmati va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu xarajatlar buxgalteriya hisobida korxonalar hisob siyosatiga muvofiq 9420-«Ma'muriy xarajatlar» schyotining kreditidan 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schotining debetiga olib boriladi.

9-13 kodlar bo'yicha rejalashtirilayotgan davr davomida taxmin qilinayotgan operatsion daromadlar va xarajatlar yoziladi. Barcha darajadagi budjetlardan asosiy ishlab chiqarishga beriladigan dotatsiyalar va kompensatsiyalar summasi 14-kod bo'yicha aks ettiriladi.

Sotishdan olingan foyda (zarar) (8-kod) 1- kod va 3, 6, 7 - kodlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari va yalpi daromadi
(30-shakl)

Ko'rsatkichlar	Kod	Summa, ming so'm	ga_	ga_	ga_	ga_
			—	—	—	—
A	B	1	2	3	4	5
I. Asosiy faoliyat turlari bo'yicha daromad va xarajatlar						
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	1	477980,0				
sh. j.: q/x mahsulotlari sotishdan	2	477980,0				
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	3	329200,0				
sh. j.: q-x mahsulotlari tannarxi	4	329200,0				
Yalpi foyda	5	148780,0				
Realizatsiya xarajatlari	6	10000,0				
Ma'muriy xarajatlari	7	-				
Sotishdan foyda (zarar)	8	138780,0				
II. Moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlari						
Olinadigan dividendlar va foizlar	9	-				
To'lanadigan dividendlar va foizlar	10	-				
Boshqa tashkilotlarda ishtirok etishdan	11	-				
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	12	-				
Moliyaviy faoliyatning boshqa xarajatlari	13	-				
Budjetdan dotatsiya va kompensatsiyalar	14	-				
Soliqqa tortilgungacha foyda (zarar)	15	138780,0				
Yalpi mahsulot tannarxi bo'yicha	16	396820,0				
Tushumning tannarxdan oshishi (kama-yishi) (dotatsiya va kompensatsiyalar bilan birga)	17	138780,0	x	x	x	X
	18		x	x	x	X
Jami Yalpi mahsulot	19	421896,0	x	x	x	X
Material xarajatlari	20	194986,0	x	x	x	X
Yalpi daromad	21	226910,0	x	x	x	X

Soliqqa tortilgunga qadar foyda (zarar) 8, 9, 11, 12, 14 - kodlardan 10 va 13-kodlar summasi chegirib tashlangan summaga teng.

Qishloq xo'jalik korxonasining yalpi daromadi korxonaga foydasi (zarari) va asosiy ishlab chiqarishdagi mehnat haqini (ajratmalari bilan birga) o'z ichiga oladi. U joriy baholardagi yalpi mahsulot va uni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar (mehnat haqi va ajratmalaridan tashqari) o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tannarxi bo'yicha yalpi mahsulot rejalashtirilayotgan yildagi mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlar uchun barcha xarajatlar, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining o'sishi (yoki kamayishi) va mahsulot sotish xarajatlarini o'z ichiga oladi:

o'simlikchilik bo'yicha – «O'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va tannarxi» 12-shakl ma'lumotlari (141-kod 15-grafani ikki marta hisobga olmasdan);

tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha – rejalashtirilayotgan yildagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining o'tgan yildagi xarajatlarga nisbatan o'sishi (№5-shakl, 24-kod, 13-grafadan o'tgan yildagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va 29-shakl, 23-kod, 11-grafa bo'yicha realizatsiya xarajatlari chegiriladi);

chorvachilik bo'yicha – 13-shakl «Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va tannarxi» (29-kod 11-grafa). Chorvachilik mahsulotlarini sotish xarajatlari-ning ko'payishi (kamayishi) hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi (29-shakl, 50-kod, 11-grafa);

sanoat mahsulotlari bo'yicha – 15-shakl «Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish» ma'lumotlari (12-grafa 44 va 47-kodlar bilan 29-shakl 53-kod 11-grafa summalari yig'indisi);

Chetga bajarilgan ish va xizmatlar bo'yicha – 14 va 29- shakllar, 52, 54- kodlar 11-grafa ma'lumotlari. Shuningdek, yalpi mahsulotga mahsulot, ish va xizmatlar sotishdan tushgan tushumning ushbu mahsulotlar tannarxidan oshishi (kamayishi) ham qo'shiladi. Bu ko'rsatkich №29-shakl ma'lumotlariga asosan hisoblab chiqariladi.

Moliyaviy qo'yilmalar (31-shakl). Ushbu shaklda korxonaga tomonidan milliy va chet el valutasida amalga oshirilgan uzoq muddatli (1, 2-grafa) va qisqa muddatli (3, 4 grafa) moliyaviy qo'yilmalar tarkibi ko'rsatiladi.

«Boshqa tashkilotlar pay va aksiyalari» satri bo'yicha korxonaning aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalariga, O'zbekiston hududidagi va undan tashqaridagi boshqa korxonalar ustav kapitaliga qo'yilishi rejalashtirilgan summalar aks ettiriladi. Fermer xo'jaliklari amaliyotda

ushbu jadvalda ko'pincha aksiyadorlik-tijorat banklaridan sotib olinadigan aksiyalarning nominal qiymati ko'rsatiladi.

Moliyaviy qo'yilmalar (ming so'm) (31-shakl)

Qo'yilmalar turi	Uzoq muddatli		Qisqa muddatli	
	yil boshiga	yil oxiriga	yil boshiga	yil oxiriga
A	1	2	3	4
Boshqa tashkilotlar pay va aksiyalari	21200,0	72350,2	-	-
Obligatsiyalar va boshqa uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	-	-
Berilgan qarzlilar	-	-	-	-
Jami	21200,0	72350,2	-	-

«Obligatsiyalar va boshqa uzoq muddatli majburiyatlar» satri bo'yicha rejadagi ko'zda tutilgan davlat qimmatli qog'ozlariga (obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlari) qilingan qo'yilmalar hamda shunga o'xshash boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rsatiladi.

Boshqa moliyaviy qo'yilmalar tarkibida korxonaning depozitdagi mablag'lari (jamg'arma sertifikat, bankdagi depozit schetlari va b.) va investitsiyalarning boshqa yo'nalishlari aks ettiriladi.

Rejalashtirilayotgan yil boshiga haqiqiy ma'lumotlar (1- va 2- chi grafalar oldingi yil uchun moliyaviy hisobotning tegishli ko'rsatkichlariga yoki dastlabki hisob-kitob ko'rsatkichlariga mos kelishi lozim. 2- va 4- grafalarda yil oxiriga rejalashtirilayotgan moliyaviy qo'yilmalar hajmi aks ettiriladi).

Mulklar va mahsulotlarni sug'urtalash (32-shakl). Qishloq xo'jalik korxonalarini mulklarini, qurilishlarini, qishloq xo'jalik mashinalari va qurilmalarini, transport vositalarini, chorva mollarini, ko'p yillik o'simliklarni va qishloq xo'jalik ekinlarining hosillarini tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoitlari, kasalliklar va shunga o'xshashlar oqibatida nobud bo'lish yoki zararlarni sug'urtalashlari mumkin.

№ 32 shaklda qishloq xo'jalik ekinlarini va ko'p yillik o'simliklarni, chorva mollari va parrandalarni, bino va inshootlarni sug'urtalash xarajatlari rejalashtiriladi. Agar korxonada boshqa sug'urta holatlari ko'zda tutilsa, u holda ular ushbu shaklga qo'shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Mahsulotlar va mulklarni sug'urtalash (32- shakl)

Mulklar va mahsulotlar	Mulklar va mahsulotlar qiymati, ming so'm	Sug'urta to'lovlari, ming so'm	
		hammasi	sh.j.: budget hisobidan
A	1	2	3
Qishloq xo'jalik ekinlari va ko'p yillik o'simliklar	51200,0	45000,0	15000,0
Mol va parrandalar	-	-	-
Bino va inshootlar	-	-	-
Tijorat risklari	-	-	-

Kreditlarga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi (34-shakl). Ushbu shaklda aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoj va ularning manbalar bo'yicha (kreditlar bilan birga) ta'minlanganligi aks ettiriladi. Ushbu hisob-kitobni bajarish uchun moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

1-kod, 1-grafa «Tovar-moddiy zaxiralar» bo'yicha korxonaning ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va tovarlar qiymati aks ettirilib, uning summasi 2011-yil uchun buxgalteriya balansi aktivining 140-kod, 4-grafasiga mos kelishi lozim.

2- kod, 1- grafa «debitorlik qarzlari» bo'yicha debitorlik qarzlarning harakati ko'rsatilib, uning summasi 2011-yil uchun buxgalteriya balansi 210-kod, 4-grafasiga mos kelishi lozim. yuqoridagi jadvalning 3chi kodi bo'yicha yil boshiga vujudga kelgan, muddati o'tgan debitorlik qarzlarni undirishni ko'zda tutish tavsiya etilgan. Ushbu qarz summasi yillik moliyaviy hisobot 2^a shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnoma»ning 1-satrida ko'rsatilgan summa (3-grafa 2 va 3-satrlar yig'indisi)ga mos kelishi lozim.

34 shaklning «Pul mablag'lari qoldig'i» 4-kod 1-grafasi bo'yicha yil boshiga ko'rsatilgan summa 2011-yil uchun buxgalteriya balansi 320-kod 4-grafasi summasiga mos kelishi lozim.

6-kod 1-grafa bo'yicha o'tgan yildagi o'z mablag'lari (yil boshiga) 5- kod 1- grafa bo'yicha ko'rsatilgan oborot aktivlar jami summasi bilan 1-grafa 8, 10, 13- kodlar bo'yicha aks ettirilgan ko'rsatkichlar summasining farqi sifatida aniqlanadi. Agar ushbu farq manfiy bo'lsa, aylanma aktivlar bilan ta'minlanmagan kreditorlik qarzining summasini (kreditlar va qarzlarni ham qo'shgan holda) bildiradi.

Kreditlarga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi, ming so'm (34-shakl)

Ko'rsatkichlar	kod	Rejalashtirilayotgan yilning:				Keyingi yilning 1-yanvariga	O'zgarishi, +, -
		1-yanvari	1-apreli	1-iyuli	1-oktabr		
A	B	1	2	3	4	5	6
I. Aylanma aktivlar	1						
Tovar moddiy zaxiralar		453100	481200	519900	472500	473500	+20400
Debitorlik qarzlari, jami	2	70000	78000	98000	65000	45000	-25000
shu jumladan, muddati o'tgan	3	30000	22000	16000	10000	14000	-16000
Pul mablag'lari qoldig'i	4	49000	60000	53000	40000	40000	-9000
Jami aylanma aktivlar	5	602100	641200	686900	587500	572500	-29600
II. Qoplash manbalari	6						
O'tgan yilgi o'z mablag'lari		560000	560000	560000	560000	560000	-
Rejalashtirilayotgan yildagi o'z mablag'lari	7	-	-	-	-	-	-
Kreditorlik qarzlari, jami	8	4210	5000	5000	3000	2000	-2210
shu jumladan, muddati o'tganlari	9	-	27	6	6	-	-
Kreditlar va qarzlari, shu jumladan:	10	37890	76200	121900	24500	10500	-27390
Muddati o'tganlari	11	-	-	-	-	-	-
Muddati uzaytirilganlari	12	-	-	-	-	-	-
Boshqa manbalar	13	-	-	-	-	-	-
Jami manbalar	14	602100	641200	686900	587500	572500	-29600
Uzoq muddatli investitsiyalar uchun olingan kreditlar va qarzlarning:							
a) ko'payishi (+, -)	15	-	+20000	+25000	+35000	+80000	+29200
b) qaytarilishi (-)		-	-	-30000	-20800	-50800	-
shu jumladan, lizing to'lovlari bo'yicha qarzdorlik va h.	16	-	-	-	-	-	-
	17	-	-	-	-	-	-

«Rejalashtirilayotgan yildagi o'z mablag'lari» 7-kod bo'yicha aylanma aktivlarni to'ldirish uchun foydadan ajratmalar, jamg'arma fondining qoldig'i, boshqa tashkilotlarning badallari, rezerv kapitalining qoldiqlari summasi ko'rsatilib, u № 33-shakl «Moliyaviy reja»ning 29-

kod 1,5,6,8-grafalari ko'rsat-kichlariga mos kelishi lozim. 34-shaklning 6-grafasi ma'lumotlari № 33-shaklning 19-grafasi 29, 33, 35-kodlari bo'yicha ko'rsatkichlari bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

8-kod 1-grafa bo'yicha 2011-yil uchun buxgalteriya balansi 770-satr 4-grafasi bo'yicha aks ettirilgan summa ko'rsatiladi.

9-kod 1-grafa bo'yicha yil boshiga vujudga kelgan, muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning qaytarilishi ko'zda tutiladi. Buning uchun yillik moliyaviy hisobot 2^a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzar haqida ma'lumotnoma»ning 3-grafasi 4-satri bo'yicha ko'rsatilgan kreditorlik qarzlarning jami summasi, 3-grafa 5- va 6-satrlardagi summalardan foydalaniladi.

10-kod 1-grafa «Kreditlar va qarzarlar» bo'yicha qisqa muddatli bank kreditlari va qarzar mablag'lar (muddati uzaytirilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha; boshqa korxonalaridan aylanma aktivlarga olingan qarzar mablag'lar bo'yicha) ushbu mablag'larni rejalashtirilayotgan yilda olish va moliyaviy majburiyatlarga muvofiq 2011-yilda qarzlarni qaytarish ehtimolini hisobga olgan holda aks ettiriladi. Bunda 1-grafa bo'yicha rejalashtirilayotgan yil boshiga muddati uzaytirilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha qarzdorlik summasi 2011-yil uchun buxgalteriya balansining 660-satri bo'yicha aks ettiriladigan ma'lumotlarga mos kelishi lozim.

11-kod bo'yicha yil boshiga vujudga kelgan qisqa muddatli kreditlar va qarzarlar bo'yicha muddati o'tgan qarzlarning qaytarilishi ko'zda tutilgan. Kreditlar va qarzar mablag'lari bo'yicha muddati o'tgan qarzar summalari 2011-yil moliyaviy hisobotining 2^a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzar haqida ma'lumot-noma»ning 3-grafasi 4-satri bo'yicha ko'rsatilgan kreditorlik qarzlarning jami summasi, 3-grafa 5- va 6-satrlardagi summalardan foydalaniladi.

15-kod 1-grafa «Uzoq muddatli investitsiyalar uchun kreditlar va qarzarlar» bo'yicha banklar va boshqa tashkilotlaridan olingan uzoq muddatli ssudalar, 16-kodga binoan lizing to'lovlari bo'yicha qarzdorlik summalari aks ettiriladi. Ushbu summalar 2011-yil uchun buxgalteriya balansini 510 va 520-satrlari bo'yicha ko'rsatiladi.

Kreditorlik qarzarlar (35-shakl). Ushbu shakl №34 «Kreditga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi» shaklini to'ldirish uchun yordamchi jadval hisoblanadi. Unda kreditorlik qarzlari alohida turlari bo'yicha harakati tafsiloti keltiriladi. Rejalashtirilayotgan yil boshiga kreditorlik qarzlarning strukturasi 2011-yil uchun buxgalteriya balansi 620-628-kodlar bo'yicha ma'lumotlarga mos kelishi lozim.

Rejalashtirilayotgan yilda qoplanadigan kreditorlik qarzlarning umumiy summasi (1 kod, 11-grafa) moliyaviy rejada (№33-shakl, 35-kod, 19-grafa va №34- shakl, 8-kod, 6-grafa) ko'rsatiladi.

Ichki xo'jalik bo'linmalari, vakolatxonalar, filiallar, sho'ba va tobe korxonalar daromadlari va xarajatlari balansi (36-shakl). Ushbu shaklni to'ldirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ichki xo'jalik munosabatlarining eng takomillashgan shakllarining o'zlashtirishga doir tadbirlarni faollashtirish maqsadida tavsiya etiladi.

Korxonada miqyosida faoliyat ko'rsatayotgan ichki xo'jalik munosabatlari boshqaruv shakllari bilan belgilanadi. Ichki xo'jalik hisob-kitobi shakllari xilma-xil bo'lib, ularni 3 ta asosiy turga bo'lish mumkin.

Xo'jalik hisobining birinchi tipida ichki xo'jalik bo'linmalariga ustun darajada operativ mustaqillik beriladi. Ular joriy reja xarajatlarning qoplanishi uchun mas'ul hisoblanadilar. Ish haqi fondini shakllantirish va sarflashda qoldiq prinsipi qo'llaniladi.

Ikkinchi tipda ichki xo'jalik bo'linmalari jamoasiga ishlab chiqarilgan mahsulotning bir qismini yoki hammasini tasarruf etish, tushumning bir qismini umumxo'jalik funksiyalarini bajarish uchun ajratganidan so'ng o'z daromadlari hisobiga kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni mustaqil yuritish huquqi beriladi. Bo'linmalar yuridik shaxs hisoblanmaydi va moliya-hisob markazi yoki buxgalteriyada joriy yoki shaxsiy schyotiga ega bo'ladi.

Kreditorlik qarzlari, ming so'm (35-shakl)

K o d	Ko'rsatkichlar	Rejalashtirilayotgan yil:												Keyingi yilning birinchi yanvari		Yil davomidagi o'zgarish	
		1-yanvar		1-aprel		1-iyul		1-oktabr		jami	sh.j. muddati o'tgan	jami	sh.j. muddati o'tgan	jami	sh.j. muddati o'tgan		
		jami	sh.j. muddati o'tgan	jami	sh.j. muddati o'tgan	jami	sh.j. muddati o'tgan	jami	sh.j. muddati o'tgan								
A		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12				
1	Kreditorlik qarzlari	50	-	50	27	50	6	30	6	20	-	-30	-				
2	sh.j: mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga	-	-	23	-	37	-	-	-	-	-	-	-				
3	Xodimlarga	32	-	20	20	10	5	20	5	-	-	-32	-				
4	Budjetdan tashqari maqsadli fondlarga	18	-	7	7	3	1	10	1	-	-	-18	-				
4a	sh.j: muddati uzaytirilgan	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-				
5	Budjetga	-	-	-	-	-	-	-	-	20	-	-	-				
6	sh.j: mahalliy budjetga	-	-	-	-	-	-	-	-	5	-	-	-				
7	Budjetga jami qarz summasidan: muddati uzaytirilgani	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-				
8	To'lanadigan vekselar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-				
9	Olingan avans	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-				
10	Sho'ba korxonalariga qarzi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-				
11	Boshqa kreditorlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-				

Ichki xo'jalik bo'linmalari, vakolatxonalar, filiallar, sho'ba va tobe korxonalarining daromadlari va xarajatlari balansi, ming so'm (36-shakl)

Moddalar	kod	Ichki xo'jalik bo'linmalari									
		A	B	1	2	3	4	5	6	7	8
I. Daromadlar											
Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushum	1		78000	92000	61000						
Realizatsiyadan tashqari operatsiyalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq (+, -)	2		+1500	+2100	-400						
Umumxo'jalik manbalaridan olingan tushum	3		10600	13500	-8400						
Jami daromad			90100	107600	69000						
II. Xarajatlar											
Mehnat haqi ajratmalari bilan birga	4		18000	21500	14000						
Materiallar	5		36000	42800	27000						
Amortizatsiya	6		8100	9600	6200						
Boshqa xarajatlar	7		7900	8800	6300						
Soliqlar va boshqa to'lovlar	8		4500	5400	3500						
Umumxo'jalik ehtiyojiga	9		6500	7700	4900						
Jami xarajatlar	10		71000	95800	61900						
III. Daromadlarning (xarajatlarning) xarajatlardan (daromadlardan) oshishi	11		9100	11800	7100						
I. Daromadlar											
Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushum	12		Vakolatxona va filiallar			Sho'ba va tobe korxonalar					
Realizatsiyadan tashqari operatsiyalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq (+, -)	13										
Umumxo'jalik manbalaridan olingan tushum	14										
Jami daromad											
II. Xarajatlar											
Mehnat haqi ajratmalari bilan birga	15										
Materiallar	16										
Amortizatsiya	17										
Boshqa xarajatlar	18										
Soliqlar va boshqa to'lovlar	19										
Umumxo'jalik ehtiyojiga	20										
Jami xarajatlar	21										
Daromadlarning (xarajatlarning) xarajatlardan (daromadlardan) oshishi	22										

Uchinchi, tadbirkorlik hisob-kitobi deb nomlanuvchi tip ko'proq to'la iqtisodiy mustaqillik bilan tavsiflanadi. Bo'linmalar korxonaning moliya-hisob markazida, ayrim hollarda bankda hisob-kitob schyotlariga ega bo'ladilar. Bunday bo'linmalar o'zlarining ichki ustavlariga asosan faoliyat ko'rsatadi va o'zaro munosabatlari shartnoma asosida tashkil

etadi. Ichki xo'jalik munosabatlarining yuqorida keltirilgan tiplari istalgan tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yuritishda qo'llanilishi mumkin.

№36-shaklning 1-grafasida mazkur korxonada faoliyat ko'rsatayotgan ichki xo'jalik bo'linmalarining mahsulot, tovar (ish va xizmat)larni sotishdan oladigan tushumlari aks ettiriladi.

2-grafada realizatsiyadan tashqari operatsiyalar natijalari, 3-grafada ichki kredit yoki boshqa qarz mablag'laridan tashqari, umumxo'jalik manbalaridan olinadigan rejadagi tushum ko'rsatiladi.

Xarajatlar tarkibida (4-9 kodlar) ish haqi ajratmalari bilan, moddiy texnika xarajatlar (qishloq xo'jalik korxonasi bo'yicha ko'rsatilgan umumiy xarajatlar tarkibi bo'yicha), asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi, yuqorida sanab o'tilgan xarajatlar tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlar.

9-kod bo'yicha korxonada qabul qilingan ichki xo'jalik munosabatlari to'g'risidagi qoidaga muvofiq belgilangan, umumxo'jalik ehtiyojlari uchun ajratmalar rejalashtiriladi.

11-kod bo'yicha bo'linmalar faoliyatining rejalashtirilgan yakuniy iqtisodiy natijasi 1, 2, 3-kodlar va 10-kod o'rtasidagi farq sifatida («+» yoki «-» belgi bilan) aks ettiriladi.

Agar korxonada ichki xo'jalik munosabatlarining boshqa tizimi qo'llanilsa, u holda ushbu shaklga tegishli aniqliklar kiritiladi.

Moliyaviy reja (daromadlar va xarajatlar balansi) (33-shakl).

Ushbu shaklda pul mablag'lari tushumining barcha manbalari va sarflanishi aks ettiriladi.

«A» grafasida pul mablag'lari sarfining barcha turlari ko'rsatilgan. Budjetga to'lovlar 1-13-kodlar bo'yicha aks ettiriladi. 1-grafa bo'yicha soliq qonunchiligiga muvofiq foyda solig'i (2-kod) ko'rsatiladi.

7-grafa «Tannarxdan ajratmalar» bo'yicha mahsulotlar tannarxiga olib boriladigan soliqlar: tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar (6-kod); avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun soliq (7-kod); transport egalariidan soliq (8-kod); jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq (9-kod); yer solig'i (11-kod).

«Boshqa daromadlar» 9-grafasi bo'yicha tushum hisobiga olib boriladigan soliqlar ko'rsatiladi: qo'shilgan qiymat solig'i (3-kod); aksiz (4-kod); sotishdan soliq (5-kod) va moliyaviy natijalarga olib boriladigan mulk solig'i (10-kod).

13-kod bo'yicha 1-12-kodlar bo'yicha ko'zda tutilmagan soliqlar aks ettiriladi. Ularning summasi 1, 7, 9 (tushum, foyda, tannarx hisobidan) ko'rsatiladi.

Uzoq muddatli investitsiyalar (25-kod) hamda kapital qo'yilmalar (26-kod) hajmi korxonada mavjud o'z mablag'lari, budjetdan ajratilgan assignavaniyalar, uzoq muddatli kreditlar (1-8-grafalar va 8-14-grafalar) dan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

27- «Asosiy poda tuzish» kodi bo'yicha (9-grafa) asosiy podadan brak qilin-gan hayvonlar qiymati hajmida, asosiy poda tuzishga yo'naltirilgan aylanma mab-lag'lar ko'rsatiladi.

Asosiy faoliyat hamda kapital qo'yilmalarga taalluqli aylanma mablag'larni qo'shimcha o'sishi (o'ziniki va qarz) 29-kod bo'yicha ko'rsatiladi. Qo'shimcha o'sishning umumiy summasi №34-shakl (5-kod, 6-grafa) ma'lumotlariga teng bo'lishi lozim. Aylanma mablag'lar qo'shimcha o'sishining manbalari bo'lib, 33-shaklning 1, 5, 6, 8, 9, 10, 11, 13, 14-grafalarda aks ettirilgan mablag'lar bo'lishi mumkin. Bunda ushbu mablag'larning summasi 34-shaklning 6-grafasi bo'yicha manbalarga mos kelishi lozim.

30-kod bo'yicha uy-joy kommunal xo'jaligi, bolalar muassasalari va ijtimoiy madaniy tadbirlarga doir boshqa xarajatlar ko'rsatilib, ular ulush badallari (8-grafa), boshqa daromadlar (9-grafa) hamda davlat budjetidan ajratilgan assignovaniyalar (13, 14-grafalar).

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan zararlar (31-kod) foyda (1-grafa), jamg'arma fondining ishlatilmagan qoldig'i (5-grafa) va boshqa manbalar (9-grafa) hisobidan qoplanishi mumkin.

Daromadlarning turlari bo'yicha yillik summasi xarajatlarning tegishli moddalari bo'yicha (44-kod) taqsimlanadi.

Shuningdek, foyda hisobidan 1-grafa bo'yicha rezerv kapitaliga ajratma (32-kod); kreditlar va qarzlarni qaytarish (33-kod); kreditorlik qarzlarini so'ndirish (35-kod) va dividendlar to'lash (37-kod) ham rejalashtiriladi.

2-grafada rejalashtirilayotgan yilda investitsiya qilish uchun mo'ljallangan amortizatsiya hisoblash ko'rsatiladi (26-kod). Rejalashtirilayotgan yilda ishlatilmagan amortizatsiya qoldig'i 43-kod bo'yicha ko'rsatiladi. Ushbu grafa bo'yicha ma'lumotlar №17 «Amortizatsiya ajratmalari va ta'mirlash xarajatlari» shaklining ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

Moliyaviy reja (daromadlar va xarajatlar balansi), ming so'm (33-shakl)

Ko'rsatkichlar	kod	Soliqqa tortilgunga ha foyda	Amortizatsiya	Kredit qarzni o'sishi	Aylanma aktivlar -ning qisqarishi	Foydalanilgan jamg'ar -ma fondi	Rezerv kapitalining qoldig'i	Tanraxdan ajratma	Ulushadallari	Boshqadaromadlar
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Budjetga to'lovlar, jami	1.	52	X	X	X	X	X	-	X	-
Foyda solig'i	2.	52	X	X	X	X	X	X	X	X
Qo'shilgan qiymat solig'i	3.	X	X	X	X	X	X	X	X	-
Aksiz solig'i	4.	X	X	X	X	X	X	X	X	-
Sotishdan soliq	5.	X	X	X	X	X	X	X	X	-
Tabiiy resurslardan foydalanilganlik uchun to'lovlar	6.	-	X	X	X	X	X	-	X	X
Avtomobil yo'llaridan foydalanilganlik uchun soliq	7.	X	X	X	X	X	X	6000	X	X
Transport vositalari egalardan soliq	8.	X	X	X	X	X	X	2100	X	X
Jismoniy shaxslar daromadidan soliq	9.	X	X	X	X	X	X	-	X	X
Mulk solig'i	0.	X	X	X	X	X	X	X	X	-
Yer solig'i	1.	X	X	X	X	X	X	200000	X	X
	2.	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Boshqa soliqlar shi:	3.	-	X	X	X	X	X	-	X	-
	4.	-	X	X	X	X	X	-	X	-
	5.	-	X	X	X	X	X	-	X	-
	6.	-	X	X	X	X	X	-	X	-
	7.	-	X	X	X	X	X	-	X	-

8.	-	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	-	X	-	X	-
Yagona ijtimoiy soliq	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	68000	X	X	X	X
sh j: pensiya fondi	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	51500	X	X	X	X
Ijtimoiy sug'urta fondi	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	9900	X	X	X	X
Majburiy tibbiy sug'urta	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	6600	X	X	X	X
QQS ni qoplash	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X
Davlat tomonidan qo'llab- quvvatlangan hosilni sug'urtalash badallari	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	50	X	X	X	X
Uzoq muddatli investitsiyalar va moliyaviy investitsiyalar	-	192400	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	X	-	-	-	-
Shundan: kapital qo'yilmalar	-	192400	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	X	-	-	-	-
Asosiy poda tuzish	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	X	X	-	-	-
Operatsiyaon xarajatlilar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Aylanma aktivlar o'sishi	13300,2	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	-	-	-	34200
JKX va bolalar muassasalarini saqlashdan zararlar	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	-	-	-	-
Asosiy faoliyat zarari	-	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	-
Rezerv kapitaliga ajratma	8300	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	21600	X	X	X	X
Kreditlar va qarzlarni qaytarish (tovar kreditlar va muddatli uzaytirilgan ssudalar ham)	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
sh j: uzoq muddatli investitsiyalar uchun olingan kreditlar va qarzlilar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	X	-	-	-	-
Qisqa muddatli qarzlarni qoplash	-	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	-	-	-	-	-
Foizlarni to'lash	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	13000	x	x	x	-
Dividendlar to'lash	5600	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	20	X	X
Mablag'larning mavsumiy yetishmasligini qoplash	-	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	-	-	-	-

Dotatsiya, kompensatsiya va subsidiyalar	9.	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X
sh j: moliyaviy natijaga olib boriladigan dotatsiya va kompensatsiyalar	0.	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X
Boshqalar	1.	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X
ITI ga ajratmalar	2.	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	48	-	-
Rejalashtirilayotgan yil oxiriga mablag'lar qoldig'i	3.	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	X	-
Jami yillik	4.	32400,2	192400	-	-	21600	2000	293900	-	-	-	-	-	34200
sh j: I chorak	5.	1000	42000	-	-	-	-	17900	-	-	-	-	-	11500
II chorak	6.	2100	48100	-	-	-	-	26800	-	-	-	-	-	9700
III chorak	7.	6100	50200	-	-	-	-	128100	-	-	-	-	-	13000
IV chorak	8.	23200,2	52100	-	-	21600	2000	121100	-	-	-	-	-	-

Ko'rsatkichlar	ko	Qarz mablag'	Bank krediti	Yer uchun to'lov	Assignovniya		QQS ni qoplash	Byud. vash. foudlar	O'z mablag'lar foudi	jami	shu jumladan choraklar bo'yicha				
					Dev. byud.	Ma x. byud					I	II	III	IV	
A	B	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23
Budjetga to'lovlar, jami	1.	x	x	x	x	x	x	x	-	-	5200	1000	2100	1100	1000
Foyda solig'i	2.	x	x	x	x	x	x	x	-	-	5200	1000	2100	1100	1000
Qo'shilgan g'ymat solig'i	3.	x	x	x	x	x	x	x	-	-	-	-	-	-	-
Alariz solig'i	4.	x	x	x	x	x	x	x	-	-	-	-	-	-	-
Sotibdan solig'	5.	x	x	x	x	x	x	x	-	-	-	-	-	-	-
Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar	6.	x	x	x	x	x	x	x	-	-	-	-	-	-	-
Avtomobil yo'llaridan foydalanganlik uchun soliq	7.	x	x	x	x	x	x	x	-	-	6000	1400	1500	2200	900
Transport vositalari egalaridan	8.	x	x	x	x	x	x	x	-	-	2100	-	-	-	2100

Jamg'arma fondining ishlatilmagan qoldiqlari 5-grafa bo'yicha rejalash-tirilayotgan yil tadbirlari uchun yo'naltirilishi mumkin. Xo'jalikda yil boshiga mavjud bo'lgan rezerv kapitalining qoldig'i (44-kod, 6-grafa) ham ushbu maqsadlarga ishlatilishi mumkin.

10-«Qarz mablag'lar» grafasida boshqa tashkilot va korxonalaridan lizingga olingan texnika va boshqa mulklar qiymati, qarz mablag'lar aks ettiriladi. Ushbu mablag'lar ularning tayinlanishiga muvofiq (kapital qo'yilmalr va boshqalar) kodlar bo'yicha taqsimlanadi.

11-«Bank kreditlari» grafasida rejalashtirilayotgan yilda olinadigan uzoq muddatli va qisqa muddatli bank ssudalari aks ettiriladi. 25-kod bo'yicha investitsiya uchun olingan uzoq muddatli kreditlar, 29-kod bo'yicha esa aylanma aktivlarning qo'shimcha o'sishiga olingan ssudalar ko'rsatiladi.

Davlat budjetidan ajratiladigan assignovaniyalar 13-grafada va mahalliy budjetdan ajratiladiganlari 14-grafadan ko'rsatiladi.

39, 40 va 41-kodlar quyidagilarni birlashtiradi: chorvachilik mahsulotlari uchun budjet hisobidan beriladigan dotatsiyalar, kompensatsiyalar va subsidiyalar, moliyaviy natijalarga olib boriladigan va budjet hisobidan amalga oshiriladigan hamda boshqa kodlar bo'yicha aks ettirilmaydigan, boshqa dotatsiya va kompensatsiyalar.

9.3. Moliya xizmatining nazorat-tahlil va tezkor tadbirlari

Hozirgi vaqtda korxonaning moliyaviy barqarorligi nafaqat uning ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishini, xodimlarning moddiy ahvolini, balki inqirozga uchrashning oldini oladigan muhim omil hisoblanadi. Korxonani kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zarur resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlash maqsadida, butun xo'jalik, uning bo'linmalari va alohida tadbirlar bo'yicha tezkor moliyaviy reja yoki to'lov taqvimini (bir oylik, yarim oylik, o'n kunlik yoki besh kunlik) tuzish zarur (37-shakl). Tezkor moliyaviy reja navbatdagi oy kelishidan oldin tuziladi. Unda o'z mablag'lari va qarz mablag'larining umumiy harakati (kirimi va chiqimi) aks ettiriladi, «Moliyaviy reja» yig'ma jadvalining tegishli ko'rsatkichlariga aniqlik kiritiladi. Belgilangan topshiriqlar rejaning haqiqatda bajarilishi bilan bog'lanadi. Bu to'lovlarni tartibga soladi, mavjud mablag'lar va xarajatlar o'rtasida vujudga keladigan nomuvofiqliklarni bartaraf etadi.

Tezkor moliyaviy rejalashtirish yillik va choraklik rejalar hamda boshqa reja hujjatlariga asoslanadi. Tezkor moliyaviy rejalar ishlab

chiqarish faoliyatini uzluksizligini ishlovchilar, budget va budgetdan tashqari fondlar hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar oldidagi majburiyatlarni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Unda korxonaning bankdagi schotlari va kassasiga pul mablag'lari kirimi hamda kelgusidagi to'lovlar va xarajatlar ko'zda tutiladi. Bu taxmin qili-nayotgan pul mablag'lari kirimi va sarflanishini muvofiqlashtirish, har bir aniq muayyan sanaga to'lov qobiliyatini ta'minlashga imkon yaratadi.

«Mehnat» agrofirmasida 2012-yilning iyul oyiga tezkor mollyaviy reja, ming so'm (37-shakl)

r	Ko'rsatkichlar	Oylik jami	sh.j.: choraklar bo'yicha			
			I	II	III	IV
	Xarajatlar					
1	Ish haqi	8600,5	4000,5	4600,2		4000,5
2	Pensiya fondi,yagona ijtimoiy to'lov fondi va tibiy sug'urta fondiga	3000,8	1400,4	1600,4		1400,4
3	Materiallar va xizmatlar	29600,2	9100,9	11800	8600,3	9100,9
4	Budjetga to'lovlar					
5	Sug'urta to'lovlarini o'tkazish					
6	Kapital qo'yilmalarga badallar	9000,0	3000,0	3000,0	3000,0	3000,0
	sh.j:o'z mablag'lari	9000,0	3000,0	3000,0	3000,0	3000,0
7	Boshqa pul xarajatlari	500,8	200,0	100,9	100,9	200,0
8	JAMI (1 satr + 2 satr + 3 satr + 4 satr + 5 satr + 6 satr + 7 satr)	51200,3	17800,6	21500,5	11800,2	17800,6
9	Bank ssudalarini qaytarish, jami shu jumladan: muddati o'tgan uzoq muddatli qisqa muddatli	- 2000,0 -	- - -	- - -	- 2000,0 -	- - -
10	Jami xarajatlar (8 satr +9 satr)	53200,3	17800,6	21500,5	13800,2	
11	Mahsulot va xizmat realizatsiyasidan tushum	28000,0	5000,0	10000,0	13000,0	
12	Kvartira haqi	300,0	300,0			
13	Ijara haqi	5400,0	5400,0			
14	Jami (11 satr+12 satr+13 satr)	33700,0	10700,0	10000,0	13000,0	
15	Qisqa muddatli ssudalar (10 satr -15 satr)	19500,3	7100,6	11500,5	800,2	
16	Jami tushumlar (15 satr +16 satr)	53200,3	17800,6	21500,5	13800,2	

Ish haqiga sarflanadigan mablag'larni tezkor rejalashtirishda kelgusi davr to'lovlari summasida o'tgan yilning tegishli oyidagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda sodir bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olish ko'zda tutiladi. Budjetdan tashqari fondlarga to'lovlar belgilangan foizlarda, ta'til uchun hisob-kitoblar esa grafik asosida rejalashtiriladi. Kasallik varaqasi uchun to'lov summasi o'tgan yilning tegishli davridagi ma'lumotlar bo'yicha ishlovchilar sonining o'zgarishini hisobga olgan holda aniqlanadi.


Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga materiallar va xizmatlar uchun pul o'tkazish ular bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq rejalashtiriladi. Budjetga to'lovlar haqiqatdagi summalarda, uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarni qaytarish esa shartnomadagi majburiyatlar bo'yicha hisobga olinadi.

Sotishdan olinadigan pul kirimlari xaridorlar va buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish grafigi bo'yicha aniqlanadi.

Moliyaviy reja bajarilishining muhim sharti uning ko'rsatkichlarini nazorat qilish hisoblanadi. Qoniqarsiz moliyaviy ko'rsatkichlar ishlab chiqarish dasturlarining bajarilmayotganligi yoki hisob-kitob va kredit berish ishlaridagi xatokamchiliklardan dalolat beradi.

Mablag'larning tejalishi va to'g'ri sarflanishini, daromadlar va yig'implarning to'liq tushumini nazorat qilish zarur. Shuningdek, quyidagilar ustidan maxsus nazorat o'rnatilishi lozim:

- mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish, mablag'larni tejab sarflash va foyda rejasining bajarilishi;
- bank kreditlarining o'z vaqtida olinishi va belgilangan muddatlarda qaytarilishi;
- mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish;
- kapital qo'yimlarni moliyalashtirish uchun mablag'larning o'tkazilishi va ularning ishlatilishi;
- o'z aylanma aktivlarining ahvoli, tovar-moddiy qiymatliklar, mashina va qurilmalarning oshiqcha hamda keraksiz zaxiralari vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik;
- asosiy ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish.



9.3-rasm. Agrar korxonaning moliyaviy rejasini tuzish tartibi.

Foyda rejasining bajarilishini tekshirishga katta e'tibor berish zarur. Bunda oylik hisobotlarda foyda sotilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi bo'yicha hisob-kitob qilinishini e'tiborda tutish lozim. Shuning uchun yil davomida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish va mahsulot olish rejasining bajarilishini nazorat qilib borish zarur. Qisqa muddatli kreditlarga bo'lgan ehtiyojning reja ko'rsatkichlari balans ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash, asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan mablag'lar tushumi tekshiriladi va reja ko'rsatkichlari bilan taq-qoslanadi. Moliyaviy rejaning bajarilishi 9 oylik ma'lumotlar asosida batafsilroq tahlil qilinadi. Sababi bu vaqtga kelib, ko'pchilik fermer xo'jaliklarida hosil yig'ishtirilayotgan va mahsulotlar ishlab chiqarish uchun asosiy xarajatlar qilingan bo'ladi. Bularning barchasi kutilayotgan moliyaviy natijalarni hamda o'z aylanma aktivlarining oshiqchaligi yoki yetishmasligini ishonchliroq prognoz qilishga imkon beradi. Ayni vaqtda hali yil oxirigacha mablag'larni tejash va daromadlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha tadbirlarni belgilash hamda amalga oshirishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi(9.3-rasm).

Nazorat savollari

1. Agrar korxonalarda moliyaviy resurslarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Moliyaviy rejalashtirish qanday tamoyillar asosida amalga oshiriladi?
3. Moliyaviy rejalashtirish biznes-reja tuzish tizimida qanday xususiyatlarga ega?
4. Moliyaviy rejalashtirishning metodlari qanday?
5. Agrar korxonalarda mahsulot sotish natijalari va pul kirimlari qanday hisob-kitob qilinadi?
6. Mahsulotlar va mulklarni sug'urtalash xarajatlari qanday rejalashtiriladi?
7. Agrar korxonalarda kreditlarga bo'lgan talab qanday hisob-kitob qilinadi?
8. Agrar korxonalarining bo'linmalari bo'yicha daromadlar va xarajatlar balansi qanday tuziladi?
9. O'zingiz shartli ravishda korxonaning moliyaviy rejasi (daromadlar va xarajatlar balansi)ni tuzing?
10. Agrar korxonada moliya xizmatining nazorat-tahlil va tezkor ishlari to'g'risida qanday tushunchaga egasiz?

Nazorat testlari

1. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy tamoyillari:

- A) o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, rejalashtirish va rezervlar tashkil etish.
- B) moddiy manfaatdorlik va javobgarlik, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va moliya intizomiga rioya qilish.
- C) birlik, uzluksizlik, moslashuvchanlik, aniqlik, ishtirok etish.
- D) moddiy manfaatdorlik, rezerv fondlari tashkil etish, xo'jalik jihatdan mus-taqillik, o'zini- o'zi mablag' bilan ta'minlash.
- E) tijorat hisobi, rejalashtirish, rezerv fondlari tashkil etish, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash, moddiy manfaatdorlik.

2. Moliyaviy ko'rsatkichlarni rejalashtirish usullari qanday?

- A) me'yoriy usul, inventarizatsiya usuli.
- B) me'yoriy, hisob-kitob tahlil, maqbullashtirish, balans.
- C) balans metodi, indikativ metod, logistik metod.
- D) kalkulyatsiya metodi, hisob-kitob metodi, koeffitsiyentli metod.
- E) «Sof tushumdan foiz» metodi, induksiya va deduksiya metodlari.

3. Moliyaviy rejalashtirishning mazmuni nlmadan iborat?

- A) korxonaxarajatlarini rejalashtirish.
- B) asosiy faoliyat daromadlarini rejalashtirish.
- C) yakuniy moliyaviy natijani rejalashtirish.
- D) sof foydani taqsimlashni rejalashtirish
- E) biznes-reja tuzishning yakuniy bosqichi bo'lib, uning asosini mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuziladigan shartnomalar tashkil etadi.

4. Moliyaviy rejalashtirishning qanday turlari mavjud?

- A) Choraklik, yarim yillik va yillik moliyaviy rejalashtirish.
- B) Normativ, hisob-kitob, optimallashtirish, balanslashtirish.
- S) Dekadalik, oylik, choraklik va yillik.
- D) Aniq moliyaviy rejalashtirish, taxminiy moliyaviy rejalashtirish.
- E) Strategik moliyaviy rejalashtirish, joriy moliyaviy rejalashtirish.

5. Moliyaviy prognozlarni amalga oshirish metodlari qanday?

- A) soliqlarni prognozlash, daromadlarni prognozlash.
- B) ekonometrik model tuzish, korrelatsion regression tahlil, bevosita ekspert baholash.
- C) balans metodi, indikativ metod, logistik metod.
- D) kalkulyatsiya metodi, hisob-kitob metodi, koeffitsiyentli metod.
- E) «Sof tushumdan foiz» metodi, induksiya va deduksiya metodlari.

III BO'LIM. UY XO'JALIKLARI MOLIIYASI

X bob. UY XO'JALIKLARI MOLIIYASI

*Oila tabiatning shoh
asarlaridan biridir.*

J. Santayana

«Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi»ning 16-moddasi 3-qismiga muvofiq «*Oila jamiyatning tabiiy va asosiy boshlang'ich hujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir*». Ushbu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida to'la-to'kis o'z aksini topib, unga ko'ra «*Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega*»⁶⁶.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan 2011-yil 7-dekabrda qabul qilingan 2012-yil «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilingan edi. Bu borada qabul qilingan Davlat dasturiga muvofiq 2012-yilda el-yurt farovonligi yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, 2012-yil 8-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida» qonun qabul qilinib, 23-martda Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullandi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov 2012-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan marosimda «Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish–bizning bosh maqsadimizdir» ma'ruzasida 2013-yilni «Obod turmush yili» deb e'lon qilishni taklif etdilar.

Oila mustahkam va turmush obod bo'lishida moliyaviy-iqtisodiy ta'minlanganlik ham muhim omil hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda mustaqillik yillarida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mazkur risolada oilaviy xo'jalikning moliya tizimidagi muhim bo'g'in sifatidagi moliyaviy-iqtisodiy ta'minoti mustahkamlanishi, hayot sifatining yaxshilanishi va turmush obodonchiligi rivojlanishi bayon qilingan.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2008, -B 13.

10.1. Oilaviy xo'jaliklar moliyasining Ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari

So'nggi yillarda ilmiy nashrlar va boshqa iqtisodiy adabiyotlarda «uy xo'jaligi», «xonadon xo'jaligi», «oila xo'jaligi» va «oilaviy tadbirkorlik» tushunchalari ko'plab uchramoqda.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida «Oila – nikohga yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan.»⁶⁷ deb ta'riflangan.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa «Oila [arabcha – bola-chaqa, xonadon; urug', avlod] 1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon»⁶⁸ deb ta'rif berilgan. .

Shuningdek, ushbu manbada xonadon tushunchasi quyidagicha izohlangan: «Xonadon [forscha – oila, sulola, nasl;] 1. Oila. 2. Oila a'zolari yashab turgan xo'jalik uy, hovli»⁶⁹ .

Xo'jalik tushunchasi esa O'zbekiston milliy ensiklopediyasida «Kishilar tomonidan o'z yashash sharoitlari va manbalarini yaratish, saqlash va yaxshilashda foydalaniladigan tabiiy va inson qo'li bilan yaratilgan vositalar majmui»⁷⁰ deb ta'riflangan.

Ushbu risolada atamalarning etimologik, etnografik, lug'aviy va boshqa jihatlariga chuqurlashmasdan, yakka va so'nggi fikrga da'vogarlik qilmagan holda, «oilaviy xo'jalik» atamasini qo'llashni ma'qul topdik hamda uni moliya tizimining muhim bo'g'ini sifatidagi ayrim xususiyatlarini tavsifladik.

Oilaviy xo'jalik moliyasi – bu oilaviy xo'jalikning ayrim a'zolari tomonidan o'z faoliyati jarayonida hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida pul fondlarini yaratish, taqsimlash va foydalanishni amalga oshirishga doir pul munosabatlari.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi va pul oqimlari kuchayishi sharoitida oilaviy xo'jaliklar moliyasi moliya tizimining mustaqil bo'g'ini sifatida ajratilib, xo'jalik subyektlari moliyasi sohasiga

⁶⁷ Uzbekiston milliy ensiklopediyasi . 6-jild. –T.: «Uzbekiston milliy ensiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. -B 469.

⁶⁸ Uzbek tilining izohli lug'ati. J III. –T.: «Uzbekiston milliy ensiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B 97.

⁶⁹ Uzbek tilining izohli lug'ati. J IV. –T.: «Uzbekiston milliy ensiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -B 411.

⁷⁰ Uzbekiston milliy ensiklopediyasi . 9-jild. –T.: «Uzbekiston milliy ensiklopediyasi», Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. - B 534.

kiritilgan. Bu hozirgi vaqtda oilaviy xo'jaliklarning o'sib boruvchi iqtisodiy roli va ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi.

Iqtisodiyot nazariyasida oila xo'jaligi deyilganda, birgalikda yashaydigan va umumiy budjetga ega bo'lgan, bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan yuritiladigan xo'jalik tushuniladi. Oilaviy xo'jalik ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan va band bo'lmagan barcha yollanma ishchilarni, yirik va mayda kapital hamda qimmatli qog'ozlarning egalarini birlashtiradi.

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida oilaviy xo'jaliklar moliyasi kapitalning doiraviy aylanishida faol ishtirok etadi va ishlab chiqarish jarayonining bir qismini o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda oilaviy xo'jaliklar yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning yaratilishi, dastlabki taqsimoti va sarflanishida muhim ahamiyat kasb etib, tijorat korxonolari va tashkilotlarining moliyasi kabi jami moliyaviy munosabatlarda alohida o'rin egallamoqda va moliya tizimining ustuvor bo'g'iniga aylanmoqda.

Oilaviy xo'jaliklar moliyasi iqtisodiy munosabatlar subyekti hisoblanadi. Oilaviy xo'jalik a'zolari tovar ishlab chiqarish va har xil xizmatlarni ko'rsatish chog'ida bozorda mazkur mahsulotlarning nafaqat sotuvchilari sifatida namoyon bo'ladi, balki ayni vaqtda ularning asosiy iste'molchilari ham bo'lib hisoblanadi. Demak, oilaviy xo'jaliklar iqtisodiy munosabatlarning muhim subyektlariga va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzulmasi birlamchi elementiga aylanadi. Oilaviy xo'jaliklar iqtisodiyot subyekti bo'lib, tijorat korxonolari va davlat bilan bir qatorda makrodarajada kechayotgan barcha jarayonlarda ham ishtirok etadi. Nafaqat alohida olingan xo'jalik birligining, balki butun mamlakat aholisining farovonligi oilaviy xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining natijalariga bog'liqdir.

Oilaviy xo'jaliklar mamlakat iqtisodiyoti bilan uzviy aloqadorlikda va bog'liqlikda bo'ladi hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga bog'liqdir. Iqtisodiy munosabatlardagi har qanday o'zgarishlar ularning faoliyatida ham o'z aksini topadi. Umum-iqtisodiy o'sish oilalarning moddiy ahvoli yaxshilanishiga olib kelib, ma'lum darajada ularning faoliyatini susaytirishi mumkin. Umum-iqtisodiy ahvolning pasayishi esa oila o'zining oldingi turmush sharoitini saqlab qolishi uchun faoliyatini kuchaytirishiga olib keladi.

Oilaviy xo'jaliklar moliyasining vujudga kelishi, umuman, moliya kabi, ishlab chiqarish jarayonining ikkinchi bosqichida – yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlash jarayonida sodir bo'ladi.


Oilaviy xo'jalik a'zolari dastlabki taqsimotda ishtirok etadilar. Chunki ular ish kuchining egasi bo'lib, korxonada mehnat haqi yoki yakka tadbirkorlikdan olinadigan daromad shaklida birlamchi daromad oladilar. Davlatga soliqlar to'lash bilan, ular budjet va budjetdan tashqari fondlardan nafaqa va transfert to'lovlari olish huquqlariga ega. Shunday qilib, oilaviy xo'jaliklar yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi, ya'ni ikkilamchi daromad olish huquqiga ham ega.

Oilaviy xo'jaliklar moliyasi ham moliya tizimining boshqa elementlari kabi pul shaklida namoyon bo'ladi. Bozor munosabatlari sharoitida oila xo'jaligi a'zolari har xil turdagi daromadlarni (mehnat haqi, tadbirkorlik daromadi, pensiya, stipendiya va h.) pul shaklida (milliy valuta, chet el valutasini, veksel va h.) oladilar, hatto natural daromadlar ham pul shaklida baholanadi.

Daromadlarining sarflanishi ham pul shaklida sodir bo'ladi. Oila xo'jaligi a'zolarida yuzaga keladigan pul munosabatlari moliyaviy munosabatlarga aylanib, pul fondlari barpo bo'ladi va sarflanadi.

Oilaviy xo'jaliklarning ichki va tashqi pul-moliya munosabatlarini bir-biridan farq qilmoq kerak. Zaxira fondi va tovarlar sotib olish kabi xarajatlar uchun belgilangan oilaning turli fondlarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlar ichki moliyaviy munosabatlarga, yuridik shaxslar va davlat bilan bo'ladigan pul munosabatlar tashqi moliyaviy munosabatlarga kiradi.

Oilaviy xo'jaliklar moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning funksi-yalarida namoyon bo'ladi (10.1-rasm).



10.1-rasm. Oilaviy xo'jaliklar moliyasining funksiyalari.

Oilaning turmush ehtiyojlarini ta'minlash funksiyasi oilaviy xo'jaliklar moliyasining qadimiy va asosiy funksiyasidir. Ushbu funksiya yordamida oila a'zolarining yashashlari uchun real shart-

sharoitlar yaratiladi. Bozor munosabatlarining iivojlanishi mazkur funksiyaning namoyon bo'lish shakliga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Natural xo'jalik sharoitida oila xo'jaligi a'zolari tomonidan yaratiladigan mahsulotlar ularning ehtiyojlarini qondirib, ortiqchasi ayirboshlangan.

Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi va keyinchalik esa bozor iqtisodiyotining rivojlanishi:

1) oilalarning moddiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa ehtiyojlari kengayishiga;

2) oilaviy xo'jaliklarning pul mablag'lari tashkil bo'lishi va ko'payishiga;

3) moddiy ne'matlar bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan pul jamg'ar-malarining, ya'ni oila budjetining vujudga kelishiga olib keldi.

Oilaviy xo'jaliklar moliyasining *taqsimot funksiyasi* yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlash hamda har xil jamg'armalar shaklida namoyon bo'ladigan oila daromadlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Oilaviy xo'jaliklar moliyasi tomonidan amalga oshiriladigan taqsimot jarayoni quyidagicha sodir bo'ladi:

1) mazkur xo'jalik bilan boshqa sohalar va moliya tizimining bo'g'inlari (davlat moliyasi - budjetlar, budjetdan tashqari jamg'armalar hamda korxonalar moliyasi) o'rtasida sodir bo'ladigan taqsimot. Natijada, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ish haqi, pensiya, stipendiya va boshqalar ko'rinishidagi birlamchi va ikkilamchi daromadlar vujudga keladi;

2) alohida oilaviy xo'jalik ichida oilaning umumiy daromadi uning a'zolari o'rtasida taqsimlanganida, ulardan har birining pul jamg'armalari tashkil bo'ladi. Oila xo'jaligi ichida mablag'larning taqsimlanishi mulk egasini o'zgartirmaydi va har qanday ekvivalentlikni buzmaydi.

Ushbu funksiya ketma-ket uch bosqichdan iborat: pul jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va sarflashda namoyon bo'ladi.

Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda mazkur ikkita funksiyadan tashqari, olingan daromadlarni har xil fondlarga taqsimlash va bu fondlar mablag'larining belgilangan maqsadlar uchun sarflanishi ustidan nazorat o'rnatilishini ta'minlovchi, *nazorat funksiyasi*, oilaviy xo'jaliklarning bir butun balanslangan holda rivojlanishini ta'minlaydigan, *tartibga solish funksiyasi* ham ajratilib ko'rsatilmoqda. Lekin, ushbu funksiyalarni tartibga solish funksiyasining tarkibiy qismi

deb qarash mumkin. Chunki u tartibga solishni ham, nazorat qilishni ham nazarda tutadi.


Shunday qilib, oilaviy xo'jaliklar moliyasi mamlakatimiz moliya tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Moliya tizimidagi barcha kategoriyalar, bo'g'inlar va sferalar bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi hamda moliyaning barcha funk-siyalarini o'zida mujassamlashtiradi. Oilaviy xo'jaliklar moliyasining barcha funk-siyalari o'zaro aloqadorlikda va bir-birini to'ldirgan holda, bir vaqtda amalda bo'ladi.

10.2. Oilaviy xo'jaliklarning moliyaviy resurslari va oila budjeti

Oilaviy xo'jalik a'zolarining ishlab chiqarish faoliyati jamiyat milliy daromadining bir qismi bo'lgan pul jamg'armalarini yaratadi, u aniq oila mulki hisoblanadi va uning tasarrufida bo'ladi.

Oilaviy xo'jaliklarning fondlari asosan pul shaklida bo'lib, ularning moliyaviy resurslarini tashkil qiladi (oilaviy xo'jaliklarning ixtiyoridagi resurslar ularning xarajatlarini qoplash va jamg'armalarini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan pul mablag'laridan hamda natural shaklda olingan oziq-ovqat mahsulotlari, dotatsiyalar va imtiyozlardan iborat).


Oilaviy xo'jaliklarning moliyaviy resurslari aniq maqsadlar uchun mo'ljallangan alohida pul fondlari shaklida namoyon bo'ladi (10.2-rasm).



10.2-rasm. Oilaviy xo'jaliklar moliyaviy resurslarining turkumlanishi.

Moliyaviy resurslarning fond shakli oilaviy xo'jaliklarning ehtiyojlarini butun oilaviy xo'jalikning imkoniyatlari bilan bog'lash hamda har bir oila a'zosining ehtiyoji qanday qondirilayotganligini nazorat qilishni ta'minlaydi.

Oilaviy xo'jaliklar moliyaviy resurslarining tarkibi quyidagilardan iborat (10.3-rasm).



10.3-rasm. Oilaviy xo'jaliklar moliyaviy resurslarining tarkibi.

Oilaviy xo'jaliklarning moliyaviy resurslari, butun jamiyat moliyaviy resurslarining doiraviy aylanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, markazlashmagan moliyaviy resurslardir.

Oilaviy xo'jaliklar moliyasi markazlashtirilgan(respublika budjeti, mahalliy budjet va budjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalar) va markazlashtirilmagan moliya bilan, ya'ni turli mulk shakliga mansub bo'lgan korxonalarining moliyasi bilan hamda moliya bozori bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Ular orasida bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama uzluksiz pul oqimlari vujudga kelib turadi (10.4-rasm).


Oilaviy xo'jaliklar va davlatning pul oqimlari ko'p tomonlamadir. Oilaviy xo'jalik a'zolari davlat va hukumat organlari bilan mehnat shartnomasi tuzib, ish haqi oladilar hamda tovar va xizmatlar sotish, bundan daromadlar olish bilan tovar-pul munosabatlariga kirishadilar. Bundan tashqari, budjetga soliq va yig'imlar, boj to'lovlari hamda budjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar to'laganida ham moliyaviy munosabatlar vujudga keladi. Shu bilan birga oilaviy

xo'jaliklar hukumatdan har xil pullik transfertlar hamda ijtimoiy boyliklar va natural shakl-dagi xizmatlar ham oladilar.

Oilaviy xo'jaliklar nodavlat sektori (korxonalar va tashkilotlar) bilan ikki tomonlama moliyaviy munosabatlar bilan bog'langan. Eng avvalo, ular mazkur sektorni ish kuchi bilan ta'minlaydi. Bajarilgan ish uchun mehnat haqi oladi hamda olingan tovar va xizmatlar uchun haq to'laydilar. Shu bilan birga, yuridik shaxslar oilaviy xo'jaliklarni kredit resurslari hamda foyda, dividendlar, foizlar bilan ta'minlashi mumkin.

Oilaviy xo'jaliklar moliyaviy resurslarining doiraviy aylanishi ularga o'zlarining shaxsiy moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash imkoniyatini beradi. Maxsus nodavlat fondlarida ixtiyoriy pensiya va tibbiy sug'urtaning keng tarqalishi davlatga ijtimoiy xarajatlarni birmuncha tejash imkoniyatini beradi.

Hozirgi sharoitda oilaviy xo'jaliklarning moliyaviy resurslari ularning jamg'armalaridan bir qismini kredit tizimi orqali safarbar qilish natijasida milliy iqtisodiyotga qilinadigan investitsiyalarning asosiy manbai sifatida muhim ahamiyatga ega.



10.4-rasm. Oilaviy xo'jaliklarning moliyaviy resurslari va ularning doiraviy aylanishi.

1-soliqlar va boshqa to'lovlar; 2-transfertlar; 3-kreditlar; 4-sug'urta badallari; 5-ijtimoiy himoyalash; 6-jamg'armalar; 7-foizlar, foyda, renta; 8-mehnat haqi; 9- tovar va xizmatlarning qiymati; 10-ish kuchining qiymati.

Oila budjeti. Moliyaviy resurslar oila xo'jaligining budjetini shakllantiradi. O'zining moddiy mazmuniga ko'ra *oilaviy xo'jaliklarning budjeti* – bu oilaviy xo'jaliklarning pul mablag'lari

fondlarini tashkil etish va sarflash shaklidir. U oilaviy xo'jalik a'zolarining jami daromadlarini va ularning shaxsiy ehtiyojlarini ta'minlaydigan xarajatlarini birlashtiradi. Oilaning ehtiyojlari o'sib borishi munosabati bilan oila budjetining mablag'lari doimo yetishmaydi. Oila xo'jaligi a'zolari asosiy ish joylarida mehnat shartnomalari bo'yicha ishlashi va uning evaziga mehnat haqi olishdan tashqari, shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritishga, yakka tartibdagi mehnat va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, o'zining oshiqcha ko'chmas mulklarini va uzoq muddat ishlatiladigan mulklarini ijaraga topshirish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bilan ham shug'ullanadilar.

Oilaviy xo'jaliklar budjeti doirasida alohida pul fondlari shakllanadi (10.5-rasm).

Jamg'arma fondini tashkil qilish nafaqat katta mablag'lar talab qiladigan, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar sotib olish, dam olish va qimmatbaho tibbiy xizmat uchun, balki qarilikda munosib hayotni ta'minlash uchun ham zarurdir.

Chet el iqtisodiy adabiyotlarida uy xo'jaliklarining doimiy daromadi va vaqtinchalik daromadi bir-biridan farq qilinadi. *Doimiy daromad* – bu inson kelgusida ham saqlanishiga umid qiladigan daromaddir. Barqaror iqtisodiy jamiyatda daromadning bu turiga, odatda mehnat faoliyatiga to'lanadigan haq kiritiladi. Vaqtinchalik daromad kelgusida saqlanib qolmasligi mumkin bo'lgan daromaddir. Masalan, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromad kelgusida aksiyadorlik jamiyati faoliyatining to'xtatilishi munosabati bilan saqlanib qolmasligi mumkin.

Oila xo'jaligi budjetining pul fondlari

ayrim oila a'zolari uchun belgilangan va har xil tovarlar sotib olish, hordiq chiqarish, o'qish, tibbiyot xizmati va h. uchun ishlatiladigan *individual pul fondlari*;


birgalikda foydalaniladigan tovarlar (telefon, televizor, muzlatgich va sh.k.) sotib olish uchun ishlatiladigan *umumiy pul fondlari*;

kelgusidagi kapital xarajatlarni ta'minlash (uy, kvartira, yer uchastkasi, transport vositasi sotib olish hamda tijorat faoliyati uchun dastlabki kapitalni shakllantirish) uchun yo'naltiriladigan *jamg'arma va zaxira fondi*.

10.5-rasm. Oila xo'jaligi budjeti pul fondlarining turkumlanishi.


Oila budgetining daromadlari oila xo'jaligi iste'molining hajmini belgilaydi. Yildan-yilga miqdori o'zgar olmaydigan, doimiy daromad oilaning iste'mol xarajatlarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmaydi. Ayni vaqtda, vaqtinchalik daromad mamlakatning umumiy to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talabiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uning ayrim davrlardagi o'sishi tovar va xizmatlarga bo'lgan qo'shimcha talabni vujudga keltirib, bozordagi vaziyatni murakkablashtirishi mumkin.

Davlat oila budgetining hajmiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u bozor iqtisodiyotida moddiy va pul mablag'larining umumiy doiraviy aylanishi bilan bir butun bo'lib birlashgan. Ushbu ta'sir quyidagilar orqali amalga oshiriladi (10.6-rasm).



10.6-rasm. Oila xo'jaligi budgetiga davlatning ta'siri.

Budget mablag'larining cheklanganligi sharoitida oila xo'jaligi a'zolari oldida mablag'larni pul jamg'armalari o'rtasida, daromadlar va xarajatlarni o'rtasida taqsimlash muammosi doimo vujudga keladi. Bundan har bir oila uchun daromad manbalariga asoslangan holda budgetni rejalashtirish zarurati kelib chiqadi (10.7-rasm).



10.7-rasm. Oila budgetining turkumlanishi.

Budjetning daromadlar qismini aniqlashda, odatda qarz mablag'lardan tashqari, barcha imkoni bo'lgan kirimlar hisobga olinadi. Budjetning xarajatlarida joriy va kapital sarflar ko'zda tutiladi. Oila budjetini rejalashtirishda, yildan-yilga o'tadigan, zaruriy moliyaviy rezervlarni aniqlash muhim masala bo'lib hisoblanadi. Budjetni ijro etishda oila xo'jaligi a'zolari salbiy saldo vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'zining daromadlarini va ularning belgilangan budjetga asosan maqsadga muvofiq sarflanishini qat'iy nazorat qilishi zarur. Agar daromad moddolari xarajatlardan ortiq bo'lsa, oshiqcha qismi zaxiraga yo'naltiriladi. Umuman, oila budjetini tuzish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

10.3. Oilaviy xo'jaliklarning daromadlari va ularning tarkibi

Oilaviy xo'jaliklarning daromadlari iqtisodiy mazmuni jihatdan milliy daromadning bir qismi bo'lib, u xo'jalik a'zolarining moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun belgilangan.


Bu daromadlar mehnat xarajatlarini, ya'ni insonlarning ishlab chiqarish jarayonida sarflagan jismoniy va aqliy qobiliyatlarini qoplashi kerak. Hozirgi vaqtda milliy daromadning taqsimlanishi oila xo'jaligi a'zolari turmush darajasini saqlab turish hamda yanada yaxshilash uchun resurslar yetarli ajratilmoqda. Jumladan, davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar hamda tadbirkorlik foydasi hisobiga oilaviy xo'jaliklarning mablag'lari to'ldirib borilmoqda.

Oilaviy xo'jaliklarning ta'minlanganlik ko'rsatkichlaridan biri – yalpi daromad hisoblanadi.

Oilaviy xo'jaliklarning yalpi daromadi – bu jami daromad bo'lib, pul daromadlarini, natural shakldagi oziq-ovqatlar qiymatini va davlat hamda korxonalar tomonidan natural shaklda berilgan imtiyoz, dotatsiya, sovg'a va boshqalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Ushbu siyosat natijasida 1990–2010-yillarda O'zbekiston aholisining yalpi daromadi 8,6 marta o'sdi (10.8-rasm).

Darhaqiqat, Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Hech kimga sir emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012-yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi»⁷¹.



10.8-rasm. Aholi yalpi daromadlarining dinamikasi (1990 y. = 100%)
(oila xo'jaliklarini tadqiq qilish natijalari bo'yicha)⁷².

Keyingi o'n yillik davr ichida yalpi daromadlar tuzulmasida yangi - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va mulkdan olinadigan daromadlar moddasi vujudga keldi hamda uning aholi yalpi daromadidagi ulushi oshib bormoqda. Daromadlar ushbu yangi turlarining ulushi 2010-yilga kelib, aholi yalpi daromadida 47% ni tashkil etdi (10.1-jadval).

Tadbirkorlik faoliyati va mulkdan olinadigan foydaning o'sishi⁷³

10.1-jadval

	1990 y.	2010 y.
tadbirkorlik faoliyati va mulkdan olingan barcha daromadlarning jami daromaddagi ulushi	10,6	47,0

Daromadlar ushbu yangi turlarining ijobiy jihati shundan iboratki, aholi tadbirkorlik faolligining oshishi oilaviy xo'jaliklar yalpi O'tgan

⁷¹ Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yilda mamlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuklari hamda 2013-yilga muljalldan qilinagan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'irlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Bosh maqsadimiz - keng kulamli islohotlar va modernizatsiya budini klatyit bilan davom ettirish» mavzusidagi mavzusi. Ma'rifat gazetasi. 2013 y.19 yanvar 6 bet, №6.

⁷² Uzbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiётining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarga muljalldan qilinagan prognozlarini: Stat. tuzum. -T., «Uzbekiston», 2011. -B.81.

⁷³ Shu manba -B.82.

2012-yilda ushbu ko'rsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan ko'pi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda»⁷⁴.

Natural daromadlar yordamchi xo'jaliklarda ishlab chiqarilgan oziq-ovqatlarning qiymatidan, o'z iste'moli uchun bajarilgan xizmatlarning qiymatidan hamda ish beruvchilar yoki davlat tomonidan rag'batlantirish tarzida berilgan tovar-moddiy qiymatlardan iborat. Natural daromadlarni nafaqat an'anaviy tarzda qishloq aholisi, balki shahar aholisi ham oladi. Uy xo'jaliklari daromadlarining tarkibiga bir qator omillar (ijtimoiy va miqdoriy tarkibi, shahar yoki qishloqda yashashligi va boshqalar) ta'sir ko'rsatadi. Shunday oila xo'jaliklari borki, ularda mehnat haqi pul daromadlarining deyarlik 100% ini tashkil qiladi. Masalan, befarzand er-xotin ishlaydigan oila. Pul daromadlari faqat davlat ijtimoiy transfertlari hisobidan shakllanadigan oila xo'jaliklari ham bor, masalan, er-xotin pensionerlardan iborat xo'jalik.

Oilaviy xo'jaliklarda pul daromadlari asosiylicha qolmoqda. Ular quyidagi manbalar hisobiga shakllanadi (10.9-rasm).

Oilaviy xo'jaliklar pul daromadlarining manbalari:

xonadon a'zolari mehnat shartnomasi bo'yicha yollanib ishlagani uchun olgan mehnat haqi hamda mukofotlar, ish haqiga doimiy ustamalar, ish beruvchilarning ijtimoiy-madaniy maqsadlar uchun to'lovlari: nafaqa, transport xizmatlari, yo'llanma uchun to'lovlar va h.;

foyda, dividendlar, qimmatli qog'ozlar va omonatlar bo'yicha foizlar, ijara haqi va boshqalar shaklidagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;

davlatning ijtimoiy to'lovlari (transfertlari) – budjet va budjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan beriladigan pensiyalar, nafaqalar va boshqa to'lovlar;

boshqa kirimlar (sug'urta qoplamalari, mulklarni sotishdan olingan daromadlar va b.).


10.9-rasm. Oilaviy xo'jaliklar pul daromadlari manbalarining turkumlanishi.

⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012-йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш астувлари ҳамда 2013-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг эг қ муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «Бош мақсадимиз – кенг қўламли ишлoқотлар ва модернизация йўлини қатъийат билан давом эттириш» маълумотидаги маълумот. Маърифат газетаси. 2013 й.19 январь 6 бет, №6.

Bizning mamlakatimizda ushbu manbalar o'rtasidagi nisbat so'nggi 20 yil ichida ijobiy o'zgarimoqda. Davlat mulkchiligi hukmron bo'lgan sharoitda oilaviy xo'jaliklarning asosiy daromadi ish haqidan va budjetdan beriladigan to'lovlardan iborat bo'lgan. Bozor munosabatlari rivojlangan sari mehnat va tadbirkorlik asosiy daromad manbayiga aylanmoqda.

O'rtachi ish haqi darajasining barqaror ravishda bosqichma-bosqich oshishi uning yalpi daromadlar tuzulmasidagi ulushi pasayishini bartaraf etishga olib keldi. Hozirgi vaqtda ish haqining aholi yalpi daromadidagi ulushi 30-32,1% darajasida barqaror saqlanib kelmoqda va bu umuman olganda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yalpi daromad tuzulmasiga mos keladi.

Respublika Prezidenti va Hukumatining aholi daromadlarini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlari mamlakatda doimiy o'sib boruvchan o'rta sinfni shakllantirishga imkon yaratdi. Agar 1990-yili respublikada ekspertlar hisob-kitoblari bo'yicha o'rtacha daromad oladigan aholi 18%ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich oilaviy xo'jaliklarni tadqiq qilish natijalariga ko'ra 2000-yida 24%, 2010-yilda esa 60% oilaviy xo'jaliklar o'rtacha darajadan yuqori barqaror pul daromadlariga ega (10.10-rasm).



10.10-rasm. Jamiyat tuzulmasida o'rta sinfning ulushi.⁷⁵

Respublika Prezidenti I.A.Karimov ma'ruzasida ta'kidlaganidek, «O'tkazil-gan so'rovlarga ko'ra, ayni paytda mamlakatimiz aholisining

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraqqiylanish muammasini hal qilish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiyasi va kurs o'tkazgichlari haqida 2011-2015-yillarga mulkialangan prognozlar: Shtat. tuzilma. -T.: «Ўzbekiston», 2011. -B.83.

50 foizga yaqini o'zini o'rta toifaga mansub deb biladi. Holbuki, 2000-yilda atigi 24 foiz aholi o'zini shu toifaga mansub deb bildirdi.

Shuni unutmash kerakki, o'rta sinf ulushining yuqoriligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamini va asosi, davlatning barqarorligi va mustahkam-ligining, odamlarning o'z kelajagiga bo'lgan ishonchining muhim omili sifatida qabul qilinadi»⁷⁶.

Pul daromadlari tashkil bo'lish manbalari bo'yicha guruhlanishdan tashqari, *kelib tushish davri* bo'yicha ham guruhlanadi (10.11-rasm).

Pul daromadlari miqdoriga ko'ra, nominal va real daromadlarga bo'linadi.

Nominal daromadlar – ma'lum vaqt ichida nominal qiymati (banknotlarning rasmiy belgilangan qiymati) bo'yicha pul birliklarida olinadigan daromadlardir. Ular oilaviy xo'jaliklarning jang'arish va iste'mol imkoniyatlari darajasini aks ettiradi. Hisoblangan nominal daromadlar bilan haqiqiy olingan daromadlar bir-biridan farq qilinadi. Nominal daromadlarga mehnat haqi to'lash qaydnomalarida ko'rsatilgan daromadlar kiradi. Haqiqiy olingan daromadlarga ish haqini (ayniqsa, budget sohasida) to'lash muddatlari kechikishi munosabati bilan nominaldan past bo'lgan daromadlar kirishi mumkin.

Pul daromadlari kelib tushish davri bo'yicha:

Muntazam olinadigan pul daromadlari (mehnat haqi, ijara haqi va b.);

Vaqti-vaqti bilan olinadigan pul daromadlari (mualliflik gonoralari, qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlar va b.);

Tasodifan yoki bir yo'la olinadigan daromadlar (sovg'a, mulklarni sotishdan olinadigan daromadlar va h.).

10.11-rasm. Pul daromadlari kelib tushish davri bo'yicha turkumlanishi.

Real daromadlar – iste'mol baholari indeksiga tuzatilgan, joriy davrdagi pul daromadlaridir. Ular nominal daromadlarga haqiqatda sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning miqdorini ifodalaydi. Oilaviy xo'jaliklar uchun real daromadlar oilaning haqiqiy turmush

⁷⁶ "Uzbekiston Respublikasi Prezidenti N.A. Karimovning 2012-yilda mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy reorganizatsiya tadbirlari hamda 2013-yilga muvaffaqiyatli iqtisodiy distsiya uchun muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining tavsiyalarini «Bosh maqsadimiz – keng qulamlan kelavotlar va modernizatsiya yo'lidan katta qadam bilan davom ettirish» maqsadidagi ma'ruzasini. Muzaffar gazetas. 2013 й 19 январ 6 бет, №6.

darajasi va farovonligini aks ettiradi, ular insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, «2000-yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan oshdi.

2013-yilda budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'lmagan darajada oshirish, 2013-yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda»⁷⁷.

Mehnat haqining davlat tomonidan tartibga solinishi. Oila xo'jaligi a'zolari iqtisodiyotning davlat yoki xususiy sektorida ishlab, mehnat haqini turli shakllarda oladilar. Mehnat haqiga quyidagilar kiradi:

- xodimlarga ishbay rassenkalar, ta'rif stavkalari va lavozim maoshlari bo'yicha hisoblangan ish haqi;
- ish vaqtidan tashqari ishlaganlik uchun to'lanadigan qo'shimcha to'lovlar;
- muntazam yoki vaqti-vaqti bilan to'lanadigan mukofotlar ;
- kompensatsiya to'lovlari;
- yil uchun va ko'p yillik xizmatlari uchun beriladigan mukofotlar;
- har yilgi va qo'shimcha ta'til haqlari;
- moddiy yordamlar;
- korxonalarda ishlovchi pensionerlarning pensiyasiga qo'shimcha to'lovlar va boshqalar.

Oila xo'jaligi a'zolari pul daromadlarining hammasini o'z ehtiyojlari uchun ishlatmaydilar, ularning ma'lum qismi soliq to'lovlariga yo'naltiriladi (jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq, jismoniy shaxslar to'laydigan mulk solig'i va b.).

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat haqi miqdorini belgilashga davlat tomonidan aralashuv cheklanadi, lekin uning eng kam miqdori tartibga solib turiladi (1-ilova). Hozirgi vaqtda mehnat haqiga ta'sir ko'rsatish qonun hujjatlari yordamida yoki soliq mexanizmi orqali bilvosita yo'l bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, jismoniy

⁷⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентини И.А.Каримовнинг 2012-йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш аснолари ҳамда 2013-йилга муътавалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларида бағишланган Вазирлар Маъмуриятининг мажлисидаги «Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини хаттият билан давом эттириш» маърузасидаги маърузаси. Маърифат газетаси. 2013 й.19 январь 6 бет, №6.

shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari so'nggi o'n yil mobaynida muntazam ravishda kamayib bormoqda (10.2-jadval).

Xususiy sektorda mehnat haqi stavkasining aniq miqdorlari yirik korxonalarda mutaxassisliklar bo'yicha jamoa mehnat shartnomalarining shartlari bilan, bir necha kishi ishlaydigan yakka tadbirkorlarda esa har bir ishchi bilan tuziladigan shartnomaga muvofiq aniqlanadi. Davlat xususiy korxonalarda ish haqini cheklamaydi. Chunki, u ish beruvchining moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq.

Jismoniy shaxslardan daromad solig'i stavkalari, (%)

10.2-jadval

Jami daromadlar miqdori	1.01.20.03	1.01.20.04	1.01.20.11	1.01.20.12	1.01.20.13
Eng kam ish haqining besh baravari miqdorigacha	13	13	10	9	8
Eng kam ish haqining besh bara-vari(+1 so'm)dan baravari miqdori-gacha	22	21	16	16	16
Eng kam ish haqining o'n baravari miqdori (+1 so'm)dan va undan yu-qori miqdoridan	32	30	22	22	22

Davlat oila xo'jaliklarining daromadlarini nafaqat bevosita qonun hujjatlarini qo'llagan holda, balki bilvosita, ya'ni *soliq tizimi* yordamida ham tartibga soladi. Daromadlarni bevosita tartibga solish uchun *to'g'ri soliqlar* (jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan mulk solig'i kabilar) qo'llaniladi. *Egri soliqlar* (qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, bojxona to'lovlari) eng avvalo aholining to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi va shu yo'l bilan ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega. Jumladan, «qishloqlarda maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning uch yil muddatga soliqdan ozod etilgani 40 mingga yaqin ish o'rmini tashkil etishga imkon berdi»⁷⁸.

Oilaviy xo'jaliklarning tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlari juda xilma-xildir. Ularga nimalarni kiritish to'g'risida iqtisodchilar orasida yagona fikr hozirgacha mavjud emas. Jumladan, M.Q.Pardayev, G.M.Shodiyeva oila daromadlarini 5 ta guruhga bo'lish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

⁷⁸ Ишон минфаоти, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада еркин ва обод бўлишига еришлик-бизнинг били мақсадимиздир. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тўнтинчи маросимдаги нўсрўзаси.

- «1. Mehnat qilish yo‘li bilan olinadigan daromad.
2. Tadbirkorlik yo‘li bilan olinadigan daromad.
3. Mulknı ishlatish yo‘li bilan olinadigan daromad.
4. Davlat tomonidan beriladigan daromad.
5. Huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan xayriyalar, sovg‘alar va boshqa murruvatlar».⁷⁹

Bizningcha, ularning tarkibini quyidagicha batafsilroq bayon qilish zarur:

- mulk huquqi bo‘yicha o‘ziga qarashli bo‘lgan mulklarnı ishlatish va sotishdan olingan daromadlar;
- yuridik shaxs sifatida ro‘yxatga olingan va olinmagan xususiy biznes korxonaları tomonidan tovarlarnı sotish, ish bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar;
- kasanachilik faoliyatidan olingan daromadlar;
- shaxsiy tomorqa va yordamchi xo‘jaliklardan olingan mahsulotlarnı sotishdan tushgan daromadlar ;
- mualliflik gonorarlari, xayriyalar, sovg‘alar va b.


Bu pul daromadlari ikki qismga bo‘linadi: bir qismi ish beruvchi va uning oilaviy iste‘moli uchun yo‘naltiriladi, ikkinchi qismi tijorat xarajatlariga yo‘naltiriladi, bunda ularga rasmiy ravishda tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar kiritilishi mumkin.

Ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda yuqorida keltirilgan daromad manbalari orasida kasanachilik jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. 2006-yilda respublika bo‘yicha jami 153,6 ming (26,8 %) ish joyi kasanachilik hisobiga tashkil etilgan bo‘lsa, 2008-yilda bu ko‘rsatkich 213,8ta (32,3 %)ni tashkil etdi (10.12-rasm).

2010-yilda kasanachilik asosida tashkil etilgan yangi ish o‘rinlari 250 mingtadan oshdi. Hozirgi vaqtda «Band bo‘lmagan aholini ish bilan ta‘minlashda kasanachilikning turli shakllarini, birinchi navbatda, kasanachilar va korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyani mehnat shartnomalari asosida kengaytirish, oilaviy biznesni rivojlantirish katta rezerv hisoblanadi. Mazkur sohalar hisobidan 280 mingdan ortiq kishini ishga jalb qilish ko‘zda tutilgan»⁸⁰.

⁷⁹ Пардаев М.К., Шодиева Г.М. Оила кўжаллиги иктисодиёти ва тadbirkorлиги. – Самарканд. СвМКИ, 2001. – Б.25.

⁸⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012-Йилда мамлакатимизни иқтисодий-иқтисодий ривожлантириш йиллик режасида 2013-Йилга кўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини катъин билан двоим эттириш» мавзусидаги маърузаси. Маърифат газетаси. 2013 й.19 январь 6 бет, №6.



*Yangi tashkil etilgan o'rinlarning umumiy soni
 **Kasanachilik sohasida tashkil etilgan yangi ish o'rinlari

10.12-rasm. O'zbekistonda kasanachilik orqali yangi ish o'rinlarining yaratilishi.

Davlat ijtimoiy transfertlari. Oilaviy xo'jaliklarning pul daromadlariga *davlat ijtimoiy transfertlari* –budget va budgetdan tashqari fondlardan to'lanadigan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar ham kiradi. Pul daromadlarining bu qismi davlat tomonidan qonun bilan qat'iy tartibga solinadi.

Transfert to'lovlarning asosiy turi pensiya hisoblanadi. Respublikamizda 2010-yilda jami pensionerlar 3265,8 ming kishini tashkil etib, shu jumladan yoshi bo'yicha 2092,0 ming, nogironlik bo'yicha 535,3 ming, boquvchisini yo'qotganligi sababli 352,6 ming kishi pensiya oladi. So'nggi yillarda nogironligi va boquvchisini yo'qotganligi sababli pensiya oluvchilar soni kamayib bormoqda (10.3-jadval).

Respublikamiz bo'yicha o'rtacha oylik pensiya miqdori 2010-yil oxirigacha 171919 so'm bo'lib, shu jumladan yoshi bo'yicha 174136 so'm, mehnatda shikastlanganlik yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lganlar bo'yicha 139531so'm, umumiy kasallikdan nogiron bo'lganlar bo'yicha 149853 so'm, boquvchisini yo'qotganligi sababli pensiya oluvchilar bo'yicha 132027 so'mni tashkil etgan (2-ilova).

Fuqarolar pensiyadan tashqari, ijtimoiy fondlardan ham har xil nafaqalar oladilar. Ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 2000-yilda 261,9 ming kishi bo'lsa, 2010-yilda 232,6 ming kishini tashkil etib, 29,3 ming kishiga kamaygan. 2010-yil oxiriga ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 232.6 ming kishini tashkil etib, shulardan bolalikdan nogironlar 214,1, nogironlarning boshqa toifalari 0,7, pensiya yoshiga yetgan shaxslar 5,8,

boquvchisini yo'qotganligi sababli nafaqa oluvchilar 12 kishi bo'lgan. Ijtimoiy nafaqalarning o'rtacha miqdori esa 94235 so'm, shulardan yoshligidan nogironlar 97285 so'm, nogironlarning boshqa toifalari 59690 so'm, pensiya yoshiga yetgan shaxslar 59690 so'm, boquvchisini yo'qotganligi sababli 38102 so'mni tashkil etgan (3-ilova). Shuningdek, ishsiz qolgan fuqarolarga budjet hisobidan ishsizlik nafaqasi beriladi.

Pensionerlar soni⁸¹
(yil oxiriga, ming ishi)

10.3-jadval

	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Jami pensionerlar	3087,0	3203,8	3236,7	3228,3	3224,8	3229,5	3257,8	3286,3	3327,6	3304,7	3256,8
Shu jumladan:											
yoshi bo'yi cha	1833,7	1857,4	1882,8	1900,1	1914,4	1396,1	1973,6	2010,5	2069,3	2034,1	2092,0
nogironligi bo'yi cha	574,4	589,1	592,4	580,5	570,2	559,3	554,4	561,7	539,2	600,4	535,3
boquvchisini yo'qotganligi sababli	462,4	468,8	477,6	468,4	463,7	454,9	445,7	423,4	426,8	376,8	352,6

Bozor munosabatlarining rivojlanishi jamiyatning tabaqalanishini va aholining ijtimoiy-mulkiy tabaqalanishini vujudga keltirdi. Lekin mamlakatimizda Respublika Prezidenti va Hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov ma'ruzasida «O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foizi va eng kam ta'minlangan 10 foiz qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012-yilda atigi 8,0

⁸¹ Ўзбекистон Республикаси Аҳоли статистика гуллами, 2012. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси, Тошкент, 2012. -69 б.

barobarni tashkil etgan»⁸²ligi alohida ta'kidlangan. Daromadlilikni oila xo'jaliklari bo'yicha tahlil qilish jami daromadni, shu jumladan, uning natural shaklini ham, taqsimlash va sarflanishida demografik, mintaqaviy va oila ichidagi omillarni ham hisobga olishga imkon beradi. Bundan tashqari, oilaviy xo'jaliklarning pul daromadlariga yashash joyi (shahar yoki qishloq) hamda soni, shu jumladan, oiladagi farzandlar soni ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Shu omillarni hamda daromadlilikni oilaviy xo'jalik ichida biroz tartibga solish imkoniyatlarini (ya'ni umumiy budjet omilining ta'sirini) hisobga olgan holda 10 foizli guruhlarning pul daromadi bo'yicha eng past va eng yuqori darajalari o'rtasidagi nisbat oilaviy xo'jaliklarda, ular soni kam bo'lsa-da, birmuncha yaxshiroq holatdadir.

Oilaviy xo'jaliklarga davlat yordami nafaqat aholini moliyaviy-iqtisodiy himoyalashda, balki yakka tartibdagi mehnat faoliyati va oilaviy tadbirkorlikni huquqiy va tashkiliy rag'batlantirishda ham ifodalanmoqda.

Bulardan tashqari, iste'mol kreditlari ham uy xo'jaligi a'zolarining pul daromadlarini to'ldirib, ularning to'lov qobiliyatini oshirishga yordam bermoqda. Masalan, «... 2007-yilda qoramol sotib olish uchun 42,5 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2008-yilda bu raqam 48 milliard 200 million so'mni tashkil etdi»⁸³. Shuningdek, «... kam ta'minlangan oilalarni bepul sigir ajratish yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2006-yildan 2008 yilga qadar ana shunday oilalar uchun 103 mingdan ziyod qoramol berildi»⁸⁴ O'zbekistonda iste'mol kreditlari asosan yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash va ularning turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. «Yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hukumat qaroriga muvofiq «yosh oilalar uchun 2012–2013-yillarda har biri 48 ta kvartiraga ega bo'lgan 100 ta ko'pqavatli uy qurish ishlari amalga oshirilmoqda. 2012-yilning o'zida 2 ming 400 ta kvartira foydalanishga topshirilgan bo'lsa, kelgusi yilda yana shuncha kvartira quriladi. Ana shunday uylarni sotib olishga qulay imkoniyat yaratish uchun minglab yosh oilalarga 15 yil muddatga mo'ljallangan 210 milliard so'mga yaqin imtiyozli ipoteka

⁸² Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012-Йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш йуклари ҳақида 2013-Йилга мўлажалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва янгиликларни йўлни кўтариш билан давом эттириш» мавзусидаги маърузаси. Маърифат газетаси, №в. 2013 й.19 январь, 6 бет

⁸³ И.А.Каримов. Жаҳон молжавий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шартитида уни бартараф эттишининг йўллари ва чоралари Т. «Ўзбекистон», 2009, -27 б.

⁸⁴ И.А.Каримов. Жаҳон молжавий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шартитида уни бартараф эттишининг йўллари ва чоралари –Т. «Ўзбекистон», 2009 -27 б.

kreditlari berildi. Oilalarning farovonligi va daromad manbalarini oshirish uchun tijorat banklari tomonidan qariyb 80 milliard so'mga yaqin, kasb-hunar kollejlari biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun esa salkam 47 milliard so'm miqdorda mikrokreditlar ajratilgani ham ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qiladi»⁸⁵. Shuningdek, «mamlakatimizda ishlab chiqarilgan, uzoq muddat foydalaniladigan mahsulotlar, xususan, mebel, maishiy texnika va boshqa uy-ro'zg'or buyumlarini xarid qilish uchun 71 milliard so'mdan ziyod iste'mol kreditlari ajratilgani yosh oilalarning ro'zg'orini butlashga, ularning oyoqqa turib olishiga katta madad bo'ldi»⁸⁶.

10.4. Oilaviy xo'jaliklarning pul xarajatlari va ularning tarkibi

Oilaviy xo'jaliklarning pul xarajatlari mamlakat iqtisodiyotida jiddiy ahamiyatga ega. Oila o'z daromadlaridan foydalanish bilan tovar va xizmatlar bozorining shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi. O'z jamg'armalari va omonatlarini ishga solish bilan u qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni oshiradi va shu bilan fond bozorini ham kengaytiradi. Bundan tashqari, oilaviy xo'jaliklar muhim ishlab chiqarish resurslarini – mehnat va tadbirkorlik faoliyatini taklif qiladigan subyekt sifatida katta ahamiyat kash etadi. Nihoyat, oila a'zolari, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanib, davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan, ijtimoiy-madaniy sohaning asosiy iste'molchilari hisoblanadi.

Oilaviy xo'jalik a'zolari o'z mablag'larini sarflab, turli xil ehtiyojlarini qondiradi. Bu ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin: pul daromadlarini tovar va xizmatlar sotib olish uchun sarflash bilan, xo'jalikning ayrim a'zolari o'z mehnat faoliyati hisobiga o'zini-o'zi natural shaklda ta'minlash bilan.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga shart-sharoitlar yaratilishi, xususan, oilaviy tadbirkorlikka alohida e'tibor berilishi oilaviy xo'jaliklarning iqtisodiy faolligini keskin oshirmoqda. Jumladan, oilaviy jamoalar yordamchi xo'jalik va tomorqalarida mahsulot ishlab chiqarish, yakka tartibdagi mehnat va tadbirkorlik faoliyati, xususan, savdo-sotiq bilan shug'ullanishi hamda har xil pullik xizmatlarni bajarish barqaror rivojlanmoqda.

⁸⁵ *Инсон ақлифати, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада эркин ва обод бўлишига эришил-би-нинг бош мақсадимиздир.* Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси 7.12.2012 й.


⁸⁶ *Инсон манфогати, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада эркин ва обод бўлишига эришил-би-нинг бош мақсадимиздир.* Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси 7.12.2012 й.

Qishloq joylarda natural va yarim natural xo'jaliklar jamoat xo'jaliklariga qaraganda kamroq samarali va barcha tovar va xizmatlar bilan to'liq ta'minlay olmasada, ular oila budjetining zarur minimal darajasini saqlab turadi va uy xo'jaliklarining iqtisodini bar-qarorlashtiradi. Oilaviy xo'jaliklar ichki imkoniyatlar bilan anchagina moddiy qo'llab-quvvatlanishi to'g'risida oilalar yaratayotgan mahsulot va xizmatlarning YaIMdagi nisbatan yuqori va tobora oshib borayotgan hissasi dalolat beradi (1-jadvalga qarang).

Oilaviy xo'jaliklarning pul xarajatlari – iste'mol xarajatlarini va iste'mol bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlarini o'z ichiga oladigan inson hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni sotib olish uchun qilingan haqiqiy xarajatlardir. Oila xo'jaligining ayrim a'zolari ish kuchini takror barpo qilishda muhim ahamiyatga ega.

Pul xarajatlarining guruhlanishi va tarkibi. Oilaviy xo'jaliklarning pul xarajatlarini har xil belgilar bo'yicha guruhlash mumkin (10.13 -rasm).

Muntazamlik darajasi bo'yicha: doimiy xarajatlar (oziq-ovqat, kommunal xizmatlar va b.); muntazam xarajatlar (kiyim-kechak, transport va b.); bir martalik xarajatlar (davolanish, uzoq vaqt ishlatiladigan tovarlarni sotib olish).



10.13-rasm. Oilaviy xo'jaliklar pul xarajatlarning turkumlanishi.

Zarurlik darajasi bo'yicha: birinchi navbatdagi (zarur) xarajatlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak); tibbiy xizmatlar uchun; ikkinchi darajali xarajatlar (ta'lim, sug'urta badallari va h.); boshqa xarajatlar.

Foydalanish maqsadlari bo'yicha: iste'mol xarajatlari (tovarlar xarid qilish va xizmatlar uchun to'lovlar); majburiy to'lovlar va har xil majburiy badallar; omonotlar va qimmatli qog'ozlardagi jamg'armalar; chet el valutasini sotib olish; aholi qo'lidagi pulning ko'payishi.

Tovarlar xarid qilish va xizmatlar uchun to'lovlar – bu asosiy iste'mol xarajatlari bo'lib, ular barcha pul xarajatlarining taxminan 3/4 qismini tashkil etadi. Ularning hajmi: pul daromadlarining miqdori,

zarur shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarning qondirilishi; chakana narxlar darajasi; geografik va iqlim sharoitlari hamda boshqa omillar bilan belgilangan.

Oilaviy xo'jaliklarning xarajatlarida oziq-ovqatlar uchun qilinadigan xarajatlar asosiy o'rinni egallaydi, shaharlarda ularning hissasi yanada yuqori bo'ladi. Qishloq joylarda oilaviy xo'jaliklar o'z ehtiyojlarining deyarli 1/3 qismini natural xo'jalik hisobiga ta'minlaydi. Shahar joylarda esa natural shakldagi iste'mol mahsulotlarining qiymati 7 foizdan oshmaydi. Sanoat tovarlari (kiyim-kechak, poyabzal, mebel, maishiy texnika) shaharda jami xarajatlarning deyarlik 1/3 qismini, qishloq joylarda esa o'rtacha 1/5 ulushini tashkil qiladi.

Oilaviy xo'jaliklar jami daromadlarining o'sib borishi bilan birga mamlakatimizda iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi, aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar hajmi va turlarining kengayishi hisobiga ulardan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Agar 1990-yilda aholi pul daromadlarining 46-48 foizigina mamlakatimizda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari bilan ta'minlangan bo'lsa, 2000-yilda bu ko'rsatkich 75 foizdan ko'proqni tashkil etgan. 2010-yilda 1990-yilga nisbatan iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmi 6,7 marta, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi 1,4 marta o'sgan.

Ushbu omillar aholi jami daromadlarining o'sishi bilan bir qatorda, aholi jamg'arma va omonotlarining barqaror o'sishini ta'minlashga imkon yaratildi va ularning xarajatlar tuzulmasidagi ulushi 1990-yilda 11,8 foizdan 2010-yilda 15,4 foizga o'sdi (10.4-jadval).

Aholi jami xarajatlarning tuzulmasi, 1990–2010 y. (% larda)⁸⁷


10.4-jadval

	1990 y.	2000 y.	2009 y.	2010 y.
1. Xarajatlar tuzulmasi, hammasi	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:				
iste'mol xarajatlari	81,1	84,3	78,5	78,4
noiste'mol xarajatlari (soliqlar, a'zolik badallari va boshqa majburiy to'lovlar)	7,1	6,9	6,3	6,2
jamg'arma va omonotlar	11,8	8,8	15,2	15,4
2. Iste'mol xarajatlari-hammasi	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:				
oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish	58,3	59,8	51,9	49,8
nooziq-ovqat tovarlarini xarid qilish	31,5	26,8	31,9	33,7
xizmatlar uchun to'lovlar	10,2	13,4	16,2	16,5

⁸⁷ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг муштараклиги йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015-йилларга мўлжалланган прогнозлари. Стат. тўплам. – Т.: «Ўзбекистон», 2011. – Б. 84.

Shuningdek, iste'mol xarajatlarning makrotuzulmasi ham optimallashtirilmayotgan: oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashmoqda va bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi kabi aholiga pullik xizmatlar uchun xarajatlar ulushi o'smoqda (10.14-rasm).

Shaharlarda oilalarni uy-joy, kommunal xizmatlar, dori-darmon hamda jamoat transportida yurish xarajatlari oshib bormoqda. Ayrim xizmat turlarining bahosi qimmatligi bois, ularni oddiy fuqarolarning budjeti ko'tara olmaydi (masalan, kiyimlarni kimyoviy tozalash, kir yuvish xizmatlari va h.). Oila xo'jaligi xarajatlarning tarkibida sog'liqni saqlash va ta'lim kabi pullik xizmat turlari ham paydo bo'ldi.



10.14-rasm. Iste'mol xarajatlari tuzulmasi
(uy xo'jaliklarini kuzatish natijalari bo'yicha, %) ⁸⁹

Oilaviy xo'jaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy toifalariga qarab iste'mol xarajatlari o'zgaradi. Shuningdek, oila xo'jaligi a'zolarining soni va tarkibi ham iste'mol xarajatlarning tarkibiga ta'sir ko'rsatadi.

Oziq-ovqat tovarlariga qilinadigan umumiy xarajatlarning kamayishi iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibiy o'zgarishida o'z aksini topadi: (meva, qandolatchilik mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari kabilarning ulushi kamayadi, non va non mahsulotlari, kartoshka va sabzavotlarning ulushi oshadi).


⁸⁹ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraққийнинг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015-йилларга мувожазланган прогнозлари. Стат. тўрдам. - Т.: «Ўзбекистон», 2011. - Б.85.

Oilaviy xo'jaliklar pul xarajatlarining ikkinchi guruhi – *majburiy va ixtiyoriy to'lovlar*. Majburiy to'lovlarga hokimiyat organlari tomonidan har xil darajadagi budjetlar va budjetdan tashqari fondlarga undiriladigan soliqlar, yig'imlar boj to'lovlari va ajratmalar kiradi. Ixtiyoriy to'lovlarni oila xo'jaligining ayrim a'zolari o'z xohishi bo'yicha har xil xavf-xatarlarni sug'urtalashda sug'urta organlariga, pensiya organlariga, xayriya fondlariga va boshqalarga to'laydilar.

Oila xo'jaligi a'zolari respublika fuqarosi bo'lib, har xil majburiy to'lovlarni to'laydilar. Bular eng avvalo, umumdavlat soliqlari, mahalliy soliq va yig'imlardir. Aholidan olinadigan umumdavlat soliqlari va majburiy to'lovlarga: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badali, davlat boji, bojxona boji va boshqalar kiradi. Mahalliy soliqlar ichida asosiysi – jismoniy shaxslardan olinadigan mulk va yer solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganligi uchun olinadigan soliq. Shaxsiy majburiy to'lovlar, bir tomondan – har xil darajadagi budjetlarning daromadlarini tashkil qilsa, ikkinchi tomondan esa daromadlarni budjet tizimi orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlari foydasiga qaytadan taqsimlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, ular shaxsiy daromadlardan oqilona foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

To'lovchi uchun soliq yuki nuqtayi nazaridan eng asosiysi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq bo'lib, pul va natural shakldagi jami daromaddan daromad olingan sanada undiriladi. Daromadlarni soliqqa tortish yukini yengillashtirish va kam ta'minlangan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash uchun bir qancha soliq imtiyozlari ko'zda tutilgan.

Xarajatlarning uchinchi guruhi – jamg'armalar va omonatlar bo'lib, ular bozor munosabatlari sharoitida uy xo'jaliklari rivojlanishining uzluksizligini ta'minlaydi. Ular milliy iqtisodiyotning barqarorligi uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo'lib, qo'shimcha resurslarga katta ehtiyoji bo'lgan korxonalar uchun muhim investitsion manba hisoblanadi. 1995–2010-yillarda omonatlar hajmlarining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Asosan 2000–2010 yillarda omonatlar yuqori sur'atlar bilan o'sib, mazkur ko'rsatkich 28,6 marta ko'paygan. Hozirgi vaqtda o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra mamlakatdagi deyarli barcha uy xo'jaliklari bank tizimida o'z omonatlariga ega (10.15-rasm).



10.15- rasm. Aholi jamg'armalarining 1995-yilga nisbatan o'sishi.⁸⁹

Oilaviy xo'jaliklar uchun jamg'arma va omonatlarning zarurligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- uzoq vaqt foydalaniladigan qimmatbaho tovarlar sotib olish uchun zaxira yaratish (10.5-jadval);
- daromadlar o'zgarib turadigan sharoitda iste'mol xarajatlarining odatdagi darajasini saqlab turish uchun sug'urta jamg'armasini tashkil etish;

- daromadlilik darajasini oshirish maqsadida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish uchun pul jamg'armalarini tashkil etish.

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010-yilda 100 ta uy xo'jaligi hisobiga televizorlar 132, sovutgichlar 99, videomagnitofon, videopleyerlar va DVDlar 64, mobil telefonlar 145 ta to'g'ri kelib, uy xo'jaliklarining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lgan.

1990–2010-yillarda aholidagi avtomobillar soni deyarli 2,4 marta oshgan. 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan yengil avtomobillar 11,9dan 27,1 birlikka ko'paygan bo'lib, aholi farovonligi va mulkiy salohiyatining oshganligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda oilaviy xo'jaliklarning pul omonatlari va jamg'armalari: *tashkil etilmagan va tashkil etilgan shakllarda namoyon bo'ladi.*

⁸⁹ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий taraққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015-йилларга мўлжалланган прогнозлари: Стат. тўплам. –Т.: «Ўзбекистон», 2011. – Б 92.

**Aholining uzoqli foydalaniladigan mahsulotlar bilan
ta'minlanganligi
(100 uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan tovarlar soni)⁹⁰**

10.5-jadval

	1990 y.	2000 y.	2010y.
Televizorlar	90	88	132
Sovutgich va muzlatkichlar	80	86	99
Konditsionerlar	9	11	18,5
Elektr changyutkichlar	29	30	37
Shaxsiy kompyuterlar	-	0,2	12
Fotoapparat va videokameralar	21	21	24
Videomagnitofon, videopleyerlar va DVD	1	31	64
Kir yuvish mashinalari	67	69	75
Mobil telefonlar	-	18	145
1000 aholiga to'g'ri keladigan avtomobillar	21,9	38,9	51,5
100 uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan avtomobillar	11,9	20,1	27,1

Aholidagi milliy va xorijiy valutatdagi naqd pullar birinchi shaklga kiradi. Xorijiy valutalarni asosan xorijdan iste'mol tovarlari xarid qiladigan va ularni O'zbekistonga keltiradigan «mokilar» sotib oladilar.

Shunday qilib, milliy iqtisodiyotning modernizatsiya qilinishi va bozor munosabatlarining erkinlashtirilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida aholi jami xarajatlarning tarkibida yangi moddasi-tadbirkorlik faoliyati xarajatlari vujudga keldi. Ularning ulushi 2011-yilga kelib 8,5 foizdan oshdi. Mohiyatiga ko'ra bunday jamg'armalar oila xo'jaliklarining eng samarali jamg'armasi hisoblanib, xususiy mulkchilik negizida o'z daromadlarini shakllantirish va ko'paytirishga yordam beradi. Oilaviy xo'jaliklar daromad manbalarining tarkibi diversifikatsiyalanmoqda, daromadlarining dinamikasi o'smoqda va aholi hayotining sifati yaxshilanmoqda.

Nazorat savollari

1. Uy xo'jaliklari moliyasini ta'riflang.
2. Uy xo'jaliklari moliyasi qanday funksiyalarni bajaradi?
3. Uy xo'jaliklarida vujudga keladigan pul munosabatlari.
4. Uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari va ularning doiraviy aylanishi.

⁹⁰ Uzbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiётining mustaqillik Yillaridagi (1990–2010 Yillar) asosiy tendentsiya va kursatkichlari hamda 2011–2015 Yillariga muljallangan prognozleri: Stat. tuzilma. – T.: «Uzbekiston», 2011. – B. 89.

5. «Uy xo'jaligi budjeti» tushunchasini ta'riflang.
6. Uy xo'jaligi daromadlarining guruhlanishi.
7. Uy xo'jaligi a'zolarining mehnat haqini davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati.
8. Davlat ijtimoiy transfertlari nima?
9. Uy xo'jaliklarining pul xarajatlari va ularning guruhlanishi.
10. Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlariga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
11. Uy xo'jaligi xarajatlarining uchinchi guruhi – omonat va jamg'armalarda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Nazorat testlari

1. Uy xo'jaliklari moliyasining funksiyalari

- A) Rejalashtirish funksiyasi, tahlil qilish funksiyasi.
- B) Turmush ehtiyojlarini ta'minlash funksiyasi, taqsimot funksiyasi, nazorat funksiyasi, tartibga solish funksiyasi.
- C) Uzviy aloqa funksiyasi, ishlab chiqarish funksiyasi.
- D) Boshqaruv funksiyasi, sarflash funksiyasi.
- E) To'plash funksiyasi, nazorat qilish funksiyasi.

2. Uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari

- A) Asosiy fondlar, aylanma fondlar.
- B) Moddiy resurslar, nomoddiy resurslar.
- C) Mehnat resurslari, moliyaviy resurslar.
- D) Iste'mol fondlari, jamg'arma fondi.
- E) Pul mablag'lari, oziq-ovqat mahsulotlari.

3. Uy xo'jaliklari budjeti bu:

- A) Uy xo'jaligining daromadlarini shakllantirish.
- B) Pul mablag'lari fondini barpo etish va ishlatish shakli.
- C) Uy xo'jaligining xarajatlarini shakllantirish.
- D) Uy xo'jaligining pul daromadlari va xarajatlari.
- E) Uy xo'jaligining natural daromadlari va kundalik xarajatlari.

4. Uy xo'jaligi pul daromadlarining kelib tushish bir tekisligi bo'yicha:

- A) Oylik maosh, nafaqa, moddiy rag'batlantirish summalari.
- B) Har oyda olinadigan daromadlar, yakka tadbirkorlik daromadlari.

- C) Budjetdan beriladigan nafaqa, moddiy yordam.
- D) Xayriya fondlaridan beriladigan yordam va nafaqalar.
- E) Muntazam, vaqti-vaqti bilan, tasodifiy yoki bir martalik

5.Uy xo'jaliklari pul daromadlari miqdoriga ko'ra:

- A) Nominal daromadlar, real daromadlar.
- B) Asosiy daromadlar, qo'shimcha daromadlar.
- C) Muntazam daromadlar, bir martalik daromadlar.
- D) Pul daromadlari, natural daromadlar.
- E) Maksimal daromadlar, minimal daromadlar

6.Uy xo'jaligini xo'jalik yuritishning mustaqil iqtisodiy va moliyaviy birligi sifatida ajratish mezonlari:

- A) Bitta oila a'zosi bo'lishi.
- B) Bitta xonadonda yashash va yaqin qarindosh bo'lish.
- C) Yaqin qarindosh bo'lgan va qo'shni bo'lgan bir necha xonadon.
- D) Birgalikda yashash, umumiy budjetning mavjudligi, iqtisodiy qarorlarni birgalikda qabul qilish.
- E) Bitta mahallada yashaydigan aka-ukalar xonadonlari.

7.Uy xo'jaligini moliyaviy ta'minlash manbalari:

- A) Ota-onaning oylik maoshlari.
- B) Oila a'zolarining jami pul daromadlari.
- C) Dastlabki manbalar, jamg'ariladigan manbalar, joriy manbalar.
- D) Oylik maosh va tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar.
- E) Faqat voyaga yetgan oila a'zolarining daromadlari.

8. Uy xo'jaligi budjetining pul fondlari

- A) Oilaga tegishli pul mablag'lari.
- B) Oilaning naqd va bankdagi pul mablag'lari.
- C) Omonat daftarchasiga qo'yilgan pullar.
- D) Konvertatsiyalanadigan chet el valutasidagi pul mablag'lari
- E) Individual pul fondlari, umumiy pul fondlari, jamg'arma va zaxira fondi

9.Uy xo'jaligi budjetining turkumlanishi:

- A) Joriy budjet, istiqbolli budjet.
- B) Choraklik, yarim yillik va yillik budjet.
- C) Kundalik va oylik budjeti.

- D) Oddiy va murakkab budget.
- E) Xususiy va umumiy budget.

10. Uy xo'jaliklarining mulkdan olinadigan daromadlari:

- A) Pensiya va stipendiyalar.
- B) Dividendlar, foizlar, rentalar.
- C) Mulknı sotishdan olinadigan daromadlar.
- D) Yakka tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar.
- E) Sovg'a sifatida olingan mulklar.

DARSLIKDA UCHRAYDIGAN AYRIM MURAKKAB ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

*Og'ir jazoga kim mahkum ersa gar,
Iztirob qurtlari ko'ksin kemirar,
Bardoshin yanchdirma uning sandonda,
Qaysarligin ham qo'y, chiritma konda...
Unga lug'at tuzdir, ey, odil hakam,
Shu bir ishda ming bir azob mujassam.*

Skaliger⁹¹

A

1. **Akkreditiv (lotincha accredo – ishonaman, inglizcha Letter of credit, Lc)** – ko'rsatilgan shartlarga muvofiq ma'lum miqdordagi pul summasini aniq yuridik yoki jismoniy shaxsga to'lash to'g'risidagi topshiriq yozilgan hujjatdir. Pul akkreditivlari atalgan bo'lib, ular akkreditivda ko'rsatilgan summani ma'lum vaqt oralig'ida to'liq yoki qisman olish imkonini beradi; 2) korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning usuli bo'lib, ularning mohiyati shundan iboratki, to'lovchining banki to'lovni oluvchiga xizmat ko'rsatadigan bankka talab qilingan summani belgilangan muddatda to'lovchining akkreditiv qo'yish to'g'risidagi arizasida ko'zda tutilgan shartlar asosida to'lashga topshiriq beradi; bunday usul hisob-kitoblarning akkreditiv shakli deb ataladi.

2. **Aktivlar (lotincha Activus – faol, amaldagi, inglizcha Asset, Assets)** – korxonalar, firma yoki kompaniyaga tegishli bo'lgan mulklar va pul mablag'larining yig'indisi bo'lib (binolar, inshootlar, mashinalar va qurilmalar, moddiy zaxiralar, bank schyotlari, qimmatli qog'ozlar sotib olishga qilingan sarflar, patentlar, mualliflik huquqlari), ularga mulk egalarning mablag'lari qo'yiladi; pulda ifodalanadigan mulk. Aktivlar material (seziladigan), nomoddiy (sezilmaydigan, jismoniy shaklga ega bo'lmagan) aktivlarga bo'linadi. Nomoddiy aktivlarga intellektual mulklar, texnologiyalar, patentlar, boshqa korxonalarining qarz majburiyatlari; yer, suv, tog'-kon, o'rmon va boshqa resurslardan foydalanish uchun berilgan maxsus huquqlar. Korxonalar aktivlari (inglizcha enterprise's assets) tarkibiga: uzoq muddatli aktivlar (asosiy

⁹¹ Joseph Skaliger – astrolog, vrach, filolog-gumanist, tanqidchi, shoir. 23.04.1484 y. Italiyada tug'ilgan, 21.10.1558 y. Fransiyada vafot etgan.

vositalar, tugallanmagan kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar); nomaterial aktivlar; joriy aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar, debitor qarzarlar).

3. **Aksiyalar (inglizcha Shares; amer. stock; nem. Aktie gollandcha actie)** – Aksiyadorlik jamiyati tomonidan chiqarilib, muomalada bo'lish muddati ko'rsatilmagan qimmatli qog'ozlar. A. o'z egasining aksiyadorlik jamiyati kapitalida ulushi borligini tasdiqlaydi va foydaning ma'lum bir qismini dividend sifatida olishni ta'minlaydi, jamiyatni boshqarishda, foydani taqsimlashda va jamiyatni tugatish vaqtida mulklarni taqsimlashda qatnashish huquqini beradi.

4. **Aksept (lotincha acceptus – qabul qilingan, inglizcha acceptance)** – to'lovchining o'tkazma veksel (tratta)ni, to'lovga taqdim qilingan schyotni va to'lov to'g'risidagi boshqa talablarni qondirish, belgilangan muddatda to'lash majburiyati (rozilikni tasdiqlashi). Aksept to'lov-talabnoma ustiga «akseptlangan» (inglizcha accepted) degan yozuv yozish va imzo qo'yish bilan rasmiylashtiriladi. shuningdek, shartnoma tuzayotgan tomonlardan birortasini ikkinchi tomonning taklifi (oferta) bo'yicha shartnoma tuzishga roziligi ham aksept deb ataladi.

5. **Anderraiter** – Emitentning qimmatli qog'ozlarini mukofot evaziga joylashtirishni kafolatlaydigan jismoniy yoki yuridik (odatda bank) shaxsdir. Boshqa holda – sug'urta kontraktlarni tuzish uchun mas'ul shaxs.

B

6. **Bank aksepti (inglizcha banker's acceptans)** – bankning to'lov hujjatlarini to'lashga roziligi yoki ularning to'lanishini kafolatlash shakli; akseptlovchi – bankning hujjat ustiga yozuvi bilan rasmiylashtiriladi.

7. **Benefitsiar (fran.benefise-daromad, foyda)-1)** – pul to'lovini oluvchi shaxs, pul oluvchi ; 2) shaxs, pensiya oluvchi, nafaqa, hadya oluvchi shaxs.

8. **Biznes reja** – korxonaning faoliyatini amalga oshirish rejasi, dasturi; korxonona, tovar, uni ishlab chiqarish, sotish bozorlari, marketingi, operatsiyalarni tashkil etish va ularning samaradorligi to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. B.r. tadbirkorlik operatsiyalarini, ularning foydaliligini amalga oshirish bosqichlari kabi, kreditorlarni moliyaviy bitimlarning maqsadga muvofiqligiga ishonitirish dastagi sifatida ham tuziladi.

9. **Birja (nem.Borse lot. vursa-hamyon, ingl.exchange)** – doimiy faoliyat ko'rsatadigan va bir turdagi tovarlarning ulgurji bozori bo'lib, unda tovarlarning yirik partiyalari oldi-sotdisi uchun bitimlar tuziladi; keng iste'mol tovarlari ulgurji savdosining maxsus shakli.

10. **Bonus (lot. vonus-yaxshil)-1)** qo'shimcha mukofot, rag'batlantirish, to'lovlarga qo'shimcha, mukofot; 2) mahsulotning (bahosi)naxidan qo'shimcha chegirma, sotuvchi tomonidan oldi-sotdi shartnoma shartlariga asosan yoki doimiy mijozlarga.

11. **Budjet (ingl. budget)** – aynan tarjimasida – sumka (xalta) degan ma'noni anglatadi. Ko'pincha, davlat, korxonalar, muassasalar hamda ayrim shaxs (oilalar)ning ma'lum davr uchun kutilayotgan daromad va xarajatlarning taxminiy hisobi budjet deb yuritiladi. Davlat budjeti ma'lum muddat uchun tuzilgan va qonun bilan tasdiqlangan davlat daromadlari va xarajatlarning moddalariga bo'yicha ro'yxatidir. Agar davlatning xarajatlari daromadlaridan ortiq bo'lsa, budjetning taqchilligini bildiradi, aksincha bo'lsa, ijobiy qoldiqni tashkil qiladi. Ammo vaqt budjeti degan tushunchalar ham mavjud bo'lib, unda mo'ljallangan va sarflanadigan vaqt taqqoslanadi. Budjet iqtisodiy resurslar kirimi va sarflanishining muvofiqligi, muvozanatini tekshiradigan muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

12. **Budjet tizimi** – Budjet tizimi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Budjet tizimi deganda, budjet tizimini tashkil etishning prinsiplarini, uning tarkibi va unga birlashtirilgan budjetlarning o'zaro bog'liqligini tushunmoq kerak.

Budjet tizimi – bu mamlakat hududida amalda bo'lgan hamma budjetlarning yig'indisidir. Budjet tizimi davlat tizimi bilan belgilanadi. Unitar davlatlarda budjet tizimi ikki bo'g'inlik bo'lib, davlat budjeti va ko'psonli mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi. Federativ davlatlarda budjet tizimi uch bo'g'inlik bo'ladi:

1. Federal budjet, ya'ni davlat budjeti.

2. Federatsiya a'zolarining budjeti. Masalan, Rossiyada federatsiya subyektlarining budjeti, AQSHda shtatlarning budjeti.

3. Mahalliy budjetlar.

O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi respublika budjeti va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi. Mahalliy budjetlar tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat budjeti, viloyat budjetlari, Toshkent shahrining budjeti, shahar, tuman, shaharchalar va qishloq fuqarolar yig'inining budjetlari kiradi.

G

13. **Grant (inglizcha Grant)** – 1) Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni bajarish uchun puli to‘lanadigan davlat buyurtmasi; 2) Ilmiy tadqiqotlarni, olimlarni, adabiyot va san‘at asarlarining mualliflarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun xayriya tartibida ajratiladigan pul mablag‘lari; 3) Davlat budjetidan mintaqalarni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar.

D

14. **Depozit (lotinchadan aynan tarjimai «Depositum»)** – «Saqlash uchun berilgan buyum» moliya-hisob amaliyotida quyidagi ma‘nolarda ishlatiladi: 1) bankka qo‘yilgan pullar; 2) kredit muassasalariga saqlash uchun topshiriladigan qimmatli qog‘ozlar va pul mablag‘lari; 3) talab qilinadigan to‘lovni ta‘minlash uchun turli muassasalarga to‘lanadigan pul badallari; 4) mijozlarning bankka nisbatan talablarini o‘zida aks ettirgan yoki tasdiqlaydigan bank daftarlaridagi yozuvlar; 5) bojxona to‘lovlari va yig‘imlarini ta‘minlash uchun bojxona muassasalariga o‘tkaziladigan badallar; 6) sud va ma‘muriy organlarga o‘tkaziladigan pul badallari.

15. **Dotatsiya (lotincha Dotatio – hadya, ehson)** – davlat yoki mahalliy budjetdan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag‘ ajratish; iqtisodiyotga budjet orqali ta‘sir etish vositalaridan biri. Faoliyati umumdavlat ahamiyatiga molik, lekin o‘z daromadi bilan xarajatlarini qoplay olmaydigan korxonalar va tashkilotlarga davlat dotatsiya bilan madad beradi. Dotatsiya umumiy va maqsadli bo‘ladi. Umumiy dotatsiya ajratilganda mablag‘ mahalliy budjetlarga beriladi, uni ishlatish mahalliy hokimiyat ixtiyorida va unga markaz aralashmaydi. Maqsadli dotatsiya berilganda uni mo‘ljallangan maqsad uchun sarflash majburiy va buni davlat nazorat qiladi.

K

16. **Kliring (ingl. Clearing-tozalash)** – kompaniyalar, korxonalar, alohida mamlakatlar o‘rtasida yetkazib berilgan, bir-biriga sotilgan tovarlar, qimmatli qog‘ozlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lov balansi shartlaridan kelib chiqqan holda o‘zaro qarz surishish yo‘li bilan amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar. Masalan, bir tomon ikkinchisiga bir tonnasi uchun besh yuz dollardan paxta yetkazib bersa,

boshqa tomon birinchi tomonga bir donasi besh ming dollardan avtomobil yetkazib beradi. Bunda birinchi tomon ikki yuz tonna paxta, ikkinchi tomon esa yigirmata avtomobil yetkazib berganda o'zaro to'lovlar balansiga rioya qilinadi va pullik hisob-kitoblarga zarurat qolmaydi.

17. **Konsignant (inglizcha consignor)** – chet ellarda joylashgan omborlardan, konsignatsion savdo-sotiqni tashkil etish uchun topshiriq beradigan, yuridik yoki jismoniy shaxs.

18. **Konsignator (inglizcha consignee)** – chet ellarda joylashgan omborlardan, konsignatsion savdo-sotiq (tovarlarni sotishga doir oldi-sotdi ishlarini amalga oshirish bo'yicha) ishlarini tashkil etish topshirig'ini bajarish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladigan, yuridik yoki jismoniy shaxs.

19. **Konsignatsiya (lotincha consignatio yozma dalil, hujjat; inglizcha consignment)** – tovarni vositachi (konsignator)larning konsignatsion omborlari orqali sotish shakli. Bunda vositachi (konsignator)ning omboriga kelib tushgan tovarga egalik huquqi, tovar xaridorga sotilgunga qadar, mol yetkazib beruvchi (konsignant) ixtiyorida qoladi. Tovarlar omborda saqlash va sotishga tayyorlash konsignant hisobidan amalga oshiriladi. Sotish uchun kontrakt tuzilgunga qadar tovarlar omborga yetkazib beriladi. Tovarlar vositachi (konsignator) ning omborida saqlash odatda 1 yildan 1,5 yilgacha bo'lishi mumkin. Agar tovar bu davr ichida sotilmasa, u egasiga (konsignantga) uning hisobidan qaytariladi.

L

20. **Loro hisobvarag'i (ingl. loro account)** – boshqa bankning mazkur kredit muassasidagi korrespondent hisobraqami bo'lib, unda o'zaro to'lovlar aks ettiriladi. Odatda, bunday hisobvaraqni ochish chog'ida: hisobvara qanday valutada yuritilishi, to'lovlar hisobvaraqdagi mavjud summa doirasida yoki overdraft tartibida amalga oshirilishi, topshiriqlar bajarilganligi uchun foizlar va komission mukofotlar hisoblanishi ko'zda tutiladi.

N

21. **Nostro hisobvarag'i (ital. nostro conto-bizning schyot, ingl. nostro account)** – mazkur bankning korrespondent banklarda o'zaro to'lovlarni aks ettiradigan hisobvara q. Odatda, bunday hisobvara qni

ochish chog'ida: hisobvaraqq qanday valutada yuritilishi, to'lovlar hisobvaraqqdagi mavjud summa doirasida yoki overdraft tartibida amalga oshirilishi, topshiriqlar bajarilganligi uchun foizlar va komission mukofotlar hisoblanishi ko'zda tutiladi.

22. «**Nou-xou**»(inglizcha so'zma-so'z «qandayligini bilaman») – ishlab chiqarish siri – ilmiy-texnikaviy, tijorat, tashkilotchilikka oid bilimlar, tajribalar va ularga tanho ega bo'lish. U korxonaga uchun ham, shaxs uchun ham muayyan ustunlikni ta'minlaydi. «Nou-xou» patentlanmaydi, shuning uchun ham «nou-xau» bo'yicha shartnomada berilayotgan ma'lumotlar sir saqlanishi va bu shart buzilgan taqdirda ko'riladigan zararni qoplash haqida alohida band bo'ladi. Muayyan ishlab chiqarish jarayonidagi «nou-xou» u yoki bu firmaning mulki hisoblanadi va shu sababli oldi-sotdi qilinadi. Odatda, «nou-xou» tovar sifatida patentlar va litsenziyalar bilan birgalikda sotiladi, lekin «nou-xau» mustaqil sotilishi ham mumkin. «Nou-xou»ni litsenziya bilan birga sotib olish (narxi arzon bo'ladi) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish sirlarini to'laroq qo'lga kiritish, ishlab chiqarishni ishga tushirishda sotuvchi firma mutaxassislari ishtirokini osonlashtiradi.

O

23. **Obligatsiyalar (lotincha Obligatio majburiyat)** – o'z egalari bu qimmatli qog'ozda ko'rsatilgan muddat davomida vaqti-vaqti bilan (obligatsiyalar bo'yicha to'lovlar, kupon to'lovlari) yoki bir martalik (yutuq summasi) to'lovlarni va obligatsiyalarning muomalada bo'lish muddati tugaganidan so'ng esa ularning qiymatini olish huquqini kafolatlaydigan qimmatli qog'ozdir. Obligatsiyalar ularning egalari tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotib olganligi uchun pul mablag'lari to'langanligini va shu bilan birga ularni qarz majburiyati sifatida ko'rsatishga haqli ekanligini tasdiqlaydi. Obligatsiyani chiqargan tashkilot uning nominal qiymatini ko'rsatilgan muddatda to'lashi lozim. Bunday to'lash obligatsiyalarni qoplash deb ataladi. Obligatsiyalarni davlat, mahalliy hukumat, korxonalar, kompaniyalar, korporatsiyalar turli muddatlarga chiqarish huquqlariga ega.

24. **Opsion – (nemischa Option, lotincha Optio – tanlash)** – biror-bir qimmatbaho qog'ozlar yoki tovarlarni muayyan davr davomida belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqi. Haq to'lab olinadi. Fyuchers opsion birja bitishuvi turlaridan biri, tovarni keyinchalik birjada qayta sotish maqsadida xarid qilish.

R

25. **Remitent** (lot.*remitto-jo'nataman*) – vekselning birinchi egasi.

S

26. **Subvensiya** (inglizcha *Subvention*, lotincha *Subvenire yordamga kelish*) – ma'lum obyektни, tadbirni mablag' bilan ta'minlash uchun markaziy organlar tomonidan beriladigan pullik nafaqa. Subvensiyani o'z maqsadida ishlatishga rioya qilinmasa, uni bergan organ tomonidan qaytarib olinadi.

27. **Subsidiya** (inglizcha *Bounty*, lotincha *Subsidium yordam, qo'llab-quvvatlash*) – jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga va xorijiy davlatlarga davlat budjeti, mahalliy budjet yoki maxsus fondlar mablag'lari hisobidan pul yoki natura shaklida beriladigan nafaqa. Subsidiya dotatsiya singari takrorlanmay, faqat bir marta qaytarib olmaslik yoki qaytarib olish sharti bilan beriladi.

F

28. **Forvard bitimlari** – bitim tuzilgan vaqtda amal qilayotgan baho bo'yicha tovarni yetkazib berish va uning qiymatini kelgusida to'lash oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar. Forvard bitimlarining fyuchers bitimlaridan farqi birjadan tashqarisida tuzilishidan iborat bo'lib, ularning hajmi standartlashtirilmagan, bitim ishtirokchilari esa nafaqat baho o'zgarishlarini sug'urtalash, balki tovarning o'zini, bitim predmetini olishni ham ko'zlaydi. Shuning uchun forvard bozorida bitimlar ulushi nisbatan katta bo'lib, ular bo'yicha mol yetkazib berish haqqoniy amalga oshiriladi, spekulyativ bitimlar ulushi yuqori emas.

29. **Fyuchers bitimlari, fyucherslar** (ingl. *futures – tovarlarni sotishga oldindan tuzilgan bitimlar*) – xomashyo tovarlarining (shu jumladan, hali ishlab chiqarilmagan namunalari), oltin, valuta, qimmatli qog'ozlarni bitim tuzilgan vaqtdagi bahosi bo'yicha yetkazib berish va kelgusida pulini to'lash uchun tuzilgan bitimlar

X

30. **Xedjirlash** – sug'urtalash, shartnoma tuzish chog'ida tovarlar uchun belgilangan bozor baholarining o'zgarishi natijasida xaridorlar yoki sotuvchilar uchun yo'qotish risklarini pasaytirish.

H

31. **Hujjatli inkasso** – tijorat hujjatlari, masalan, hisobvaraqa, transport va sug'urta hujjatlari bilan birgalikda qo'yiladigan moliyaviy hujjatlar inkassosi hamda faqat tijorat hujjatlari inkassosi.

CH

32. **Chek (ingl. Cheque, amerika Chek)** – qimmatli qog'ozlarning ko'p tarqalgan turlaridan biri bo'lib, belgilangan shakldagi pul hujjati ko'rinishiga egadir. Chek o'zining mohiyatiga ko'ra chek beruvchi (chek yozib beruvchi shaxs)ning bankka yoki boshqa kredit muassasasiga chekni taqdim etuvchi (chek berilgan shaxs)ga chekda ko'rsatilgan summani so'zsiz to'lash to'g'risidagi farmoyishi yoki buyrug'idir. Bu summaga chek beruvchining bankdagi schyoti kamaytirilib, bank tomonidan ushbu summa chek taqdim etuvchining hisob raqamiga o'tkaziladi yoki bevosita naqd pul bilan beriladi. Bunday muomala chek beruvchi va bank o'rtasida tuzilgan chek shartnomasida oldindan ko'zda tutiladi. Bank cheklarni chek beruvchiga qarz hisobidan ham to'lashi mumkin. Cheklar belgilangan muddat ichida haqiqiydir. Banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar uchun bank cheklaridan foydalaniladi.

E

33. **Emissiya (lotinchadan - Emissio – chiqarish)** – barcha ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar va pul belgilarini muomalaga chiqarish. Pul emissiyasi deyilganda nafaqat pul belgilarini bosib chiqarish, balki muomaladagi barcha naqd pul va naqd pulsiz massaning ko'payishi tushuniladi.

34. **Emitent** – pul belgilari, qimmatli qog'ozlar yoki to'lov-hisoblashuv hujjatlarini muomalaga chiqaruvchi shaxs.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, –T.: «O'zbekiston» 2003.-40 b.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси, –T.: «Адолат», 2007 й. -520б.
3. Маҳсулот (ишлар ва хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажаларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом, Тошкент 2007 й., 32 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Банк тизимини янада ривожлантириш ва бўш пул маблағларини банк айланмасига жалб этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2007 йил, 7 ноябр.
5. Каримов И.А. Қишлоқ хўжалигини юксалтириш – халқ фаровонлигининг манбаидир. Олий Мажлиснинг X сессиясида сўзланган нутқи. Халқ сўзи рўзномаси. 26 декабр 1997.
6. Каримов И.А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида. Т.: «Ўзбекистон», 2005,-528 б.
7. Каримов И.А. Демократик ҳуқуқий давлат, эркин иқтисодиёт талабларини тўлиқ жорий этиш, фуқаролик жамияти асосларини қуриш-фаровон ҳаётимиз гаровидир. Тошкент «Ўзбекистон», 2007.-64б.
8. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. “Ўзбекистон“, 2009, -56 б.
9. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси:Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь.-Тошкент.:”Ўзбекистон”, 2010.-56б.
- 10.Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. 2012-йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ҳамда 2013-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг енг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Маърифат газетаси. 2013 й.19 январ 6 бет, №6.
- 11.Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденциялар

- ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. –Т. “O‘zbekiston”, 2011. -140 б.
12. Буюк ва мукаддасан, мустақил Ватан. масъул ижодий гуруҳ А.Ш.Бекмуродов (ва бошқ). – Т “O‘qituvchi” НМИУ, 2011. -200.6
13. Маликов Т.С. Молия: хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009, -288 бет.
14. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O‘quv qo‘llanma. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2010. – 660 б.
15. Маликов Т.С., Ваҳобов Д.Р. Молия: чизмаларда. Ўқув қўлланма. – Т.: “Iqtisod-moliys”, 2010. – 660 б.
16. Маликов Т.С., Ҳайдаров Н.Ҳ. МОЛИЯ: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. -556 б.
17. Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. – Т.: “Адолат”, 2003. -280 б.
18. Темур тузуқлари, /Таҳрир хайъати: Б. Абдуҳалимов ва бошқ. Форсча матндан А. Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж. -Тошкент: Ўзбекистон, 2011, -184 б.
19. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Давлат илмий нашриёти, Тошкент, 2005.
20. Ўзбекистон Республикаси Банклари томонидан фермер хўжалиklarини қўллаб-қувватлашга оид қонунчилик ҳужжатлари. Тошкент – 2004.
21. Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси, Тошкент «Шарқ» - 2006, -448 б.
22. Фермерлик фаолиятининг ҳуқуқий ва иқтисодий асослари, Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. -240 б.
23. Финансы сельскохозяйственных предприятий. Под редакцией проф. М.Л.Лишанского.-М.:КолосС, 2004.-376с.
24. Финансы. Под ред. акад. Г.Б.Поляка, Москва, «ЮНИТИ», 2004, 607 с.
25. Ҳайдаров Н. Молия. Т.: «Академия» нашриёти. 2001.-70 б.
26. Ҳасанов Б.А., Ҳашимов А.А. Бошқарув ҳисобида бюджетлаштириш. Тошкент- “Ўқитувчи”-2004,-100 б.
27. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi.
28. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Me`yoriy hujjatlar bazasi portali
29. www.cer.uz – Iqtisodiy izlanishlar markazi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BO'LIM. MOLIYANING NAZARIY ASOSLARI	
I bob. Moliyaning vujudga kelishi, mohiyati va iqtisodiy tizimdagi o'rni.....	6
1.1. Moliyaning vujudga kelishi va tovar-pul munosabatlari rivojlanishi jarayonidagi evolutsiyasi.....	6
1.2. Moliyaning mohiyati va funksiyalari.....	14
1.3. Yalpi ichki mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayonida moliyaning roli.....	17
1.4. Moliyaviy resurslarning shakllanishi.....	25
1.5. Moliya tizimi va uning tarkibi.....	29
1.6. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining bo'g'inlari va sferalari.....	31
<i>Nazorat savollari.....</i>	<i>36</i>
<i>Nazorat testlari.....</i>	<i>37</i>
II bob. Budjet, budjet tuzulmasi va tizimi, davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlari.....	39
2.1. Budjetning ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	39
2.2. Budjetga doir asosiy tushunchalar ta'rifi.....	49
2.3. Budjet tizimi, uning asosiy tamoyillari va tarkibiy qismlari....	51
2.4. Budjet huquqi.....	56
2.5. Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari	57
2.6. Budjet klassifikatsiyasi.....	60
2.7. Davlat budjetini tayyorlash, ko'rib chiqish va qabul qilish tartibi.....	61
2.8. Davlat budjetining ijrosi va uning ijrosi to'g'risidagi hisobot..	64
2.9. Davlat krediti.....	66
<i>Nazorat savollari.....</i>	<i>70</i>
<i>Nazorat testlari.....</i>	<i>71</i>
II BO'LIM. AGRAR KORXONALAR MOLIYASI	
III bob. Agrar korxonalar moliyasining umumiy tavsifi va uni tashkil etish asoslari.....	76
3.1. Agrar korxonalar moliyasining mohiyati va funksiyalari.....	76
3.2. Agrar korxonalar moliyasini tashkil etish tamoyillari.	84
3.3. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari va ularning korxonalar moliyasini tashkil etishga ta'siri.	87

3.4. Agrar korxonalarda bajariladigan moliyaviy ishlarning mazmuni va vazifalari.	89
3.5. Moliyaviy menejment haqida tushuncha.....	91
3.6. Agrar sektorga qarashli budjet muassasalarining moliyasini tashkil etish asoslari.	96
3.7. Korxonaning moliyaviy mexanizmi.....	100
<i>Nazorat savollari</i>	102
<i>Nazorat testlari</i>	102
IV bob. Pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni tashkil etish.....	105
4.1. Qishloq xo‘jalik korxonalarida pul mablag‘larini tashkil etish.....	105
4.2. Qishloq xo‘jalik korxonalarining banklarda hisobvaraqlar ochishi, yopishi va qayta rasmiylashtirishi.....	109
4.3. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari.....	116
4.3.1. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari, ularni tashkil etishning umumiy qoidalari va ahamiyati.....	116
4.3.2. To‘lov topshiriqnomalari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar.....	119
4.3.3. To‘lov talabnomalari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar..	121
4.3.4. Akkreditivlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar.....	125
4.3.5. Inkasso topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.....	130
4.3.6. Tijorat bankining hisob-kitob cheklari bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.....	133
4.3.7. Memorial orderlar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar	136
4.3.8. Plastik kartochkalar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.....	137
4.4. Naqd pul bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.....	141
4.5. Qishloq xo‘jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob – kitoblarini tashkil etish xususiyatlari.....	150
4.6. Qishloq xo‘jalik korxonalarida moliyaviy bitimlar.....	157
4.7. Eksport-import operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblar.....	162
4.8. Pul mablag‘lari va hisob-kitoblarni tashkil etishga doir tezkor tadbirlar.....	172
<i>Nazorat savollari</i>	174
<i>Nazorat testlari</i>	175
V bob. Agrar korxonalarining xarajat va daromadlari, foyda va rentabelligi.....	178

5.1. Agrar korxonalar faoliyatining daromadlari va moliyaviy natijalari.....	178
5.2. Asosiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy natijalarni shakllantirish.....	183
5.2.1. Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishdan olinadigan sof pul kirimlari va asosiy faoliyatining boshqa daromadlari.....	183
5.2.2. Mahsulotlar ishlab chiqarish, ish va xizmatlar bajarish, davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa xarajatlari.....	192
5.2.3. Mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarishning moliyaviy natijalari.....	201
5.2.4. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi, soliq to'lanishiga qadar bo'lgan foyda va sof foydani shakllantirish hamda taqsimlash mexanizmi.....	207
5.3. Agrar sektorning har xil tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarida daromadlarning shakllanishi va foydani taqsimlash (zararlarni qoplash) xususiyatlari.....	215
5.4. Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini rejalashtirish....	217
5.5. Daromadlarni shakllantirish va foydani ishlatishga doir tezkor ishlar.....	223
5.6. Agrar korxonalar daromadlarini va rentabelligini oshirish imkoniyatlari.....	226
<i>Nazorat savollari</i>	234
<i>Nazorat testlari</i>	235
VI bob. Agrar korxonalar aylanma kapitalini tashkil etish va undan foydalanish	238
6.1. Aylanma kapital, uning mohiyati va korxonaning ishlab chiqarish – tijorat faoliyatidagi roli.....	238
6.2. Aylanma kapitalni tashkil etish.....	243
6.2.1. Agrar korxonalarining aylanma aktivlari va ularning tarkibi..	246
6.2.2. Aylanma aktivlarning manbalari, ularning tarkibi va tuzilishi.....	252
6.2.3. Aylanma aktivlarni moliyalashtirish strategiyasi.	259
6.3. Aylanma kapitalni rejalashtirish.....	268
6.4. Aylanma kapitalni tashkil etishga doir tezkor tadbirlar.....	288
<i>Nazorat savollari</i>	294
<i>Nazorat testlari</i>	295
VII bob. Agrar korxonalar faoliyatini qisqa muddatli kreditlash	299

7.1. Agrar korxonalar faoliyatini moliyaviy ta'minlashda qisqa muddatli kreditlarning ahamiyati.....	299
7.2. Agrar korxonalarni kreditlash jarayonining mazmuni va umumiy tartibi.....	302
7.3. Fermer xo'jaliklari faoliyatini kreditlash tartibi va xususiyatlari.....	314
7.4. Kredit shartnomalarining bajarilishi ustidan bank nazorati....	334
7.5. Agrar korxonalarni qisqa muddatli kreditlashni takomillashtirish.....	335
<i>Nazorat savollari</i>	339
<i>Nazorat testlari</i>	339
VIII bob. Agrar korxonalar investitsiya faoliyatining moliyaviy mexanizmi	344
8.1. Agrar korxonalarda investitsiyalar, ularning turlari va moliyalashtirish manbalari.....	344
8.2. Agrar sektorda kapital qo'yilmalar va ularning turkumlanishi	354
8.3. Investitsiya loyihalarini baholash usullari va qarorlar qabul qilish.....	357
8.4. Qurilishning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shartnoma baholarini shakllantirish.....	363
8.5. Agrar korxonalarda kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va kreditlash mexanizmi.....	370
8.6. Investitsiyalar bilan bog'liq risklarni sug'urtalash.....	379
8.7. Agrar korxonalarni lizing asosida investitsiyalash.....	381
8.8. Asosiy vositalar ta'mirini moliyalashtirish.....	386
8.9. Investitsiyalashga doir tezkor tadbirlar.....	388
<i>Nazorat savollari</i>	392
<i>Nazorat testlari</i>	393
IX bob. Agrar korxonalarda moliyaviy rejalashtirish va biznes-reja tuzish	395
9.1. Moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati, asosiy tamoyillari va bosqichlari.....	395
9.2. Moliyaviy rejani tuzish tartibi.....	399
9.3. Moliya xizmatining nazorat-tahlil va tezkor tadbirlari.....	423
<i>Nazorat savollari</i>	427
<i>Nazorat testlari</i>	428

III BO'LIM. UY XO'JALIKLARI MOLIVASI

X bob. Uy xo'jaliklari molivasi.....	429
10.1. Oilaviy xo'jaliklari molivasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari.....	430
10.2. Oilaviy xo'jaliklarining molivaviy resurslari va oila budjeti..	434
10.3. Oilaviy xo'jaliklarining daromadlari va ularning tarkibi.....	439
10.4. Oilaviy xo'jaliklarining pul xarajatlari va ularning tarkibi....	450
<i>Nazorat savollari.....</i>	<i>456</i>
<i>Nazorat testlari.....</i>	<i>457</i>
Darslikda uchraydigan ayrim murakkab atamalarning izohli lug'ati.....	460
Foydalanilgan adabiyotlar	468

R.D.DUSMURATOV

MOLIYA

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2013

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	B.Basritdinov
Musahhih:	F.Ismoilova
Kompyuter sahifalovchi:	N.Hasanova

E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 13.11.2013.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 29,0. Nashriyot bosma tabog'i 29,5.

Tiraji 200 Buyurtma №837 P

Отпечатано ООО «Ишонч»

г. Ташкент, ул. Таксикбаева, 2-11-112



Dusmuratov Radjapbay Davlatbayevich – iqtisod fanlari doktori, professor, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi a’lochisi”, O‘zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi faxriy a’zosi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti

boshqarmasi uslubiy kengashi a’zosi, Birlashgan millatlar tashkilotining Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturi hamda AQSh xalqaro rivojlantirish agentligining O‘zbekistondagi Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi, moliya va kredit tizimlarini takomillashtirishga oid loyihalarining faol ishtirokchisi. U 160 dan ortiq ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlar muallifi. Shundan 7 ta ilmiy monografiya, 10 ta darslik va o‘quv qo‘llanmalar, 8 ta ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, 100 dan ortiq ilmiy maqola va ma’ruza tezislari. Isroil, Germaniya, Rossiya va Ukraina davlatlarining yetakchi universitetlari va ilmiy markazlarida malaka oshirgan.



9789943426139